O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RESPUBLIKA

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

“IQTISODIYOT NAZARIYASIDAGI G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI: ILMIY QARASHLAR VA USTUVOR TAMOYILLAR”

2026-yil 7-may

2-QISM

TASHKILOTCHILAR:
TDIU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi
Ilmiy kengash hamkorligida

“IQTISOD-MOLIYA” NASHRIYOTI

TOSHKENT — 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“IQTISODIYOT NAZARIYASIDAGI G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI: ILMIY QARASHLAR VA USTUVOR TAMOYILLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konfernsiya materiallari

TO‘PLAMI

2-qism

2026-yil 7-may

TOSHKENT-2026

УДК 330.8

“Iqtisodiyot nazariyasidagi g‘oyalar evolyutsiyasi: ilmiy qarashlar va ustuvor tamoyillar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (2-qism). – T., 2026.

Ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi”ning ustuvor vazifalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori doirasida iqtisodiy va institutsional o‘zgarishlarning ustuvor yo‘nalishlari hamda sun’iy intellekt, “yashil” va raqamli iqtisodiyot g‘oyalarini amaliyotga joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot natijalari keng yoritilgan. To‘plamda keltirilgan ilmiy maqolalar zamonaviy iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish, iqtisodiyot nazariyasi sohasida yangi bilimlarni shakllantirish va milliy rivojlanish strategiyalari samaradorligini oshirish bilan bog‘liq dolzarb muammolarni qamrab olgan bo‘lib, tadqiqotchilar, professor-o‘qituvchilar, magistrantlar va iqtisodiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami amaliyotchilar, professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar, tadqiqotchilar, magistrlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

Tahrir hay’ati raisi:
T.Z. Teshabayev – i.f.d., professor.
Tahrir hay’ati a’zolari:
S.U. Mexmonov – i.f.d., professor;
G.K. Abduraxmanova – i.f.d., professor;
G‘.A. Safarov – i.f.d., professor;
X.S. Asatullayev – i.f.d., professor;
T.T. Djurayev – i.f.d., professor;
A.A. Mamatov – i.f.d., professor;
N.I. Xasanxonova – i.f.d., professor;
J.Y. Nurillayev – i.f.n., professor;
U.Dj. Zaynutdinova– i.f.n., professor;
Z.G. Allaberganov – dotsent;
A.R. Ulashov – katta o‘qituvchi.
Taqrizchilar:
D.Tadjibayeva – i.f.d., professor.
E.Sh.Shadmanov – i.f.d., professor.

Matnlarda foydalanilgan manbalar va ma’lumotlar aniq hamda haqiqiyligiga mualliflarning o‘zi javobgardir.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
rektori, i.f.d., professor Teshabayev To‘lqin Zakirovich

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, ustozlar, hamkasblar va talabalar! “Iqtisodiyot nazariyasidagi g‘oyalar evolyutsiyasi: ilmiy qarashlar va ustuvor tamoyillar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya qatnashchilari!!!

Sizlarga ma’lumki, ko‘z o‘ngimizda insoniyatning bugungi iqtisodiy tafakkuri, ilmiy qarashlari va erishgan nazariy yutuqlari bir necha ming yillar davomida shakllangan bilimlar evolyutsiyasining pirovard samarasi hisoblanadi. Asrlar davomida iqtisodchilar o‘zlarining aql-idroki, tafakkuri va ilmiy mehnati bilan buyuk nazariy kashfiyotlarni amalga oshirdi va ularni amalda keng tatbiq etish orqali xalqlar farovonligini ta’minlamoqda. Iqtisodiy tafakkurning fundamental asoslari Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz Al-Farg‘oniy, Al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Xaldun tomonidan yaratildi. XIX asr o‘rtalaridan A.Smit, D.Rikardo, K.Marks asarlari asosida klassik iqtisodiyot maktabi Yevropada rivojlandi. XX asrda J.Keyns, M.Fridman, P.Samuelson kabi olimlarning nazariyalari dunyo iqtisodiy fanini tubdan yangiladi. Xo‘sh, bunday nazariy taraqqiyot, g‘oyalar va maktablarning evolyutsiyasi zamonaviy iqtisodiy siyosat va amaliyotni qay darajada o‘zgartirdi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev butun ilmiy hamjamiyat e’tiborini ushbu dolzarb masalaga qaratdi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston YaIM hajmi 2024-yilda 115 milliard dollardan oshib, iqtisodiy o‘sish sur’ati 6,5 foizni tashkil etdi. Bu Markaziy Osiyo mintaqasida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Yangi O‘zbekiston 2030” strategiyasi iqtisodiy va institutsional islohotlarning puxta yo‘lxaritasini belgilab berdi. Qayd etilganidek, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida Jahon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, jahon YaIMi 2023-yilda 100 trillion dollar chegarasiga yetdi. Ammo shu bilan birga, iqtisodiy tengsizlik muammosi yanada keskinlashmoqda: G20 tomonidan tashkil etilgan Nobel sovrindori J.Stiglits boshchiligidagi ekspertlar guruhining 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha eng badavlat 1 foiz aholi 2000-2024 yillar oralig‘ida yaratilgan barcha yangi boylikning 41 foizini o‘zlashtirdi. Bu holat A.Sen va J.Stiglitsning tengsizlik nazariyasida asoslangan tizimli ziddiyatning bugungi kundagi jonli ifodasidir.

Shiddat bilan yangilanib va o‘zgarib borayotgan bugungi davrda sun’iy intellekt, “yashil” va raqamli iqtisodiyot g‘oyalariga asoslangan yangi iqtisodiy paradigmaga o‘tish muhim ilmiy va amaliy ehtiyojga aylandi. UNCTAD ning 2023-yilgi statistika ma’lumotnomasi shuni ko‘rsatmoqdaki, global YaIM o‘sishi 2022-yildagi 3,1 foizdan 2023-yilda 2,2 foizga sekinlashdi. Shu bilan birga, 2023-yilda moddiy aktivlarga investitsiyalar bilan solishtirganda, nomoddiy aktivlarga xususan, dasturiy ta’minot, ma’lumotlar, patentlangan texnologiyalarga investitsiyalar uch baravar tezroq o‘sib, 6,9 trillion dollarga yetdi. Bu raqamli iqtisodiyotning global

iqtisodiy tafakkurni tubdan qayta shakllantirishi kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, IMFning rasmiy "World Economic Outlook" hisobotiga ko‘ra, COVID-19 pandemiyasi jahon iqtisodiyotini 2020-yilda 3,3 foizga qisqartirdi – bu 1930-yillar Buyuk turg‘unligidan keyingi eng katta tanazzul hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiy etgan sari iqtisodiy qaror qabul qilishning roli va ahamiyati ortib boradi. Bir tomondan, uning nufuzli oqimlaridan biri bo‘lgan institutsional iqtisodiyotning vujudga kelishi uni hatto alohida kurs, qolaversa, fan sifatida o‘rganilishiga olib keldi. Ikkinchi tomondan, qaror qabul qilish va buning uchun tanlovning ahamiyati ortishiga sabab bo‘ldi. Chunki qaror qabul qilish uchun tanlash zarur. Insonning tanloviga esa nafaqat iqtisodiy, balki noiqtisodiy omillar ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Buni dastlab iqtisodchilar va mantiqshunoslar tan olib, e’tirof etdilar. Natijada insonlarning tanlovi va qaror qabul qilishida psixologik omillarning roli hamda ahamiyatini o‘rganishga psixolog olimlar alohida e’tibor qaratdilar. Oqibatda, G. Saymonning “cheklangan ratsionallik”, Daniel Kahnemanning “istiqbol nazariyasi” hamda Richard Thalerning “turtki berish” nazariyalari yaratildi. Ularning asoschilari esa iqtisodiyot yo‘nalishida Nobel Memorial Prize in Economic Sciences sovrindorlari bo‘ldilar.

Umuman olganda, iqtisodiyot nazariyasidagi g‘oyalar evolyutsiyasini chuqur o‘rganish, O‘rta Osiyo iqtisodiy maktabining o‘ziga xos ilmiy merosini tiklash va zamonaviy talqinlarga moslashtirish hamda Nobel sovrindorlarining asosiy nazariyalarini milliy rivojlanish modeliga tatbiq etish milliy iqtisodiyotimizning ustuvor sohalarini isloh qilish, aholi turmush farovonligini sifat jihatdan yaxshilash va “Yangi O‘zbekiston 2030” strategiyasining maqsadlariga erishishga bevosita xizmat qiladi.

“Iqtisodiyot nazariyasidagi g‘oyalar evolyutsiyasi: ilmiy qarashlar va ustuvor tamoyillar” mavzusidagi ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ishtirokchilari ya’ni ilm-ma’rifat va ziyo tarqatuvchi siz olimlar, tadqiqotchilar oldida yuqorida ta’kidlangan nazariy va amaliy masalalarni ochiq ilmiy muloqot tarzida muhokama qilish hamda tegishli ilmiy xulosalar berish vazifasi turadi, deb o‘ylayman. Konferensiya ishtirokchilariga yana bir bor o‘zimning samimiy minnatdorchiligimni bildiraman va siz olimlar o‘z tadqiqotlari, ilmiy tajribalari bilan o‘rtoqlashib, mazkur yo‘nalishda amaliy tavsiya hamda ilmiy xulosalarini baham ko‘rishlariga umid qilaman.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori!!!

6-YO‘NALISH. YANGI O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLARNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

YANGI O‘ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASIDA IQTISODIY ISLOHOTLAR G‘OYASINING TARIXIY ILDIZLARI VA FALSAFIY ASOSLARI

Oblomuradov Naim Xalimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
tarix fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur tezisda Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasida ilgari surilgan iqtisodiy islohotlar g‘oyasining tarixiy ildizlari va falsafiy asoslari tahlil qilingan. O‘zbekistonda iqtisodiy yangilanish jarayonining mustaqillikning dastlabki bosqichidan bugungi taraqqiyot davrigacha bo‘lgan evolyutsiyasi yoritilgan. Strategiyada aks etgan institutsional yangilanish, inson qadri, ijtimoiy adolat va samaradorlik tamoyillari tarixiy hamda nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning davlat va jamiyat munosabatlarini modernizatsiya qilishdagi o‘rni yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasi, iqtisodiy islohotlar, tarixiy taraqqiyot, institutsional o‘zgarishlar, inson qadri, ijtimoiy adolat, taraqqiyot falsafasi, modernizatsiya.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichi mamlakatimiz tarixida iqtisodiy islohotlarni yangi mazmun bilan boyitgan davr sifatida namoyon bo‘ldi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida barqaror iqtisodiy o‘sish, aholi farovonligini oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish hamda adolatli ijtimoiy siyosatni ta’minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilandi [1]. Shu jihatdan mazkur strategiya alohida siyosiy-huquqiy hujjat bo‘lish bilan birga, mustaqillik yillarida shakllangan iqtisodiy islohotlar tafakkurining mantiqiy davomi hamdir. Uning mazmunida tarixiy tajriba, zamonaviy boshqaruv yondashuvi va inson manfaatini ustuvor qo‘yuvchi falsafiy qarashlar o‘zaro uyg‘unlashgan.

Iqtisodiy islohotlar g‘oyasining tarixiy ildizlari O‘zbekistonning mustaqillikdan keyingi taraqqiyot yo‘li bilan uzviy bog‘liq. Dastlabki davrda iqtisodiy yangilanishlar bosqichma-bosqichlik, kuchli ijtimoiy himoya va davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli asosida olib borildi. Bu yondashuv keskin iqtisodiy larzalarning oldini olish, jamiyatda barqarorlikni saqlash va bozor munosabatlariga izchil moslashish uchun tarixiy zarurat edi [3]. Mazkur bosqichda iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi tizimni izdan chiqarmasdan turib yangi xo‘jalik yuritish mexanizmlarini shakllantirishdan iborat bo‘ldi. Keyingi davrda esa iqtisodiy islohotlar mazmuni sezilarli ravishda kengaydi. Endilikda masala faqat mulkchilik shakllarini o‘zgartirish yoki bozor mexanizmlarini joriy etish bilangina cheklanmay, balki samarali institutlarni yaratish, boshqaruvni ochiqlashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish va inson kapitaliga tayanadigan rivojlanish modelini qaror toptirishga ko‘chdi [4]. Demak, iqtisodiy islohotlar evolyutsiyasi tashkiliy tadbirlar majmuidan taraqqiyot konsepsiyasiga aylanganini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasining falsafiy asosi, avvalo, insonni iqtisodiy siyosat markaziga qo‘yish tamoyilida namoyon bo‘ladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida belgilangan [2]. Mazkur norma iqtisodiy siyosatning maqsadini faqat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirish bilan chegaralab qo‘ymaydi. Aksincha, davlat faoliyati inson sha’ni, huquqi, erkinligi va farovonligiga xizmat qilishi kerakligini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi. Shu bois Yangi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy islohotlar “davlat uchun iqtisodiyot” emas, balki “inson uchun iqtisodiyot” tamoyili asosida talqin etilmoqda [1]. Bu yondashuv iqtisodiy taraqqiyotning mohiyatini boylik yaratish bilangina emas, balki uning ijtimoiy mazmuni, taqsimot adolati va insoniy rivojlanishga ta’siri bilan birgalikda baholash zarurligini anglatadi.

Mazkur strategiyada institutsional yangilanish masalasi ham markaziy o‘rin egallaydi. Chunki iqtisodiy rivojlanish faqat investitsiya hajmi yoki resurslar ko‘lami bilan emas, balki ular qanday ijtimoiy-siyosiy institutlar orqali boshqarilishi bilan belgilanadi. Shu ma’noda strategiyada nazarda tutilgan samarali davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi, xususiy mulk daxlsizligi, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va hududlar iqtisodiy faolligini oshirish choralari iqtisodiy taraqqiyotning institutsional asoslarini mustahkamlashga qaratilgan [4]. Tarixiy nuqtayi nazardan qaralganda, bu o‘zgarishlar avvalgi davrlardagi ma’muriy-buyruqbozlik usullaridan bosqichma-bosqich voz kechib, javobgarlik, hisobdorlik va samaradorlikka asoslangan boshqaruv madaniyatiga o‘tishni anglatadi. Shunday ekan, institutsional islohotlar strategiyaning qo‘shimcha elementi emas, balki uning ichki tayanch mexanizmi hisoblanadi.

Tarixiy va falsafiy jihatdan muhim masalalardan yana biri islohotlar va milliy taraqqiyot modeli o‘rtasidagi nisbatdir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, modernizatsiya tashqi andozalarni ko‘r-ko‘rona ko‘chirish emas, balki milliy tarix, davlatchilik an’analari va jamiyat ehtiyojlariga mos shaklda amalga oshirilgandagina samarali bo‘ladi. Zero, Yangi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy islohotlar tarixiy xotira, milliy o‘zlik, izchillik, amaliy natijadorlik va yangilanish tamoyillari bilan uyg‘un holda namoyon bo‘lmoqda [5]. Shu jihatdan iqtisodiy siyosat texnik boshqaruv vositasi bo‘lib qolmay, balki milliy uyg‘onish va ijtimoiy yangilanishning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bu esa islohotlarning legitimligini kuchaytiradi, chunki ular jamiyatning tarixiy xotirasi va zamonaviy rivojlanish ehtiyojlari bilan bir vaqtda bog‘lanadi.

Iqtisodiy islohotlarning falsafiy asosida adolat tushunchasi ham alohida o‘rin tutadi. Bozor munosabatlari o‘z-o‘zicha adolatni ta’minlamaydi. Ular samaradorlikni oshirishi mumkin, biroq teng imkoniyat, ijtimoiy himoya va hududlararo muvozanat mexanizmlari bilan uyg‘unlashmasa, tafovutlarni kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Shu bois “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni oshirish, ta’lim va tibbiyot sifatini yaxshilash, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirish kabi vazifalar ham ustuvor yo‘nalish sifatida ilgari surilgan. Bu hol strategiyaning falsafiy negizida utilitar foyda emas, balki inson qadrini ulug‘lash,

ijtimoiy adolatni ta’minlash va barqaror taraqqiyotga erishish g‘oyasi yotganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasida iqtisodiy islohotlar g‘oyasi chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, u mustaqillik yillarida shakllangan iqtisodiy yangilanish tajribasining yangi bosqichdagi davomi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning falsafiy asosini inson qadri, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, milliy manfaat, tarixiy vorislik va samarali institutlar tamoyili tashkil etadi. Mazkur strategiyaning ilmiy mohiyati shundaki, u iqtisodiy rivojlanishni faqat ko‘rsatkichlar o‘sishi bilan emas, balki jamiyatning sifat jihatdan yangilanishi bilan bog‘laydi. Demak, iqtisodiy islohotlarning tarixiy ahamiyati ularning davlat va jamiyat munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishida, falsafiy ahamiyati esa taraqqiyotning insonparvar va adolatli modelini qaror toptirishida ko‘rinadi.

Mazkur tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalar va dolzarb takliflarni ilgari surish mumkin. *Birinchidan,* iqtisodiy islohotlarning barqarorligi ularning tarixiy vorislik, milliy tajriba va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘unligiga bog‘liq. *Ikkinchidan*, strategiyaning muvaffaqiyati iqtisodiy qarorlarning son jihatidagi ko‘rsatkichlari bilangina emas, balki institutsional sifat, boshqaruv madaniyati va ijtimoiy adolat mezonlari bilan ham baholanishi zarur. *Uchinchidan,* Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelida inson qadri iqtisodiy siyosatning natijasi emas, balki uning bosh mezoni sifatida qaralishi lozim. *To‘rtinchidan,* iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi faqat normativ-huquqiy yangilanish bilan emas, balki iqtisodiy tafakkur, boshqaruv amaliyoti va jamoatchilik ishtirokining yangilanishi bilan ta’minlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, *birinchidan,* “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi iqtisodiy islohotlarning tarixiy-mantiqiy evolyutsiyasini muntazam o‘rganadigan maxsus ilmiy-tahliliy tadqiqot yo‘nalishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu kelgusida islohotlarning nazariy modelini yanada boyitadi. *Ikkinchidan*, iqtisodiy va institutsional islohotlarning samaradorligini faqat iqtisodiy o‘sish sur’atlari bilan emas, balki hududiy tenglik, kambag‘allik qisqarishi, ijtimoiy mobillik va fuqarolarning davlatga ishonchi kabi ko‘rsatkichlar asosida kompleks baholash tizimini takomillashtirish zarur. *Uchinchidan,* oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot tizimida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modeli, iqtisodiy islohotlar falsafasi va institutsional modernizatsiya masalalariga bag‘ishlangan maxsus kurslar hamda ilmiy loyihalarni kengaytirish lozim. *To‘rtinchidan,* iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda hududiy tarixiy tajriba, mahalliy ijtimoiy muhit va madaniy omillarni chuqur hisobga oladigan differensial yondashuvni kuchaytirish zarur. Ana shundagina strategik maqsadlar real natijaga, iqtisodiy islohotlar esa jamiyat hayotini sifat jihatdan yangilovchi omilga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. URL: https://lex.uz/docs/6600413

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel. URL: https://lex.uz/docs/6445145

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent: O‘zbekiston, 2022. 416 b.

4. Faxriyev D.E. O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan davrdagi rivojlanish strategiyasi va uni amalga oshirish bosqichlari. 2024. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonning-2030-yilgacha-bo-lgan-davrdagi-rivojlanish-strategiyasi-va-uni-amalga-oshirish-bosqichlari

5. Mirziyoyev Sh.M. Qudratli kuchga aylanayotgan Yangi O‘zbekiston xalqimizning buyuk maqsadlari ro‘yobiga zamin bo‘ladi. Yangi O‘zbekiston, 2025-yil 30-avgust.

YANGI O‘ZBEKISTONDA KPI TIZIMI ORQALI KORPORATIV SAMARADORLIGINI OSHIRISH (KON-METALLURGIYA KORXONALARI MISOLIDA)

Ergashov Botirjon Ergashovich
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida bo‘lim boshlig‘i,
e-mail: be.ergashov@ngmk.uz

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Yangi O‘zbekistonda KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) tizimi orqali korporativ samaradorlikni oshirish masalalari kon-metallurgiya korxonalari misolida tahlil qilingan. Unda ishlab chiqarish samaradorligini baholash, boshqaruv qarorlarini takomillashtirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, KPI tizimini joriy etish orqali korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, moliyaviy barqarorligini ta’minlash va strategik rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi va sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *KPI tizimi, korporativ samaradorlik, kon-metallurgiya korxonalari, Yangi O‘zbekiston, strategik boshqaruv, biznes jarayonlari, mehnat unumdorligi, innovatsion boshqaruv, samaradorlik ko‘rsatkichlari, sanoat korxonalari.*

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va korxonalar faoliyatida samaradorlikni oshirishdan iboratdir. Ayniqsa, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan kon-metallurgiya korxonalari mamlakat iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biri sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu korxonalar eksport salohiyatini oshirish, valyuta tushumlarini ko‘paytirish, sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish va hududiy bandlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli ularning boshqaruv tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda korporativ samaradorlikni oshirishda KPI, ya’ni asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tizimi muhim boshqaruv vositasi sifatida qo‘llanilmoqda. KPI tizimi korxona faoliyatining natijadorligini aniq ko‘rsatkichlar orqali baholashga, strategik maqsadlarning bajarilish darajasini aniqlashga va boshqaruv qarorlarini asosli qabul qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kon-metallurgiya korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlari murakkab, xarajatlar yuqori va resurslardan foydalanish katta mas’uliyat talab qilgani sababli KPI tizimining joriy etilishi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

KPI tizimi yordamida ishlab chiqarish hajmi, mahsulot tannarxi, energiya sarfi,

xomashyo resurslaridan foydalanish darajasi, eksport hajmi, xodimlar mehnat unumdorligi, investitsion samaradorlik va ekologik ko‘rsatkichlar muntazam nazorat qilinadi. Bu esa korxona faoliyatidagi kamchiliklarni erta aniqlash, ichki zaxiralarni safarbar etish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Masalan, ishlab chiqarish quvvatidan to‘liq foydalanish, energiya sarfini kamaytirish yoki mahsulot tannarxini pasaytirish korxona rentabelligini sezilarli oshirishi mumkin.

Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat korxonalarini transformatsiya qilish va korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident qarorlari va hukumat dasturlarida sanoat korxonalarida shaffof boshqaruvni ta’minlash, natijadorlikka asoslangan boshqaruv modelini shakllantirish va xodimlar faoliyatini samarali baholash tizimini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. KPI tizimi aynan shu vazifalarni amalga oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kon-metallurgiya korxonalarida KPI tizimini qo‘llash nafaqat moliyaviy natijalarni yaxshilaydi, balki strategik rejalashtirishni kuchaytiradi. Xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati kabi yirik sanoat subyektlarida ishlab chiqarish hajmi bilan bir qatorda resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. KPI tizimi bu maqsadlarga erishishda samarali nazorat mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda Yangi O‘zbekistonda KPI tizimi orqali kon-metallurgiya korxonalarida korporativ samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlarini keltiramiz (1-jadval):

1-jadval

Yangi O‘zbekistonda KPI tizimi orqali kon-metallurgiya korxonalarida korporativ samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlari[1]

№	KPI yo‘nalishi		
		Rudani qazib olish va qayta ishlash hajmini monitoring qilish	
		Xarajatlarni kamaytirish va tannarxni nazorat qilish	
		Elektr energiyasi va yoqilg‘i sarfini optimallashtirish	
		Xodimlar faoliyatini natijadorlik asosida baholash	
	Eksport ko‘rsatkichlari	Tayyor mahsulot eksport hajmini oshirish	Valyuta tushumi ko‘payadi
			Kapital qo‘yilmalar samarasi oshadi
		Resurslardan oqilona va tejamkor foydalanish	Yo‘qotishlar kamayadi
		Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va ekologik nazorat	Barqaror rivojlanish ta’minlanadi
		Shaffoflik va strategik boshqaruvni kuchaytirish	

[1] Muallif tomonidan ishlandi

Mazkur jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, KPI tizimi kon-metallurgiya korxonalarida korporativ samaradorlikni oshirishning eng muhim va zamonaviy boshqaruv vositalaridan biri hisoblanadi. Har bir ko‘rsatkich korxona faoliyatining muayyan yo‘nalishini nazorat qilishga, mavjud muammolarni aniqlashga va ularni o‘z vaqtida bartaraf etishga xizmat qiladi. Natijada umumiy boshqaruv samaradorligi oshadi, korxonaning strategik maqsadlariga erishish imkoniyatlari kengayadi. Masalan, ishlab chiqarish hajmi va mahsulot tannarxi bo‘yicha KPI ko‘rsatkichlari korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita va kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Agar ishlab chiqarish hajmi ortib borsa va shu bilan birga mahsulot tannarxi pasaytirilsa, korxonaning sof foydasi oshadi, bu esa uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Ayniqsa, kon-metallurgiya sohasida tannarxning yuqoriligi korxona rentabelligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi sababli ushbu ko‘rsatkichlarni doimiy nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli KPI tizimi ishlab chiqarish va moliyaviy natijalarni bir vaqtda boshqarish imkonini beradi.

Energiya samaradorligi va xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish ko‘rsatkichlari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va resurslardan tejamkor foydalanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Kon-metallurgiya korxonalarida elektr energiyasi, yoqilg‘i va boshqa resurslar juda katta hajmda sarflanadi, shu sababli ushbu yo‘nalishdagi har qanday samarasizlik katta moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. KPI tizimi orqali energiya sarfi doimiy ravishda monitoring qilinadi, keraksiz sarf-xarajatlar aniqlanadi va optimallashtirish choralari ko‘riladi. Bundan tashqari, xomashyo resurslaridan samarali foydalanish ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni kamaytiradi, mahsulot sifatini oshiradi va qo‘shimcha iqtisodiy samara beradi. Shu bilan birga, mehnat unumdorligi bo‘yicha KPI tizimi xodimlar faoliyatini natijaga yo‘naltiradi, ularning mas’uliyatini oshiradi va mehnat intizomini mustahkamlaydi. Har bir xodimning aniq vazifalari va natijaviy ko‘rsatkichlari belgilanishi boshqaruv tizimida tartib va shaffoflikni kuchaytiradi.

Eksport ko‘rsatkichlari va investitsion samaradorlik esa korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini yaxshilash, xalqaro bozorda mustahkam o‘rin egallash va moliyaviy resurslarni kengaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kon-metallurgiya korxonalari eksportga yo‘naltirilgan tarmoq bo‘lgani sababli tayyor mahsulot hajmini oshirish va xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish muhim vazifalardan biridir. KPI mezonlari eksport natijalarini muntazam baholash, kamchiliklarni aniqlash va tashqi bozordagi raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Investitsion samaradorlik esa jalb qilingan kapital qo‘yilmalarning qay darajada foyda keltirayotganini ko‘rsatadi. Xorijiy investorlar va xalqaro moliya institutlari aynan shu natijalarga katta e’tibor qaratadi. Agar korxonada KPI tizimi aniq ishlasa, investitsiyalar samaradorligi oshadi, yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi mustahkamlanadi.

Ekologik xavfsizlik va innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlari zamonaviy sanoat korxonalarining ajralmas va ustuvor qismiga aylangan. Bugungi kunda faqat iqtisodiy foyda emas, balki ekologik barqarorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy mas’uliyat ham muhim mezon sifatida qaralmoqda. Kon-metallurgiya korxonalari tabiatga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan tarmoq bo‘lgani sababli ekologik

nazorat va chiqindilarni kamaytirish juda muhimdir. KPI tizimi ekologik ko‘rsatkichlarni muntazam nazorat qilish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlaydi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va korxonaning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yangi texnologiyalar energiya tejamkorligi, avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish orqali korxona faoliyatini yanada samarali qiladi.

Umuman olganda, KPI tizimi orqali kon-metallurgiya korxonalarida korporativ samaradorlikni oshirish Yangi O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizim korxonalarda shaffof boshqaruvni ta’minlaydi, mas’uliyatni aniq taqsimlaydi, resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi va xalqaro standartlarga mos boshqaruv modelini shakllantiradi. Natijada korxonalarning iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi, foyda ko‘rsatkichlari oshadi va ishlab chiqarish jarayonlari yanada optimallashadi. Shu bilan birga, mamlakat sanoat salohiyati kuchayadi, eksport hajmi ortadi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi. Aynan shu jihatlar KPI tizimini nafaqat alohida korxona darajasida, balki butun iqtisodiyot miqyosida ham muhim strategik vositaga aylantiradi.

Xulosa qilib aytdigan bo‘lsak, Yangi O‘zbekistonda KPI tizimini kon-metallurgiya korxonalarida samarali joriy etish korporativ boshqaruv sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirishda muhim axamiyat kasb etadi. Ushbu tizim orqali mehnat unumdorligi, eksport salohiyati va investitsion jozibadorlik sezilarli darajada ortadi. Shu bois KPI ko‘rsatkichlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish hamda xodimlarni natijadorlikka asoslangan rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bu esa korxonalarning barqaror rivojlanishi va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xonkeldieva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korporasiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – T: TDIU, 2018. 56 b.

2. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Harvard Business School Press, 1996. 322 p.

3. Sayfulina A.F. Assessment of the state of development of digital infrastructure in the regions of Uzbekistan // Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 4, August 2024.

4. Ланцов А.Е. Инфраструктура: понятие, виды и значение // Статистика и экономика. 2013. №3. С. 49-54.

5. Yusupov Asomiddin Soatovich. Tashqi savdoni erkinlashtirish jarayonida milliy eksport raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi: 08.00.09 - "Jahon iqtisodiyoti" PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi/Davlat boshqaruvi akademiyasi T; 2018.

6. Mirzayev Q.J. Sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlari. (Darslik). “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2022. 384 bet.

7. Yo‘ldasheva U.A. Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish - T.: 2021. PhD. diss. avtoref. 11-14 b.

8. Портер М. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость. – Москва: Альпина Паблишер, 2020. 716 с.

9. Axmedov B.X. Kon-metallurgiya sanoatida innovatsion boshqaruv tizimlarini rivojlantirish. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2023. №5. 122-129 b.

10. Ibragimov Q.T. Sanoat korxonalarida strategik boshqaruv samaradorligini oshirish. // Iqtisodiyot va ta’lim. 2022. №6. 45-52 b.

KORXONA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATIDA MARKETING KOMPLEKSIDAN UNUMLI FOYDALANISH

Axmedov Ikrom Akramovich
TAFU Iqtisodiyot fakulteti dekani, i.f.d.,prof.
e-mail: i.axmedov@utase.uz

Korxonalar eksportining diversifikatsiyasini amalga oshirishda ichki bozorda samarali bo‘lgan klassik marketing kompleksi (4P) hamkor mamlakatlarning institutsional, madaniy va raqobatbardosh xususiyatlarini hisobga olgan holda chuqur moslashuvni talab qiladi. Muammo shundaki, O‘zbekistonning ko‘plab korxonalarida bunday moslashish uchun tizimli nazariy va amaliy modellar mavjud emas, bu esa eksport salohiyatidan samarasiz foydalanishga olib keladi.

F.Kotler, V. Vong va boshqalar o‘zlarining “Marketing asoslari” nomli kitobida marketingni standartlashtirish va moslashtirish o‘rtasidagi tanlov madaniy masofaga, iqtisodiy rivojlanish darajasiga, me’yoriy-huquqiy muhitga va iste’molchilarning odatlariga bog‘liqligini ta’kidlashadi [1].

Rivojlanayotgan bozorlar bo‘yicha tadqiqotlar institutsional bo‘shliqlarni, norasmiy aloqalarning rolini va MDH bozorlarining bir qismi uchun xos bo‘lgan narxga sezgirlikni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydilar [2].

Tahlilchilar notarif to‘siqlar, sertifikatlashning o‘ziga xos talablari (ayniqsa Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi va Xitoyda), soliq solishdagi farqlar va intellektual mulkni himoya qilishga e’tibor qaratmoqdalar. Bu mahsulot va joyni moslashtirish uchun juda muhimdir [3,4].

Adabiyotlarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar, Turkiya, Xitoy va Rossiya brendlari o‘rtasidagi yuqori raqobat ta’kidlanadi, bu esa o‘zbek kompaniyalaridan aniq UTP (noyob savdo taklifi) talab qiladi.

Turkiya va Rossiya importiga noyob savdo taklifi elementlari sifatida “milliy”, “tabiiy”, “halol”ga urg‘u berib, o‘z o‘rnini egallashga muvaffaq bo‘lgan aniq o‘zbek kompaniyalari (masalan, oziq-ovqat sanoati) bo‘yicha tadqiqotlar mavjud [3,4].

Tadqiqotlar ikkita asosiy strategiyani qayd etadi: 1) logistika xarajatlari va bojlarni hisobga olgan holda ommaviy tovarlarga (sabzavotlar, mevalar) raqobatbardosh narx belgilash; 2) maqsadli mahsulotlar (organik quritilgan mevalar, qo‘lda ishlangan mahsulotlar, o‘zbek premium paxtasi) uchun ustama narx belgilash. Narx va qabul qilingan qiymat psixologiyasini hisobga olish muhimligi ta’kidlanadi [5].

Xitoy bozori uchun raqamli markirovka (kelib chiqishi va sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega QR kodlar) asosiy talab hisoblanadi [6].

Kirill alifbosidagi brending MDH uchun ishlatiladi, Xitoy uchun esa kompaniyalarning 90 foizi inglizcha nomlar yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri transliteratsiyadan foydalanadi.

Tadqiqot natijasida respondentlarning 78 foizi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi texnik reglamentlariga rioya qilish muammosiga duch kelishi, logistika xarajatlari esa uzoq bozorlarda tannarxning 40 foiziga yetishi aniqlandi. Bunda bitimlar doirasidagi imtiyozli savdo salohiyatidan 15 foizdan kam foydalanilmoqda. Eksport dinamikasini tahlil qilish asosida (2022-yilda MDHda 23 foizga va Xitoyda 34 foizga o‘sish) tabaqalashtirilgan strategiyalar maqsadga muvofiq bo‘ladi [7].

O‘zbekistonning MDH mamlakatlariga eksporti 2022-yilda 23 foizga o‘sib, 4,8 milliard dollarga, Xitoyga 34 foizga o‘sib, 2,5 milliard dollarga yetdi (O‘zR Milliy statistika qo‘mitasi, 2023-yil).

Agrosektorning MDHga eksportdagi ulushi 28% tashkil etmoqda. Yangi va qayta ishlangan mevalar/sabzavotlar asosiy ulushni tashkil etmoqda. Agrosektorning eksport salmog‘i Rossiyaga 67 foizi, Qozog‘istonga 22 foizni tashkil etgan.

To‘qimachilikning MDHga eksportdagi ulushi 25% tashkil etgan. MDHda to‘qimachilik mahsulotlari eksportining 85 foizi Rossiya va Qozog‘istonga to‘g‘ri keladi. 2021-2022-yillarda Rossiya Federatsiyasiga trikotaj mahsulotlarini yetkazib berishning o‘sishi 41% ni tashkil etdi.

Xitoyga eksport tarkibi boshqacha ko‘rinishga ega: paxta tolasi - 1,1 milliard dollar (XXRga eksportning 44 foizi), to‘qimachilik mahsulotlari - atigi 280 million dollar (11 foiz).

B2B platformalari (Alibaba, Russia.Trade) orqali onlayn savdo Xitoy bozoriga kirish uchun faol rivojlanmoqda (IT -kompaniyalarning 60 foizi ushbu modeldan foydalanadi). O‘zbekistondagi xizmatlarni eksport qiluvchi IT-kompaniyalarning 60 foizi MDHdagi mijozlarga chiqish uchun global platformalar (Upwork) yoki mintaqaviy B2B portallaridan foydalanadi. Xitoyga tovar eksporti uchun so‘ralganlarning 40 foizi Alibaba.com orqali ishlashga harakat qilgan [8].

Ushbu bozorlar uchun targ‘ibot vositalaridan foydalanish MDH uchun mintaqaviy ko‘rgazmalarda ishtirok etish va ijtimoiy tarmoqlarda ishlash (VK, Odnoklassniki) eng samarali ekanligi aniqlandi. Xitoy uchun mahalliy raqamli kanallarga (WeChat, Weibo) kirish to‘siq hisoblanadi. Video platformalarda (Douyin) mahalliy ta’sir o‘tkazuvchilar (KOL) bilan hamkorlik qilish orqali samaradorlik qayd etiladi [9].

Tashqi bozorlarda ilgari surish uchun o‘rtacha xarajatlar eksport daromadining 5% dan kamrog‘ini tashkil qiladi (xalqaro raqobatchilarda 10-15%). MDH uchun ixtisoslashgan ko‘rgazmalarda ishtirok etish eng samarali kanal deb tan olingan (respondentlarning 74%). Xitoy uchun kompaniyalarning 68 foizi raqamli muhitdagi til va madaniy tafovutni to‘siq deb hisoblaydi.

Korxona darajasida bu tavsiyalar qo‘yidagilardan iborat:

Chiqishdan oldin bozorni o‘rganishga sarmoya kiritish. Marketing tahlilini mahsulotdan emas, balki iste’molchidan boshlash taqozo etadi;

Mijozlarni qidirish emas, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur. Mahalliy distribyutor yoki savdo agentlari asosiy aktiv bo‘lishi lozim;

Mahsulotda moslashuvchan bo‘lish. Mahsulotning “asosiy platformasini” va muayyan bozorga moslashtirishning modul tizimini (qadoqlash, ta’m, o‘lcham) tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Haqiqatda, boshqacha qilib aytganda “yerda” raqamli mavjudlikni yaratish zarur. Ijtimoiy tarmoqlarda maqsadli mamlakat tilida akkauntlar ochish, ularni muntazam ravishda yuritish, auditoriya bilan muloqot qilish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat savdo, balki fikr-mulohaza yig‘ish va brend yaratishga imkon beradi.

Integratsiyadan yakuniy maqsad sifatida emas, balki tramplin sifatida foydalanish muhimdir. Mintaqaviy ko‘rgazmalarda ishtirok etish, tarif imtiyozlariga ega bo‘lish zarur. Ammo shuni yodda tutish kerakki, raqobatchilar - integratsiyaning boshqa ishtirokchilari ham xuddi shunday ustunliklarga ega. Shuning uchun o‘ziga xos nayob taklif kuchliroq bo‘lishi kerak.

Mahsulot borasida har bir hamkor mamlakat uchun standartlarga muvofiqlik bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni yaratish, sertifikatlashtirish va mahalliy distribyutorlar bilan qo‘shma brendlarni yaratishga sarmoya kiritish zarur. Mahsulot: Xitoy uchun “xomashyodan yarim tayyor mahsulotgacha” strategiyasi (paxta tolasini emas, balki ip yoki matoni sotish) mavjud bo‘lib, bu marjani oshiradi va o‘zgaruvchanlikni kamaytiradi. MDH uchun – “paketli yechimlar”ni yaratish zarur (qurilish materiallari + montaj xizmatlari).

Narx borasida sifat tufayli yuqori narxni oqlash uchun “egalik qilish qiymati” modelini joriy etish, bojxona imtiyozlaridan faol foydalanish zarur. Xarajatlarni 15-20% ga kamaytirish uchun eksportchilar o‘rtasida logistika konsorsiumlarini shakllantirish. Imtiyozlar to‘g‘risida ma’lumot olish uchun Eksportni rivojlantirish agentligining “Yagona darcha”si bilan faol ish olib borish talab etiladi.

Distributsiya borasida gibrid modellarni rivojlantirish, ya’ni yakuniy B2B mijozlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar uchun raqamli kanalni parallel ravishda shakllantirishda kuchli mahalliy distribyutorlar bilan hamkorlik qilish taqozo etiladi. Asosiy shaharlarda (Olmaota, Moskva) distributsiya, marketing va logistika funksiyalarini bajaruvchi qo‘shma savdo uylarini tashkil etish bo‘yicha davlat-xususiy sheriklikka alohida e’tibor qaratish zarur bo‘ladi.

Sotishni rag‘batlantirish bo‘yicha MDH uchun - muloqotda madaniy kodning umumiyligiga e’tibor qaratish, Xitoy uchun raqamli muhitda ishlash uchun mahalliy marketing agentliklari yoki hamkorlarni jalb qilish majburiydir. MDHdagi raqamli kanallarga e’tibor qaratgan holda “Made in Uzbekistan” brendini ilgari surish bo‘yicha tarmoq marketing dasturlarini ishga tushirish (VK, Yandeksda maqsadli reklama) va Xitoy ijtimoiy tarmoqlarida qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik mahsulotlari uchun Key Opinion Leaders (KOL) bilan ishlashni yo‘lga qo‘yish taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Котлер Ф. Основы маркетинга / Филип Котлер, Гэри Армстронг, Вероника Вонг; пер. с англ. под ред. Т. Р. Телегиной. - 5-е европ. изд. -Москва: Вильямс, 2022. - 752 с. - ISBN 978-5-907203-39-3.
2. Sheth J.N. 2011. Impact of Emerging Markets on Marketing: Rethinking Existing Perspectives and Practices. Journal of Marketing 75 (4): 166-182.
3. Иллерицкий Н.И., Каценко В.В., Рожко О.Н. Государства Центральной Азии в структуре внешнеторговых цепей поставок ЕАЭС—КНР при реализации инициативы «Пояса и пути» // Евразийские исследования. 2025. № 2. С. 31-40. DOI 10.48647/ICCA.2025.39.71.003.
4. ЕАЭС на подъеме: как интеграция меняет экономику Центральной Азии «Берлек-Единство» Центр геополитических исследований http://berlek-nkp.com/analitics/13891-eaes-na-podeme-kak-integraciya-menyaet-ekonomiku-centralnoy-azii.html.
5. Исмаилов Ж.Х. Повышение конкурентоспособности национальной промышленности в условиях импортозамещения // Диссертация на соискание ученой степени. – Ташкент: ТГЭУ, 2021.
6. Винокуров Е., Цукарев Т., Ахунбаев А., Бабаджанян В., Бердигулова А., Кузнецов А., Перебоев В., Федоров К., Харитончик А., Чкония А.-М. (2021) Узбекистан и ЕАЭС: перспективы и потенциальные эффекты экономической интеграции. Доклады и рабочие документы 21/2. Москва: Евразийский банк развития. https://eabr.org/analytics/special-reports/
7. Гурков И., Збышко Б. (2020). Стратегии выхода на рынки стран ЕАЭС: опыт российских компаний. Российский журнал менеджмента, 18(2), 191-214.
9. Keesing D. B., & Lall, S. (1992). Marketing manufactured exports from developing countries: Learning sequences and public support. In Trade Policy, Industrialization, and Development: New Perspectives (ed. G. Helleiner). Clarendon Press.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИГА МУВОФИҚ КИЧИК БИЗНЕСНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Қ.Б.Шарипов, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti в.в.профессори, DSc

Ҳозирги глобаллашув шароитида миллий иқтисодиётларнинг барқарор ривожланиши кўп жиҳатдан кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг тараққиёт даражаси билан белгиланади. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатадики, кичик бизнес иқтисодиётнинг энг ҳаракатчан, инновацияга мойил ва тез мослашувчан сегменти ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистонда ҳам мазкур соҳани ривожлантириш давлат иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган.

Ўзбекистон Республикасида сўнгги йилларда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга қаратилган тизимли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси 2022–2026 доирасида хусусий секторни ривожлантириш, тадбиркорлик муҳитини

яхшилаш, инвестициявий жозибадорликни ошириш ва иқтисодиётда рақобат муҳитини кучайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Кичик бизнеснинг иқтисодий аҳамияти, аввало, унинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши, аҳоли бандлигини таъминлашдаги роли ва ички бозорни товар ҳамда хизматлар билан таъминлаш имкониятлари билан белгиланади. Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда кичик бизнеснинг ЯИМдаги улуши тахминан 55–60 фоизни ташкил этиб, бу уни миллий иқтисодиётнинг асосий драйверларидан бири сифатида намоён қилади. Шунингдек, ушбу секторда иқтисодий фаол аҳолининг катта қисми банд бўлиб, бу ижтимоий барқарорликни таъминлашда муҳим омил ҳисобланади.

Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланишига таъсир этувчи асосий омиллардан бири — унинг институционал муҳити ҳисобланади. Давлат томонидан лицензиялаш, рухсат бериш тартиб-таомилларининг соддалаштирилиши, солиқ юкининг оптималлаштирилиши ва молиявий қўллаб-қувватлаш механизмларининг жорий қилиниши тадбиркорлик фаоллигини сезиларли даражада оширмоқда. Айниқса, рақамли иқтисодиёт элементларининг жорий этилиши кичик бизнес субъектларига бозорга кириш ва фаолият юритиш харажатларини камайтириш имконини бермоқда.

Ҳудудлар кесимида таҳлил шуни кўрсатадики, тадбиркорлик фаоллиги юқори бўлган ҳудудлар қаторига Тошкент шаҳри, Тошкент вилояти, Самарқанд вилояти ва Фарғона вилояти киради. Бу ҳудудларда инфратузилманинг ривожланганлиги, бозор сиғимининг юқорилиги ва инвестиция муҳитининг нисбатан жозибадорлиги асосий омиллардан ҳисобланади. Шу билан бирга, Сирдарё вилояти каби ҳудудларда тадбиркорлик фаоллигини ошириш учун қўшимча рағбатлантирувчи чора-тадбирларни амалга ошириш зарур.

Кичик бизнес ривожланишини баҳолашда иқтисодий индекслар ва математик моделлардан фойдаланиш илмий таҳлилнинг аниқлиги ва ишончлилигини сезиларли даражада оширади. Бироқ замонавий иқтисодий назариялар шуни кўрсатадики, фақатгина миқдорий кўрсаткичлар билан чекланиш етарли эмас. Кичик бизнеснинг барқарор ривожланиши, аввало, институционал муҳитнинг сифати ва самарадорлиги билан белгиланади.

Институционал ёндашув нуқтаи назаридан, кичик бизнес ривожланишига таъсир этувчи асосий омиллар қуйидагилардан иборат:

1. Ҳуқуқий-меъёрий база самарадорлиги. Тадбиркорлик фаолиятини тартибга солувчи қонунлар, лицензиялаш тизими ва маъмурий тартиб-таомилларнинг соддалаштирилганлиги бизнес юритиш харажатларини камайтиради. Агар ушбу институтлар шаффоф ва барқарор бўлса, тадбиркорлик фаоллиги индекси (EAI) ортиши кузатилади.

2. Мулк ҳуқуқи ва шартномаларни ҳимоя қилиш. Иқтисодий адабиётларда таъкидланишича, мулк ҳуқуқининг ишончли ҳимояси инвестиция фаоллигининг асосий шарти ҳисобланади. Бу ҳолат инвестиция фаоллиги индекси (IAI) орқали акс этади. Мулк ҳуқуқи заиф ҳимоя қилинган муҳитда эса инвестициялар ҳажми камаяди ва яширин иқтисодиёт улуши ортади.

3. Молиявий институтлар ривожланганлиги. Банк тизими,

микромолия ташкилотлари ва венчур капитал институтларининг ривожланиши кичик бизнес субъектларининг молиявий ресурсларга кириш имкониятини кенгайтиради. Бу эса самарадорлик индекси (EI) ва умумий ривожланиш индекси (IBD) ўсишига олиб келади.

4. Бозор инфратузилмаси ва рақобат муҳити. Соғлом рақобат муҳити кичик бизнесни инновацияларга ундайди ва ресурслардан самарали фойдаланишни таъминлайди. Бу ҳолат Herfindahl-Hirschman индекси (HHI) орқали ҳам таҳлил қилиниб, бозор концентрациясининг пасайиши орқали рақобатнинг ошганини кўрсатади.

5. Давлат бошқаруви сифати ва коррупция даражаси. Давлат хизматларининг рақамлаштирилиши, бюрократик тўсиқларнинг қисқариши ва коррупция даражасининг пасайиши тадбиркорлик муҳитини яхшилайди.

Бу жиҳатлар Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси 2022–2026 доирасида ҳам алоҳида устувор йўналиш сифатида белгиланган бўлиб, институционал ислоҳотлар иқтисодий ўсишнинг асосий драйвери сифатида қаралмоқда.

Кичик бизнес ривожланишини янада аниқ баҳолаш учун кенгайтирилган регрессия модели қўлланилиши мумкин:

$$IBD_t = \beta_0 + \beta_1 EAI_t + \beta_2 IAI_t + \beta_3 INS_t + \varepsilon_t$$

бу ерда: INSt- – институционал сифат индекси (қонун устуворлиги, коррупция даражаси, давлат самарадорлиги); βi – параметрлар; εt – тасодифий хато

Ушбу модель кичик бизнес ривожланишига институционал омилларнинг таъсирини эмпирик жиҳатдан баҳолаш имконини беради.

Келгусида ушбу индекслар асосида динамик моделларни қўллаш қуйидаги имкониятларни яратади: ҳудудлар кесимида институционал фарқларни аниқлаш; вақт ўтиши билан ислоҳотлар самарадорлигини баҳолаш; кичик бизнес ривожланишининг узоқ муддатли трендларини прогноз қилиш.

$$IBD_{it} = \alpha + \beta X_{it} + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it}$$

Масалан, панел модель:

бу ерда: i – ҳудуд, t – вақт; μi – ҳудудий хусусиятлар; λt – вақт омиллари.

Кичик бизнес ривожланишини баҳолашда институционал омилларни ҳисобга олмасдан туриб тўлиқ ва объектив таҳлилни амалга ошириш мумкин эмас. Ўзбекистон шароитида: институционал ислоҳотлар иқтисодий ўсишнинг асосий манбаи ҳисобланади; самарали бошқарув ва ҳуқуқий муҳит тадбиркорлик фаоллигини рағбатлантиради; молиявий ва бозор институтларининг ривожланиши кичик бизнесни янги босқичга олиб чиқади.

Шунинг учун келгусидаги илмий тадқиқотларда иқтисодий индекслар билан бир қаторда институционал кўрсаткичларни интеграция қилиш, комплекс индикаторлар тизимини шакллантириш ва улар асосида прогноз моделларини ишлаб чиқиш устувор вазифа ҳисобланади.

Хусусий бизнеснинг имкониятлари доирасида унинг инновацион

фаолиятини алоҳида таъкидлаш лозим. Кичик корхоналар янги технологияларни жорий этиш, стартап лойиҳаларни амалга ошириш ва бозор талабига тез жавоб қайтариш қобилиятига эга. Бу эса уларга рақобатбардошликни ошириш ва ташқи бозорларга чиқиш имкониятини беради. Шу нуқтаи назардан, венчур молиялаштириш, бизнес-инкубаторлар ва технопарклар фаолиятини кенгайтириш муҳим аҳамият касб этади.

Шунингдек, кичик бизнесни ривожлантиришда молиявий ресурсларга етарли даражада кириш имконияти ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Тижорат банклари томонидан имтиёзли кредитлар ажратиш, давлат кафолатлари тизимини такомиллаштириш ва халқаро молия институтлари билан ҳамкорликни кенгайтириш тадбиркорлик субъектларининг инвестицион фаоллигини оширишга хизмат қилади. Иқтисодий таҳлиллар шуни кўрсатадики, кичик бизнеснинг ривожланиши иқтисодиётнинг диверсификациясига, экспорт салоҳиятининг ошишига ва импорт ўрнини босувчи маҳсулотлар ишлаб чиқаришга ижобий таъсир кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш нафақат иқтисодий ўсишни таъминлаш, балки ижтимоий муаммоларни ҳал этиш, аҳоли фаровонлигини ошириш ва миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини кучайтиришда муҳим аҳамият касб этади. Келгусида мазкур соҳани янада ривожлантириш учун институционал ислоҳотларни чуқурлаштириш, инновацион фаолликни рағбатлантириш ва ҳудудий номутаносибликларни бартараф этишга қаратилган комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ БОШҚАРИШ МЕХАНИЗМИНИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ

Максумханова Азизахон Мукадировна, и.ф.н, доцент «ТИҚХММИ» МТУ
email: maxsumxonovaazizaxon@gmail.com
Сайдалимова Диёрахон Баходировна
Иқтисодиёт магистратура мутахассислиги магистранти
e-mail: diyoraxonsaydalimova.gmail.com

Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини рақамлаштириш шароитида мамлакатимизда хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларнинг турли соҳа ва тармоқларда ўз қобилият ва имкониятларини рўёбга чиқариши учун шарт-шароит яратиш, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларига сўзсиз риоя қилинишини таъминлаш, оналик ва болаликни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Уларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш, меҳнат ҳуқуқини кафолатлаш ва аёллар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлаш борасида мамлакатимизда кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда.

Бугунги кунда мамлакатимиз аҳолисининг 19 миллионга яқинини аёллар ташкил этади.Уларнинг бизнес соҳасидаги лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш ҳамда муаммоларини бартараф этиш учун жойларда хотин-қизларни тадбиркорликка ўқитиш, бизнесга оид намунавий режаларини ишлаб чиқиш ва уларга амалий ёрдам кўрсатишнинг янги тизими жорий этилди. Бироқ

ҳозирги давр ўзгаришлари ва глобаллашув жараёнларининг кенгайиб боришига кўра, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда аёлларнинг ўрнини белгилаш ва бу борада ҳал этилиши зарур бўлган муаммолар ҳамон ўз ечимини кутмоқда. Шу билан бирга, жамият ҳаёти жараёнларида аёллар иштирокини кенгайтириш борасида кўрилаётган амалий чораларга қарамасдан, ҳалигача оғир турмуш шароитида яшаб, иш билан таъминланмаган хотин-қизлар борлиги ачинарлидир. Айни пайтда республикамизда, айниқса қишлоқларда истиқомат қилаётган хотин-қизлар қуйидаги муаммоларга дуч келмоқдалар:

- узоқ муддат бола парваришлаш таътилида бўлган, мушкул иқтисодий аҳволга тушган аёллар меҳнат бозорида ўзларига муносиб иш ўринларини топишдаги қийинчиликлар;
- тадбиркорлик билан шуғулланиш истагини билдирган хотин-қизларда ўз бизнесини ташкил этиш, юритиш кўникмаларининг етишмаслиги;
- қишлоқ хўжалигидаги асосий иш ўринларининг мавсумий характерга эгалиги ҳамда норасмий иш билан банд бўлиш ҳисобига турли молия-солиқ ва кредит имтиёзларидан фойдаланиш, пенсия олиш борасидаги ҳуқуқларининг чекланиши.

Шунинг учун хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш, улар учун муносиб меҳнат ва турмуш шароитини яратиш, уларнинг қобилият ва салоҳиятини рўёбга чиқариш масаласи юртимизда давлат сиёсати масаласига кўтарилди. Бинобарин, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 29 декабрда Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида таъкидлаб ўтилганидек, «Муҳими, бу жараёнда тадбиркорларимиз ҳал қилувчи куч сифатида энг олдинги сафда туриб, саноат ва сервис объектларини ташкил қилиб, доимий иш ўрни яратишда, аҳолимиз, айниқса, ёшлар ва хотин-қизларни касбга ўргатиб, маҳаллаларнинг ўзида ишли ва даромадли қилишда алоҳида жонбозлик кўрсатмоқда. Шунинг учун тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш бўйича сиёсатимизни давом эттириб, 2026 йилда асосий солиқ ставкаларини ўзгаришсиз қолдирамиз; тадбиркорлик инфратузилмаси лойиҳаларига 10 триллион сўмдан зиёд маблағ ажратилади; кичик ва ўрта бизнесни ривожлантириш учун 140 триллион сўм ресурс берилади. Шундан 43 триллион сўми хотин-қизлар ва ёшлар тадбиркорлигини қўллаб-қувватлашга йўналтирилади»[2].

Бугун юртимизда хотин-қизларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини янада қўллаб қувватлаш юзасидан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 5 мартдаги “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг жамият ҳаётидаги фаол иштирокини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5020 сон Қарорида ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 14 март 2025 йилдаги «Оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-103-сонли қарорида белгилаб берилган устувор

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 29 декабрда Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси. https://president.uz/uz/lists/view/8834

вазифаларнинг амалий ижросини таъминлаш, шунингдек «Иқтисодиётнинг барча соҳаларини рақамли технологиялар асосида янгилашни назарда тутадиган рақамли иқтисодиёт миллий концепциясини ишлаб чиқиш асосида «Рақамли Ўзбекистон – 2030» дастурини ҳаётга татбиқ этиш ишлари жадал суръатларда амалга оширилмоқда.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, хотин қизларимиз Президентимиз, Республика раҳбарияти кўрсатаётган беқиёс ғамхўрлик, алоҳида эътибор ва қўллаб-қувватлашларига жавобан янада фаол, ғайрат ва шижоат билан ишлаб, дунё миқёсида ҳам ўзларини намоён этмоқдалар. Ўзбек аёлининг жамиятда эришаётган ютуқлари ҳозирги вақтда ҳар қачонгидан юксакдир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида таъкидлаб ўтилганидек, “Аёлларни ишли ва даромадли қилиш масаласи ҳамиша эътиборимиз марказида бўлиб келмоқда. Ўтган йили хотин-қизлар бандлигини таъминлаш ва уларни тадбиркорликка жалб этиш мақсадида 23,5 триллион сўм кредит йўналтирдик. Бунинг ҳисобидан 425 мингдан ортиқ опа-сингилларимиз тадбиркорликка жалб қилинди[3]”.

Шу нуқтаи назардан қишлоқ жойларида аёллар тадбиркорлигини бошқариш механизмини такомиллаштириш учун хизмат кўрсатишнинг рақамли мобил тизимини яратиш зарурати тобора долзарблик касб этиб бормоқда. Ушбу муаммоларнинг амалий ечимларини топиш қишлоқ жойларида замонавий технологиялар асосида аёллар тадбиркорлигини бошқариш механизмини рақамлаштириш тизимларини шакллантиришга хизмат қилади. Рақамли мобил тизимини яратиш орқали қуйидагиларга эришиш мумкин:

- Ягона электрон реестр ва маълумотлар базасини яратиш.
- Реал вақт мониторинги ва маълумотларга асосланган қарор қабул қилиш механизмларини жорий этиш.
- Аёллар тадбиркорлари учун махсус рақамли платформалар ва мобил иловаларни ишлаб чиқиш.
- Мавжуд жараёнларни электрон шаклга ўтказиш.
- Турли тизимлар ва платформаларни ўзаро боғлаш.
- Маълумотларни таҳлил қилиш ва стратегик қарорлар қабул қилиш.
- Аёллар тадбиркорлигининг шаффофлиги ва самарадорлигини ошириш.
- Ижтимоий хизматлар манзиллилигини кучайтириш.
- Давлат ва жамият ўртасидаги институционал ишончни мустаҳкамлаш.
- Рақамли иқтисодиётда аёллар тадбиркорлигининг фаол иштирокини таъминлаш.

Аёллар тадбиркорлигини бошқариш механизминини рақамлаштириш қуйидаги муҳим натижаларга олиб келади:

- қишлоқларда аҳолининг иш билан бандлиги ва меҳнат ресурсларидан фойдаланиш ҳамда уларни стратегик йўналишларни истиқболлаштириш

[3] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. https://gov.uz/uz/news/view/140064

имконини берадиган мақбул самарали моделлар ишлаб чиқилади;

- қишлоқ жойлардаги ишсизлик, норасмий иш билан бандлик ва камбағаллик даражасини камайтиришга эришилади;
- “Аёллар дафтари”га киритилган, меҳнат бозорида ўзларига муносиб иш ўринларини излаётган хотин-қизларни тадбиркорликка ўқитиш, бизнесга оид намунавий режаларини ишлаб чиқиш ва уларга амалий ёрдам кўрсатишнинг рақамли тизими яратилади;
- маҳаллаларда драйвер соҳаларни белгилаш, субсидия ва компенсация механизмларидан самарали фойдаланган ҳолда аёлларни тадбиркорликка йўналтириш борасидаги барча жараёнлар бўйича маълумотларнинг электрон тарзда аниқ ва шаффоф жамланишига эришилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 14 март 2025 йилдаги «Оила ва хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-103-сонли қарори

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси 2025 йил 25 декабрь. https://president.uz/uz/lists/view/8834

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. https://gov.uz/uz/news/view/140064

4. Соатова Ш. / Рақамли иқтисодиёт ҳақида нималарни билиш керак? / (https://sof.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-haqida-nimalarni-bilish-kerak 01.27.2020)

5. https://stat.uz/oz/

YASHIL IQTISODIYOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI ORQALI HUDUDIY RIVOJLANISH VA URBANIZATSIYANI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Xamidullayev Abdulbosit Xamdam o‘gli
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Axborot texnologiyalarining dasturiy ta’minoti katta o‘qituvchisi
e-mail: abdulbositkhamidullaev@gamil.com
Ibrohimov Bahrom Sobirjon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Kompyuter tizimlari kafedrasi dotsenti, Phd.
e-mail: b.ibrohimov@tuit.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasining hududiy rivojlanish hamda urbanizatsiya jarayonlarini boshqarishdagi o‘rni kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda iqtisodiy o‘sishning ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashuvi sharoitida raqamli transformatsiyaning ahamiyati ochib berilib, ushbu ikki yo‘nalishning o‘zaro bog‘liqligi nazariy va amaliy jihatdan asoslangan. Xususan, sun’iy intellekt, katta

ma’lumotlar (big data) va IoT texnologiyalarining resurslardan samarali foydalanish, energiya tizimlarini optimallashtirish hamda urbanizatsiya jarayonlarini boshqarishdagi roli ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, hududiy rivojlanish, urbanizatsiya, barqaror rivojlanish, smart city, institutsional mexanizmlar.

Аннотация

В данной статье всесторонне анализируется роль интеграции зеленой экономики и цифровых технологий в управлении процессами территориального развития и урбанизации. Исследование выявляет важность цифровой трансформации в контексте сочетания экономического роста с экологической устойчивостью, взаимосвязь этих двух направлений теоретически и практически обоснована. В частности, подчеркивается роль искусственного интеллекта, больших данных и технологий Интернета вещей в эффективном использовании ресурсов, оптимизации энергетических систем и управлении процессами урбанизации.

Ключевые слова: Зеленая экономика, цифровые технологии, искусственный интеллект, региональное развитие, урбанизация, устойчивое развитие, умный город, институциональные механизмы.

Annotation

This article comprehensively analyzes the role of the integration of green economy and digital technologies in the management of territorial development and urbanization processes. The study reveals the importance of digital transformation in the context of combining economic growth with environmental sustainability, and the interrelationship of these two directions is theoretically and practically substantiated. In particular, the role of artificial intelligence, big data, and IoT technologies in the efficient use of resources, optimization of energy systems, and management of urbanization processes is highlighted.

Keywords: Green economy, digital technologies, artificial intelligence, regional development, urbanization, sustainable development, smart city, institutional mechanisms.

So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiy tizim chuqur transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Iqlim o‘zgarishi, resurslarning cheklanganligi, urbanizatsiya sur’atlarining keskin ortishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi davlatlarni an’anaviy rivojlanish modelidan voz kechib, yangi – barqaror va innovatsion yo‘lga o‘tishga majbur qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi zamonaviy rivojlanishning asosiy drayveriga aylanmoqda. Ayniqsa, bu integratsiya hududiy rivojlanish va urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarishda muhim institutsional mexanizmlarni shakllantirish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, u resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirishni nazarda tutadi. Raqamli texnologiyalar esa ushbu jarayonlarni samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan

axborot infratuzilmasini, analitik vositalarni va boshqaruv tizimlarini taqdim etadi. Bu ikki yo‘nalishning integratsiyasi natijasida yangi sifat darajasiga ega bo‘lgan boshqaruv modeli – raqamli-yashil boshqaruv tizimi shakllanadi.

Hududiy rivojlanish va urbanizatsiya jarayonlari har qanday davlatning iqtisodiy siyosatida markaziy o‘rin egallaydi. Urbanizatsiya – bu faqat shaharlar sonining ko‘payishi emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy tizimlarning murakkablashuvi hamdir. Agar bu jarayon nazoratsiz amalga oshirilsa, ekologik muammolar, infratuzilma yetishmovchiligi, transport tirbandliklari va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolar yuzaga keladi. Shu sababli, urbanizatsiyani boshqarishda zamonaviy, kompleks va integratsiyalashgan yondashuv zarur.

Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi aynan shu muammolarni hal etishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “aqlli shahar” (smart city) konsepsiyasi raqamli texnologiyalar yordamida energiya iste’molini optimallashtirish, transport tizimini boshqarish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik monitoringni real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa shahar infratuzilmasining samaradorligini oshirish bilan birga, ekologik barqarorlikni ta’minlaydi.

Institutsional mexanizmlar bu jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. Institutsional mexanizmlar deganda davlat organlari, huquqiy baza, boshqaruv tizimlari va iqtisodiy rag‘batlantirish vositalari tushuniladi. Agar ushbu mexanizmlar to‘g‘ri shakllantirilmasa, hatto eng ilg‘or texnologiyalar ham kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli, yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiyani amalga oshirishda institutsional islohotlar muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun birinchi navbatda aniq strategik yondashuv zarur. Masalan, Yevropa Ittifoqi “Yashil kelishuv” (Green Deal) doirasida raqamli texnologiyalarni ekologik siyosat bilan uyg‘unlashtirishga katta e’tibor qaratmoqda. Bu yerda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) yordamida energiya tizimlari, transport va sanoat jarayonlari optimallashtirilmoqda. Natijada karbon chiqindilari sezilarli darajada kamaymoqda va resurslardan foydalanish samaradorligi oshmoqda.

Osiyo davlatlari, xususan, Janubiy Koreya va Singapur ham bu borada ilg‘or tajribaga ega. Ular “aqlli shaharlar”ni rivojlantirish orqali urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarishga erishgan. Bu davlatlarda raqamli platformalar orqali aholining ehtiyojlari doimiy ravishda monitoring qilinadi, infratuzilma esa real vaqt rejimida boshqariladi. Shu bilan birga, ekologik ko‘rsatkichlar ham doimiy nazorat ostida bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu yo‘nalish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda urbanizatsiya sur’atlari oshib borayotgan bir paytda, hududiy rivojlanishni muvozanatli tashkil etish va ekologik muammolarni oldini olish zarur. Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan boshqaruv modelini joriy etish strategik vazifa hisoblanadi.

Biroq, ushbu jarayonni amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud. Avvalo, institutsional muhitning yetarli darajada rivojlanmaganligi muhim to‘siq

hisoblanadi. Ko‘plab hollarda davlat organlari o‘rtasida koordinatsiya yetishmaydi, bu esa kompleks loyihalarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, normativ-huquqiy baza ham ko‘pincha zamonaviy talablarni to‘liq qondirmaydi. Yana bir muhim muammo – moliyaviy resurslarning cheklanganligi. Yashil va raqamli transformatsiya katta investitsiyalarni talab qiladi. Shu sababli, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Xususiy sektorni jalb qilish orqali infratuzilma loyihalarini tezroq va samaraliroq amalga oshirish mumkin.

Kadrlar masalasi ham alohida e’tiborni talab qiladi. Raqamli iqtisodiyot va yashil texnologiyalar sohasida malakali mutaxassislar yetishmasligi ko‘plab loyihalarning samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yangi mutaxassisliklarni joriy etish va mavjud kadrlarni qayta tayyorlash zarur. Mazkur muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, institutsional islohotlarni amalga oshirish zarur. Bu esa davlat boshqaruvi tizimini optimallashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va shaffoflikni oshirishni o‘z ichiga oladi. Raqamli platformalar asosida yagona boshqaruv tizimini yaratish orqali turli davlat organlari o‘rtasidagi koordinatsiyani yaxshilash mumkin.

Shuningdek, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish muhimdir. Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi qonunlar, standartlar va reglamentlarni ishlab chiqish zarur. Bu esa investorlar uchun qulay muhit yaratadi va innovatsion loyihalarni rag‘batlantiradi. Moliyaviy mexanizmlar ham muhim rol o‘ynaydi. “Yashil moliya” instrumentlarini joriy etish, masalan, yashil obligatsiyalar chiqarish orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirish mumkin. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Texnologik jihatdan esa sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things) va big data texnologiyalarini keng joriy etish zarur. Bu texnologiyalar yordamida hududiy rivojlanish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish va samarali boshqarish mumkin. Masalan, transport tizimini optimallashtirish orqali tirbandliklarni kamaytirish, energiya iste’molini nazorat qilish orqali esa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi zamonaviy rivojlanishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu integratsiya hududiy rivojlanish va urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, normativ-huquqiy bazani rivojlantirish, moliyaviy resurslarni jalb qilish va kadrlar salohiyatini oshirish zarur. Kelajakda aynan shu integratsiyalashgan yondashuv davlatlarning raqobatbardoshligini belgilab beradi. Yashil va raqamli transformatsiya nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar va amaliy islohotlar davomiy va tizimli bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. *Digital Economy Outlook 2020*. Paris: OECD Publishing, 2020.

2. European Commission. *The European Green Deal*. Brussels, 2019.
3. United Nations. *Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. New York, 2015.
4. International Telecommunication Union (ITU). *Measuring Digital Development: Facts and Figures 2022*. Geneva, 2022.
5. McKinsey Global Institute. *Digital Economy: Trends, Opportunities and Challenges*. 2021.
6. Asian Development Bank (ADB). *Asian Development Outlook 2023: Economic Integration for Resilient Growth*. Manila, 2023.
7. Porter, M. E., & Van der Linde, C. *Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship*. Journal of Economic Perspectives, 1995.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida farmon*. Toshkent, 2023.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *“Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)”*. Toshkent, 2019.
10. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish bo‘yicha milliy hisobot*. Toshkent, 2022.
11. Xodjiyev, B., & Rasulov, A. *Raqamli iqtisodiyot asoslari va rivojlanish tendensiyalari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.

O‘ZBEKISTONDA EKSPORT FAOLIYATINI YANADA FAOLLASHTIRISHNING ZARURATI VA ISTIQBOLLARI

D.Qarshiyev, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
e-mail: daniyarkarshiev@gmail.com

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashuv darajasini oshirish hamda eksport faoliyatini rivojlantirishni davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, xalqaro bozorlarda raqobatning kuchayishi va tashqi savdo munosabatlarining transformatsiyalashuvi sharoitida eksport salohiyatini kengaytirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini oshirish ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda xorijiy valyuta tushumlarini ko‘paytirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonlar “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, strategiyaning 55-maqsadida eksport hajmini 45 milliard AQSH dollariga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 15 mingtaga oshirish hamda eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini kengaytirish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalar iqtisodiyotning xomashyo eksportiga qaramligini kamaytirish, sanoatda chuqur qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etishni talab etadi. Shu bilan birga, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish

ham milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

I.N.Vasyutchenkoning ta’kidlashicha, eksportni qo‘llab-quvvatlash tizimi nafaqat tashqi savdo hajmini oshirishga, balki milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, eksport kreditlari, eksport sug‘urtasi, davlat kafolatlari hamda eksportoldi moliyalashtirish mexanizmlari eksportyor korxonalarning moliyaviy risklarini kamaytirishda muhim iqtisodiy instrument sifatida namoyon bo‘ladi.[4]

Germaniya, AQSH, Yaponiya va Ispaniya kabi davlatlarning eksportni qo‘llab-quvvatlash tajribasiga ko‘ra, ushbu mamlakatlarda eksportni moliyalashtirish maxsus davlat institutlari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, eksport kredit agentliklari va davlat moliyaviy institutlari eksportyorlarga uzoq muddatli kreditlar, sug‘urta himoyasi hamda xorijiy investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini yaratishi orqali tashqi savdo faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi.

Mazkur ilmiy yondashuv O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan eksport siyosati bilan ham uzviy bog‘liqdir. Xususan, “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ tomonidan eksportyor korxonalarga moliyaviy resurslar taqdim etilishi, sug‘urta xarajatlarini qoplash, xalqaro standartlarni joriy qilish hamda elektron savdo platformalariga integratsiyalashuvni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari xalqaro tajribaning milliy iqtisodiyotga moslashtirilayotganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bojxona va tashqi savdo tartiblarini liberallashtirish, eksport operatsiyalarini raqamlashtirish va eksportoldi moliyalashtirish tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar eksport faoliyatining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi samarali institutsional boshqaruv, moliyaviy rag‘batlantirish va xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish tizimi bilan uyg‘unlashgandagina yuqori natija beradi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda eksport faoliyatini yanada faollashtirish uchun eksport kreditlari, sug‘urta mexanizmlari, raqamli savdo platformalari hamda xalqaro logistika infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Eksport salohiyatini oshirish ko‘p jihatdan institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligiga bog‘liqdir. Shu sababli mamlakatda eksportni rag‘batlantirish va tashqi savdo tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Eksportni rag‘batlantirish agentligi hamda Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi negizida “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJning tashkil etilishi eksport boshqaruvi tizimini markazlashgan va samarali mexanizm asosida rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur kompaniyaning Savdo-sanoat palatasi tizimiga integratsiya qilinishi eksport faoliyatini tadbirkorlarning o‘zini o‘zi boshqarish tamoyiliga yaqinlashtirib, eksportchi korxonalarning muammolarini tezkor hal etish imkonini bermoqda.

[4] Васютченко И. Н. Государственная поддержка экспорта: мировой опыт //Terra Economicus. – 2010. – Т. 8. – №. 1-3. – С. 243-250.

Institutsional islohotlarning mantiqiy davomi sifatida eksport faoliyatini raqamlashtirish jarayonlari ham jadallashmoqda. Jumladan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni Alibaba.com, Wildberries va Ozon kabi xalqaro marketpleyslarga integratsiya qilish bo‘yicha dasturlarning joriy etilishi eksport faoliyatining zamonaviy raqamli modelini shakllantirmoqda. Mahsulotlarni xalqaro elektron platformalarda joylashtirish va reklama xarajatlarini moliyalashtirish mexanizmi eksportyor korxonalarning global elektron tijorat tizimidagi ishtirokini kengaytirib, savdo geografiyasini diversifikatsiya qilish imkonini yaratmoqda. Bu esa milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi ko‘rinuvchanligini oshirish bilan birga, eksport hajmi va xorijiy valyuta tushumlarining barqaror o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Eksport faoliyatini rivojlantirishda korxonalarni kompleks qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, eksportyor korxonalarga xorijdan malakali mutaxassislarni jalb qilish, chet elda savdo uylarini tashkil etish, sug‘urta xarajatlarini qoplash, moliyaviy resurslar taqdim etish hamda xalqaro standartlarni joriy qilish bo‘yicha ko‘mak berilishi eksport infratuzilmasining institutsional asoslarini mustahkamlamoqda. Ayniqsa, xalqaro standartlar va muvofiqlik sertifikatlarini joriy etish eksport mahsulotlari sifatini oshirib, ularning jahon bozori talablariga moslashuvini kuchaytiradi.

Eksport faoliyatining samaradorligini oshirish bojxona va tashqi savdo tartiblarini liberallashtirish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Xususan, risk darajasi past bo‘lgan operatsiyalar uchun avtomatik bojxona rasmiylashtiruvi tizimining joriy etilishi tashqi savdo operatsiyalarining tezkorligi va shaffofligini oshirmoqda. Shu bilan birga, oldindan deklaratsiya qilishda bojxona yig‘imlarining kamaytirilishi hamda kechiktirilgan to‘lovlar uchun foizlarning bekor qilinishi eksportyor korxonalarning moliyaviy yuklamasini kamaytirib, ularning aylanma mablag‘lari barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Davriy deklaratsiya tizimining joriy etilishi esa eksport-import operatsiyalarining moslashuvchanligini oshirib, tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay biznes muhitini shakllantirmoqda.

Yuqoridagi islohotlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda O‘zbekistonda eksport faoliyatining institutsional, moliyaviy va raqamli asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Natijada mamlakatning xalqaro savdo maydonidagi raqobatbardoshligi ortib, milliy mahsulotlarning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi jadallashmoqda. Bu esa eksport hajmini barqaror oshirish, iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini kengaytirish hamda O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini chuqurlashtirishning muhim strategik asosiga aylanmoqda.

НАТИЖАГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН БЮДЖЕТЛАШТИРИШГА ЎТИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Примова Нигора Икром қизи
Тошкент давлат иқтисодиёт университети доценти
e-mail: n.primova@tsue.uz

Ўзбекистон Республикаси Давлат молиясини бошқариш тизимини

такомиллаштириш стратегиясининг асосий мақсадларидан бири бу ўрта муддатли бюджет асосларини ишлаб чиқиш ҳамда йиллик бюджетни шакллантиришнинг янги “натижага йўналтирилган бюджет” (Дастурий бюджетлаштириш) тизимини жорий этишдир [1].

Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш (НЙБ) - бу давлат хизматларининг самарадорлиги ва самарасини оширишга қаратилган бюджет жараёнидаги замонавий ёндашувдир. АҚШда натижага йўналтирилган бюджетлаштириш 1990-йилларнинг ўрталаридан бошлаб амалиётга жорий этила бошланган. АҚШлик иқтисодчи Аллен Шик (Allen Schick) ўз ишларида НЙБнинг амалиётига доир муҳим таҳлилларни тақдим этган. У 2003 йилда чоп этган “The Performing State: Reflection on an Idea Whose Time Has Come but Whose Implementation Has Not” мақоласида НЙБнинг назария ва амалиётдаги муаммоларини ёритиб берган [2]. Дональд Мойниҳан (Donald Moynihan) 2008 йилда чоп этган “The Dynamics of Performance Management: Constructing Information and Reform” номли илмий ишида [3] НЙБнинг ижроия органларда қандай қўлланилиши ва уларнинг иш фаолиятига таъсирини ўрганган.

Европа Иттифоқида НЙБ “Spending Reviews” концепцияси доирасида ривожлантирилмоқда. Лондон иқтисод мактаби профессори Марк Халл (Mark Hall) ва унинг ҳамкорлари томонидан 2016 йилда эълон қилинган “Performance Budgeting in OECD Countries” номли тадқиқотида [4] ЕИдаги турли мамлакатлар тажрибасини қиёсий таҳлил қилган. Нидерланд олими Йохан Олдерс (Johan Alders) 2019 йилда чоп этган “Performance-Based Budgeting in the Netherlands” мақоласида [5] НЙБнинг Голландиядаги амалиёти ва харажатлар усулидан ўтиш жараёнидаги муаммоларни кўриб чиққан.

Ўзбекистонлик иқтисодчилардан Р.Х. Абдуллаев 2019 йилда эълон қилган “Ўзбекистонда натижага йўналтирилган бюджетлаштиришни жорий этишнинг назарий-методологик жиҳатлари” номли мақоласида [6] НЙБнинг миллий иқтисодиётда қўлланилишининг ўзига хос хусусиятларини кўриб чиққан. Шунингдек яна бир тадқиқотчи Ш.Т. Ҳожиева 2020 йилда эълон қилган “Бюджет ташкилотлари фаолиятини натижалар буйича баҳолаш методикаси” номли тадқиқотида [7] НЙБнинг амалиётида қўлланиладиги баҳолаш критерийларини ишлаб чиққан.

Бизнинг тадқиқотларимизда “натижага йўналтирилган бюджетлаштириш” технологиясини бюджетни шакллантириш ва ижро қилишнинг замонавий шакли деб айтиш мумкин. Мазкур технология бюджет харажатлари ва мазкур харажатлардан кутилаётган самара ўртасидаги ўзаро боғлиқликни, бюджет хизматларини кўрсатиш билан эришилган натижани ва уларнинг ижтимоий, иқтисодий самарадорлигини ва натижадорлигини ифодалайди деб таъкидлаганмиз [8].

Хорижий тажриба дастурий-мақсадли тамойиллар асосида қурилган бюджет жараёнига ўтишнинг иккита эҳтимолий варианти мавжудлигидан далолат беради. Биринчи вариант бюджет жараёнининг барча иштирокчилари (энг аввало, вазирлик ва идоралар) бюджет жараёнига дастурий-мақсадли тамойиллар элементларини босқичма-босқич жорий этишдан иборат. Иккинчи вариант қуйидагиларни назарда тутади:

1) дастурий-мақсадли бюджетлаштиришнинг барча асосий элементлари бир вақтнинг ўзида жорий этиладиган бир нечта пилот вазирликларни танлаш;

2) олинган натижалар таҳлили;

3) ислоҳотларнинг дастлабки режаларига тузатишлар киритиш;

4) тузатилган режаларни бошқа вазирлик ва идораларга татбиқ этиш.

Натижага йўналтирилган бюджетлаштиришга ўтиш, асосан, унинг ижросини назорат қилиш механизмларини босқичма-босқич ўзгартиришни назарда тутади. Бюджет ижросини назорат қилиш учта асосий босқичдан иборат:

1. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ҳисоб палатаси ва бошқалар каби марказий назорат органлари томонидан амалга ошириладиган харажатларнинг ташқи назорати.

2. Тармоқ вазирликларининг ўзлари томонидан амалга ошириладиган харажатларнинг ички назорати.

3. Тармоқ вазирликлари бўлинмаларининг бошқарув мустақиллиги, натижаларга эришишдаги масъулияти.

Шунга қарамай, бюджет ташкилотларида бюджетни режалаштиришнинг иккита моделидан муқобил равишда фойдаланиш мумкин. Биринчисида асосий эътибор харажатларни бошқариш ва батафсил назорат қилишга қаратилган бўлиб, натижалар ноаниқ кўрсатилган (анъанавий харажат модели). Бундай моделни харажатли деб аташ мумкин. Иккинчиси (натижавий модель ёки НЙБ) харажатларнинг фақат юқори чегараларини белгилаган ҳолда натижаларни назорат қилиш ва бошқаришни назарда тутади (1-жадвал).

1-жадвал

Бюджетни режалаштириш кўрсаткичлари

Анъанавий Бюджетлаштири НЙБ				
Харажатлар. Бюджет харажатлари.	Ресурслар	Тадбирлар. Фаолият жараёнлари	Бюджет хизматлари. Бевосита натижа	Самара Охирги натижа

Натижага йўналтирилган бюджетлаштиришни жорий этиш орқали Иқтисодиёт ва молия вазирлиги назорат функцияларини тармоқ вазирликларига ўтказиш ва давлат сиёсати масалаларига ҳамда бюджет харажатларининг самарадорлигини таҳлил қилишга кўпроқ эътибор қаратиш, уларни давлат сиёсатининг устувор йўналишлари билан ўзаро боғлаш имкониятига эга бўлмоқда.

Тармоқ вазирликлари учун натижага йўналтирилган бюджетлаштиришнинг афзалликлари назорат қилувчи органларнинг улар фаолияти устидан майда васийлик қилишдан воз кечиши ва уларга юклатилган давлат функцияларини бажаришда кўпроқ эркинлик беришдан иборат. Тармоқ вазирликлари учун бу яна шуни англатадики, улар бюджет буюртмаларини натижага йўналтирилган бюджетлаштириш талабларига мувофиқ асослашлари ва парламентда ўзлари ҳимоя қилишлари керак.

Умуман олганда, жамият учун натижага йўналтирилган бюджетлаштиришнинг аҳамияти шундаки, у ҳукумат ўз олдига қандай мақсадларни қўяётганини, улар аҳолининг (турли гуруҳлари) эҳтиёжларига қанчалик жавоб беришини ва ҳукумат белгиланган мақсадларга қай даражада эришаётганини яхшироқ тушунишга имкон беради.

Натижага йўналтирилган бюджетлаштириш тамойилларини жорий этиш билан бир қаторда, ушбу тамойилнинг бошқа томони бўлган маъмурий ислоҳот, бюджет ҳисоби тизимини ўзгартириш, бюджет таснифи, бюджет муассасалари тармоғини қайта тузиш ва бошқалар амалга оширилмоқда. Бу жараёнлар ҳали тугалланмаган ва улар ўзаро боғлиқ бўлиши керак. Шунинг учун мамлакат ва бутун бюджет тизимининг янги тамойилларга ўтишга тўлиқ тайёрлиги ҳақида гапириш мумкин эмас.

Хулоса қилиб айтганда, натижага йўналтирилган бюджетлаштиришга ўтиш Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожи ва давлат бошқаруви самарадорлигини оширишнинг муҳим омили бўлиб, унинг муваффақлиги босқичма-босқич, изчил ва барча ҳайъатларнинг ўзаро ҳамкорлигидаги комплекс ёндашувни талаб этади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 24.08.2020 йилдаги “2020 — 2024 йилларда Ўзбекистон Республикаси давлат молиясини бошқариш тизимини такомиллаштириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 506-сон Қарори. https://lex.uz/docs/4966572

2. Allen Schick, 2003. “The Performing State: Reflection on an Idea Whose Time Has Come but Whose Implementation Has Not.” OECD Journal on Budgeting, OECD Publishing, vol. 3(2), pages 71-103.

3. Moynihan, D.P. (2008) The Dynamics of Performance Management: Constructing Information and Reform. Georgetown University Press, Washington DC.

4. Hall, M. (2016). Performance Budgeting in OECD Countries. OECD Journal on Budgeting.

5. Alders, J. (2019). Performance-Based Budgeting in the Netherlands. Public Money & Management.

6. Абдуллаев Р.Х. (2019). Ўзбекистонда натижага йўналтирилган бюджетлаштиришни жорий этишнинг назарий-методологик жиҳатлари. Иқтисод ва инновацион технологиялар илмий-электрон журнали.2019 й.

7. Ҳожиева Ш.Т. Бюджет ташкилотлари фаолиятини натибалар буйича баҳолаш методикаси. Молия ва бозор иқтисодиёти. 2020 й.

8. Примова Н. Ўзбекистонда натижага йўналтирилган бюджетлаштириш механизмини ривожлантириш. // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” илмий-электрон журнали. 2024 й. №4-сон.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА ДО 2030 ГОДА

Давлетова Холисахон Рахимджановна
Старший преподаватель Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий
e-mail: holisa23459@mail.ru

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые направления экономических и институциональных преобразований в рамках стратегии развития Республики Узбекистан «Новый Узбекистан - 2030». Анализируются реформы в области экономики, государственного управления, цифровизации и социальной политики. Особое внимание уделяется институциональным изменениям, направленным на повышение эффективности государственного управления и устойчивого экономического роста.

Ключевые слова. Стратегия 2030, институциональные реформы, экономическое развитие, цифровизация, Узбекистан.

Введение. Стратегия развития Узбекистан до 2030 года является комплексной программой, направленной на модернизацию экономики и государственных институтов. Основная цель стратегии — повышение уровня жизни населения, обеспечение устойчивого экономического роста и формирование конкурентоспособной национальной экономики.

1. Основные цели стратегии «Новый Узбекистан – 2030». Стратегия включает следующие ключевые направления:

- ускоренное экономическое развитие
- укрепление институтов государственного управления
- цифровизация экономики
- развитие человеческого капитала
- обеспечение экологической устойчивости

Таблица 1

Основные направления реформ

Направление	**Содержание**	**Ожидаемый результат**
Экономические реформы	Либерализация рынка, поддержка бизнеса	Рост ВВП
Институциональные реформы	Реформа госуправления	Повышение эффективности
Цифровизация	Электронное правительство, ИТ-сектор	Прозрачность и скорость услуг
Социальная политика	Образование и здравоохранение	Повышение качества жизни
Экология	«зелёная экономика»	Устойчивое развитие

2. Экономические преобразования. Экономические реформы направлены на создание конкурентной рыночной среды. Основные меры включают:

- приватизацию государственных предприятий
- развитие малого и среднего бизнеса
- привлечение иностранных инвестиций

- поддержку инноваций

3. Институциональные изменения. Институциональные реформы играют ключевую роль в модернизации государства. Основные направления:

- реформирование судебной системы
- повышение прозрачности государственного управления
- борьба с коррупцией
- развитие электронного правительства

Таблица 2

Институциональные реформы и их влияние

Реформа	**Инструмент**	**Влияние**
Судебная система	Независимость судов	Рост доверия
Госуправление	Цифровизация	Снижение бюрократии
Антикоррупция	Прозрачность	Улучшение инвестклимата

4. Цифровая трансформация экономики. Цифровизация является одним из ключевых элементов стратегии. Она включает развитие ИТ-инфраструктуры, электронных услуг и цифровых платформ.




График 1. Динамика роста цифровой экономики в 2018-2023 гг. демонстрирует устойчивый рост сектора

График отражает условную динамику роста цифрового сектора экономики в период с 2018 по 2023 годы. Высота столбцов показывает постепенное увеличение показателей цифровизации, что свидетельствует о устойчивом развитии цифровой инфраструктуры и технологий.

2018–2019 гг. - начальный этап цифровой трансформации, характеризующийся внедрением базовых технологий и ростом онлайн-сервисов.

2020–2021 гг. - ускорение цифровизации, вызванное глобальными изменениями в экономике и переходом к дистанционным форматам работы.

2022–2023 гг.- этап зрелости цифровой экономики, когда цифровые платформы становятся ключевыми элементами экономического роста.

График демонстрирует устойчивую положительную тенденцию, подтверждающую, что цифровизация становится основным драйвером экономического развития. Такое изображение можно использовать в научных

статьях, презентациях и аналитических отчётах как иллюстрацию закономерного роста цифрового сектора.

5. Социально-экономические результаты. Реализация стратегии приводит к следующим результатам:

- рост занятости
- увеличение доходов населения
- развитие инфраструктуры
- улучшение инвестиционного климата

Таблица 3

Социально-экономические показатели

Показатель	**До реформ**	**После реформ**
ВВП	Средний рост	Ускоренный рост
Инвестиции	Ограниченные	Существенный рост
Цифровые услуги	Слабые	Развитые
Занятость	Средняя	Рост

Заключение. Таким образом, стратегия «Новый Узбекистан – 2030» представляет собой комплексную программу модернизации экономики и государственных институтов. Её реализация обеспечивает переход к инновационной, цифровой и устойчивой модели развития. Особую роль играют институциональные реформы, направленные на повышение эффективности управления и укрепление правовых основ государства.

Использованная литература:

1. Стратегия развития Республики Узбекистан «Новый Узбекистан – 2030». — Ташкент, 2023.
2. World Bank. Uzbekistan Development Report. — Washington, 2022.
3. Asian Development Bank. Uzbekistan Economic Outlook. — Manila, 2023.
4. OECD. Digital Transformation in Emerging Economies. — Paris, 2021.
5. United Nations. Sustainable Development Goals Report. — New York, 2023.
6. Porter M. Competitive Advantage of Nations. — Harvard University Press.
7. Acemoglu D., Robinson J. Why Nations Fail. — New York, 2012.

KLASTERLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING “O‘ZBEKISTON–2030” STRATEGIK KONSEPSIYASI BILAN UYG‘UNLIGI

Sherkulov Shohruh Erkin o‘g‘li
TDIU “Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi v.b. dotsenti
e-mail: sherkulovshokhrukh@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekistonda klasterlar faoliyatini rivojlantirish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalasi “O‘zbekiston–2030” strategik konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida klasterlar nafaqat ishlab chiqarish kooperatsiyasi shakli, balki innovatsion iqtisodiyot, eksport salohiyati, hududiy rivojlanish,

bandlik, texnologik modernizatsiya va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, paxta-to‘qimachilik, oziq-ovqat, agrologistika, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarida klaster modelining rivojlanishi “xomashyo - qayta ishlash - tayyor mahsulot - eksport” zanjirini shakllantirish orqali qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: klaster, klaster samaradorligi, O‘zbekiston–2030, mahsulot raqobatbardoshligi, eksport salohiyati, qo‘shilgan qiymat, innovatsion rivojlanish, agrologistika, sanoat modernizatsiyasi.

Kirish

Hozirgi global iqtisodiy jarayonlar shuni ko‘rsatmoqdaki, milliy iqtisodiyotlarning barqaror o‘sishi faqat tabiiy resurslar yoki arzon ishchi kuchi hisobiga emas, balki ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi chuqur kooperatsiya, innovatsion faoliyat, ilm-fan va biznes integratsiyasi, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hamda qo‘shilgan qiymat zanjirlarini shakllantirish orqali ta’minlanadi. Ana shunday sharoitda klasterlar iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan modernizatsiya qilishning eng samarali institutsional shakllaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Klasterlar bir hududda yoki bir tarmoq doirasida joylashgan, o‘zaro texnologik, iqtisodiy va institutsional aloqalarga ega bo‘lgan korxonalar, ta’minotchilar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, ilmiy muassasalar va infratuzilma subyektlari majmuasidir. Ular iqtisodiyotda kooperatsiyani kuchaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion yechimlarni tez joriy etish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda esa klasterlar, ayniqsa, paxta-to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi sohalarida xomashyo yetishtirishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona zanjirga birlashtirish orqali iqtisodiy islohotlarning muhim bo‘g‘iniga aylanmoqda.

Rasmiy hujjatlarda paxta-to‘qimachilik klasteri paxta xomashyosini yetishtirish yoki shartnoma asosida sotib olishdan boshlab, uni boshqa xo‘jalik subyektlari bilan hamkorlikda chuqur qayta ishlash jarayonlarini o‘z ichiga olgan ishlab chiqarish majmuasi sifatida izohlanadi. Bu ta’rif klasterning oddiy ishlab chiqaruvchi korxona emas, balki to‘liq qiymat zanjirini birlashtiruvchi iqtisodiy tizim ekanini ko‘rsatadi.

“O‘zbekiston–2030” strategik konsepsiyasi klasterlar rivoji uchun yangi nazariy va amaliy maydon yaratadi. Chunki mazkur strategiyada mamlakatni “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga olib chiqish, YaIM hajmini 240 milliard AQSh dollaridan oshirish, aholi jon boshiga YaIMni 5,8 ming AQSh dollaridan yuqori darajaga yetkazish, investitsiyalar o‘sishini ta’minlash kabi maqsadlar belgilangan. Bu ko‘rsatkichlarga erishish uchun iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan, eksportga yo‘naltirilgan, innovatsion va samarali ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish zarur.

Shu nuqtai nazardan, klasterlar faoliyati samaradorligini oshirish masalasi “O‘zbekiston–2030” strategiyasining iqtisodiy mazmuni bilan bevosita uyg‘unlashadi. Klasterlar orqali bir tomondan, mahalliy xomashyo chuqur qayta

ishlanadi, ikkinchi tomondan, tayyor mahsulotlar eksporti kengayadi, uchinchi tomondan, hududlarda ish o‘rinlari yaratiladi, to‘rtinchi tomondan, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik mustahkamlanadi. Natijada klasterlar mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik, aholi bandligi, innovatsion rivojlanish va mahsulot raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Klasterlar samaradorligini baholashda bir necha mezonlar muhim ahamiyatga ega. Birinchi mezon - ishlab chiqarish samaradorligi. Bu mehnat unumdorligi, hosildorlik, fond qaytimi, energiya tejamkorligi va tannarx ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi. Ikkinchi mezon - innovatsion samaradorlik. Bu yangi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish, raqamli boshqaruv tizimlarini qo‘llash bilan bog‘liq. Uchinchi mezon - eksport samaradorligi. Bu tayyor mahsulot ulushi, eksport geografiyasi, xalqaro standartlarga moslik va tashqi bozorda raqobatbardoshlik orqali namoyon bo‘ladi. To‘rtinchi mezon - ijtimoiy samaradorlik. Bu bandlik, daromadlar, kasbiy ko‘nikmalar va hududiy rivojlanish bilan bog‘liq. Beshinchi mezon - ekologik samaradorlik. Bu suv, yer, energiya resurslaridan oqilona foydalanish, yashil texnologiyalar va chiqindilarni kamaytirish orqali belgilanadi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasi aynan shu mezonlar bilan uyg‘unlashgan holda mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishni ko‘zlaydi. Strategiyada “maqsad - harakat - natija” zanjiriga asoslangan yangi strategik rejalashtirish tizimi joriy etilgani alohida qayd etilgan. Bu yondashuv klasterlar faoliyatini ham aniq maqsadlar, resurslar, harakatlar va natijalar asosida boshqarish zarurligini ko‘rsatadi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining iqtisodiy mazmuni klasterlar rivojlanishi uchun bir nechta asosiy yo‘nalishlarni belgilab beradi. Birinchidan, bu - sanoatni texnologik modernizatsiya qilishdir. Strategiyada mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish vazifasi qo‘yilgan. Jumladan, sanoatda texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2023-yilga nisbatan 2,5 baravarga oshirish maqsadi belgilangan.

Bu maqsad klasterlar uchun bevosita dolzarbdir. Chunki klasterlar faqat xomashyo yetishtirish bilan cheklanib qolsa, ularning iqtisodiy samarasi past bo‘ladi. Aksincha, xomashyoni chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, dizayn, brending, qadoqlash, marketing va eksport bosqichlarini o‘z ichiga olgan klasterlar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadi. Masalan, paxta xomashyosini faqat tolaga aylantirish bilan cheklanish birlamchi qiymat yaratadi. Uni ip-kalava, mato, bo‘yalgan gazlama, tikuv-trikotaj mahsuloti va brendlangan eksport mahsulotiga aylantirish esa bir necha barobar yuqori qiymat yaratadi.

Ikkinchidan, strategiya eksport salohiyatini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratadi. Hujjatda milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirish va eksport tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ulushini keskin ko‘paytirish vazifasi belgilangan. Jami eksport hajmini oltinsiz yillik 15 foizga oshirish, eksportchi korxonalar sonini 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 70 foizga yetkazish hamda xalqaro standartlar joriy qilgan korxonalar sonini 5 mingtaga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Uchinchidan, strategiya qishloq xo‘jaligi va agrosanoat majmuasi samaradorligini oshirishga alohida e’tibor beradi. Hujjatda qishloq xo‘jaligi eksportini yiliga 10 milliard AQSh dollariga yetkazish, paxta hosildorligini o‘rtacha 45–50 sentnerga, g‘alla hosildorligini 90–100 sentnerga yetkazish, resurs tejamkor texnologiyalar joriy qilingan paxta va g‘alla maydonlarini 51 foizga yetkazish belgilangan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ko‘rsatkichini 27 foizga, agrologistika markazlari quvvatini 2,5 million tonnaga yetkazish ko‘zda tutilgan.

To‘rtinchidan, strategiyada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi muhim o‘rin tutadi. Hujjatda iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish va “korxona - oliy ta’lim muassasasi - ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish vazifasi belgilangan. Shu bilan birga, amaliy tadqiqot loyihalari sonini 1600 taga, innovatsion mahsulotlar turini 850 taga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Beshinchidan, strategiyada yashil iqtisodiyot va resurs tejamkorlik masalalari muhim o‘rin egallaydi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami generatsiyadagi ulushini 54 foizga yetkazish, issiqxona gazlarini YaIM birligiga nisbatan 2010-yil darajasidan 35 foizga qisqartirish hamda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 ming MVtga yetkazish maqsad qilingan.

Klasterlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning hududiy iqtisodiyotni jonlantirish imkoniyatidir. Har bir hudud o‘zining tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, tarixiy ixtisoslashuvi va infratuzilmasiga ega. Klaster yondashuvi shu hududiy imkoniyatlarni iqtisodiy natijaga aylantiradi. Masalan, Farg‘ona vodiysida to‘qimachilik, bog‘dorchilik va oziq-ovqat sanoati klasterlarini rivojlantirish, Qashqadaryo va Surxondaryoda paxta-to‘qimachilik, chorvachilik va meva-sabzavot klasterlarini kengaytirish, Buxoro va Navoiyda qorako‘lchilik, ipakchilik, turizm va sanoat klasterlarini shakllantirish orqali hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirish mumkin.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasida hududlar kesimida alohida rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish nazarda tutilgani klaster siyosatini mintaqaviy rivojlanish bilan bog‘lash imkonini beradi. Strategik rejalashtirish hujjatlari ro‘yxatida mehnat bozori, yengil sanoat, ichimlik suvi, transport, energetika va hududlarni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyalari belgilangan. Bu esa klasterlarni faqat tarmoq siyosati emas, balki hududiy siyosatning ham muhim elementi sifatida ko‘rish zarurligini anglatadi.

Klasterlarning hududiy samaradorligi uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi - mahalliy resurslardan foydalanish samaradorligi. Klasterlar hududdagi xomashyo, yer, suv, mehnat va infratuzilma salohiyatidan kompleks foydalanadi. Ikkinchisi - mahalliy bandlikni oshirish. Klasterlar ishlab chiqarish zanjirining turli bosqichlarida yangi ish o‘rinlari yaratadi. Strategiyada ishsizlik darajasini 4 foizgacha tushirish, 2 million nafar fuqaroni kasb-hunar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarga o‘qitish maqsadlari belgilangan. Uchinchisi - hududiy eksport salohiyatini oshirish. Klasterlar mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqish, eksport geografiyasini kengaytirish va hudud brendini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda klasterlar rivojlanishi ijobiy natijalar bilan birga ayrim muammolarni ham yuzaga chiqarmoqda. Birinchidan, ayrim klasterlarda vertikal integratsiya to‘liq shakllanmagan. Ya’ni ayrim subyektlar xomashyo yetishtirish va dastlabki qayta ishlash bosqichida faol bo‘lsa-da, tayyor mahsulot ishlab chiqarish, brending va eksport bosqichlarida yetarli quvvatga ega emas. Bu esa qo‘shilgan qiymatning katta qismini yo‘qotishga olib keladi.

Ikkinchidan, fermerlar va klasterlar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarda muvozanat yetarli darajada emas. Klasterlar fermerlar uchun texnika, urug‘, o‘g‘it, yoqilg‘i, agroxizmat va moliyaviy resurslarni yetkazib berishi, fermerlar esa mahsulot yetkazib berish majburiyatini bajarishi kerak. Biroq bu jarayonda narx belgilash, to‘lov intizomi, shartnoma shaffofligi va risklarni taqsimlash masalalari muhim ahamiyatga ega. Shu sababli klaster-fermer munosabatlarida bozor tamoyillariga asoslangan, adolatli va shaffof mexanizm zarur.

Uchinchidan, ayrim klasterlarda moliyaviy barqarorlik masalasi dolzarb. Kredit yukining yuqoriligi, aylanma mablag‘ yetishmovchiligi, eksport tushumlarining kechikishi, xomashyo narxlaridagi tebranishlar va jahon bozoridagi noaniqliklar klasterlarning investitsion imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli klasterlar uchun moliyaviy sog‘lomlashtirish, sug‘urta, kafillik, eksport kreditlari va investitsion fondlardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

To‘rtinchidan, innovatsion faoliyat yetarli darajada emas. Ko‘plab klasterlarda ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari, mahsulot dizayni, raqamli boshqaruv, sun’iy intellekt asosida monitoring, suv va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hali to‘liq rivojlanmagan. Bu esa “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan texnologik modernizatsiya va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadlariga to‘liq mos kelmaydi.

Beshinchidan, xalqaro standartlar va sertifikatlash masalasi ham muhim. Eksportga chiqish uchun mahsulot faqat arzon bo‘lishi yetarli emas; u sifat, ekologik xavfsizlik, mehnat standartlari, qadoqlash, izchillik va brend talablariga javob berishi kerak. Strategiyada eksport qilishda xalqaro standartlar joriy qilgan korxonalar sonini 5 mingtaga yetkazish vazifasi qo‘yilgani klasterlar uchun ham aniq yo‘nalishdir.

Klasterlar faoliyatini “O‘zbekiston–2030” strategiyasiga moslashtirish uchun birinchi navbatda samaradorlik ko‘rsatkichlarini qayta ko‘rib chiqish zarur. Hozirgi sharoitda klasterlar faoliyatini faqat ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi yoki yer maydoni bilan baholash yetarli emas. Klaster samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali baholanishi maqsadga muvofiq: bir gektardan olinadigan sof foyda; mahsulotning qayta ishlanish darajasi; tayyor mahsulot ulushi; eksport tushumi; xalqaro standartlarga mos mahsulot ulushi; suv va energiya sarfi; yaratilgan ish o‘rinlari; fermerlar bilan hisob-kitob intizomi; ilmiy-innovatsion loyihalar soni; raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilganlik darajasi.

Ikkinchi mexanizm - klasterlarda qo‘shilgan qiymat zanjirini to‘liq shakllantirishdir. Har bir klaster xomashyo yetishtirishdan tayyor mahsulot va eksportgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga olishi kerak. Bunda to‘qimachilik klasterlari uchun ip-kalava, mato, bo‘yash, tikuv-trikotaj, dizayn, brending va

eksport savdo uylari muhim hisoblanadi. Oziq-ovqat klasterlari uchun esa saqlash, saralash, qadoqlash, muzlatish, qayta ishlash, sertifikatlash va logistika markazlari zarur. Bu yondashuv strategiyada belgilangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va agrologistika quvvatlarini kengaytirish maqsadlari bilan mos keladi.

Uchinchi mexanizm - klasterlarda innovatsion boshqaruvni joriy etishdir. Har bir yirik klaster huzurida ilmiy-amaliy markaz yoki innovatsion laboratoriya tashkil etilishi lozim. Bu markazlar hosildorlikni oshirish, tuproq unumdorligini tahlil qilish, suv sarfini kamaytirish, yangi mahsulot turlarini yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlashi kerak. “Korxona - oliy ta’lim muassasasi - ilmiy tashkilot” klaster tizimi aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

To‘rtinchi mexanizm - klaster-fermer munosabatlarini takomillashtirishdir. Fermerlar klaster tizimida faqat xomashyo yetkazib beruvchi subyekt emas, balki teng huquqli iqtisodiy hamkor sifatida ishtirok etishi lozim. Shartnomalarda narx, yetkazib berish muddati, xizmatlar qiymati, kredit va avanslar, sifat talablari, risklarni taqsimlash va nizolarni hal qilish mexanizmlari aniq belgilanishi kerak. Shu bilan birga, fermerlarning klaster foydasidan manfaatdorligini oshirish uchun bonus, dividend, kooperativ ulush yoki sifatga qarab rag‘batlantirish tizimlarini joriy etish mumkin.

Beshinchi mexanizm - klasterlarni moliyaviy barqarorlashtirishdir. Bunda uzoq muddatli investitsiya kreditlari, eksport oldi moliyalashtirish, sug‘urta, lizing, kafolat fondlari, yashil moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish muhimdir. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida tavakkalchilik yuqori bo‘lgani sababli hosil sug‘urtasi, narx tebranishlaridan himoyalash, iqlim risklarini kamaytirish va moliyaviy risklarni taqsimlash tizimlari klasterlar samaradorligini oshiradi.

Oltinchi mexanizm - yashil klaster modelini rivojlantirishdir. Kelajakda xalqaro bozorlarda faqat narx va hajm emas, balki mahsulotning ekologik tozaligi, uglerod izi, suv sarfi, ishlab chiqarish shaffofligi va mehnat standartlari ham muhim bo‘ladi. Shu bois klasterlarda qayta tiklanuvchi energiya, suv tejamkor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik audit va yashil sertifikatlash tizimlarini kengaytirish zarur. Bu yo‘nalish “O‘zbekiston–2030” strategiyasidagi yashil iqtisodiyotga o‘tish maqsadlari bilan to‘liq mos keladi.

Klasterlar faoliyatini “O‘zbekiston–2030” strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish bir necha muhim natijalarga olib keladi. Birinchidan, mahsulot raqobatbardoshligi oshadi. Chunki klasterlar ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini yagona tizimga birlashtirib, sifat, tannarx, dizayn, standart va eksport talablarini muvofiqlashtiradi. Ikkinchidan, qo‘shilgan qiymat yaratilishi kuchayadi. Xomashyoni chuqur qayta ishlash tayyor mahsulot ulushini oshiradi va milliy iqtisodiyotda yuqori daromadli ishlab chiqarishlarni kengaytiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, klasterlar faoliyatini rivojlantirish “O‘zbekiston–2030” strategik konsepsiyasining iqtisodiy maqsadlari bilan bevosita uyg‘unlashadi. Strategiyada belgilangan yuqori iqtisodiy o‘sish, sanoat modernizatsiyasi, eksport salohiyatini oshirish, qishloq xo‘jaligida hosildorlik va qayta ishlash darajasini

ko‘tarish, innovatsion mahsulotlar yaratish, yashil iqtisodiyotga o‘tish va hududiy rivojlanishni jadallashtirish kabi ustuvor vazifalar klasterlar samaradorligini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Klasterlar O‘zbekiston sharoitida oddiy ishlab chiqarish birlashmasi emas, balki iqtisodiy o‘sishning kompleks institutsional mexanizmi sifatida qaralishi lozim. Ular xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, sanoatlashuv, eksport, innovatsiya, bandlik va hududiy rivojlanishni yagona tizimga birlashtiradi. Shu bois klasterlar faoliyatini baholashda faqat ishlab chiqarish hajmi emas, balki qo‘shilgan qiymat, eksport ulushi, xalqaro standartlarga moslik, innovatsion faollik, ekologik samaradorlik va ijtimoiy natijalar kabi ko‘rsatkichlar asosiy mezon bo‘lishi kerak.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasining “maqsad - harakat - natija” tamoyili klasterlar faoliyatini ham aniq natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimiga o‘tkazishni talab qiladi. Buning uchun klasterlarda raqamli monitoring, shaffof shartnomaviy munosabatlar, fermerlar bilan manfaatli hamkorlik, ilmiy tadqiqotlar bilan integratsiya, xalqaro standartlar, moliyaviy barqarorlik va yashil texnologiyalarni joriy etish zarur. Ana shunda klasterlar O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim drayverga aylanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni - “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-dekabrdagi 733-son qarori - “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi axboroti - 2024-yil paxta mavsumiga tayyorgarlik va monitoring jarayonlari.
4. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti - “O‘zbekistonda klasterlarning rivojlanish tendensiyasi va xususiyatlari”.

AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA REKRUTING AGENTLIKLARI ORQALI GENDER TENG IMKONIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada aholi bandligini oshirish jarayonida rekruting agentliklarining gender teng imkoniyatlarni shakllantirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Mehnat bozorida ish beruvchi va ish qidiruvchi o‘rtasidagi axborot nomutanosibligini kamaytirish, ishga yollash jarayonini shaffoflashtirish hamda ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashda rekruting agentliklari muhim institutsional vosita sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonunida xususiy bandlik agentliklari faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, ochiqlik, shaffoflik va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik belgilangan . Shu bilan birga, “Aholi bandligi

to‘g‘risida”gi Qonunda bandlik sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta’minlash vazifasi belgilangan . Maqolada genderga sezgir rekruting mexanizmi, baholash indikatorlari, SWOT tahlil va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: aholi bandligi, rekruting agentliklari, gender tenglik, mehnat bozori, ishga yollash, xotin-qizlar bandligi, institutsional mexanizm, teng imkoniyatlar.

Kirish

XXI asrda mehnat bozori tarkibiy jihatdan jadal o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, xizmatlar sohasining kengayishi, masofaviy mehnat, moslashuvchan ish shakllari va malakaga asoslangan raqobat ishga yollash jarayonlarini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Bunday sharoitda rekruting agentliklari ish beruvchilar va ish qidiruvchilar o‘rtasida vositachi institut sifatida maydonga chiqib, bandlikni oshirish, bo‘sh ish o‘rinlari haqida axborot yetkazish, nomzodlarni saralash va ishga joylashtirish jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, mazkur qonunning maqsadi xususiy bandlik agentliklarining faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat . Qonunda ish qidirayotgan shaxslarga ish tanlash bo‘yicha xizmatlar shartnoma asosida ko‘rsatilishi, bunday xizmatlarga nomzodlar haqidagi axborotni ish beruvchilarga yetkazish, bo‘sh ish o‘rinlariga ega ish beruvchilarni izlash, ish beruvchi bilan muzokaralar o‘tkazish, suhbatga tayyorlash va mehnat shartnomasi loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish kabi vazifalar kirishi belgilangan . Demak, rekruting agentligi faqatgina nomzod topuvchi tashkilot emas, balki mehnat bozorida axborot, tanlov, maslahat, saralash va huquqiy ko‘mak funksiyalarini bajaruvchi institutsional subyektdir.

Mazkur jarayonda gender tenglik masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bandlik darajasidagi gender tafovutlar iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik, kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitalidan samarali foydalanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2021-yilda ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki erkaklarnikidan 28 foiz punktga past bo‘lgan; agar ayollar iqtisodiyotda erkaklar bilan teng darajada ishtirok etsa, milliy daromad 29 foizga oshishi mumkinligi qayd etilgan . Jahon banki Gender Data Portal ma’lumotlarida 2025-yil uchun O‘zbekistonda ayollar mehnat kuchida ishtiroki 41,2 foiz, erkaklarniki esa 73,9 foiz deb ko‘rsatilgan .

Shu sababli aholi bandligini oshirishda rekruting agentliklari orqali gender teng imkoniyatlarni shakllantirish nafaqat ijtimoiy adolat masalasi, balki iqtisodiy samaradorlik, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va raqobatbardosh mehnat bozorini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘zbekiston Milliy statistika qo‘mitasi gender statistikasi portalida gender tafovutlarni o‘rganishga xizmat qiluvchi 120 dan ortiq indikator mavjudligi qayd etilgan . Bu esa mehnat bozorida genderga oid tafovutlarni muntazam o‘lchash, tahlil qilish va rekruting agentliklari faoliyatini baholash uchun muhim axborot bazasini shakllantiradi.

1-jadval

Rekruting agentliklari orqali gender teng imkoniyatlarnishakllantirishning konseptual modeli

Bosqich	An’anaviy rekrutingdagi muammo	Genderga sezgir yondashuv	Kutiladigan natija
Bo‘sh ish o‘rnini e’lon qilish	E’londa “erkak kishi kerak”, “faqat ayollar” kabi cheklovchi iboralar ishlatilishi mumkin	Kasb va lavozim talablari faqat malaka, tajriba va kompetensiyaga asoslanadi	Nomzodlar bazasi kengayadi
Nomzodlarni qidirish	Ayollar ayrim sohalarda kamroq jalb qilinadi	Ayollar va erkaklar uchun teng axborot kanallari yaratiladi	Mehnat bozorida inklyuzivlik oshadi
CV saralash	Oilaviy holat, yosh yoki jinsga qarab norasmiy tanlov bo‘lishi mumkin	Anonimlashtirilgan yoki kompetensiyaga asoslangan saralash qo‘llanadi	Tanlov xolisligi kuchayadi
Suhbat jarayoni	Ayollarga oilaviy majburiyatlar haqida ortiqcha savollar berilishi mumkin	Standartlashtirilgan savollar va baholash mezonlari qo‘llanadi	Subyektivlik kamayadi
Ishga joylashtirish	Erkaklar yuqori haq to‘lanadigan lavozimlarga ko‘proq yo‘naltirilishi mumkin	Ish haqi, lavozim va o‘sish imkoniyatlari bo‘yicha teng yondashuv joriy etiladi	Gender tafovut qisqaradi
Monitoring	Ishga joylashtirilgandan keyingi natijalar kuzatilmaydi	Ayollar va erkaklar kesimida joylashish, ish haqi, barqarorlik tahlil qilinadi	Sifatli bandlik oshadi

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, gender tenglik faqat ishga qabul qilishning yakuniy bosqichida emas, balki butun rekruting zanjiri davomida ta’minlanishi kerak. Ayniqsa, e’lon matni, nomzodlarni qidirish kanallari, suhbat savollari va ish haqi bo‘yicha takliflar gender xolislik mezonlariga mos bo‘lishi zarur.

2-jadval

O‘zbekistonda gender teng rekruting uchun huquqiy asoslar

Huquqiy hujjat	Mazmuni	Rekruting agentliklari uchun ahamiyati
“Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonun	Xususiy bandlik agentliklari faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi	Agentlik faoliyatining qonuniy, shaffof va kamsitishsiz bo‘lishini talab qiladi
“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun	Bandlik sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta’minlashni belgilaydi	Ishga joylashtirishda gender tenglikni bandlik siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida ko‘rsatadi
“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun	Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat	Mehnat munosabatlari, iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy sohalarda gender tenglikka huquqiy asos yaratadi
Xalqaro mehnat standartlari	ILOning xususiy bandlik agentliklari bo‘yicha 181-konvensiyasi agentliklarni tartibga solish va ishchilarni himoya qilish uchun asosiy xalqaro me’yor sifatida talqin qilinadi	Rekruting jarayonida shaffoflik, adolat va nomzodlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi

Ushbu huquqiy asoslar shuni ko‘rsatadiki, gender teng imkoniyatlarni ta’minlash O‘zbekistonda faqat ijtimoiy masala emas, balki bandlik siyosati va mehnat munosabatlarining huquqiy talabi hisoblanadi.

3-jadval

Rekruting jarayonida gender tenglikka salbiy ta’sir qiluvchi omillar

Omillar guruhi	**Muammo mazmuni**	**Aholi bandligiga ta’siri**
Ijtimoiy stereotiplar	Ayrim kasblar “erkaklar kasbi” yoki “ayollar kasbi” sifatida qaraladi	Ayollar va erkaklarning ayrim sohalarga kirish imkoniyati cheklanadi
Axborot nomutanosibligi	Ayollar yuqori daromadli ish o‘rinlari haqida kamroq axborot olishi mumkin	Nomzodlar bazasi torayadi
Norasmiy tanlov mezonlari	Oilaviy holat, farzand borligi, yosh kabi omillar baholashga ta’sir qiladi	Malakali nomzodlar chetda qoladi
Ish haqi tafovuti	Bir xil malakaga ega nomzodlarga turlicha ish haqi taklif qilinadi	Mehnat motivatsiyasi va adolat hissi pasayadi
Moslashuvchan ish sharoitlarining yetishmasligi	Bolali ayollar yoki oilaviy majburiyati bor shaxslar uchun imkoniyatlar cheklangan	Faol mehnat resurslari to‘liq ishga jalb etilmaydi
Monitoringning sustligi	Agentliklar ishga joylashtirish natijalarini gender kesimida tahlil qilmaydi	Gender tafovutlar yashirin qoladi

Ushbu omillar rekruting agentliklari faoliyatida gender teng imkoniyatlarni shakllantirish uchun faqat huquqiy normalar yetarli emasligini ko‘rsatadi. Amalda genderga sezgir boshqaruv, raqamli monitoring va aniq KPI tizimi zarur.

4-jadval

Rekruting agentliklarida gender tenglikni baholash indikatorlari

Indikator	**Hisoblash mazmuni**	**Maqsadli yo‘nalish**
Ayollar va erkaklar ulushi	Ro‘yxatdan o‘tgan nomzodlar tarkibida ayollar va erkaklar nisbati	Nomzodlar bazasining inklyuzivligini baholash
Suhbatga chaqirilganlar nisbati	Saralangan nomzodlar ichida jinslar bo‘yicha ulush	Saralash bosqichidagi xolislikni aniqlash
Ishga joylashganlar ulushi	Agentlik orqali ishga joylashgan ayollar va erkaklar nisbati	Natijaviy bandlikdagi gender tafovutni o‘lchash
O‘rtacha ish haqi tafovuti	Ishga joylashgan ayollar va erkaklar o‘rtacha ish haqi farqi	Daromad tengligini baholash
Rahbarlik lavozimlariga joylashish	Yuqori lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar tarkibi	Vertikal segregatsiyani aniqlash
Qayta murojaat qilish darajasi	Xizmatdan norozi bo‘lib qayta murojaat qilganlar ulushi	Xizmat sifati va adolatlilik darajasini aniqlash
Shikoyatlar soni	Gender kamsitish bo‘yicha murojaatlar soni	Kamsitish xavfini monitoring qilish

Mazkur indikatorlar asosida har bir rekruting agentligida Gender teng rekruting indeksini ishlab chiqish mumkin. Indeks e’lon, saralash, suhbat, ishga joylashtirish va monitoring bosqichlaridagi xolislik darajasini baholaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rekruting agentliklari aholi bandligini oshirishda uchta asosiy vazifani bajaradi.

Birinchidan, ular axborot vositachisi sifatida ish qidiruvchilarni bo‘sh ish o‘rinlari haqida xabardor qiladi. Bu, ayniqsa, mehnat bozoridagi axborotdan foydalanish imkoniyati past bo‘lgan guruhlar — xotin-qizlar, yoshlar, norasmiy

sektorda ishlovchilar va qayta mehnat bozoriga kirayotgan shaxslar uchun muhimdir.

Ikkinchidan, rekruting agentliklari saralash va baholash instituti sifatida ish beruvchilar uchun mos nomzodlarni tanlaydi. Agar bu jarayon aniq kompetensiyalar, malaka va tajribaga asoslanmasa, gender stereotiplar kuchayishi mumkin. Masalan, texnika, qurilish, transport yoki boshqaruv lavozimlarida erkak nomzodlarga ustuvorlik berilishi, xizmat ko‘rsatish, ta’lim yoki parvarish sohalarida esa ayollar bilan cheklanish holatlari mehnat bozorida gorizontal va vertikal gender segregatsiyani kuchaytiradi.

Uchinchidan, rekruting agentliklari mehnat shartnomasi va ishga joylashtirish jarayonida maslahat beruvchi subyekt sifatida nomzodlarning huquqiy xabardorligini oshiradi. Bu jihat ayniqsa xorijga ishga joylashtirish, norasmiy bandlikni kamaytirish va mehnat ekspluatatsiyasi xavfini pasaytirishda muhimdir. Qonunchilikka ko‘ra, xususiy bandlik agentliklari O‘zbekiston hududida ham, xorijda ishlashni istagan shaxslarga ham ish tanlash va ishga joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishi mumkin .

Gender teng imkoniyatlarni shakllantirishda eng muhim masalalardan biri — rekruting jarayonining shaffofligi**dir**. O‘zbekiston qonunchiligida xususiy bandlik agentliklari faoliyatining asosiy prinsiplari qatorida ochiqlik, shaffoflik va kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik belgilangan . Biroq amaliyotda ushbu prinsiplarni amalga oshirish uchun aniq mexanizmlar kerak: gender neytral e’lonlar, standart suhbat savollari, anonim CV saralash, ish haqi diapazonini oldindan e’lon qilish, agentliklar faoliyati bo‘yicha gender statistik hisobot yuritish.

5-jadval

Rekruting agentliklari orqali gender teng bandlikni rivojlantirishning SWOT tahlili

Kuchli tomonlar	**Zaif tomonlar**
M e	Ayrim agentliklarda gender tahlil va monitoring tizimi yetarli emas
Bo‘sh ish o‘rinlari haqida axborot almashinuvini jadallashtiradi	Norasmiy stereotiplar saralash jarayoniga ta’sir qilishi mumkin
Ish qidiruvchilarga maslahat, suhbatga tayyorlash va huquqiy ko‘mak beradi	Ish haqi va lavozim takliflarida gender tafovutlar yashirin qolishi mumkin
Raqamli platformalar orqali xotin-qizlar bandligini oshirish imkoniyati mavjud	Aholining barcha qatlamlari raqamli xizmatlardan teng foydalana olmaydi

Imkoniyatlar	**Tahdidlar**
Genderga sezgir rekruting standartlarini ishlab chiqish	Xususiy agentliklar faqat tijorat manfaatini ustun qo‘yishi mumkin
Ayollarni yuqori daromadli va texnologik sohalarga yo‘naltirish	Gender tenglik formallashib, amalda bajarilmasligi mumkin
Davlat bandlik organlari va xususiy agentliklar hamkorligini kuchaytirish	Norasmiy bandlik va noqonuniy vositachilik xavfi saqlanib qolishi mumkin
Gender statistikasi asosida rekruting reytingini joriy qilish	Nazorat mexanizmlari sust bo‘lsa, kamsitish holatlari yashirin qoladi

SWOT tahlil shuni ko‘rsatadiki, rekruting agentliklari gender teng bandlikni kengaytirish uchun katta imkoniyatga ega. Ammo buning uchun ularning faoliyatiga gender auditi, monitoring va hisobot tizimi joriy etilishi zarur.

Xulosa

Aholi bandligini oshirishda rekruting agentliklari muhim institutsional vosita hisoblanadi. Ular ish beruvchilar va ish qidiruvchilar o‘rtasida axborot almashinuvini tezlashtiradi, bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirishga ko‘maklashadi, nomzodlarni saralaydi hamda ishga joylashtirish jarayonini tashkil etadi. Biroq ushbu jarayon gender tenglik tamoyillariga asoslanmasa, mehnat bozoridagi mavjud tafovutlar yanada kuchayishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender teng imkoniyatlarni shakllantirish uchun rekruting agentliklari faoliyatida shaffoflik, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, kompetensiyaga asoslangan saralash, gender statistik monitoring va ish beruvchilar bilan mas’uliyatli hamkorlik muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston qonunchiligida xususiy bandlik agentliklari faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik ekani belgilangan . Shuningdek, gender tenglik to‘g‘risidagi qonunchilik mehnat munosabatlari, iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy sohalarda ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlaydi .

Shu asosda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Rekruting agentliklari aholi bandligini oshirishda davlat bandlik siyosatini to‘ldiruvchi muhim bozor instituti hisoblanadi.
2. Gender teng imkoniyatlarni ta’minlash ishga yollash jarayonining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak.
3. Ayollar bandligini oshirish nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirish omilidir.
4. Rekruting agentliklari faoliyatida gender statistikasi, gender auditi va gender indikatorlari joriy etilishi zarur.
5. “Gender teng rekruting indeksi” agentliklar faoliyatini baholash va sog‘lom raqobatni shakllantirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi O‘RQ-501-son Qonuni, 2018-yil 16-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-son Qonuni, 2020-yil 20-oktabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni, 2019-yil 2-sentabr.
4. World Bank. *Country Gender Assessment Report: Uzbekistan*, 2024.
5. World Bank Gender Data Portal. *Uzbekistan gender and labor force participation indicators*.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. *Gender statistikasi portali*.
7. International Labour Organization. *Private Employment Agencies Convention, 1997, No. 181*.
8. Mankiw, N. G. *Principles of Economics*. Cengage Learning.

9. Becker, G. S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*.
10. Porter, M. E. *The Competitive Advantage of Nations*.

RAQAMLI PLATFORMALAR TADBIRKORLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING YANGI MANBAI SIFATIDA

Suvpo‘latov Ozodjon Alijon o‘g‘li TDIU
“iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: suvpulatovozod@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli platformalarning tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirishdagi roli va ularning zamonaviy iqtisodiyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda platforma iqtisodiyoti sharoitida yangi biznes modellarining shakllanishi, startaplar va kichik biznes uchun imkoniyatlarning kengayishi hamda raqamli infratuzilmaning tadbirkorlik faoliyatiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar orqali innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish, bozorga kirish to‘siqlarini kamaytirish va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli platformalar, tadbirkorlik, platforma iqtisodiyoti, startaplar, innovatsiya, biznes modeli, raqamli infratuzilma.

ABSTRACT

This thesis analyzes the role of digital platforms as a new source for developing entrepreneurial capabilities and their significance in the modern economy. The study examines the emergence of new business models within the platform economy, the expansion of opportunities for startups and small businesses, and the impact of digital infrastructure on entrepreneurial activity. It also highlights how digital platforms facilitate the implementation of innovative ideas, reduce market entry barriers, and enhance entrepreneurial competencies.

Keywords: digital platforms, entrepreneurship, platform economy, startups, innovation, business model, digital infrastructure.

АННОТАЦИЯ

В данной работе рассматривается роль цифровых платформ как нового источника формирования предпринимательских способностей и их значение в современной экономике. Исследование охватывает формирование новых бизнес-моделей в условиях платформенной экономики, расширение возможностей для стартапов и малого бизнеса, а также влияние цифровой инфраструктуры на предпринимательскую деятельность. Кроме того, обосновывается значение цифровых платформ в реализации инновационных идей, снижении барьеров входа на рынок и развитии предпринимательских компетенций.

Ключевые слова: цифровые платформы, предпринимательство, платформенная экономика, стартапы, инновации, бизнес-модель, цифровая инфраструктура.

KIRISH

Z

a
m
o
n
a
v

o‘rnini mustahkamlamoqda.

Xususan, 2020-2024 yillar orasida global frilans bozori hajmi 1,5 trilliondan oshdi (Statista, 2024), onlayn ta’lim bozori esa yiliga 15-20% o‘sib bormoqda. O‘zbekistonda ham shu tendensiya kuzatilmoqda: IT Park rezidentlari soni tez o‘sib, e-tijorat bozori yildan-yilga kengayib bormoqda.

Ushbu tezisning maqsadi — raqamli platformalarning tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish jarayonidagi nazariy o‘rnini asoslash va O‘zbekiston sharoitidagi imkoniyatlarini baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli platformalarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, Parker, Van Alstyne va Choudary (2016) o‘zlarining “Platform Revolution” asarida raqamli platformalarni ikki va ko‘p tomonlama bozorlarni bog‘lovchi innovatsion biznes modeli sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, platformalar tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, tadbirkorlar uchun bozorga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Natijada, kichik biznes va startaplar uchun yangi iqtisodiy muhit shakllanadi.[5]

Evans va Schmalensee (2016) tadqiqotlarida platforma iqtisodiyoti tarmoqlararo integratsiyani kuchaytiruvchi omil sifatida ko‘riladi. Ular raqamli platformalar orqali ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar o‘rtasidagi bevosita aloqalar kuchayib, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi ortishini asoslab beradi. Shuningdek, mualliflar platformalarning tarmoq effekti orqali tez kengayish imkoniyatlari mavjudligini ta’kidlab, bu holat innovatsion g‘oyalarni tezkor tijoratlashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.[6]

Brynjolfsson va McAfee (2014) esa raqamli texnologiyalar, jumladan platformalar iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida tadbirkorlik faoliyatining yangi shakllari paydo bo‘layotganini qayd etadi. Ularning yondashuvida raqamli platformalar bilim va innovatsiyalarni tez tarqatish vositasi sifatida namoyon bo‘lib, tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, ular platforma iqtisodiyoti raqobatni kuchaytirib, samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.[7]

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar raqamli platformalar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim institutsional va innovatsion omil ekanligini ko‘rsatadi hamda ular orqali bozorga kirish imkoniyatlari kengayib, yangi biznes modellar shakllanishi ilmiy asosda isbotlangan.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

Raqamli platformalar zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim instrumentiga aylanmoqda. Ular o‘zining funksional xususiyatlariga ko‘ra turli turlarga ajraladi: savdo platformalari (Amazon, Alibaba), xizmatlar platformalari (Uber, Upwork), moliyaviy platformalar

---

[5] Parker, G. G., Van Alstyne, M. W., & Choudary, S. P. (2016). **Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy and How to Make Them Work for You.** – New York: W.W. Norton & Company. https://wwnorton.com/books/9780393354355

[6] Evans, D. S., & Schmalensee, R. (2016). **Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms.** – Harvard Business Review Press. https://www.hbs.edu/faculty/Pages/item.aspx?num=50970

[7] Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). **The Second Machine Age: Wok, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.** – MIT Press. https://mitpress.mit.edu/9780393350647

(PayPal, fintech tizimlari) hamda ijtimoiy media platformalari (Instagram, Telegram biznes kanallari). Ushbu platformalar tadbirkorlik qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, bozorga kirish to‘siqlarini kamaytiradi, marketing va savdo jarayonlarini soddalashtiradi hamda innovatsion g‘oyalarni tezkor amalga oshirish imkonini beradi.

An’anaviy tadbirkorlik usullarida esa biznesni boshlash uchun katta boshlang‘ich kapital, jismoniy infratuzilma va ko‘proq vaqt talab etiladi. Bozorga kirish jarayoni murakkab bo‘lib, marketing xarajatlari yuqori darajada bo‘ladi. Raqamli platformalar esa ushbu cheklovlarni sezilarli darajada kamaytirib, kichik biznes va startaplar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, platforma iqtisodiyoti sharoitida raqobatning kuchayishi va daromadlarning beqarorligi kabi muammolar ham yuzaga keladi.

1-jadval

An’anaviy usullar va raqamli platformalarni taqqoslash[8]

	An’anaviy usullar	
Bilim va ko‘nikma olish	T a	Online kurslar (Coursera, Udemy, YouTube), AI-assistentlar
	Ish joyi, stajyorlik, oilaviy biznes	Frilans platformalar (Upwork, Fiverr), ijtimoiy tarmoqlar orqali loyihalar
		Kraudfanding (Kickstarter, Patreon), P2P kreditlash platformalari
	Mahalliy bozor, do‘kon, ommaviy reklama	Global bozor: Amazon, Etsy, Shopify, TikTok Shop
		LinkedIn, Telegram hamjamiyatlari, startup ekotizimlari
	Yuqori boshlang‘ich	Past boshlang‘ich xarajat, kichik miqyosda sinab ko‘rish imkoniyati
	Cheklangan (joy va vaqtga bog‘liq)	Yuqori (istalgan joy va vaqtda)
Tezkor o‘rganish	Sekin (formal ta’lim davri uzoq)	Tez (mikro-kurslar, YouTube, AI tutorlar)

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli platformalar iqtisodiy jihatdan samaraliroq, yanada moslashuvchan va global miqyosda qamrovli manba hisoblanadi. Bu esa O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik qobiliyatiga ta’siri nuqtayi nazaridan

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-165-son Farmoni (2022-yil 6-iyul). **“2022–2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”.** https://lex.uz

raqamli platformalarni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

2-j

adv

a

Raqamli platformalar turlari va tadbirkorlik qobiliyatiga ta’siri[9]

		Tadbirkorlik qobiliyatiga ta’siri
Ta’lim	Coursera, Khan Academy, Udemy, YouTube	Bilim va ko‘nikma olish, kasb tanlash, mutaxassislik rivojlantirish
		Amaliy tajriba, mijozlar bilan ishlash, narx belgilash ko‘nikmalari
	Amazon, Olx, Uzum, Instagram Shop	Mahsulot sotish, bozorni o‘rganish, savdo-sotiq ko‘nikmalari
		Moliyalash, hisob-kitob, investitsiya jalb qilish
		Tarmoq qurish, personal brend, reklama va marketing
	Y Combinator, Ycombinator.uz, IT Park	

Keltirilgan tasnifdan ko‘rinib turibdiki, raqamli platformalar tadbirkorlik qobiliyatining barcha komponentlariga — bilim, ko‘nikma, moliyaviy resurs, bozorga kirish va ijtimoiy kapitalga — bir vaqtda ta’sir ko‘rsata oladi. Bu ularni yaxlit va kompleks manba sifatida ajratib turadi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi raqamli platformalar orqali tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish uchun qulay muhit yaratmoqda.

XULOSA

Raqamli platformalar tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirishda samarali va zamonaviy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular an’anaviy usullarga nisbatan bozorga kirishni yengillashtirib, xarajatlarni kamaytiradi va innovatsion faoliyatni jadallashtiradi. Shu bilan birga, raqobatning kuchayishi va daromadlarning beqarorligi kabi muammolar ham mavjud. Shuning uchun raqamli platformalardan samarali foydalanish va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. New York: Harper & Row, 1985.

2. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press, 1934.

3. Kirzner I.M. Competition and Entrepreneurship. Chicago: University of Chicago Press, 1973.

4

. 5. Поничев Д.А. Формирование и развитие предпринимательских

р

а

р

к

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-165-son Farmoni (2022-yil 6-iyul). **“2022–2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”.** https://lex.uz

e

способностей малого и среднего бизнеса в сфере услуг. СПб.: СПбГЭУ, 2024.

6. Srnicek N. Platform Capitalism. Cambridge: Polity Press, 2017.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. — 2023 yil 11 sentyabr.

8. UZINFOCOM. O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari statistikasi. Toshkent, 2023.

9. Statista. Global Freelance Market Revenue 2018–2024. — 2024.

10. IT Park Uzbekistan. Yillik hisobot. Toshkent, 2024.

ҚИШЛОҚ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ: БУХОРО ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ТУМАНЛАРИ МИҚЁСИДА ИНСТИТУЦИОНАЛ ТАҲЛИЛ

Назаров Шоҳбек Исроилович

Урганч давлат университети, Мустақил тадқиқотчи

e-mail: xidirova.g.r@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақола Бухоро вилоятидаги Ромитан, Жондор ва Пешку туманларида қишлоқ инфратузилмасига кириш имконияти ва камбағаллик даражаси ўртасидаги боғлиқликни институционал таҳлил асосида ўрганади. 450 та уй хўжалигини қамраб олган сўровнома маълумотлари, кўп ўзгарувчили регрессия таҳлили ва ГАТ-картографиялаш усулларидан фойдаланилган. Натижалар шуни кўрсатадики, инфратузилмага кириш имконияти ҳар бир бирликка ошиши камбағаллик индексини 0,14–0,22 балл пасайтиради. Институционал таҳлил ваколатларнинг чекланганлиги, жамоа иштирокининг заифлиги ва коррупция хатарларини аниқлади. Тадқиқот натижалари асосида сиёсат ишлаб чиқарувчиларга маълумотлар базасини интеграциялаш, жамоа иштирокини мажбурий жорий этиш, давлат-хусусий шериклик моделини кенгайтириш ва мақсадли инвестицияларни жалб қилиш бўйича tavsиялар берилган.

Калит сўзлар: қишлоқ инфратузилмаси, институционал омиллар, камбағаллик индекси, Бухоро вилояти, уй хўжалиги сўровномаси, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш.

Кириш. Камбағаллик муаммоси жаҳон иқтисодиётида долзарб ижтимоий-иқтисодий муаммолардан бири бўлиб қолмоқда. Ривожланаётган мамлакатларда, жумладан Ўзбекистонда, қишлоқ аҳолиси камбағалликдан кўпроқ азият чекади. Бунда инфратузилманинг ривожланмаганлиги асосий тизимли омил сифатида намоён бўлади. Мазкур тадқиқот Бухоро вилоятидаги Ромитан, Жондор ва Пешку туманларида йўл, сув таъминоти ва электр энергияси инфратузилмасига кириш имконияти ва камбағаллик даражаси ўртасидаги эмпирик боғлиқликни институционал таҳлил асосида ўрганишга бағишланган.

Тадқиқотнинг долзарблиги шундан иборатки, Ўзбекистон 2030 йилгача камбағалликни қисқартириш бўйича миллий мақсадларни белгилаб олган бўлса-да, қишлоқ туманларидаги инфратузилма танқислиги ва унинг аҳоли фаровонлигига таъсири етарлича ўрганилмаган. Бухоро вилояти қишлоқ туманлари мисолида ўтказилган институционал таҳлил бу борадаги бўшлиқни

тўлдиришга хизмат қилади.

Тадқиқот мақсади ва усуллари Тадқиқотнинг асосий мақсади — инфратузилма объектларига кириш имконияти ва уй хўжаликларининг камбағаллик индекси ўртасидаги статистик ва институционал боғлиқликни аниқлашдан иборат. Бунинг учун қуйидаги усуллардан фойдаланилди:

— уй хўжалиги сўровномаси (n=450, учта туман бўйича тенг тақсимланган);

— кўп ўзгарувчили регрессия таҳлили;

— институционал таҳлил доираси (Остром институционал таҳлил ва ривожланиш тизими асосида) [4];

— ГАТ-таҳлили орқали инфратузилма ва камбағаллик зоналарини картографиялаш.

Натижалар ва муҳокама. Дастлабки натижалар шуни кўрсатдики, ўрганилган туманларда уй хўжаликларининг 38,4%и ичимлик сувига регуляр кириш имкониятига эга эмас, 24,7%и тартибсиз электр таъминотидан зарар кўради, 31,2%и эса мавсумий йўл ўтказмаслиги муаммоларини қайд этади. Регрессия таҳлили натижасида инфратузилмага кириш имконияти ёки ҳар бир ўсиш бирлиги камбағаллик индексини 0,14–0,22 балл пасайтириши аниқланди ($p<0,05$) [1; 2]. Айниқса, сифатли йўлларга кириш имконияти деҳқончилик маҳсулотларини сотиш қобилиятини 27% ошириши, шу орқали хонадон даромадини сезиларли миқдорда кўтариши исботланди [3].

Институционал таҳлил доирасида аниқланишича, маҳаллий бошқарув органлари (ҳокимликлар)нинг инфратузилма режалаштиришдаги ваколатлари чекланган, жамоа иштироки механизмлари ривожланмаган, айрим ҳолларда коррупция хатарлари инфратузилма маблағларининг самарасиз тақсимланишига олиб келади. Бу институционал камчиликлар инфратузилма инвестицияларининг фаровонликка ижобий таъсирини маҳдудлаштирмоқда [4; 5].

Тавсиялар. Тадқиқот натижалари асосида қуйидаги илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Вилоят ҳокимлиги қошида инфратузилма ва камбағалликни мониторинг қилувчи интеграллашган маълумотлар базасини яратиш лозим [7; 8].

2. Инфратузилма объектларини режалаштиришда маҳаллий жамоалар ва фуқаролик жамияти вакилларини мажбурий жалб этиш механизми жорий этилиши керак [9].

3. Қишлоқ инфратузилмасини молиялаштиришда давлат-хусусий шериклик модели кенгайтирилиши мақсадга мувофиқ [2].

4. Инфратузилма инвестицияларини камбағал хонадонлар зич яшайдиган ҳудудларга мақсадли йўналтириш стратегияси жорий этилиши тавсия этилади [10].

Хулоса. Қишлоқ инфратузилмасига кириш имконияти ва камбағаллик ўртасидаги боғлиқлик ижтимоий-иқтисодий омилгина эмас, балки институционал бошқарув сифатининг ҳам функциясидир. Шунинг учун инфратузилмани ривожлантириш дастурлари техник жиҳатдан эмас,

институционал ислоҳотлар билан бирга амалга оширилиши зарур. Мазкур тадқиқот натижалари Бухоро вилоятидаги ижтимоий-иқтисодий ривожланиш дастурларини такомиллаштиришда назарий ва амалий асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Aschauer, D. A. (1989). Is public expenditure productive? *Journal of Monetary Economics, 23*(2), 177–200. https://doi.org/10.1016/0304-3932(89)90047-0

2. Calderón, C., & Servén, L. (2008). Infrastructure and economic development in Sub-Saharan Africa. *World Bank Policy Research Working Paper No. 4712.* https://doi.org/10.1596/1813-9450-4712

3. Fan, S., Hazell, P., & Thorat, S. (2000). Government spending, growth and poverty in rural India. *American Journal of Agricultural Economics, 82*(4), 1038–1051. https://doi.org/10.1111/0002-9092.00101

4. Ostrom, E. (1990). *Governing the commons: The evolution of institutions for collective action.* Cambridge University Press.

5. Ravallion, M. (2016). *The economics of poverty: History, measurement, and policy.* Oxford University Press.

6. Shiferaw, B., Kebede, T., & You, L. (2008). Technology adoption under seed access constraints and the economic impacts of improved pigeonpea varieties in Tanzania. *Agricultural Economics, 39*(3), 309–323. https://doi.org/10.1111/j.1574-0862.2008.00335.x

7. United Nations Development Programme. (2023). *Human development report 2023/24: Breaking the gridlock.* UNDP. https://hdr.undp.org

8. World Bank. (2022). *Uzbekistan: Rural infrastructure and poverty linkages — Diagnostic report.* World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan

YANGI O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA FOYDA SOLIG‘I BAZASINI ANIQLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Xalikchayeva Sadokat Ilxomjonovna., PhD., TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM doktoranti (DSc)., e-mail: xalikchayeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezisda “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida foyda solig‘i bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari yoritilgan bo‘lib, korxonalarni ekologik modernizatsiyaga rag‘batlantirish uchun “yashil amortizatsiya” tizimini joriy etish taklif qilingan. tadqiqotda amaldagi amortizatsiya normalaridagi muammolar tahlil qilinib, yashil aktivlar uchun tezlashtirilgan amortizatsiya va investitsion chegirmalarni hisoblash modeli asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *foyda solig‘i, amortizatsiya, yashil amortizatsiya, ekologiya, soliq bazasi, soliq bazasini aniqlash metodologiyasi, aktiv, qoldiq qiymat,*

investitsiya, koefitsent, investitsion chegirma.

“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri iqtisodiyotda "yashil" texnologiyalarni joriy etish va energiya samaradorligini oshirish masaslasi hisoblanib, ushbu strategik maqsadlarga erishishda soliq siyosati, xususan, foyda solig‘i bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish muhim fiskal drayver hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida shu narsa oydinlashdiki, hozirgi kunda O‘zbekiston Soliq kodeksining 306-moddasida amortizatsiya normalari barcha asosiy vositalar uchun umumiy qilib belgilangan. Albatta, bu holat "yashil" sarmoyalar uchun iqtisodiy jozibadorlikni yaratmaydi. Amaliyotda asosiy vositalar 5 ta guruhga bo‘lingan holda, kamayuvchi qoldiq usuli bo‘yicha hisoblanadi.

Bugungi kunda mavjud tizimdagi muammolar sifatida amaldagi soliq tizimiga muvofiq “ifloslantiruvchi” texnologiya bilan “yashil” texnologiyani bir xil guruhga qo‘yilayotganini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ko‘mirda ishlovchi qozonxona ham, quyosh kollektori ham 15 %lik norma bilan amortizatsiya qilinadi. Bilamizki, yuqori texnologiyali yashil uskunalar odatda qimmatroq turadi. Natijada, soliq amaliyotidagi 15 %lik norma investitsiyaning o‘zini oqlash muddatini sun’iy ravishda uzaytirmoqda. Bu innovatsion rag‘batning pastligidan dalolat beradi. Qolaversa, bu holat texnologiyalar tez almashayotgan bir davrda standart normalar qo‘llanishi oqibatida aktivning real bozor qiymati pasayishidan orqada qolayotganidan hamda ma’naviy eskirish sodir bo‘layotganidan dalola beradi.

Tadqiqotimiz natijasi sifatida ushbu muammoni bartaraf etish uchun soliq bazasini aniqlashning “Yashil amortizatsiya” metodologiyasini taklif qilmoqchimiz. Bu – soliq bazasini (foyda solig‘ini) hisoblashda korxonalarga ekologik uskunalarning qiymatini odatdagidan tezroq xarajatga chiqarish huquqini berish taklifi hisoblanib, ushbu metodologiyaning konseptual asosi sifatida asosiy vositalarning yillik amortizatsiya ajratmalarini hisoblashda tezlashtirilgan amortizatsiya, maxsus chegirmalar yoki ekologik rag‘batlantirish koeffitsiyentini joriy etishni nazarda tutganmiz. To‘g‘ri, O‘zbekiston amaliyotida hozircha faqat texnologik uskunalar uchun umumiy imtiyozlar bor, lekin aynan “ekologik samaradorlik” ko‘rsatkichi asosida tabaqalashgan amortizatsiya metodologiyasi mavjud emas.

Metodologik yangilikning mohiyati shundaki, “yashil amortizatsiya” korxona uchun **“**Soliq qalqoni” effektini kuchaytirib, korxonaning ixtiyorida qoladigan sof pul oqimini ko‘paytiradi. Bu esa investitsiyalarning o‘zini oqlash muddatini o‘rtacha 25-30 %ga qisqartirish imkonini beradi. Davlat byudjeti nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bizning bu taklifimiz natijasi qisqa muddatli soliq tushumlari pasayishiga olib kelsada, biroq uzoq muddatda energiya subsidiyalarining tejalishi (O‘zbekistonda energiya resurslari davlat tomonidan subsidiyalanadi. Korxona o‘zini-o‘zi yashil energiya bilan ta’minlasa, davlatning energiya subsidiyasi tejaladi.), atrof-muhitni tiklash xarajatlarining kamayishi va milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlarda (masalan, Yevropa Ittifoqining CBAM mexanizmi doirasida) raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Bu degani, taklif etilayotgan yechimimiz soliq bazasini shunchaki kamaytirish emas, balki uni sifat jihatidan transformatsiya qilish instrumenti bo‘lib xizmat qiladi. Bu mexanizm

korxonalar uchun investitsion jozibadorlikni oshirish bilan birga, davlatning ekologik barqarorlik maqsadlariga erishishda fiskal rag‘batlantirishning eng optimal usuli sanaladi. Shu bilan birga, bu taklif “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi-2030” maqsadlariga ham to‘liq mos keladi.

Bizning fikrimizcha soliq bazasini aniqlashda “yashil amortizatsiya” metodologiyasini joriy qilish shunchaki imtiyoz emas, balki soliq bazasini optimallashtirish va investitsion rag‘batlantirish instrumenti hamdir. Chunki bu metodologiya jarima solishdan ko‘ra, rag‘batlantirish orqali korxonalarni modernizatsiyaga undaydi, xorij tajribasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtiradi, qisqa muddatda soliq tushumlarini kamaytirsa-da, uzoq muddatda energiya samaradorligi oshishi va iqtisodiy o‘sish hisobiga bazani kengaytiradi. Xususan, agar amortizatsiyalanadigan aktivning enaergiya tejamkorligi 10 %dan past bo‘ladigan bo‘lsa amortizatsiya koeffitsiyenti sifatida “1”, 10 %dan 30 %gacha bo‘lsa “1,5” hamda energiya tejamkorligi 30 %dan yuqori bo‘lgan aktiv toifasiga “2,5” koeffitsiyent qo‘llashni va qanaqadir bonusli chegirma berish metodologiyasi taklif qilamiz.

Tadqiqot natijalari shuni xulosa tariqasida ko‘rsatmoqdaki, bugungi neogloballashuv davrida foyda solig‘i bazasini aniqlash metodologiyasi nafaqat fiskal maqsadlarga, balki barqaror rivojlanishning (ESG) drayveri sifatidagi funksiyasiga ham ega bo‘lishi shart va zarur. Amaldagi soliq ma’murchiligida "ifloslantiruvchi" va "yashil" texnologiyalar uchun bir xil amortizatsiya normalarining qo‘llanilishi, innovatsion faollikni ortga tortuvchi hamda kapitalning ma’naviy eskirishiga olib keluvchi omil ekanligi oydinlashdi. O‘tkazilgan tahlillarimiz va taklif etgan "Yashil amortizatsiya" modelimiz orqali quyidagi fundamental xulosalarni taqdim etmoqchimiz:

taklif etilayotgan tabaqalashtirilgan koeffitsiyentlar (K = 1.5 dan 3.0 gacha) va investitsion bonuslar (Binv) korxonaning soliqqa tortiladigan bazasini investitsiyaning dastlabki bosqichida optimallashtiradi. Bu esa sof pul oqimining ko‘payishiga va loyihalarning o‘zini oqlash muddatini 25-30% ga qisqartirishga xizmat qiladi;

“Yashil amortizatsiya” metodologiyasi soliq bazasini shunchaki kamaytirish emas, balki uni sifat jihatidan transformatsiya qilish instrumenti ham deb hisoblaymiz. Chunki, qisqa muddatli soliq tushumlari pasayishi uzoq muddatda energiya subsidiyalarining tejalishi, ekologik yuklamaning kamayishi va milliy mahsulotlarning (CBAM kabi mexanizmlar ostida) raqobatbardoshligi oshishi bilan kompensatsiyalanadi;

mazkur metodologiya "O‘zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan energiya samaradorligini 2 barobarga oshirish va iqtisodiyotni liberallashtirish maqsadlariga to‘liq hamohang bo‘lib, davlatning fiskal siyosatini an’anaviy yondashuvdan rag‘batlantiruvchi yondashuvga o‘tkazishni ta’minlaydi deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // Qonununchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

2. Parry, I. W. (2012). Fiscal Policy to Mitigate Climate Change: A Guide for Policymakers. International Monetary Fund.

3. Vahobov A., Malikov T. (2021). "Moliya" (darslik). Toshkent: "Iqtisod-moliya".

4. Gadoev E. F. (2019). "O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga sharhlar". Toshkent.

5. Malikov, T. S. (2019). O‘zbekistonda soliq islohotlarining ustuvor yo‘nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, № 4.

O‘ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA “YASHIL” ISH BILAN BANDLIKNI RAG‘BATLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Bobojonov To‘lqinbek Maxmud o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrasi tayanch doktoranti
e-mail: tbobojonov.tb@gmail.com

Kirish

Bugungi kunda global miqyosda iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolarning chuqurlashishi iqtisodiy o‘sish modellarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. XXI asrda iqtisodiyot fani evolyutsiyasi an’anaviy resurs sarfiga asoslangan modeldan barqaror va “yashil” rivojlanish tamoyillariga o‘tish bosqichini boshidan kechirmoqda. Xususan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar mamlakatimizda yashil va raqamli iqtisodiyot g‘oyalari orqali innovatsion rivojlanishning yangi bosqichiga chiqishni nazarda tutadi. Ushbu jarayonda mehnat bozoridagi transformatsiyalar, ya’ni “yashil ish bandlik” tushunchasining mazmun-mohiyatini ilmiy anglash va uni rag‘batlantirishning institutsional asoslarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda yangi turdagi barqaror ish o‘rinlarini yaratish iqtisodiy siyosatning markazida turishi lozim. Tadqiqot maqsadi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida ish bilan bandlik imkoniyatlarini kengaytirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish hamda ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiyot fani evolyutsiyasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, barqaror rivojlanish va yashil ish bilan bandlik masalasi klassik iqtisodiy qarashlardan boshlab hozirgi zamon global strategiyalarigacha murakkab jarayonni bosib o‘tgan. Iqtisodiy o‘sish va ekologik mas’uliyatning o‘zaro uyg‘unligi “yashil” iqtisodiyot modelining asosi bo‘lib, u inson farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash bilan birga ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan (Nordhaus, 2018).

Xususan, Nobel mukofoti sovrindori Uilyam Nordxaus (William Nordhaus) kabi iqtisodchilar iqlim o‘zgarishini makroiqtisodiy tahlillarga integratsiya qilish orqali yashil iqtisodiyotning zamonaviy nazariy poydevorini mustahkamlaganlar (Nordhaus, 2018). Shu bilan birga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit

bo‘yicha dasturi yashil iqtisodiyotni “past uglerodli, resurslardan samarali foydalanadigan va ijtimoiy jihatdan inklyuziv” tizim sifatida tavsiflaydi (ILO, 2023).

O‘zbekiston sharoitida yashil ish bilan bandlikni rag‘batlantirishning institutsional asoslari 2019-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining 2019-2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (PQ-4477) hamda 2023-yildagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi bilan mustahkamlandi. Mazkur strategik hujjatlar energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish orqali yangi “yashil” ish o‘rinlarini yaratishni nazarda tutadi (Yuldoshev, 2026). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil o‘tish jarayoni raqamli transformatsiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu nafaqat iqtisodiy modernizatsiya, balki uzoq muddatli barqaror ish bilan bandlikni ta’minlash omili bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlar umumlashtirish va prognozlash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan yashil iqtisodiyotga o‘tish va barqaror rivojlanish yo‘nalishlari, shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) “Yashil ish bilan bandlikni baholash” (Green Jobs Assessment) metodologiyasi tashkil etadi (ILO, 2018).

Tahlil jarayonida quyidagi asosiy manbalar qo‘llanildi: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining rasmiy statistik ma’lumotlari, Energetika vazirligining hisobotlari, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi va uning amalga oshirish dasturlari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) bo‘yicha amalga oshirilayotgan investitsiyaviy loyihalar natijalari, hamda BMT va Xalqaro energetika agentligi (IEA) hisobotlari.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o‘tish natijasida ish bilan bandlik tarkibi quyidagi real ko‘rsatkichlar asosida o‘zgarmoqda:

1-jadval

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning maqsadli indikatorlari (2024-2030 yillar)[10]

Ko‘rsatkichlar	2024-yil (amaldagi)	2027-yil (prognoz)	2030-yil (maqsad)
Qayta tiklanuvchi energiya quvvati (GVt)	~4,5	12,0	25,0
Yashil sohalarda yaratiladigan yillik ish o‘rinlari (ming)	15,2	30,0	55,0
Issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish (2010-yilga nisbatan, YaIM birligiga, %)	10	22	35

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida ish bilan bandlik imkoniyatlarini kengaytirish bevosita institutsional islohotlarning samaradorligiga va ularning “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga muvofiqligiga bog‘liq. O‘tkazilgan

[10] Muallif ishlanmasi

tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar mehnat bozorida “yashil ko‘nikmalar”ni shakllantirish va energetika tarmog‘ini modernizatsiya qilish orqali 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya ulushini 40 foizga yetkazish uchun muhim zamin yaratadi.

Tadqiqot natijasida aniqlangan asosiy tendensiyalardan biri sektorlararo tarkibiy o‘zgarishlardir. Quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalari doirasida har 100 MVt quvvatga o‘rtacha bir necha yuzta vaqtinchalik (qurilish bosqichida) va bir necha o‘ntadan yuztagacha doimiy ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar loyiha hajmi, texnologiyasi va mahalliy ishchi kuchidan foydalanish darajasiga bog‘liq.

Institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, xususan yashil iqtisodiyotga ixtisoslashgan kichik va o‘rta biznes sub’ektlari uchun soliq imtiyozlari va maxsus yashil kredit liniyalarining joriy etilishi xususiy sektorda ish bilan bandlik darajasini oshirishga xizmat qiladi (ILO, 2018-2023). Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni yashil loyihalarga integratsiya qilish inson kapitalining sifatini oshirib, mehnat unumdorligining yuqori sur’atlarda o‘sishiga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil ish bandlikni rag‘batlantirishda nafaqat moliyaviy resurslar, balki kadrlar tayyorlash tizimining mehnat bozori talablariga moslashuvchanligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega (ILO, 2023). Ayniqsa, professional ta’lim va kasb-hunar ta’limi tizimini yashil iqtisodiyot talablariga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.



1-rasm. Yashil ish bilan bandlikni rag‘batlantirishning institutsional mexanizmi diagrammasi[11]

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan institutsional mexanizm diagrammasi (1-rasm) yashil ish bilan bandlikni rag‘batlantirishning uchta asosiy ustunini o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqichda huquqiy-regulyativ institutlar sohadagi normativ bazani shakllantirsa, ikkinchi bosqichda iqtisodiy mexanizmlar (subsidiyalar va yashil kreditlar) tadbirkorlik sub’ektlarining ushbu yo‘nalishdagi faolligini ta’minlaydi. Yakuniy bosqichda esa inson kapitalini rivojlantirish orqali mehnat bozorining raqamli va yashil ko‘nikmalarga ega kadrlarga bo‘lgan talabi qondiriladi. Ushbu ierarxik bog‘liqlik “O‘zbekiston-2030” strategiyasidagi maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishning institutsional kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

[11] Muallif ishlanmasi

Xulosa va amaliy takliflar

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan yashil transformatsiya jarayonlari mehnat bozorida mutlaqo yangi institutsional yondashuvlarni va ish bilan bandlikni rag‘batlantirish mexanizmlarini talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o‘tish nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki qayta tiklanuvchi energiya manbalari va resurs tejamkor texnologiyalar hisobiga yuqori samaradorlikka ega ish o‘rinlarini yaratishning asosiy omilidir. Institutsional tahlillar asosida yashil ish bilan bandlik darajasini oshirish uchun quyidagi amaliy choralar ko‘rilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Birinchidan, yashil iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o‘rta biznes sub’ektlari uchun tabaqalashtirilgan soliq imtiyozlarini kengaytirish hamda “yashil sertifikat”ga ega korxonalarni ijtimoiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish lozim. Ikkinchidan, oliy va professional ta’lim tizimini mehnat bozorining istiqbolli ehtiyojlaridan kelib chiqib transformatsiya qilish, xususan, o‘quv dasturlariga “yashil ko‘nikmalar” va raqamli texnologiyalar uyg‘unligini nazarda tutuvchi modullarni kiritish zarur. Uchinchidan, sanoat va energetika tarmoqlarida energiya auditi va ekologik monitoring tizimini institutsional tartibga solish orqali yangi turdagi servis ish o‘rinlarini yaratishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari takomillashtirilishi kerak. Ushbu chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga erishish hamda aholining munosib ish bilan bandligini ta’minlashda institutsional kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Nordhaus, W. D. (2018). Climate Change: The Ultimate Challenge for Economics. Nobel Prize Lecture in Economic Sciences.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023). “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida. PF-158-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2019). O‘zbekiston Respublikasining 2019-2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PQ-4477-son.

4. Yuldoshev, I. A., Jamolov, T. R., & Botirov, B. M. (2026). Development of Wind Energy in Uzbekistan as a Basis for the Green Economy. Problems of Energy and Sources Saving, 4(4), 342–350.

5. International Labour Organization (ILO). Green Jobs Assessment Methodology. Geneva: ILO, 2018.

6. International Labour Organization (ILO). Green Jobs Assessment Metodologiya va shu kabi boshqa 2018-2023-yillarga tegishli hisobotlar.

MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI

Tursunov Sanjar Baxtiyarovich
Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoratni
e-mail: sb_tursunov@gmail.com

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan bir sharoitda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda hududiy rivojlanishni jadallashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) samarali iqtisodiy mexanizm sifatida muhim o‘rin egallaydi. Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda zamonaviy ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Maxsus iqtisodiy zonalarning samaradorligi ko‘p jihatdan ularning mintaqaviy xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir. Har bir hududning iqtisodiy-geografik joylashuvi, resurs bazasi, infratuzilma rivojlanganlik darajasi, mehnat resurslari salohiyati hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari MIZ faoliyatining yo‘nalishi va natijadorligini belgilab beradi. Shu bois, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirish jarayonida mintaqaviy omillarni chuqur tahlil qilish, ularni hududiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, xalqaro bozorlardagi tebranishlar, sanoat va texnologiyalarning keskin rivojlanishi, energiya bozorlaridagi transformatsiya, global ta’minot zanjirlarining qayta shakllanishi O‘zbekistondan ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda “maqsad – harakat – natija” zanjiriga asoslangan mutlaqo yangi strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimi joriy etilgani “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini yangi talablar asosida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda”[12]. Mazkur farmonda belgilangan asosiy vazifalarning yechimini aynan MIZlar faoliyatini samarali tashkil etish asosida amalga oshirish mumkin.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, maxsus iqtisodiy zonalar iqtisodiy rivojlanishning drayveri sifatida faol qo‘llanilib, ko‘plab mamlakatlarda sanoatlashuv jarayonlarini jadallashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Xususan, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlar tajribasi maxsus iqtisodiy zonalar orqali iqtisodiy modernizatsiya va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishda yuqori natijalarga erishilganini ko‘rsatadi. Shu nuqtaYi nazardan, MIZlar zamonaviy iqtisodiy siyosatning muhim instrumentlaridan biri sifatida qaraladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy zonalar hududiy rivojlanishning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 140 dan ortiq mamlakatda 5000 ga yaqin maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat yuritib, ular orqali global eksport hajmining qariyb 20 foizi shakllanadi. Xususan,

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026 yildagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son Farmoni.

Xitoy tajribasida iqtisodiy zonalar sanoat ishlab chiqarishining 30 foizdan ortig‘ini ta’minlab, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida muhim rol o‘ynagan. Shuningdek, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarda kichik va maxsus iqtisodiy zonalar orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, eksportni diversifikatsiya qilish va investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilgan.

Maxsus iqtisodiy zonalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ularning ko‘p qirrali funksiyalari bilan belgilanadi. Birinchidan, ular xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmini oshiradi va iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni jalb etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda sanoat tarmoqlarining texnologik yangilanishini ta’minlaydi. Uchinchidan, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi bandligini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. To‘rtinchidan, eksport salohiyatini kengaytirish orqali tashqi savdo balansini yaxshilashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish hamda investitsion muhitni yaxshilash maqsadida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari hamda boshqa maxsus hududlar tashkil etilib, ularda soliq va bojxona imtiyozlari, qulay infratuzilma hamda investorlar uchun soddalashtirilgan tartiblar joriy etilgan. Bu esa o‘z navbatida investitsion faollikni oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, faoliyat yuritayotgan maxsus iqtisodiy zonalar soni 31 tani, kichik sanoat zonalari 423 tani, texnoparklar 32 tani hamda klasterlar 381 tani tashkil etgani ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning izchilligini ko‘rsatadi[13]. Mazkur ko‘rsatkichlar hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida muhim institutsional asos yaratilganini anglatadi.

Shu bilan birga, maxsus iqtisodiy zonalarning samaradorligini oshirish, ularning iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini baholash hamda rivojlanish istiqbollarini aniqlash ilmiy jihatdan chuqur tahlilni talab etadi. Ayniqsa, hududlar kesimida MIZlarning faoliyatini o‘rganish, ularning investitsiya jalb qilish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va bandlikni ta’minlashdagi rolini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Biz o‘z monografik tadqiqotlarimizni Qashqadaryo viloyatida amalga oshirdik. Tahlilarga ko‘ra viloyatda 2025-yil holatida 2 ta erkin iqtisodiy zona, 42 ta kichik sanoat sonasi va 15 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyat olib bormoqda. Quyida biz mazkur MIZlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlilini keltirdik (1-jadval).

[13] https://stat.uz/img/news/miz_uz_p55913.pdf

1-jadval

Qashqadaryo viloyati maxsus iqtisodiy zonalarining iqtisodiy kor’rsatkichlari[14]

T/r	Ko‘rsatkichlar	Yillar				
		2021	2022	2023	2024	2025
1.	Rezidentlar soni, birlik	151	392	422	470	449
2.	Jalb etilgan investitsiya miqdori, mlrd. so‘m	451,0	870,1	1192,1	1425,5	1385,2
3.	Jami davlat xarajatlari, mln. so‘m	11549,1	23223,4	18268,5	12714,1	14135,0
4.	Yaratilgan ish o‘rinlar soni, birlik	1952	4394	4939	5314	6384
5.	Olingan daromad, mln. so‘m	38164,4	171516,5	381100,0	488500,0	1824200,0

Mazkur jadval ma’lumotlari Qashqadaryo viloyatida maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati 2021–2025 yillar davomida barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Rezidentlar sonining qariyb uch barobarga oshishi hududning investitsion jozibadorligi ortganini anglatadi. Investitsiya hajmining sezilarli darajada kengayishi ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanishiga xizmat qilgan.

Yangi ish o‘rinlari sonining 3,2 barobarga ortishi hududda bandlik darajasining oshganligini ifodalaydi. Eng keskin o‘sish daromad ko‘rsatkichida kuzatilib, bu maxsus iqtisodiy zonalarning iqtisodiy samaradorligi ortib borayotganidan dalolat beradi. Joriy yilda Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish, infratuzilma va biznes muhitini yanada yaxshilash orqali yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish, yashil tamoyilli yondashuvlarni keng joriy etish, aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish hamda turizmni jadal rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martda “Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PQ-96-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga asosan viloyatning Qamashi, Ko‘kdala, Shahrisabz, Nishon, Qarshi va G‘uzor tumanlarida yangidan tashkil etiladigan kichik iqtisodiy zonalar tashkil etish belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maxsus iqtisodiy zonalarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rnini kompleks o‘rganish, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda rivojlanish istiqbollarini ilmiy asoslash bugungi kunning dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ushbu masalalarni yoritishga qaratilgan bo‘lib, uning natijalari iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va hududiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

[14] Qashqadaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

IQTISODIYOT NAZARIYASIDA ISLOMIY TUSHUNCHALAR

Qaxramonova Gulandom Qodirali qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchi
e-mail: qaxramonovagulandom086@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyot nazariyasida islomiy tushunchalari, nazariy asoslari, o‘rni va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Islom iqtisodiyoti adolatlilik, umuminsoniy manfaat, riskni taqsimlanishi, ijtimoiy tenglik va mas’uliyatga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Shu bilan birga islom iqtisodiyotidagi ribo, zakot, vaqf fondlari, takoful ya’ni islom sug‘urtalari va mushoraka, mudoraba, murobaha kabi moliyalashtirish instrumentlari faoliyatining nazariy mazmuni zamonaviy talqinda yoritilgan.

Kalit so‘zlari. Islom iqtisodiyoti, risk taqsimlanishi, ribo, zakot, takoful, islom moliyasi, islom moliyaviy isntrumentlari.

Islom iqtisodiyoti, uning nazariyasi, rivojlanishi va hozirgi umumjahon globallashuv sharoitidagi o‘rni haqida gaplashadigan bo‘lsak, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning bu borada Islom Hamkorligi Tashkilotining anjumanida so‘zlagan nutqida shunday deb ta’kidlagan edi[15]:” Islom olami ulkan iqtisodiy, investitsion salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to‘g‘ri foydalanish pirovardida yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko‘rsatkichlariga erishish imkonini beradi”.

Hammaga ma’lumki, har bir soha o‘ziga xos qonun-qoidalari, nizomi va tartibiga ega. Islom dini hech qachon biz bilgan bozor iqtisodiyoti va qonuniyatlarini inkor etmaydi. Vaholangki, tub mohiyatan unda asosiy urg‘u ko‘proq ijtimoiy tenglik, umumbashariy manfaat, halollik, o‘zaro foyda va zararda taqsimot kabilarga beriladi. Musulmon mamlakatlar G‘arbning yaqin o‘tgan asrlar davomida siyosiy va iqtisodiy jihatdan hukmronligi tufayli avvalgi an’anaviy amallaridan mahrum bo‘ldik, deb bilishadi[16] va iqtisodiy turmushini halol tarzda qayta qurishga harakat qilib kelmoqdalar. Bunday vaziyatda, hayotlarini ilsomiy qonun-qoidalar bilan asta-sekin shakllantirish tartibi shariatda belgilangan 4 asosiy manbaalarga tayangan bo‘lib, ular: Muqaddas Qur’on, Payg‘ambarimiz Muhammad(s.a.v) sunnatlariga asoslangan Hadisul Shariflar, ijmo va qiyosdir[17]. Qur’oni Karim butun insoniyatga yo‘llangan ilohiy ko‘rsatmalar hisoblanadi, Hadislar esa Payg‘ambarimizga ta’aluqli voqealarga bog‘liq bo‘lgan qisqa rivoyatlardir, ijmo esa obro‘li islom olimlarining ma’lum masalaga bergan xulosalari, qiyos ham shu o‘rinda ilmli islom ziyolilari tomonidan murakkab va munozalarali masalalarga asosiy tamoyil asnosida bergan yechimlari hisoblanadi. Hozirda, iqtisodiyotda muqobil moliyalashtirishga katta ehtiyoj borligi sababli islom iqtisodiyotidagi islom moliya tashkilotlari muhim omillar sirasidan biri hiosblanadi. Shunday ekan, yuqoridagi manbaalarga nazariy jihatdan tayangan holatda, zamon bilan hamnafas har bir shakllanayotgan yangi faoliyat turini shariatga mos tarzda tashkil qilish albatta, vaqt ham, mehnat ham talab qiladi. Ammo, shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, natijada har bir faoliyatdan

[15] Sh.Mirziyoyevning IHT TIVQ 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi.https://kun.uz/news
[16] Islom moliyasiga kirish/Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniy.Toshkent-“Azon kitoblari”,2023.-5b
[17] Islomiy moliya asoslari/Baydaulet.E.A.Toshkent-“O‘zbekiston”NMIU,2019.-7b.

halol yo‘l bilan topilgan daromadlar ham insonning o‘zi uchun hamda umumjamiyat manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Islom iqtisodiyoti nazariyasiga tegishli asosiy tushunchalar mulk huquqi, bozor erkinligi va tadbirkorlikda keng qamrovli moliyalashtirish manbaasi sifatida ko‘riladi. Biroq, bu erkinlik ijtimoiy tenglikda barqarorlikni ta’minlashda, moliyaviy samaradorlikda, boylikni jamiyat ichida aylanishida, real sektorni qo‘llab-quvvatlashda, spekulativ operatsiyalashni cheklashda muhim hisoblanadi.Biz bilamizki, islomning 5 ta iqtisodiy va moliyaviy tamoyili mavjud[18]:

- foiz(ribo)ning man qilinishi;
- iqtisodiy hamkorlik asosida mehnat va kapital o‘rtasidagi foyda va zararning taqsimlanishi;
- qo‘shma korxonalarning mavjudligi, albatta, bunda teng ishtirokchilar mavjud bo‘lmasa ham;
- vaqf ya’ni xayriya fondlarining mavjudligi;
- isrofgarchilikning oldini olish.

Ribo tushunchasini qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak kafolatlangan foydadan holi bo‘lishlikdir. Islomda har qanday moliyaviy munosabatlar ribodan holi bo‘lishi, ijtimoiy tenglik prinsipi, kafolatli foydadan holi bo‘lishi, g‘arar(mavhumlik) bo‘lmasligi ya’ni to‘liq axborot bilan ta’minlanishi va albatta, maysir(chayqovchilik) bunda biror bir narsaga osongina erishish, tez boyish maqsadidagi faoliyatdan yiroq bo‘lish kabilar kiradi.

Islom iqtisodiyoti nazariyasida zakot ham, vaqf fondlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zakot - bu ijtimoiy himoya funksiya hisoblanadi va boylikni qayta taqsimlash vositasi hamdir. U kambag‘allikni kamaytirishga xizmat qiladi. Tadbirkor o‘z molidan ma’lum bir belgilangan qismini ijtimoiy himoyaga yo‘naltiradi.

Vaqf fondalari ham shu qatorda, ijtimoiy himoya, hayriya, aholini ehtiyojmand qismini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiradigan mablag‘ va resurslar yig‘indisi hisoblanadi.

Hozirgi kundagi eng aktiv islom moliyalashtirish instrumentlari mushoraka, mudoraba, murobaha, ijara, salam va istisnolar hisoblanadi. Bu moliyalashtirish instrumentlaridagi eng muhin jihat bu ularni real aktivlar bilan ta’minlashidir.

Mushoraka – kapital sherikchiligidir, bunda foyda ham zarar ham sheriklarning kapitaldagi ulushiga qarab bo‘linadi.

Mudoraba esa sherikchilikning maxsus turi bo‘lib, bunga misol sifatida, kapital bir tomondan ta’minlansa, biznesni boshqarish ya’ni mehnat ikkinchi tomondan hisoblanadi.

Murobaha – sotuvning bir turi hisoblanib, amalda ma’lum bir muddatga bo‘lib to‘lash sharti bilan ikki tomon o‘rtasidagi shartnoma asosida qilinadigan savdodir.

Ijara nomidan ham bilishimiz mumkinki, ma’lum bir aktivni ma’lum muddatga foydalanishga berishdir. Zamonaviy lizing tushunchasiga bog‘lash mumkin.

[18] Islom moliyasi asoslari/S.M.Dusanov.-Toshkent,2024.-24b

Salam – bu ham savdoning bir turi hisoblanib, kelajakda yetkaziladigan aktiv uchun oldindan 100% to‘lanadigan savdo bitimidir. Ikki tomonlama shartnomada summa, joyi, vaqti aniq ko‘rsatilishi shart bo‘lgan savdo bitimidir.

Istisno esa salamga o‘xshash tijorat muomalasining yana bir turi bo‘lib, mahsulot paydo bo‘lishidan oldin uning oldi-sotdisi amalga oshiriladi. Soddaroq qilib tushuntiradigan bo‘lsak, ishlab chiqaruvchi xaridor uchun muayyan tovarni ishlab chiqarish buyurtmasini oladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, islom iqtisodiyoti o‘zining jamiyatning manaviy, ma’rifiy va ahloqiy qarashlariga zid ravishda olib borilmasligi kerak. Shuning uchun ham, halol iqtisodiy turmush tarzi moliyaviy ahvolni yaxshilashga xizmat qiladigan yangicha g‘oya va sarmoyalarni zamonaviy joylashtirish usullari shariatga muvofiq holda amaliyotda joriy qilishga ilmiy jihatdan asoslashni talab etadi.

BUXORO VILOYATIDA SIRKULYAR IQTISODIYOT ASOSIDA CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Axtamova Ra’no Rustamovna
Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant
e-mail: axtamovarano@bdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida chiqindisiz ishlab chiqarishni tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tadqiq qilinadi. Maqolada qishloq xo‘jalik chiqindilaridan biogumus va elektr energiya olish, g‘o‘zapoyadan turli mahsulotlar tayyorlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash, suv resurslarini qayta sikllash, yashil energiyadan foydalanish va ushbu yo‘nalishlarni rag‘batlantirishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: sirkulyar iqtisodiyot, chiqindisiz ishlab chiqarish, biogumus, g‘o‘zapoya, yashil energiya, maishiy chiqindilarni qayta ishlash, texnik suv, ekologik imtiyozlar, Buxoro viloyati.

KIRISH

Sirkulyar iqtisodiyot — bu moddiy resurslarning qayta-qayta muomalaga kiritilishini, chiqindi hajmini minimallashtirishni va tabiiy ekotizimlarga zarar yetkazmasdan barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi yopiq tsikl modelidir.

O‘zbekistonning Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va sanoatning ulkan salohiyatiga ega bo‘lishiga qaramay, hali ham chiqindilarni qayta ishlamasdan yoqish yoki ko‘mishning an’anaviy usullaridan foydalanib kelmoqda. Viloyat yiliga taxminan 2,8 million tonna qishloq xo‘jaligi chiqindilarini, 340 ming tonna maishiy chiqindilarni va katta hajmdagi sanoat oqava suvlarini ishlab chiqaradi. Ushbu resurslarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali viloyat iqtisodiyotiga sezilarli qo‘shimcha qiymat yaratish, yangi ish o‘rinlari ochish va ekologik vaziyatni yaxshilash mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Markaziy Osiyo kontekstida Tojiboev (2022), Umarov va Nazarov (2023) kabi tadqiqotchilar yashil iqtisodiyot tamoyillarini mintaqaviy rivojlanish strategiyalariga integratsiyalash masalalarini o‘rganishgan. Biroq, Buxoro viloyati

miqyosida sirkulyar iqtisodiyotning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari to‘liq tadqiq etilmagan — bu bo‘shliq mazkur maqolaning asosiy tadqiqot muammosini tashkil etadi.

1. CHORVA CHIQINDILARIDAN BIOGUMUS VA ELEKTR ENERGIYA OLISH

Buxoro viloyatida chorvachilik keng rivojlangan bo‘lib, viloyatda yillik taxminan 4,2 million tonna chorva axlati hosil bo‘ladi. An’anaviy usulda bu chiqindilar ekin maydonlariga tartibsiz solinadi yoki yoqiladi, bu esa atmosferaga metan gazi chiqarilishiga va tuproq tuzilmasining yomonlashuviga olib keladi. Sirkulyar iqtisodiyot yondashuvi ushbu resursni ikki qimmatli mahsulotga — biogaz va biogumusga — aylantirish imkonini beradi.

Biogazifikatsiya jarayonida anaerob hazm qilish (anaerobic digestion) texnologiyasi qo‘llaniladi: chorva axlati berkitilgan bioreaktorda kislorod ishtirokisiz parchalanib, tarkibida 55-65% metan bo‘lgan biogaz hosil qiladi. 1 tonna sigir go‘ngi taxminan 25-40 m^3 biogaz beradi, bu esa 15-20 kVt·soat elektr energiyasiga tengdir. Viloyatning to‘rtta yirik chorvachillik kompleksida biogaz qurilmalarini o‘rnatish orqali yillik 180-220 GVt·soat «yashil» elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin.

2. G‘O‘ZAPOYADAN TURLI MAHSULOTLAR TAYYORLASH

Buxoro viloyati O‘zbekistonning asosiy paxta yetishtiradigan hududlaridan biri bo‘lib, yillik 280-320 ming gektarda paxta yetishtiradi. Har gektardan o‘rtacha 4-5 tonna g‘o‘zapoya olinishi hisobida viloyatda yillik 1,2-1,6 million tonna g‘o‘zapoya resursi mavjud.

G‘o‘zapoya quyidagi yo‘nalishlarda yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlarga aylantirilishi mumkin:

- Sellyuloz va qog‘oz ishlab chiqarish: g‘o‘zapoyaning sellyuloz tarkibi 35-42% bo‘lib, qog‘oz ishlab chiqarish uchun yaroqli xom ashyo. Viloyatda mini-zavod barpo etish yiliga 80-100 ming tonna texnik qog‘oz va karton ishlab chiqarish imkonini beradi;
- Bioyoqilg‘i granulalari (pellet): quritilgan va granulalangan g‘o‘zapoya isitish tizimlarida gaz va ko‘mirga munosib alternativ; yonish quvvati 1 kg da 16-18 MJ;
- Organik o‘g‘it: yoqib yuborish o‘rniga kompostlash orqali tuproqqa qaytarilsa, har gektardan 0,8-1,2 tonna organik modda qo‘shiladi;
- Hayvonlar ozuqasi: maxsus fermentatsiya texnologiyasi bilan g‘o‘zapoya silos sifatida chorva ozuqasiga qo‘shilishi mumkin, bu ozuqa tarkibidagi xom protein miqdorini 8-12% gacha oshiradi.

3. MAISHIY CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH

Buxoro viloyatida yillik 340 ming tonna qattiq maishiy chiqindi (QMCh) hosil bo‘ladi. Joriy holatda chiqindilarning 78% poligonlarga ko‘miladi, 15% tartibsiz yoqiladi va faqat 7% qayta ishlanadi. Yevropaning ilg‘or mamlakatlarida (Germaniya, Shvetsiya, Niderlandiya) ushbu ko‘rsatkich 65-85% qayta ishlash darajasini tashkil etadi. Buxoro viloyatida chiqindilarni saralash va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan katta samara berishi mumkin.

Maishiy chiqindilarni qayta ishlashning asosiy yo‘nalishlari:

• Oziq-ovqat va organik chiqindilar (jami chiqindining 42-48%): aerob yoki anaerob kompostlash yo‘li bilan tuproq konditsioneri va biogaz ishlab chiqarish;

• Qog‘oz va karton (18-22%): ikkilamchi xom ashyo sifatida qog‘oz-sellyuloza korxonalariga yetkazib berish;

• Plastmassa (12-15%): mexanik qayta ishlash orqali granula va ikkilamchi plastmassa mahsulotlari tayyorlash; 1 tonna qayta ishlangan plastmassa 700 kg yangi plastmassaga to‘g‘ri keladi;

• Shisha (8-10%): to‘liq qayta eritmaga solish; qayta ishlash birlamchi xom ashyoga qaraganda energiyani 30% tejaydi;

• Metallar (3-5%): ikkilamchi metallurgiya uchun chiqit metal olish markazlari;

• Elektron chiqindilar (1-2%): qimmatbaho metallar (oltin, kumush, mis) va kamyob elementlarni ajratib olish.

4. ISHLATILGAN SUVNI TOZALAB TEXNIK SUV OLISH

Buxoro viloyatida yillik 280-320 million m³ komunal oqava suv hosil bo‘ladi. Ko‘p qavatli turar-joy binolari va sanoat korxonalari maishiy maqsadlarda foydalanilgan suvni bevosita kanalizatsiya tarmog‘iga chiqaradi. Holbuki, ushbu suvning katta qismi zamonaviy biologik va membrana filtratsiya texnologiyalari yordamida texnik foydalanish uchun tozalanishi mumkin.

Ko‘p qavatli turar-joy binolarida «kulrang suv» (dush, kir yuvish mashinasidan chiqadigan suv) «qora suv» (hojatxona chiqindisidan) alohida ajratilib, biologik tozalashdan so‘ng binoning o‘zida hojatxona bochogini to‘ldirish, bog‘larni sug‘orish va mashina yuvish uchun qayta ishlatilishi mumkin. Bir 16 qavatli binodagi «kulrang suv» qayta ishlatish tizimi yiliga 1 600-2 200 m³ ichimlik suvini tejaydi.

Sanoat korxonalarida esa yopiq suv aylanish tizimi (recirculation system) joriy etish suvni 60-75% tejash imkonini beradi. Buxoro viloyatidagi to‘qimachilik, oziq-ovqat va kimyo korxonalarida bunday tizimlarni o‘rnatish yillik 45-55 million m³ suv tejashga olib keladi — bu viloyat sanoat suvining taxminan 35-40% ini tashkil etadi.

XULOSA

Yuqoridagi mexanizmlarning samarali ishlashi uchun viloyat hokimligi, vazirliklar va xususiy sektor o‘rtasida mustahkam koordinatsiya, chiqindisiz ishlab chiqarish tamoyillarini mahalliy tartibga solish hujjatlariga kiritish va ekologik madaniyatni ommaviy targ‘ib qilish zarur.

EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Farimova Fotima Abdurasulovna
Buxoro davlat universiteti, stajyor-tadqiqodchisi
e-mail: fotimak965@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Yangi O‘zbekiston — 2030" strategiyasining ekologik turizm rivojiga ta’siri iqtisodiy va institutsional mexanizmlar nuqtai nazaridan kompleks tarzda tadqiq qilinadi. Maqolada ekologik turizmning global va mintaqaviy tendentsiyalari, O‘zbekiston hududlarida ekologik turistik resurslarning

taqsimlanishi, amalda qo‘llanilayotgan davlat mexanizmlari hamda ularning samaradorligi tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida institutsional nazariya, hududiy iqtisodiyot va barqaror rivojlanish konsepsiyalaridan foydalanilgan. Natijada ekologik turizm va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan, mavjud institutsional bo‘shliqlar identifikatsiya qilingan hamda milliy va hududiy darajada amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik turizm, institutsional mexanizmlar, yashil iqtisodiyot, hududiy rivojlanish, barqaror turizm, ekoklaster, PPP (davlat-xususiy sheriklik), bioturizmik salohiyat.

KIRISH

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida global ekologik muammolarning keskinlashuvi — iqlim o‘zgarishi, biodiversitasning kamayishi, suv resurslarining qisqarishi va barqaror rivojlanish paradigmasining kuchayishi — jahon turizmida sifat jihatidan yangi yo‘nalishni — ekologik turizmni yuzaga keltirdi. Xalqaro ekotourizm jamiyatining (TIES) ta’rifiga ko‘ra, ekologik turizm — bu «tabiiy hududlarga yo‘naltirilgan, atrof-muhitni muhofaza qilishga, mahalliy aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi va tabiatga ta’sirini minimallashtiruvchi mas’uliyatli sayohat shakli»dir.

O‘zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish va hududiy tengsizlikni kamaytirish borasida ekologik turizm strategik ahamiyat kasb etadi. "Yangi O‘zbekiston — 2030" rivojlanish strategiyasi bu yo‘nalishni alohida ustuvorlik sifatida belgilagan bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotiga ekologik turizmdan yillik 600–800 mln. AQSh dollari daromad kiritish maqsadida kompleks iqtisodiy va institutsional mexanizmlar joriy etilmoqda.

Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sohani rivojlantirish yo‘lida bir qator tizimli to‘siqlar mavjud: tartibga solish tizimining tarqoqligi, moliyaviy mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, ekologik infratuzilmaning zaifligi va kadrlar potensialining pastligi. Ushbu tadqiqot mazkur to‘siqlarni tahlil qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan mexanizmlarni ilmiy asoslash maqsadida bajarilgan.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, birinchi marta O‘zbekiston hududlari kontekstida ekologik turizmni rivojlantirishning iqtisodiy va institutsional mexanizmlari integrallashgan tizim sifatida tahlil qilinib, ekotourizm-iqtisodiyot integratsiya modeli taklif etilgan.

Ekologik turizmning iqtisodiy nazariyasiga asos solgan Hector Ceballos-Lascurain (1987) konsepsiyasidan tortib, zamonaviy tahlitlarga qadar bu soha ko‘p qirrali tadqiqot predmetiga aylandi. Coase (1960) tadqiqotlari asosida rivojlangan tashqi ta’sirlar (externalities) nazariyasi ekologik turizmni quyidagicha tavsiflaydi: bu — atrof-muhitga ijobiy tashqi ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy faoliyat turi bo‘lib, davlat aralashuvisiz bozor muvozanati ijtimoiy maqbul darajadan past bo‘ladi. Shu sababli, davlatning iqtisodiy va institutsional mexanizmlar orqali sohani tartibga solishi zaruriyat hisoblanadi.

North (1990) institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, tabiiy resurslarni boshqarish samaradorligi birinchi navbatda institutsional muhitga — rasmiy va norasmiy qoidalar, ularni ijro etish mexanizmlari hamda institutlar o‘rtasidagi interaksiya — bog‘liq. Porter (1990) «raqobatdosh ustunlik» nazariyasi asosida

hududiy ekotouristik klasterlar va milliy raqobatbardoshlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatib berilgan.

O‘zbekiston kontekstida Yusupov va Xolmatov (2021), Mirzaev (2023) kabi tadqiqotchilar ekologik turizmning hududiy iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganishgan, biroq iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning integrallashgan modeli ilmiy adabiyotda hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Ushbu bo‘shliq mazkur maqolaning asosiy tadqiqot muammosini tashkil etadi.

BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) — xususan, SDG 8 (munosib ish o‘rinlari va iqtisodiy o‘sish), SDG 11 (barqaror shaharlar), SDG 13 (iqlim bo‘yicha chora-tadbirlar) va SDG 15 (quruqlikdagi hayot) — ekologik turizmni barqaror rivojlanishning asosiy tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. UNEP (2011) «Yashil iqtisodiyot» hisobotida ekologik turizm «past uglerod chiqindisi, yuqori bandlik va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish» xususiyatlariga ega yashil sektor sifatida tasniflangan.

"Yangi O‘zbekiston — 2030" strategiyasining yashil iqtisodiyot komponentlari, Prezidentning 2021-yil 4-oktyabrdagi PQ-5285-sonli «O‘zbekistonda ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ushbu global paradigmaning milliy tatbiqini ifodalaydi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi:

– Tizimli tahlil — ekologik turizm tizimining tarkibiy qismlarini va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish;

– Qiyosiy tahlil — O‘zbekiston tajribasini Qozog‘iston, Gruziya, Janubiy Koreya va Avstriya ekologik turizm mexanizmlari bilan solishtirish;

– Statistik va ekonometrik tahlil — Davlat statistika qo‘mitasi, Jahon banki va UNWTO ma’lumotlari asosida ekologik turizm ko‘rsatkichlari dinamikasini o‘rganish;

– Ekspert intervyu metodi — 24 nafar soha eksperti va amaliyotchi mutaxassislar bilan yarim tuzilmali suhbat o‘tkazish;

– SWOT tahlili — ekologik turizm sohasi uchun kuchli, zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavflarni aniqlash;

– Institutsional xaritalash — mavjud qonunchilik, idoralar vakolatlari va moliyaviy mexanizmlarning to‘liqligini baholash.

Tadqiqot 2022–2024-yillar mobaynida olib borildi. Birlamchi ma’lumotlar manbalari: Turizm va sport vazirligi hisobotlari, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligining monitoringi, Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, UNESCO va UNDP O‘zbekiston bo‘yicha hisobotlari.

O‘zbekiston noyob tabiiy va landshaft xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda 9 ta davlat qo‘riqxonasi, 2 ta milliy bog‘, 12 ta davlat tabiat yodgorligi va 200 000 gektardan ortiq muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mavjud bo‘lib, ular ekologik turizm uchun mustahkam resurslarga asoslanadi.

O‘zbekiston ekologik turistik resurslar matritsasi[19]

Hudud / Mintaqa	Asosiy ekologik resurs	Ekotouristik salohiyat
Qizilqum sahrosi (Navoiy, Buxoro)	Noyob cho‘l ekotizimi, petroglif, yovvoyi hayvonlar	Adventure, safari-turizm
Nurota tog‘ tizimi (Navoiy, Jizzax)	Yong‘oqzor, suv havzalari, Nurota qo‘riqxonasi	Trekking, yashil qishloq turizmi
Zarafshon vodiysi (Samarqand, Navoiy)	Zarafshon daryosi, Kattaqo‘rg‘on suv ombori, to‘qayzorlar	Ornitologik, baliqchilik turizmi
Qashqadaryo–Surxondaryo tog‘lari	Hisor qo‘riqxonasi, Boysun tog‘lari, noyob endemilar	Alpinizm, etnografik eko-turizm
Orol dengizi mintaqasi (Qoraqalpog‘iston)	Orolning qurib qolgan qismlari, Orol deltasi, Barsakelmes	"Dark green tourism", ekologik ta’lim
Farg‘ona vodiysi (Farg‘ona, Namangan, Andijon)	Chotqol biosfera qo‘riqxonasi, suv manbalari, o‘rmonlar	Trekking, botanik, agro-eko turizm

2017–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda ekologik turizm yo‘nalishidagi sayyohlar soni barqaror o‘sish dinamikasini ko‘rsatdi. Biroq, umumiy turistik oqim ichida ekologik turizmning ulushi jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan (12–14%) sezilarli darajada past — taxminan 4–6% ni tashkil etadi.

Ekologik turizm ko‘rsatkichlari dinamikasi (2017–2023) 2023-yil — dastlabki baholash ma’lumotlari asosida[20]

Ko‘rsatkich	2017	2018	2019	2021	2022	2023*
Eko-sayyohlar (ming)	48	74	112	61	98	160+
Daromad (mln. $)	18	29	47	22	41	68+
Ekologik obyektlar soni	34	41	58	67	89	130+
YaIMdagi ulush (%)	0.09	0.13	0.18	0.10	0.15	0.22

Jadval 2-dan ko‘rinib turibdiki, 2019-yilda COVID-19 pandemiyasidan oldingi davrda ekologik sayyohlar soni va daromad ko‘rsatkichlari rekord darajaga yetgan, 2021-yilda keskin kamaygan, 2022–2023-yillarda esa tiklanish va yangi o‘sish bosqichi boshlanmoqda. Bu o‘sish tendensiyasi "Yangi O‘zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bosqichiga to‘g‘ri kelishi muhimdir.

Hozirda O‘zbekistonda ekologik turizm subyektlari uchun quyidagi soliq imtiyozlari amalda mavjud:

–Muhofazalanadigan tabiiy hududlardagi ekotouristik obyektlarga mol-mulk solig‘i va yer solig‘idan 5 yillik ozodlik;

–Yashil sertifikatga ega (ISO 14001, Green Globe) ekologik mehmonxona va lodge’larga foyda solig‘ini 50% kamaytirish;

–Ekologik yo‘lovchi transporti (elektr avtobus, velosiped ijarasi) xaridorlariga QQS qaytarish (18% qaytariladi);

–Biologik xilma-xillikning saqlanishini ta’minlaydigan qo‘riqlanadigan hududlarda faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlarga imtiyozli lizing shartlari.

[19] Muallif ishlanmasi
[20] Muallif ishlanmasi

Biroq, ekspert intervyular natijalariga ko‘ra, ushbu imtiyozlardan foydalanish darajasi past — atigi 12–18% subyekt ulardan real tarzda bahramand bo‘lmoqda. Asosiy sabab: murakkab hujjatlashtirish jarayoni, axborot yetishmasligi va byurokratik to‘siqlar. "Yangi O‘zbekiston — 2030" strategiyasining moliyaviy arxitekturasi uchun quyidagi mexanizmlar nazarda tutilgan:

Ekologik turizm moliyaviy mexanizmlari matritsasi[21]

Mexanizm	Hajm / Parametrlar	Yo‘nalish
Ekologik turizm rivojlantirish fondi	Yillik byudjet: 80–100 mlrd. so‘m	Infratuzilma grantlari, mahalliy NGO‘lar
O‘zbekiston Hukumati — ADB «Yashil turizm» krediti	150 mln. $ (2023–2027)	Milliy bog‘lar infratuzilmasi, ekologik yo‘llar
Mahalliy hokimiyat ekologik turizm byudjeti	Har bir viloyatga YMM dan 0.3% ajratish (tavliya)	Hududiy eko-markazlar, tabiat yo‘llari
GGGI «Green Growth» dasturi grantlari	5–20 mln. $ loyihalar uchun	Qoraqalpog‘iston Orol ekologik loyihalari

Klaster modeli hududiy iqtisodiyotda synergetik effekt yaratish imkonini beradi. O‘zbekiston uchun ekologik turizm klasterining kontseptual modeli quyidagi tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

–Yadro subyekti — milliy bog‘ yoki qo‘riqxona boshqaruvi (ta’sisa elementi);

–Xizmat ko‘rsatuvchilar — ekologik mehmonxona, lodge, camping, glamping obyektlari;

–Transport — elektr avtobus, otli yo‘llar, velosiped va piyoda marshrut xizmatlari;

–Oziq-ovqat va hunarmandchilik — mahalliy fermerlar, halol va organik mahsulotlar, an’anaviy hunarmandchilik;

–Ta’lim va ilm — ekologik ta’lim markazi, ilmiy tadqiqot stansiyasi, interpretatsiya markazi;

–Raqamli platforma — markazlashgan bronlash, eko-gid ilovasi, monitoring tizimi.

Ushbu klaster modelining Nurota ekologik mintaqasida pilot tatbiq etilishi 2022–2024-yillarda 34% ortiqcha daromad va 18% ko‘proq ish o‘rinlari yaratilishiga olib keldi (Turizm vazirligi monitoringi, 2024).

Ekologik turizmda PPP mexanizmi klassik modellardan farqli o‘laroq, uchta tomon ishtirokini nazarda tutadi: davlat (hududni beradi va tartibga soladi), xususiy sektor (kapital va menejment kiritadi) va mahalliy jamoa (er, mehnat, mahalliy bilim kiritadi va daromadning bir qismini oladi).

"Uch tomonli PPP" modeli (Tri-lateral PPP) ayniqsa Surxondaryo va Qashqadaryo tog‘ hududlarida muhofazalanadigan tabiiy territoriyadagi turistik obyektlar uchun optimal hisoblanadi. Bu model orqali mahalliy aholi asosiy benefitsiarga aylanadi, bu esa tabiiy resurslarni saqlab qolishga ichki rag‘batni kuchaytiradi.

Ekologik turizmning iqtisodiy samaradorligini baholashda an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlardan tashqari, kengaytirilgan qiymat zanjiri tahlilidan (Extended Value Chain Analysis) foydalanish zarur. Ushbu tahlilga ko‘ra,

[21] Muallif ishlanmasi

O‘zbekistonda bir ekologik sayyohdan keladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita iqtisodiy ta’sir:

Ekologik sayyohning kengaytirilgan iqtisodiy multiplikatori (muallif hisob-kitobi)[22]

Iqtisodiy ta’sir turi	O‘rtacha qiymat ($ / 1 sayyoh)	Ulush (%)
To‘g‘ridan-to‘g‘ri: turar joy, transport, kirish pullari	$ 180–230	45%
Bilvosita: oziq-ovqat, hunarmandchilik, xizmatlar	$ 90–120	25%
Indutsirlangan: xodimlar sarflari, mahalliy tovarlar	$ 60–80	18%
Katalizator: investitsiya, infratuzilma o‘sishi	$ 40–55	12%
JAMI MULTIPLIKATSION EFFEKT	**$ 370–485 / sayyoh**	**100%**

O‘zbekistonda ekologik turizmni tartibga soluvchi institutsional baza quyidagi asosiy hujjatlar majmuasidan iborat. Shunga ko‘ra, me’yoriy bazada bir qator lacunalar mavjud: ekologik turizm obyektlarini akkreditatsiya qilish bo‘yicha yagona standart yo‘qligi, carrying capacity (turistik sig‘im) limitlari hali qonuniy belgilanmaganligi va mahalliy jamoalarning foyda olish mexanizmlari etarli darajada tartibga solinmaganligi. Ekologik turizmni boshqarish borasida vakolatlar bir necha vazirlik va idoralar o‘rtasida taqsimlangan, bu esa koordinatsiya muammolarini yuzaga keltiradi:

Ekologik turizmni tartibga soluvchi davlat idoralari tizimi[23]

Idora	Vakolat sohasi	Koordinatsiya darajasi
Turizm va Sport Vazirligi	Turizm subyektlarini ro‘yxatga olish, marketing, sertifikatsiya	Asosiy koordinator
Ekologiya vazirligi	Qo‘riqxona va milliy bog‘ boshqaruvi, ekologik nazorat	Parallel / Yetarli emas
Mahalliy hokimiyatlar	Hududiy ruxsatnomalar, yer masalalari, mahalliy infratuzilma	Past
Madaniyat vazirligi	Tabiiy-madaniy meros obyektlari, UNESCO saytlari	Episodik
Investitsiyalar agentligi	Xorijiy investitsiyalar jalb etish, PPP shartnomalar	O‘rta

Ekologik turizm sifatini ta’minlashda sertifikatsiya instituti hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xalqaro amaliyotda (Kostarika, Novaya Zelandiya, Avstriya) ekologik sertifikatsiya «bozor signali» vazifasini bajarib, iste’molchi tanloviga va narx premium asosiga ta’sir qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

–Xalqaro sertifikatga ega (Green Globe, EarthCheck) ekologik obyektlar O‘zbekistonda o‘rtacha 35–42% yuqori narxda xizmat ko‘rsatadi;

–Milliy «Yashil yulduz» sertifikatiga ega obyektlar (joriy etilmoqda) 18–25% premium narx shakllantirish imkoniyatiga ega;

–Sertifikatsiyasiz obyektlar esa «eko» yorlig‘ini noto‘g‘ri ishlatib, sohaning reputatsiyasiga zarar yetkazmoqda (greenwashing muammosi).

Muammo echimida O‘zbekistonda milliy ekologik turizm sertifikatsiya tizimini UNWTO va ISO 21101 standartlari asosida shakllantirish va uni xalqaro

[22] Muallif ishlanmasi
[23] Muallif ishlanmasi

dasturlar bilan o‘zaro tan olish (mutual recognition) zarur.

Raqamli texnologiyalar ekologik turizm uchun yangi institutsional imkoniyatlar yaratmoqda:

–«Eco-Uzbekistan» raqamli platformasi: barcha ekologik marshrut, obyekt, gid va bronlash ma’lumotlarini birlashtiruvchi milliy agregator (2024-yilda test rejimida);

–IoT-asosidagi tabiiy hududlar monitoringi: Ugam-Chatqol milliy bog‘ida sinovdan o‘tkazilayotgan «aqlli qo‘riqxona» tizimi, kamera tuzoqlari va sensorlar orqali hayvonlar va sayyohlar harakatini kuzatish;

–Blockchain-asosidagi ekologik to‘lovlar tizimi: sayyohlar to‘lagan «ekologik soliq»ni bevosita mahalliy jamoalarga o‘tkazuvchi shaffof tizim (pilot — Nurota);

–Carbon footprint kalkulyator: sayyohlarning uglerod izini hisoblash va ko‘kalamzorlashtirishga ixtiyoriy hissa qo‘shish platformasi.

Ekologik turizm mexanizmlari samaradorligi baholash me’zoni[24]

✓ **KUCHLI TOMONLAR (Strengths)**	⚠ **ZAIF TOMONLAR (Weaknesses)**
• Noyob va xilma-xil tabiiy resurslar (tog‘, sahro, delta) • Siyosiy irodaning kuchli ekanligi (Prezident darajasidagi farmoyishlar) • Faol xalqaro hamkorlik (ADB, World Bank, UNDP, GIZ) • Mehmondo‘stlik madaniyatining kuchli an’analari	• Ekologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi • Koordinatsiya tizimidagi institutsional bo‘shliqlar • Malakali ekotourizm kadrlarining taqchilligi • Mahalliy aholi sohaga past darajada jalb etilganligi
🚀 **IMKONIYATLAR (Opportunities)**	⚡ **XAVFLAR (Threats)**
• Global ekologik turizm bozorining o‘sishi (yillik +8%) • SCO va MDH mamlakatlaridan turistlar salohiyati • Yashil moliya imkoniyatlari: carbon credits, ESG fondlari • Raqamli texnologiyalar orqali xarajatlarni kamaytirishFondi	• Iqlim o‘zgarishi: tog‘ muzliklarining erishi, suv taqchilligi • «Greenwashing» — sohaning reputatsiyasiga zarar yetkazish xavfi • Nadzorat zaifligidan tabiiy boyliklarni haddan tashqari ishlatish • Mintaqaviy raqobat: Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston eko-turizmi

O‘zbekiston uchun institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirishda xalqaro bestpracticelardan foydalanish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Quyidagi mamlakatlar tajribasi O‘zbekiston kontekstida eng amaliy deb topildi:

Xalqaro ekologik turizm tajribasining qiyosiy tahlili[25]

Davlat	Asosiy mexanizm	Natija	O‘zbekiston uchun dars
Kostarika	"Blue Flag" va «CST» ekologik sertifikatsiya; qo‘riqxona kirish pullari biokonservatsiya fondiga	YaIMning 8.2% — turizm; 29% — ekologik turizm	Milliy eko-sertifikatsiya tizimi, foyda qayta investitsiyasi mexanizmi
Novaya Zelandiya	Maori jamoalari bilan «Kaitiakitanga» hamkorlik modeli; carrying capacity qonuniy limiti	Eko-sayyoh boshiga ortalama $520 daromad; 94% sayyoh mamnuniyati	Mahalliy jamoa sheriklik modeli; turistik sig‘im limitlarini qonunlashtirish

[24] Muallif ishlanmasi
[25] Muallif ishlanmasi

фирм в Узбекистане способствует повышению качества аудиторских услуг, достоверности финансовой отчетности и прозрачности деятельности экономических субъектов. Обновление стандартов в соответствии с международными требованиями, цифровыми технологиями и внутренним контролем качества повышает конкурентоспособность аудиторских организаций. Ведение реестра внутренних стандартов, внедрение электронных рабочих документов, использование листов контроля качества и регулярное обучение аудиторов являются важными практическими мерами. В целом совершенствование внутренних стандартов служит эффективной реализации экономических и институциональных реформ в условиях Нового Узбекистана.

Список использованной литературы

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O‘RQ-677-son “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni [Elektron resurs]. — URL: https://lex.uz/docs/-5307886
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-son “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori [Elektron resurs]. — URL: https://lex.uz/docs/-5952173
3. Bobonarova K.U. O‘zbekistonda auditorlik firmalari ichki standartlarini takomillashtirish // Zenodo. — 2024. — URL: https://zenodo.org/records/14208278
4. Qo‘ziyev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent, 2017.
5. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot: monografiya. — Toshkent: Lesson Press, 2020.
6. Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish jarayonini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish // Green Economy and Development. — 2025.

“YANGI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA JAVOBGARLIKNI MAJBURIY SUG‘URTALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rustamova Gulmira Aliqulovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: marjonalibek@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu Mazkur tezisda “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida javobgarlikni majburiy sug‘urtalash tizimining o‘ziga xos xususiyatlari va uning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda majburiy sug‘urtaning fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari hamda davlat manfaatlarini himoya qilishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish, sug‘urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va xalqaro tajribalarni joriy etish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tezisda majburiy sug‘urta tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiy*

barqarorlikni ta’minlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish hamda aholining sug‘urta madaniyatini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston – 2030 strategiyasi, majburiy sug‘urta, javobgarlik sug‘urtasi, sug‘urta bozori, sug‘urta tizimi, sug‘urta xizmatlari, moliyaviy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik, sug‘urta polisi, sug‘urta madaniyati.*

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, fuqarolarning moliyaviy manfaatlarini himoya qilish hamda jamiyatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida turli tavakkalchiliklar va kutilmagan zararlarning ortib borishi javobgarlikni majburiy sug‘urtalash tizimining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Majburiy sug‘urta nafaqat jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy barqarorligini himoya qiladi, balki davlatning ijtimoiy himoya mexanizmlarini mustahkamlashda ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli O‘zbekistonda ham sug‘urta bozorini rivojlantirish, ayniqsa javobgarlikni majburiy sug‘urtalash tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim normativ-huquqiy hujjat bo‘lib, unda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini kengaytirish hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonlari alohida o‘rin egallaydi. Bu esa o‘z navbatida sug‘urta tizimining, xususan javobgarlikni majburiy sug‘urtalash tizimining zamonaviy talablar asosida rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi.

Majburiy sug‘urta davlat tomonidan tartibga solinadigan sug‘urta turi bo‘lib, unda fuqarolar yoki yuridik shaxslar qonun asosida muayyan sug‘urta shartnomasini tuzishga majbur hisoblanadi. Bunday sug‘urta turi iqtisodiy xavflarni kamaytirish, jamiyatda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va zarar ko‘rgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda moliyaviy xizmatlar sifati va ochiqligini oshirish masalalari alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Shu sababli majburiy sug‘urta tizimida ham elektron polislar, onlayn to‘lov tizimlari va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarining joriy qilinishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Strategiyada davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va elektron hukumat tizimini rivojlantirish orqali aholiga qulay va shaffof xizmat ko‘rsatish maqsadi belgilangan. Bu esa sug‘urta tizimida inson omilini kamaytirish, korrupsion holatlarning oldini olish va sug‘urta xizmatlarining tezkorligini oshirish imkonini beradi. Masalan, majburiy avtosug‘urta polislarini onlayn rasmiylashtirish, sug‘urta hodisalari bo‘yicha elektron murojaatlarni qabul qilish va kompensatsiya to‘lovlarini avtomatik tarzda amalga oshirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, strategiyada aholining raqamli savodxonligini oshirish va axborot texnologiyalarini keng joriy etish masalalari ham nazarda tutilgan. Bu esa fuqarolarning sug‘urta xizmatlaridan foydalanish madaniyatini oshiradi hamda

majburiy sug‘urta tizimining samaradorligini ta’minlaydi. Sug‘urta tashkilotlari faoliyatining raqamlashtirilishi orqali sug‘urta bozori ishtirokchilari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi, xizmat sifati oshadi va iste’molchilarning huquqlari yanada mustahkam himoya qilinadi.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida internet tarmoqlarini kengaytirish, elektron to‘lov tizimlarini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta’minlash vazifalari ham majburiy sug‘urta tizimining rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, majburiy sug‘urta tizimining zamonaviy xususiyatlari va strategiya doirasidagi rivojlanish yo‘nalishlarini quyidagi jadval orqali ko‘rib chiqish mumkin (1-jadval):

1-jadval

“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida javobgarlikni majburiy sug‘urtalashning o‘ziga xos xususiyatlari[44]

№	O‘ziga xos xususiyatlar	Mazmuni	Strategiyadagi bog‘liqligi
1	Raqamlashtirilgan sug‘urta tizimi	Sug‘urta polislarini elektron shaklda rasmiylashtirish imkoniyati yaratiladi	Elektron hukumat va raqamli xizmatlarni kengaytirish siyosati bilan bog‘liq
2	Onlayn sug‘urta xizmatlari	Polis xarid qilish va to‘lovlarni masofadan amalga oshirish imkoniyati mavjud	Raqamli iqtisodiyot va elektron to‘lov tizimlarini rivojlantirish vazifalari bilan uyg‘un
3	Shaffoflikning oshishi	Sug‘urta jarayonlari avtomatlashtirilishi natijasida korrupsiya kamayadi	Davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash maqsadiga mos
4	Fuqarolar manfaatlarini himoya qilish	Zarar ko‘rgan shaxslarga kafolatlangan kompensatsiya beriladi	Aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish vazifasi bilan bog‘liq
5	Sug‘urta nazoratining kuchayishi	Ma’lumotlar bazasi orqali sug‘urta polislarini nazorat qilish tizimi shakllanadi	Axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash siyosatiga mos
6	Avtomatlashtirilgan monitoring	Sug‘urta kompaniyalari faoliyati elektron monitoring qilinadi	Sun’iy intellekt va raqamli boshqaruv tizimlari bilan bog‘liq
7	Elektron murojaatlar tizimi	Sug‘urta hodisalari bo‘yicha onlayn murojaat yuborish imkoniyati yaratiladi	Elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish vazifasi bilan bog‘liq
8	Tezkor kompensatsiya to‘lovlari	Sug‘urta to‘lovlarini elektron tarzda tez amalga oshirish imkoniyati mavjud	Moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish siyosatiga mos
9	Axborot xavfsizligi	Sug‘urta ma’lumotlarining himoyasi kuchaytiriladi	Axborot xavfsizligini ta’minlash strategiyasi bilan bog‘liq
10	Sug‘urta bozori raqobati	Raqamli platformalar orqali xizmatlar sifati oshadi	Raqamli iqtisodiyot va bozor mexanizmlarini rivojlantirish bilan bog‘liq

[44] Muallif tomonidan tayyorlandi

Yuqoridagi jadvalda “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida javobgarlikni majburiy sug‘urtalash tizimining asosiy xususiyatlari va ularning iqtisodiy hamda institutsional ahamiyati yoritib berilgan. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, strategiyada asosiy e’tibor sug‘urta tizimini raqamlashtirish, aholiga qulay xizmat ko‘rsatish va davlat nazoratini kuchaytirishga qaratilgan. Ayniqsa, elektron sug‘urta polislarining joriy etilishi sug‘urta bozorida yangi bosqichni boshlab berdi. Chunki an’anaviy qog‘oz shaklidagi sug‘urta tizimi ko‘plab byurokratik to‘siqlarni yuzaga keltirar edi. Elektron tizim esa polislarni tezkor rasmiylashtirish, ma’lumotlarni avtomatik saqlash va nazorat qilish imkonini yaratmoqda.

Strategiyada ko‘zda tutilgan raqamli transformatsiya jarayonlari majburiy sug‘urta tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, onlayn to‘lov tizimlari orqali fuqarolar sug‘urta badallarini masofadan turib to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa aholining vaqt va xarajatlarini tejaydi hamda xizmatlardan foydalanish darajasini oshiradi. Bundan tashqari, sug‘urta tashkilotlari faoliyatining avtomatlashtirilishi inson omilini kamaytiradi va korrupsion xavflarni sezilarli darajada pasaytiradi.

1-jadvaldagi yana bir muhim jihat – bu sug‘urta nazoratining kuchaytirilishidir. Axborot tizimlari va yagona elektron ma’lumotlar bazasining yaratilishi sug‘urta polislarini real vaqt rejimida tekshirish imkonini beradi. Bu esa noqonuniy yoki qalbaki sug‘urta polislarining oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, strategiyada axborot xavfsizligiga katta e’tibor qaratilgani sug‘urta ma’lumotlarini himoya qilish va fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari daxlsizligini ta’minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Majburiy sug‘urtaning yana bir o‘ziga xos jihati fuqarolar manfaatlarini himoya qilish tizimining mustahkamlanayotganidir. Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda kompensatsiya to‘lovlarini tezkor amalga oshirish fuqarolarning moliyaviy barqarorligini saqlashga yordam beradi. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan elektron tizimlar orqali murojaatlarni ko‘rib chiqish va to‘lovlarni amalga oshirish jarayoni sezilarli darajada soddalashmoqda.

Umuman olganda, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida majburiy sug‘urta tizimining rivojlanishi mamlakatda zamonaviy moliyaviy infratuzilmani shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa sug‘urta bozorining raqobatbardoshligini oshirish, aholining moliyaviy himoyasini kuchaytirish va iqtisodiyotda barqarorlikni ta’minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Strategiya asosida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari kelajakda sug‘urta xizmatlarining yanada qulay, tezkor va samarali bo‘lishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida javobgarlikni majburiy sug‘urtalash tizimini takomillashtirish iqtisodiy barqarorlik va fuqarolar manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizimni rivojlantirish uchun sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish, aholining sug‘urta madaniyatini oshirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shuningdek, sug‘urta tariflarini adolatli belgilash, xalqaro tajribani joriy etish hamda sug‘urta kompaniyalari faoliyatining shaffofligini ta’minlash maqsadga muvofiqdir. Natijada majburiy sug‘urtaning samaradorligi oshadi, moliyaviy xavflar kamayadi va ijtimoiy himoya tizimi yanada mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni
3. Karimov M.R., Abdullayev Sh.Z. Sug‘urta ishi. (Darslik). “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2021. 432 bet.
4. Tursunov B.O., Rasulov A.K. Moliya bozori va sug‘urta xizmatlari. (Darslik). “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2023. 386 bet.
5. Sayfulina A.F. Assessment of the state of development of digital infrastructure in the regions of Uzbekistan // Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 4, August 2024.
6. Ланцов А.Е. Инфраструктура: понятие, виды и значение // Статистика и экономика. 2013. №3. С. 49–54.
7. Qodirov N.M. O‘zbekistonda sug‘urta bozorini raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5, 2023.
8. Yusupov Asomiddin Soatovich. Tashqi savdoni erkinlashtirish jarayonida milliy eksport raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi: 08.00.09 - “Jahon iqtisodiyoti” PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi/Davlat boshqaruvi akademiyasi T; 2018.
9. Xonkeldieva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korporasiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – T: TDIU, 2018. 56 b.
10. Yo‘ldasheva U.A. Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish - T.: 2021. PhD. diss. avtoref. 11–14 b.

YENGIL ATLETIKADA UZUNLIKKA SAKROVCHI YOSH SPORTCHILARNI TAYYORLASHNING INNOVATSION-METODIK ASOSLARI

Murodova Madina Jahongir qizi
Buxoro davlat universiteti magistri
e-mail: murodovamadina791@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yengil atletikachilarning uzunlikka sakrash texnikasini takomillashtirishda harakatli o‘yinlar va zamonaviy monitoring tizimlarining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda sport natijalarini yaxshilashda "Yangi O‘zbekiston – 2030" strategiyasidagi institutsional yondashuvlar asos qilib olingan.

Kalit so‘zlar: Uzunlikka sakrash, dinamik kuch, kinematik tahlil, boshlang‘ich bosqich, sport strategiyasi.


KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O‘zbekiston – 2030" strategiyasida jismoniy tarbiya va sport sohasini raqamlashtirish hamda seleksiya

ishlarini ilmiy asosda tashkil etish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan. Yengil atletikaning uzunlikka sakrash turi murakkab texnik-koordinatsion harakat bo‘lib, uning samaradorligi bevosita boshlang‘ich tayyorgarlik davrida shakllangan poydevorga bog‘liq.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida (9-11 yoshli bolalar) asosiy e’tibor sakrashning texnik elementlarini avtomatizm darajasiga yetkazishga qaratiladi. Bizning tadqiqotimizga ko‘ra, bu yoshda sakrash texnikasini o‘rgatishda quyidagi ikki komponentli yondashuv eng yuqori natija beradi:

1. Bio-mexanik modellashtirish: Sakrashning depsinish va parvoz fazasini vizual tahlil qilish.
2. Psixofiziologik moslashuv: Sportchining tezkorlik-kuch sifatlarini o‘yin uslubida rivojlantirish.Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida yosh sportchilarning texnik harakatlarini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mashg‘ulot jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Xususan, uzunlikka sakrashda natijani belgilovchi asosiy omillarni matematik modellashtirish orqali tahlil qilish mumkin. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida harakat ko‘nikmalarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda bolalarda asab tizimi plastikligi yuqori bo‘ladi. Shu sababli, bio-mexanik modellashtirish jarayonida sakrashning har bir mikrofazasini alohida ko‘rib chiqish lozim. Yugurib kelish tezligi va marom (ritm): So‘nggi uchta qadamda tezlikning keskin oshishi va og‘irlik markazining depsinishga tayyorlanishi. Depsinish burchagi va kuchi sportchining gorizontal tezligini vertikal kuchga samarali o‘tkazishi. Bundan tashqari, uzunlikka sakrashda natijani belgilovchi uchish balandligi va uchish uzoqligi o‘rtasidagi proporsiyani saqlash uchun maxsus sakrash mashqlari (ko‘p sakrashlar, to‘siqlar osha sakrash) yashil va raqamli metodika asosida, ya’ni qum ustida va elektron vaqt o‘lchagichlar nazoratida olib borilishi taklif etiladi. Bu yondashuv boshlang‘ich guruhlarda jismoniy zo‘riqishni kamaytirib, texnik mahoratni maksimal darajaga olib chiqadi.



1-rasm.Uzunlikka sakrashning kinematik modeli.

Datchiklar yordamida nazorat: Sportchining oyog‘iga o‘rnatilgan maxsus tezlik datchiklari va yuqori chastotali kameralar yordamida v_0 tezlikni aniq o‘lchash mumkin.

Optimal burchakni topish: Boshlang‘ich bosqichdagi bolalar ko‘pincha juda yuqoriga yoki juda pastga (tekis) sakrashadi. Matematik hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, depsinish burchagi 18° va 24° oralig‘ida bo‘lganda, gorizontal tezlik maksimal darajada saqlanib qolinadi.

Iqtisodiy va metodik samaradorlik: Raqamli monitoring tizimi murabbiyning vaqtini tejaydi va noto‘g‘ri texnika natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan sport jarohatlari xavfini kamaytiradi. Bu esa sport maktabining moddiy resurslarini samarali boshqarish (institutsional samaradorlik) demakdir

Sport faoliyati sohasidagi institutsional o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, endilikda faqatgina jismoniy kuch bilan cheklanib bo‘lmaydi. Boshlang‘ich bosqichda uzunlikka sakrashni o‘rgatishda: Zamonaviy video-tahlil dasturlaridan foydalanish; Sport maktablarida yashil texnologiyalar asosida qurilgan qoplamalardan foydalanish har bir bola uchun individual raqamli o‘sish kartasini yuritish tavsiya etiladi.Bu yondashuv 2030-yilga borib O‘zbekistonning xalqaro arenalarda, xususan Olimpiya o‘yinlarida yengil atletika bo‘yicha nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy tahlillar va kinematik hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yengil atletikachilarning uzunlikka sakrash texnikasini takomillashtirish nafaqat jismoniy, balki intellektual va texnologik yondashuvni talab etadi. Boshlang‘ich bosqichda yosh sportchilarga sakrash texnikasini o‘rgatishda faqat miqdoriy ko‘rsatkichlarga (necha marta sakrash) emas, balki sifat ko‘rsatkichlariga (depsinish burchagi va yugurib kelish tezligining optimal nisbati) tayanish lozim. Yuqorida keltirilgan kinematik model asosida mashg‘ulot o‘tkazish natijadorlikni o‘rtacha 12-15% ga oshirish imkonini beradi.Sport faoliyatini raqamli iqtisodiyot tamoyillari asosida tashkil etish, xususan, murabbiyga sportchining xatolarini mikrosaniyalar aniqligida ko‘rish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida mashg‘ulot jarayoniga sarflanadigan vaqt va iqtisodiy resurslarni optimallashtiradi."Yangi O‘zbekiston – 2030" strategiyasida belgilanganidek, professional sportga poydevor quyi bo‘g‘indan qo‘yiladi. Uzunlikka sakrashda boshlang‘ich bosqichda texnik xatolar (masalan, noto‘g‘ri depsinish burchagi) bartaraf etilmasa, bu kelajakda sportchining natijasini turg‘unlikka (stagnatsiya) va surunkali jarohatlarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

irziyoyev Sh.M. "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Toshkent: "Adolat", 2023-yil 11-sentabr, P
Frimov F.A. "Sportda ilmiy tadqiqotlar". Darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2021-yil. 112-125-b. (Sport mashg‘ulotlarini modellashtirish bo‘limi).
o‘ychiyev M.U. "Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati". O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: "Lider Press", 2022-yil. 88-102-b. (Uzunlikka sakrash texnikasi va boshlang‘ich tayyorgarlik metodikasi).

hakirov R.R. "Sport mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalar va bio-mexanik tahlil". Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2024-yil. 54-67-b.
hompson, W. R. "Worldwide Survey of Fitness Trends for 2025: Digital Integration i
n 6. Xolmuhammadov R.D. "Yosh yengil atletikachilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishning innovatsion usullari". Ilmiy-uslubiy maqola // Jismoniy tarbiya va sAport jurnali. 2021-yil, №4. 32-35-b.
tafarova D.J. "Sport fiziologiyasi va antropometriya". Darslik. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2022-yil. 145-152-b.
l
e
t
i
c
s
"
.

YANGI O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASI: BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN SIRKULYAR IQTISODIYOTGA O‘TISH

Zayniyev Diyorbek Zokir og`li
Buxoro Davlat universiteti magistri
zaynievdiyor8665@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola “O‘zbekiston 2030” strategiyasi doirasida sirkulyar iqtisodiyot modeliga o‘tishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etadi. Tadqiqot lineer iqtisodiyot modelining cheklovlarini ko‘rsatib, resurslardan qayta foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashning optimal yo‘llarini aniqlaydi. Tahlil natijalari “O‘zbekistonning 2030” yilga mo‘ljallangan rivojlanish maqsadlariga erishish uchun sirkulyar yondashuv asosiy strategik vosita ekanligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: sirkulyar iqtisodiyot, “O‘zbekiston 2030”, barqaror rivojlanish, resurs samaradorligi, yashil o‘tish, SDG maqsadlari, chiqindilarni boshqarish

KIRISH (Introduction)

1.1. Tadqiqotning dolzarbligi

Jahon iqtisodiyoti uzoq yillar davomida lineer model — “olish, ishlab chiqarish, tashlash” (take-make-dispose) tamoyiliga asoslanib keldi. Biroq bu model resurslarning tugashi, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit degradatsiyasi kabi global muammolarni yanada kuchaytirdi. Bugungi kunda dunyo aholisi iste’mol qilayotgan tabiiy resurslar miqdori Yerning tiklanish imkoniyatidan 1,7 baravar ko‘pdir (Global Footprint Network, 2023).

2021-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi mamlakatning iqtisodiy modernizatsiya, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanishga intilishini rasmiy belgilab berdi. Aynan ushbu kontekstda sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish — resurslarni qayta aylantirish, chiqindilarni minimallashtirish va ekotizimlarni tiklash tamoyillariga asoslangan model — dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

1.2. Tadqiqot vazifalari:

- Sirkulyar iqtisodiyotning nazariy asoslarini tahlil qilish;
- O‘zbekistondagi hozirgi iqtisodiy model va resurs sarfini baholash;
- Muvaffaqiyatli o‘tish uchun siyosat tavsiyalarini taqdim etish.

2. METODOLOGIYA (Methods)

2.1. Tadqiqot dizayni Ushbu tadqiqotda kombinatsiyalashgan (miksed) metodologiya qo‘llanildi: sifatli va miqdoriy tahlil usullari birlashtirildi. Tadqiqot uch bosqichdan iborat bo‘ldi: adabiyotlar tahlili, empirik ma’lumotlarni qayta ishlash va qiyosiy tahlil.

2.2. Tahlil usullari

SWOT tahlili: O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotning kuchli tomonlari, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini tizimli baholash uchun qo‘llanildi.

Qiyosiy tahlil: O‘zbekistonning ko‘rsatkichlari Niderlandiya, Finlandiya va Xitoy (sirkulyar iqtisodiyotni jadal joriy etayotgan mamlakatlar) bilan solishtirildi.

3. NATIJALAR (Results)

3.1. O‘zbekistondagi hozirgi iqtisodiy holat

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston iqtisodiyoti hozirda lineer modelga chuqur bog‘liq. 2023 yil ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda yiliga taxminan 9,8 million tonna qattiq chiqindi hosil bo‘ladi, shundan atigi 8,2% qayta ishlanadi (O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi, 2023). Bu ko‘rsatkich MDH mamlakatlari o‘rtacha darajasidan ham past.

3.2. SWOT Tahlili natijalari

Jadval 1

O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyot SWOT tahlili

KUCHLI TOMONLAR (S)	ZAIF TOMONLAR (W)
• Kuchli qishloq xo‘jaligi bazasi (paxta, ipakchilik) • Yosh va faol mehnat resurslari • Davlatning islohotlarga qat'iy irodasi • Qulay geografik joylashuv (SCO, BRI yo‘llari)	• Past qayta ishlash darajasi (8,2%) • Sirkulyar texnologiyalarga yetarli investitsiyalarning yo‘qligi • Aholi va korxonalarda ekologik ong pastligi • Zaif chiqindi infratuzilmasi
IMKONIYATLAR (O)	**TAHDIDLAR (T)**
• Yashil investitsiyalar uchun xalqaro mablag‘lar (GCF, ADB) • Raqamli texnologiyalar orqali resurs monitoringi • Yashil mahsulotlarga global talab o‘sishi • SDG va Paris kelishuvi majburiyatlari	• Iqlim o‘zgarishining qishloq xo‘jaligiga ta’siri • Mintaqaviy raqobatchilik (Qozog‘iston, Rossiya) • Texnologik qaram bo‘lish xavfi • O‘tish davrida ish o‘rinlarini yo‘qotish

3.3. Xalqaro tajriba: Qiyosiy tahlil

Niderlandiya 2050-yilga qadar to‘liq sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish rejasini amalga oshirib, allaqachon qayta ishlash darajasini 79%ga yetkazgan. Finlandiya yashil startaplarni soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlab, 2030-yilga qadar 100 ming yangi ish o‘rni yaratdi. Xitoy esa 2025 yilga qadar 35% chiqindi kamaytirishni maqsad qilib belgilab, sektorlar bo‘yicha sirkulyar yo‘yol xaritasini tatbiq etmoqda[2].

O‘zbekiston bu tajribalardan ikki jihatda o‘rganishi mumkin: birinchisi — siyosat izchilligi (uzluksiz qonuniy baza), ikkinchisi — xususiy sektorda innovatsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmi.

4. XULOSA VA TAVSIYALAR (Conclusion)

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish uchun zarur natural resurslar, mehnat potentsiali va siyosiy irodaga ega. Biroq bu o‘tish o‘z-o‘zicha amalga oshmaydi — u tizimli siyosat, izchil investitsiyalar va

barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligini talab etadi.

4.1. Amaliy tavsiyalar

4.1.1. Davlat siyosati uchun:

- 2027-yilgacha “Sirkulyar iqtisodiyot milliy strategiyasi”ni ishlab chiqib tasdiqlash;
- Qayta ishlash korxonalariga 5 yillik soliq imtiyozlari joriy etish;
- Kengaytirilgan ishlab chiqaruvchi javobgarligi (EPR) mexanizmini to‘qimachilik va qurilish sektorlarida tatbiq etish.

4.1.2. Xususiy sektor uchun:

- To‘qimachilik va paxta sektorida chiqindilarni xomashyo sifatida qayta aylantiruvchi texnologiyalarga investitsiya kiritish;
- Mahalla darajasida qayta ishlash markazlari tarmog‘ini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston 2030 Strategiyasi to‘g‘risida” PF-6240-son Farmoni.
2. Ellen MacArthur Foundation (2023). Circular Economy in Emerging Markets. Isle of Wight: EMF Publications.
3. O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi (2023). O‘zbekiston raqamlarda: 2023. Toshkent: Davlat statistika qo‘mitasi.
4. World Bank (2024). Uzbekistan Economic Update 2024. Washington DC: World Bank Group.
5. Zokir ogli, Z. D. (2024). GLOBAL EKOLOGIK OZGARISHLAR VA ULARNI OQIBATLARI. *IMRAS*, *7*(1), 81-83.
6. Rashidova, N., & Toshmatov, A. (2023). O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning institutsional asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(2), 112-128.

FUTBOL SANOATIDA RAQAMLI TRANSFORMASIYA: SUN’IY INTELLEKTNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI

Ismoilov Shahzod Hamzayevich
Osiyo xalqaro universiteti magistri
e-mail: i.shaxa2898@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola futbol sanoatida raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini qo‘llashning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qiladi. Tadqiqotda so‘nggi o‘n yillikdagi xalqaro skauting tizimlari, muxlislar bilan ishlash strategiyalari va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqiladi. "Yangi O‘zbekiston 2030" strategiyasi doirasida mahalliy futbol klublari uchun iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, Sun’iy intellekt (AI), Big Data, Skauting, Fan-engagement, Futbol iqtisodiyoti.

Kirish

Raqamli iqtisodiyot davrida futbol shunchaki sport turi bo‘lmay, balki yuqori texnologiyali biznesga aylandi. So‘nggi tadqiqotlar (Beal va boshq., 2019; Gupta & Sharma, 2022) shuni ko‘rsatadiki, AI texnologiyalari futbol klublarining tijorat daromadlarini o‘rtacha 12% dan 30% gacha oshirish imkoniyatiga ega.

O‘zbekistonda ham futbolni raqamlashtirish "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sun’iy intellektning iqtisodiy yo‘nalishlari Xalqaro ilmiy manbalarga asoslangan holda, AI futbol iqtisodiyotida quyidagi uchta dolzarb muammoni hal qiladi:

Skauting va Transfer bozorini optimallashtirish: Islam (2024) tadqiqotiga ko‘ra, Machine Learning algoritmlari futbolchining real bozor qiymatini sub’ektiv yondashuvlardan ko‘ra 15-20% aniqroq hisoblaydi. Bu klublarga transferlardagi moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytirish imkonini beradi.

Muxlislar bilan ishlash: Mousavi (2021) o‘z ishida AI orqali muxlislarning xulq-atvorini tahlil qilish (Big Data) chiptalar va atributikalar sotuvini 35-50% ga oshirishini isbotlagan.

Operatsion xarajatlarni tejash: 2025-yilgi hisobotlarga ko‘ra (Hype Sports Innovation), AI asosidagi jarohatlar prognozi klublarning inson kapitaliga bo‘lgan xarajatlarini (davolash va sug‘urta) yiliga o‘rtacha 1-2 mln yevroga tejaydi.

"Yangi O‘zbekiston 2030" strategiyasi doirasida mahalliy futbol klublariga quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi:

1. "Data-Driven Scouting" tizimini joriy etish: Klublarda an’anaviy skautlar bilan birga ma’lumotlar tahlilchilari (Data Scientists) shtatini yaratish.
2. Raqamli chipta va CRM: Muxlislar haqidagi ma’lumotlarni yig‘uvchi yagona platforma orqali marketing daromadlarini oshirish.
3. Yashil va aqlli stadionlar: Stadion boshqaruviga sun’iy intellektni joriy etish orqali energiya va resurs sarfini 10-15% ga kamaytirish.

Xulosa

Futbolda sun’iy intellektni qo‘llash nafaqat o‘yin sifatini, balki klubning moliyaviy sog‘lomligini ham ta’minlaydi. 2032-yilga kelib sportda AI bozori 39.65 mlrd dollarga yetishi kutilayotgan bir paytda, O‘zbekiston futbol klublari ushbu transformatsiyaga tayyor turishlari zarur.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni - "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida.

TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA BANK TIZIMI VA KROUDFANDING MEXANIZMLARINING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

Badirova Gavhar Shakirjon qizi
Toshdent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti
e-mail: gavhar.badirova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishda bank tizimi hamda alternativ moliyalashtirish mexanizmlari, xususan kraudfandingning o‘rni tahlil qilinadi. “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik-tijorat bankining moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayonining iqtisodiy o‘sishga ta’siri baholanadi. Shu bilan birga, kraudfanding mexanizmlarini bank kreditlariga muqobil moliyalashtirish vositasi sifatida joriy etish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, bank tizimi, kreditlash, kraudfanding, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyati moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur resurslarni safarbar etishda bank tizimi muhim institutsional rol o‘ynaydi. Banklar real sektor subyektlarini kreditlash orqali investitsiya jarayonlarini rag‘batlantiradi, ishlab chiqarish hajmining kengayishiga va bandlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mazkur jarayonda “Biznesni rivojlantirish banki” kichik va o‘rta biznesni kompleks moliyalashtirishga ixtisoslashgan muhim moliyaviy institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Bankning kredit portfeli va tadbirkorlik subyektlariga yo‘naltirilgan kreditlar dinamikasi uning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval

Biznesni rivojlantirish bankining 2020–2024 yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasi[45]

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Kredit portfeli (mlrd so‘m)	13 823,1	17 500,0	20 292,0	6 500,0	7 000,0
Biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar (mlrd so‘m)	3 928,6	8 413,0	9 900,0	3 534,1	4 800,0
Biznes kreditlar ulushi (%)	44,8	48,1	49,1	54,4	68,6

Bank kredit portfeli dinamikasi real sektorni moliyalashtirishda bankning rolini baholash imkonini beradi. 2020–2022-yillarda Biznesni rivojlantirish banki kredit portfeli barqaror o‘sib, 13 823,1 mlrd so‘mdan 20 292,0 mlrd so‘mga yetgan. Biroq 2023-yilda portfel hajmi 6 500,0 mlrd so‘mgacha kamayib, 2024-yilda 7 000,0 mlrd so‘mni tashkil etgan. Ushbu pasayish bank faoliyatidagi institutsional va tarkibiy o‘zgarishlar bilan izohlanadi. Shunga qaramay, kredit portfeli tarkibida biznes

[45] Muallif tomonidan “Biznesni rivojlantirish banki” ning rasmiy saytidagi moliyaviy ma’lumotlar asosida tayyorlangan.

kreditlari ulushi oshib, 2022-yildagi 49,1 foizdan 2024-yilda 68,6 foizga yetgan. Bu esa bank kredit siyosatida tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish ustuvor yo‘nalishga aylanganini ko‘rsatadi. [1].

2023–2024 yillarda bank tomonidan kichik va o‘rta biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash doirasida muhim hajmda kredit mablag‘lari ajratildi. Xususan, 2024-yilda biznes subyektlariga 4,8 trln so‘m kredit yo‘naltirildi. 2023-yilda esa tadbirkorlik subyektlariga 482,3 mlrd so‘m, qurilish ishlari uchun pudratchilarga 3 051,8 mlrd so‘m kredit resurslari ajratilgan. Bu bankning real sektor, ayniqsa infratuzilma va qurilish loyihalarini moliyalashtirishda faol ishtirok etayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tadbirkorlikni moliyalashtirish tizimida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalarining yuqori darajada shakllanishi biznes subyektlarining investitsiya faolligini cheklaydi. “Biznesni rivojlantirish banki” kreditlari bo‘yicha foiz stavkalari 18–29 foiz oralig‘ida bo‘lib, bu kichik va o‘rta biznes uchun moliyalashtirish xarajatlarini oshiradi hamda uzoq muddatli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kamaytiradi [1].

Shu sharoitda O‘zbekiston uchun kraudfanding kabi muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish dolzarb hisoblanadi. Ushbu tizim kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, yangi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish hamda garov yoki kredit tarixisiz mablag‘ jalb etishga yordam beradi.

Xalqaro tajriba bu mexanizmning samaradorligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Kickstarter platformasi 2023-yil oxiriga kelib 230 mingdan ortiq loyihani muvaffaqiyatli moliyalashtirgan, Seedrs va Crowdcube platformalari esa kichik bizneslar uchun 3,5 milliard yevroga yaqin kapital jalb qilgan [2]. Bu kraudfandingning innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim rol o‘ynayotganini tasdiqlaydi. Kraudfandingning asosiy shakllaridan biri bo‘lgan investitsiyaga asoslangan model orqali investorlar loyihalarga sarmoya kiritib, korxona kapitalida ulushga ega bo‘lishi mumkin. Natijada an’anaviy kredit talablarisiz moliyaviy hamkorlik shakllanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2024-yil holatiga ko‘ra, investitsiyaga asoslangan kraudfanding orqali 1,2 milliard yevrodan ortiq investitsiya jalb qilingan [3].

Shu bois, O‘zbekiston sharoitida bank kreditlari va kraudfanding mexanizmlarini uyg‘unlashtirgan gibrid moliyalashtirish modelini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda bank kreditlari yirik investitsiya va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda asosiy manba bo‘lib qolsa, kraudfanding innovatsion startaplar hamda kichik biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlovchi muqobil instrument sifatida xizmat qilishi mumkin [4].

Xulosa va takliflar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank tizimi, xususan “Biznesni rivojlantirish banki” tadbirkorlikni moliyalashtirishda muhim institutsional rol o‘ynaydi va mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, kredit foiz stavkalarining yuqoriligi tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishini cheklovchi omil sifatida baholanadi.

Yuqorida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra Respublikada kraudfanding tizimini tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsion faollikni oshirish va moliyaviy ishtirokni kengaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, Ushbu kraudfanding tizimini joriy etish uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

- Respublikada kraudfanding tizimi faoliyatini tartibiga soluvchi huquqiy baza yaratish.
- Davlat-xususiy sherikchilik asosida kraudfanding platformalar faoliyatini tashkil qilish.
- Raqamli infratuzilmani rivojlantirish va blokcheyn texnologiyalarini kraudfanding jarayonlariga joriy etish orqali mablag‘larning harakatini real vaqt rejimida kuzatish va firibgarlik xavfini sezilarli kamaytirish.
- Moliyaviy savodxonlikni oshirish, yani aholining keng qatlamlarini, ayniqsa yosh tadbirkorlar va startap tashabbuskorlarini, kraudfanding mexanizmlari haqida ma’lumot bilan ta’minlash, maxsus o‘quv dasturlari va treninglarni yo‘lga qo‘yish.

Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonning tadbirkorlik muhitini yaxshilash va raqamli iqtisodiyot rivojini tezlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Kraudfanding tizimining, ayniqsa, investitsiyaga asoslangan turini rivojlantirish O‘zbekiston sharoitida yuqori samara berishi mumkin. Chunki bu orqali investorlar kichik biznes subyektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoya kiritishlari va tadbirkorlar an’anaviy kredit to‘siqlaridan chetlab o‘tib, tezkor moliyaviy resurslarga ega bo‘lishlari mumkin. Shu bilan birga, mazkur mexanizm yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsion loyihalarni rag‘batlantirish va milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini jadallashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Biznesni rivojlantirish bankining rasmiy saytidagi moliyaviy ma’lumotlar 2020-2024. https://brb.uz/
2. The Business Research Company. Global Crowdfunding Market Report 2024. London, 2024. URL:https://www.thebusinessresearchcompany.com
3. European Crowdfunding Network (ECN). Annual European Crowdfunding Market Report 2024. Brussels. 2024. URL: https://eurocrowd.org
4. IMF. Alternative Finance and Hybrid Financing Models: Working Papers. Washington. International Monetary Fund. 2021–2023.

YANGI O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Nazarov Javohir Ro‘zimurod o‘g‘li
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali talabasi
nazarovjavohir1906@gmail.com

Anotatsiya

Tadqiqot “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy va institutsional islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini tahlil qiladi. 2022–2025 yillardagi iqtisodiy o‘sish, xorijiy investitsiyalar va institutsional o‘zgarishlar ekonometrik model orqali baholandi. Natijalar investitsiyalar ulushi va institutsional islohotlar YaIM o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Shuningdek,

investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektor rolini kuchaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar:iqtisodiy islohotlar, institutsional islohotlar, xorijiy investitsiyalar, barqaror o‘sish, YaIM, investitsiya muhiti.

Kirish

“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (PF-158, 11.09.2023) mamlakatni erkin va farovon davlatga aylantirishga qaratilgan asosiy dasturdir. Unda inson salohiyatini rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘sish, ekologiya, qonun ustuvorligi va xavfsizlik ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.Strategiyaga ko‘ra, 2030-yilgacha YaIMni 160–240 mlrd dollarga yetkazish, aholi jon boshiga daromadni 4000 dollarga oshirish va 250 mlrd dollar investitsiya jalb qilish rejalashtirilgan. So‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sish 6–7% atrofida bo‘lib, bunda privatizatsiya va raqobatni rivojlantirish kabi institutsional islohotlar muhim rol o‘ynamoqda.

Adabiyotlar sharhi

Xorijiy adabiyotlarda O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar keng o‘rganilgan. Ruziev (2021) valyuta liberalizatsiyasi va savdo ochiqligining ijobiy ta’sirini ta’kidlaydi [1], Tsereteli (2018) esa xususiy sektor va qishloq xo‘jaligi islohotlarining ahamiyatini ko‘rsatadi [2].OECD (2025) institutsional o‘zgarishlar investitsiyalar o‘sishiga xizmat qilishini qayd etadi [3]. IMF (2025) 2024-yildagi 6,5% iqtisodiy o‘sishni investitsiyalar va ichki talab bilan izohlaydi [4], Jahon banki (2025) esa xususiy sektor va global integratsiyani kuchaytirishni tavsiya qiladi [5]. Yusupov (2025) ijtimoiy ta’sirlarni o‘rgangan [6], EBRD (2024–25) esa energetika va raqamlashtirish islohotlarini ijobiy baholagan [7].

Metodologiya

Tadqiqot ekonometrik tahlilga asoslanib, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy va institutsional islohotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Ma’lumotlar manbalari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) hamda PF-158 strategiya hujjati ma’lumotlari foydalanildi.Tadqiqot 2022–2025 yillarni qamrab oladi. Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida YaIM o‘sish sur’ati (%) olindi, mustaqil o‘zgaruvchilar esa xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (FDI, YaIMga nisbatan %) va yalpi investitsiyalar ulushi (YaIMga nisbatan %) hisoblanadi. Investitsiyalar ulushi strategiyaning institutsional islohotlari natijasi sifatida baholanib, iqtisodiy o‘sish bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi.

Natija va Muhokama

2022–2025 yillarda O‘zbekiston statistikasi (IMF, Jahon banki, Davlat statistika) asosida quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar jamlandi.

1-jadval

O‘zgaruvchi	YaIM o‘sishi	FDI (%)	Investitsiyalar ulushi (%)
YaIM o‘sishi	1,00	0,45	0,92
FDI (%)	0,45	1,00	0,38
Investitsiyalar ulushi	0,92	0,38	1,00

Investitsiyalar ulushi bilan YaIM o‘sishi o‘rtasida kuchli ijobiy korrelyatsiya (0,92) kuzatiladi – bu strategiyaning institutsional islohotlari (davlat-xususiy

sheriklik, raqobat qonuni) natijasi. FDI ta’siri o‘rtacha (0,45), chunki energiya va infratuzilma loyihalari ustun.

Xulosa

Tadqiqot natijalari “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasining iqtisodiy va institutsional islohotlarining samaradorligini tasdiqlaydi: 2022–2025 yillarda YaIM o‘sishi 6,0% dan 6,8% ga yetdi, investitsiyalar ulushi oshdi va kuchli korrelyatsiya kuzatildi.

Adabiyotlar:

1. Ruziev K. Uzbekistan’s Development Experiment: An Assessment... // Post-Communist Economies, 2021.
2. Tsereteli M. The Economic Modernization of Uzbekistan. ISDP Silk Road Paper, 2018.
3. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan, 2025.
4. IMF. Republic of Uzbekistan: 2025 Article IV Consultation, 2025.
5. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum, 2025.
6. Yusupov S. Uzbekistan’s Transition to a Market Economy..., 2025.
7. EBRD. Transition Report 2024-25: Uzbekistan, 2025.

ZAMONAVIY BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA NARXNING MOHIYATI VA SHAKLLANISH MEXANIZMLARI

Abloqulova Zarina Farxodovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
e-mail: zarinaabloqulova3@gmail.com

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning mohiyati va shakllanish mexanizmi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, birinchi navbatda narxning mazmuni, vazifalari va turlari yuzasidan muhokama qilamiz. Narx-real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldagi ifodasidir. Narxda alohida olingan ishlab chiqaruvchilarning individual sarflari emas yoki alohida olingan individual shaxslarning psixologik jihatdan naflilikka bergan bahosi ham emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy sarflar va jamiyat uchun zarur bo‘lgan miqdorda va sifatda yaratilgan va tan olingan ijtimoiy naflilik, ya’ni iste’mol qiymatida o‘z ifodasini topadi.

Narxning quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi:

l . Muvozanatlikni ta’minlash vazifasi. Bunda narx bozorda talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta’sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi

2. Qiymat va naflilikni o‘lchash vazifasi. Narx qiymat va naflilikning puldagi ifodasi deb aytamiz, chunki qilingan sarf-xarajatlar va olingan natijalar (foyda yoki zarar) narxlar asosida hisob-kitob qilinadi. Ishlab chiqarish va uning natijalarining natural ko‘rsatkichlari ham mavjud (tonna, kg, m^2 va hokazo).

3. Tartibga solish vazifasi. Bozor holati (kon’yunkturasi) talab va taklif hamda ularning nisbatiga bog‘liq. Talabning oriishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirishni, aksincha holatda esa tovar ortiqchaligini, uni ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligini bildiradi.

4. Tartibga solish vazifasi. Bozor holati (kon’yunkturasi) talab va taklif hamda

ularning nisbatiga bog‘liq. Talabning ortishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirishni, aksincha holatda esa tovar ortiqchaligini, uni ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligini bildiradi.

5. Ijtimoiy himoya vazifasi. Narx aholining kam daromad oluvchi ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish vazifasini ham bajaradi. Narxning bu vazifasi tovar (xizmat)lar ijtimoiy dotatsiyalangan narxlar bo‘yicha sotilganda bajariladi. Bunda ular davlat byudjeti va turli xayriya mablag‘lari hisobiga moliyaviy ta’minlanadi.

Narxning turlari:

Ulgurji narx — ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta miqdordagi tovarlar bir yo‘la ko‘tarasiga sotilganda qo‘llaniladigan narx. Ulgurji narx ishlab chiqaruvchilar va ta’minlash-sotish tashkilotlari xarajatlarini qoplashi hamda ularning ma’lum miqdorda foyda ko‘rishini ta’minlashi zarur. Ulgurji narx tovar birjalari va savdo uylarida ham qo‘llaniladi.

Shartnoma narx — sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narx. Shartnoma narx odatda shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o‘zgarmaydi. Mazkur narx ham milliy, ham xalqaro bozorlarda qo‘llaniladi, U xalqaro bozorda qo‘llanilganda tovar (xizmat)larning jahon narxlariga yaqin turadi.

Chakana narx — tovarlar bevosita iste’molchilarga sotiladigan narx. Chakana narxga tovarning ulgurji narxi, chakana savdo tashkilotlarining xarajatlari va ularning oladigan foydasi kiradi Chakana narx tovarlarga bo‘lgan talab va takliffii bog‘lovchi rolini o‘ynaydi hamda ularning nisbatiga qarab yuqori yoki past bo‘lishi mumkin.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyalangan narxlarni vujudga keltiradi. Chegaralangan narx davlat tomonidan yuqori va quyi chegaralari belgilanib, shu doirada o‘zgarishi mumkin bo‘lgan narx. Bunday narx yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narx darajasini nazorat qiladi. Dotatsiyalangan narx — davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx. Bunday narxdan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne 'matlar bilan eng kam darajada ta’minlab turishda foydalaniladi.

Demping narx — bozorda o‘z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini bozordan siqib chiqarish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan maxsus narx. U «bozorga kirib olish narxi» deb ham ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

Nufuzli narx — sotish hajmini o‘zgartirmasdan, yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar tomonidan foydalaniladigan narx. Bu narxni qo‘llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo‘lib, monopol vaziyat mavjud bo‘lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog‘liq bo‘lmaydi, shu sababli narxning ko‘tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytimaydi.

Bozor iqtisodiyotida narxning shakllanishi bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki narx muvozanati hamda aholi turmush darajasi, ya’ni iste’molchilar talab va taklif omillari orqali bozor iqtisodiyoti shaklanadi. Shu bilan birgalikda, bozor iqtisodiyotidagi raqobat ham narxning shakllanish mexanizmiga ta’sir ko‘rsatmay

qolmaydi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi bozor munosabatlarining shakllanishida narxning ahamiyati, narxning shakllanishida talab, taklif va raqobat masalalari ko‘rib chiqiladi. Bozor iqtisodiyoti bu ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol jaroyonlarini asosan bozor mexanizmi orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy tizimdir. Ushbu tizimda narx, talab va taklif asosiy tatibga soluvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi. Raqobat esa bozorda faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlarining foyda olish va o‘z mavqaeini mustahkamlash yo‘lidagi o‘zoro kurashidir. Raqobat sharoitida har bir ishlab chiqaruvchi iste’molchini jalb qilish uchun mahsulot sifatini oshirishga va narxni muvozanatlashtirishga harakat qiladi. Bozordagi raqobat orqali narx mexanizmi shakllanadi, chunki talab va taklif omillari miqdori orqali bozordagi turli xil raqobat shakllari farqlanadi. Sotuvchi va xaridor o‘rtasida qulay narxga erishish uchun hamda ikkala tomonning manfaatlariga to‘g‘ri kelishi bozor narxi paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti mexanizmining asosiy mazmuni talab va taklif kuchidan iborat. Talab, iste’molchilar tomonidan bozorga chiqarilgan mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj hamda ushbu ehtiyojni qondirish uchun to‘lashga tayyor bo‘lgan pul miqdorini anglatadi. Taklif esa ishlab chiqaruvchilar tomonidan bozorga taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar soni hamda ularni belgilangan narxda sotish istagidir.

Mazkur ikki kuchning harakatlanishi natijasida bozor narxlari shakllanadi va iqtisodiyotning umumiy muvozanati ta’minlanadi. Bozor iqtisodiyotida talab va taklif harakati izchil davom etadi.

Iste’molchilar hamda ishlab chiqaruvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun raqobatlashadi. Iste’molchilar sifatli va arzon mahsulot izlashga harakat qilsa, ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarini bozorga ko‘proq va yuqoriroq narxda sotishga intiladi.

Bozor iqtisodiyotida narxning mohiyati va shaklanishi bilan birgalikda bozordagi narxning shakklanishiga ta’sir qiladigan bir qancha omillar jumladan, ishlab chiqarish resurslarining yetishmasligi, kuchli raqobat ta’sirida narxning tushishi, tovarning naflilik darajasi hamda pulning qadr-qimmati (inflyatsiya) kabilar ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmayapti.

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ приоритетных направлений и эффективности экономических реформ, реализуемых в рамках стратегии “Узбекистан – 2030”. В исследовании рассматриваются вопросы доведения объема ВВП до 240 миллиардов долларов, цифровизации экономики (IT-HUB), перехода к «зеленой» энергетике и модернизации инвестиционной политики. Также научно обосновывается роль развития частного сектора, сокращения бедности и

развития человеческого капитала в обеспечении макроэкономической стабильности.

Ключевые слова: Узбекистан – 2030, экономические реформы, цифровая экономика, зеленая экономика, инвестиции, ВВП, устойчивое развитие, частный сектор, инновации.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the priority areas and effectiveness of economic reforms implemented within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy. The study examines reaching the GDP target of 240 billion USD, the digitalization of the economy (IT-HUB), the transition to "green" energy, and the modernization of investment policy. Furthermore, the role of private sector growth, poverty reduction, and human capital development in ensuring macroeconomic stability is scientifically substantiated.

Keywords: Uzbekistan – 2030, economic reforms, digital economy, green economy, investment, GDP, sustainable development, private sector, innovations.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ya’ni XXI asr-texnologiyalar asrida har bir sohada yangi marralarni zabt etish juda muhim va ahamiyatli hisoblanadi.Shuningdek, O‘zbekiston ham rivojlangan davlatlar singari istiqbolli va iqtisodiy hayotni barpo etish maqsadioda turli xil chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, yangi islohatlarni amalga oshirish uchun **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab beruvchi, kelgusi 2030-yilgacha rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi muhim konseptual hujjatdir. Ushbu strategiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni bilan tasdiqlangan bo‘lib, 5 ta ustuvor yo‘nalish doirasida 100 ta aniq maqsadga erishishni ko‘zda tutadi.[2] Strategiyaning tub mohiyati “Inson qadri uchun” tamoyili asosida aholi farovonligini oshirish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdan iboratdir.[3]

O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining strategik maqsadi milliy iqtisodiyotni liberallashtirish va zamonaviylashtirish orqali mamlakatni daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga ko‘tarishdan iborat. Bu yo‘nalishda yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini 240 milliard dollarga yetkazish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur maqsadga erishish uchun an’anaviy xom ashyo eksportidan voz kechib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan sanoatni rivojlantirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish va “yashil” energetikaga o‘tish iqtisodiy o‘sishning yangi muhim drayverlari etib qaralmoqda.[2]

Hozirgi globallashuv va texnologik inqilob sharoitida mamlakat iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlash uchun investitsiya siyosatini tubdan modernizatsiya qilish va xususiy sektor ulushini YaIMda sezilarli darajada oshirish talab etiladi. Strategiyada natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimiga o‘tish, ochiqlik va hisobdorlik tamoyillarini joriy etish islohotlar samaradorligini kafolatlovchi asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish va modernizatsiya strategiyalari zamonaviy mahalliy olimlar va mutaxassislar tomonidan keng tadqiqotlar olib borilib va takliflar taqdim etilmoqda. Raqamli

iqtisodiyot bo‘yicha Iroda Abrorovna Sanakulova "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilib, raqamli soliq tizimlari orqali byudjet tushumlarining 45 foizi ta’minlanishini va yashirin iqtisodiyotning qisqarishini ilmiy asoslab bergan,. B.B. Berkinov esa milliy strategiyada institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va ko‘p funksiyali raqamlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.Yashil iqtisodiyot bo‘yicha Aziza Baxromjon qizi Xakimjanova O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tishidagi sektoral islohotlarni tahlil qilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 15 gigavattga yetkazishning strategik ahamiyatini va yashil moliya mexanizmlarini joriy etish zaruriyatini yoritgan,,.Strategik boshqaruv va investitsiya bo‘yicha Professor D.M. Karimova strategiyaning maqsadli ko‘rsatkichlarini yangilash va iqtisodiy siyosatni ilmiy ma’lumotlarga tayangan holda yuritish mexanizmlarini tadbiq etgan,.

Mayram Asat qizi Ravshanova global integratsiya sharoitida iqtisodiy islohotlarning tarixiy o‘rni va bozor mexanizmlariga o‘tishning mantiqiy davomiyligini yoritgan,. Sardorbek Akhadov Siddiq o‘g‘li esa strategik islohotlarning institutsional va texnologik jihatlarini kompleks tahlil qilgan.[5]

Tadqiqotlar metodologiyasi.Ushbu tadqiqotda iqtisodiy hodisalarni o‘rganishning tarixiylik, tizimli tahlil, taqqoslash va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi,. Islohotlar samaradorligini baholashda **statistik guruhlash va qiyosiy tahlil** usullari qo‘llanilib, O‘zbekiston Respublikasining rasmiy hisobotlari, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) va Jahon bankining (World Bank) tahliliy ma’lumotlari asosiy kirituvchi manba bo‘lib xizmat qildi.[6]

Muhokama va natijalar.Strategiya doirasidagi iqtisodiy o‘zgarishlar quyidagi natijalarni ko‘rsatmoqda:

Mazkur jadvalda “Yangi O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari va ularning 2025–2030 yillar uchun prognoz dinamikasi aks ettirilgan. Xususan, asosiy ustuvor ko‘rsatkichlardan biri sifatida yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmini oshirish belgilangan bo‘lib, 2025 yildagi 145 milliard dollardan 2030 yilga borib 240 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu o‘sish dinamikasi iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan diversifikatsiya qilish, investitsiyalar hajmini kengaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali ta’minlanishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, jadvalda aholi jon boshiga YAIM ko‘rsatkichining ham izchil o‘sishi prognoz qilingan bo‘lib, 2025 yildagi 3,8 ming dollardan 2030 yilga borib 5,8 ming dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bu esa mamlakatning “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” toifasiga kirish strategik maqsadi bilan bevosita bog‘liqdir.

Keltirilgan prognozlar iqtisodiy o‘sishning barqaror va uzluksiz tendensiyasini ko‘rsatadi. Ayniqsa, YAIM hajmining har yili o‘rtacha 6–7 foiz atrofida o‘sishi iqtisodiy islohotlarning izchilligini va samaradorligini ifodalaydi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga daromadning oshishi mamlakatda yashash darajasining yaxshilanishi, ichki talabning kengayishi va iqtisodiy faollikning ortishiga xizmat qiladi.

1.Makroiqtisodiy barqarorlik: 2025-yilda real YaIM o‘sishi 7,7% ni tashkil etdi, 2026-yilda esa 6,8% lik o‘sish kutilmoqda,. Inflatsiya darajasi 2025-yil

yakuniga kelib 7,3% gacha pasaydi. Ishsizlik darajasi esa 4,8% gacha kamayishi kuzatildi.

2. Investitsiya va xususiy sektor: 2017–2024-yillarda xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmi 3 barobarga oshdi. Xususiy sektorning YaIMdagi ulushi 80 foizdan oshgan bo‘lsa, kichik va o‘rta biznesning ulushi 56 foizga yetishi kutilmoqda,. Biroq, davlat korxonalari hali ham YaIMning 32 foizini tashkil etmoqda, bu esa xususiylashtirishni jadallashtirishni talab qiladi.

3. Raqamli va IT eksporti: IT-mahsulotlar eksporti 2024-yilda 300 million dollarga yetkazildi, bu 2020-yildagidan 25 barobar ko‘pdir. IT Park rezidentlari soni 1500 taga yetib, 20 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi.[7]

4. Yashil transformatsiya: Elektr energiyasi ishlab chiqarishning 30 foizini qayta tiklanuvchi manbalar hisobiga qoplash bo‘yicha yirik quyosh va shamol stansiyalari barpo etilmoqda. Qishloq xo‘jaligida 1 million gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish maqsad qilingan.[8]

Shuningdek, Strategiyada inson qadri ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. Shu sababli ta’lim tizimida sifat va qamrov kengaytiriladi, sog‘liqni saqlash xizmatlari modernizatsiya qilinadi,aholining ijtimoiy himoyasi kuchaytiriladi

Natijada jamiyatda ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar ta’minlanadi. “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiyotda juda muhim va tizimli o‘zgarishlar kutilmoqda. Bu o‘zgarishlar oddiy islohotlardan ko‘ra chuqur transformatsiya xarakteriga ega bo‘lib, iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qiladi. O‘zbekiston haqida ma’lumotlar tasvirlangan. Agar uchta yirik xalqaro moliyaviy institut prognozlari **bir-biriga yaqin** bo‘lsa, bu odatda makroiqtisodiy tendensiyalar ancha ravshan va siyosat signallari ishonchli ekanini anglatadi. O‘zbekiston holatida aynan shuni ko‘ryapmiz: 2026 -yil uchun barcha institutlar yuqori, lekin 2025-yildagi juda tez o‘sishdan biroz pastroq o‘sishni kutmoqda. Bu esa iqtisodiyot muvozanatli sur’atga o‘tishini bildiradi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholi turmush darajasini oshirishda yuksak samaradorlik ko‘rsatmoqda. Strategiya mamlakatni global iqtisodiyotning raqobatbardosh bo‘lagiga aylantirish uchun mustahkam poydevor yaratdi.Iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish uchun quyidagi choralar taklif etiladi:

Xususiylashtirish va korporativ boshqaruv: Raqobat mavjud bo‘lgan tarmoqlarda davlat korxonalarini xususiylashtirish bo‘yicha shaffof va muddatli "yo‘l xaritasi"ni qat’iy amalga oshirish zarur.

Yashil moliya infratuzilmasi: Yashil obligatsiyalar chiqarish va ekologik investitsiya platformalarini yaratish uchun huquqiy bazani takomillashtirish lozim.

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi: Oliy ta’lim muassasalarida “korxona - universitet -ilmiy tashkilot” klaster tizimini rivojlantirish orqali innovatsion mahsulotlar ulushini oshirish kerak.

Infratuzilma modernizatsiyasi: Elektr va transport tarmoqlarini, xususan, hududlararo yo‘l va temir yo‘l aloqalarini yangilash biznes xarajatlarini kamaytirishning asosiy omili bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, strategik islohotlarning muvaffaqiyati O‘zbekistonning

dunyodagi eng innovatsion **60 ta davlat** qatoriga kirishini va aholining farovon hayotini ta’minlaydi,.

«Chunki bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa - taraqqiyotning kafolatidir!» - dedi davlat rahbari. [9] Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek , biz bilimli bo‘lsak dunyoni zabt eta olamiz. Yurtimiz iqtisodiy jihatdan gullab yashnashida aholining savodxonligi juda muhimdir.Shuningdek, “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 2-bo‘limi barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash nomli asosiy maqsadga yo‘naltirilgan.

Foydalanagan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4- martdagi “O`zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan asosiy yo`nalishlar bo`yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024-yildagi ustuvor chora-tadbirlari to`g`risidagi PQ-109 sonli qarori.
2. https://strategy.uz/index.php?static=strategy_actions&lang=uz
3. Mavlyanov, Z. S. (2025). *2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot strategiyasi doirasida investitsiya siyosatini modernizatsiya qilish va iqtisodiy o‘sishning yangi drayverlarini shakllantirish.* **Empowerment of Youth Intellectual Success,** 1(6), 38.
4. Akhadov, S. S. (2026). *New strategic directions for ensuring Uzbekistan’s economic stability and competitiveness: An analysis of the “New Uzbekistan” and “Uzbekistan–2030” programs*. **Central Asian Journal of Literature, Philosophy, and Culture,** 7(1), 252–255. https://doi.org/10.51699/cajlpc.v7i1.1429
5. Ravshanova, M. A. (2026). Global integratsiya sharoitida Yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tarixiy o‘rni. Journal of International Scientific Research, 3(8). https://spaceknowladge.com

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI

Mahsutaliyev Muhammadqodir Shuhratjon o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi
e-mail:muhammadqodirmahsutaliyev3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va uning iqtisodiyotga ta’siri ko‘rib chiqiladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda raqamlashtirish jarayonlari tezlashgani, ayniqsa elektron to‘lov tizimlari va onlayn xizmatlarning kengaygani sezilmoqda. Bu holat aholiga qulaylik yaratish bilan birga iqtisodiy faollikni ham oshirmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda internet sifati pastligi va aholining raqamli ko‘nikmalari yetarli emasligi kabi muammolar ham mavjud. Tezisda ushbu holatlar oddiy misollar asosida tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, elektron to‘lovlar, iqtisodiy o‘sish, internet, tadbirkorlik.

Annotation. This thesis examines the development of the digital economy in New Uzbekistan and its impact on the economy. In recent years, digitalization processes have accelerated in the country, especially in the field of electronic

payment systems and online services. This has created convenience for the population and increased economic activity. At the same time, there are still some challenges such as low internet quality in certain regions and insufficient digital skills among the population. The thesis analyzes these issues using simple examples and provides some practical suggestions.

Keywords: digital economy, digitalization, electronic payments, economic growth, internet, entrepreneurship.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, internet, mobil ilovalar va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ko‘plab iqtisodiy jarayonlar an’anaviy shakldan raqamli ko‘rinishga o‘tmoqda. Bu esa nafaqat vaqt va xarajatni tejashga, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi bugungi kunda nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki aynan raqamlashtirish orqali iqtisodiyotning yangi imkoniyatlari ochilmoqda, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda va tadbirkorlik faoliyati yanada rivojlanmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, bugungi kunda ko‘plab xizmatlar onlayn tarzda ko‘rsatilmoqda, bu esa aholiga katta qulaylik yaratmoqda.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, hududlar o‘rtasida internet sifati farqi, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi kabi omillar bu jarayonning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, ushbu tezisning maqsadi — Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, uning iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish hamda mavjud muammolar asosida amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar Tahlili

Raqamli iqtisodiyot masalasi so‘nggi yillarda iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Xususan, Don Tapscott o‘z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotni iqtisodiyotning yangi bosqichi sifatida baholab, unda axborot texnologiyalari asosiy rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, raqamlashtirish ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv jarayonlarini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Shuningdek, Klaus Schwab tomonidan ilgari surilgan “To‘rtinchi sanoat inqilobi” konsepsiyasida raqamli texnologiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ko‘rsatiladi. Unga ko‘ra, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data) va avtomatlashtirish iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham bu yo‘nalishning ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, World Bank hisobotlarida raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o‘sishni tezlashtiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Ular ayniqsa raqamli infratuzilmani rivojlantirish va internetdan foydalanish darajasini oshirish zarurligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, International Monetary Fund tomonidan e’lon qilingan

materiallarda raqamlashtirish moliyaviy tizim samaradorligini oshirishi, shaffoflikni kuchaytirishi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi qayd etilgan. Mahalliy adabiyotlarda esa O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, IT infratuzilmani rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib, uning samarali rivojlanishi uchun davlat siyosati, texnologik infratuzilma va inson kapitali muhim ahamiyatga ega.

Natija va Tahlillar

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, elektron to‘lov tizimlari, onlayn xizmatlar va kichik biznes faoliyatida raqamlashtirish jarayonlari tez sur’atlarda rivojlanmoqda.

1-Jadval

Raqamli iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari va ularning tahlili

Yo‘nalish	Ijobiy natijalar	Mavjud muammolar
Elektron to‘lovlar	To‘lovlar tez va qulay amalga oshirilmoqda, naqd pulga ehtiyoj kamaymoqda	Internet sifati past hududlarda uzilishlar mavjud
Online davlat xizmatlari	Vaqt tejaladi, byurokratiya kamayadi, xizmatlar shaffoflashadi	Ba’zi xizmatlar to‘liq raqamlashtirilmagan
Kichik biznes va tadbirkorlik	O n	Raqamli ko‘nikmalar
Raqamli infratuzilma	Internet qamrovi kengaymoqda, IT sohasi rivojlanmoqda	Hududlar o‘rtasida tenglik yo‘q

Jadval natijalariga asoslanib shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishi bu — elektron to‘lov tizimlaridir. Chunki bu soha bevosita aholining kundalik hayoti bilan bog‘liq. Masalan, oddiy to‘lovlarni amalga oshirishda vaqtning tejanishi umumiy iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon pul aylanish tezligini oshiradi, natijada iqtisodiy faollik ham ortadi. Onlayn davlat xizmatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish nafaqat qulaylik yaratmoqda, balki boshqaruv tizimining samaradorligini ham oshirmoqda. Byurokratik to‘siqlarning kamayishi korrupsiya xavfini ham pasaytiradi. Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy tizimning barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kichik biznes sohasida esa raqamli iqtisodiyot yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Internet orqali savdo qilish imkoniyati kichik tadbirkorlar uchun katta bozorlarga chiqish yo‘lini ochmoqda. Mening kuzatishimcha, ayniqsa yoshlar bu imkoniyatlardan faol foydalanmoqda. Bu esa nafaqat bandlikni oshiradi, balki innovatsion g‘oyalar paydo bo‘lishiga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, jadvalda keltirilgan muammolar ham jiddiy e’tibor talab qiladi.

Ayniqsa, raqamli infratuzilma bilan bog‘liq muammolar boshqa barcha yo‘nalishlarga ta’sir ko‘rsatadi. Agar internet sifati past bo‘lsa, na to‘lov tizimlari, na onlayn xizmatlar to‘liq ishlaydi. Demak, infratuzilma bu tizimning asosiy poydevori hisoblanadi. Bundan tashqari, aholining raqamli savodxonligi darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Agar fuqarolar texnologiyalardan to‘g‘ri foydalana olmasa, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish qiyinlashadi. Mening fikrimcha, bu muammoni hal qilish uchun amaliy o‘quv dasturlari va qisqa muddatli kurslarni ko‘paytirish zarur. Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda, ammo uning samaradorligi infratuzilma va inson kapitaliga bevosita bog‘liq.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa elektron to‘lov tizimlari, onlayn davlat xizmatlari va kichik biznes faoliyatida raqamlashtirish jarayonlari sezilarli darajada ijobiy natijalar bermoqda. Bu esa aholining kundalik hayotini yengillashtirish bilan birga iqtisodiy samaradorlikni ham oshirmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, hududlar o‘rtasida internet sifati va tezligidagi tafovutlar, shuningdek aholining raqamli savodxonligi yetarli darajada emasligi ushbu jarayon samaradorligini pasaytiruvchi omillar hisoblanadi.

Mening fikrimcha, kelgusida raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun, avvalo, raqamli infratuzilmani mustahkamlash, internet qamrovini kengaytirish hamda aholining raqamli ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan amaliy choralarni kuchaytirish zarur. Bundan tashqari, yoshlarni IT sohasiga kengroq jalb qilish va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash ham muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston iqtisodiyotining kelajakdagi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Agar mavjud muammolar bosqichma-bosqich hal qilinsa, ushbu yo‘nalish mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar.

3. “The Digital Economy”. New York: McGraw-Hill, 1995.

4. “The Fourth Industrial Revolution”. Geneva: World Economic Forum, 2016.

5. “World Bank”. World Development Report 2021: Data for Better Lives. Washington, DC, 2021.

6. “International Monetary Fund”. Digitalization and the Future of Work. IMF Staff Discussion Note, 2018.

7. OECD. Digital Economy Outlook 2020. Paris, 2020.

8. UNDP. Digital Strategy 2022–2025.

YANGI O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA KORXONALARDA YASHIL BUXGALTERIYA HISOBINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Xolmurodova Durdona Otamurod qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktaranti,
e-mail: xolmurodovad65@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda “Yangi O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida korxonalarda yashil buxgalteriya hisobini rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Yashil buxgalteriya hisobi korxona faoliyatida ekologik xarajatlar, resurslardan foydalanish va atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatkichlarini hisobga olish va baholash tizimi sifatida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda korxonalarda ekologik xarajatlarni alohida hisobga olish, resurslardan samarali foydalanish, ekologik hisobot tizimini takomillashtirish hamda kadrlar malakasini oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, yashil buxgalteriya hisobini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: yashil buxgalteriya hisobi, barqaror rivojlanish, ekologik xarajatlar, resurs tejamkorlik, Yangi O‘zbekiston - 2030, ekologik hisobot.

Asosiy qism

Bugungi kunda global miqyosda ekologik muammolarning kuchayishi, tabiiy resurslardan noo‘rin foydalanish hamda iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish zarurati dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu munosabat bilan iqtisodiy jarayonlarni baholashda faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar emas, balki ekologik omillarni ham hisobga olish tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday zamonaviy yondashuvlardan biri – yashil buxgalteriya hisobidir.

Yashil buxgalteriya hisobi korxona faoliyati jarayonida yuzaga keladigan ekologik xarajatlar, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi, chiqindilar hajmi hamda atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatkichlarini aniqlash, hisobga olish va tahlil qilish tizimini ifodalaydi. Ushbu tizim orqali korxonalarda resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda ekologik xavflarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida ekologik barqarorlik va yashil iqtisodiyotga o‘tish masalalari ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Xususan, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish vazifalari belgilab berilgan[83].

Mazkur strategik hujjatning amaliy ijrosini ta’minlashda korxonalarda yashil buxgalteriya hisobini rivojlantirish muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki an’anaviy buxgalteriya hisobi tizimi asosan moliyaviy natijalarni aks ettirsa, yashil buxgalteriya hisobi ishlab chiqarishning ekologik oqibatlarini ham hisobga

[83] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son **“**O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida https://lex.uz/ru/docs/-6600413

olish imkonini beradi. Natijada korxona faoliyatining to‘liq iqtisodiy-ekologik baholanishi ta’minlanadi.

Bugungi kunda ko‘plab korxonalarda ekologik xarajatlar alohida hisobga olinmaydi va umumiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida yashirin qoladi. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini to‘liq tahlil qilish imkonini cheklaydi. Shu sababli yashil buxgalteriya hisobini rivojlantirishda ekologik xarajatlarni alohida guruhlash va ularni tizimli ravishda hisobga olish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.Korxonalarda yashil buxgalteriya hisobini rivojlantirishning yana bir muhim yo‘nalishi resurslar harakati va yo‘qotishlarini aniqlash tizimini joriy etishdir. Ishlab chiqarish jarayonida xomashyo, energiya va suv resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin.

Shuningdek, korxonalarda ekologik hisobot tizimini takomillashtirish ham dolzarb ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda korxonalar moliyaviy hisobotlar bilan bir qatorda ekologik va barqaror rivojlanish hisobotlarini ham taqdim etadi. Ushbu yondashuv korxonaning investitsion jozibadorligini oshiradi hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, yashil buxgalteriya hisobini samarali joriy etish uchun buxgalteriya va iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarning ekologik bilim va ko‘nikmalarini oshirish muhim hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida buxgalterlar nafaqat moliyaviy hisob yurituvchi, balki ekologik axborotni tahlil qila oladigan mutaxassis bo‘lishi talab etilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, “Yangi O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida belgilangan iqtisodiy va ekologik islohotlarni samarali amalga oshirishda korxonalarda yashil buxgalteriya hisobini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizim korxona faoliyatining nafaqat moliyaviy natijalarini, balki ekologik ta’sirini ham kompleks baholash imkonini beradi.

Yashil buxgalteriya hisobi orqali korxonalarda ekologik xarajatlarni alohida hisobga olish, resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilar hajmini kamaytirish kabi masalalarni tizimli hal etish mumkin. Bu esa o‘z navbatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil buxgalteriya hisobini bosqichma-bosqich joriy etish korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, ekologik mas’uliyatini oshirish hamda xalqaro standartlarga moslashish jarayonini tezlashtiradi. Shu bilan birga, ushbu tizimni rivojlantirish uchun normativ-huquqiy baza, metodologik asoslar va mutaxassislar salohiyatini yanada kuchaytirish zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, yashil buxgalteriya hisobi “Yangi O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim instrument sifatida xizmat qiladi va korxonalarda ekologik hamda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga imkon yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son **“**O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida https://lex.uz/ru/docs/-6600413

2. Xalilov Sherzod Axmatovich, Green Accounting In Uzbekistan: Necessity, Challenges, And Opportunities, Scientific Journal of “International Finance & Accounting” (2024)

3. O’zbekistonda Respublikasi yashil buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari Ochilov Farxodjon Shavkatjon o’g’li Vol. 5 No. 03 (2025): Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting

4. Robert G. Eccles, Ioannis Ioannou, and George Serafeim "The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance", Management Science (2014), 23, 2835-2857

YANGI O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASIDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING ROLI VA AHAMIYATI

Ulashov Aliboy Rashid o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi
Baxtiyarova Laylo Baxodirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya. “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy diversifikatsiya milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash, tashqi va ichki xatarlarni kamaytirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tarmoqlarni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida talqin etiladi. Strategiyada iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsiya muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali ishlab chiqarish tuzilmasini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan .

Iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni iqtisodiy o‘sishning bir yoqlama xomashyo yoki an’anaviy tarmoqlarga bog‘liqligini kamaytirib, sanoat, xizmatlar va innovatsion sektorlar ulushini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni qisqartirish, resurslardan samarali foydalanish va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi .

Strategik hujjatda iqtisodiy diversifikatsiya nafaqat tarmoq tarkibini kengaytirish, balki iqtisodiy boshqaruvni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va global qiymat zanjirlariga integratsiyani kuchaytirish bilan uzviy bog‘liq holda ko‘riladi. Bu esa mamlakatni global ishlab chiqarish tizimining muhim bo‘g‘iniga aylantirish hamda uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi .

Natijada, iqtisodiy diversifikatsiya “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining markaziy komponenti sifatida iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan yangi bosqichiga o‘tish, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va aholi farovonligini oshirishning ilmiy asoslangan mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi .

Kalit so‘zlar: iqtisodiy diversifikatsiya, barqaror o‘sish, innovatsiya, investitsiya, eksport, bandlik.

Kirish

“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan kompleks konseptual hujjat bo‘lib, unda iqtisodiy diversifikatsiya iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv milliy iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan takomillashuvini ta’minlash, uni xomashyo yo‘nalishiga qaramlikdan bosqichma-bosqich chiqarish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlar ulushini oshirish zarurati bilan izohlanadi.

Strategiyada iqtisodiy diversifikatsiya sanoat, xizmatlar va innovatsion sektorlar o‘rtasida muvozanatli rivojlanishni shakllantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishning muhim omili sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, mazkur jarayon tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan chidamlilikni oshirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda global qiymat zanjirlariga integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy diversifikatsiya hududlar iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va yangi, barqaror ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, u “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasining tizimli komponenti sifatida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va aholi farovonligini yuksaltirishning ilmiy asoslangan mexanizmi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili:

Tadqiqot doirasida foydalanilgan ilmiy va rasmiy manbalar iqtisodiy diversifikatsiya, tarkibiy islohotlar hamda “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasining mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavzu bo‘yicha manbalar ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi: birinchisi — rasmiy davlat hujjatlari va statistik ma’lumotlar, ikkinchisi — xalqaro tashkilotlar va ilmiy platformalardagi tahliliy ishlanmalar.

Rasmiy davlat manbalari, xususan O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hamda Strategik islohotlar agentligi ma’lumotlari iqtisodiyot tarkibidagi real o‘zgarishlarni aniq raqamlar orqali yoritadi. Ushbu manbalar iqtisodiy o‘sish sur’atlari, sektorlar ulushi, eksport va investitsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha asosiy empirik bazani shakllantiradi. Ayniqsa, 2024–2025-yillarga oid statistik ma’lumotlar iqtisodiy diversifikatsiya jarayonining amaliy natijalarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon banki (World Bank), Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) va Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tomonidan taqdim etilgan tahlillar esa O‘zbekiston iqtisodiyotining global iqtisodiy tizimdagi o‘rni va uning rivojlanish tendensiyalarini baholash imkonini beradi. Ushbu manbalarda iqtisodiy o‘sishning barqarorligi, investitsiya muhitining yaxshilanishi va tarkibiy islohotlarning samaradorligi alohida ta’kidlanadi.

Shuningdek, Kursiv Uzbekistan, Caspian Post va UzA kabi axborot-tahliliy platformalar mamlakatdagi dolzarb iqtisodiy jarayonlarni tezkor statistik va analitik ma’lumotlar asosida yoritadi. Bu manbalar iqtisodiy diversifikatsiya jarayonining qisqa muddatli dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Ilmiy platformalardagi (ResearchGate va boshqa akademik resurslar)

maqolalar esa eksportni diversifikatsiya qilish, sanoat tarkibini o‘zgartirish va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazariy jihatdan asoslab beradi. Ushbu tadqiqotlar iqtisodiy diversifikatsiyaning uzoq muddatli rivojlanishdagi rolini ilmiy jihatdan mustahkamlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy diversifikatsiya masalasi bo‘yicha mavjud manbalar o‘zaro uyg‘unlashgan holda, uning ham nazariy, ham amaliy jihatlarini to‘liq ochib beradi. Rasmiy statistik ma’lumotlar real holatni aks ettirsa, xalqaro va ilmiy manbalar ushbu jarayonning strategik va tahliliy asoslarini shakllantiradi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy diversifikatsiyaning roli va ahamiyatini ochib berish uchun kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali iqtisodiy diversifikatsiyaning milliy iqtisodiyot tarkibidagi o‘rni va uning asosiy komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil usuli qo‘llanilib, iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlari turli iqtisodiy modellarda hamda rivojlanish bosqichlarida solishtirildi. Statistik ma’lumotlarni tahlil qilish orqali tarmoqlar kesimida o‘zgarishlar, eksport tarkibi va investitsiya oqimlarining dinamikasi baholandi.

Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari asosida umumiy nazariy xulosalardan kelib chiqib amaliy natijalar shakllantirildi. Analitik yondashuv yordamida strategik hujjatlarning mazmuni chuqur o‘rganilib, iqtisodiy diversifikatsiyaning ustuvor yo‘nalishlari va kutilayotgan natijalari ilmiy jihatdan asoslandi.

Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining izchilligi, ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar

“Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlari mamlakat iqtisodiyotining real sektorida kuzatilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar orqali amaliy tasdiq topmoqda. Xususan, so‘nggi statistik ma’lumotlar iqtisodiyotda xizmatlar va sanoat tarmoqlari ulushining izchil ortib borayotganini ko‘rsatadi. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar sohasi ulushi 48,6 foizga, sanoat ulushi esa 26,8 foizga yetgan, qishloq xo‘jaligi ulushi esa 17,3 foizgacha qisqargan . Ushbu ko‘rsatkichlar iqtisodiy diversifikatsiyaning asosiy maqsadi — iqtisodiyotni bir tarmoqqa qaramlikdan chiqarish va ko‘p tarmoqli modelga o‘tkazish jarayoni izchil amalga oshirilayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, xizmatlar sektorida yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilmoqda. Jumladan, 2025-yilda xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati 8,5 foizga oshgan bo‘lib, axborot va kommunikatsiya xizmatlari 23,9 foiz, savdo xizmatlari 13,6 foiz o‘sishni namoyon etgan . Bu holat raqamli iqtisodiyot va innovatsion faoliyat iqtisodiy diversifikatsiyaning asosiy drayveriga aylanayotganini ko‘rsatadi. Axborot texnologiyalari sektorining YaIMdagi ulushi 2025-yilda 2,7 foizga yetgani ham ushbu yo‘nalishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi .

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ham strategiyaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Xususan, O‘zbekiston iqtisodiyoti 2025-yilda 7 foizdan ortiq o‘sish sur’atini qayd etib, yalpi ichki mahsulot hajmi 145 milliard AQSh dollaridan oshgan . Prognozlarga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish 2026–2027-yillarda ham 6,7–6,8 foiz darajasida saqlanib qoladi . Bu esa iqtisodiy diversifikatsiya orqali yaratilayotgan yangi o‘sish manbalari barqaror xarakter kasb etayotganini anglatadi.

Eksport tarkibida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. 2025-yilda eksport hajmi 33,4 milliard dollarga yetgani qayd etilgan . An’anaviy xomashyo eksporti bilan bir qatorda, sanoat mahsulotlari, xizmatlar va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining ortib borayotgani diversifikatsiya siyosatining amaliy natijasi sifatida baholanadi. Ilmiy tadqiqotlar ham eksport tarkibini diversifikatsiya qilish zarurati yuqoriligini, ayniqsa tayyor mahsulotlar ulushini oshirish muhimligini ta’kidlaydi .

Investitsiya faolligi ham iqtisodiy diversifikatsiya jarayonining muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatga jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 43 milliard dollardan oshgan . Bu esa sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va texnologik yangilanishni jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi 2025-yilda 52,2 foizni tashkil etgani diversifikatsiyaning institutsional asoslari mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi . Mazkur sektor ayniqsa xizmatlar va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yuqori ulushga ega bo‘lib, iqtisodiy faollikni hududlar kesimida kengaytirishda muhim rol o‘ynamoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy diversifikatsiya siyosati iqtisodiy o‘sishning yangi, barqaror modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Iqtisodiyot tarkibida xizmatlar va sanoat ulushining ortishi, eksport geografiyasi va tarkibining kengayishi, investitsiya oqimlarining ko‘payishi hamda innovatsion sektorlarning rivojlanishi ushbu jarayonning asosiy natijalari hisoblanadi.

Shu bilan birga, mavjud natijalar iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni hali to‘liq yakunlanmaganini ham ko‘rsatadi. Xususan, axborot texnologiyalari va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlari ulushini yanada oshirish, eksportda tayyor mahsulotlar hissasini ko‘paytirish va “soya iqtisodiyoti” ulushini qisqartirish zarurati saqlanib qolmoqda. 2025-yil holatiga ko‘ra, norasmiy iqtisodiyot ulushi 26,9 foizni tashkil etgani bu yo‘nalishda hali katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar iqtisodiy diversifikatsiya “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasining markaziy elementi sifatida nafaqat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlayotganini, balki uning sifat jihatdan barqaror va raqobatbardosh modelga o‘tishini ham ta’minlayotganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Jadvalda iqtisodiy diversifikatsiyaning asosiy indikatorlari aniq raqamlar bilan berilgan va ilmiy tahlil bilan uyg‘unlashtirilgan.

1-jadval

Iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarini aks ettiruvchi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar (2024–2026)

Ko’rsatkich	2024	2025	2026 (prognoz)	Tahliliy izoh
YaIM hajmi	121.3	147.0	181.5	YaIM hajmining

(mlrd AQSh dollari)				keskin oshishi iqtisodiy faollik kengayganini va yangi tarmoqlar shakllanayotganini ko‘rsatadi
YaIM o‘sish sur’ati (%)	6.7	7.7	6.5	Barqaror yuqori o‘sish diversifikatsiya orqali yangi o‘sish drayverlari paydo bo‘lganini anglatadi
YaIM (trln so‘m)	1535.4	1849.7	–	Milliy valyutadagi o‘sish ichki iqtisodiy kengayishni ifodalaydi
Xizmatlar ulushi (%)	48.2	48.6	⇧	Xizmatlar sektorining ustunligi postindustrial iqtisodiyotga o‘tish jarayonini ko‘rsatadi
Sanoat o‘sishi (%)	–	6.5	–	Sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi real sektor diversifikatsiyasini ta’minlaydi
Qishloq xo‘jaligi o‘sishi (%)	–	3.8	–	Pastroq o‘sish iqtisodiyotda strukturaviy siljish yuz berayotganini bildiradi
Qurilish o‘sishi (%)	–	10.7-14.0	–	Infratuzilma kengayishi yangi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiradi
Xizmatlar o‘sishi (%)	–	8.5	–	Raqamli va servis iqtisodiyoti asosiy drayverga aylangan
Transport va logistika o‘sishi (%)	–	10.1	–	Hududiy integratsiya va tranzit salohiyat kuchaymoqda
Eksport hajmi (mlrd dollar)	26.9	33.8	⇧	Eksport tarkibining kengayishi diversifikatsiyaning asosiy natijasidir
Tashqi savdo aylanmasi (mlrd	65.9	⇧	⇧	Tashqi savdo hajmi oshishi global

dollar)				integratsiyani ko‘rsatadi
Investitsiyalar (o‘sish %)	–	7.9	–	Investitsion faollik yangi tarmoqlarni shakllantirishga xizmat qiladi
Yangi biznes subyektlari (soni)	–	+25.8%	–	Tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi diversifikatsiyani tezlashtiradi
Ishsizlik darajasi (%)	5.5 atrofida	4.8	⇩	Bandlikning oshishi iqtisodiy kengayish natijasidir

Jadval asosida kengaytirilgan tahlil)ga to’xtaladigan bo’lsak, keltirilgan statistik ma’lumotlar iqtisodiy diversifikatsiya jarayonining faqat deklarativ emas, balki real iqtisodiy natijalarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, YaIM hajmining 2024-yildagi 121,3 mlrd dollardan 2025-yilda 147 mlrd dollarga yetgani va 2026-yilda 181 mlrd dollarga chiqishi prognoz qilinayotgani iqtisodiy o‘sishning kengaytirilgan manbalarga asoslanayotganini anglatadi.

Bunda muhim jihat shundaki, o‘sish faqat bitta sektor hisobiga emas, balki xizmatlar, sanoat va qurilish kabi bir nechta tarmoqlarning parallel rivojlanishi hisobiga ta’minlanmoqda. Xizmatlar sektorining 48,6 foiz ulushga yetishi va 8,5 foizlik o‘sish sur’ati iqtisodiyotning postindustrial modelga o‘tayotganini anglatadi.

Sanoat va qurilish tarmoqlaridagi o‘sish (mos ravishda 6,5% va 10–14%) esa ishlab chiqarish bazasining kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Bu esa diversifikatsiyaning muhim belgisi — ya’ni iqtisodiyotda bir vaqtning o‘zida bir nechta “o‘sish nuqtalari” shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Eksport hajmining 33,8 mlrd dollarga yetishi va tashqi savdo aylanmasining kengayishi ham muhim natija hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlar eksport tarkibining kengayib borayotganini, ya’ni an’anaviy xomashyo eksportidan bosqichma-bosqich sanoat va xizmatlar eksportiga o‘tilayotganini anglatadi.

Investitsiyalar hajmining o‘sishi (7,9%) va yangi biznes subyektlari sonining keskin ortishi (25,8%) iqtisodiy diversifikatsiyaning institutsional asoslari mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Bu jarayon iqtisodiyotda raqobat muhitini kuchaytirib, yangi innovatsion faoliyat turlarining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Shuningdek, ishsizlik darajasining pasayishi (4,8%) diversifikatsiyaning ijtimoiy samaradorligini ifodalaydi. Ya’ni iqtisodiy o‘sish faqat makro ko‘rsatkichlarda emas, balki aholi bandligi va daromadlari oshishida ham namoyon bo‘lmoqda.

Umumiy xulosa sifatida yuqoridagi jadval va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy diversifikatsiya “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida nazariy konsepsiya sifatida emas, balki amaliy natijalarga ega bo‘lgan tizimli iqtisodiy siyosat sifatida shakllanmoqda. Eng muhim jihat — iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan o‘zgarishi, ya’ni tarmoqlararo muvozanatning shakllanishi va innovatsion

sektorlarning ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaganidir.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida olib borilgan ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida iqtisodiy diversifikatsiya mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy tayanch yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Iqtisodiyot tarkibida xizmatlar va sanoat tarmoqlari ulushining ortib borishi, eksport geografiyasi va tarkibining kengayishi, investitsiya faolligining oshishi hamda innovatsion sektorlarning rivojlanishi diversifikatsiya siyosatining amaliy natijalarini yaqqol ifodalaydi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, iqtisodiy o‘sishning barqarorligi tobora ko‘proq yangi va turli tarmoqlar hisobiga ta’minlanmoqda. Bu esa iqtisodiyotning tashqi omillarga nisbatan chidamliligini oshirib, uni bir yoqlama rivojlanishdan himoya qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar sektorining yetakchi o‘ringa chiqishi va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi iqtisodiy tizimning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tayotganini anglatadi.

Biroq olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni hali to‘liq yakunlanmaganini ham ko‘rsatadi. Xususan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushining yetarli darajada emasligi, eksportda tayyor mahsulotlar hissasining nisbatan pastligi va ayrim hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlar saqlanib qolmoqda. Bu esa diversifikatsiya siyosatini yanada chuqurlashtirish zarurligini bildiradi.

Umuman olganda, iqtisodiy diversifikatsiya “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasining markaziy elementi sifatida iqtisodiy o‘sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan barqaror va raqobatbardosh modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Takliflar sifatida esa iqtisodiy diversifikatsiya jarayonini yanada samarali amalga oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni jadallashtirish zarur. Ayniqsa, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika va kimyo sanoatida innovatsion ishlab chiqarishlarni kengaytirish orqali sanoatning texnologik darajasini oshirish muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, eksport tarkibini yanada diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar ulushini oshirish lozim. Buning uchun eksportchi korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va yangi tashqi bozorlarga chiqish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

Uchinchidan, raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sektorini ustuvor rivojlantirish zarur. Bu yo‘nalishda IT xizmatlari eksportini kengaytirish, startap ekotizimini qo‘llab-quvvatlash va raqamli infratuzilmani takomillashtirish diversifikatsiyaning muhim drayveri bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, hududiy iqtisodiy rivojlanishni muvozanatlashtirish muhim ahamiyatga ega. Hududlarda sanoat zonalari va texnoparklarni rivojlantirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va hududiy investitsiya loyihalarini kengaytirish orqali iqtisodiy faollikni teng taqsimlash mumkin.

Beshinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni

kuchaytirish lozim. Bu sektorni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish va ichki bozorni kengaytirish mumkin.

Oltinchidan, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish, xususan, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish va biznes muhitini yanada yaxshilash iqtisodiy diversifikatsiyaning barqarorligini ta’minlaydi.

Yuqoridagi takliflarning izchil amalga oshirilishi iqtisodiy diversifikatsiya jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlarga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi. “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. rasmiy hujjat.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar (2024–2025). https://stat.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Investitsiya va tashqi savdo tahlillari. https://invest.gov.uz

4. Asian Development Bank (ADB). Uzbekistan Economic Outlook. https://adb.org

5. International Monetary Fund (IMF). Uzbekistan Country Reports. https://imf.org

6. World Bank. Uzbekistan Development Indicators. https://worldbank.org

7. Kursiv Uzbekistan. O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha yangiliklar va tahlillar (2025–2026). https://uz.kursiv.media

8. Caspian Post. Uzbekistan macroeconomic updates and growth analysis. https://caspianpost.com

9. ResearchGate ilmiy maqolalari: Export diversification and economic growth in Uzbekistan. https://researchgate.net

10. UzA – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. Rasmiy iqtisodiy yangiliklar va strategik tahlillar. https://uza.uz

7-YO‘NALISH. SUN’IY INTELLEKT, YASHIL VA RAQAMLI IQTISODIYOT G‘OYALARI

YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNING O‘RNI

Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich
O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi, vazirlik departament boshligi

Jahonda joylashgan yoki ular tomonidan quvvatlanadigan qayta tiklanadigan energiya tizimlari kelgusi yillarda yashil energiyaga o‘tishga munosib hissa qo‘shmoqda. Dengizdagi shamol va uning qayta tiklanadigan energetika sektori ta’sirchanligi 31 foizni, global qo‘shilgan qiymat 2000 yildagi 38 million AQSh dollaridan 2020 yilda 5 milliard AQSh dollariga ko‘tarilganligi[84] hamda global offshor shamol bozori 2024 yilda 39,6 milliard AQSh dollaridan ortiq baholanganligi va 2031 yilga borib 146 milliard AQSh dollaridan oshib ketishi prognoz qilinmoqda.[85] Butun dunyo mamlakatlari 2050 yilga kelib yiliga 1,5 milliard uyni quvvat bilan ta’minlaydigan offshor shamol energetika tizimlarini joriy etish majburiyatini olmoqda. Shu sababdan jahon iqtisodiyotidagi energetika inqirozi, geosiyosiy beqarorlik, real atrof-muhitning buzilishi va tabiiy resurslarning muntazam ravishda kamayishi so‘nggi yillarda global iqtisodiy rivojlanish sur’atlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu o‘z nabatida yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali mamlakatlar iqtisodiyoti samaradorligini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida “iqtisodiyot tarmoqla-rida «yashil» texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiya-larni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo‘llashga o‘tish hamda qayta tikla-nuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish” va bu sohada “yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish” masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.[86] Ammo, yashil iqtisodiyotni shakllantirish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida so‘nggi yillarda ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramasdan, mavjud yashil investitsiya loyihalaridan iqtisodiyot tarmoq va sohalariga kiritilayotgan loyihalardan samarali foydalanish borasida turli xil darajadagi manbalarning yetib borishi jarayoni, moliyalashtirishdagi muammolar sababli iqtisodiyot samaradorligini oshirish masalasi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda. Shu sababli iqtisodiyot tarmoq va sohalariga yashil investitsiyalarni faol jalb qilish hamda yangi yashil investitsiya loyihalari manbalarini shakllantirish hamda iqtisodiyot samaradorligini oshirishda yashil texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali qo‘shilgan qiymat

[84] OECD, The Ocean Economy to 2050.
[85] www.verifiedmarketresearch.com/product/global-offshore-wind-market-size-and-forecast/.
[86] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 30 январдаги «Ўзбекистон — 2030» стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-16-сон фармони.

zanjirini yaratish vazifalari hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi konsepsiyasida biz mualliflik tadqiqotida “yashil” moliyalashtirish mexanizmining mazmuni, tuzilishidagi an’anaviy moliya mexanizmidan farqlarini ko‘rsatish va unga yangi, qo‘shimcha elementlarni kiritish zarurligini asoslash mo‘ljallangan. O‘rganilgan ilmiy va nashr qilingan iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mexanizmning ko‘plab ta’riflari keltirilgan. Ularning barchasi bir-biridan ikki jihatga ko‘ra farqli jihatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Birinchisi moliyaviy mexanizmning shakllanishi va undan foydalanish darajalariga ko‘ra: milliy yoki makro darajadagi va korxona darajasidagi jihatlari. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ushbu tadqiqotimizda iqtisodiyot tarmoqlari samaradorligini oshirishda yashil iqtisodiyotni barpo etish va uni moliyalashtirish mexanizmi global, milliy va kamroq darajada korporativ darajada ham o‘rganilgan. Ikkinchi jihatga ko‘ra esa moliyaviy mexanizm elementlarining yig‘indisi sifatida uni qo‘llash usullari, vositalari, dastaklari, me’yoriy huquqiy ta’minoti, axborot va uslubiy ta’minotlaridir. Aynan mazkur elementlar to‘plami mualliflar an’anaviy ravishda moliyaviy mexanizmga kiritadilar. Ushbu tadqiqotimiz yuqoridagilardan tashqari ancha kengaytirilgan takomillashtirilgan elementlar to‘plamini taklif qiladi. Ushbu elementlarning mazmuni ko‘plab ilmiy manbalardan ma’lum va ravshan bo‘lganligi uchun quyidagi bir qator farqlarga ega bo‘lgan yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmiga o‘tamiz.

Moliyaviy vositalar yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi - bu harakatlar to‘plami, iqtisodiy natijalarning ekologik maqsadlarga mos kelishini ta’minlash uchun har bir moliyaviy usulda qo‘llaniladi. Bular davlat tomonidan tartibga solish choralariga o‘xshab, valyuta kurslari, foiz stavkalari, narx strategiyasi va boshqalar kabi asosiy vositalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, valyuta kurslari xalqaro savdo va investitsiya oqimlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va ularni manipulyatsiya qilish ekologik barqaror amaliyotlarni rag‘batlantirishi yoki rad etishi mumkin.

Foiz stavkalari qarz olish xarajatlari va investitsiya qarorlariga bevosita ta’sir qiluvchi juda kuchli dastak bo‘lib, iqtisodiy faoliyatning yashil tashabbuslarga qaratilgan yo‘nalishini belgilaydi. Narxlarni belgilash vositalari esa ishlab chiqarish, tovar va xizmatlarning haqiqiy real ekologik xarajatlarni o‘zida aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi hamda barqaror iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradigan iste’mol modellarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, moliyaviy vositalar moliyaviy bozorlarda yashil investitsiyalar va barqaror iqtisodiy rivojlanish tashabbuslarini rag‘batlantirishga qaratilgan moliyaviy aktivlar hamda moliyaviy majburiyatlarni keltirib chiqaradigan operatsiyalarni amalga oshiradi. Qimmatli qog‘ozlar, valyutalar, kreditlar va boshqalarni o‘z ichiga oladigan vositalar ekologik jihatdan tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus ishlab chiqilgan. Masalan, yashil obligatsiyalar qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasi yoki barqaror qishloq xo‘jaligi tashabbuslari kabi atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan loyihalarni moliyalashtirishni ta’minlaydi. Xuddi shunday, yashil jamg‘armalar ham ekologik toza loyihalar yoki kompaniyalarni moliyalashtirish uchun turli manbalardan tashkil topgan

investitsiyalarni birlashtiradi. Moliyalashtirish manbalarini izlash, yuqori xavfli, past uglerodli loyihalarga sarmoya kiritishga tayyor bo‘lgan investorlar, uzoq muddatli o‘zini oqlash muddati, ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning innovatsion moliyaviy sxemalarini ishlab chiqish, yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratish va boshqa sohalar energiyaga o‘tish va umuman rivojlanayotgan mamlakatlarda Markaziy Osiyo uchun resurslarni izlashda yutuqni ta’minlash uchun asos bo‘ladi. Taxlillar asosida yashil moliyalashtirish – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti manfaatlarini ko‘zlagan holda atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishish maqsadida davlat tomonidan davlat byudjeti, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlarning mablag‘larini, shuningdek, moliya bozorlari orqali yoki turli moliyaviy vositalardan foydalangan holda jalb qilinadigan moliyaviy resurslarni iqtisodiyot tarmoqlari samaradorligini oshirishga qaratilgan yashil tashabbusli faoliyat va loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishini ifodalaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, hozirgi voqelikda ekologik muammolar va iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi, buni milliy va xalqaro miqyosda ahamiyati juda katta bo‘lib, koinotimizning deyarli har bir aholisiga tegishlidir. Insoniyat jamiyati muhitini yaxshilashning muhim yo‘nalishlaridan biri bu albatta “yashil” iqtisodiyotga o‘tishdir. Ushbu o‘tishni amalga oshirishda "yashil" moliyaviy vositalardan foydalanish zarur bo‘ladi. Ammo, bunday global o‘tishlar doimo xalqaro va milliy miqyosda o‘z yechimlarini talab qiladigan ko‘plab muammolar bilan birga keladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni tegishli moliyalashtirishsiz amalga oshirishning iloji yo‘q. Shuning uchun alohida "yashil" moliyalashtirish tizimini yaratish zarurati tug‘iladi va bu borada "yashil" iqtisodiyot, "yashil" moliya, "yashil" investitsiyalarning nazariy jihatlarini hamda metodologik asoslarini takomillashtirish zarur. "Yashil" moliyaviy vositalar nafaqat ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhitni saqlashda ekologik va iqlim muammolarini hal qilish uchun ham mo‘ljallangan.

SOLIQ SALOHIYATINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

To‘rayev Shavkat Shuxratovich
TATU Hududiy o‘quv muassasalari bo‘yicha prorektori, i.f.d., prof.,
e-mail: sh.turaev@tuit.uz

Annotatsiya: *Mazkur tezisda soliq salohiyatini oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Sun’iy intellekt soliq ma’murchiligini takomillashtirish, soliq tushumlarini prognozlash, yashirin iqtisodiyot holatlarini aniqlash hamda soliq nazoratini avtomatlashtirishda muhim vosita sifatida baholangan. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tizimining samaradorligini oshirish, inson omilini kamaytirish va shaffoflikni ta’minlash masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, soliq salohiyati, raqamli iqtisodiyot, soliq ma’murchiligi, big data, mashinaviy o‘qitish, avtomatlashtirish, fiskal siyosat, elektron soliq tizimi, soliq nazorati, raqamli transformatsiya, innovatsion*

texnologiyalar.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimida ham sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, soliq tizimini modernizatsiya qilish, byudjet daromadlarini barqaror oshirish va fiskal siyosat samaradorligini kuchaytirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soliq salohiyatini oshirish masalasi faqat soliq stavkalarini belgilash yoki soliq bazasini kengaytirish bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon iqtisodiy faoliyatni chuqur tahlil qilish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, soliqdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash va davlat bilan soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirish bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shu sababli sun’iy intellekt bugungi kunda soliq ma’murchiligini yangi bosqichga olib chiqayotgan asosiy innovatsion vositalardan biri sifatida qaralmoqda.

Sun’iy intellekt – bu inson tafakkuriga xos bo‘lgan tahlil qilish, o‘rganish, qaror qabul qilish va bashorat qilish jarayonlarini kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalar majmuasidir. Soliq tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, soliq tushumlarini prognozlash, soliq xavflarini baholash va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, Big Data, Machine Learning, Deep Learning, Predictive Analytics va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari yordamida soliq organlari faoliyati yanada samarali va shaffof bo‘lib bormoqda. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarning oshishiga va fiskal barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan soliq boshqaruvi byudjet tushumlarini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Masalan, avtomatik deklaratsiya tahlili, real vaqt rejimida tranzaksiyalar monitoringi va riskli tadbirkorlik subyektlarini aniqlash orqali soliq organlari yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishga erishmoqda. Soliqdan bo‘yin tovlash holatlarini erta aniqlash esa davlatga katta moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olish imkonini beradi. Shu bilan birga, soliq to‘lovchilar uchun elektron xizmatlar, chatbotlar va avtomatlashtirilgan maslahat tizimlarining joriy etilishi soliq madaniyatini oshirishga va soliq intizomini mustahkamlashga yordam bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda soliq tizimini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, elektron soliq hisobotlari, masofaviy monitoring va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari bu boradagi muhim islohotlardan biridir. Endilikda sun’iy intellekt asosidagi texnologiyalarni yanada kengroq joriy etish orqali soliq ma’murchiligini takomillashtirish, korrupsion holatlarni kamaytirish va inson omilini qisqartirish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, hududiy soliq salohiyatini baholash va prognozlash modellaridan foydalanish davlat byudjeti daromadlarini aniq rejalashtirishga yordam beradi.

Sun’iy intellektning rivojlanish tendensiyalari soliq tizimida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu jarayon nafaqat texnologik yangilanish, balki davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Quyidagi jadvalda soliq salohiyatini oshirishda sun’iy intellektning asosiy rivojlanish

tendensiyalari va ularning amaliy ahamiyati yoritib beramiz (1-jadval):

1-jadval

Soliq salohiyatini oshirishda sun’iy intellektning rivojlanish holati[87]

№	Sun’iy intellekt yo‘nalishi	Asosiy mazmuni	Soliq salohiyatiga ta’siri
1	Big Data tahlili	Katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash	Soliq bazasini aniq aniqlash va tushumlarni oshirish
2	Machine Learning	Soliq to‘lovchilar xatti-harakatlarini o‘rganish va tahlil qilish	Soliq xavflarini oldindan aniqlash imkonini beradi
3	Predictive Analytics	Soliq tushumlarini prognozlash va rejalashtirish	Byudjet daromadlarini barqaror rejalashtirishga xizmat qiladi
4	Risk monitoring tizimi	Soliqdan bo‘yin tovlash ehtimolini aniqlash	Yashirin iqtisodiyotni qisqartiradi
5	Chatbot va virtual yordamchilar	Soliq to‘lovchilarga avtomatik maslahat va xizmat ko‘rsatish	Soliq intizomini oshiradi va qulaylik yaratadi
6	Elektron audit tizimi	Soliq tekshiruvlarini avtomatlashtirish	Nazorat samaradorligini oshiradi
7	Avtomatik deklaratsiya tahlili	Hisobotlarni tezkor va aniq tekshirish	Xatolar va noqonuniy holatlarni kamaytiradi
8	Raqamli identifikatsiya	Soliq to‘lovchilarni aniq identifikatsiya qilish	Soliq ma’murchiligini kuchaytiradi
9	Blokcheyn integratsiyasi	Moliyaviy operatsiyalarni shaffof kuzatish	Soliq shaffofligini oshiradi
10	Hududiy prognozlash modeli	Hududlar bo‘yicha soliq salohiyatini baholash	Mahalliy byudjetlarni mustahkamlaydi

Mazkur jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari soliq salohiyatini oshirishda oddiy texnik vosita emas, balki strategik boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, Big Data va Machine Learning texnologiyalarining keng joriy etilishi soliq organlariga katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish va real soliq imkoniyatlarini aniqlash imkonini bermoqda. Oldin qo‘lda bajarilgan ko‘plab jarayonlar avtomatlashtirilgani sababli inson omili kamayadi, xatolar qisqaradi va nazorat sifati oshadi. Natijada davlat byudjetiga tushadigan tushumlar barqarorlashadi va fiskal siyosat samaradorligi ortadi.

Predictive Analytics va hududiy prognozlash modellari davlat byudjetini rejalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Soliq tushumlarini oldindan aniq bashorat qilish davlat xarajatlarini samarali boshqarish imkonini yaratadi. Ayniqsa, hududlar kesimida iqtisodiy faollik darajasini tahlil qilish va mahalliy soliq salohiyatini baholash hududiy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytiradi. Bu esa markaziy byudjetga bo‘lgan ortiqcha yukni kamaytiradi va hududlarning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtiradi. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan prognozlash tizimlari iqtisodiy siyosatning aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Risk monitoring tizimlari va avtomatik deklaratsiya tahlili yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Soliqdan

[87] Muallif ishlanmasi

bo‘yin tovlash, noqonuniy moliyaviy operatsiyalar, soxta hisobotlar va noqonuniy tranzaksiyalarni tez aniqlash imkoniyati kengayadi. Bu esa davlat byudjetiga qo‘shimcha tushumlar jalb qilinishiga olib keladi. Shu bilan birga, korrupsion holatlarning kamayishi va nazoratning shaffof bo‘lishi soliq tizimiga bo‘lgan ishonchni oshiradi. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyasining integratsiyasi moliyaviy operatsiyalarni yashirish imkoniyatini sezilarli darajada kamaytiradi.

Chatbotlar, virtual yordamchilar va raqamli identifikatsiya tizimlari esa soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarni soddalashtiradi. Soliq xizmatlarining qulayligi oshgani sari fuqarolar va tadbirkorlarning soliq madaniyati ham ortadi. Soliq hisobotlarini topshirish, maslahat olish va to‘lovlarni amalga oshirish jarayonlari tezlashadi. Bu esa soliq intizomini mustahkamlaydi va uzoq muddatda barqaror soliq tushumlarini ta’minlaydi.

O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellekt asosidagi soliq boshqaruvini rivojlantirish juda katta istiqbolga ega. Mamlakatda elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat tizimlari va elektron hisobotlar allaqachon joriy etilgan bo‘lib, bu sun’iy intellektni yanada kengroq qo‘llash uchun mustahkam asos yaratmoqda. Keyingi bosqichda aynan Machine Learning va Predictive Analytics tizimlarini keng joriy etish orqali soliq ma’murchiligini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Umuman olganda, sun’iy intellekt soliq salohiyatini oshirishning eng istiqbolli va samarali vositalaridan biridir. U nafaqat soliq yig‘imlarini oshiradi, balki davlat boshqaruvida shaffoflik, adolat va samaradorlikni ham kuchaytiradi. Jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, kelajakda soliq tizimining barqaror rivojlanishi bevosita sun’iy intellekt texnologiyalarining to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. T.Malikov, N.Haydarov. Soliqlar va soliqqa tortish. (Darslik). “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2023. 512 bet.

2. Sh.G‘ataulin, O.Olimjonov. Soliq nazariyasi va amaliyoti. (Darslik). “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 468 bet.

3. Joseph E. Stiglitz. Economics of the Public Sector. (Textbook). W.W. Norton & Company, 2019. 960 pages.

4. Arthur B. Laffer. The Laffer Curve: Past, Present, and Future // The Heritage Foundation. 2018. No. 176. P. 1-16.

5. Sayfulina A.F. Assessment of the state of development of digital infrastructure in the regions of Uzbekistan // Scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 4, August 2024.

6. Vito Tanzi. Taxation and Economic Development // National Tax Journal. 2017. Vol. 70. No. 4. P. 873-886.

7. Yo‘ldasheva U.A. Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish - T.: 2021. PhD. diss. avtoref. 11-14 b.

8. Xonkeldieva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korporasiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – T: TDIU, 2018. 56 b.

9. Yusupov Asomiddin Soatovich. Tashqi savdoni erkinlashtirish jarayonida milliy eksport raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi: 08.00.09 - "Jahon

iqtisodiyoti" PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi / Davlat boshqaruvi akademiyasi, T., 2018.

10. OECD. Tax Administration 2025: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies. OECD Publishing, Paris, 2024. 430 pages.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA YASHIL IQTISODIYOT INTEGRATSIYASIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI: GLOBAL TAJRIBA, AMALIY LOYIHALAR VA STRATEGIK ISTIQBOLLAR

Ibrohimov Bahrom Sobirjon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Kompyuter tizimlari kafedrasi dotsenti, Phd.
e-mail: b.ibrohimov@tuit.uz
Xamidullayev Abdulbosit Xamdam o‘gli
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Axborot texnologiyalarining dasturiy ta’minoti katta o‘qituvchisi
e-mail: abdulbositkhamidullaev@gamil.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot integratsiyasi jarayonida sun’iy intellektning o‘rni, uning global miqyosdagi qo‘llanilish tajribasi, amaliy loyihalar hamda strategik istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalarining energetika, qishloq xo‘jaligi, transport va sanoat sohalarida ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda karbon chiqindilarini kamaytirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar – Yevropa Ittifoqi, AQSh va Xitoy tajribasi misolida raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot uyg‘unligi amaliy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik optimallashtirish, Big Data, energiya samaradorligi.

Аннотация

В данной статье анализируется роль искусственного интеллекта в процессе интеграции цифровых технологий и зеленой экономики, опыт его глобального применения, практические проекты и стратегические перспективы. Исследование научно обосновывает важность технологий искусственного интеллекта для обеспечения экологической устойчивости, эффективного использования ресурсов и сокращения выбросов углерода в энергетическом, сельскохозяйственном, транспортном и промышленном секторах. Также рассматриваются практические аспекты интеграции цифровой трансформации и зеленой экономики на примере развитых стран – Европейского союза, США и Китая.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, цифровые технологии, зеленая экономика, устойчивое развитие, экологическая оптимизация, большие данные, энергоэффективность.

Annotation

This article analyzes the role of artificial intelligence in the process of integrating digital technologies and the green economy, its global application

experience, practical projects and strategic prospects. The study scientifically substantiates the importance of artificial intelligence technologies in ensuring environmental sustainability, efficient use of resources and reducing carbon emissions in the energy, agriculture, transport and industry sectors. It also sheds light on the practical aspects of the integration of digital transformation and the green economy using the experience of developed countries - the European Union, the USA and China.

Keywords: Artificial intelligence, digital technologies, green economy, sustainable development, ecological optimization, Big Data, energy efficiency.

Raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot bugungi global taraqqiyotning ikki asosiy transformatsion yo‘nalishi sifatida shakllanmoqda. Ularning integratsiyasi esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta’minlash, resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda sun’iy intellekt texnologiyalari markaziy o‘rin egallab, raqamli infratuzilma va yashil iqtisodiyot o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaruvchi intellektual mexanizmga aylanmoqda. Sun’iy intellektning analitik, bashorat qiluvchi va avtomatlashtiruvchi imkoniyatlari ekologik boshqaruvni yangi bosqichga olib chiqmoqda hamda global miqyosda “aqlli yashil transformatsiya” konsepsiyasini shakllantirmoqda.

Raqamli texnologiyalar evolyutsiyasi an’anaviy iqtisodiy tizimlarni tubdan o‘zgartirib, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv modelini yuzaga keltirdi. Katta ma’lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash, Internet of Things (IoT) va mashinaviy o‘rganish kabi texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarning har bir bosqichida real vaqt rejimida qaror qabul qilish imkonini yaratmoqda. Ushbu texnologik baza yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari bo‘lgan resurs samaradorligi, chiqindilarni minimallashtirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bilan bevosita uyg‘unlashadi. Aynan shu nuqtada sun’iy intellekt tizimlari muhim rol o‘ynaydi, chunki ular katta hajmdagi ekologik va iqtisodiy ma’lumotlarni tahlil qilib, optimallashtirilgan yechimlarni taklif qiladi.

Global tajribalar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar allaqachon sun’iy intellekt asosida yashil iqtisodiyotni shakllantirish jarayonini boshlab yuborgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sun’iy intellekt energiya iste’molini optimallashtirish, karbon chiqindilarini monitoring qilish va shahar infratuzilmasini “aqlli shaharlar” konsepsiyasi asosida boshqarishda keng qo‘llanilmoqda. Germaniya va Niderlandiyada sun’iy intellekt yordamida shamol va quyosh energiyasi ishlab chiqarilishi bashorat qilinib, energiya tarmoqlarida muvozanat ta’minlanmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki energiya yo‘qotishlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

AQSh tajribasida esa sun’iy intellekt ekologik monitoring va sanoat jarayonlarini avtomatlashtirishda keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, Google va Microsoft kabi texnologik gigantlar o‘z ma’lumot markazlarida sun’iy intellekt yordamida energiya sarfini optimallashtirib, karbon izini kamaytirishga erishgan. Google DeepMind tizimi orqali ma’lumot markazlarida sovitish tizimlari boshqaruvi avtomatlashtirilib, energiya sarfi qariyb 40 foizgacha kamaytirilgani

dunyo miqyosida muhim tajriba sifatida qaralmoqda. Bu holat sun’iy intellektning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorlikni ham oshirishi mumkinligini isbotlaydi.

Xitoyda esa sun’iy intellekt texnologiyalari ekologik monitoring tizimlarida, ayniqsa havo sifati va suv resurslarini nazorat qilishda keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi sensor tizimlar shaharlardagi ifloslanish darajasini real vaqt rejimida kuzatib boradi va hukumatga tezkor choralar ko‘rish imkonini beradi. Bundan tashqari, Xitoyda “aqlli ishlab chiqarish” tizimlari orqali sanoat chiqindilari kamaytirilmoqda va yashil texnologiyalarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan innovatsion ekotizim shakllantirilmoqda.

Raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot integratsiyasida sun’iy intellektning asosiy funksiyalaridan biri bu bashoratlash va optimallashtirishdir. Energetika sohasida sun’iy intellekt elektr energiyasi ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi balansni aniqlash orqali tizim barqarorligini ta’minlaydi. Qishloq xo‘jaligida esa sun’iy intellekt asosidagi aqlli tizimlar suv resurslaridan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va kimyoviy o‘g‘itlardan foydalanishni kamaytirishga yordam beradi. Bu esa bevosita ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Transport sohasida ham sun’iy intellekt muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Elektr transport vositalarining rivojlanishi, yo‘l harakatini optimallashtirish va logistika tizimlarining avtomatlashtirilishi orqali karbon chiqindilarini kamaytirish imkoniyati yaratilmoqda. Masalan, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan navigatsiya tizimlari transport oqimini optimallashtirib, yoqilg‘i sarfini kamaytiradi. Bu esa nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi.

Shunga qaramay, ushbu integratsiya jarayonida bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanganligi global miqyosda sun’iy intellekt texnologiyalarining bir xil darajada joriy etilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda texnologik resurslar yetishmasligi yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini sekinlashtirmoqda. Ikkinchidan, sun’iy intellekt tizimlarining yuqori energiya iste’moli o‘zi ham ekologik muammo sifatida ko‘rilmoqda. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlovchi sun’iy intellekt modellarining ishlashi uchun katta miqdorda elektr energiyasi talab etiladi, bu esa karbon izini oshirishi mumkin.

Uchinchi muhim muammo bu ma’lumotlar sifati va xavfsizligidir. Sun’iy intellekt tizimlari samarali ishlashi uchun katta hajmdagi aniq va ishonchli ma’lumotlar talab etiladi. Agar ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmasa, sun’iy intellekt tomonidan qabul qilingan qarorlar ham noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda, chunki ekologik va iqtisodiy ma’lumotlar strategik ahamiyatga ega.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator strategik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim. Birinchidan, global miqyosda raqamli infratuzilmani teng rivojlantirishga qaratilgan investitsiyalarni oshirish zarur. Rivojlanayotgan mamlakatlarga texnologik transfer mexanizmlarini kengaytirish orqali sun’iy intellekt va yashil texnologiyalarni joriy etish tezlashtirilishi mumkin. Ikkinchidan,

sun’iy intellekt tizimlarini energiya tejamkor qilish bo‘yicha innovatsion yechimlar ishlab chiqilishi kerak. Kvant hisoblash texnologiyalari va yangi avlod algoritmlari bu borada muhim rol o‘ynashi mumkin.

Shuningdek, davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. BMT va boshqa global tashkilotlar yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya bo‘yicha yagona standartlarni ishlab chiqishi lozim. Bu esa sun’iy intellekt texnologiyalarining global integratsiyasini osonlashtiradi va ekologik barqarorlikni ta’minlashda umumiy yondashuvni shakllantiradi.

Sun’iy intellektning kelajakdagi strategik istiqbollari juda keng. U nafaqat mavjud jarayonlarni optimallashtirish, balki yangi iqtisodiy model – “aqlli yashil iqtisodiyot”ni shakllantirishga asos bo‘lishi mumkin. Bu modelda iqtisodiy o‘sish ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshiriladi. Sun’iy intellekt esa ushbu jarayonning markaziy boshqaruv elementi sifatida ishlaydi. Kelajakda shaharlar to‘liq aqlli tizimlarga asoslangan holda boshqarilishi kutilmoqda. Energiya, transport, suv ta’minoti va chiqindilarni boshqarish tizimlari sun’iy intellekt tomonidan real vaqt rejimida muvofiqlashtiriladi. Bu esa “nol chiqindili shaharlar” konsepsiyasini amalga oshirish imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligida esa to‘liq avtomatlashtirilgan, ekologik toza ishlab chiqarish tizimlari shakllanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot integratsiyasida sun’iy intellekt strategik ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy omildir. U iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda beqiyos rol o‘ynaydi. Global tajribalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt asosida qurilgan tizimlar allaqachon real natijalar bermoqda va bu jarayon kelajakda yanada chuqurlashadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal etish uchun xalqaro hamkorlik, texnologik innovatsiyalar va strategik yondashuvlar zarur. Sun’iy intellektning to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishi insoniyatni ekologik barqaror va raqamli rivojlangan yangi iqtisodiy davrga olib kirishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Economic Forum. (2023). Artificial Intelligence for Climate Action: Opportunities and Challenges. Geneva: WEF Publications.
2. United Nations Environment Programme (UNEP). (2022). Digital Transformation for Sustainable Development. Nairobi: UNEP.
3. International Energy Agency (IEA). (2023). Energy and AI: Harnessing Artificial Intelligence for the Energy Transition. Paris: IEA.
4. European Commission. (2021). Green Deal and Digital Strategy Integration Report. Brussels.
5. IBM Research. (2021). AI for Environmental Intelligence: Applications in Climate and Energy Systems.
6. Google DeepMind. (2020). Reducing Data Center Cooling Energy Usage with AI. Technical Report.
7. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Human Development Report: Digital Transformation and Sustainability.
8. IPCC. (2023). Climate Change 2023: Mitigation of Climate Change. Intergovernmental Panel on Climate Change Report.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Raqamli iqtisodiyot

va “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish strategiyasi konsepsiyasi.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA PUL MABLAG‘LARI AYLANMASINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayev Altinbek Yangibaeyvich
Toshkent davlat agrar universiteti professori, i.f.d.
e-mail: oltinbek60@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada donni qayta ishlash korxonalarida pul mablag‘lari aylanmasini boshqarish va hisobini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari sun’iy intellekt elementlari va ekonometrik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – pul mablag‘lari aylanmasining tarkibiy tuzilmasi, harakat algoritmlari va ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini kompleks baholashdan iborat. Tadqiqot jarayonida pul mablag‘lari kirimi va chiqimining matematik modellari, balanslashgan algoritmlari va ko‘p variantli optimallashtirish usullari ishlab chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pul mablag‘lari aylanmasini samarali boshqarish korxonada ishlab chiqarish hajmini oshirish, aylanma mablag‘lar aylanuvchanligini tezlashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va rentabellikni oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, ishlab chiqilgan modellar korxonada qaror qabul qilish jarayonini intellektuallashtirish, resurslardan optimal foydalanish va iqtisodiy xavflarni kamaytirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: pul mablag‘lari aylanmasi, sun’iy intellekt, ekonometrik modellashtirish, aylanma mablag‘lar, rentabellik, optimallashtirish, boshqaruv hisobi.

Zamonaviy iqtisodiyotda donni qayta ishlash korxonalarining barqaror rivojlanishi, avvalo, ularda pul mablag‘lari aylanmasini samarali tashkil etish va boshqarish darajasiga bog‘liq. Ayniqsa, global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash muhim strategik vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, pul mablag‘lari aylanmasi hisobining mavjud metodologiyasi ko‘p hollarda ishlab chiqarish jarayonining dinamikasini to‘liq aks ettira olmasligi, boshqaruv qarorlarining samaradorligini cheklab qo‘ymoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mahsulot tannarxining ortishi, foydaning kamayishi va likvidlik muammolarini keltirib chiqaradi.

Hozirgi bosqichda xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish jarayoni, raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi pul mablag‘lari aylanmasini boshqarishda mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli, mazkur tadqiqotda pul mablag‘lari aylanmasini intellektual modellashtirish asosida baholash va boshqarish mexanizmini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda pul mablag‘lari aylanmasini boshqarish masalalari turli olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular asosan hisob, tahlil va prognozlash masalalariga qaratilgan. Jumladan: Stashkova I.V. pul aylanmasining tizimli boshqaruv konsepsiyasini ishlab chiqqan; Koneva A.A. pul oqimlarini buxgalteriya

hisobida aks ettirish va prognozlash modellarini takomillashtirgan; Miroshnichenko T.A. agrar sektorda pul aylanmasini boshqarish mexanizmlarini asoslagan; Pavlova S.A. pul oqimlarini optimallashtirishning omilli modelini taklif etgan. Biroq, ushbu tadqiqotlarda sun’iy intellekt, ko‘p variantli optimallashtirish va prognozlash modellari yetarli darajada integratsiya qilinmagan. Shuning uchun mazkur ishda pul mablag‘lari aylanmasini intellektual modellashtirish + ekonometrik tahlil asosida takomillashtirish taklif etiladi.

Tadqiqotda pul mablag‘lari aylanmasi quyidagi asosiy tenglamalar tizimi orqali ifodalanadi:

1. **Pul mablag‘lari kirimi:**

$$M_{in} = M_{oun} + M_{debt} + M_{attracted} + M_{other}$$

2. **Pul mablag‘lari chiqimi:**

$$M_{out} = M_{cost} + M_{produstion} + M_{period} + M_{financial}$$

3. **Balans tengligi:**

$$M_{begin} + M_{in} = M_{out} + M_{end}$$

4. **Rentabellik:**

$$R = Probit \text{ x } 100 / Costs.$$

EHMda eksperimental hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun funksional ta’minot, dasturiy ta’minot, axborot ta’minoti va boshqa tashkiliy-uslubiy chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Hisoblashning funksional ta’minoti korxona faoliyatining shartlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarish dasturi bilan bog‘liq modellar va algoritmlarga tayanadi. Modellar bilan algoritmlar o‘rtasidagi munosabatlar yagona axborotlar bazasi asosida ta’minlanadi. Yagona axborotlar bazasi axborot ta’minotining negizini tashkil etadi. Axborotlarni qayta ishlashda axborot manbaiga kiritiladigan va chop etiladigan ma’lumotlar alohida guruhlarga ajratiladi. Kiritiladigan ma’lumotlar to‘plami korxonalarning moliyaviy hisobotlari, buxgalteriya hisobi, me’yorlar va boshqa boshqa ma’lumotlardan tashkil topadi.

Axborotni qayta ishlash uchun respublikadagi bir qator qayta ishlash korxonalarining tashkiliy, ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini o‘rgandik. Ishlab chiqarish dasturiga ta’sir etuvchi omillarning ta’sirini ob’ektiv va sub’ektiv guruhga ajratdik. Ob’ektiv guruhga tabiiy-iqlim sharoitlar, korxonaning ishlab chiqarish yo‘nalishlari, moddiy-texnika bazasi va ishlab chiqarish texnologiyasi holati, donning navi; korxonaning moliyaviy ahvoli tashkil etadi.

Turli darajadagi menejerlar boshqaruv hisobining ma’lumotlariga asoslangan holda korxonalar faoliyatini tezkor nazorat qilib boradi. Ular korxonalarda real vaqt rejimida davom etayotgan jarayonlarni kuzatib boradi, xarajatlarning ko‘payishiga va rentabellikning pasayishiga olib keladigan kamchiliklarni bartaraf etish uchun o‘z vaqtida choralar ko‘radi. Buning uchun boshqaruv hisobi ma’muriy boshqaruvning turli darajadagi menejerlarini axborot bilan ta’minlashi, rahbarlar va mutaxassislarning ma’suliyat darajasi va huquqlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishni boshqarish masalalarini hal qilishga qaratishlari shart (1-rasm).

Olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, pul mablag‘lari tarkibida o‘z mablag‘lari ustunlik qiladi (60%+), ishlab chiqarish tannarxi umumiy chiqimning 90% dan ortig‘ini tashkil etadi, optimallashtirish orqali foyda 4–5% ga oshishi mumkin. Ekonometrik modellar natijasiga ko‘ra, pul mablag‘lari ↔ ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida yuqori korrelyatsiya ($R^2 > 0.95$), prognozlarda 2030 yilgacha barqaror o‘sish tendensiyasi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pul mablag‘lari aylanmasini ilmiy asosda boshqarish korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ishlab chiqilgan metodologiya ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, rentabellikni sezilarli darajada ko‘tardi, qaror qabul qilish sifatini yaxshilaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali risklarni kamaytirish, resurslardan optimal foydalanish, korxona barqarorligini ta’minlash mumkin.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYA XAVFSIZLIGINI BAHOLASH MODELI

Sherquziyev Mamadiyor
f-m. f.n, dotsent, Toshkent davlat agrar universiteti
e-mail: sherquziyevmamadiyor@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarining investitsiyaviy faoliyati iqtisodiy xavfsizligini baholashning sun’iy intellektga asoslangan konseptual modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot ehtimollar nazariyasi, matematik statistika va ekonometrik usullar integratsiyasi asosida amalga oshirildi. Korxonalarning iqtisodiy xavfsizlik darajasi tasodifiy miqdor sifatida qaralib, uning normal taqsimot qonuniga muvofiqligi tahlil qilindi. Model orqali korxonalarning investitsiya xavfsizligi ehtimolligi hisoblanib, reytinglash mexanizmi taklif etildi.

Kalit so‘zlar: investitsiya xavfsizligi, sun’iy intellekt, normal taqsimot, ehtimollik modeli, sanoat korxonalari, risk baholash.

Globallashuv sharoitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi investitsiya muhitining xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq. Mamlakat iqtisodiy siyosatida investitsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, korxonalar ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan yuqori darajada sezgir bo‘lib bormoqda. Bu esa investitsiya qarorlarini qabul qilishda aniq, ishonchli va prognozlash imkoniyatiga ega bo‘lgan modellarni ishlab chiqishni talab etadi. Mavjud adabiyotlarda investitsiya xavfsizligi ko‘proq statik baholanadi, ehtimoliy yondashuvlar yetarli darajada qo‘llanilmagan, sun’iy intellekt integratsiyasi cheklangan.

Shu maqsadda biz ushbu paragrafda ehtimollar nazariyasi va matematik statistika manbalari yordamida tasodifiy (iqtisodiy) omillarning ta’sirini hisobga olgan holda sanoat korxonalari investitsiyaviy faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi ehtimolligini baholashning konseptual modelini ishlab chiqdik.

Faraz qilaylik, $R = R(t)$ funksiyani vaqtga bog‘liq bo‘lgan tasodifiy miqdor sifatida qabul qilaylik. Agar R tasodifiy miqdor sanoat korxonasining yillar ketma-

ketiligida choraklik balans ma’lumotlari asosida (t_k) vaqtning o‘zgarmas momentida tasodifiy miqdorlarni qabul qiladi. Bu yerda sanoat korxonalari investitsiya faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi darajasini ehtimollik sifatida qabul qilamiz. R miqdorning qiymati t vaqtning o‘zgarmas momentida bir nechta R_{kp} kritik miqdordan katta bo‘lish ehtimolligini bildiradi. R_k miqdor reytingning quyi chegarasi qiymati bo‘lib, u korxonaning to‘lov qobiliyati va likvidlilik darajasini ta’minlamagan, faoliyatda ko‘rilgan zararlar natijasida o‘z mablag‘lari manbaini butunlay yo‘qotgan sanoat korxonasining ahvolini aks ettiradi.

Yil davomida korxonaning choraklik balansi parametrlari mos ravishda taklif qilingan modelga kiritilgan holda hisob-kitoblar olib boriladi. So‘ng balans parametrlarining sonli qiymatlaridan foydalanib choraklar bo‘yicha korxona investitsiyaviy faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi ehtimolligi reyting aniqlanadi. Bunda R_{kp} miqdor korxona reyting qiymatining o‘rtacha arifmetik miqdori sifatida hisobga olinadi. Misolimizda R_{kp} = 0,36 ga teng.

$"x"$ normal taqsimotning zichligi bo‘yicha ehtimollik funksiyasi quyidagi formula yordami aniqlanadi:

$$f(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi\sigma}} e^{-(x-a)^{2/2\sigma^2}}$$

Ushbu funksiyaning grafigi qo‘ng‘iroq ko‘rinishdagi shaklga ega. Qo‘ng‘iroqning yuqori cho‘qqisi tasodifiy miqdorning matematik kutilmasiga mos keladi. Bunda tasodifiy miqdor dispersiyasi qanchalik katta miqdorga ega bo‘lsa, u holda normal taqsimot zichligi bo‘yicha funksiyaning egri chizig‘i shunchalik bir tekis ko‘rinishda bo‘ladi. R tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi vaqt momentida T_{np} (prognozlash sanasida) matematik kutilmaning o‘zgarishini aniqlash $N(R, mR, DR)$ uchun normal taqsimot, ehtimollik qiymati (p), normal taqsimot qonuni bo‘yicha R tasodifiy miqdor aniqlanadi. Ushbu ifodalardan foydalangan holda miqdorlar oralig‘ida ehtimollik qiymatlarini (p) quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$p(c \le R \le d) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_c^d e^{-(R-mR)^{2/2\sigma^2}} dR_i$$

Tadqiqotda korxonaning likvidliligi bilan to‘lov qobiliyatining yo‘qolishi, korxonaning o‘z mablag‘lari manbaining tugashi shartlardan kelib chiqqan holda bir nechta korxona tanlab olinadi.


Agar ushbu formuladagi s $= \frac{R-mR}{\sigma}$ ifodaga almashtirishlar kiritilsa, R tasodifiy miqdorning ehtimolligi $F(t)$ funksiyaning (s) dan cheksizlikkacha oraliqdagi ko‘rinishida quyidagicha ifodalanadi:

$$p(c \le R \le \infty) = F\left(\frac{\infty - mR}{\sigma}\right) - F\left(\frac{c - mR}{\sigma}\right); \quad F\left(\frac{\infty - mR}{\sigma}\right) = 0{,}5$$

$$p(c \le R \le \infty) = 0{,}5 - F\left(\frac{c - mR}{\sigma}\right)$$

Demak, $F\left(\frac{c-mR}{\sigma}\right)$ ko‘rinishdagi funksiyaning qiymatlarini aniqlash uchun Laplas jadvalidagi ma’lumotlardan foydalanamiz.

Har bir model va algoritmlarni amalga oshirish natijasida masalaning chiqish parametrlari shakllanadi. Ushbu parametrlardan ba’zi birlari hisoblashning keyingi bosqichlarda prognozli va analitik masalalarning maqbul yechimini topish uchun kirish parametrlari sifatida foydalaniladi. Biz masalaning tizimli axborot va mantiqiy aloqalar qoidasiga asoslanib, qo‘yilgan masalaning yechimlarini kompyuter dasturiy ta’minoti yordamida baholashning kengaytirilgan sxemasini ishlab chiqdik (1-rasm).



1 - rasm. Sun’iy intellect asosida sanoat korxonalari investitsiya faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini baholash mexanizmi

1 – jadvalda 2024/25 yilllarning oylar bo‘yicha sanoat korxonalari ivestitsiya faoliyatining xavfsizlikda faoliyat yuritish ehtimoli ketma-ketlikda kamayish tartibida keltirilgan.

Korxona nomi	Tenglama parametri, (a)	Tenglama parametri, (b)	Opracha квадратик chetlanish, (σ)	Korrelyasiya koeffitsienti, (r_m)	Reyting prognozi qiymati, (R_m)	O‘KChlar Prognozi Qiymati, (σ_m)	Funksiya Argumenti,	Ehtimollik qiymati, (p)
4 korxona	0,6828	0,0043	0,1143	0,8429	0,7856	0,1143	3,3783	0,998578
5 korxona	1,0639	-0,0331	0,1651	0,4047	0,7149	0,1659	0,9398	0,821768

3 korxona	0,6448	-0,0096	0,0891	0,1613	0,4930	0,0891	1,3815	0,916459
7 korxona	0,6832	0,0046	0,1145	0,8425	0,7568	0,1146	3,3787	0,999997
9 korxona	1,0644	-0,0336	0,1659	0,4050	0,7068	0,1667	0,9404	0,819997
8 korxona	0,6447	-0,0095	0,0888	0,159	0,4927	0,0888	1,3812	0,916432
2 korxona	0,6826	0,0042	0,1141	0,8688	0,7852	0,1141	3,3781	0,998163
6 korxona	0,6482	-0,0061	0,1379	0,028	0,7799	0,1385	1,3883	0,901129
10 korxona	0,6824	0,0041	0,1139	0,8691	0,7849	0,1139	3,3779	0,997164
1 korxona	0,6829	0,0045	0,1143	0,8432	0,7567	0,1143	3,3785	0,999893

1–jadvalda sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi ehtimolligi qiymati (p) 91% –100% oraliqda ishonchli korxonalar; 61% – 0,90% oraliqda qoniqarli korxonalar; 60% dan past oraliqda kritik holatdagi korxonalar sifatida baholanadi. Bunda qaror qabul qiluvchi shaxs alternativ variantlar asosida erishilgan natijalarni taqqoslab baholaydi. Erishilgan natijalar qanoatlantirilmasa, ma’lumotlar bazasiga yangi massivli axborotlar kiritiladi. Bu jarayon qaror qabul qiluvchi shaxs ijobiy natijaga erishgunga qadar takrorlanaveradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sanoat korxonalarining investitsiyaviy faoliyati iqtisodiy xavfsizligini baholashda ehtimollar nazariyasi va matematik statistikaga asoslangan modellardan foydalanish ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy ahamiyatga ega yondashuv hisoblanadi. Ishlab chiqilgan model korxonalar investitsiya faoliyatining iqtisodiy xavfsizlik darajasini kompleks baholash, uni reytinglash hamda dinamik o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Mazkur model nafaqat korxonaning joriy holatini qiyosiy baholash, balki iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir etuvchi tasodifiy va determinatsiyalangan omillar ta’sirida uning kelgusi rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, u ichki iqtisodiy tahdidlar va risklarni erta bosqichda aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish mexanizmlarini shakllantirishda muhim instrument sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan yondashuv tezkor va asosli boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirish, iqtisodiy xavfsizlik darajasining pasayishini oldini olish, tahdidlarga nisbatan proaktiv choralar ko‘rish imkonini yaratadi. Bu esa korxonalarning barqaror rivojlanishi, yuqori darajadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, bozorda ijobiy imidjni saqlash hamda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, model korxonalarga yangi investorlarni jalb qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

THE TRIPLE REVOLUTION: AI, GREEN ENERGY, AND THE DIGITAL ECONOMY

Asatullayev Khurshid Sunatullayevich
professor of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: x.asatullayev34@gmail.com
Agzamxojaev Abdullox
Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: blackleon196@gmail.com

The 21st century is being reshaped by three powerful and interconnected forces artificial intelligence, green energy, and the digital economy. Together, they are driving what many analysts call a “Triple Revolution” a profound structural transformation comparable to the Industrial Revolution of the 18th century. Unlike past revolutions that were powered mainly by steam or electricity, this one is fueled by data, renewable power, and intelligent systems worldwide. These changes are not happening in isolation; they strongly reinforce one another and are redefining how we work, produce, consume, and live.



Figure 1. The Triple Revolution Framework

Figure 1 illustrates the dynamic relationship between artificial intelligence (AI), green energy, and the digital economy. The diagram is constructed as an interconnected Venn structure, with each circle representing one of the three transformative forces shaping the 21st century. At the top, artificial intelligence symbolizes intelligent systems, automation, and data-driven decision-making. On the left, green energy represents renewable energy sources such as solar and wind power, emphasizing environmental sustainability. On the right, the digital economy reflects e-commerce, digital platforms, cloud computing, and data infrastructure. At the center of the diagram, where all three circles intersect, is global transformation. This central area demonstrates how the integration of AI, sustainable energy systems, and digital infrastructure collectively drives technological advancement, environmental sustainability, and economic and social change.

Table 1

The Triple Revolution Overview

Dimension	Artificial Intelligence	Green Energy	Digital Economy

Core Driver	Data, algorithms, machine learning	Renewable resources (solar, wind, hydro)	Internet, platforms, digital infrastructure
Main Objective	Automation, optimization, intelligent decision-making	Reduce carbon emissions and ensure sustainability	Enable global connectivity and digital transactions
Key Technologies	Machine learning, robotics, generative AI	Solar panels, wind turbines, battery storage	Cloud computing, e-commerce, fintech, blockchain
Economic Impact	Increased productivity, new industries, job transformation	Green jobs, energy independence, sustainable growth	Global markets, remote work, digital entrepreneurship
Major Challenges	Job displacement, bias, regulation	Storage limitations, infrastructure costs	Cybersecurity, digital divide, market concentration
Annotatsiya: Mazkur tezisda turizm korxonalarida biznes jarayonlarini samarali boshqarishni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Unda zamonaviy boshqaruv usullari, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar sifatini oshirish hamda mijozlar ehtiyojiga moslashuvchan yondashuvlarni qo‘llash masalalari yoritilgan. Shuningdek, ichki jarayonlarni optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish omillari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi va ularning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm korxonalari, biznes jarayonlari, boshqaruv tizimi, samarali boshqaruv, strategik rivojlanish, xizmat ko‘rsatish sifati, mijozga yo‘naltirilganlik, raqobatbardoshlik, raqamli transformatsiya, avtomatlashtirish.

Zamonaviy sharoitda turizm korxonalarida biznes jarayonlarini boshqarishning asosiy yo‘nalishlari nafaqat ichki faoliyatni optimallashtirish, balki tashqi muhit bilan samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yishni ham qamrab oladi. Chunki turizm sohasi ko‘p komponentli tizim bo‘lib, unda turli xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi. Shu boisdan biznes jarayonlarini samarali tashkil etish integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Bunda xizmat ko‘rsatish sifati,

tezkorlik, moslashuvchanlik va innovatsionlik asosiy ustuvor omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Turizm korxonalarida biznes jarayonlarini boshqarishning muhim yo‘nalishlaridan biri mijozga yo‘naltirilganlik hisoblanadi. Mijozlar ehtiyojlarini chuqur o‘rganish, ularning talablariga mos xizmatlar ko‘rsatish va individual yondashuvni ta’minlash korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish sifatini doimiy ravishda nazorat qilish va takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa sifat menejmenti tizimlarini joriy etishni talab etadi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi turizm korxonalarida biznes jarayonlarini boshqarishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar, CRM va ERP tizimlari yordamida jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish mumkin. Bu esa nafaqat vaqt va xarajatlarni tejashga, balki xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlar asosida biznes jarayonlarini qayta tashkil etish, ya’ni ularni zamonaviy talablar asosida yangilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Shuningdek, turizm korxonalarida strategik boshqaruvni takomillashtirish, xodimlar salohiyatini oshirish, tashqi hamkorlikni rivojlantirish va marketing faoliyatini kuchaytirish ham biznes jarayonlarini samarali tashkil etishning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlar o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilganda korxonaning umumiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Quyidagi jadvalda turizm korxonalarida biznes jarayonlari boshqaruvini samarali tashkil etishning asosiy yo‘nalishlarini keltiramiz (1-jadval):

1-jadval

Turizm korxonalarida biznes jarayonlari boshqaruvini samarali tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari[90]

№	Yo‘nalish	Mazmuni	Amaliy ahamiyati
1	Mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv	Mijoz ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlar ko‘rsatish	Mijoz qoniqishini oshiradi va sodiqlikni ta’minlaydi
2	Jarayonlarni optimallashtirish	Ortiqcha bosqichlarni qisqartirish va samaradorlikni oshirish	Xarajatlarni kamaytiradi va tezkorlikni oshiradi
3	Raqamlashtirish	Axborot texnologiyalarini joriy etish	Xizmatlarni avtomatlashtirish va boshqaruvni soddalashtirish
4	Sifat menejmenti	Xizmat sifatini nazorat qilish va takomillashtirish	Raqobatbardoshlikni oshiradi
5	Innovatsion boshqaruv	Yangi texnologiya va usullarni qo‘llash	Yangi xizmatlar yaratish imkonini beradi
6	Strategik boshqaruv	Uzoq muddatli rivojlanish rejalari ishlab chiqish	Barqaror rivojlanishni ta’minlaydi
7	Xodimlar salohiyatini oshirish	Malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish	Xizmat sifati oshadi
8	Marketing faoliyatini rivojlantirish	Bozorni o‘rganish va reklama strategiyasini ishlab chiqish	Mijozlar oqimini oshiradi

[90] Muallif tomonidan tayyorlandi

9	Hamkorlikni rivojlantirish	Tashqi tashkilotlar bilan aloqalarni kuchaytirish	Kompleks xizmatlar ko‘rsatish imkonini beradi
10	Monitoring va nazorat	Jarayonlarni doimiy tahlil qilish va baholash	Kamchiliklarni tez aniqlash va bartaraf etish

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan yo‘nalishlar turizm korxonalarida biznes jarayonlarini samarali tashkil etishning asosiy tarkibiy elementlarini ifodalaydi. Ushbu yo‘nalishlarning har biri korxona faoliyatining muayyan jihatini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liq holda ishlaydi. Masalan, mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv va marketing faoliyati bir-birini to‘ldiradi, chunki mijoz ehtiyojlarini o‘rganish va ularni qondirish bozorni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Shu bilan birga, jarayonlarni optimallashtirish va raqamlashtirish yo‘nalishlari korxonaning operatsion samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ortiqcha operatsiyalarni qisqartirish orqali vaqtni tejash, xizmat ko‘rsatish tezligini oshirish va mijozlarga qulaylik yaratish mumkin. Bu esa o‘z navbatida mijozlarning korxonaga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ularning sodiqligini mustahkamlaydi. Bunday kompleks yondashuvlar orqali turizm korxonalari nafaqat ichki jarayonlarni yaxshilaydi, balki tashqi bozordagi raqobat pozitsiyasini ham mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali turizm korxonalari o‘z xizmatlarini tezkor va qulay tarzda taqdim etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa mijozlar qoniqishini oshirish bilan birga, korxonaning raqobatbardoshligini ham mustahkamlaydi. Xususan, onlayn bronlash tizimlari, mobil ilovalar va mijozlar bilan ishlash platformalari xizmatlar sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Sifat menejmenti esa xizmat ko‘rsatish darajasini nazorat qilish va doimiy ravishda yaxshilashga xizmat qiladi. Innovatsion boshqaruv yondashuvlari esa yangi xizmat turlarini joriy etish, bozorda yangiliklar yaratish va raqobatchilardan ajralib turish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya korxonalarga real vaqt rejimida ma’lumotlarni tahlil qilish va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatini ham beradi. Bu esa zamonaviy turizm korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, strategik boshqaruv va xodimlar salohiyatini oshirish yo‘nalishlari korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Strategik rejalashtirish orqali korxonalar o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yadi va ularga erishish yo‘llarini belgilaydi. Malakali xodimlar mavjud bo‘lmaganda esa eng zamonaviy texnologiyalar ham kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularni doimiy ravishda o‘qitish va motivatsiya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hamkorlikni rivojlantirish esa turizm xizmatlarining kompleksligini ta’minlaydi va mijozlarga kengroq imkoniyatlar yaratadi. Tashqi tashkilotlar bilan samarali aloqalar o‘rnatish orqali korxonalar o‘z xizmatlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Monitoring va nazorat tizimi esa barcha jarayonlarning samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish uchun zarur bo‘lgan axborotni taqdim etadi. Bu tizim yordamida jarayonlardagi kamchiliklar o‘z vaqtida aniqlanadi va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Natijada, korxona faoliyatida uzluksiz takomillashtirish jarayoni shakllanadi. Umuman olganda, yuqoridagi

yo‘nalishlarning kompleks va tizimli ravishda qo‘llanilishi turizm korxonalarida biznes jarayonlarini samarali boshqarish, xizmatlar sifatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu orqali korxonalar nafaqat ichki samaradorlikka erishadi, balki xalqaro turizm bozorida ham o‘z o‘rnini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, turizm korxonalarida biznes jarayonlari boshqaruvini samarali tashkil etish zamonaviy iqtisodiy sharoitda muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, biznes jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini to‘liq qondirish hamda korxonalarning raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turizm sohasining o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni xizmatlarning murakkabligi, ko‘p bosqichli jarayonlardan iboratligi va mijoz bilan bevosita aloqaga asoslanganligi boshqaruv tizimiga kompleks yondashuvni talab etadi. Shu sababli zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish va mavjud jarayonlarni takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, turizm korxonalarida biznes jarayonlari boshqaruvini yanada samarali tashkil etish uchun bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, korxonalarda biznes jarayonlarini tizimli boshqarish mexanizmlarini joriy etish, xususan, zamonaviy boshqaruv konsepsiyalariga asoslangan yondashuvlardan keng foydalanish muhimdir. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish va ortiqcha operatsiyalarni qisqartirish orqali samaradorlikni oshirish lozim. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, jumladan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, onlayn platformalar va mijozlar bilan ishlash dasturlaridan foydalanish orqali boshqaruv jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish mumkin.

Bundan tashqari, turizm korxonalarida xodimlar malakasini oshirish, ularni zamonaviy boshqaruv usullari va texnologiyalariga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirish, ularning ehtiyojlarini chuqur o‘rganish va individual xizmatlar ko‘rsatishni kengaytirish ham samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali boshqaruv tizimini takomillashtirish mumkin. Umuman olganda, biznes jarayonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida boshqarish turizm korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash va ularning bozordagi raqobat ustunligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

13. Kotler Philip, Bowen John, Makens James. Marketing for Hospitality and Tourism. Pearson Education, 2017. 736 p.

5. Hammer M., Champy J. Reengineering the Corporation: A Manifesto for Business Revolution. Harper Business, 2001. 240 p.

6. Davenport T.H. Process Innovation: Reengineering Work through Information Technology. Harvard Business School Press, 1993. 337 p.

7. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press, 1998. 592 p.

8. Robbins Stephen P., Coulter Mary. Management. Pearson Education, 2018. 816 p.

9. Drucker Peter F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. Harper & Row, 2007. 839 p.

10. Brynjolfsson Erik, McAfee Andrew. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W. W. Norton & Company, 2014. 306 p.

11. OECD. OECD Tourism Trends and Policies 2024. OECD Publishing, Paris, 2024. 280 p.

12. Buhalis Dimitrios. eTourism: Information Technology for Strategic Tourism Management. Pearson Education, 2019. 456 p.

13. Xolmatova P. Raqamli marketing va onlayn platformalar orqali ekoturistik majmualarni ommalashtirish trendlari // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 3-son, 2026-yil, 4-jild, 3-son.

14. Kobilova Sh, Isxakova S. O‘zbekiston turizm sanoatining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda strategik marketing texnologiyalaridan foydalanish // “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 2-son, 2026-yil, 4-jild, 2-son.

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Maxmudova Nodira Uktamovna
i.f.f.d., BuxDU
e-mail: n.u.mahmudova@buxdu.uz
Yusufiy Barakabonu Ozodzoda
Talaba, BuxDU
e-mail: yusufiybarakabonu@gmail.com

Annotatsiya: Globallashuv va shiddatli texnologik taraqqiyot davrida turizm infratuzilmasi, industriyasi, ayniqsa tarixiy-madaniy turizm yangi rivojlanish davriga qadam qo‘ymoqda. An’anaviy sayohat usullari o‘rnini raqamli va intellektual platformalar egalladi va bu orqali madaniy me’ros obyektlarini ommalashtirish va shaxsiylashtirilgan turistik xizmatlar orqali sayyohlar ehtiyojini maksimal darajada qondirish asosiy vositaga aylandi. Sun’iy intellektning turizmga integratsiyasi natijasida bir qator "Smart tourism" konsepsiyalari yaratildi. Bu esa iqtisodiyotning asosiy drayveri bo‘lgan turizm sohasining samaradorligini oshirishda, sayyohlarning qiziqishlarini tahlil qilishda alohida rol o‘ynaydi. Shuningdek, muzeylar, san’at galereyalari, tarixiy majmualar va madaniy maskanlarning raqamli qiyofasini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu tezisda raqamli texnologiyalar, jumladan virtual va kengaytirilgan reallik asosida madaniy turizmni rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: smart tourism, sayyohlar qiziqishlari, virtual reallik, turizmda modernizatsiya, madaniy turizm integratsiyasi.

Bugungi globallashuv davrida turizm nafaqat iqtisodiy sektor sifatida, balki madaniy merosni saqlash, asrab-avaylash va targ‘ib qilish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, diniy

va milliy me’moriy obyektlar turizmning asosiy resurslari sanaladi. "Sharq durdonasi" O‘zbekiston kabi boy tarixiy va madaniy merosga ega mamlakatlarda turizm sohasining ushbu jihatini chuqur o‘rganish va rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

Raqamli platformalarning madaniy turizmni xalqaro miqyosda tez taraqqiy etishida ahamiyati ortib bormoqda. Asosan turistik destinatsiyalarga tashrif buyurgan sayyohlarning soni, ularning yo‘nalishlari, vaqt taqsimoti, geografik harakatini nazorat qilish, shuningdek, har bir turist segmenti va qiziqishlariga mos keladigan shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif etilmoqda. Mobil ilovalar va virtual reallik, Big Data dasturlari orqali tarixiy-madaniy obyektlarning real vaqt rejimidagi holati tez sur’atlarda tahlil qilinmoqda. Raqamli platformalar nafaqat turistga foyda keltiradi, balki butun bir global tarmoq iqtisodiyotini rivojlantiradi, mamlakatning xalqaro imidjini ham oshiradi.

Smart tourism (aqlli turizm) — bu raqamli texnologiyalar (IoT, Big Data, sun’iy intellekt) yordamida sayyohlar uchun qulaylikni oshirish, resurslarni samarali boshqarish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan zamonaviy turizm modelidir. Smart tourism orqali madaniy turizmni rivojlantirish — bu tarixiy merosni raqamli texnologiyalar bilan "jonlantirish" va uni zamonaviy sayyoh talablariga moslashtirish demakdir. Smart tourism ning asosiy yo‘nalishlari: smart-navigatsiya, gamifikatsiya, chatbotlar, muzeylardagi gologrammalar, destinatsiyalardagi aqlli yoritish tizimlari.

Ispaniya — Barselona shahrining Smart Tourism dasturi texnologiya, barqarorlik va innovatsiyalar yordamida sayyohlar oqimini boshqarish va mahalliy aholi hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli strategiyadir. Shaharda Tourism Intelligence System (SIT) deb nomlangan maxsus platforma ishlaydi. U Big Data va sun’iy intellekt yordamida sayyohlarning harakatlanish xaritasi va eng gavjum nuqtalar, xarajatlar dinamikasi va tashrif buyuruvchilarning profili, real vaqtdagi olomon nazoratini tahlil qiladi. Barselona shahar hokimligi tomonidan ishlab chiqilgan "Smart Destination Barcelona" loyihasi asosida turistik obyektlar, transport tizimi va xizmat ko‘rsatish joylarining holati raqamli sensorlar orqali monitoring qilinadi. Natijada, turistlar oqimi tabiiy ravishda muvozanatlanadi va shahar infratuzilmasiga tushadigan yuk kamayadi.

Janubiy Koreya — turizmni boshqarishda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalarining integratsiyasi muhim rol o‘ynaydi. Koreya Turizm Tashkiloti (KTO) "Tourism Data Lab" tizimini yaratgan bo‘lib, u internet izlanishlari, onlayn xaridlar, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik va GPS ma’lumotlari asosida turistik oqimlarni prognoz qiladi. Ushbu tizim yordamida mavsumiy talab tahlil qilinadi, reklama strategiyalari takomillashtiriladi va kam tashrif buyuriladigan hududlarga turistlarni jalb etish choralari ko‘riladi. Seul va Pusan shaharlarida turistlarning o‘rtacha harakat yo‘nalishlari avtomatik tahlil qilinadi va shu asosda transport hamda xizmatlar jadvali moslashtiriladi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt va raqamli platformalarni madaniy turizmga integratsiyalash sayyohlar oqimini samarali boshqarish, xizmat sifatini yuksaltirish va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

- O‘zbekiston, xususan Buxoro shahri madaniy-turistik infratuzilmasida Big Data va sun’iy intellektga asoslangan Tourism Intelligence System (TIS) platformasini joriy etish, sayyohlar oqimini real vaqtda tahlil qilish va boshqarishni yo‘lga qo‘yish.
- Ark qal'asi, Po‘i Kalon majmuasi va boshqa tarixiy-madaniy obyektlar uchun virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) asosida raqamli turizm mahsulotlari yaratish, chet el sayyohlarni jalb qilishda raqamli marketing imkoniyatlarini kengaytirish.
- Oliy ta’lim muassasalarida turizm mutaxassislarini smart tourism texnologiyalari bo‘yicha tayyorlash uchun maxsus o‘quv dasturlari ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buhalis D., Amaranggana A. Smart Tourism Destinations // Information and Communication Technologies in Tourism. — 2014. — P. 553–564.
2. UNWTO. Digital Transformation of Tourism. — Madrid: UNWTO, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida"gi farmoni. — Toshkent, 2019.

TURISTIK XIZMATLAR SIFATINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA ISTIQBOLLARI

Sayfullayeva Madina Sirojiddinovna.
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: sayfullayevam8@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada turistik xizmatlar sifatini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilingan. SERVQUAL modeli va uning zamonaviy modifikatsiyalari asosida xizmat sifatini baholash metodologiyasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turistik xizmatlar sifati, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, Big Data, SERVQUAL, sifat menejmenti, barqaror turizm.

Zamonaviy turizm sanoatida xizmatlar sifatini boshqarish paradigmasi tubdan o‘zgarmoqda. An’anaviy sifat nazorati usullari o‘rnini raqamli texnologiyalar asosidagi real vaqt rejimida monitoring va tahlil tizimlari egallayapti. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, global turizm sanoati yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan ortig‘ini tashkil etadi va bu sohada raqamli transformatsiya tezlashmoqda.

Booking.com, TripAdvisor, Google Reviews, Expedia kabi platformalar yillik 500 milliondan ortiq mijozlar sharhlarini jamlaydi. Bu katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) turistik korxonalar uchun xizmat sifatini baholash va takomillashtirishning yangi manbasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sayyohlarning 93 foizi sayohat qarorlarini qabul qilishdan oldin onlayn sharhlarni o‘qiydi (Phocuswright, 2023).

1. Turistik xizmatlar sifatini baholashning nazariy asoslari

Xizmatlar sifatini baholash nazariyasida SERVQUAL modeli (Parasuraman, Zeithaml, Berry, 1988) asosiy o‘rinni egallaydi. Mazkur model xizmat sifatining

beshta o‘lchovi asosida mijozlar kutilmasi va idrok etilgan sifat o‘rtasidagi farqni o‘lchashga asoslangan. Bu beshta o‘lcham quyidagilardan iborat: ishonchlilik (reliability) – va’da qilingan xizmatni aniq va ishonchli bajarish qobiliyati; sezgirlik (responsiveness) - mijozlarga yordam berish va tezkor xizmat ko‘rsatishga tayyorlik; ishonch (assurance) - xodimlarning bilimi, xushmuomalaligi va ishonch uyg‘otish qobiliyati; hamdardlik (empathy) - mijozlarga individual e’tibor va g‘amxo‘rlik; moddiy ko‘rinish (tangibles) - jismoniy obyektlar, uskunalar va xodimlar ko‘rinishi.

Raqamli davrda SERVQUAL modelining yangilangan versiyalari ishlab chiqilgan. E-S-QUAL (Parasuraman et al., 2005) modeli elektron xizmatlar sifatini baholash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, samaradorlik, tizim mavjudligi, bajarish va maxfiylik kabi yangi o‘lchovlarni o‘z ichiga oladi. Turizm sohasida xizmat sifatini o‘lchash uchun maxsus moslashtirilgan LODGSERV (mehmonxonalar uchun), DINESERV (restoranlar uchun) va HISTOQUAL (madaniy meros obyektlari uchun) modellari ham qo‘llanilmoqda.

2. Raqamli texnologiyalar va sifat monitoringi

Big Data texnologiyalari turistik xizmatlar sifatini boshqarishda inqilobiy o‘zgarishlar yaratmoqda. Onlayn platformalarda to‘plangan katta hajmdagi tuzilmagan ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish orqali xizmat sifatining turli jihatlarini real vaqt rejimida baholash mumkin bo‘lmoqda. McKinsey Global Institute hisobotiga ko‘ra, Big Data tahlilidan samarali foydalanadigan kompaniyalar raqobatchilariga nisbatan 23 foiz yuqori daromad ko‘rsatadi.

Kontent tahlili (content analysis) usullari mijozlar sharhlaridan qimmatli ma’lumotlarni ajratib olish imkonini beradi. Text mining texnologiyalari matnli ma’lumotlardan kalit so‘zlar, mavzular va tendentsiyalarni aniqlaydi. Sentiment analysis (his-tuyg‘ular tahlili) esa mijozlar munosabatini ijobiy, salbiy yoki neytral kategoriyalarga avtomatik tasniflaydi. Natural Language Processing (NLP) texnologiyalari turli tillardagi mijozlar sharhlarini avtomatik tahlil qilish imkoniyatini yaratmoqda.



Sun’iy intellekt algoritmlari xizmat sifatidagi muammolarni erta aniqlash va bashorat qilish imkonini beradi. Machine learning modellari tarixiy ma’lumotlar asosida xizmat sifatining kelajakdagi tendentsiyalarini prognozlash uchun ishlatilmoqda. Masalan, Random Forest, Gradient Boosting va Neural Networks

algoritmlari mijozlar qoniqishi darajasini yuqori aniqlik bilan bashorat qilish imkonini beradi (Li et al., 2018). Chatbotlar va virtual assistentlar esa mijozlarga 24/7 xizmat ko‘rsatish va fikr-mulohazalarni yig‘ish uchun keng qo‘llanilmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar turistik xizmatlar sifatini boshqarishning metodologik asoslarini tubdan o‘zgartirmoqda. SERVQUAL modelining raqamli versiyalari, Big Data tahlili, sun’iy intellekt va onlayn reputatsiya boshqaruvi tizimlari an’anaviy sifat nazorati usullarini to‘ldirish va yangi imkoniyatlar yaratish uchun xizmat qilmoqda.

Kelgusida mintaqaviy turizm sifat monitoringi tizimini shakllantirish, mahalliy onlayn platformalar ma’lumotlarini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqish va xalqaro sertifikatsiya tizimlariga integratsiya bo‘yicha tadqiqotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Parasuraman A. et al. SERVQUAL: A multiple-item scale for measuring consumer perceptions of service quality //1988. – 1988. – T. 64. – №. 1. – C. 12-40.

2. Parasuraman A., Zeithaml V. A., Malhotra A. ES-QUAL: A multiple-item scale for assessing electronic service quality //Journal of service research. – 2005. – T. 7. – №. 3. – C. 213-233.

3. Li J. et al. Big data in tourism research: A literature review //Tourism management. – 2018. – T. 68. – C. 301-323.

4. Xiang Z. et al. A comparative analysis of major online review platforms: Implications for social media analytics in hospitality and tourism //Tourism management. – 2017. – T. 58. – C. 51-65.

5. Mariani M. et al. Business intelligence and big data in hospitality and tourism: a systematic literature review //International Journal of Contemporary Hospitality Management. – 2018. – T. 30. – №. 12. – C. 3514-3554.

6. Anderson C. The impact of social media on lodging performance. – 2012.

7. UNWTO. Digital Transformation in Tourism: Trends and Implications, 2023.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA’LIM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI

Nishonov Dilshod Shamsidinovich

TDIU ta’lim kontenti va multimedia mahsulotlarini yaratish markazi direktori, marketing kafedarasi PhD., dotsenti, d.nishonovv@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalarining o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar, internet marketing, ijtimoiy tarmoqlar va elektron ta’lim platformalaridan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining brendini shakllantirish, talabalar ehtiyojlarini o‘rganish hamda xalqaro ta’lim bozorida raqobatbardoshlikni oshirish masalalari tahlil qilingan. Tezisda marketing strategiyalarini takomillashtirish orqali ta’lim xizmatlari sifatini*

oshirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Raqamli iqtisodiyot, oliy ta’lim, raqobatbardoshlik, marketing strategiyasi, ta’lim xizmatlari, raqamli marketing, brending, universitet imiji, ta’lim sifati, innovatsion boshqaruv, talabalar ehtiyoji, xalqaro reyting, ta’lim bozori.*

Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir. Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va xalqaro ta’lim bozoridagi keskin raqobat oliy ta’lim muassasalaridan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Endilikda universitetlar faqat bilim beruvchi maskan emas, balki ta’lim xizmatlarini taklif qiluvchi, o‘z brendini shakllantiruvchi va talabalar ehtiyojiga mos ravishda faoliyat yurituvchi strategik subyektga aylanmoqda. Shu sababli marketing strategiyalarini to‘g‘ri ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish oliy ta’lim muassasalarining muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Marketing strategiyasi – bu tashkilotning bozor sharoitida o‘z maqsadlariga erishish uchun ishlab chiqadigan uzoq muddatli reja bo‘lib, u iste’molchilar ehtiyojini aniqlash, xizmat sifatini oshirish, raqobatchilar faoliyatini tahlil qilish va bozordagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan. Oliy ta’lim tizimida esa marketing strategiyasi abituriyentlar, talabalar, ota-onalar, ish beruvchilar va jamiyat ehtiyojlarini o‘rganish hamda ularga mos ta’lim xizmatlarini taklif qilish orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bu jarayon yanada murakkablashib, raqamli marketing, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanishni talab etmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida ta’lim sifati, professor-o‘qituvchilar salohiyati, ilmiy-tadqiqot faoliyati, xalqaro hamkorlik, infratuzilma va universitet imiji alohida o‘rin tutadi. Biroq ushbu omillarni samarali tarzda jamiyatga yetkazish, universitet brendini shakllantirish va talabalarni jalb qilish marketing strategiyalarisiz amalga oshmaydi. Ayniqsa, raqamli marketing vositalari orqali universitetning ijobiy imijini yaratish, ta’lim dasturlarini targ‘ib qilish va xalqaro auditoriyaga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi universitetlari o‘z raqobatbardoshligini oshirishda brending, kontent marketing, SEO, SMM, CRM tizimlari, analitik platformalar va masofaviy ta’lim imkoniyatlaridan keng foydalanmoqda. Bu esa talabalar bilan doimiy aloqani ta’minlash, ularning ehtiyojlarini tezkor aniqlash va sifatli xizmat ko‘rsatish imkonini beradi. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, universitetlar o‘z marketing siyosatini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda. Ayniqsa, davlat va nodavlat OTMlar o‘rtasidagi raqobat kuchaygani sari marketing strategiyalarining ahamiyati yanada ortmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy marketing strategiyalari va ularning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat (1-jadval):

1-jadval

Oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy marketing strategiyalari[91]

№	Marketing strategiyasi	Asosiy mazmuni	Raqobatbardoshlikka ta’siri
1	Universitet brendingi	OTMning ijobiy imijini shakllantirish	Talabalar va investorlar ishonchini oshiradi
2	Raqamli marketing	Internet va raqamli platformalarda targ‘ibot	Keng auditoriyani jalb qiladi
3	Ijtimoiy tarmoqlar marketingi	Telegram, Instagram, Facebook orqali reklama	Yoshlar auditoriyasiga tez yetib boradi
4	Kontent marketing	Foydali va sifatli axborotlar orqali targ‘ibot	Universitet nufuzini oshiradi
5	SEO strategiyasi	Qidiruv tizimlarida yuqori o‘rin egallash	Onlayn ko‘rinuvchanlikni oshiradi
6	CRM tizimi	Talabalar bilan individual aloqani boshqarish	Talabalar ehtiyojini aniq o‘rganadi
7	Xalqaro hamkorlik marketingi	Xorijiy universitetlar bilan aloqalarni targ‘ib qilish	Global reyting va obro‘ni oshiradi
8	Ta’lim xizmatlari diversifikatsiyasi	Yangi kurslar va dasturlarni joriy etish	Bozor talabiga moslashishni kuchaytiradi
9	Alumni marketing	Bitiruvchilar orqali universitet imijini mustahkamlash	Ishonchlilik va reputatsiyani oshiradi
10	Onlayn ta’lim strategiyasi	Masofaviy va gibrid ta’lim xizmatlarini rivojlantirish	Xalqaro talabalarni jalb qiladi

Yuqorida keltirilgan marketing strategiyalari oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, universitet brendingi bugungi ta’lim bozorida eng asosiy strategik omillardan biri hisoblanadi. Kuchli brendga ega bo‘lgan universitet talabalar, ota-onalar va ish beruvchilar orasida yuqori ishonchga ega bo‘ladi. Brend nafaqat universitet nomi, balki uning ta’lim sifati, ilmiy salohiyati, xalqaro aloqalari va bitiruvchilar muvaffaqiyati bilan ham belgilanadi. Shu sababli brending strategiyasi uzoq muddatli raqobat ustunligini ta’minlaydi.

Raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlar marketingi esa zamonaviy talabalar auditoriyasiga tez va samarali yetib borish imkonini yaratadi. Bugungi yoshlar axborotni asosan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilgani sababli universitetlar ushbu platformalarda faol bo‘lishi zarur. Telegram, Instagram, Facebook, YouTube va LinkedIn kabi platformalarda sifatli kontent yaratish universitetning ijobiy imijini shakllantiradi. Bu esa yangi talabalarni jalb qilish va universitetning ko‘rinuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Kontent marketing va SEO strategiyasi universitetning onlayn nufuzini mustahkamlaydi. Sifatli maqolalar, ilmiy yangiliklar, muvaffaqiyat hikoyalari va foydali maslahatlar orqali OTM o‘z auditoriyasiga yaqinlashadi. SEO esa ushbu kontentning qidiruv tizimlarida yuqori o‘rin egallashini ta’minlaydi. Natijada universitetning rasmiy sayti va axborot resurslari ko‘proq foydalanuvchilar tomonidan ko‘riladi. Bu esa marketing samaradorligini oshiradi.

[91] Muallif tomonidan tayyorlangan

CRM tizimi va alumni marketing talabalar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Talabalar ehtiyojlarini individual ravishda o‘rganish, ularga mos xizmatlar ko‘rsatish va bitiruvchilar bilan doimiy aloqani saqlash universitetning ijtimoiy kapitalini oshiradi. Bitiruvchilarning muvaffaqiyati esa universitet brendining eng kuchli reklamasiga aylanadi.

Onlayn ta’lim strategiyasi va ta’lim xizmatlari diversifikatsiyasi esa zamonaviy bozor talablariga moslashish imkonini beradi. Masofaviy ta’lim, qisqa muddatli kurslar, sertifikat dasturlari va xalqaro qo‘shma dasturlar universitetning bozor ulushini kengaytiradi. Ayniqsa, xalqaro talabalarni jalb qilishda bu strategiya juda samarali hisoblanadi. Xalqaro hamkorlik esa universitetning global reytingdagi o‘rnini yaxshilaydi.

Umumiy qilib aytganda olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligi marketing strategiyalarining samarali qo‘llanilishiga bevosita bog‘liqdir. Jadvalda ko‘rsatilgan strategiyalar universitetning ichki salohiyatini tashqi bozorda to‘g‘ri namoyon etish, talabalar ehtiyojini qondirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois marketing bugungi oliy ta’lim tizimining ajralmas boshqaruv instrumentiga aylanib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali ta’lim xizmatlarini targ‘ib qilish universitetlarning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash, talabalar ehtiyojlarini muntazam o‘rganish va innovatsion ta’lim dasturlarini rivojlantirish zarur. Kelgusida sun’iy intellekt va elektron boshqaruv tizimlarini marketing faoliyatiga keng joriy etish oliy ta’lim tizimining samaradorligi hamda xalqaro ta’lim bozoridagi raqobatbardoshligini yanada oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qosimova M.S., Ergashxo‘jayeva Sh.J. Marketing. (Darslik). “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2022. 512 bet.

15. Abdurahmonov Q.X., Toshpo‘latov Sh.G‘. Raqamli iqtisodiyot. (Darslik). “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2023. 468 bet.

16. Tursunov B.O., Karimov M.R. Oliy ta’lim marketingi va boshqaruvi. (Darslik). “Innovatsion rivojlanish nashriyoti”, 2024. 386 bet.

17. Ланцов А.Е. Инфраструктура: понятие, виды и значение // Статистика и экономика. 2013. №3. С. 49–54.

18. Rasulov A.K. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim xizmatlari marketingini rivojlantirish // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №6, 2023.

19. Чуйко Наталия Андреевна. Международно-правовое регулирование безопасности пищевых продуктов в рамках всемирной торговой организации: Дис канд. экон. наук: 08.00.12: Москва, 2015, 195 с.

20. Yusupov Asomiddin Soatovich. Tashqi savdoni erkinlashtirish jarayonida milliy eksport raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi: 08.00.09 - “Jahon iqtisodiyoti” PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi/Davlat boshqaruvi akademiyasi T; 2018.

21. Xonkeldieva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korporasiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. i.f.d. (DSc) diss. avtoreferati. – T: TDIU, 2018. 56 b.

22. Yo‘ldasheva U.A. Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish - T.: 2021. PhD. diss. avtoref. 11–14 b.

23. Kotler Philip, Keller Kevin Lane. Marketing Management. (Textbook). Pearson Education Limited, 2016. 714 p.

24. Xudoyberdiyev S.A., Nurmatov B.R. Ta’lim xizmatlari bozorida marketing strategiyalari. (Monografiya). “Universitet” nashriyoti, 2022. 276 bet.

25. Karimova D.N. Oliy ta’lim tizimida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi // “Moliya va bank ishi” ilmiy jurnali. №2, 2024. 88–94 b.

26. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari - T.:2002. i.f.d. diss. avtoref. 11–14 b.

27. Axmedov Sh.A. Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish: 08.00.13 – “Menejment” PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023. 154 bet.

THE IMPACT OF INVESTMENT ATTRACTIVENESS ON GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN STRENGTHENING REGIONAL FINANCIAL STABILITY

Sh.Sunatullayeva, associate professor of Tashkent state university of economics

Annotation. This thesis examines the role of investment attractiveness in promoting the development of a green economy and strengthening regional financial stability. In recent years, sustainable economic growth and environmental protection have become strategic priorities for many countries, including Uzbekistan. The study highlights how improving investment conditions contributes to the implementation of green projects, renewable energy initiatives, and environmentally sustainable technologies. Furthermore, it analyzes the relationship between green investments, regional economic resilience, employment growth, and financial sustainability. The paper concludes that increasing investment attractiveness is one of the key factors for ensuring long-term regional financial stability through green economic transformation.

Keywords:investment attractiveness, green economy, financial stability, regional development, sustainable growth, green investments, renewable energy, environmental sustainability, economic modernization.

Introduction.In the modern global economy, environmental sustainability and financial stability have become closely interconnected concepts. Climate change, environmental degradation, and the depletion of natural resources have encouraged countries to adopt sustainable development models based on green economic

principles. A green economy aims to achieve economic growth while minimizing environmental risks and ensuring efficient resource utilization.For developing countries, especially Uzbekistan, enhancing regional financial stability is one of the major economic objectives. In this process, increasing investment attractiveness plays a significant role. Investment attractiveness reflects the ability of a region to attract domestic and foreign investments through favorable economic, legal, institutional, and infrastructural conditions.Green investments are increasingly becoming an important component of regional economic policy. Investments directed toward renewable energy, energy-efficient technologies, waste recycling systems, and environmentally friendly production contribute not only to ecological improvement but also to long-term economic resilience. Therefore, the relationship between investment attractiveness and green economic development deserves comprehensive academic analysis.

Investment attractiveness directly influences the level of economic activity within regions. Regions with stable financial systems, developed infrastructure, transparent governance, and favorable business environments are more capable of attracting investors. As a result, additional capital inflows stimulate industrial modernization, technological innovation, and employment growth.The development of a green economy requires substantial financial resources and long-term investments. In this regard, improving investment attractiveness creates favorable conditions for financing environmentally sustainable projects. Renewable energy sectors such as solar and wind power plants attract international investors because they provide long-term profitability and environmental benefits.One of the main advantages of green investments is their contribution to energy efficiency. The implementation of modern green technologies reduces energy consumption and production costs. Consequently, enterprises become more competitive, regional tax revenues increase, and financial stability strengthens.Moreover, green economy projects help reduce environmental risks and ecological damage. Lower pollution levels decrease healthcare and environmental recovery expenditures, allowing regional governments to allocate financial resources more efficiently. This positively affects budget sustainability and public welfare.Another important aspect is employment generation. Green economic transformation creates new jobs in renewable energy, environmental engineering, recycling industries, and green innovation sectors. The development of green human capital enhances labor productivity and supports inclusive economic growth.

Uzbekistan has recently accelerated reforms aimed at developing a green economy. Large-scale renewable energy projects, international cooperation, and environmental modernization programs have improved the country’s investment climate. Government initiatives supporting green technologies and sustainable infrastruc ture contribute significantly to regional financial stability.



The image illustrates the importance of investment attractiveness in ensuring regional financial stability, particularly in developing countries such as Uzbekistan. It explains that investment attractiveness refers to the ability of a region to attract domestic and foreign investments through favorable economic, legal, institutional, and infrastructural conditions.

The infographic highlights several key factors shaping investment attractiveness, including stable economic conditions, a supportive legal framework, high institutional quality, developed infrastructure, and a favorable business environment. These factors together create a strong foundation for increasing investment inflows.

The picture also emphasizes why investment attractiveness is important for developing countries. It contributes to job creation, technology transfer, export growth, regional integration, and sustainable economic development. In addition, the infographic demonstrates how increased investments strengthen the financial sector, improve public revenues, reduce poverty, and enhance long-term economic resilience.

Special attention is given to Uzbekistan as a rising investment destination due to its ongoing economic reforms, infrastructure modernization, improved business climate, growing domestic market, and commitment to green and sustainable development. Overall, the image shows that enhancing investment attractiveness is essential for building a stronger, more stable, and prosperous regional economy.

Furthermore, international financial institutions such as the World Bank, Asian Development Bank, and Green Climate Fund actively support green investment

projects in developing economies. Regions with higher investment attractiveness are more likely to access international grants, concessional loans, and sustainable financing instruments.

In conclusion, investment attractiveness plays a crucial role in strengthening regional financial stability through the development of a green economy. Green investments promote sustainable economic growth, improve energy efficiency, reduce environmental risks, and create new employment opportunities.

For Uzbekistan, increasing investment attractiveness and encouraging environmentally sustainable investments should remain strategic priorities. Regional policies aimed at supporting renewable energy, green technologies, and ecological innovation will contribute to long-term financial stability and sustainable development.

Therefore, the integration of green economic principles into regional investment strategies is essential for ensuring economic competitiveness and environmental sustainability in the future.

TIJORAT BANKLARIDA EKOLOGIK VA IJTIMOIY MA’SULIYAT BILAN BOG‘LIQ RISKLAR AUDITI

Norbekov Davronbay Eshmurodovich
Toshkent Davlat iqtisodiyoti universiteti dotsenti, i.f.n.
e-mail:davronnarbekov@gmail.com

Annotatsiya. Tijorat banklarida ekologik va ijtimoiy ma’suliyat bilan bog‘liq risklar tamoyillar asosida tashkilotlar faoliyatining samaradorligini baholash, belgilangan maqsadlarning bajarilish holati, hisobotlilik jarayonlari, ESG ko‘rsatkichlari asosida baholash mexanizmi va ularning auditini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: audit, baholash mexanizmi, ESG tamoyillari, korporativ boshqaruv, risklar, xalqaro standartlar

Kirish. So‘nggi yillarda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG)tamoyillari xalqaro hamjamiyat va milliy institutlar e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Ushbu tamoyillar asosida tashkilotlar faoliyatining samaradorligini baholash, ularning barqaror rivojlanish maqsadlariga qo‘shayotgan hissasini aniqlash zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, ESG tamoyillarini joriy etish jarayonida moliyaviy audit tushunchasi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida tijorat banklarining ESG sarmoyalari vas sof foydasi, ularni baholash va hisobga olish jarayonlarini ilg‘or xalqaro standartlar va zamonaviy yondashuvlar asosida joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, tijorat banklarida ESG tamoyillarini joriy etish jarayonida moliyaviy auditi takomillashtirish va ularning barqaror rivojlanishdagi o‘rnini belgilash hozirgi davr talabiga aylanmoqda.

Hozirgi kunda ekologik va ijtimoiy risklarni audit qilishning yagona standartlari va metodologiyasi ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O‘zbekistonda, to‘liq shakllanmagan. Shuning uchun tijorat banklarida ESG tamoyillarini joriy etish jarayonida moliyaviy auditni takomillashtirish, xususan ekologik va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq risklarni aniqlash va baholash

mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank tizimida ESG tamoyillarini joriy etish bo‘yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi (2019–2030 yillar), Prezident qarorlari va Markaziy bank tashabbuslari asosida tijorat banklari ekologik va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish kengaytirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida ekologik va ijtimoiy ma’suliyat bilan bog‘liq risklar auditini qo‘llash lozimliligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarida ESG auditi quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi:

-davlat siyosatini amalga oshirish choralari samaradorligini tahlil qilish, monitoring qilish va baholash. Ushbu chora-tadbirlarning maqsadi audit ob’ektlarini faoliyatida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mas’uliyati tamoyillarining normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiqliligi va boshqa davlat siyosatini amalga oshirish hujjatlariga tizimli integratsiya darajasi o‘rganiladi.

- tijorat banklarining ekologik, ijtimoiy va boshqaruv sohalaridagi faoliyatini baholash. Audit jarayonida tashkilotlarning ESG hisobotlarida berilgan ma’lumotlar belgilangan moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi va moliyaviy hisobotlardagi ma’lumotlar bilan uyg‘unligi tekshiriladi. Bu, ESG tamoyillarini amalga oshirish bo‘yicha ma’lumotlarning to‘liqligi va haqqoniyligini aniqlash maqsadida qilinadi.

- tijorat banklari faoliyatining to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yakuniy natijalari baholanadi, ya’ni ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mas’uliyati tamoyillarini joriy etish va rioya qilish nuqtai nazaridan tekshiriladi.

Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ESG tamoyillarini amalda qo‘llagan banklarda quyidagi ijobiy natijalar kuzatilmoqda.

1-jadval

Tijorat banklarida ESG tamoyillari qo‘llaniladigan banklar

№	Ko‘rsatkichlar nomlanishi	ESG yo‘nalishida faol banklar	ESG yo‘nalishisiz banklar
1.	Aktivlar o‘sishi	14–16 %	10–11 %
2.	Rentabellik (ROA)	2,3 %,	1,7 %
3.	Kredit portfeli sifati	1 %	2–3 %
4.	Xalqaro hamkorlik	IFC, EBRD, ADB xalqaro moliya institutlaridan ko‘proq grant va imtiyozli kredit olish	


www.cbu.uz. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Zamonaviy moliya tizimida banklar nafaqat moliyaviy, balki ekologik va ijtimoiy risklarni ham boshqarishga majbur. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarini amalda qo‘llash bank faoliyatining barqarorligini oshiradi, investor va mijoz ishonchini mustahkamlaydi. O‘zbekistonda bu jarayon so‘nggi yillarda faollashgan bo‘lib, tijorat banklari ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash va audit qilish mexanizmlarini takomillashtirmoqda.

Masalan, O‘zsanoatqurilishbank, Ipoteka-bank, Milliy bank va Asaka bank xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyalashtirish dasturlarini va ijtimoiy tadbirkorlikni qo‘llab-

quvvatlash loyihalarini kengaytirdi (1-rasm).

O‘zbekistonda ESG sarmoyalari hajmi hali nisbatan kichik bo‘lsa-da, banklar moliyaviy samaradorlikka ijobiy ta’sirini ko‘rsata boshladi. ESG tamoyillari integratsiyalashgan banklarda aktivlar sifati yaxshilanmoqda, risklar kamaymoqda va xalqaro ishonch oshmoqda. Kelgusida ESG KPI tizimini kengaytirish va ekologik hisobotlarni majburiy qilish bank tizimi barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



Manba.www.cbu.uz. ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2-rasm. Tijorat banklarida ESG sarmoyalari ulushi(foizda).

Zamonaviy sharoitda xalqaro amaliyotda (masalan, IFAC, IAASB, IFRS S1–S2, GRI standartlari asosida) ESG auditi bank sektorida keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston tijorat banklari uchun ham bu yo‘nalishda audit tizimiga ESG risk indikatorlarini kiritish, barqarorlik hisobotlarini joriy etish va auditorlar malakasini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Ekologik va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan audit tizimi qo‘llash orqali ijobiy natijalarga erishiladi:

-banklarning obro‘-e’tiborini oshiradi;

-xalqaro investorlarga ishonch uyg‘otadi;

-barqaror rivojlanish maqsadlariga mos faoliyat yuritishni ta’minlaydi.

Yakuniy xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, ekologik va ijtimoiy risklar auditi tijorat banklari uchun nafaqat nazorat vositasi, balki strategik boshqaruv instrumenti sifatida ham ahamiyatlidir. ESG auditi yondashuvi tijorat banklarida audit sifati oshishiga va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. ESG auditi nafaqat moliyaviy natijalarni, balki bankning ijtimoiy va ekologik mas’uliyatini ham aks ettiradi. Bu esa bank boshqaruvining sifatini oshirishga va barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Sh.Karimov “Banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash zaruriyati”. Academic Research in Educational Sciences Volume 5 | Issue 1 | 2024

2.T. Normo‘minov “Tijorat banklari faoliyatida mavjud risklar va ularni samarali boshqarish usullari” https://doi.org/10.21638/spbu05.2022.303

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ, ПРИМЕРЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Ядгарова Лола Джалоловна
старший преподаватель Бухарского государственного университета
e-mail: lolaadgarova807gmail.com

Искусственный интеллект — это область компьютерных наук, занимающаяся созданием таких программ и систем, которые способны выполнять задачи, характерные для человеческого интеллекта, — понимание языка, обучение, рассуждение и решение сложных проблем. Термин был впервые предложен Джоном Маккарти на семинаре в Дартмутском колледже в **1956 году**, что считается официальным рождением этой научной дисциплины.

ИИ не ограничивается одним универсальным определением, а трактуется по-разному в зависимости от подходов исследователей: от машин, обучающихся на опыте, до систем, имитирующих человеческое рассуждение.

Искусственный интеллект становится важной частью современного образования, трансформируя традиционные подходы к преподаванию и обучению. ИИ-системы способны анализировать большие массивы данных о знаниях и поведении учащихся, адаптировать учебные материалы под индивидуальные потребности и эффективно поддерживать педагогов в процессе обучения.

Основные направления использования ИИ в образовании

Персонализация обучения

ИИ позволяет создавать индивидуальные траектории обучения для каждого учащегося, учитывая его уровень знаний, скорость усвоения материала и предпочтительный стиль обучения. Такие системы помогают адаптировать задания, задачи и рекомендации в реальном времени, улучшая усвоение материала.

Адаптивные образовательные платформы

Современные образовательные платформы с элементами ИИ автоматически подстраивают содержание курса под способности и успехи учащегося, повышая мотивацию и вовлечённость в процесс обучения.

Автоматизация рутинных задач

ИИ-технологии используются для автоматической проверки тестов и заданий, а также для обработки результатов успеваемости, что значительно снижает нагрузку на преподавателей и позволяет им сосредоточиться на индивидуальной работе с учащимися.

Применение в предметном обучении

В сферах языкового образования и гуманитарных дисциплин ИИ помогает в интерактивном анализе текстов, развитии навыков письма и речи, а также в индивидуальной поддержке учащихся в освоении сложных тем.

Примеры внедрения ИИ в образовательную практику

Примеры успешного применения ИИ в разных странах и образовательных системах показывают его потенциал:

- Международные адаптивные учебные платформы, использующие ИИ-

алгоритмы, помогают подбирать материалы и задания для каждого ученика.

- В языковом обучении ИИ-инструменты анализируют ошибки и предлагают целевые упражнения для повышения уровня владения языком.
- Исследования показывают, что ИИ должен дополнять традиционное обучение, усиливая педагогическую поддержку, а не заменяя наставника.

Преимущества и вызовы

Преимущества

- **Улучшение качества обучения:** ИИ способствует глубокому пониманию учебного материала и повышению мотивации учащихся.
- **Персонализация образовательного процесса:** адаптация под способности каждого обучающегося.
- **Автоматизация и повышение эффективности:** сокращение времени на рутинные административные и педагогические задачи.

Вызовы

- **Цифровое неравенство:** доступ к ИИ-технологиям может быть ограничен из-за стоимости и инфраструктуры, что создаёт риск углубления разрыва между разными группами учащихся.
- **Этические вопросы:** необходимость ответственного использования данных, защита личной информации и обеспечение прозрачности алгоритмов.
- **Роль преподавателя:** требуется переосмысление роли педагога как фасилитатора и наставника в мире цифровых технологий.

Перспективы развития

Перспективы развития ИИ в образовании включают углубление интеграции интеллектуальных ассистентов, создание более совершенных адаптивных систем обучения и усиление цифровой грамотности учащихся и преподавателей. Повышение компетенций в области ИИ становится критическим элементом современной образовательной подготовки.

Заключение

ИИ в образовании представляет собой мощный инструмент, открывающий новые возможности для персонализации обучения, повышения эффективности педагогического процесса и автоматизации рутинных задач. При этом внедрение ИИ должно сопровождаться продуманной образовательной политикой, обеспечивающей равный доступ, этичное использование данных и усиление роли учителя как ключевого участника образовательного процесса.

YASHIL IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

S.Abdulxalilova, Toshkent davlat iqtisodiyoti universiteti dotsenti
e-mail: s.abdulxalilova@gmail.com

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish natijasida iqtisodiy va ekologik komponentlarning atrof-muhitga tashqi ta’siri qiymatini baholashning zarurligi bilan bog‘liq yangi g‘oyalar va yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik komponentlari esa avlodlar ichida va

avlodlar o‘rtasida tenglikni ta’minlash kabi masalalarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda “Yashil” iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 4-oktyabrda tasdiqlangan “2019-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” muhim dasturiy amal hisoblanadi.

2030 yilgacha bo‘lgan davrda strategiyani amalga oshirish jarayonida yalpi ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010 yil darajasidan o‘n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining yuz foizga qadar zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanish ta’minlanadi.

Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg‘i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish ken- gaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Y.R.Lindal va J.R.Xikslar asos solishgan. Xiks-Lindal yalpi daromadlarning maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallarni tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish, chiqindilarni boshqarish nazarda tutiladi. Ushbu masalani hal etishdagi bosh muammo qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanib qolishi va turli xil kapital turlari qanchalik o‘zaro o‘rin almashinishi hamda ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi. Natijada iqtisodiy barqarorlikning quyidagi ikki turi paydo bo‘ldi:

• kuchsiz - vaqt bo‘yicha kamaymaydigan tabiiy va jamg‘arilgan kapital iqtisodiy barqarorlik;

• kuchli - tabiiy kapitalning kamaymasligiga (qayta tiklanmaydigan resurslarni sotishdan tushgan foy- daning bir qismi tiklanadigan tabiiy kapital qiymatini oshirishga yo‘naltirilishi zarurligiga) asoslangan iqtisodiy barqarorlik.

UNEP mutaxassislari “Yashil” iqtisodiyot tarmoqlarini ikki guruhga ajratishadi:

a) xom-ashyo qazib chiqarish, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik, o‘rmon va suv resurslarini boshqarish, ya’ni “tabiiy kapital” bilan bog‘liq tarmoqlar;

b) energetika, qayta ishlash sanoati, mashinasozlik, transport va qurilish, ya’ni “energiya va resurs samaradorligini oshirish” bilan bog‘liq tarmoqlar.

Iqtisodiy adabiyotda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlari ajratiladi:

Tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish. Energetika sektori iqlim o‘zgarishlariga jiddiy ta’sir ko‘rsat- uvchi soha hisoblanadi va atmosferaga issiqxona gazlarini chiqarish miqdorining 60%ga yaqini ushbu sektor hissasiga to‘g‘ri keladi. Tahlillar ko‘rsatishicha, yer sharida istiqomat qiluvchi aholining har beshtasidan biri yoki 1 , 2 mlrd. kishi elektr energiyadan foydalanish imkoniyatidan mahrum. 2,8 mlrd. kishi esa ovqat tayyorlash va yashash joyini isitish uchun daraxt, ko‘mir va hayvonlar axlatidan foydalanishadi. Bu esa uy havosining buzilishi oqibatida har yili 4 milliondan ortiq kishining o‘limiga sabab bo‘lmoqda. Dunyo mamlakatlari “yashil energetika” sohasini rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani shakllantirishga sarflanayotgan yillik investitsiyalar miqdorini 2030 yilga qadar

hozirgi 400 mlrd. dollardan 1,25 trln. dollarga qadar oshirishlari zarur bo‘ladi. Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda har kuni aholi jon boshiga 1 kg.dan 3 kg.gacha qattiq maishiy chiqindilar ishlab chiqarilmoqda. Suv resurslarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish. Yer sharida har oltinchi kishi ichimlik suvi yetish- masligidan aziyat chekmoqda.

Iqlim o‘zgarishi, suvning global tabiiy aylanishining faollashuvi natijasida iqlimi nam hududlarda namgarchilik darajasi yanada oshib borayotgan bo‘lsa, iqlimi quruq mintaqalarda qurg‘oqchiliklar avj olmoqda.

Hozirgi vaqtda 3,6 mlrd. kishi (yer shari aholisining deyarli yarmi) yiliga bir oydan kam bo‘lmagan muddatda suv tanqisligi kuzatiladigan hududlarda yashaydi va 2050 yilga qadar ushbu ko‘rsatkich 4,8 mlrd. kishidan 5,7 mlrd. kishigacha ortishi mumkin . “Sof”, “barqaror” yoki “yashil transport”ni rivojlantirish. UNEP aholining umumiy harakatiga ziyon yetka- zmasdan transportga, avvalo xususiy transport vositalariga bo‘lgan talabni qisqartirish ustida tadqiqotlar olib bormoqda. “Yashil transport” deganda atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiruvchi harakatlanishning har qanday usuli yoki tashkiliy shakli tushuniladi. Yashil transportga piyoda va velosipedda harakatlanish, ekologik avto- mobillar, jamoat transportga qulay o‘tish zonalarini loyihalashtirish, tejamkor, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi va yashash maydonini saqlab qolishga ko‘maklashuvchi shahar transport tizimlarini kiritish mumkin. Transport tizimlari atrof-muhitga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi, jahon energiyasi iste’moli va issiqxona gazlarining 20-25 % i bevosita to‘g‘ri transport hissasiga to‘g‘ri keladi. 2050 yilga borib jahon avtoparkining soni uch baravarga ortishi kutilmoqda. Shu sababLI UNEP tashkiloti “Xalqaro avtomobil federatsiyasi” va IHTTning Xalqaro transport forumi hamkorligida “50 yilga qadar 50 foiz” tashabbusini ilgari surdi. Ushbu tashabbusdan maqsad 2050 yilga qadar jahon avtoparkining samaradorligini 50 % ga oshirish hisoblanadi. Toshkent shahrida atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarining 90 % avtotransport hissasiga to‘g‘ri keladi. Toshkentda avtotransport vositalari tomonidan chiqarilayotgan zaharli moddalar miqdori yiliga 395 ming tonnani tashkil etadi. Ushbu zaharli moddalar miqdori 2018 yilda O‘zbekiston bo‘yicha 2 mln. 449 ming tonnani tashkil etgani holda, avtotransport ulushi 60 % ga teng bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich jahonda belgilangan andozadan 3 marta yuqori hisoblanadi. Ekotizimlarni saqlab qolish va boshqaruv samaradorligini oshirish. Inson faoliyatining barcha turlari biomuhitning o‘zgarishiga olib kelmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning yo‘nalishi va miqyosini “ekologik inqiroz”, deb baholash mumkin. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, yer shari quruqlik qismining 30,7 % o‘rmonlar bilan qoplangan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi vazifalarni hal etish maqsadga muvofiq:

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasini mavafaqqiyatli amalga oshirishdagi bosh muammo “Yashil” iqtisodiyot tushunchasini energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikani rivojlantirishga qo‘shimcha investitsiyalar yo‘naltirish yoki “yashil o‘sish” sifatida soddalashtirish hisoblanadi;

• “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish zarurligini ilmiy asoslashning murakkabligi, ekologik muammolarni progno- zlashning yuqori darajada noaniqligi ushbu

konsepsiyani tushunarli, sodda tarzda tushuntirishda qiyin- chiliklar tug‘diradi. Jumladan, issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish muddati va darajasini pasaytirish bo‘yicha yagona kelishuv mavjud emas. Issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish hajmi esa ortib bormoqda;

• “Yashil” iqtisodiyot barqaror rivojlanish o‘rnini bosa olmaydi, “Yashil” iqtisodiyot barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi;

• barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi; “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda sodir bo‘ladi.

Fikrimiz so‘ngida shuni aytish joizki, “Yashil” iqtisodiyot bugungi kun uchun nafaqat ishlab chiqarish, qolaversa aholi turmush tarzi uchun ham eng muhim iqtisodiyot hisoblanadi. Uning rivojlanish bosqichlari ham “Yashil” iqtisodiyotning muhimligidan dalolat berib turibdi.

ADABIYOTLAR:

1. Eason, B. Noble, and I.N. Sneddon, “On certain integrals of Lipschitz-Hankel type involving products of Bessel functions,” Phil. Trans. Roy. Soc. London, vol. A247, pp. 529-551, April 1955.

2. J. Clerk Maxwell, A Treatise on Electricity and Magnetism, 3rd ed., vol. 2. Oxford: Clarendon, 1892, pp.68-73.

3. I.S. Jacobs and C.P. Bean, “Fine particles, thin films and exchange anisotropy,” in Magnetism, vol. III, G.T. Rado and H. Suhl, Eds. New York: Academic, 1963, pp. 271-350.

RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLARDA MALAKA NOMUVOFIQLIGI VA YOSHLAR ISHSIZLIGI: O‘ZBEKISTON MISOLIDA OSIYO DAVLATLARI BILAN QIYOSIY TAHLIL

Davirova Shaxlo Shukurullayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
E-mail: davirova_shaxlo@tsue.uz
Nasirullayeva Sevinch G‘ayrat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bakalavriat talabasi
e-mail: nasirullayevasevinch09@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yoshlar ishsizligi va malaka nomuvofiqligi (skill mismatch) muammosi tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor O‘zbekiston misolida yoshlar bandligi holati, ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi tafovutlarga qaratilgan. Shuningdek, ASEAN davlatlari hamda boshqa Osiyo mamlakatlari bilan qiyosiy tahlil amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tizimi va ish bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomutanosiblik yoshlar ishsizligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish, zamonaviy kasbiy ko‘nikmalar yetishmasligi hamda amaliy tajribaning kamligi ushbu muammoni yanada kuchaytirmoqda. Maqolada yoshlar bandligini oshirish uchun ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilish, kasbiy

tayyorgarlikni rivojlantirish va davlat-xususiy sektor hamkorligini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar ishsizligi, malaka nomuvofiqligi, mehnat bozori, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar, O‘zbekiston, Osiyo mamlakatlari, bandlik siyosati, ta’lim tizimi, kasbiy ko‘nikmalar, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish

Bugungi globallashuv va texnologik transformatsiyalar davrida yoshlar bandligi dunyo iqtisodiyotining eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat bozori talablari bilan ta’lim tizimi o‘rtasidagi nomuvofiqlik yoshlar ishsizligining ortishiga olib kelmoqda. O‘zbekiston ham yosh aholining ulushi yuqori bo‘lgan davlatlardan biri sifatida ushbu muammoga duch kelmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda yoshlarni ish bilan ta’minlash va kasbiy tayyorlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, malaka nomuvofiqligi hali ham muhim iqtisodiy va ijtimoiy muammo bo‘lib qolmoqda. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yoshlar ishsizligi nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti tadqiqotlariga ko‘ra, ko‘plab davlatlarda oliy ma’lumotli yoshlar o‘z mutaxassisligiga mos ish topishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu esa “skill mismatch” ya’ni mavjud malakalar bilan mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi tafovutni yuzaga keltiradi. O‘zbekistonda yoshlar aholining katta qismini tashkil qiladi. Yoshlarning ko‘pligi iqtisodiyot uchun “demografik dividend” imkoniyatini yaratishi mumkin, biroq samarali bandlik siyosati bo‘lmasa, bu omil ishsizlik va migratsiya muammolarini kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda ko‘plab bitiruvchilar nazariy bilimga ega bo‘lsa-da, amaliy va texnologik ko‘nikmalarning yetishmasligi sababli ish beruvchilar talablariga javob bera olmaydi.

Asosiy qism

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Biroq iqtisodiyotning tez o‘zgarishi ta’lim tizimidan yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Ayniqsa, IT, data analytics, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Fotimabonu Doniyorovaning tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekistonda yoshlar ishsizligiga ish haqi darajasi, ichki va tashqi migratsiya, iqtisodiy imkoniyatlarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, universitetlarda berilayotgan bilimlarning amaliy mehnat bozori bilan yetarlicha integratsiyalanmagani ham asosiy muammolardan biridir. Hikmatillo Rixsiboyevning tadqiqotida Markaziy Osiyo mamlakatlarida “youth bulge” holati kuzatilayotgani va bu holat yoshlar uchun yetarli ish o‘rinlari yaratishni murakkablashtirayotgani ta’kidlanadi. O‘zbekistonda aholining 60 foizdan ortig‘ini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Bu esa iqtisodiy o‘sish uchun imkoniyat bo‘lishi bilan birga, samarali mehnat bozori mexanizmlarini talab qiladi.

Osiyo davlatlari bilan qiyosiy tahlil

ASEAN-5 davlatlari misolida olib borilgan tadqiqotlar yoshlar ishsizligiga makroiqtisodiy omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Jumladan, YAIM o‘sishi va inflyatsiya darajasi yoshlar bandligiga bevosita ta’sir qiladi. Biroq xorijiy

investitsiyalar har doim ham yoshlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratmaydi. Malayziya va Indoneziya kabi davlatlarda ham skill mismatch muammosi dolzarb hisoblanadi. Reddit va boshqa ijtimoiy platformalardagi muhokamalarda ish beruvchilar yoshlarning nazariy bilimga ega bo‘lsa-da, amaliy ko‘nikmalari va kommunikativ salohiyati yetarli emasligini qayd etishgan. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta’limning ommalashuvi har doim ham sifat oshishini anglatmaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘plab universitetlar bozor talablariga mos bo‘lmagan mutaxassislarni tayyorlamoqda. Natijada oliy ma’lumotli yoshlar orasida ishsizlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda.

Mutaxassislar skill mismatch muammosini kamaytirish uchun quyidagi choralarni taklif qilmoqda:

- ta’lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish;
- dual education va internship dasturlarini kengaytirish;
- raqamli va texnologik ko‘nikmalarni rivojlantirish;
- universitet va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;
- yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash.

Ayniqsa, data analytics va sun’iy intellekt asosidagi mehnat bozori monitoringi tizimlarini yaratish yoshlar uchun mos ish o‘rinlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, skill mismatch rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yoshlar ishsizligining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi tafovut yoshlarning bandlik imkoniyatlarini cheklamoqda. Osiyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sishning o‘zi muammoni hal qilmaydi; buning uchun ta’lim sifatini oshirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va innovatsion bandlik siyosatini yuritish zarur. Agar O‘zbekiston zamonaviy kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozori integratsiyasini kuchaytira olsa, yoshlar salohiyati mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omiliga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Doniyorova, F. (2022). “Анализ показателей и влияющих факторов на уровень безработицы молодежи Узбекистана.” *Economics and Innovative Technologies*, 10(6), 50–59.

2. Rixsiboyev, H. (2025). “How Youth Bulges Shape Labor Market Pressures in Central Asia.” *Modern Science and Research*, 4(5), 13–15.

3. Aliyeva, S. (2025). “The Role of Data Analytics in Enhancing Youth Employment in Uzbekistan.” *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 45, 33–41.

4. Othman, K., Mustapha, Y. A. A., Zakaria, Z., & Salehhin, M. A. (2024). “Dynamics of Youth Unemployment in ASEAN-5 Emerging Economies through Macroeconomic Analysis.” *Asian Journal of Empirical Research*, 14(3), 67–75.

5. Kupets, O. (2015). “Skill Mismatch and Overeducation in Transition Economies.” *IZA World of Labor*.

6. Sparreboom, T., & Staneva, A. (2014). “Is Education the Solution to Decent Work for Youth in Developing Economies?” *International Labour Organization*.

7. Baliamoune-Lutz, M. (2023). “Does Trade Openness Affect Youth Unemployment? New Evidence from Developing and Emerging Economies.” *Economics Bulletin*.

SUN’IY INTELLEKTDAN DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARALI FOYDALANISH ZARURIYATI

Fayziyeva Nilufar, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti v.f. dotsenti. PhD

Prezident Shavkat Mirziyoyev: "Raqamli texnologiyalar mamlakat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega va davlat boshqaruvi tizimining zamonaviy standartlarga javob berishini ta’minlaydi", deb ta’kidladi. Davlat boshqaruvida SI texnologiyalarini qo‘llash uchun huquqiy asos yaratish zaruratga aylanib bormoqda. SI tizimlarining rivojlanishi shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmikxatolaruchun javobgarlik, axloqiy tamoyillar va huquqiy standartlar bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqardi.

Zamonaviy davrda davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi yangi texnologiyalardan, xususan, sun’iy intellekt (SI) yechimlaridan foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu texnologiyalar tezkor va aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilishn iosonlashtiradi, ma’lumotlar oqimini tahlil qilish imkonini beradi, byurokratik jarayonlarni soddalashtiradi va fuqarolarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilaydi. Shu bilan birga, SI texnologiyasini joriy etish bilan bog‘liq huquqiy tartibga solish muammolari global ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu davlat boshqaruvi tizimida ushbu texnologiyalarni joriy etish uchun huquqiy asos yaratish, xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va hisobdorlik kabi elementlarni har tomonlama o‘rganishni taqozo etadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish va sun’iy intellekt uchun qonunchilik bazasini ta’minlash bo‘yicha ko‘plab tashabbuslarni amalga oshirdi. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi va"Sun’iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi" ushbu sohadagi yaxshilanishlarning asosini tashkil etadi.Shu bilan birga, davlat boshqaruvida SI texnologiyalarini joriy etishda xalqaro amaliyotlarni o‘rganish va ularni ichki sharoitlarga moslashtirish juda muhimdir.

Yevropa Komissiyasi tomonidan2021-yilda nashr etilgan "Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi qonun" loyihasi sun’iy intellect tizimlarini xavf darajasiga qarab tasniflaydi va har bir toifa uchun turli xil tartibga solish usullarini belgilaydi. Ushbu metodologiya O‘zbekiston uchun muhim asos bo‘lishi mumkin.YuNESKO tomonidan tasdiqlangan "Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiya" hujjati (2021)sun’iy intellekt texnologiyasining axloqiy cheklovlarini va inson huquqlari bilanbog‘liqxavflarni kamaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu matnlar davlat siyosatini ishlab chiqishda xalqaro normalarga rioya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Globallashuv va raqamli inqilob davrida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish muhim masalaga aylandi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: Dastlabki maqsad davlat boshqaruvida sun’iy intellektni qo‘llashning nazariy va amaliy tamoyillarini o‘rganishdir. Sun’iy intellekt (SI) hozirgi vaqtda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Uning

yordami bilan davlat xizmatlarining sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalari fuqarolar bilan aloqalarni avtomatlashtirishni osonlashtiradi, arizalarniko‘rib chiqishni tezlashtiradi va qarorlar qabul qilishning aniqligini oshiradi. Natijada, sun’iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruviga integratsiyalashning nazariy asoslarini o‘rganish, shuningdek, uning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganish juda muhimdir. Ushbu usul davlat xizmatlari samaradorligini oshirishga va davlat xizmatchilariga ma’muriy yukni minimallashtirishga qaratilgan. Keyingi maqsad sun’iy intellekt texnologiyalarining davlat xizmatlariga ta’sirini baholashdir.

Sun’iy intellekt texnologiyasining davlat fuqarolik xizmatlariga ta’siri juda keng. Sun’iy intellekt davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni avtomatlashtirishga yordam beradi va shu bilan fuqarolar uchun qulaylikni oshiradi. Sun’iy intellekt fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqishni, ma’lumotlarni tahlil qilishni va ko‘plab masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishni sezilarli darajada tezlashtiradi. Bundan tashqari, sun’iy intellect texnologiyasi fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlarning shaffofligi va tengligini oshirishi mumkin. Bu davlat boshqaruvi tizimidagi korrupsiyani kamaytiradi va fuqarolarning ishonchini oshiradi. Natijada, sun’iy intellektning davlat xizmatlariga ta’sirini chuqur o‘rganish orqali uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash juda muhimdir. Uchinchi vazifa- davlat boshqaruvida sun’iy intellektning global qo‘llanilishini o‘rganish. Hozirgi kunda ko‘plabboydavlatlar davlat xizmatlarini ko‘rsatishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanmoqda. Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya kabi davlatlar sun’iy intellektdan foydalangan holda raqamli davlat boshqaruvi tizimini joriy etishdi va shu bilan fuqarolarga xizmat ko‘rsatishni yaxshiladilar. Ushbu mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ularning O‘zbekiston kontekstida qo‘llanilishini tahlil qilish juda foydali bo‘lar edi. Xalqaro amaliyotni o‘rganish davlat boshqaruvida eng muvaffaqiyatli va samarali sun’iy intellekt modellarini aniqlash imkonini beradi, bu ularni mamlakat sharoitlariga moslashtirish imkonini beradi. Bu O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish uchun juda muhimdir. To‘rtinch imaqsad - O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellektning imkoniyatlarini baholash va rivojlanishning potentsial yo‘llarini taklif qilish. O‘zbekiston davlat boshqaruvida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun katta salohiyatga ega. Shunga qaramay, ushbu yo‘nalishda muayyan qiyinchiliklar va cheklovlar mavjud.

Davlat boshqaruvida sun’iy intellekt tizimlarini joriy etish, "raqamli davlat"konsepsiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida, huquqiy, axloqiy va ijtimoiy masalalarga oqilona yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat boshqaruvida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun mustahkam qonunchilik bazasini yaratish O‘zbekistonda dolzarb ustuvor vazifa hisoblanadi. "Raqamli O‘zbekiston - 2030" strategiyasiva "Sun’iy intellektni rivojlantirish konsepsiyasi" sezilarli taraqqiyotni ifodalasa-da, kelajakda"Sun’iy intellekt to‘g‘risida" nomli maxsus qonunni ishlab chiqish juda muhimdir. Ushbu qonunchilik sun’iy intellekt tizimlarining huquqiy holati, ma’lumotlar xavfsizligi protokollari, hisobdorlik doiralari va axloqiy normalarni aniq belgilashi kerak.

Milliy qonunchilik bazasini xalqaro standartlar va eng yaxshi amaliyotlarga muvofiq takomillashtirish davlat boshqaruvida sun’iy intellektdan xavfsiz va samarali foydalanishni ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasinitasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni, 2020 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarinirivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021 yil. 3

3. BMT (UNESCO). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris,2021.

4. European Commission. Proposal for a Regulation Laying Down HarmonisedRulesonArtificial Intelligence (AI Act), 2021.

RAQAMLI IQTISODIYOT INTEGRATSIYASI SHAROITIDA TEMIR YO‘L TRANSPORT TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING XALQARO TAJRIBASI

Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
e-mail: mqdsabd@gmail.com


Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot integratsiyasi sharoitida temir yo‘l transport tizimini modernizatsiya qilishning xalqaro tajribasi tahlil qilingan. Tadqiqotda rivojlangan davlatlarda temir yo‘l transportini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish, logistika jarayonlarini optimallashtirish hamda aqlli transport texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Keywords. Raqamli iqtisodiyot, temir yo‘l transporti, modernizatsiya, xalqaro tajriba, logistika tizimi, aqlli transport.

Transport moddiy ishlab chiqarishning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi, chunki u mahsulot ishlab chiqariladigan hududlar bilan uni iste’mol qilinadigan hududlar o‘rtasidagi makoniy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, jahon transport bozori hajmi qariyb 4,2 trillion AQSh dollarini tashkil etib, bu global yalpi ichki mahsulotning 6,8 foiziga tengdir [1]. Murakkablashib borayotgan jahon iqtisodiyoti sharoitida transport sohasi katta hajmdagi energetik va tabiiy resurslarni talab qiluvchi yuqori texnologik hamda o‘zaro integratsiyalashgan tizimga aylangan.

Rivojlangan transport infratuzilmasining mavjudligi hududlarning aholi va biznes uchun jozibadorligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi. Mazkur infratuzilma ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish uchun qulay sharoit yaratib, iqtisodiyotdagi integratsion jarayonlarning yanada kuchayishiga xizmat qiladi.

Transport moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish hududlari bilan ularni iste’mol qiluvchi hududlar o‘rtasidagi hududiy bog‘liqlikni ta’minlaydi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, jahon transport bozori hajmi taxminan 4,2 trillion AQSh dollarini tashkil etadi va bu global yalpi ichki mahsulotning 6,8 foiziga tengdir [1]. Jahon iqtisodiyotining tobora murakkablashib borishi sharoitida transport sohasi katta miqdordagi energetik hamda tabiiy resurslarni iste’mol qiluvchi yuqori texnologik va o‘zaro bog‘langan tizimga aylangan.



1-rasm. Transport sohasining global iqtisodiyotdagi o‘rni

Grafik ma’lumotlari transport sohasining jahon iqtisodiyotidagi strategik ahamiyatini ifodalaydi. Xususan, jahon transport bozori hajmining 4,2 trillion AQSh dollariga tengligi ushbu tarmoqning global iqtisodiy tizimdagi yirik segmentlardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, transport sohasining global YAIMdagi ulushi 6,8 foizni tashkil etishi uning xalqaro savdo, logistika va ishlab chiqarish jarayonlaridagi muhim o‘rnini tasdiqlaydi.

Mazkur ko‘rsatkichlar transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika samaradorligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biri ekanligini anglatadi. Ayniqsa, temir yo‘l transportini rivojlantirish tranzit salohiyatini kengaytirish va hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

$$TS_{ulushi} = \frac{TS_{hajmi}}{YAIM} \times 100\%$$

Bu yerda:
TS_{ulushi} - transport sohasining iqtisodiyotdagi ulushi;
TS_{hajmi} — transport xizmatlari hajmi;
YAIM — Yalpi ichki mahsulot.

$$IQS = \frac{Transport\ daromadi}{Transport\ xarajatlari}$$

Bu yerda:
IQS — iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi;
transport daromadi — transport xizmatlaridan olingan iqtisodiy natija;
transport xarajatlari — infratuzilma va xizmat ko‘rsatish xarajatlari.

Bugungi kunda O‘zbekistonda temir yo‘l transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Respublikadagi temir yo‘llarning umumiy uzunligi 7 ming kilometrdan ziyodni tashkil etib, uning 2 ming kilometrdan ortiq qismi elektrlashtirilgan temir yo‘l liniyalaridan iboratdir. Mazkur holat yuk va yo‘lovchi tashish jarayonlarining tezkorligini oshirish, transport xizmatlari sifatini yaxshilash hamda transport tizimi samaradorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda [2].

Shu bilan birga, mamlakatda yuk tashish hajmining asosiy ulushi avtomobil transporti hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Xususan, jami yuk tashish hajmining 90 foizdan ortig‘i avtomobil transporti orqali amalga oshirilayotgani ushbu tarmoqning iqtisodiyotdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi [3]. Biroq, temir yo‘l transporti ham strategik ahamiyatga ega bo‘lib, 2023-yilda ushbu transport turi orqali 70 million tonnadan ortiq yuk tashilgan. Bu esa mamlakat tranzit salohiyatini oshirish va xalqaro logistika aloqalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, respublikaning turli hududlarida 20 dan ortiq zamonaviy logistika markazlarining faoliyat yuritayotgani yuklarni qayta ishlash, saqlash va taqsimlash jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon yaratmoqda [6].

Xulosa va takliflar.

1. Temir yo‘l transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish transport-logistika tizimi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

2. Elektrlashtirilgan temir yo‘llar ulushining ortishi yuk va yo‘lovchi tashish jarayonlarini tezlashtirib, transport xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Temir yo‘l transporti mamlakatning tranzit salohiyatini kengaytirish va xalqaro logistika aloqalarini rivojlantirishda strategik аҳамият kasb etadi.

4. Zamonaviy logistika markazlarini rivojlantirish yuklarni qayta ishlash va taqsimlash jarayonlarining samaradorligini oshiradi.

5. Transport infratuzilmasiga innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda temir yo‘l transport tizimini modernizatsiya qilish transport-logistika samaradorligini oshirish, tranzit salohiyatini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon banki: Jahon rivojlanish ko‘rsatkichlari.

2. http://data.worldbank.org/indicator

3. Jahon iqtisodiy forumi. Global raqobatbardoshlik hisoboti 2022: Infratuzilma ko‘rsatkichlari. Jeneva: WEF, 2022.

4. Rodrigue, J.-P., Notteboom, T. Transport tizimlari geografiyasi. – Nyu-York: Routledge, 2020.

5. Kristallin, M. Transport va iqtisodiy o‘sish: Nazariy asoslar va amaliy yechimlar. Moskva: Iqtisodiyot va statistika, 2009.

6. Higgins, D., James, P. Transport infratuzilmasiga investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi. London: Cambridge University Press, 2012.

7. Transport iqtisodiyoti: O‘quv qo‘llanma / Tereshina N.P., Potapova E.V., Teryoshina N.V., Epishkin I.A. – Moskva: RUT (MIIT), 2018. – 142 b.

8. Ngo, T. (2015). Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari transport tizimlarining qiyosiy tahlili: Muammolar va istiqbollar. Transport iqtisodiyoti jurnali, 58(2), 45–60.

INTERNATIONAL PRACTICE OF DISCLOSING ENVIRONMENTAL AND SOCIAL RISKS IN AUDIT REPORTS

Narbekova Gulrux Davronboyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
e-mail:gulrukhnarbekova@gmail.com


Abstract. The article discusses the theoretical and practical aspects of assessing the effectiveness of organizations’ activities based on the principles of environmental and social responsibility risks in commercial banks, the status of achievement of set goals, reporting processes, the mechanism for assessing them based on ESG indicators, and the organization of their audit. Based on the results of the study, proposals and recommendations were developed for the introduction of ESG-oriented auditing into national practice.

Keywords: audit, assessment mechanism, ESG principles, corporate governance, risks, international standardsIntroduction.

Introduction. In recent years, growing attention to sustainable development issues in the global economy has led environmental and social risks to have a direct impact on the financial stability of commercial banks. Investors, regulatory bodies, and the general public now demand not only information about financial performance, but also transparent and reliable data regarding companies’ environmental impact (E) and social responsibility (S).

As a result, the disclosure of environmental and social risks in audit reports has become a key direction in international financial and reporting standards. Today, the demand for reliable, transparent, and verifiable ESG (Environmental, Social, and Governance) information is rapidly increasing, while regulatory and legal frameworks are evolving at a similar pace.Unlike traditional financial reporting, ESG reports do not have a century-old foundation of established systems, qualifications, or professional experience. Nevertheless, the requirements for accuracy, quality, and audit preparedness remain exceptionally high.

Although the volume of ESG investments in Uzbekistan is still relatively small, Figure 1 below summarizes the investments and financial performance indicators of Uzbek commercial banks in ESG activities in 2022–2024.



Source. Formulated by the author..

Figure 1. ESG investments and performance indicators in commercial banks (trln. soums)

As can be seen from Figure 3, investments allocated to ESG activities are increasing in commercial banks every year. ESG investments, which were 2.15 trillion soums in 2022, reached 5.87 trillion soums by 2024. As a result, the net profit of banks also increased significantly. Positive dynamics were also observed in ROE and ROA indicators. ROE indicators were 12.3 percent in 2022, 14.6 percent in 2024, ROA indicators were 1.6 percent in 2022, and 2.3 percent by 2024.

The conclusion of the environmental audit should include recommendations and proposals to eliminate the identified shortcomings and improve the effectiveness of environmental protection measures implemented by the environmental audit subject.

Today, the debate and discussion related to environmental, social and governance (ESG) factors is becoming more relevant. This is especially true after the COVID-19 pandemic. As a result, companies are beginning to face behaviors and habits that are changing their business practices. Auditing environmental and social responsibility (ESG) risks in commercial banks involves assessing and managing ESG risks that may negatively affect the stability and reputation of the bank. This audit process is important for compliance with legal requirements, identifying potential financial losses, and ensuring that the bank adheres to its ESG strategy.

Taking into account the principles of environmental and social responsibility in the activities of commercial banks is becoming an integral part of modern financial management. Banks need to monitor not only financial stability, but also the impact of their activities on the environment and society. From this point of view, the introduction of a risk audit system based on the ESG approach is of great importance.

In modern conditions, ESG auditing is widely used in the banking sector in international practice (for example, based on IFAC, IAASB, IFRS S1–S2, GRI standards). For Uzbek commercial banks, the introduction of ESG risk indicators into the audit system, the introduction of sustainability reports, and the improvement of auditors’ qualifications are also relevant issues in this direction.

Positive results are achieved by applying an audit system based on environmental and social responsibility:

-increases the reputation of banks;

-instills confidence in international investors;

-ensures operations consistent with sustainable development goals.

As a final conclusion, it can be noted that the audit of environmental and social risks is important for commercial banks not only as a control tool, but also as a strategic management instrument. The ESG audit approach helps to improve the quality of audits in commercial banks and increase the reliability of financial statements. The ESG audit reflects not only financial results, but also the social and environmental responsibility of the bank. This helps to improve the quality of bank management and implement a sustainable development strategy.

List of used literature.

1. Cormina, L.A. Ecological management and audit [Text] / L.A. Cormina, L.N. Beldeeva. - Barnaul: Izd-vo "Azbuka", 2008. - 12

2. Sh.Karimov "The need to assess environmental and social risks in banks". Academic Research in Educational Sciences Volume 5 | Issue 1 | 2024

3.T. Normo‘minov “Risks in the activities of commercial banks and methods of their effective management” https://doi.org/10.21638/spbu05.2022.303

ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED SMART CITY MODEL FOR THE INTEGRATION OF GREEN AND DIGITAL ECONOMIES

Kasimov Saidakmal Saidaxrorovich
professor of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: s.kasimov42@gmail.com
Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o‘g‘li
student of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: muhibillokamolidinov977@gmail.com

Rapid urbanization and climate change have heightened the need for sustainable urban development, as cities face rising energy consumption, carbon emissions, environmental degradation and infrastructure inefficiencies. At the same time, digital transformation is transforming urban governance and public services, making the integration of green and digital economies essential for long-term development. Research shows that smart technologies play a key role in smart city development, as digital systems improve energy management, infrastructure planning and environmental resilience, highlighting the strong link between technological progress and environmental sustainability.




Figure 1. Conceptual Framework for the Integration of Green and Digital Economies in Smart Cities

Figure 1 presents the conceptual framework for smart city integration, showing how digital infrastructure and intelligent systems can create green and digital economic outcomes. It highlights how resource optimization supports sustainable urban development and the link between technological progress and environmental sustainability.

Research also highlights the link between technological development and green innovation. Regional studies show that smart systems support industrial modernization and promote green manufacturing. Statistics show that technological progress improves urban energy efficiency, especially in cities with advanced digital infrastructure. Scientists also emphasize that smart city systems are crucial for achieving low-carbon and resource-efficient development goals.

In practice, smart systems improve energy management by optimizing electricity distribution and integrating renewable sources such as solar and wind power. This reduces energy losses and carbon emissions. Smart transportation solutions reduce traffic congestion, shorten travel times and reduce fuel consumption, contributing to cleaner air and higher efficiency. Digital management platforms enhance decision-making through real-time data, improve environmental monitoring and urban management.

Table 1. Contributions of Smart City Components to Green and Digital Economic Development

Smart City Component	**Green Economy Impact**	**Digital Economy Impact**	**Overall Urban Effect**
Smart Energy Systems	Reduced energy loss; lower CO_2 emissions	Data-driven energy management	Higher efficiency
Intelligent Transport	Lower fuel consumption; reduced pollution	Optimized logistics and mobility systems	Improved productivity
Digital Governance	Environmental monitoring and compliance	Faster public service delivery	Better transparency
Data Analytics Platforms	Resource optimization	Innovation and business model development	Economic growth
Renewable Energy Integration	Sustainable energy transition	Smart grid automation	Long-term resilience

Table 1 shows the key components of a smart city and the green and content-based components that are included. It highlights how smart infrastructure supports experiential learning, productivity, and innovation.

Digital infrastructure and robust environmental security create a unique interplay between economic growth and protection. Cities that embrace advanced technologies often achieve high productivity, energy efficiency, and innovation power. To this end, the transformation supports green adoption and strengthens economic sustainability.

However, for effective implementation, requires adequate investment, technical expertise, institutional strengthening and concrete support. Without appropriate technology, expansion can lead to production burdens or chemical imbalances. For this, sustainability and inclusive policies are very easy to implement for sustainable cities.

Overall, it offers a practical way to integrate smart technology into urban systems and integrate green resources. It can help cities become more sustainable and resilient through improved efficiency, governance, governance and innovation.

REFERENCES:

1. Karger, E., Rothweiler, A., Brée, T., & Ahlemann, F. (2025). Building the smart city of tomorrow: A bibliometric analysis of artificial intelligence in urbanization. *Urban Science*, *9*(4), 132.

2. Huo, D., Sun, T., Gu, W., & Qiao, L. (2025). Smart cities with green resilience: A quasi-natural experiment based on artificial intelligence. *Smart Cities*, *8*(2), 67.

3. He, X., Ruan, J., & Bian, C. (2025). Development of artificial intelligence empowering green innovation: a case study of the Yangtze River Economic Belt. *Environment, Development and Sustainability*, 1-29.

4. Zeng, J., & Wang, T. (2025). The impact of China’s artificial intelligence development on urban energy efficiency. *Scientific Reports*, *15*(1), 24129.

5. Musa, M., Rahman, T., Deb, N., & Rahman, P. (2025). Harnessing artificial intelligence for sustainable urban development: advancing the three Zeros method through innovation and infrastructure. *Scientific Reports*, *15*(1), 23673.

РАЗВИТИЕ ОНЛАЙН-КРЕДИТОВАНИЯ: ОПЫТ США И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

Алимова Гузал Абдухакимовна
доцент Ташкентского государственного экономического университета
e-mail: g.alimova72@gmail.com
Бурханова Кумушхон Улмасовна
студент Ташкентского государственного экономического университета
e-mail: kumushburhanova05@gmail.com

Онлайн-кредитование представляет собой одну из наиболее динамично развивающихся сфер современной финансовой системы, обеспечивая быстрый и удобный доступ к кредитным ресурсам для физических лиц и малого бизнеса. В условиях глобальной цифровизации финансовых услуг и роста популярности мобильных приложений онлайн-кредиты становятся альтернативой традиционным банковским продуктам, снижая бюрократические барьеры и ускоряя процесс получения заемных средств. Опыт США показывает, что успешное развитие онлайн-кредитования возможно благодаря сочетанию инновационных технологий, гибких регуляторных норм и широкого применения скоринговых систем на основе больших данных. В Соединенных Штатах активно функционируют платформы P2P-кредитования и цифровые кредитные сервисы, такие как LendingClub, Prosper и SoFi, которые обеспечивают персонализированные условия кредитования и минимизируют человеческий фактор в процессе оценки заемщиков. При этом быстрый рост онлайн-кредитов сопровождается и определенными рисками, включая возможное повышение долговой нагрузки населения, киберугрозы и недостаточное регулирование некоторых сегментов рынка. Для Узбекистана онлайн-кредитование находится на этапе

формирования, однако потенциал его развития высок. В стране появляются первые мобильные приложения и платформы для микрокредитования, а банки и микрофинансовые организации постепенно внедряют цифровые инструменты для оценки заемщиков. Основные вызовы заключаются в недостаточном уровне цифровой грамотности населения, ограниченной инфраструктуре скоринга и необходимости совершенствования правовой базы. Использование опыта США позволяет определить направления стратегического развития онлайн-кредитования в Узбекистане, включая внедрение P2P-сервисов, цифровых скоринговых моделей и интеграцию с электронными кошельками. Таким образом, развитие онлайн-кредитования в Узбекистане открывает широкие возможности для повышения финансовой доступности, поддержки малого бизнеса и увеличения финансовой инклюзии населения. Успех этого направления зависит от сочетания технологических инноваций, образовательных программ для населения и эффективного регуляторного контроля.

Таблица 1

Сравнение развития онлайн-кредитования в США и Узбекистане

Параметр	США	Узбекистан	Перспективы
Пользователи	50 млн	2 млн	10–15 млн к 2030
Платформы	3 крупные (LendingClub, Prosper, SoFi)	5–7 банков/МФО	10+ онлайн-платформ
Средний кредит	$15 000	3–5 млн сум (~$300–500)	5–7 млн сум (~$500–700)
Время оформления	1–2 дня	1–3 дня	<1 день
Риски	Высокая задолженность, киберугроза	Недостаточная цифровая грамотность, ограниченный скоринг	Улучшение безопасности и скоринга
Регулирование	SEC, федеральные законы	Начальное, пилотные проекты	Полное внедрение правил для онлайн-кредитов

Таблица демонстрирует текущее состояние онлайн-кредитования в США и Узбекистане, а также перспективы для Узбекистана. В США онлайн-кредитами пользуются около 50 миллионов человек через крупные платформы, такие как LendingClub, Prosper и SoFi. Средняя сумма кредита составляет $15 000, оформление занимает 1–2 дня. Основные риски включают высокую долговую нагрузку и киберугрозы, при этом регулирование достаточно развито. В Узбекистане на данный момент около 2 миллионов пользователей, средний кредит 3–5 миллионов сум ($300–500), а процесс оформления занимает 1–3 дня. Основные проблемы ограниченный скоринг, недостаточная цифровая грамотность и начальная стадия регулирования. Перспективы развития включают рост числа пользователей до 10–15 миллионов, увеличение суммы кредитов до 5–7 миллионов сум, ускорение оформления и внедрение современных скоринговых моделей и безопасной

регуляторной базы.

Онлайн-кредитование становится одним из ключевых направлений развития современного финансового сектора, обеспечивая быстрый и удобный доступ к кредитам для населения и малого бизнеса. Опыт США показывает, что успешное развитие цифрового кредитования возможно благодаря сочетанию технологических инноваций, эффективного скоринга на основе больших данных и гибкой регуляторной базы, которая одновременно обеспечивает защиту заемщиков и стимулирует рост рынка. Для Узбекистана онлайн-кредитование находится на стадии формирования, однако потенциал его развития высок. В стране постепенно внедряются мобильные кредитные приложения, создаются пилотные платформы микрофинансовых организаций и банков, что позволяет ускорить процесс получения кредитов. Перспективы развития включают внедрение P2P-кредитования, цифрового скоринга, интеграцию с электронными кошельками и мобильными сервисами. Эти меры помогут повысить финансовую доступность для населения, поддержать малый бизнес, улучшить финансовую инклюзию и создать более конкурентоспособную и безопасную систему онлайн-кредитования в стране.

Литература:

1. Хайдарова, Н. (2025). ФИНАНСОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА. *FINANCE, MONEY AND CREDIT*, *2*(2), 326-332.

2. Узбекистан, Р. ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ПРИБЫЛЬНОСТИ БАНКОВ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА (НА ПРИМЕРЕ АИКБ «ИПАК ЙЎЛИ»).

3. Юлдашева, Д. А. Совершенствование Капитала Хозяйствующих Субъектов В Контексте Развития Банковско-Финансовой Системы И Частного Сектора Экономики. *Green Economy and Development*, *3*(10), 667633.

4. Махмадизода, Ф. Б., Джабборова, З. М., & Махмадизода, С. Б. (2012). ФОРМИРОВАНИЕ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ЭКПОРТООРИЕНТИРОВАННЫХ КЛАСТЕРОВ В РЕГИОНАЛЬНОМ АПК. *ПАЁМИ*, 15.

5. Мансурова, С. Оценка Эффективности Существующих Методов Стратегического Управления Проектами. *Green Economy and Development*, *3*(8), 666661.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ILMIY FAOLIYATNI RAQAMLI BAHOLASH

Arabov Ubaydullo Hamroqul o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Sun’iy intellekt” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: ubaydulloarabov9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy faoliyatni baholashning an’anaviy yondashuvlaridan raqamli, ko‘p o‘lchamli tizimlarga o‘tishning ilmiy asoslari, hozirgi holat va amaliy yo‘llari o‘rganiladi. Bibliometrik

tahlil, altmetrika, ma’lumotlarga asoslangan baholash va sun’iy intellekt yondashuvlari nazariy asosda tavsiflanib, bir-biri bilan qiyosiy baholanadi. O‘zbekiston OTMlarida xalqaro raqamli baholash vositalarining qamrovi statistik jihatdan ko‘rsatiladi. MIT, Oxford, ETH Zurich va NUS universitetlarining PURE, Symplectic, Converis va DSpace tizimlari joriy etishdagi tajribasi tahlil qilinib, O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar taqdim etiladi

Kalit soʻzlar: ilmiy faoliyatni raqamli baholash, bibliometrika, altmetrika, PURE, Symplectic, CRIS, h-indeks, data-driven assessment, OTM raqobatbardoshligi


Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy faoliyatni baholash tizimi so‘nggi o‘n yillikda strategik boshqaruv vositasiga aylandi. QS, THE va ARWU kabi xalqaro reytinglar jami ballning 40–60 foizini ilmiy ko‘rsatkichlarga - nashrlar sifati, iqtiboslar va xalqaro hamkorlik ko‘lamiga - ajratadi [1, b. 11–13]. Bu holat baholash tizimining aniqligi, tezligi va qamrovini OTM raqobatbardoshligining kalit omillaridan biriga aylantirib qo‘ydi. Biroq ko‘plab universitetlarda, jumladan O‘zbekiston OTMlarida, ilmiy faoliyat hali ham qo‘lda to‘ldiriladigan hisobotlar va yillik jadvallarga asoslanib baholanmoqda.

An’anaviy baholash yondashuvining uchta asosiy kamchiligi mavjud. Birinchisi - kechikish: ma’lumotlar yil oxirida to‘planib, operativ qaror qabul qilish imkoni bo‘lmaydi. Ikkinchisi - subyektivlik: baholash komissiyalari tarkibiga, mezonlar talqiniga va idoralararo farqlarga bog‘liq tizimli noaniqlik. Uchinchisi - bir o‘lchamlilik: ko‘pincha faqat nashrlar soni hisobga olinib, sifat, ta’sir va xalqaro ko‘rinuvchanlik e’tibordan chetda qoladi [2, b. 44–47]. Ushbu tezisning maqsadi raqamli baholash tizimlarining nazariy asoslarini ko‘rib chiqish, O‘zbekiston OTMlarining hozirgi holatini baholash va xorijiy tajribadan kelib chiqib tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Bibliometrik tahlil ilmiy faoliyatni nashrlar, iqtiboslar va h-indeks orqali miqdoriy baholashning asosiy metodologiyasi bo‘lib, Garfield (1955) taklif etgan iqtiboslar indeksi g‘oyasiga borib taqaladi [3, b. 108–110]. Hirsch (2005) tomonidan kiritilgan h-indeks - tadqiqotchi yoki OTMning kamida h ta maqolasi h va undan ko‘proq iqtibos olgan bo‘lsa, h-indeks shu sonni ifodalaydi - bugungi kunda Scopus va Web of Science platformalarida standart ko‘rsatkich sifatida qabul qilingan [4, b. 5602–5603]. Bibliometrikaning cheklovi shundaki, u ta’sirni faqat akademik doirada o‘lchaydi va ijtimoiy yoki amaliy natijalarni qamrab olmaydi.

Altmetrika (alternative metrics) - ilmiy ishning ijtimoiy tarmoqlardagi eslatmalari, media qamrovi, siyosat hujjatlariga kiritilishi va yuklab olishlar soni kabi an’anaviy bibliometrikadan tashqari ta’sir ko‘rsatkichlarini o‘lchash tizimi [5, b. 1–3]. Priem va boshqalar (2010) altmetrika tushunchasini birinchi marta rasmiy asoslagan tadqiqotchilari bo‘lib, ularning fikricha, raqamli muhitda ilmiy ta’sirning ko‘p qismi noan’anaviy kanallarda ro‘yobga chiqadi [5, b. 4–6]. Ma’lumotlarga asoslangan baholash (data-driven assessment) esa ORCID, Scopus, WoS va mahalliy tizimlardan real vaqt rejimida ma’lumot tortib, avtomatlashtirilgan tahlil qiluvchi CRIS (Current Research Information System) platformalarida to‘liq amalga oshiriladi [6, b. 22–25]. Sun’iy intellekt asosidagi baholash esa matn tahlili, maqola

sifatini prognozlash va tadqiqotchi faoliyati tendentsiyalarini aniqlash uchun mashinali o‘qitish usullarini qo‘llaydi [7, b. 118–121].




1-rasm. An’anaviy va raqamli baholash tizimlarining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari taqqoslamasi (mualliflar tahlili; Elsevier PURE benchmark, 2023)

An’anaviy baholash tizimida ma’lumot yig‘ish o‘rtacha 45 kun davom etib, hisobot tayyorlash uchun oyiga 24 soat sarf bo‘ladi. Raqamli tizimlar esa bu ko‘rsatkichlarni tubdan o‘zgartiradi: ma’lumot yangilanishi deyarli real vaqtda, hisobot esa avtomatik tarzda shakllanadi. 1-rasmda ko‘rsatilganidek, an’anaviy tizimda qamrab olinmagan ilmiy faoliyat ulushi 62 foizni tashkil etsa, raqamli tizimda bu ko‘rsatkich 11 foizga tushadi. Xalqaro ma’lumotlar bilan moslik bo‘yicha esa tafovut yanada keskin: 71 foizga qarshi 9 foiz [2, b. 48–51].

O‘zbekiston OTMlarida xalqaro raqamli baholash vositalaridan foydalanish darajasi hali juda past. 2023 yilgi monitoring ma’lumotlariga ko‘ra, Scopus yoki Web of Science profilidan foydalanish 31 foiz OTMda kuzatilsa, ORCID ro‘yxatdan o‘tish atigi 14 foiz [8, b. 16–18]. Institutsional repozitoriy mavjud bo‘lgan OTMlar 22 foizni tashkil etadi. Eng tashvishli ko‘rsatkich - CRIS/PURE kabi professional raqamli baholash tizimini joriy etgan OTMlar ulushi atigi 4 foizni, altmetrika kuzatuvi esa 2 foizni tashkil etadi.

Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston OTMlarining xalqaro reyting tizimlariga to‘liq kirishida asosiy to‘siq bo‘lmoqda. Scopus va WoS ma’lumotlari bilan avtomatlashtirilgan integratsiya yo‘qligi tufayli OTM ilmiy natijalarini xalqaro tizimga taqdim etish qo‘lda amalga oshiriladi va ko‘pincha to‘liq bo‘lmaydi. Bundan tashqari, altmetrika va sifatga asoslangan ko‘rsatkichlar hisob-kitobga kirmasligi, amaliy tadqiqot natijalarining xalqaro darajada ko‘rinmas bo‘lib qolishiga olib kelmoqda.



2-rasm. O‘zbekiston OTMlarida xalqaro raqamli baholash vositalaridan foydalanish darajasi, 2023 (OTM vazirligi ma’lumotlari asosida, b. 16)

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ilmiy faoliyatni raqamli baholashga o‘tish - bu texnologik yangilanish emas, balki OTM strategik boshqaruvi va xalqaro raqobatbardoshligining asosi. An’anaviy baholash tizimining subyektivligi, kechikishi va bir o‘lchamliligi OTMlarni xalqaro reyting tizimlarida adolatli ifodalashga to‘sqinlik qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quacquarelli Symonds. QS World University Rankings Methodology 2024. - London: QS, 2023. - 32 b. [b. 11–13]

2. Hicks D. et al. Bibliometrics: The Leiden Manifesto for Research Metrics // Nature. - 2015. - Vol. 520. - B. 429–431. [b. 44–51]

3. Garfield E. Citation Indexes for Science // Science. - 1955. - Vol. 122, №3159. - B. 108–111.

4. Hirsch J.E. An Index to Quantify an Individual’s Scientific Research Output // Proceedings of the National Academy of Sciences. - 2005. - Vol. 102, №46. - B. 16569–16572. [b. 5602–5603]

5. Priem J. et al. Altmetrics: A Manifesto. - altmetrics.org, 2010. [b. 1–6]

6. Jeffery K.G., Asserson A. Research Information Management: Defining RIM and the Library’s Role. - Washington: ARL, 2016. - 88 b. [b. 22–25]

7. Fortunato S. et al. Science of Science // Science. - 2018. - Vol. 359, №6379. - B. 1–10. [b. 118–121]

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Ilmiy faoliyat monitoringi hisoboti 2023. - Toshkent, 2023. - 56 b. [b. 16–18]

ARTIFICIAL INTELLIGENCE, GREEN AND DIGITAL ECONOMY IDEAS

Hakimova Gavhar Rustam kizi
assistant teacher Tashkent University of Applied Sciences, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: gavharhakimova7@gmail.com
Xasanboyev Shohruh
student of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan
e-mail: uh9710872@gmail.com

Abstract. This article examines how artificial intelligence can facilitate the transition to a green and digital economy. Literature shows that AI contributes to environmental sustainability through improved energy efficiency, smart grids, and predictive maintenance, which reduces waste across various sectors. However, researchers also point to a "green dilemma," as training large AI models and running data centers consumes enormous energy resources and contributes to carbon emissions. The results demonstrate that with proper management, investment in renewable energy, and the development of energy-efficient algorithms, AI can be a powerful tool for building an economy that is both digital and environmentally sustainable.

Keywords: Artificial Intelligence (AI), sustainability, digital economy, green economy, energy efficiency.

My research examines how artificial intelligence can support the transition to a green and digital economy, with the literature demonstrating that AI has significant potential to reduce environmental harm while simultaneously promoting economic growth. Several studies demonstrate that AI contributes to environmental sustainability, including an analysis of OECD countries that found a positive correlation between AI adoption and green growth, and another confirming a strong link between AI development and environmental improvements over time. Studies of developed countries show that However, the literature also highlights what researchers call the "green dilemma," since while AI helps address environmental challenges, the technology itself consumes enormous resources. Training in a single large AI model can produce as much carbon dioxide as five cars over their entire lifespan, and data centers already account for approximately 1% of global electricity demand.

Table 1

Environmental Impact of AI Applications

		Data centers use 1% of global electricity	
		E-waste growing by 2 million tons annually	

The data shows that AI delivers clear environmental benefits across most sectors: energy grid management and transportation show strong positive results when using clean energy, while the picture is mixed in manufacturing, with waste reduction benefits partly offset by rising e-waste. Based on these findings, I

recommend that governments mandate the use of renewable energy in data centers and support research into energy-efficient algorithms, while companies develop recyclable equipment to reduce e-waste. Furthermore, international cooperation is needed to establish common standards for measuring and reporting the environmental footprint of AI, as most companies currently do not track this data at all. In conclusion, AI has real potential to help build a greener economy by reducing emissions and saving energy across various sectors, but this potential comes with challenges that require careful management of the technology's own environmental impact through smart policies and investments in green energy.

REFERENCES

1. Hakimi, M., Tarashtwal, O., & Ghafory, H. (2026). Green Artificial Intelligence Foundations, Applications, and Pathways for Sustainable Development. AMPLITUDO: Journal of Science and Technology Innovation, 5(1), 36-52.

2. Raj, P., Sharma, D. P., Dutta, P. K., Prasad, B. S., & Soundarabai, P. B. (Eds.). (2026). Artificial Intelligence (AI) for IT Energy Efficiency and Green AI for Environment Sustainability. Springer Nature.

3. Aslan, A., Kaplan, E. A., Sarıtaş, T., & Büyükkör, Y. (2026). Artificial intelligence and green growth nexus: evidence from OECD countries using panel CS-ARDL and wavelet analysis. Management of Environmental Quality: An International Journal, 1-40.

4. Özocaklı, D. (2026). Can Artificial Intelligence Drive Sustainable Growth? Empirical Evidence on the AI–Energy–Growth Nexus in Advanced Economies. Sustainability, 18(5), 2308.

5. Abdelhaq, R., Awwad, B., & Salem, A. Z. (2026). Artificial Intelligence and the Green Dilemma: Harnessing Innovation for Environmental Sustainability. In Technology and Innovation Towards a Future of Business Sustainability: Insights in the Digital Age (pp. 43-55). Singapore: Springer Nature Singapore.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI OSHIRISHDAGI TA’SIRINI STATISTIK BAHOLASH

Avazov Bekzod Mamanazarovich
Toshkent davlat agrar universiteti assistenti
e-mail: bekzodavazov2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot chorvachilik sohasida mahsulot hajmini oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalarining rolini ekonometrik va statistik modellar asosida baholashga bag‘ishlangan. Tadqiqotda chorva mahsuldorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning o‘zaro bog‘liqligi korrelyatsion-regressiya tahlili yordamida o‘rganildi. Sun’iy intellekt algoritmlarini joriy etish orqali mahsuldorlikni prognozlash aniqligi sezilarli darajada oshishi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, chorvachilik, mahsuldorlik, regressiya modeli, prognozlash, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy samaradorlik.

Bugungi kunda global oziq-ovqat xavfsizligi muammosi dunyo iqtisodiyotining eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlari va resurslar cheklanganligi chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda.


Tadqiqotda ekonometrik regressiya tahlili (OLS), korrelyatsion tahlil, sun’iy intellekt modellari (Random Forest, Neural Networks), prognozlash (time-series modeling) kabi ilmiy usullar qo‘llanildi.

Model tenglamasi:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \beta_3 X_3 + \beta_4 X_4 + \varepsilon$$

bu yerda Y – chorvachilik mahsuloti hajmi; X_1 – ozuqa miqdori; X_2 – texnologiya darajasi; X_3 – mehnat resurslari; X_4 – AI integratsiya darajasi

Korrelyatsiya tahlil natijasida ozuqa bilan mahsuldorlik o‘rtasida kuchli bog‘liqlik ($r > 0.85$) mavjud, AI texnologiyalarining ta’siri sezilarli ($r \approx 0.78$); regressiya natijasida modelning aniqlik darajasi $R^2 = 0.94$, AI omili statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0.05$) jihatlarga ega ekanligi aniqlandi. AI vs an’anaviy model bo‘yicha aniqlik ko‘rsatkichi klassik model uchcun 85%, AI model uchun 95%; xatolik ko‘rsatkichi klassik model uchun yuqori, AI model uchun past; moslashuvchanlik ko‘rsatkichi klassik model uchun past, AI model uchun yuqori ekanligi kelib chiqdi.



1 - rasm. Sun’iy intellect asosida chorvachilik mahsulotlarini oshirishdagi ta’sirini statistik baholash mexanizmi

Tadqiqotning asosiy ilmiy yangiliklar quyidagilarni tashkil etadi: 1) chorvachilik mahsuldorligini baholash uchun *AI-integratsiyalashgan ekonometrik*

model ishlab chiqildi; 2) omillar ta’siri *ustuvorlik darajasi bo‘yicha tasniflandi*; 3) AI asosida *prognozlash algoritmi taklif qilindi; 4)* chorvachilikda raqamli transformatsiya modeli ishlab chiqildi.

Har bir model va algoritmlarni amalga oshirish natijasida masalaning chiqish parametrlari shakllanadi. Ushbu parametrlardan ba’zi birlari hisoblashning keyingi bosqichlarda prognozli va analitik masalalarning maqbul yechimini topish uchun kirish parametrlari sifatida foydalaniladi. Biz masalaning tizimli axborot va mantiqiy aloqalar qoidasiga asoslanib, qo‘yilgan masalaning yechimlarini kompyuter dasturiy ta’minoti yordamida baholashning kengaytirilgan sxemasini ishlab chiqdik (1-rasm).

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, fermer xo‘jaliklarida qaror qabul qilishni optimallashtiradi; resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi; mahsuldorlikni *20–35% gacha oshirish imkonini beradi.*

Xulosa qilib aytish mumkinki, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, chorvachilik mahsulotlari hajmini oshirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. AI asosida boshqaruv tizimlarini joriy etish: mahsuldorlikni oshiradi; xarajatlarni kamaytiradi; risklarni minimallashtiradi. Kelajakda chorvachilikni rivojlantirish *AI + econometrics + real-time monitoring* integratsiyasiga asoslanadi.

Chorvachilikni rivojlantirishda asosiy yo‘nalish sifatida *raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish strategik zarurat* hisoblanadi. Shu bois, davlat va xususiy sektor hamkorligida AI infratuzilmasini rivojlantirish; ma’lumotlar bazasini kengaytirish; ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.

SUN’IY INTELLEKTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INSON HAYOTIDAGI O‘RNI

Ochilova Gulnoza Odilovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Botirov J.E. «Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti»

Abstract: Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy iqtisodiyotda o`zgartiruvchi kuch sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu maqola SI ning asosiy jihatlarini va uning turli sohalarga chuqur ta’sirini o‘rganadi. U SI asoslarini, uning ilovalari, afzalliklari va potentsial muammolarini o`rganadi va uning iqtisodiy dinamikani qayta shakllantirishdagi muhim rolini ta’kidlaydi. Sun’iy intellekt asosidagi inqilob chog`ida turibmiz, bu asosiy tamoyillarni tushunish hukumatlar, biznes va jismoniy shaxslar uchun sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanishda juda muhim.

**Kalit so`zlar:** Machine Learning, Deep Learning, NLP, Computer Vision, avtomatlashtirish Sun’iy intellekt, kompyuter fanining bir tarmog`i, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish va o`rganish kabi odatda inson aql-zakovati talab qilinadigan vazifalarni bajara oladigan tizimlarni yaratishga qaratilgan.

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik katta ta’sir ko‘rsatmoqdaki, ularsiz nafaqat kundalik hayotimizni balki

ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning rivojini ham tasavvur qilish qiyin. Dunyo rivojlangani sayin, albatta, har bir soha faoliyatiga aqlli texnologiyalarning joriy etilishi, shu sohani tubdan o‘zgarishiga ulkan hissa qo‘shmoqda. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi tufayli kecha talabga ega bo‘lgan narsa bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. To‘yingan bozor, yuqori raqobat, mijozlar talablari iqtisodiyotda raqamli transformatsiyaga bo‘lgan talabni ba’zi sabablaridan biri hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni va sun’iy intellektni joriy etish bugungi kundagi eng katta vazifalardan biridir. 2021-yilning 17-fevral kuni “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi. Mazkur qarordan ko‘zlangan maqsad- “Raqamli O‘zbekiston – 70 2030” Strategiyasiga muvofiq sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal rivojlantirish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ekanligi ta’kidlangan.14 Shuningdek, ushbu hujjatda sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy tamoyillarini va yo‘nalishlarini, sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, aholi manfaatlari yo‘lida davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilash ko‘zda tutilgan. Misol uchun, bank sohasida tijorat banklarining faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, xizmat ko‘rsatish tizimini tahlil qilish, masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit munosabatlari uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash iqtisodiyot rivojiga birmuncha ta’sir ko‘rsatadi. Moliya sohasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, pensiya, ijtimoiy va sug‘urta to‘lovlari, byudjet xarajatlari, shuningdek, nafaqa to‘lovlarini tahlil qilish samaradorligini oshirish uchun ham sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash mumkin. Hozirgi kungacha raqamli transformatsiya qilinmaganligini asosiy sabablari15 : - Bilim va malaka yetishmasligi (53%) - Ichki qarshilik va o‘zgarish qo‘rquvi (45%) - Strategiya yo‘qligi (42%) - Kadr yetishmasligi (41%) - Investitsiyani qaytarmaslik qo‘rquvi (40%) - Moliyaviy qiyinchiliklar (37%). Ammo bu muammolarga qaramay, ayni vaqtlarda raqamli transformatsiya juda katta sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Bir necha o‘n yillar oldin biror bir ma’lumotni mahalliy darajda tahlil qilish mumkin edi. Keyin esa veb-saytlar paydo bo‘la boshladi va asta-sekin bir vaqtning o‘zida televizorda reklama berish bilan birga raqamli makonga kira boshlandi. Raqamli transformatsiya iqtisodiyotning o‘sishiga va yangi imkoniyatlarga olib keladi. Birinchidan, jarayonlarni avtomatlashtirish orqali barcha ma’lumotlarni bir joyda saqalsh va tizim tomonidan qayta ishlash imkoniyatini beradi va inson omilining ta’sirini kamaytiradi. Ikkinchidan, jarayonlarni optimallashtirish hisobiga innovatsiyalarni joriy etish va rivojlantirish uchun vaqt va imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Bu esa kelajakka investitsiyalardir. Bundan tashqari, ta’lim uchun katta hajmdagi ma’lumotlarni mavjudligi. Bugungi kunda ushbu omil sabab turli vositalar, xususan, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlashning oddiy hamda arzon vositalari, turli xil algoritmlar yaratildi. Biroq har bir narsaning salbiy tomoni bo‘ladi. Tubdan o‘zgarishli jarayonlarni boshqarishga yordam bera oladigan

kadrlarni yetishmasligiga olib keladi va McKinsey ma’lumotlariga qaraganda, avtomatlashtirish 2030-yilga kelib AQSHda 73 million, Hindistonda esa 120 milliondan ortiq xodimni yo‘qotishiga olib kelishi mumkin. 1-rasm. 2030 yilga kelib avtomatlashtirish tomonidan ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan ish o‘rinlari soni.16 Bu ko‘rsatkichlar albatta bizning mamlakatga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Natijada, ishchilar yangi sharoitlarga moslashishlariga, jumladan malakalarini oshirish va yangi bilimlarnii egallashga ko‘proq e’tibor qaratishlariga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanish tamoyillarini o‘rganish, ularning o‘zaro munosabatlari va o‘zgarishlari, shuningdek, global xalqaro tarmoqlar bilan integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bu rivojlanish tamoyillarini o‘rganish, ularning o‘zgaruvchiligi va yangi imkoniyatlarni o‘rganish, ijtimoiy tarmoqlarningyangi yo‘nalishlarda rivojlantirilishi va xalqaro miqyosda integratsiya qilinishi imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi muhimdir, chunki bu davlatning barcha sohalarida rivojlantirilishi uchun zarur bo‘ladi. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi, global internet va kommunikatsiya texnologiyalarining tez rivojlanishi natijasida katta ahamiyatga ega bo‘lgan mavzu. Bu texnologiyalar sayesida insonlar o‘zaro aloqalarini oson va tez yaratishlari, ma’lumot almashishlari imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu rivojlanish tarmoq asosida axborot almashish, ijtimoiy tarmoqlar orqali kompaniyalar, do‘konlar, xizmat ko‘rsatuvchilar va mijozlar o‘rtasidagi munosabatlarni yanada kengaytiradi. Masalan, digital marketing orqali reklama amaliyotlari oson va tez ko‘rsatilishi mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o‘z fikrlarini, mulohazalarini, xabarlarini dunyo miqyosidagi boshqa insonlar bilan ulashishlari hamda dunyo yangiliklari bilan yaqqol ishlashlari imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar o‘z mehribonlik va ko‘makkuchini ko‘tarib boradilar. Axborot almashish orqali yordam so‘ravchi va yordam beruvchilar bir-birlariga tez fikr bildirib qo‘yishlari mumkin. Bularni ko‘rib chiqishimizda O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi tamoyillari kengaymoqda va bu sohada yangi imkoniyatlarning 73 ochilishi kutilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yangi O‘zbekiston» gazetasiga bergan intervyusida yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlardagi dolzarb masalalarni imkon qadar kuzatib borishini aytgan. «Albatta, bugungi kunda odamlarni qanday masala va muammolar o‘ylantirayotgani, tashvishga solayotganini yaqindan bilishda yordam beradigan ochiq manbalar, axborot tarmoqlari ko‘p. Ayniqsa, televideniye, matbuot, Internet hayot nafasini, ta’bir joiz bo‘lsa, har bir sohaning “yurak urishi”ni aniq-ravshan his qilishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsan o‘zim ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan yangiliklar, ular orqali bildirilayotgan dolzarb fikrlar, jamoatchilikning diqqat-e’tiborini tortayotgan voqea-hodisalar bilan imkon qadar bevosita tanishib borishga harakat qilaman. Bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan bizning davrimizda real hayotdan butunlay uzilib qolish mumkin emas. Shunga qaramasdan, xalq bilan turli ko‘rinishdagi, deylik, bu rejadagi tadbir bo‘ladimi yoki mahalla, tuman, qaysidir muassasaga kutilmagan holatda kirib borish orqali bo‘ladimi, umuman, bevosita muloqot hamisha kerak, deb hisoblayman. Fuqarolar, keng jamoatchilik tomonidan qizg‘in muhokama

qilinayotgan barcha muammolar e’tibor qaratishni talab etadi. Ularni inkor qilish mumkin ham emas. Albatta, jamiyatdagi qonun buzilishi, adolatsizlik, inson huquqlariga bepisand munosabat, korrupsiya bilan bog‘liq holatlarga beparvo qarab bo‘lmaydi. Tizimli tus olgan yoki juz’iy muammo bo‘ladimi, ularning barchasiga darhol munosabat bildirib, tagiga yetish va hal etish zarur», degan Prezident. Ijtimoiy tarmoqlar, yani "sotsial tarmoqlar" yoki "sotsial media", axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining o‘zaro aloqalarini ifodalovchi umumiy bir termin hisoblanadi. Bu tarmoqlar orqali odamlar doimo aloqa va bog‘lanishni amalga oshirishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar, kelajakda o‘zining rivojlanish tamoyillari va usullari bilan bog‘liq o‘zgarishlar ko‘rsatishi kutilmoqda. Bu o‘zgarishlar turli yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin. Quyida, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanish tamoyillari haqida muhim nuqtalarni ko‘rsataman. Kengaygan foydalanuvchilar soni: Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy kommunikatsiya vositalarini yaxshilash va osonlashtirish sababli ommalashtirishga davom etmoqda. Foydalanuvchilar soni kundan-kunga o‘sib borayotganligi sababli, ijtimoiy tarmoqlar muhim markazlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi: SI tayanadigan ma’lumotlarning katta miqdori ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog`liq xavotirlarni keltirib chiqaradi. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Axloqiy tashvishlar: SI bo`yicha qaror qabul qilish axloqiy me’yorlarga muvofiq bo`lishi kerak, chunki noto`g`rilik va kamsitish tasodifan algoritmlarga kodlanishi mumkin. 69 Ish kuchining moslashuvi: Ishchi kuchi SI bilan bog`liq rollar uchun zarur bo`lgan yangi malakalar to`plami bilan o`zgaruvchan iqtisodiy landshaftga moslashishi kerak. Normativ-huquqiy baza: SI dan mas’uliyatli foydalanishni ta’minlash uchun samarali qoidalarni ishlab chiqish hukumatlar hal qilishi kerak bo`lgan murakkab muammodir.

Mobil ilovalar va mobil foydalanish: Mobil telefoning rivojlanishi va ulardagi ilovalarning osonlik bilan yuklanishi, ijtimoiy tarmoqlarga mobil 74 foydalanuvchilar sonini oshirishga yordam berdi. Odamlar, har qanday joyda vaqt o‘tkazishlari mumkinligi bilan doimo aloqada bo‘lishlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlari osonlashdi. Video va yashirin video tarkibining ommalashtirilishi: Video tarkibining ommalashtirilishi ijtimoiy tarmoqlarda katta o‘zgarishlarga olib kelgan. Videolar, qisqa hikoyalar, jurnallar, reklama va boshqalar orqali ommaga yetkazish uchun katta potentsialni taqdim etdi. Bu shuningdek, yashirin video tarkibining ommalashtirilishi ham ommalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsiy holatni ommalashtirish: Ijtimoiy tarmoqlar, odamlarga shaxsiy hayotlarini ommalashtirish va ulardan foydalanishlarini ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Odamlar o‘zlari haqida ma’lumotlarni taqdim etish, o‘z ruxsatini olish, aloqalar qurish va ko‘ngillarini qo‘llab-quvvatlash uchun foydalanishlari mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlar yangiliklarni tarqatish, fikrlarini ifoda qilish va ijtimoiy masalalarda aktiv bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Bu orqali ijtimoiy aktivizmning, davlat siyosati va jamoat bilan bog‘liq mamlakatlararo muddatli o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. E-tijorat va reklama: Ijtimoiy tarmoqlar, tadbirkorlar va kompaniyalar uchun e’tiborlarni jalb etish va marketing faoliyatlarini ommalashtirishning muhim vositalariga aylanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar

orqali xaridorlar uchun mahsulotlar va xizmatlarning taqdim etilishi va sotilishi osonlashadi. Ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishida boshqa ham ko‘Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanish tamoyillari hali davom etmoqda va kelajakda boshqa o‘zgarishlarni kuzatish mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar hayotimizni muammosiz shakllantirishda ahamiyatli o‘ringa ega. Mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish yo‘li bilan transformatsiya qilinishi muqarrar jarayon. Bu jarayonni samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun: katta kadrlar salohiyatiga ega bo‘lgan davlatning ta’sirini oshirish va butun jamiyat a’zolarini faol ishtirok etishini ta’minlash; keng miqyosda iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni va texnologik transformatsiyalarni keng miqyosda joriy etilishini ta’minlash zarur deb o‘ylayman. Suniy intellekt va ijtimoiy tarmoqlarning birlashishi, masalan, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan chatbotlar, ma’lumotlar analitikasi, axborot izlab topish tizimlari va shaxsiy tavsiyalar kabi sohalarda foydalaniladi. Suniy intellekt, katta miqdordagi ma’lumotlarni tahlil qilish, axborotni avtomatik ravishda ishlab chiqish, aniqlash va aniqlashda yordam berish, foydalanuvchilar bilan kommunikatsiya qilish va turli sohalarda yordam berish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar suniy intellektga ham yordam beradi, masalan, foydalanuvchilarning tarjimani avtomatik tarzda amalga oshirish, ma’lumotlar bazasini tahlil qilish va personalizatsiyalash, reklama va etkazib berish kampaniyalarini tartibga solish, axborot izlab topish va boshqa mashhur sohalarda foydalaniladi.

GREEN TRADE RESTRICTIONS AND COMPARATIVE ADVANTAGE: A THEORETICAL READING OF THE “CARBON PRICE”

Norkobilov Akobir
PhD student of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract: Trade policy is increasingly shaped by climate objectives. As a result, exporters face a growing set of “green” market-access requirements: carbon footprint disclosure, eco-design rules, verification procedures, and, in some cases, border carbon charges. Taken together, these instruments create an effective “carbon price” for international trade – meaning that the cost of selling abroad rises with the carbon embedded in a product and with the difficulty of proving its emissions profile. This paper develops a theoretical interpretation of how such constraints reshaped comparative advantage. The central claim is that competitiveness is no longer determined only by productivity and input prices; it also depends on emissions intensity and the institutional capacity to measure and credibly report it across supply chains. Green rules therefore operate like a new layer of trade costs: they disadvantage carbon-intensive products, reward verified low-carbon production, and amplify the value of digital compliance infrastructure. The paper concludes with actionable recommendations for firms and policymakers focused on monitoring, reporting and verification (MRV) systems, cost-sharing compliance support, technology upgrading, and green-aligned trade facilitation.

Keywords: comparative advantage, green trade measures, carbon prices, compliance costs, product standards, MRV, trade facilitation.

Traditional explanations of comparative advantage emphasize relative production costs: countries export what they can produce more cheaply in relative terms. Over the past decade, climate policy has begun to influence those relative costs indirectly through trade. Instead of relying primarily on tariffs, many importing markets increasingly apply technical standards, disclosure requirements, certification procedures, and other regulatory tools linked to environmental performance. For exporter, these rules function like an additional pricing layer: products with higher embedded emissions and weaker documentation face higher burdens at the border (in time, money, and uncertainty). This paper addresses a practical theoretical question: What happens to comparative advantage when market access depends on carbon content and the ability to document it? The paper’s contribution is conceptual: it frames green trade restrictions as a carbon-related wedge added to conventional trade costs. That wedge affects both the cost of production (through cleaner technologies) and the credibility of information (through measurement and verification).

In this paper, a “carbon price” is understood broadly as any requirement or change that makes exporting more costly when embedded emissions are higher. This includes:

– border carbon-type charges or adjustments;
– mandatory carbon footprint reporting and third-party verification;
– eco-design, labeling, and sustainability standards;
– compliance systems whose complexity increases fixed costs for exporters (especially smaller firms).

These measures can be interpreted as non-tariff measures (NTMs) because they frequently operate through standards, conformity assessment, inspections, and administrative formalities rather than simple tariffs.

Carbon intensity becomes a competitiveness determinant when foreign market access is conditioned on carbon content, because carbon-intensive goods face a systematic disadvantage and even highly efficient producers can lose market position if the emissions-linked burden outweighs their conventional cost advantage. Cleaner upgrading can (re)create comparative advantage by lowering embedded emissions through cleaner energy, efficiency gains, process innovation, and input substitution, turning decarbonization into a market strategy rather than only an environmental choice. Verification capacity works like “trade facilitation” because firms that cannot credibly document emissions may encounter additional checks, delays, conservative default assumptions, and higher administrative costs – frictions similar to classic trade barriers – whereas strong monitoring, reporting, and verification (MRV) capacity reduces these burdens and becomes a source of advantage. The effect is strongest where emissions are high relative to unit value, meaning green restrictions bite harder in sectors with substantial embedded emissions and relatively low value per unit (often energy-intensive basic materials), where even modest compliance costs can materially affect export viability. Over time, these forces reshape specialization dynamically: the combined pressure of

compliance requirements and incentives to upgrade can shift trade patterns toward cleaner production locations, verified supply chains, and products with lower embedded emissions per unit of value.

Table 1

How green trade restrictions translate into an effective “carbon price” (taxonomy)

Mechanism	**Typical instrument**	**Why it shifts comparative advantage?**
Technical requirements	Eco-design rules, carbon footprint standards, labeling	Rewards cleaner production, penalizes high-emission production methods
Conformity assessment and certification	Audits, verification, compliance documentation	Makes “proof of low emissions” a competitiveness factor
Inspections and administrative formalities	Checks, reporting templates, approvals	Raises fixed entry costs; affects smaller exporters more
Charges or price-related measures	Carbon-linked fees, border adjustments	Directly increases the cost of carbon-intensive exports
Conditional market access	Restrictions tied to sustainability compliance	Reallocates demand toward verified and compliant suppliers

Carbon footprint disclosure changes trade not only through actual emissions performance but also through information: the ability to generate credible data becomes a source of competitiveness and an “information advantage.” Exporting firms should therefore treat carbon disclosure as part of export readiness by establishing monitoring, reporting, and verification (MRV) routines, maintaining traceability records for high-impact inputs, preparing audit-ready evidence files, and using digital tools that standardize and automate reporting. Policymakers and trade-support institutions should lower compliance costs – especially for SMEs – by building shared MRV infrastructure (accredited verifiers, sector guidelines, and standardized templates), offering training and partial cost support for verification, and aligning trade facilitation with green documentation through interoperable e-certificates and faster clearance for verified shipments. Overall, the theoretical implication is clear: under green market-access rules, comparative advantage increasingly depends on institutional and digital capacity to measure and verify emissions alongside conventional productivity, so coordinated investments in MRV, verification ecosystems, and green-aligned trade facilitation are essential to protect market access and support export upgrading.

References

1. European Union. (2023). *Regulation (EU) 2023/956 of the European Parliament and of the Council of 10 May 2023 establishing a Carbon Border Adjustment Mechanism.* Official Journal of the European Union.

2. International Organization for Standardization. (2018). *ISO 14067:2018 — Greenhouse gases: Carbon footprint of products — Requirements and guidelines for quantification.*

3. European Commission. (2021). *Commission Recommendation (EU) 2021/2279 on the use of the Environmental Footprint methods (PEF/OEF).*

4. OECD. (2025). *The potential effects of the EU CBAM along the supply*

chain. (OECD report).


5. Akobir, N. . (2025). Foreign Trade Regulation in the Digital Economy: Challenges and Opportunities and Future Trends: Regulasi Perdagangan Luar Negeri dalam Ekonomi Digital: Tantangan dan Peluang serta Tren Masa Depan. *Academia Open*, *10*(1), 10.21070/acopen.10.2025.10657.

6. Норкобилов А. (2024). ВЛИЯНИЕ ОТКРЫТОСТИ ТОРГОВЛИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ В СТРАНАХ С ФОРМИРУЮЩИМСЯ РЫНКОМ: СРАВНЕНИЕ РЕГИОНОВ И РАЗВИТИЯ. Экономическое развитие и анализ, 2(12), 138–146. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/64346

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti
e-mail: abdumannobovagulnoz7@gmail.com

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda uning ijtimoi-iqtisodiy jihatlarini baholovchi asosiy ko‘rsatkichlarga standart makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, mehnat bozori ko‘rsatkichlari, tenglik va ijtimoiy integratsiya, xizmatlardan foydalanish, sog‘liqni saqlash, ta’lim va transport kabi keng ko‘lamdagi asosiy yashash farovonlik ko‘rsatkichlari, raqobat va mahsulot bozorini tartibga solishni nazarda tutadi. Mamlakatda yashil iqtisodiyotni yanada rivojlantirish maqsadida boshqa yo‘nalishlar singari makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ahamiyatli jihatlari ham mavjud. Bunda asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar odatda tabiiy muhitning ishlab chiqarishga qo‘shgan hissasini ikkita sababga ko‘ra hisobga olmaydi. Ulardan biri sifatida atrof-muhit ishlab chiqarish omili va ikkinchisi esa ishlab chiqarish omillari sifatida tabiiy kapital va ekologik xizmatlarni emas faqat mehnat va ishlab chiqarilgan kapitalni o‘z ichiga oladi. Ammo, tabiiy resusrlardan foydalanishdan olinadigan daromadlar YaIM tarkibiga kiritiladi. So‘ngra, ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelgan ekologik ifloslanish va degradatsiya natijalarini kamaytirishga qilingan investitsiyalar foydalari YaIM da juda cheklangan darajada aks ettirilishi mumkin, bu esa baholashda ushbu omillarning e’tiborsiz qoldirilishi iqtisodiy holatning to‘liq bo‘lmagan manzarasini yaratishga va rivojlanish samaradorligi va o‘sish jarayonlarini noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasida ham davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajribalarga ko‘maklashish[1] bo‘yicha asosiy dolzarb masalalar oldinga maqsad qilib qo‘yilgan.



1-rasm. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda byudjet-soliq siyosatining SWOT tahlili[3]

Manbaa: Muallif tomonidan tayyorlandi.

Har bir jadvaldagi mezonlar mamlakatning milliy va mintaqaviy siyosati, iqtisodiyoti va atrof-muhitiga asoslanadi. Bunda ular o‘z ichiga ifloslantiruvchi moddalar va ularning parchalanishi va degredatsiya darajasi, davomiyligi, turi, hajmi, joylashuvi, transport vositasining Yoshi, kilometrga tushadigan karbonad angidrid chiqindilari, milliy standartda belgilangan energiya yorlig‘idagi turli transport vositalari uchun ko‘rsatilishi kerak. Hamda, asosiysi atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun soliq siyosatida muqobillarni tanlash kerak.

Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan alternativalarni rag‘batlantirish va ularga soliq imtiyozlarini berish boshqa omillar sirasiga kiradi.[4]

Ishlab chiqarish hajmi, ifloslanish miqdori, atrof-muhit ifloslanishining uzoq muddatli to‘planishini, ekologik ifloslanishga ta’sir natijasida yuzaga kelgan zanjirni, ifloslanish oqibatidagi zararning moliyaviy bahosini o‘z ichiga olgan ba’zi asosiy omillarni tushunish va uni hisoblash qiyinlashtiradi.[5]

O‘zbekistonda ekologik soliqlar va to‘lovlar tizimi atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlashda muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Biroq global ekologik muammolarning kuchayishi, iqtisodiy

faoliyatning kengayishi va tabiat resurslaridan foydalanish hajmining ortishi ekologik soliqlar tizimini yanada takomillashtirishni talab etmoqda. Shu sababli mazkur tizimni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish davlat ekologik siyosatida muhim vazifalardan biri hisoblanadi.[6]

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda yangi va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik toza tovar va mahsulotlar hamda xizmatlarning foydaliligini oshirish va yuqori talab yaratiladi. Ekologik toza mahsulot va xizmatlar iste’molini rag‘batlantirish chiqindilarni kamaytirish yoki ularni tabiatga moslashtirib, ishlab chiqarish va iste’mol jarayonida ifloslantiruvchi moddalar emissiyasini kamaytirish kabi natijalarga olib keladi. Atrof-muhitni ifloslovchi moddalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarini isloh qilmasa, xarajatlarning ortishi natijasida boshqa korxonalar bilan raqobat qila olmaydi va natijada, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, tovar va xizmatlar narxlarining oshishi, ekologik toza bo‘lmagan tovarlar ishlab chiqarilishi va ularda taklif narxining ortishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4539502

2. Iavicoli I, Leso V, Ricciardi Walter L, Hodson L, Hoover,M (2014) Opportunities and challenges of nanotechnology in the green economy, Environmental Health, 13:78.

3. Pourkarimi E., Hojjat Y. A review of international green economy and green tax policies //CIFILE Journal of International Law. – 2019. – T. 1. – №. 1. – C. 29-36. Ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

4. Pourkarimi E, Hojjat Y (2017) Study of Green Tax Policies and its Impact on the Environment of Iran (Accepted), Journal of Environmental Science and Technology.

5. Pearce D. W., R. K. Turner (1990) Economics of Natural Resources and the Environment, Harvester Wheat heat: Hemel Hempstead.

6. R.Sadullayev, M. Abdolniyozov, O‘zbekiston Respublikasida ekologik soliqlar va to‘lovlar tizimi tahlili Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.19421702

AI VA BIG DATA TAHLILI ASOSIDA XALQARO SAVDO LOGISTIKASINI OPTIMALLASHTIRISH: “YASHIL YO‘LAK” TAMOYILLARINI TATBIQ ETISH

Sultanov Shoxjaxon Rahmon o‘g‘li
Turan International University o‘qituvchisi
e-mail: shohjahonsultanov02@gmail.com
Aminjonov Abdulatifjon Ibrohimjon o‘g‘li
Turan International University talabasi
e-mail: abdulatifjon26@gmail.com

Bugungi globallashuv jarayonida xalqaro savdo aloqalarining kengayishi logistika tizimlarining samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Xalqaro savdo operatsiyalarining hajmi ortib borishi transport, bojxona va logistika jarayonlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli zamonaviy

axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali logistika tizimlarini optimallashtirish bugungi iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt (AI) va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalarining joriy etilishi xalqaro savdo logistikasini samarali boshqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, logistika jarayonlarini prognoz qilish hamda transport oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi. Big Data texnologiyalari esa logistika tizimlari bilan bog‘liq katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilish imkonini yaratadi. Ushbu texnologiyalarning integratsiyasi logistika jarayonlarini optimallashtirish hamda transport tizimlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro savdo logistikasini samarali tashkil etishda “yashil yo‘lak” tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. “Yashil yo‘lak” tizimi bojxona va logistika jarayonlarini soddalashtirish hamda ishonchli savdo ishtirokchilari uchun tezkor xizmat ko‘rsatishni ta’minlashga qaratilgan mexanizm hisoblanadi. Ushbu tizim orqali eksport-import operatsiyalari bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirish jarayoni tezlashadi hamda transport vositalarining bojxona nazoratidan o‘tish jarayoni soddalashtiriladi.

Sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish “yashil yo‘lak” tizimining samaradorligini oshirish imkonini beradi. AI algoritmlari logistika jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan aniqlash hamda transport oqimlarini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa logistika jarayonlarining uzluksizligini ta’minlash hamda transport xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Big Data texnologiyalari yordamida transport tizimlari, bojxona operatsiyalari hamda logistika jarayonlari bilan bog‘liq katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish mumkin. Ushbu ma’lumotlar asosida transport oqimlarini optimallashtirish, logistika infratuzilmasini samarali boshqarish hamda savdo operatsiyalarini tezlashtirish mumkin.

Sun’iy intellekt asosidagi logistika tizimlari transport yo‘nalishlarini tahlil qilish hamda eng optimal marshrutlarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa transport vositalarining ortiqcha yo‘l bosishini kamaytirish hamda yoqilg‘i sarfini qisqartirishga yordam beradi. Natijada logistika jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi oshadi.

Shuningdek, AI texnologiyalari bojxona nazoratini avtomatlashtirish hamda risklarni baholash jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi. Masalan, sun’iy intellekt algoritmlari yordamida savdo operatsiyalaridagi potensial risklarni aniqlash hamda bojxona nazoratini faqat yuqori riskga ega operatsiyalarga qaratish mumkin. Bu esa “yashil yo‘lak” tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda logistika tizimlarini boshqarishda sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Ushbu texnologiyalar transport tizimlarini optimallashtirish, logistika xarajatlarini kamaytirish hamda savdo operatsiyalarining tezkorligini ta’minlash imkonini bermoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham xalqaro savdo logistikasini rivojlantirish hamda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bojxona tizimini raqamlashtirish, logistika markazlarini rivojlantirish hamda elektron savdo tizimlarini joriy etish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, AI va Big Data texnologiyalarini logistika tizimlarida joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, malakali mutaxassislarning yetishmasligi hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun zarur investitsiya resurslarining cheklanganligi ushbu jarayonni murakkablashtirishi mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

For Tashkent, the introduction of intelligent management systems opens up significant opportunities for modernizing urban governance and improving the quality of life of residents. Intelligent management systems are becoming an important component of modern urban governance. Global experience shows that the integration of digital technologies into management processes can significantly improve the efficiency, transparency and sustainability of urban governance. Cities such as Singapore, Barcelona, and Seoul are valuable examples of how smart governance initiatives can transform urban governance through digital innovation and citizen engagement. For Tashkent, the development of intelligent management systems opens up important opportunities for improving public services, increasing transparency, and supporting sustainable urban development. By investing in digital infrastructure, expanding e-government services, strengthening data analysis capabilities, and facilitating citizen participation, Tashkent can become a fully developed smart city.

Literature

1. Meijer, A., & Bolívar, M. P. R. (2016). Governing the smart city: A review of the literature on smart urban governance. *International Review of Administrative Sciences*, 82(2), 392–408. https://doi.org/10.1177/0020852314564308

2. Nam, T., & Pardo, T. A. (2011). Conceptualizing smart city with dimensions of technology, people, and institutions. In *Proceedings of the 12th Annual International Conference on Digital Government Research* (pp. 282–291).

3. Anthopoulos, L. (2017). *Understanding Smart Cities: A Tool for Smart Government or an Industrial Trick?* Springer International Publishing.

4. Batty, M., Axhausen, K., Giannotti, F., Pozdnoukhov, A., Bazzani, A., Wachowicz, M., Ouzounis, G., & Portugali, Y. (2012). Smart cities of the future. *The European Physical Journal Special Topics*, 214(1), 481–518.

5. Caragliu, A., Del Bo, C., & Nijkamp, P. (2011). Smart cities in Europe. *Journal of Urban Technology*, 18(2), 65–82.

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTDA YANGI BIZNES MODELLARINI YARATISH

Shavkatov Abdusalim Shavkat o‘g‘li

Toshkent Kimyo-Texnologiya Instituti Yangiyer filiali assistent-o‘qituvchisi

Kirish: Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari raqamli iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratishda muhim rol o‘ynamoqda. So‘nggi yillarda SI texnologiyalarining ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va marketing sohalariga integratsiyasi biznes jarayonlarini optimallashtirish va yangi biznes modellarini yaratishga yordam bermoqda. Bu texnologiyalar kompaniyalarga yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimlarini takomillashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyotda sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va boshqa raqamli texnologiyalar asosida yangi biznes platformalarini yaratish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga imkon yaratadi. Biroq, bu o‘zgarishlar texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlardan keng yondashuvni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, biznes modellar,

platformalar, samaradorlik, transformatsiya.

Asosiy qism: Sun’iy intellekt (SI) yordamida raqamli iqtisodiyotda yangi biznes modellarini yaratish, iqtisodiyotning turli sohalarida yangiliklarni va samaradorlikni ta’minlaydi. Sun’iy intellektning yordamida tashkilotlar quyidagi sohalarda yangi biznes modellarini yaratishga erishishmoqda:

Yangi mahsulot va xizmatlar yaratish: Sun’iy intellekt yordamida yangi mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqish, biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Misol uchun, aqlli tizimlar va robototexnikalar yordamida xizmat ko‘rsatish sektori, shu jumladan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport va logistikada yangi biznes modellarini yaratish mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimlarini yaxshilash, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etish imkoniyati mavjud.

Raqamli platformalar va ularning rivojlanishi: Raqamli platformalar, masalan, e-tijorat va onlayn xizmatlar, sun’iy intellekt yordamida yanada takomillashadi. Sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlarni tahlil qilish va prognozlash, mijozlarning xulq-atvorini kuzatish va ularni shaxsiylashtirilgan reklama va xizmatlar bilan ta’minlash imkonini beradi. Bunday platformalar yangi biznes modellarini yaratishda asosiy o‘rin tutadi, chunki ular samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish, savdoni optimallashtirish va mijozlarning ehtiyojlariga moslashishni ta’minlaydi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishda innovatsiyalar: Sun’iy intellekt yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish, kompaniyalarga mahsulot sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Raqamli iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonlarining optimallashuvi, shu jumladan, aqlli texnologiyalar va robototexnikalardan foydalanish, yangi biznes modellarini yaratishga imkon beradi. Masalan, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari va robotlar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali va tezroq bajarish mumkin.

Yangi biznes modellarining iqtisodiy samaradorligi: Sun’iy intellekt yordamida yangi biznes modellarining iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Sun’iy intellektning imkoniyatlari, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va marketingni shaxsiylashtirish orqali kompaniyalar o‘z xarajatlarini kamaytirish va daromadlarini oshirishga erishishadi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida samarali qarorlar qabul qilish, risklarni boshqarish va bozorni prognozlash mumkin.

Mehnat bozoriga ta’siri: Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotning integratsiyasi, mehnat bozoriga ham ta’sir qiladi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, an’anaviy ish o‘rinlarini o‘zgartirishi mumkin. Shu bilan birga, yangi malakalar va ko‘nikmalarni talab qiladigan ish o‘rinlari ham paydo bo‘ladi. Bunday o‘zgarishlarga tayyorlanish, jamiyatni yangi texnologiyalarga moslashtirish zarur.

Xulosa: Sun’iy intellekt yordamida raqamli iqtisodiyotda yangi biznes modellarini yaratish, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga ham sabab bo‘ladi. Yangi biznes modellarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan ularni to‘g‘ri joriy qilish va zaruriy infrastrukturani yaratishga bog‘liq. Shuningdek, sun’iy intellektning ishlatilishi

mehnat bozorida yangi imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqaradi. Raqamli transformatsiyaning ijobiy ta’sirini amalga oshirish uchun, kompaniyalar va davlatlar ilg‘or texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash va o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishlari kerak. Bu jarayon faqatgina iqtisodiy yondashuvni emas, balki ijtimoiy va huquqiy jihatlarni ham hisobga olishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chaffey, D. (2019). *Digital Marketing: Strategy, Implementation, and Practice*. Pearson Education.
2. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2020). *E-Commerce: Business, Technology, Society*. Pearson Education.
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.
4. Deloitte. (2021). *The Future of Artificial Intelligence in Business*. Deloitte Insights.
5. Gensler, S. (2019). *Artificial Intelligence and the Future of Business*. Springer.
6. Shabbir, J., & Anwer, S. (2019). *Artificial Intelligence in Business: From Machine Learning to Deep Learning*. Springer.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TA’SIRIDA AHOLI DAROMADLARINING DIFFERENSIALLASHUVI: TENDENSIYALAR VA BAHOLASH YONDASHUVLARI

Shomurodov Tohir Boymurod o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: t.shomurodov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida aholi daromadlarining differensiallashuvi jarayoni, uning asosiy tendensiyalari hamda iqtisodiy baholash yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi natijasida mehnat bozorida yuzaga kelayotgan strukturaviy o‘zgarishlar, yuqori malakali va past malakali ishchi kuchi o‘rtasidagi daromad tafovutlarining kengayishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi natijasida yangi daromad manbalari (freelans, platforma iqtisodiyoti, elektron tijorat) paydo bo‘lishi bilan birga, daromadlar tengsizligi muammolari chuqurlashayotgani ko‘rsatib berilgan. Tadqiqotda daromadlar differensiallashuvini baholash uchun Gini koeffitsienti, Palma nisbati, Theil indeksi kabi zamonaviy indikatorlardan foydalanish asoslab berilgan. Natijalar raqamli transformatsiya sharoitida inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda samarali siyosiy choralarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, daromadlar differensiallashuvi, raqamli texnologiyalar, tengsizlik, Gini koeffitsienti, platforma iqtisodiyoti, mehnat bozori, innovatsiya.

Abstract. This thesis examines the process of income differentiation among the population under the influence of digital technologies, its key trends, and

methodological approaches to its assessment. The study highlights structural changes in the labor market caused by the development of the digital economy, including the widening income gap between high-skilled and low-skilled labor. It also analyzes how the expansion of digital technologies contributes to the emergence of new income sources such as freelancing, platform-based work, and e-commerce, while simultaneously intensifying income inequality. The research justifies the application of modern indicators, including the Gini coefficient, Palma ratio, and Theil index, for measuring income differentiation. The findings emphasize the necessity of implementing effective policy measures to ensure inclusive economic growth in the context of digital transformation.

Keywords: digital economy, income differentiation, digital technologies, inequality, Gini coefficient, platform economy, labor market, innovation.

Аннотация. В данной работе исследуется процесс дифференциации доходов населения под влиянием цифровых технологий, его основные тенденции и методы экономической оценки. В исследовании раскрываются структурные изменения на рынке труда, обусловленные развитием цифровой экономики, включая рост разрыва в доходах между высококвалифицированной и низкоквалифицированной рабочей силой. Также анализируется влияние цифровых технологий на формирование новых источников дохода (фриланс, платформенная экономика, электронная коммерция), что наряду с положительными эффектами способствует усилению социально-экономического неравенства. В работе обосновано использование современных индикаторов оценки дифференциации доходов, таких как коэффициент Джини, коэффициент Пальмы и индекс Тейла. Результаты исследования подчеркивают необходимость разработки эффективных мер государственной политики для обеспечения инклюзивного экономического роста в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: цифровая экономика, дифференциация доходов, цифровые технологии, неравенство, коэффициент Джини, платформенная экономика, рынок труда, инновации.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish bosqichida raqamli texnologiyalar jamiyat va iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi mehnat bozori tuzilmasini o‘zgartirib, yangi kasb va daromad manbalarini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayon aholi daromadlarining differensiallashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, daromadlar o‘rtasidagi tafovutlarning ortishiga olib kelmoqda.

Ayniqsa, yuqori malakali va raqamli ko‘nikmalarga ega ishchi kuchiga talabning ortishi fonida past malakali qatlamlarning daromad imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik muammosini yanada dolzarb etadi. Shundan kelib chiqib, raqamli texnologiyalar ta’sirida daromadlar differensiallashuvi tendensiyalarini aniqlash va ularni baholashning ilmiy asoslangan yondashuvlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot va uning aholi daromadlariga ta’siri masalalari so‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Xususan, J. Brynjolfsson va A. McAfee (2014) raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish bilan birga, mehnat bozorida tengsizlikni kuchaytirishini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, avtomatlashtirish va sun’iy intellekt rivoji yuqori malakali ishchi kuchiga talabni oshirib, o‘rta va past malakali qatlam daromadlarining nisbatan kamayishiga olib keladi.[93]

D. Autor (2015) tomonidan ilgari surilgan “skill-biased technological change” (malakaga yo‘naltirilgan texnologik o‘zgarish) nazariyasiga ko‘ra, texnologik taraqqiyot daromadlar differensiallashuvining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv raqamli iqtisodiyot sharoitida bilim va ko‘nikmalar darajasiga qarab daromadlar keskin farqlanishini ilmiy asoslab beradi.[94]

Jahon banki (World Bank, 2016; 2024) hisobotlarida raqamli texnologiyalar iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishi bilan birga, ular teng taqsimlanmaganda “raqamli tafovut” (digital divide) muammosini kuchaytirishi qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, internetga kirish imkoniyati, raqamli savodxonlik va infratuzilma darajasi aholi daromadlari tengsizligiga bevosita ta’sir etuvchi omillar sifatida baholanadi.[95]

OECD (2019, 2023) tadqiqotlarida platforma iqtisodiyoti va gig-bandlikning kengayishi natijasida daromadlarning beqarorligi va segmentatsiyasi kuchayayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Ayniqsa, frilans va vaqtinchalik ish shakllari daromadlarning barqarorligini pasaytirib, ijtimoiy himoya tizimlariga yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.[96]

Mahalliy olimlar, jumladan, Sh. Shodmonov, B. Vahobov va B. G‘ulomovlarning ilmiy ishlanmalarida aholi daromadlari va bandlik masalalari iqtisodiy o‘sish bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilingan. Ularning yondashuvlarida qo‘shimcha qiymat yaratish jarayonida inson kapitalining roli alohida ta’kidlanadi. Zamonaviy sharoitda esa ushbu nazariyalar raqamli iqtisodiyot bilan boyitilib, innovatsion faoliyat va raqamli ko‘nikmalarning daromad shakllanishidagi ahamiyati ortib borayotgani qayd etilmoqda.[97]

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhim omil bo‘lishi bilan birga, daromadlar differensiallashuvini kuchaytiruvchi omil sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Biroq, ushbu jarayonning milliy iqtisodiyotlar, xususan O‘zbekiston sharoitidagi xususiyatlarini chuqur empirik tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

[93] Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014).**The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.**MIT Press. https://mitpress.mit.edu/9780393350647

[94] Autor, D. H. (2015). **Why Are There Still So Many Jobs? The History and Future of Workplace Automation.** Journal of Economic Perspectives, 29(3), 3–30. https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/jep.29.3.3

[95] World Bank (2016). **World Development Report 2016: Digital Dividends.** https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2016

[96] **OECD Employment Outlook: The Future of Work.** https://www.oecd.org/employment-outlook

[97] Shodmonov, Sh. **Iqtisodiyot nazariyasi.** – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim nashriyoti.
· Vahobov, A., & G‘ulomov, B. **Makroiqtisodiyot.** – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi aholi daromadlari dinamikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, biroq bu jarayon daromadlar differensiallashuvining kuchayishi bilan birga kechmoqda.

Avvalo, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti 7,7 foizga o‘sib, 145 mlrd AQSh dollaridan oshgan .[98]Shu bilan birga, aholi jon boshiga daromadlar ham real ifodada 5,6–5,7 foizga oshgani kuzatilgan . Bu holat raqamli iqtisodiyot, xizmatlar sohasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiy o‘sishdagi ulushi ortib borayotganini ko‘rsatadi.[99]

Shu bilan birga, raqamli infratuzilmaning kengayishi aholi daromadlariga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, internetdan foydalanish imkoniyatlari va AKT sohasidagi korxonalar sonining oshishi iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratmoqda . Natijada freelans, elektron tijorat va platforma iqtisodiyoti orqali qo‘shimcha daromad manbalari shakllanmoqda.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xususan raqamlashtirish siyosati natijasida kambag‘allik darajasi sezilarli qisqardi. 2023-yilda 11 foiz bo‘lgan kambag‘allik darajasi 2025-yilda 5,8 foizgacha kamaygani kuzatilgan . Bu esa raqamli xizmatlar, bandlik dasturlari va elektron platformalar orqali aholining iqtisodiy faolligi oshganini anglatadi.

Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda daromadlar o‘rtasidagi tafovutlar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, shahar hududlarida kambag‘allik darajasi 5,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, qishloq hududlarida bu ko‘rsatkich 6,4 foizni tashkil etmoqda . Bu farq raqamli infratuzilma va imkoniyatlarning hududlar kesimida notekis taqsimlanganini ko‘rsatadi.

Bandlik ko‘rsatkichlari ham raqamli iqtisodiyotning ta’sirini aks ettiradi. 2025-yilda ishsizlik darajasi 4,9 foizgacha kamaygani , yangi ish o‘rinlari, xususan xizmatlar va IT sektorida bandlikning oshganidan dalolat beradi. Biroq bu ish o‘rinlari asosan yuqori malakali kadrlarga mo‘ljallangan bo‘lib, past malakali qatlamlarning daromadlari nisbatan sekin o‘smoqda.[100]

Amaliyotdagi qonun va davlat dasturlari (jumladan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalari va AKT sohasini qo‘llab-quvvatlash siyosati) natijasida iqtisodiyotda xizmatlar ulushi ortib, raqamli sektorning ulushi kengaymoqda. Bu esa daromadlar tarkibining o‘zgarishiga olib kelmoqda: an’anaviy sektorlardan (qishloq xo‘jaligi, sanoatning ayrim tarmoqlari) raqamli xizmatlar va innovatsion faoliyatga o‘tish kuzatilmoqda.

Shu sababli, raqamli iqtisodiyot sharoitida inklyuziv o‘sishni ta’minlash uchun raqamli infratuzilmani hududlar bo‘yicha muvozanatli rivojlantirish, aholining raqamli ko‘nikmalarini oshirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

[98] *https://invest.gov.uz/en/post/349?utm_source=chatgpt.com*

[99] https://invexi.org/uz/press/uzbekistan-s-gdp-grows-7-7-highest-growth-rate-in-five-years/?utm_source=chatgpt.com

[100] *https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/raqamli-iqtisodiyot?utm_source=chatgpt.com*

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri sifatida aholi daromadlarining umumiy hajmini oshirishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida yangi bandlik shakllari va daromad manbalari yuzaga kelib, aholining iqtisodiy faolligi kengaymoqda. Shu bilan birga, elektron tijorat, platforma iqtisodiyoti va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi daromad topish imkoniyatlarini diversifikatsiya qilmoqda.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar aholi farovonligini oshirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi, biroq ushbu imkoniyatlardan teng va samarali foydalanishni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – MIT Press.
2. Autor, D. H. (2015). Why Are There Still So Many Jobs? The History and Future of Workplace Automation. Journal of Economic Perspectives, 29(3), 3–30.
3. World Bank (2016). World Development Report 2016: Digital Dividends. https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2016
4. World Bank (2024). World Development Report 2024. https://www.worldbank.org
5. OECD (2019). OECD Employment Outlook: The Future of Work. https://www.oecd.org/employment-outlook
6. OECD (2023). OECD Digital Economy Outlook 2023. https://www.oecd.org/digital
7. IMF (2024). World Economic Outlook Database. https://www.imf.org
8. Shodmonov, Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘zbekiston.
9. Vahobov, A., G‘ulomov, B., Xodiev, B. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-165-son Farmoni (2022-yil 6-iyul). “2022–2026-yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”. https://lex.uz

ZAMONAVIY IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Muxamedjanova Maxfuza Baxodir qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti
e-mail: muxamedjanovamaxfuz@gmail.com

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy lokomotivlaridan biri hisoblangan kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda aholini bandlik bilan ta’minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mavjud muammolarni yechishda muhim o‘rin tutmoqda. Xususan, kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash, ichki bozorda raqobat muhitini shakllantirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun ham zarur hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham kichik biznes sohasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik va xususiy biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida sezilarli natijalarga erishildi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni yaqqol misol bo‘la oladi.

Mazkur farmon va qarorlarda kichik biznesni rivojlantirish, tadbirkorlik uchun soliq va moliyaviy imtiyozlar yaratish, kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish, nazorat va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish vazifasi qo‘yilgan.

Biroq, amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy resurslar, malakali mutaxassislarning yetishmovchiligi, raqamli texnologiyalarning yetarli darajada qo‘llanilmasligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida mavjud bo‘lgan ushbu muammolarni hal qilish uchun boshqaruvning innovatsion usullarini joriy etish, moliyaviy va kreditlash mexanizmlarini soddalashtirish hamda kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyatini oshirish zarur. Ayniqsa, hududlar kesimida kichik biznes rivojlanishini rag‘batlantirish va boshqaruv mexanizmlarini mukammallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Kichik biznes subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish borasida ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Maykl Porterning raqobat strategiyasi nazariyalari biznes subyektlari uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Porterning fikricha, raqobat ustunligiga erishish uchun biznes subyektlari xarajatlarni minimallashtirish yoki differensiatsiya qilish orqali bozorda o‘z o‘rnini mustahkamlashi mumkin.

Amerikalik iqtisodchi Piter Druker boshqaruv innovatsiyalarining biznes rivojlanishidagi ahamiyatini chuqur o‘rganib, innovatsiyalar orqali tashkilot samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Filipp Kotler kichik biznes subyektlari uchun marketing strategiyalarini shakllantirish va raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan.

Mahalliy olimlardan U.V. G‘afurov kichik biznes subyektlarini boshqarish tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, O‘zbekiston sharoitidagi boshqaruv mexanizmlarining o‘ziga xos jihatlarini aniqlagan. B.B. Mullabayevning tadqiqotlarida hududlarda tadbirkorlik faoliyatini strategik boshqarish tamoyillari batafsil ko‘rib chiqilib, kichik biznesni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari ta’kidlangan.

R. Qosimov esa kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyoti sohasidagi dolzarb masalalarni chuqur tahlil qilib, kichik biznes subyektlarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqqan.

Ushbu adabiyotlar va tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Toshkent viloyatidagi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi:

• Toshkent viloyatida kichik biznes subyektlarining soni barqaror o‘sib bormoqda, biroq tumanlar o‘rtasida o‘sish sur’atlari va faoliyat samaradorligida sezilarli tafovutlar mavjud.

• Kichik biznes faoliyati asosan savdo va xizmat ko‘rsatish yo‘nalishida to‘plangan, ishlab chiqarish va logistika sohalarida esa rivojlanish sust kechmoqda.

• Moliyalashtirish manbalarining asosiy qismini bank kreditlari va xususiy mablag‘lar tashkil etmoqda, davlat subsidiyalari va xorijiy investitsiyalar ulushi esa past darajada qolmoqda.

• Kichik biznes subyektlari orqali yaratilgan ish o‘rinlari, soliq tushumlari hamda ijtimoiy guruhlar — ayollar va yoshlar ishtiroki mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Takliflar:

• Har bir tumanning resurs salohiyatidan kelib chiqib, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlariga ixtisoslashgan kichik biznes klasterlarini rivojlantirish lozim.

• Past moliyalashtirish ko‘rsatkichlariga ega tumanlarda imtiyozli kreditlar, kafillik fondlari, startap grantlari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya mexanizmlarini kengaytirish zarur.

• Tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va bu yo‘nalishda kichik biznes loyihalarini rag‘batlantirish kerak.

• Raqamli boshqaruv platformalari, onlayn hisobotlar, elektron soliq nazorati va CRM tizimlaridan foydalanishni kichik biznes subyektlariga moslashtirish talab etiladi.

• Har bir tumanda ayollar va yoshlar uchun alohida inkubatsion markazlar tashkil etilib, ularning biznes ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini joriy etish lozim. Mazkur takliflar amalga oshirilsa, Toshkent viloyatida kichik biznesning raqobatbardoshligi oshib, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi sezilarli darajada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter, M. (1980). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. Free Press.

2. Drucker, P. (2006). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Harper Business.

3. Kotler, P. (2003). Marketing Management. Pearson Education.

4. G‘afurov, U.V. (2020). Kichik biznesning boshqaruv mexanizmlari. Toshkent: Fan.

5. Qosimov, R. (2022). Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisod-moliya.

ZAMONAVIY IQTISODIY-SIYOSIY BEQARORLIK SHAROITIDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA’SIRINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Raxmonov Bekzod
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi

Zamonaviy iqtisodiy va siyosiy transformatsiyalar sharoitida yashirin iqtisodiyotning kengayishi hamda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy jarayonlarga chuqur kirib borishi mehnat bozori faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari, platformaviy bandlik shakllarining rivojlanishi, iqtisodiy munosabatlarning norasmiy segmentlarda faollashuvi hamda institutsional nazorat mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi yashirin iqtisodiy faoliyat ko‘lamining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, mehnat resurslarining norasmiy sektorga oqimi kuchayib, bu holat ishsizlik darajasining real ko‘rsatkichlarini baholash va samarali bandlik siyosatini yuritishda muhim nazariy hamda amaliy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’sirini zamonaviy iqtisodiy sharoitlar asosida tadqiq etish va uning nazariy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar mehnat bozori faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning iqtisodiy munosabatlarga keng joriy etilishi hamda iqtisodiy inqirozlar ta’sirida rasmiy bandlik tizimida muayyan nomutanosibliklar yuzaga kelmoqda. Natijada iqtisodiy faoliyatning norasmiy shakllari kengayib, yashirin iqtisodiyot ko‘lami ortib bormoqda. Ushbu holat esa davlatning makroiqtisodiy siyosati samaradorligiga, aholi bandligini ta’minlash mexanizmlariga hamda ishsizlik darajasining real ko‘rsatkichlarini aniqlash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yashirin iqtisodiyotning kengayishi mehnat resurslarining rasmiy sektordan norasmiy sektorga o‘tishini kuchaytirib, bandlikning institutsional tartibga solinishini murakkablashtirmoqda. Ayniqsa, platformaviy iqtisodiyot, masofaviy ish shakllari va vaqtinchalik bandlik ko‘rinishlarining rivojlanishi norasmiy iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Bu esa mehnat bozorida barqarorlikning pasayishi, ijtimoiy himoya tizimining zaiflashuvi hamda ishsizlik darajasini baholashdagi statistik tafovutlarning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashirin iqtisodiyotning ishsizlikka ta’sirini zamonaviy iqtisodiy sharoitlar asosida chuqur tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Mazkur tezisning asosiy maqsadi zamonaviy iqtisodiy-siyosiy beqarorlik sharoitida yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’sirini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda uni kamaytirishga qaratilgan takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida yashirin iqtisodiyotning shakllanish omillari, uning mehnat bozori bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda bandlik siyosatiga ta’siri ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Shuningdek, iqtisodiyotni institutsional jihatdan takomillashtirish, rasmiy bandlikni rag‘batlantirish va mehnat bozorida shaffoflikni oshirish orqali yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab beriladi.

Bugungi iqtisodiy-siyosiy beqarorlik sharoitida yashirin iqtisodiyotning kengayishi mehnat bozori barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan inflyatsion bosimlar, geosiyosiy ziddiyatlar, moliyaviy inqirozlar va iqtisodiy transformatsiya jarayonlari natijasida rasmiy iqtisodiy faoliyat bilan bir qatorda norasmiy iqtisodiy munosabatlar ham faollashib bormoqda. Bunday sharoitda xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda aholi qatlamlarining bir qismi rasmiy mehnat bozoridan chekinib, yashirin iqtisodiyot doirasidagi faoliyatga o‘tishga moyillik bildirmoqda. Natijada bandlikning norasmiy shakllari ortib, ishsizlik darajasining real holatini aniqlash murakkablashmoqda.

Yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’siri, avvalo, mehnat resurslarining rasmiy sektordan norasmiy sektorga oqimi bilan izohlanadi. Rasmiy ro‘yxatdan o‘tmagan iqtisodiy faoliyat turlari qisqa muddatda aholi daromadlarini saqlab qolishga xizmat qilishi mumkin, biroq uzoq muddatda mehnat bozori institutsional barqarorligining pasayishiga olib keladi. Chunki norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan ishchi kuchi ijtimoiy himoya, pensiya ta’minoti va mehnat xavfsizligi kabi kafolatlardan to‘liq foydalana olmaydi. Bu esa yashirin bandlikning ortishi bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan yashirin ishsizlik ko‘lamining kengayishiga ham sabab bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi ham yashirin iqtisodiyotning transformatsiyalashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Elektron platformalar, onlayn xizmatlar va mustaqil masofaviy ish shakllarining ommalashuvi yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu bilan birga, ayrim hollarda ushbu faoliyat turlarining huquqiy jihatdan yetarli tartibga solinmaganligi norasmiy iqtisodiy munosabatlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, platformaviy bandlikning nazorat mexanizmlaridan tashqarida rivojlanishi soliqqa tortish bazasining qisqarishiga hamda rasmiy bandlik ko‘rsatkichlarining pasayishiga ta’sir etmoqda.

Iqtisodiy-siyosiy beqarorlik sharoitida yashirin iqtisodiyotning kuchayishi yoshlar va kam malakali mehnat resurslariga nisbatan ko‘proq salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Mehnat bozoridagi raqobatning ortishi, rasmiy ish o‘rinlarining qisqarishi va daromadlar beqarorligi natijasida aholi norasmiy faoliyatga kirishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa vaqtinchalik va kafolatsiz bandlik shakllarining kengayishiga olib kelib, mehnat unumdorligi hamda iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga sabab bo‘ladi. Natijada iqtisodiyotda barqaror bandlikni ta’minlash masalasi yanada murakkablashadi.

Mazkur muammoni hal etishda yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan institutsional islohotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, mehnat munosabatlarini raqamlashtirish, soliq tizimini soddalashtirish, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgan subyektlarni legallashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy kasb-hunar ko‘nikmalarini rivojlantirish va mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash orqali rasmiy bandlikni kengaytirish mumkin.

Shuningdek, yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’sirini kamaytirishda davlatning samarali makroiqtisodiy siyosati muhim omil hisoblanadi. Iqtisodiy shaffoflikni ta’minlash, korrupsiyani qisqartirish, investitsion muhitni

yaxshilash hamda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish orqali norasmiy iqtisodiy faoliyat ulushini qisqartirish mumkin. Shu jihatdan, zamonaviy iqtisodiy-siyosiy beqarorlik sharoitida yashirin iqtisodiyot va ishsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur ilmiy tadqiq etish hamda uni tartibga solishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy iqtisodiy-siyosiy beqarorlik sharoitida yashirin iqtisodiyotning kengayishi mehnat bozori barqarorligiga va ishsizlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Iqtisodiy transformatsiyalar, raqamlashtirish jarayonlari hamda institutsional muammolar natijasida norasmiy iqtisodiy faoliyat turlari kengayib, rasmiy bandlik tizimining samaradorligi pasaymoqda. Bu esa ishsizlik darajasining real holatini aniqlashni murakkablashtirib, davlatning bandlik siyosatini samarali amalga oshirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashirin iqtisodiyot qisqa muddatda aholi daromadlarini saqlab qolish va iqtisodiy moslashuvchanlikni ta’minlashga xizmat qilsa-da, uzoq muddatda mehnat bozori institutlarining zaiflashuviga olib keladi. Ayniqsa, norasmiy bandlikning ortishi ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini pasaytirib, pensiya, soliqqa tortish va mehnat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni kuchaytiradi. Shu bilan birga, yashirin iqtisodiyotning kengayishi iqtisodiy statistik ma’lumotlarning ishonchliligini kamaytirib, makroiqtisodiy siyosat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’sirini kamaytirishda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mehnat munosabatlarini raqamlashtirish, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay iqtisodiy muhit yaratish hamda norasmiy bandlikni legallashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur hisoblanadi. Bundan tashqari, aholini zamonaviy kasb-hunar va raqamli ko‘nikmalarga o‘qitish orqali rasmiy bandlikni kengaytirish imkoniyatlari ortadi.

Umuman olganda, yashirin iqtisodiyot va ishsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur ilmiy asosda tadqiq etish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy iqtisodiy-siyosiy beqarorlik sharoitida iqtisodiy shaffoflikni oshirish, mehnat bozorini institutsional jihatdan mustahkamlash hamda samarali makroiqtisodiy siyosat yuritish orqali yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirish mumkin. Bu esa barqaror iqtisodiy o‘sish, aholi bandligini oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

OPEN DATA PLATFORMS AND ECONOMIC TRANSPARENCY: LESSONS FROM OECD COUNTRIES FOR UZBEKISTAN

Abduraxmanov Xusniddin
Tashkent State University of Economics
e-mail: Abduraxmanov0324gmail.com

Open data platforms have become an important instrument for improving economic transparency and strengthening public governance. By providing public access to government information, these platforms increase accountability, reduce corruption risks, and promote data-driven decision-making. Many developed

countries have successfully implemented open data systems as part of their digital government strategies. In particular, OECD countries have developed advanced open data ecosystems that support transparency, innovation, and economic development. This article analyzes the experience of OECD countries in developing open data platforms and evaluates their relevance for Uzbekistan. The study examines key components of successful open data ecosystems, including legal frameworks, digital infrastructure, institutional support, and stakeholder engagement. The results suggest that expanding open data initiatives can significantly improve economic transparency and strengthen public governance in Uzbekistan.

The rapid development of digital technologies has significantly transformed the way governments manage information and interact with citizens. In the digital era, data has become one of the most valuable resources for economic development and effective governance. Governments around the world increasingly rely on open data initiatives to promote transparency, accountability, and public participation.

Open data refers to data that is freely available to the public and can be used, reused, and redistributed without restrictions. Governments publish open datasets through digital platforms known as open data portals. These portals provide access to information related to public spending, economic indicators, government procurement, social programs, and other areas of public administration.

Open data platforms improve economic transparency by allowing citizens, researchers, and businesses to monitor government activities and evaluate public policies. Access to reliable economic information also supports better decision-making and helps reduce the risks of corruption and mismanagement of public resources.

Many developed economies have recognized the importance of open data and incorporated it into their digital government strategies. OECD countries have become global leaders in implementing open government data initiatives. Their experience demonstrates how transparent data ecosystems can improve governance and support economic innovation.

Uzbekistan has also made progress in digital transformation and public administration reforms. The government has launched several initiatives aimed at increasing transparency and improving access to public information. However, further development of open data systems is necessary to fully utilize their potential for improving economic governance.

Table 1

Key Components of an Open Data Ecosystem

Indicator	**OECD Average (Numerical)**	**Leading OECD Countries (Examples)**	**Uzbekistan (Numerical)**
National open data portals (%)	90%	South Korea (100%), France (100%), Canada (100%)	1 national portal
Number of public datasets	50,000 – 100,000+	USA (~300,000), UK (~70,000)	~10,000

Government institutions publishing data	70 – 90 institutions	100+ institutions	~150 institutions
Open data economic value	€325 billion (EU, 2022)	Forecast €500 billion by 2025	Not yet estimated
Data update frequency	12 – 52 updates per year	Real-time systems in transport, finance	1 – 6 updates per year (some datasets irregular)

Open data ecosystems have become an important topic in academic and policy discussions due to their impact on transparency and economic development. OECD countries have implemented comprehensive open data strategies that provide public access to thousands of government datasets. In many OECD countries, national open data portals allow users to access information on government budgets, economic indicators, transportation systems, environmental data, and social statistics. These platforms are designed to provide machine-readable data that can easily be analyzed and reused.

The success of open data initiatives in these countries is supported by several key factors. First, governments establish strong legal frameworks that guarantee the right of citizens to access public information. Such laws ensure transparency and promote accountability within public institutions.

Second, advanced digital infrastructure enables efficient data management and publication. Modern open data portals provide user-friendly interfaces that allow users to search, download, and analyze datasets quickly.

Third, institutional coordination plays a critical role in maintaining high data quality. In many OECD countries, specific government agencies are responsible for managing national open data programs and ensuring that data standards are followed across different ministries.

Another important factor is stakeholder engagement. Governments actively encourage researchers, technology companies, and civil society organizations to use open data for research, innovation, and public policy analysis. Many countries organize hackathons, innovation competitions, and data challenges that promote the use of open government datasets.

These initiatives demonstrate that open data can generate both economic and social value. Businesses can use government data to develop digital services and analytical tools, while researchers can analyze datasets to evaluate policy outcomes and identify areas for improvement.

Open Data Development in Uzbekistan

Uzbekistan has taken several steps to improve transparency and digital governance in recent years. The government has introduced reforms aimed at expanding access to public information and strengthening accountability in public administration.

One of the important initiatives has been the development of national digital platforms that publish government data and statistics. These platforms provide information related to economic indicators, government spending, and social development.

Despite these achievements, several challenges remain in developing a comprehensive open data ecosystem. One challenge is the limited availability of regularly updated and standardized datasets. In some cases, data is published in formats that are difficult for researchers and businesses to analyze.

Another issue is institutional coordination. Effective open data systems require strong cooperation between government agencies responsible for collecting and publishing data. Without standardized procedures, inconsistencies in data publication may occur.

In addition, public awareness and use of open data remain relatively limited. Encouraging businesses, researchers, and civil society organizations to actively use government datasets can significantly increase the value of open data initiatives.

Uzbekistan has strong potential to expand its open data ecosystem due to ongoing digital reforms and increasing investment in information technologies. By strengthening institutional capacity and improving data accessibility, the country can further enhance economic transparency and governance.

Open data platforms have become an essential instrument for improving transparency and strengthening public governance in the digital age. International experience demonstrates that effective open data ecosystems require strong legal frameworks, modern digital infrastructure, and active participation from stakeholders.

The experience of OECD countries shows that open data initiatives can significantly improve economic transparency, support innovation, and enhance public trust in government institutions. These lessons provide valuable guidance for countries seeking to strengthen their digital governance systems. For Uzbekistan, expanding open data initiatives represents an important opportunity to improve transparency, promote innovation, and strengthen economic governance. By adopting best international practices and adapting them to national conditions, Uzbekistan can develop a more transparent and efficient public administration system.

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI TURIZM XIZMATLARINI SHAXSIYLASHTIRISHDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Axrorova Nilufar Uktamovna, o‘qituvchi
Buxoro davlat universiteti
e-mail: n.u.axrorova@buxdu.uz
Shaximardonova Nozima Shavkat qizi, talaba, Buxoro davlat universiteti,
e-mail: nozimashaximardanova40@gmail.com

Zamonaviy turizm sanoati jadal raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. BMT Turizm tashkilotining (UN Tourism) 2025-yil yanvar oyidagi World Tourism Barometer hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda xalqaro turistik tashrif buyuruvchilar soni taxminan 1,4 milliardga yetgan bo‘lib, bu pandemiyadan oldingi darajaning 99 foizini tashkil etdi. Xalqaro turizm daromadlari 2024-yilda 1,6 trillion AQSh dollariga, umumiy turizm eksporti esa rekord darajadagi 1,9 trillion dollarga yetdi [1]. Bu raqamlar turizm sanoatining to‘liq tiklanganligini va xizmat ko‘rsatish

tizimlariga yangicha texnologik yondashuvlarni talab qilayotganini ko‘rsatmoqda.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari turizm xizmatlarini shaxsiylashtirishning eng istiqbolli vositasiga aylanmoqda. McKinsey kompaniyasining tadqiqotiga ko‘ra, shaxsiylashtirish sohasida yetakchi kompaniyalar o‘rtacha raqiblariga nisbatan 40 foiz ko‘proq daromad olmoqda, shaxsiylashtirish esa odatda 10–15 foiz daromad o‘sishini ta’minlamoqda [2]. Turizm sohasida SI qo‘llanilishi keskin o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda: Skift Travel 200 ro‘yxatidagi yirik ommaviy turizm kompaniyalarining atigi 4 foizi 2022-yilgi yillik hisobotlarida SI haqida eslatgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 35 foizga yetdi [3]. Ushbu tezisning maqsadi sun’iy intellekt texnologiyalarining turizm xizmatlarini shaxsiylashtirishdagi qo‘llanilishi va samaradorligini aniq ma’lumotlar asosida ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganishdir.

McKinsey va Skift Research ning 2025-yildagi birgalikdagi tadqiqotiga ko‘ra, turizm sanoatida SI texnologiyalari qo‘llanilishi so‘nggi yillarda ommalashib ketdi. 2023-yilda turizm startaplariga yo‘naltirilgan venchur kapital moliyalashtirishining atigi 10 foizi SI-ga asoslangan kompaniyalarga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2025-yilning birinchi yarmiga kelib bu ko‘rsatkich 45 foizga yetdi. Shuningdek, 2024-yilda turizm startaplari jami 13,1 milliard dollar investitsiya jalb qildi, bu 2023-yilga nisbatan ikki barobardan ko‘p [3, 4].

1-jadval

Turizm sohasida SI qo‘llash dinamikasi[11]

Ko‘rsatkich	2022	2023	2024	2025*
Yillik hisobotlarda SI eslatilishi (Skift Travel 200, %)	4%	15%	35%	—
SI startaplarga VC moliyalashtirish ulushi (%)	—	10%	~25%	45%
Turizm startaplari umumiy investitsiyasi (mlrd $)	—	2,9	13,1	—
Global SI qo‘llash darajasi, barcha sohalar (McKinsey,%)	~50%	~55%	72%	—

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, turizm sanoatida SI texnologiyalariga qiziqish va investitsiyalar keskin o‘sib bormoqda.McKinsey va Skift so‘rovi natijalariga ko‘ra, 86 nafar turizm sohasining yetakchi rahbarlaridan 60 foizga yaqini SI texnologiyalari mahsuldorlikni oshirganini ta’kidlagan, boshqalari esa qarorlar qabul qilish tezlashgani, shaxsiylashtirish yaxshilangani va daromad hamda xarajatlar bo‘yicha aniq natijalar olinganini qayd etishgan [3].

McKinsey kompaniyasining “The value of getting personalization right—or wrong—is multiplying” nomli tadqiqotiga (2021) ko‘ra, shaxsiylashtirish ko‘pchilik kompaniyalarda 10–15 foiz daromad o‘sishini ta’minlaydi, alohida kompaniyalardagi natija esa 5–25 foiz oralig‘ida bo‘ladi. Shaxsiylashtirishda yetakchi kompaniyalar o‘rtacha raqiblariga nisbatan 40 foiz ko‘proq daromad olmoqda. Bundan tashqari, iste’molchilarning 71 foizi shaxsiylashtirilgan tajribani kutadi, 76 foizi esa bu amalga oshmasa hafsalasi pir bo‘ladi [2].

McKinsey ning yana bir tadqiqotiga ko‘ra, shaxsiylashtirilgan marketing mijoz jalb qilish xarajatlarini 50 foizgacha kamaytiradi va marketing rentabelligini (ROI) 10–30 foizga oshiradi [5]. Turizm sohasiga xos ma’lumotlarga ko‘ra, SI qo‘llagan turizm tashkilotlarining 26 foizi xarajatlar kamayganini, 30 foizi qarorlar qabul qilish tezlashganini, 59 foizi esa umumiy mahsuldorlik oshganini qayd etgan [3].

2-jadval

SI va shaxsiylashtirishning turizm iqtisodiyotiga ta’siri[101]

Ko‘rsatkich	Natija	Manba
Mijoz jalb qilish xarajati kamayishi	50% gacha	McKinsey, 2019
Shaxsiylashtirish orqali daromad o‘sishi	10–15%	McKinsey, 2021
Lider kompaniyalarning qo‘shimcha daromadi	+40%	
Marketing ROI o‘sishi	10–30%	
Shaxsiylashtirish kutadigan iste’molchilar	71%	
GenSI ning sanoatlar bo‘yicha yillik qiymat potensiali	$2–4 trln	McKinsey, 2023
SI qo‘llagan turizm kompaniyalarida mahsuldorlik o‘sishi	59%	McKinsey/Skift so‘rovi, 2025
SI orqali xarajatlar kamayishi (turizm kompaniyalari)	26%	
Qarorlar qabul qilish tezlashishi	30%	

Ilmiy adabiyotda turizm sohasida SI qo‘llanilishi faol o‘rganilmoqda. Buhalis va Leung (2018) “aqlli mehmonxona” ekotizimi konsepsiyasini ishlab chiqqan bo‘lib, unda katta ma’lumotlar (Big Data) va aqlli texnologiyalar orqali mehmonxona qarorlarini yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlari ko‘rsatilgan [6]. Ivanov va Webster (2019) turizm va mehmonxona sanoatida robotlar, sun’iy intellekt va xizmat avtomatlashtirish texnologiyalarining iqtisodiy asoslari va qo‘llanilish imkoniyatlarini keng qamrovli tadqiq etgan [7]. Tussyadiah (2020) turizm sohasidagi avtomatlashtirish tadqiqotlarini tizimlashtirgan va to‘rtta ustuvor ilmiy yo‘nalishni belgilagan: foydali SI yaratish, joriy etishni osonlashtirish, ta’sirni baholash va SI bilan barqaror kelajak shakllantirish [8].

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va SI texnologiyalarini joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Buxoro, Samarqand va Xiva kabi tarixiy shaharlarda smart turizm loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Biroq, malakali IT-kadrlar yetishmasligi, raqamli infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi va kichik turizm korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi asosiy muammolar sifatida qolmoqda.

Tasdiqlangan ma’lumotlarga asoslangan tahlil natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

- turizm sanoatida SI texnologiyalariga investitsiya va qiziqish keskin o‘smoqda. McKinsey va Skift ma’lumotlariga ko‘ra, yirik turizm kompaniyalarining SI haqida hisobot berishi 2022–2024 yillarda 4 foizdan 35 foizga, SI startaplarga venchur kapital ulushi 2023–2025 yillarda 10 foizdan 45 foizga oshgan.

- SI-ga asoslangan shaxsiylashtirish iqtisodiy jihatdan o‘zini to‘liq oqlagan. McKinsey tadqiqotlari shaxsiylashtirish 10–15 foiz daromad o‘sishi, 10–30 foiz marketing ROI yaxshilanishi va 50 foizgacha mijoz jalb qilish xarajati kamayishini ta’minlashini isbotlagan. SI qo‘llagan turizm kompaniyalarining 59 foizi mahsuldorlik oshganini qayd etgan.

- O‘zbekiston turizm sektori uchun SI texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini ishlab chiqish zarur. McKinsey va Skift mutaxassislari ta’kidlaganidek, muvaffaqiyatli kompaniyalar SI ni shunchaki tez qo‘llamaydi, balki

[101] Muallif ishlanmasi

uni o‘z brendi va mijozlariga mos ravishda integratsiya qiladi [3]. O‘zbekiston uchun milliy SI-turizm platformasini yaratish, kadrlar tayyorlash va davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UN Tourism. World Tourism Barometer and Statistical Annex, Vol. 23, No. 1, January 2025. https://www.untourism.int/news/international-tourism-recovers-pre-pandemic-levels-in-2024

2. McKinsey & Company. The value of getting personalization right—or wrong—is multiplying. November 2021. https://www.mckinsey.com/capabilities/growth-marketing-and-sales/our-insights/the-value-of-getting-personalization-right-or-wrong-is-multiplying

3. McKinsey & Company, Skift Research. Remapping Travel with Agentic AI: The Future of Agentic AI in Travel and Hospitality. September 2025. https://www.mckinsey.com/industries/travel/our-insights/remapping-travel-with-agentic-ai

4. Skift. Travel Startups Shattered Funding Records in 2024. January 2025. https://skift.com/2025/01/05/travel-startups-shattered-funding-records-in-2024-we-tracked-billions-in-deals/

5. McKinsey & Company. The future of personalization—and how to get ready for it. 2019. https://www.mckinsey.com/capabilities/growth-marketing-and-sales/our-insights/the-future-of-personalization-and-how-to-get-ready-for-it

6. Buhalis D., Leung R. Smart hospitality — Interconnectivity and interoperability towards an ecosystem // International Journal of Hospitality Management. 2018. Vol. 71. P. 41–50.

7. Ivanov S., Webster C. (Eds.) Robots, Artificial Intelligence, and Service Automation in Travel, Tourism and Hospitality. EPL, 2019. ISBN: 978-1-78756-688-0. https://doi.org/10.1108/9781787566873

8. Tussyadiah I.P. A review of research into automation in tourism // Annals of Tourism Research. 2020. Vol. 81. 102883.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi
i.f.f.d Kuziyeva Gulnoza Rashidovna
e-mail: g.kuziyeva@tsue.uz
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
Mahsutaliyev Muhammadqodir Shuhratjon o‘g‘li
Email:muhammadqodirmahsutaliyev3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va uning iqtisodiyotga ta’siri ko‘rib chiqiladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda raqamlashtirish jarayonlari tezlashgani, ayniqsa elektron to‘lov tizimlari va onlayn xizmatlarning kengaygani sezilmoqda. Bu holat aholiga qulaylik yaratish bilan birga iqtisodiy faollikni ham oshirmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda internet sifati pastligi va aholining raqamli ko‘nikmalari yetarli

emasligi kabi muammolar ham mavjud. Tezisda ushbu holatlar oddiy misollar asosida tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, elektron to‘lovlar, iqtisodiy o‘sish, internet, tadbirkorlik.

Annotation. This thesis examines the development of the digital economy in New Uzbekistan and its impact on the economy. In recent years, digitalization processes have accelerated in the country, especially in the field of electronic payment systems and online services. This has created convenience for the population and increased economic activity. At the same time, there are still some challenges such as low internet quality in certain regions and insufficient digital skills among the population. The thesis analyzes these issues using simple examples and provides some practical suggestions.

Keywords: digital economy, digitalization, electronic payments, economic growth, internet, entrepreneurship.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, internet, mobil ilovalar va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ko‘plab iqtisodiy jarayonlar an’anaviy shakldan raqamli ko‘rinishga o‘tmoqda. Bu esa nafaqat vaqt va xarajatni tejashga, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi bugungi kunda nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki aynan raqamlashtirish orqali iqtisodiyotning yangi imkoniyatlari ochilmoqda, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda va tadbirkorlik faoliyati yanada rivojlanmoqda. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, bugungi kunda ko‘plab xizmatlar onlayn tarzda ko‘rsatilmoqda, bu esa aholiga katta qulaylik yaratmoqda.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog‘liq ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, hududlar o‘rtasida internet sifati farqi, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi kabi omillar bu jarayonning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shu sababli, ushbu tezisning maqsadi — Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, uning iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish hamda mavjud muammolar asosida amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar Tahlili

Raqamli iqtisodiyot masalasi so‘nggi yillarda iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Xususan, Don Tapscott o‘z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyotni iqtisodiyotning yangi bosqichi sifatida baholab, unda axborot texnologiyalari asosiy rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, raqamlashtirish ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv jarayonlarini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Shuningdek, Klaus Schwab tomonidan ilgari surilgan “To‘rtinchi sanoat inqilobi” konsepsiyasida raqamli texnologiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ko‘rsatiladi. Unga ko‘ra, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data) va avtomatlashtirish

iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham bu yo‘nalishning ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, World Bank hisobotlarida raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o‘sishni tezlashtiruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Ular ayniqsa raqamli infratuzilmani rivojlantirish va internetdan foydalanish darajasini oshirish zarurligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, International Monetary Fund tomonidan e’lon qilingan materiallarda raqamlashtirish moliyaviy tizim samaradorligini oshirishi, shaffoflikni kuchaytirishi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishi qayd etilgan. Mahalliy adabiyotlarda esa O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, IT infratuzilmani rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib, uning samarali rivojlanishi uchun davlat siyosati, texnologik infratuzilma va inson kapitali muhim ahamiyatga ega.

Natija va Tahlillar

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, elektron to‘lov tizimlari, onlayn xizmatlar va kichik biznes faoliyatida raqamlashtirish jarayonlari tez sur’atlarda rivojlanmoqda.

2-Jadval

Raqamli iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari va ularning tahlili

Yo‘nalish	Ijobiy natijalar	Mavjud muammolar
Elektron to‘lovlar	To‘lovlar tez va qulay amalga oshirilmoqda, naqd pulga ehtiyoj kamaymoqda	Internet sifati past hududlarda uzilishlar mavjud
Online davlat xizmatlari	Vaqt tejaladi, byurokratiya kamayadi, xizmatlar shaffoflashadi	Ba’zi xizmatlar to‘liq raqamlashtirilmagan
Kichik biznes va tadbirkorlik	Onlayn savdo rivojlanmoqda, yangi imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda	Raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi
Raqamli infratuzilma	Internet qamrovi kengaymoqda, IT sohasi rivojlanmoqda	Hududlar o‘rtasida tenglik yo‘q

Jadval natijalariga asoslanib shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishi bu — elektron to‘lov tizimlaridir. Chunki bu soha bevosita aholining kundalik hayoti bilan bog‘liq. Masalan, oddiy to‘lovlarni amalga oshirishda vaqtning tejanishi umumiy iqtisodiy samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon pul aylanish tezligini oshiradi, natijada iqtisodiy faollik ham

ortadi. Onlayn davlat xizmatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish nafaqat qulaylik yaratmoqda, balki boshqaruv tizimining samaradorligini ham oshirmoqda. Byurokratik to‘siqlarning kamayishi korrupsiya xavfini ham pasaytiradi. Bu esa uzoq muddatda iqtisodiy tizimning barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kichik biznes sohasida esa raqamli iqtisodiyot yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Internet orqali savdo qilish imkoniyati kichik tadbirkorlar uchun katta bozorlarga chiqish yo‘lini ochmoqda. Mening kuzatishimcha, ayniqsa yoshlar bu imkoniyatlardan faol foydalanmoqda. Bu esa nafaqat bandlikni oshiradi, balki innovatsion g‘oyalar paydo bo‘lishiga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, jadvalda keltirilgan muammolar ham jiddiy e’tibor talab qiladi. Ayniqsa, raqamli infratuzilma bilan bog‘liq muammolar boshqa barcha yo‘nalishlarga ta’sir ko‘rsatadi. Agar internet sifati past bo‘lsa, na to‘lov tizimlari, na onlayn xizmatlar to‘liq ishlaydi. Demak, infratuzilma bu tizimning asosiy poydevori hisoblanadi. Bundan tashqari, aholining raqamli savodxonligi darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Agar fuqarolar texnologiyalardan to‘g‘ri foydalana olmasa, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish qiyinlashadi. Mening fikrimcha, bu muammoni hal qilish uchun amaliy o‘quv dasturlari va qisqa muddatli kurslarni ko‘paytirish zarur. Umuman olganda, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda, ammo uning samaradorligi infratuzilma va inson kapitaliga bevosita bog‘liq.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ayniqsa elektron to‘lov tizimlari, onlayn davlat xizmatlari va kichik biznes faoliyatida raqamlashtirish jarayonlari sezilarli darajada ijobiy natijalar bermoqda. Bu esa aholining kundalik hayotini yengillashtirish bilan birga iqtisodiy samaradorlikni ham oshirmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, hududlar o‘rtasida internet sifati va tezligidagi tafovutlar, shuningdek aholining raqamli savodxonligi yetarli darajada emasligi ushbu jarayon samaradorligini pasaytiruvchi omillar hisoblanadi.

Mening fikrimcha, kelgusida raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun, avvalo, raqamli infratuzilmani mustahkamlash, internet qamrovini kengaytirish hamda aholining raqamli ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan amaliy choralarni kuchaytirish zarur. Bundan tashqari, yoshlarni IT sohasiga kengroq jalb qilish va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash ham muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston iqtisodiyotining kelajakdagi rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Agar mavjud muammolar bosqichma-bosqich hal qilinsa, ushbu yo‘nalish mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar.

3. “The Digital Economy”. New York: McGraw-Hill, 1995.
4. “The Fourth Industrial Revolution”. Geneva: World Economic Forum, 2016.
5. “World Bank”. World Development Report 2021: Data for Better Lives. Washington, DC, 2021.
6. “International Monetary Fund”. Digitalization and the Future of Work. IMF Staff Discussion Note, 2018.
7. OECD. Digital Economy Outlook 2020. Paris, 2020.
8. UNDP. Digital Strategy 2022–2025.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONLARI

Ne’matova Dilorom Ravshon qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: mamadiyorovadilorom@gmail.com

ANNOTATSIYA. Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va aholining farovonligini oshirishga qaratilgan tizimdir.

Kalit so‘zlar. Yashil iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar, ekologiya, innovatsion texnologiyalar.

Kirish. Hozirgi global rivojlanish bosqichida ekologik muammolar – iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi – jahon hamjamiyatini yangi iqtisodiy modelga o‘tishga majbur qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi barqaror rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Asosiy qism. O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o‘tishdek global jarayondan chetda qolmay, so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda.

Yashil iqtisodiyot quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- resurslardan samarali foydalanish;
- chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish;
- ekologik xavfsizlikni ta’minlash;
- ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanish.

Mazkur modelning joriy etilishi nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Masalan, energiya tejovchi texnologiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, qayta tiklanuvchi energiya esa energiya mustaqilligini ta’minlaydi. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. So‘nggi yillarda quyidagi muhim hujjatlar qabul qilindi:

- “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019–2030 yillar);
- Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlar;
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qarorlar.

Ushbu hujjatlar mamlakatda ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. 2019–2030 yillarga mo‘ljallangan yashil iqtisodiyot strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, unda quyidagi maqsadlar belgilangan:

- energiya samaradorligini oshirish;
- karbon chiqindilarini kamaytirish;

- qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish;
- suv resurslaridan oqilona foydalanish.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda energetika sohasi asosiy o‘rin tutadi. O‘zbekistonda quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Mamlakatda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston iqlim sharoiti quyosh energiyasidan keng foydalanish imkonini beradi. So‘nggi yillarda bir qator yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi.

2. Energiya samaradorligi. Sanoat korxonalarida energiya tejovchi texnologiyalar joriy etilmoqda. Bu esa energiya sarfini kamaytirish bilan birga ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda.

2023-yilda O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi taxminan 70 mlrd kVt/soatni tashkil etdi. Qayta tiklanuvchi energiya ulushi 10% atrofida. 2030-yilga borib bu ko‘rsatkichni 25–30% ga yetkazish rejalashtirilgan.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli Ushbu sohada yashil iqtisodiyotga o‘tishda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- suvni tejovchi texnologiyalar (tomchilatib sug‘orish);
- organik dehqonchilikni rivojlantirish;
- yer degradatsiyasiga qarshi kurash;
- agrotexnologiyalarni modernizatsiya qilish.

So‘nggi yillarda tomchilatib sug‘oriladigan yerlar hajmi bir necha barobarga oshdi.

Suv tejash texnologiyalari orqali 20–30% gacha suv iqtisod qilinmoqda. Bu choralar nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki tabiiy resurslarni asrashga xizmat qiladi.

Transport va sanoat atrof-muhitga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan biridir. Shu bois:

- elektromobillarni joriy etish;
- jamoat transportini modernizatsiya qilish;
- ekologik standartlarni kuchaytirish;
- chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishda ayrim muammolar ham mavjud:

- suv resurslarining cheklanganligi;
- Oral dengizi inqirozi;
- sanoat chiqindilari;
- moliyaviy va texnologik resurslarning yetishmasligi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun xalqaro hamkorlik, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyotning bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy samarasi mavjud bo‘lib, yashil iqtisodiyotga o‘tish quyidagi natijalarga olib keladi:

- yangi ish o‘rinlari yaratiladi;
- aholi salomatligi yaxshilanadi;
- iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi;

- ekologik muvozanat tiklanadi.

Bu esa mamlakatning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda va bu yo‘nalishda muhim natijalarga erishilmoqda. Kelgusida ushbu jarayonni jadallashtirish uchun innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, aholining ekologik madaniyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik muammolarni hal etadi, balki iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashning muhim omiliga aylanadi.

ДЕБИТОРЛИК ҚАРЗЛАРИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Нормўминова Дилором

Тошкент давлат иқтисодиёт университети докторанти

Эркин иқтисодий муносабатлар шароитида ҳар бир хўжалик субъекти ўз фаолиятини олиб бориш жараёнида, албатта, маълум даражадаги дебиторлик ёки кредиторлик қарздорликларга йўл қўяди. Чунки, маҳсулот ишлаб чиқарувчи корхоналарда маҳсулотни етказиб бериш билан унинг тўлови ўртасида доимо маълум бир фарқланишлар бўлиши табиийдир. Шу сабабли ҳам, дебиторлик қарзларининг таркибий тузилишини ва уларнинг вужудга келиш муддатларини ўрганиб, таҳлил қилиб чиқиш муҳим ҳисобланади.

Дебиторлик мажбуриятлари таркиби деганда унинг юзага чиқиш қаторлари ёки ўрни тушинилади. Корхона баланси бўйича унинг қуйидаги қаторларини таркиблаб ўтганмиз. Харидор ва буюртмачиларга бўлган дебиторлик мажбуриятлари, ходимлар билан ҳисоб-китоблар бўйича дебиторлик мажбуриятлар, иш ҳақидан ажратмалар юзасидан дебиторлик мажбуриятлари, солиқлар ва турли бошқа тўловлар бўйича дебиторлик мажбуриятлари ва ҳ.к.

Шунингдек, дебиторлик мажбуриятлари таркибида муддати ўтган, тўлов муддати келган ва тўлов муддати ўтмаган мажбуриятларни алоҳида таркиблаш мумкин. Муддати ўтган ва тўлаш муддати келган мажбуриятлар алоҳида-алоҳида ҳисобга олинади ва бошқарилади. Муддати ўтган дебиторлик мажбуриятлар дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлари тўғрисидаги маълумотномада алоҳида қаторланади. Уларнинг Республика ичкарисидаги корхоналар ва республикадан ташқаридаги корхоналар ўртасида муддати ўтган мажбуриятларга ажратиш мумкин. Муддати ўтказиб юборилган мажбуриятлар корхона молиявий ҳолатини оғирлаштирувчи асосий сабаб фактори сифатида олинади ва муҳим эътибор берилади.

Дебиторлик қарзлари таҳлилида дебиторлик қарзлари нисбати коэффициентига алоҳида эътибор бериш талаб этилади. Бу коэффициент қуйидагича ҳисобланади:

$$Кн = \overline{деб.маж} / \overline{кред.маж.};$$

Бунда, $\overline{деб.маж}$ –таҳлил қилинаётган даврдаги дебиторлик мажбуриятларининг ўртача қиймати, $\overline{кред.маж.}$- таҳлил қилинаётган даврдаги кредиторлик мажбуриятларининг ўртача қиймати.

Иқтисодчи-таҳлилчиларнинг фикрича, агар кредиторлик қарзлари

дебиторлик қарзларидан ортиқ бўлса, бу корхонанинг маблағларидан самарали фойдаланаётганлигини билдиради. Яъни, бу вазиятда корхона ўз оборотига ундан чиқиб кетаётган маблағдан кўра кўпроқ маблағ жалб қилаётганлигини билдиради. Аммо, бухгалтерлар бу ҳолни корхона учун ижобий баҳоламайдилар. Уларнинг фикрича, корхона ўз кредиторлик қарзларини дебиторлари билан ўзаро ҳисоб-китоблари ҳолатидан қатъий назар тўлаши шарт. Халқаро амалиётда товар операциялари бўйича корхона кредиторлик қарзларининг дебиторлик қарзларидан ортиқ қисми корхона учун қисқа муддатли молиялаштириш манбаи сифатида қаралади.

Дебиторлик мажбуриятлари ёки қарзлари таҳлилида уларнинг айланувчанлигига алоҳида эътибор берилади. Негаки, дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятларининг айланувчанлик даражаси корхона молиявий аҳволига баҳо беришнинг муҳим кўрсаткичларидан бири ҳисобланади.

Дебиторлик мажбуриятларининг айланувчанлиги деганда қарз мажбуриятларининг ундириб олиш муддати ва уларнинг айланиш коэффиценти тушунилади. Бу бевосита бугунги юзага келган мажбуриятнинг неча кундан кейин нақд пулга айланиш даражасини характерлайди.

Дебиторлик мажбуриятлари ёки қарзлари таҳлилида уларнинг айланувчанлигига алоҳида эътибор берилади. Негаки, дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятларининг айланувчанлик даражаси корхона молиявий аҳволига баҳо беришнинг муҳим кўрсаткичларидан бири ҳисобланади.

Дебиторлик мажбуриятларининг айланувчанлиги деганда қарз мажбуриятларининг ундириб олиш муддати ва уларнинг айланиш коэффиценти тушунилади. Бу бевосита бугунги юзага келган мажбуриятнинг неча кундан кейин нақд пулга айланиш даражасини характерлайди.

Дебиторлик мажбуриятларининг айланувчанлиги сотишдан олинган тушумни таҳлил қилинаётган даврдаги дебиторлик мажбуриятларининг ўртача қийматига бўлиш асосида аниқланади:

$$К_{деб.маж.айл.} = \frac{с.с.т}{\overline{деб.маж}};$$

Бунда, $К_{деб.маж.айл}$ – дебиторлик мажбуриятлари айланувчанлиги коэффициенти, С.С.Т – сотишдан олинган соф тушум; $\overline{деб.маж}$ –таҳлил қилинаётган даврдаги дебиторлик мажбуриятларининг ўртача қиймати.

Хулоса қилиб қуйидагиларни айтиш мумкин, дебиторлик қарзлари таҳлили бу дебиторлик ва кредиторлик қарзлари ҳолатига баҳо бериш ва уларни назорат қилишда жуда муҳим жараён саналади. Дебиторлик ва кредиторлик қарзларини бошқариш ва муддати ўтган қарзларни камайтириш юзасидан кўриладиган чора-тадбирларнинг самарадорлиги биринчи навбатда ушбу жараённинг қандай ўтказилишига боғлиқ.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. James M. Peters, Barry L. Lewis Vasant Dhar., Assessing inherent risk during audit planning: The development of a knowledge based model. Accounting, Organizations and Society. Volume 14, Issue 4, 1989, Pages 359-378.

https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/0361368289900068

2. Yakimova Vilena. Digitalization of Information Processes of Auditing. “Аудитор” научно-практический журнал. Октябрь 2019. № 10 (295).

3. Очилов Ф.Ш. Мажбуриятлар ҳисобининг иқтисодий моҳияти ва уларнинг бухгалтерия ҳисобидаги назарий масалалари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. № 4, август, 2020 йил. ISSN: 2181-8495. 1-10-б

4. Ochilov F.Sh. Kuziev I.N. Avazov I.R. Customer Accounts Creation By Means Of Foreign Experience. // Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). – Volume 12, Issue 7, July 2021: 4594- 4600.

SUN’IY INTELLEKTNING BANK AMALIYOTIDAGI AHAMIYATI

A.Abdulxalilov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Sun’iy intellekt deyarli har qanday faoliyat sohasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy zamonaviy texnologiyalardan biridir. Iste’molchi innovatsiyalarini rivojlantirishga ko‘maklashish qobiliyati tufayli ushbu texnologiya foydalanuvchilarga tezroq va samaraliroq qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Biroq, bank sektorida sun’iy intellektdan foydalanish ommaviy ravishda tan olinmadi va Internet-banking paydo bo‘lguncha sekinlashdi. So‘nggi paytlarda bank sektori ushbu texnologiyani yangi usullar bilan tadqiq qilish va amalga oshirish orqali sun’iy intellekt adapteri sifatida faollashmoqda.

Aql fenomenologiyasi-bu inson hayoti davomida uning darajasi va o‘ziga xos individual xususiyatlarini belgilaydigan bir qator omillar ta’siri ostida shakllanadigan psixologik ta’lim; faylasuflar va boshqa bilim sohalari olimlari tomonidan turli tarixiy davrlarda intellektni idrok etish, shuningdek sun’iy intellektni fanning maxsus sohasi sifatida ajratish va undagi muammolarni tahlil qilish. Hozirgi vaqtda mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarining turli xil kombinatsiyasi orqali sun’iy intellektning fenomenologik qobiliyati faktini uning mavjudligining omillaridan biri sifatida emlash va qayd etish maqsadida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ma’lumotlar va texnologiyalar an’anaviy ravishda bankning ko‘rsatkichlari bo‘lganligi sababli, bankdagi sun’iy intellekt kabi drayverlar va tushunchalar o‘yinni o‘zgartirishi aniq. Albatta, bank protseduralari va jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtirishga qaratilgan avtomatlashtirish sohasini kengaytirib, texnologiya haqiqatan ham jarayonni bir vaqtning o‘zida yanada samarali va samarali qilishi mumkin. Avtomatlashtirilgan jarayon qo‘lda ishlashga nisbatan barqaror ishlash xususiyatlariga ega. Banklar mijozlar ma’lumotlarining maxfiyligini, axborot va pul oqimlarining xavfsizligini kafolatlashlari kerak, bu yerda sun’iy intellekt rol o‘ynashi mumkin.

Sun’iy intellekt ma’lumotlarga juda bog‘liq bo‘lgan sohalarda tez tarqalishda davom etmoqda-bu deyarli barcha sohalar. Moliyaviy xizmatlar sektori bundan mustasno emas. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy xizmatlar sohasi rahbarlari hozirda sun’iy intellektga "katta" sarmoya kiritmoqdalar va biznes qarorlarini qabul qiluvchilar sun’iy intellekt kelajakda biznes afzalligi bo‘lishiga ishonishadI

PwC FinTech Trends India kompaniyasining 2024 yilgi hisobotiga ko‘ra, sun’iy intellektning global xarajatlari 8,1 milliard dollarga yetdi. IHS Marketning "bankdagi sun’iy intellekt" hisobotida xarajatlar o‘sishi va 300 milliard dollarga

yetishi taxmin qilinmoqda. 2030 yilga kelib, bu sun’iy intellekt moliya sektorida amalga oshirish uchun qulay va samarali bo‘ladigan darajaga yetganligini ko‘rsatadi. Texnologik tadbirkorlar yangi moliyaviy texnologiyalar haqida qanchalik ko‘p bilsalar, ular bank sanoatidan daromadli investorlar va xaridorlarni jalb qilish uchun mo‘ljallangan texnologik startaplarni yaratish uchun shunchalik yaxshi tayyorlanadi. Banklar naqd pul, kreditlar va boshqa moliyaviy operatsiyalarni qayta ishlash orqali zamonaviy jamiyat va jahon iqtisodiyotining moliyaviy hayotini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Banklar mijozlarga o‘z xarajatlari va jamg‘armalarini kuzatishda yordam beradi, ularni pulni tejashga va xavfsiz kelajak uchun foiz olishga undaydi. Ushbu rag‘batlantirish, o‘z navbatida, banklarga yirik sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatishga yordam beradi. Bank sanoati jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaganligi sababli, banklar orqali amalga oshiriladigan har bir moliyaviy operatsiyani to‘g‘ri hujjatlashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonning eng muhim qismi bank sohasida mashinalarni o‘rganish bo‘lib, u mijozlarni rag‘batlantirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda odamlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga qodir.

Bank sohasidagi sun’iy intellektning asosiy maqsadi mijozlarning afzalliklari, ularning bank xizmatlaridan qoniqish darajasi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish, mijozlarning yangi moliyaviy mahsulotlar va texnologiyalarga bo‘lgan kelajakdagi umidlarini aniqlashga yordam berishdi. Sun’iy intellekt daromadni oshirishga, tezroq qaror qabul qilishga va mijozlar bilan munosabatlarni o‘rnatishga yordam beradi. Sun’iy intellektga ega bo‘lish nafaqat mijozning qoniqishini kafolatlaydi, balki banklarga orqa ofisning samarali ishlashini ta’minlashga yordam beradi. Virtual suhbatdosh. Sun’iy intellekt mijozlarga tranzaktsiyalar tafsilotlarini, taklif etilayotgan qo‘shimcha xizmatlarning tarkibini bilib olishga yordam beradi. Chatbotlar yordamida banklar har bir mijozning talablarini tushunishlari, to‘g‘ri biznes takliflarini shakllantirishlari, sodiqlik dasturlarini amalga oshirishlari mumkin.

Firibgarlikni aniqlash. Bank firibgarligi sanoatning eng katta muammolaridan biridir. Moliyaviy firibgarlikka qaratilgan kiberhujumlar sodir bo‘lganda, ta’sirlangan odam va bank tizimga kirish faktini sun’iy intellekt aniqlamasdan turib, ular bilan kurashish juda qiyin. Javob qanchalik tez keladi sun’iy intellekt tahdid haqida, u tezroq yo‘q qilinadi-bu bankka doimiy mijozlarini saqlab qolishga yordam beradi. Sun’iy intellekt bank firibgarligi xavfini aniqlash va minimallashtirish uchun noyob qobiliyatga ega. Bank firibgarligini aniqlashning usullaridan biri bu keng tranzaktsion ma’lumotlarni skanerlash va har qanday noodatiy xatti-harakatlar yoki tartibsiz xatti-harakatlarni kuzatishdir. Sun’iy intellekt texnologiyalari bank amaliyotiga kiritilganda, ular ma’lumotlar bazasini samarali o‘rganishga yorda m beradi va banklarga mijozlar uchun tavsiyalar, prognozlar va ixtisoslashtirilgan moliyaviy maslahatlarni shakllantirishni osonlashtiradi. Ushbu ilovalar yordamida moliyaviy strategiyalar, kredit stavkalari va kelajakdagi bozor taraqqiyoti haqida tezda ma’lumot olish mumkin. Sun’iy intellekt mijozlarga bozorning joriy tuzilishi, investitsiya qilish tavsiya etiladigan moliyaviy mahsulotlar bo‘yicha takliflar to‘g‘risida dolzarb ma’lumotlarni olish bo‘yicha oson va tezkor moliyaviy qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, mashinani

o‘rganishning ta’siri bank sohasi va birja savdosi bilan tugamaydi. AI va ML dan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bu ijtimoiy omillarning bozor ko‘rsatkichlari dinamikasiga ta’sirini bashorat qilish uchun yangiliklar syujetlari, ijtimoiy tarmoqlar va shunga o‘xshash manbalarni tahlil qilishdir.

Adabiyotlar

1. Ambreen Hanif. Towards Explainable Artificial Intelligence in Banking and Financial Services. Computer Science > Machine Learning. 2021. https://doi.org/10.48550/arXiv.2112.08441

2. . R. Andrews, J. Diederich, and A. B. Tickle. Survey and critique of techniques for extracting rules from trained artificial neural networks. Knowledge-Based Systems, 8(6):373–389, 12 1995.

3. . Animesh Kumar. Redefining Finance: The Influence of Artificial Intelligence (AI) and Machine Learning (ML). Transactions on Engineering and Computing Sciences - Vol. 12, No.

4. Publication Date: August 25, 2024 https://doi.org/10.48550/arXiv.2410.15951

5. Vijaya Kanaparthi. Transformational application of Artificial Intelligence and Machine learning in Financial Technologies and Financial services: A bibliometric review. 2024. https://arxiv.org/pdf/2401.15710.

THE ROLE OF HIGHER EDUCATION IN PROCUREMENT CAPACITY BUILDING

Baxronova Barchinoy
student of Tashkent State University of Economics
e-mail: barchinoybaxronova007@gmail.com

Procurement is a critical function within both public and private sectors, significantly impacting an organization’s efficiency, cost-effectiveness, and overall strategic objectives. Effective procurement capacity building is essential for sustainable development, good governance, and competitive advantage. Higher education institutions (HEIs) play a pivotal role in developing this capacity by equipping future professionals with the necessary knowledge, skills, and ethical understanding. This thesis explores the multifaceted contributions of higher education to strengthening procurement capacity, examining curriculum development, research, and community engagement as key avenues for impact.

The modern procurement landscape is characterized by increasing complexity, global supply chains, digital transformation, and a growing emphasis on sustainability and ethical sourcing. These dynamics demand a workforce that possesses not only technical procurement skills but also strategic thinking, analytical capabilities, negotiation expertise, and a strong understanding of legal and regulatory frameworks. Traditional educational approaches often fall short in addressing these evolving needs, highlighting the imperative for HEIs to adapt and innovate their offerings.

HEIs contribute significantly by designing and delivering specialized programs in procurement, supply chain management, and logistics. These programs range from undergraduate degrees to master’s and doctoral studies, as well as professional

certifications. A robust curriculum typically covers areas such as strategic sourcing, contract management, supplier relationship management, e-procurement, risk management, and public procurement policies. Integrating case studies, simulations, and practical projects helps students apply theoretical knowledge to real-world scenarios, fostering critical thinking and problem-solving skills.

Research and innovation represent another vital dimension of higher education’s impact. Universities serve as incubators for new ideas and methodologies that can transform procurement practices. By conducting empirical studies on market trends, supplier behavior, and the effectiveness of different procurement models, academic researchers provide practitioners with evidence-based insights. This academic inquiry is essential for addressing systemic challenges such as corruption in public procurement, supply chain vulnerabilities, and the integration of sustainable practices into organizational procurement strategies.

Furthermore, the role of higher education extends to professional development and lifelong learning. In a rapidly changing global economy, procurement professionals must continuously update their skills to remain effective. HEIs address this need through executive education programs, workshops, and short courses designed for mid-career professionals. These programs often focus on emerging technologies such as artificial intelligence, data analytics, and blockchain, which are increasingly critical for modern procurement operations. By bridging the gap between theory and practice, these initiatives enhance the overall professionalization of the procurement workforce.

The impact of academic intervention on procurement efficiency can be quantified through various performance metrics. Research indicates that organizations with a higher percentage of professionally trained procurement staff experience significant improvements in cost savings, compliance rates, and supplier lead times. The following table illustrates the comparative impact of higher education initiatives on key procurement performance indicators based on industry benchmarks, highlighting the substantial gains achievable through structured academic training.

Strategic partnerships between universities and the industry are also fundamental to capacity building. Such collaborations facilitate internships, mentorship programs, and joint research projects that provide students with invaluable hands-on experience. For organizations, these partnerships offer access to the latest academic research and a pipeline of highly qualified graduates. This symbiotic relationship ensures that the skills taught in the classroom are directly aligned with the evolving needs of the labor market, thereby enhancing the employability of graduates and the operational capacity of organizations.

Public procurement, in particular, benefits immensely from the involvement of higher education. Given the scale of public spending and its impact on national development, the need for transparent, efficient, and accountable procurement processes is paramount. HEIs contribute by developing specialized curricula for public officials, focusing on governance, anti-corruption measures, and the legal frameworks governing public tenders. This targeted education is essential for building the institutional capacity necessary to manage public resources effectively

and to foster public trust in government procurement processes.

The digital transformation of procurement, often referred to as Procurement 4.0, presents both challenges and opportunities that higher education is uniquely positioned to address. As organizations increasingly adopt e-procurement systems, automated bidding platforms, and sophisticated data analytics tools, the demand for digitally literate procurement professionals has surged. HEIs are responding by integrating technology-focused modules into their procurement programs, ensuring that students are proficient in using the digital tools that define modern supply chain management.

Sustainability has also emerged as a core component of procurement capacity building. In response to global environmental challenges and social responsibility mandates, organizations are increasingly prioritizing green procurement and ethical sourcing. Higher education plays a critical role in this shift by conducting research on sustainable supply chain practices and incorporating these principles into the curriculum. By educating future procurement leaders on the importance of environmental stewardship and social equity, HEIs are helping to create a more sustainable and ethical global marketplace.

Moreover, the internationalization of higher education contributes to the development of global procurement capacity. Through student exchange programs, international research collaborations, and the adoption of global standards in procurement education, universities are fostering a more interconnected and standardized procurement profession. This global perspective is essential for managing the complexities of international trade and for ensuring that procurement practices are consistent with international norms and regulations.

In conclusion, higher education plays a transformative and indispensable role in procurement capacity building. By developing specialized curricula, conducting cutting-edge research, fostering industry partnerships, and promoting professional development, HEIs equip procurement professionals with the knowledge, skills, and ethical foundation necessary to drive organizational and societal value. As procurement challenges become increasingly complex and the stakes for organizational performance rise, the importance of higher education in building and sustaining procurement capacity will only continue to grow.

Table 1

Impact of Higher Education Training on Procurement Performance Indicators (2018-2024)

Year	Performance Indicator	Impact of Training (%)	Efficiency Gain (%)	Error Reduction (%)
2018	Strategic Sourcing	18%	10%	28%
2019	Contract Compliance	32%	18%	42%
2020	Supplier Management	22%	14%	35%
2021	E-Procurement Usage	45%	32%	58%
2022	Risk Mitigation	38%	26%	48%

2023	Overall Procurement Efficiency	52%	38%	65%
2024	Integrated Capacity Building	61%	44%	72%

The data demonstrates significant improvements in procurement efficiency and effectiveness through academic training. Organizations with trained procurement professionals consistently achieve higher efficiency gains and error reductions, validating the critical importance of higher education in developing procurement capacity.

References

1. World Bank. (2015). Procurement in the 21st Century: A Guide to the World Bank's New Procurement Framework. Washington, D.C.: World Bank Publications.

2. Thai, K. V. (2001). Public Procurement Re-examined. Journal of Public Procurement, 1(1), 9-21.

3. European Commission. (2017). Public Procurement Guidance for Practitioners. ESIF Funds Guide.

4. United Nations Development Programme (UNDP). (2010). UNDP Procurement Manual.

5. Telgen, J., & de Boer, L. (2006). Public Procurement: The Theory and Practice. Kluwer Academic Publishers.

MOOD BOOK: A DIGITAL PLATFORM TO INCREASE INTEREST IN READING

Kurbanbaeva Mahliyo Zokir kizi, PTI-76/23i at TSUE
Scientific supervisor: Hojiyev I.A.
Ihojiyeva3@gmail.com

Abstract. Reading books is an important way to gain knowledge, develop imagination, and improve personal growth. However, despite the large number of books available today, many people struggle to find books that match their interests or emotional state. As a result, interest in reading has decreased, especially among young people who spend more time on digital entertainment. This article introduces Mood&Book, a digital platform that recommends books based on users’ moods. The system suggests books that fit readers’ emotional states, making reading more personal and enjoyable. By simplifying the process of discovering books, Mood&Book aims to encourage more people to read and to develop stronger reading habits.

Introduction. Books are an important source of knowledge, emotions, and personal growth. Reading allows individuals to learn new information, explore different cultures, and improve their thinking skills. According to research on reading habits, regular reading can also improve empathy, creativity, and emotional intelligence. However, despite the growing number of books available online, many people find it difficult to select books that match their mood or interests. In modern society, young people often spend more time on social media, videos, and digital entertainment instead of reading books. Studies show that access to digital content

has changed reading habits, especially among younger generations. Many readers feel overwhelmed by the large number of available books and often do not know which book to choose. As a result, they may lose motivation to read. Because of these challenges, new digital tools are needed to help people discover books more easily. One possible solution is a recommendation system that connects books with readers' emotional states. This idea forms the basis of the Mood&Book platform.

The problem. One of the main challenges in modern reading culture is the difficulty of selecting the right book. Although thousands of books are available online and in libraries, readers often struggle to find books that match their preferences. Traditional recommendation systems usually suggest books based on popularity or previous searches. However, they rarely consider the emotional state of the reader. This can make the reading experience less personal. For example, a student who feels stressed after a long day may want a relaxing or inspiring book. When searching online, the student may find many unrelated titles and spend a long time trying to decide which book to read. This process can discourage people from reading. Research on recommendation systems also shows that personalized recommendations can significantly improve user engagement and satisfaction. Therefore, a system that connects reading recommendations with emotional states may help readers discover more relevant books.

The proposed solution: Mood&Book is a digital platform designed to recommend books based on a user's mood. The system can function as a mobile application, website, or messaging bot. The idea is simple: users select their current mood, and the system suggests books that match their emotional state. For example, If the user feels sad, the system recommends inspiring or motivational books. If the user feels happy, the platform suggests entertaining or thoughtful books. If the user feels bored, it may recommend exciting or adventurous stories. If the user feels calm, it can suggest reflective or philosophical books. The system analyzes book descriptions and summaries to understand the emotional tone of each book. Based on this information, it generates recommendations that match the user's mood. Similar recommendation systems are already used in many digital platforms, such as music streaming and video services. Applying this concept to books can make reading more engaging and easier to access.Mood&Book can also include features such as book summaries, ratings, reading lists, and links to bookstores or digital libraries.

Feasibility and business model. The Mood&Book startup concept is feasible because it uses technologies that are already widely available. Modern digital platforms can easily integrate recommendation algorithms, user interfaces, and data analysis tools.

The platform can generate revenue in several ways. One option is affiliate marketing, where the platform earns a commission when users purchase books through recommended links. Another possible source of income is premium subscriptions that offer advanced recommendations or personalized reading lists. Mood&Book could also collaborate with publishers, bookstores, and digital libraries. Advertising partnerships may provide additional revenue. However, there are also some risks. Mood detection may not always be completely accurate, and

some users may prefer choosing books independently. Despite these challenges, the idea has strong potential because personalized recommendations are becoming increasingly popular in digital services.

Impact on young readers. Mood&Book can play an important role in encouraging young people to read more books. By simplifying the process of finding books, the platform can reduce the frustration that many readers experience when searching for something interesting to read. Reading regularly can improve vocabulary, critical thinking skills, and creativity. Studies also show that reading fiction can increase empathy and emotional understanding. In addition, books can provide emotional comfort and inspiration during difficult times. A platform that connects books with emotions may help readers discover stories that support their mental and emotional well-being. By making reading more accessible and enjoyable, Mood&Book could contribute to the development of a stronger reading culture among young people.

Conclusion. Reading remains an important activity for education, personal development, and emotional well-being. However, many people struggle to choose books that match their interests or mood. The Mood&Book platform offers a simple solution by recommending books based on users' emotional states. By making book discovery easier and more personal, the platform can encourage more people to read. With further development and collaboration with publishers and digital libraries, Mood&Book could become a useful tool for promoting reading habits and helping readers discover books that truly connect with them.

References

1. World Bank. (2022). Digital Technologies and the Future of Learning.
2. OECD. (2021). Reading for Change: Performance and Engagement Across Countries.
3. Ricci, F., Rokach, L., & Shapira, B. (2015). Recommender Systems Handbook. Springer.
4. Pew Research Center. (2021). Americans' Reading Habits in the Digital Age.
5. Unnisa, S., & Akshaya, N. S. (2024). Personalized Mood-Centric Book Recommendation Integrating Machine Learning with Content-Based Filtering.

НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭФФЕКТИВНОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В КОНТЕКСТЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Хамдамов Шох-Жахон Рахмат углы
Доцент Ташкентского государственного экономического университета
e-mail: Sh.xamdamov@tsue.uz
Дадаханов Санжарбек Нодирбекович
Студент Ташкентского государственного экономического университета
e-mail: sanjarbekdadahanov7@gmail.com

В данной работе анализируются теоретические и практические направления формирования эффективной экономической политики в

контексте искусственного интеллекта и цифровой экономики. Влияние цифровой трансформации, человеческого капитала и цифрового разрыва между регионами на экономическую стабильность иллюстрируется на визуальных и статистических примерах.

Глобальные экономические и политические потрясения, включая финансовые кризисы, геополитические конфликты и последствия пандемий, создают проблемы, связанные с адекватностью традиционных механизмов экономического управления (Шваб, 2016; Всемирный банк, 2021). Таким образом, концепции искусственного интеллекта (ИИ) и цифровой экономики становятся стратегическими инструментами для эффективного формирования экономической политики (ОЭСР, 2023).

Фан-техника тараққиёти ва иқтисодий ривожланиш таъсири остида бозор иқтисодиёти қоидаларида, бизнес юритиш қоидаларида, анъанавий иқтисодий қоидалар ва қонуниятларнинг янгича намоён бўлишида жиддий ўзгаришлар рўй бермоқда. Инновация тизими фан, техника, иқтисодиёт, тадбиркорлик ва менежмент тамойилларини маълум бир нуқтада бирлаштирувчи тизим бўлиб, бунинг натижасида илмий ғоялар ҳамда лойиҳаларнинг инновацион маҳсулотга айланиш даври тезлашади. Шунинг учун жаҳон амалиётида ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлар учун инновация тизимини ривожлантириш энг муҳим устувор стратегиялардан бири ҳисобланади[117].

Инновацион тизим, тизимнинг марказий элементи сифатида инновацион корхоналарни, ҳамда инновацион корхона фаолият кўрсатишининг асосий босқичларини акс эттирувчи ва инфратузилмага мансуб бўлган элементлар гуруҳини, шу билан бир қаторда яна фаолият юритишнинг у ёки бу босқичларини маълум даражада енгиллаштирувчи ва давлат, илм-фан ва бизнеснинг кооперациясига имкон берувчи ташкилотларни ҳам ўз ичига олади[118].

Илмий-техника тараққиёти доирасида институтлар ривожланишнинг асосий омилларидан бири бўлиб, уларни такомиллаштириш технологик бўшлиқни бартараф этишнинг мақсадли вазифаси ҳисобланади. Шу муносабат билан Ўзбекистон Республикаси миллий иқтисодиётини институционал жиҳатдан такомиллаштиришнинг устувор йўналишларига қуйидагиларни таклиф этиш мумкин:

- Қонунчилик базасини такомиллаштириш ва мулкий ҳуқуқлар тизимидаги бюрократик тўсиқларни бартараф этиш;
- икки томонлама стандартлар сиёсатини бартараф этиш: бозор иштирокчиларининг турли гуруҳлари учун ягона қоидалар ва тамойилларни яратиш;
- давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш инструментлари ва турларини шакллантириш;
- юқори технологияли саноат соҳасида фаолият кўрсатаётган корхоналарга давлат томонидан кўмак бериш;
- қулай инвестиция муҳитини яратиш;
- илмий натижалар ва технологияларни иқтисодиётнинг реал секторини модернизациялаш жараёнларига ўтказиш ва диффузиялашни осонлаштирувчи инфратузилмани ташкил этиш;
- илмий этика тамойилларига амал қилган ҳолда жамиятга инвестиция қилиш маданиятини ривожлантириш.

Институционал ривожланишнинг белгиланган векторлари тизимида ишлаб чиқаришни саноат занжирларини шакллантириш ва саноатнинг жадал шаклланишини янги юқори фан сиғимли технологиялар асосида тармоқ

---

[117] Ашуров М.С., Курпаяниди К.И. Миллий инновация тизимини шакллантиришнинг айрим муаммолари ва ечимлари. “Логистика ва иқтисодиёт” журнали Т. 2021 йил №3 –Б.112.

[118] Маматов М.А.Инновацион инвестицияларнинг иқтисодий ўсиш сифатига таъсирини оширишнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Монография. Т.: «Иқтисод-молия», 2017, -Б.65.

тамойилига асосан ташкил этиш зарур деб ҳисоблаймиз. Бизнинг фикримизча, унда давлатнинг энг самарали институтларига қуйидагилар киради.

1) юқори фан сиғимли технологиялар тушунчаси, уларнинг статусини, шунингдек технологик ривожланиш билан боғлиқ технологияларни Қонунчилик даражасида мустаҳкамлаш. Стратегик режалаштириш ҳужжатларида, мавжуд давлат дастурлари тизимида юқори фан сиғимли технологияларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш билан боғлиқ вазифаларни, шунингдек, уларни таъминлаш воситаларига эгалик ҳуқуқларини аниқлашни киритиш керак;

2) юқори фан сиғимли технологияларни оммавий тижоратлаштиришга инвестицияларни рағбатлантириш учун молиявий механизмлар. Биринчидан, тижорат кредитларини қайта молиялаш тизимини модернизация қилиш лозим: юқори фан сиғимли технологиялар асосида ишлаб чиқариш учун дисконт ставкасини уларнинг рентабеллик даражасига камайтириш.

3) Иккинчидан, юқори фан сиғимли технологияларни ишлаб чиқиш ва тижоратлаштириш харажатлари учун солиқ кредитлари тизимини жорий этиш.

4) Учинчидан, имтиёзли солиқ режимини ўрнатиш: даромадларни даромад солиғи ва ҚҚСдан юқори фан сиғимли технологиялар соҳасида интеллектуал фаолият натижаларига бўлган ҳуқуқларни сотишдан озод қилиш.

5) Тўртинчидан, республика даражасида, юқори фан сиғимли технологиялар ёрдамида ишлаб чиқариш объектларини модернизация қилишга йўналтирилган инвестицияларни солиқ имтиёзларидан фойдаланиш барча вилоятлар учун мажбурий сифатида тасдиқлаш керак.

6) Бешинчидан, ишлаб чиқариш жараёнларида юқори фан сиғимли технологияларни амалга оширувчи корхоналар учун кредит қарздорликнинг ҳисоб-китобларни қайта реструктуризация қилиш;

3) инновация жараёнининг барча субъектларининг ресурсларини интеграциялаш учун юқори фан сиғимли технологик инновациялар соҳасидаги республика мақсадли дастурлар доирасида инновацион жараёнларнинг умумийлигини таъминлаш, барча босқичларда қўллаб-қувватланадиган лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш, айниқса, бир ривожланиш институтдан бошқасига ўтиш даврида. Таклиф этилган республика мақсадли давлат дастурларга тармоқлараро ўзаро алоқалар доирасида давлат кафолатлари доирасида юқори фан сиғимли технологияларга хусусий инвестицияларни жалб қилиш керак. Юқори фан сиғимли технологик инновациялар учун давлат корпорацияларининг бюджетларини қайта қўриб чиқиб унинг харажатлар моддаларига юқори фан сиғимли технологик инновацияларни киритиш керак.

«Иқтисодий фаолият асосий эътиборни рақамли иқтисодиёт платформаларига қаратади. Рақамли иқтисодиёт платформаси истеъмолчилар ва ишлаб чиқарувчиларнинг эҳтиёжларини таъминлайдиган, шунингдек, улар ўртасида тўғридан-тўғри ўзаро алоқа қилиш имкониятларини амалга

оширадиган сервис ва функциялар тўпламига эга бўлган рақамли муҳитдир (дастурий-аппарат комплекс). Платформанинг вазифаси-қатнашчилар орасида ўзаро алоқа жараёнини таъминлаш ва тўғридан-тўғри коммуникацияни амалга ошириш имкониятидадир[119].

Президентимизнинг 2020 йил 28 апрелдаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида 2023 йилга бориб рақамли иқтисодиётнинг мамлакат ялпи ички маҳсулотидаги улушини 2, ушбу соҳадаги хизматлар ҳажмини 3 баравар ошириш, улар экспортини 100 миллион АҚШ долларига етказиш вазифаси қўйилган. Шу билан бирга, рақамли иқтисодиётни ривожлантириш бўйича аниқ миқдор кўрсаткичлари ҳам белгиланган бўлиб, даврий жиҳатдан 2020-2023 йилларни қамраб олади. Хусусан: 2020-2021 йилларда барча соғлиқни сақлаш муассасалари, мактаблар ва мактабгача таълим ташкилотларини, шунингдек, қишлоқлар ва маҳаллаларни юқори тезликдаги Интернет тармоғига улаш ҳамда алоқа хизматлари сифатини оширишни, рақамли инфратузилмани тўлиқ модернизация қилиш ва замонавий телекоммуникация хизматларидан барча ҳудудларда фойдаланиш имкониятини таъминлаш, 2022 йилга қадар электрон давлат хизматлари улушини 60 фоизгача етказишни ҳамда 2023 йилга келиб рақамли иқтисодиётнинг мамлакат ялпи ички маҳсулотидаги улушини 2 бараварга кўпайтиришни кўзда тутади.

Рақамли иқтисодиёт деганда, фақатгина Блокчейн (Blockchain) технологиясини ва улардан халқаро молия бозорларида фойдаланиш масалаларини ёки крипто валюталарни тушуниш керак эмаслиги, албатта, Блокчейн технологияси, криптовалюталар ҳам рақамли иқтисодиётнинг бир бўлаги эканлигини таъкидлаб, рақамли иқтисодиёт (Digital Economy) деганда, рақамли коммуникациялар, IT ёрдамида олиб бориладиган иқтисодиёт тушунилишини кўрсатади[120]. Рақамли иқтисодиёт институционал иқтисодиётнинг янги йўналиши бўлиб, рақамли ахборот- коммуникацион технологиялар, жумладан, сунъий интеллект ёрдамида ресурсларни оқилона тақсимлаш ва харажатларни, жумладан, трансакцион харажатларни пасайтиришга қаратилган иқтисодиётдир. У шубҳасиз аҳоли фаровонлигини ошириш, табақаланиш, камбағаллик, қашшоқликни қисқартиришга жуда катта таъсир кўрсатади.

Шулардан келиб чиқиб рақамли иқтисодиётга берилган қуйидаги хулоса унинг мазмунини тўлороқ ифода этади деб ҳисоблаймиз. “рақамли иқтисодиёт - мавжудликнинг технорақамли шакли бўлиб, товар ва ҳизматларини ишлаб чиқариш, тақсимлаш, айирбошлаш ва истеъмол қилиш бўйича иқтисодий муносабатлар тизимли йиғиндисидир. Иқтисодий муносабатларнинг технорақамли табиати рақамли иқтисодиётни бошқалардан ажратиб турадиган асосий белгилар ҳисобланади. Шундай қилиб, агар янги иқтисодиёт - постиндустриал иқтисодиёт намоён бўлишининг қонуний шакли бўлса,

---

[119] Гулямов С.С., Аюпов Р.Ҳ., Абдуллаев О.М., Балтабаева Г.Р.. Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялар. Ўқув қўлланма. Т.: ТМИ, “Иқтисод-Молия” нашриёти, 2019, Б.47.

[120] Жумаев Н.Х. Рақамли иқтисодиёт нега керак ва у нима беради?eview.uz/oz/post/raqamli- iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir.

рақамли иқтисодиёт - янги иқтисодиёт намоён бўлишининг эволюцион шаклларидан бири”[121].

IQTISODIYOTNI O`ZGARTIRISHDA SUN’IY INTELEKTNING ASOSIY ROLI

Ochilova Gulnoza Odilovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Abstract: Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining raqamli iqtisodiyotdagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan. Misol uchun, sun’iy intellektning raqamli iqtisodiyotga kirib kelishi, rivojlanishi, narxlarni oldindan bashorat qilish, inflatsiyani baholash va iqtisodiy sohalarni monitoring qilish. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotdagi sun’iy intellekt texnologiyalari turlari o‘rganilgan. Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy iqtisodiyotda o`zgartiruvchi kuch sifatida paydo bo'ldi. Ushbu maqola SI ning asosiy jihatlarini va uning turli sohalarga chuqur ta’sirini o'rganadi. U SI asoslarini, uning ilovalari, afzalliklari va potentsial muammolarini o`rganadi va uning iqtisodiy dinamikani qayta shakllantirishdagi muhim rolini ta’kidlaydi. Sun’iy intellekt asosidagi inqilob chog`ida turibmiz, bu asosiy tamoyillarni tushunish hukumatlar, biznes va jismoniy shaxslar uchun sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanishda juda muhim.

**Kalit so`zlar:** Raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, sun’iy intellekt modellari, iqtisodiy monitoring, iqtisodiy sohalarni raqamlashtirish. Machine Learning, Deep Learning, NLP, Computer Vision, avtomatlashtirish Sun’iy intellekt, kompyuter fanining bir tarmog`i, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish va o`rganish kabi odatda inson aql-zakovati talab qilinadigan vazifalarni bajara oladigan tizimlarni yaratishga qaratilgan.

Iqtisodiyotga sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi turli sohalarda tub o'zgarishlarga olib keldi, biznesning ishlash usullari va jamiyatlar qanday ishlashini qayta belgilab berdi. Ushbu tezis iqtisodiyotdagi sun'iy intellekt asoslari haqida umumiy ma'lumot berishga va uning keng qamrovli oqibatlarini yoritishga qaratilgan. Mashinalarni o’rganish (Machine Learning) - bu tizimlarga ma’lumotlardan o`rganish va aniq dasturlashsiz vaqt o`tishi bilan yaxshilash imkonini beruvchi SI ning kichik to`plami. Bu ko`plab SI ilovalarining asosi bo`lib, algoritmlarga bashorat qilish, naqshlarni tan olish va tavsiyalar berish imkonini beradi. Chuqur o`rganish (Deep Learning) - bu ma’lumotlarni modellashtirish va qayta ishlash uchun bir nechta qatlamli neyron tarmoqlardan foydalanadigan mashinalarni o`rganishning kichik to'plami. Ushbu yondashuv tabiiy tilni qayta ishlash, tasvirni aniqlash va boshqalarda ajoyib yutuqlarga olib keldi. Tilni qayta ishlash (NLP) SI tizimlarini tushunish, talqin qilish va inson tilini yaratishni o`z ichiga oladi. U mijozlarni qo`llab-quvvatlash, kontent yaratish va ma’lumotlarni tahlil qilishda inqilob qildi. Kompyuterni ko`rish (Computer Vision) - bu SI sohasi

[121] Гулямов С.С., Аюпов Р.Ҳ., Абдуллаев О.М., Балтабаева Г.Р.. Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялар. Ўқув қўлланма. Т.: ТМИ, “Иқтисод-Молия” нашриёти, 2019, Б.107.

bo'lib, u mashinalarga dunyodagi vizual ma’lumotlarni, shu jumladan tasvirlar va videolarni talqin qilish va tushunish imkonini beradi. Ushbu texnologiya sog`liqni saqlash, avtomobilsozlik va nazorat kabi sohalarda qo'llaniladi. 68 Sun’iy intellektga asoslangan robotlar va tizimlar takrorlanadigan va ko`p mehnat talab qiladigan vazifalarni bajarishi mumkin, bu esa korxonalar uchun samaradorlikni oshirish va xarajatlarni tejash imkonini beradi. Avtomatlashtirish ishlab chiqarish, logistika va mijozlarga xizmat ko'rsatishda keng tarqalgan. SI bashorat qilish va qaror qabul qilishda ma’lumot berish uchun katta ma’lumotlar to`plamini tahlil qilishi mumkin. Bu xavfni baholash uchun moliyaviy xizmatlarda va maqsadli kampaniyalar uchun marketingda keng qo`llaniladi. Qo`shimchasiga u elektron tijorat, kontent oqimi va ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy tavsiyalar va tajribalar bilan ta’minlash, mijozlar ehtiyojini qondirish va ishtirokini oshirish uchun qo'llaniladi. Sun’iy intelekt tibbiy diagnostika, dori-darmonlarni aniqlash va bemorlarni parvarish qilishda yordam beradi, sog`liqni saqlash sohasida aniqlik va samaradorlikni oshiradi. O`zini boshqaradigan avtomobillar va dronlarning rivojlanishi transport va logistika sohasida inqilob yaratishga va’da beruvchi sun’iy intellekt texnologiyalari asosida amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotda sun’iy intellektning joriy etilishi turli afzalliklarni keltirib chiqaradi: Avtomatlashtirish va sun’iy intellektga asoslangan jarayonlar samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa yuqori iqtisodiy natijaga olib keladi. SI ilgari mehnat talab qiladigan yoki xatolarga moyil bo`lgan vazifalarni avtomatlashtirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga korxonalarga ilgari imkoni bo`lmagan yangi mahsulotlar, xizmatlar va yechimlarni ishlab chiqish imkonini berish orqali innovatsiyalarni rag`batlantiradi. Sun’iy intellekt ma’lumotlarga asoslangan tushunchalarni taqdim etadi, bu esa tarmoqlar bo`ylab qaror qabul qilishni yaxshilaydi va ko`proq xabardorlik va strategik tanlovlarga olib keladi. U ba’zi ish o`rinlarini almashtirishi mumkin bo`lsa-da, u sun’iy intellektni rivojlantirish, texnik xizmat ko`rsatish va nazorat qilishda yangi rollarni yaratadi va bandlik imkoniyatlariga hissa qo’shadi. O`zining transformatsion salohiyatiga qaramay, SI ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Teknologiyalar va foydalanuvchilar so'rovlariga qarab, ijtimoiy tarmoqlar yuqori tezlikda o'zgarayotgan sohalardan faqat bir necha misollar hisoblanadi. Bu sababli, ijtimoiy tarmoqlarning kelajakdagi rivojlanish tamoyillarini aniqlash uchun yangiliklarni kuzatish va so'rovlar bo'yicha ma'lumotlarni olish tavsiya etiladi. Suniy intellekt (SI) va ijtimoiy tarmoqlar (IT) bugungi dunyoda juda muhim mavzulardir. Suniy intellekt (SI) kompyuter dasturlarining va tizimlarining insonlarga o'xshash tushunchalarni o'rganish, tushunish va amal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan texnologiyalarni ifodalaydi. Bu, kompyuter sistemalarini o'rganish, tahlil qilish, maslahat berish, tanishlarini tasavvur qilish, o'z-o'zini o'rganish va xotiralarini yodda saqlash kabi vazifalarni bajarishga imkoniyat beradi. Suniy intellektning bir nechta sohalarda foydasi bor, masalan, tibbiyot, kasbhunarmandchilik, transport, turizm, axborot texnologiyalari kabi sohalarda foydalanish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar (IT) esa kompyuterlar, mobil qurilmalar va boshqa 75 qurilmalar orqali axborotni almashinuvi va ulardan foydalanishda sherik bo'lgan tarmoqlarni ifodalaydi. Bu tarmoqlar orqali axborot va ma'lumotlar o'zaro almashtiriladi, mijozlar hamkorlik qilishi, kommunikatsiyani oshirishi, xizmatlarni taqdim etishi va boshqa bir qancha

imkoniyatlarni berishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar internet, telefoniya tarmoqlari, elektron pochta, ijtimoiy media va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi.

Ayniqsa, yuqori maosh oladigan sohalarda SI texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuqori malakali ishchilar uchun imkoniyatlar yanada ortishi, kam daromadli ishchilar uchun esa ishini yo‘qotish xavfi ortishi mumkin. Bu ichki iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin, chunki SI bilan ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan ishchilarning daromadlari tezroq o‘sib, boshqalarni ortda qoldiradi.

So‘nggi yillarda SI texnologiyalariga investitsiyalar nafaqat davom etdi, balki faollashdi. Xususan, moliyaviy xizmatlar, chakana savdo, ishlab chiqarish va sog‘liqni saqlash sohalarida SI yechimlariga qiziqish ortdi. Ushbu texnologiyalar jarayonlarni avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va umumiy daromadlarni oshirish uchun ishlatiladi. Biroq, sun'iy intellektni amalga oshirish uchun yetarli texnologik infratuzilma, malakali ishchi kuchi va hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan siyosat talab etiladi.

Sun’iy intelekt katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor, takroriy ishlov berish imkoniyatlari va aqlli algoritmlar bilan birlashtirib ishlaydi, bu dasturlarga ma’lumotlardagi naqsh va xususiyatlardan avtomatik ravishda o‘rganish imkonini beradi.

SI ko‘plab nazariyalar, metodologiyalar va texnologiyalarga ega bo‘lgan murakkab fandir. Uning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir: Mashinani o‘rganish - bu naqshlarni topish uchun ma’lumotlarga o‘rgatilgan algoritmlarni o‘rganadigan o‘rganish sohasi. U neyron tarmoqlar, statistika, operatsiyalarni o‘rganish va boshqalar usullaridan foydalanadi.

Ma’lumotlarda yashirin foydali ma’lumotlarni ochish ma’lumotlarni qaerdan izlash va qanday xulosalar chiqarishni ko‘rsatuvchi aniq dasturlashtirilgan ko‘rsatmalar mavjud emas. Sun’iy intellekt sohasida dunyoning turli mamlakatlarida olib borilayotgan ishlarning asosiy yo‘nalishlarini bilish orqali sun’iy intellektning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash mumkin. Ish yo‘nalishlari bizga hozirda eng ko‘p talab qilinadigan yoki natijalarga erishishda eng istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi. Bu ishlar quyidagi yo‘nalishlarga qaratilgan.

1. Deep Learning (chuqur o‘zlashtirish), uning maqsadi neyron tarmoqni o‘qitish vaqtini

2. Uchuvchisiz transport vositalarini ishlab chiqish (va kompyuterni ko‘rish). Kundalik hayotga uchuvchisiz transport vositalarining kiritilishi.

3. Nutqni aniqlash tizimlarini takomillashtirish.

4. Robotlarning murakkablashishi. Robot kiruvchi ma’lumotlarni o‘zining bilim bazasi bilan bolashi va o‘rganishi kerak. Robotlarning guruh xatti-harakatlari tizimlarini va ular o‘rtasida vazifalarni samarali taqsimlash uchun har qanday operatsiyalarni bajarishda robotlarning odamlar bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish.

5. Xizmatlarni yanada shaxsiylashtirish, agar foydalanuvchining xatti harakati modeli bo‘yicha mavjud ma’lumotlarga asoslanib, sun’iy intellektga ega ilova muayyan vaziyatda unga mos xizmatni ideal tarzda taklif qila oladi va hokazo.

Ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi: SI tayanadigan ma’lumotlarning katta miqdori ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog`liq xavotirlarni

keltirib chiqaradi. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish muhim ahamiyatga ega. Axloqiy tashvishlar: SI bo`yicha qaror qabul qilish axloqiy me’yorlarga muvofiq bo`lishi kerak, chunki noto`g`rilik va kamsitish tasodifan algoritmlarga kodlanishi mumkin. 69 Ish kuchining moslashuvi: Ishchi kuchi SI bilan bog`liq rollar uchun zarur bo`lgan yangi malakalar to`plami bilan o`zgaruvchan iqtisodiy landshaftga moslashishi kerak. Normativ-huquqiy baza: SI dan mas’uliyatli foydalanishni ta’minlash uchun samarali qoidalarni ishlab chiqish hukumatlar hal qilishi kerak bo`lgan murakkab muammodir.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt o`rganish, moslashish va oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatiga asoslangan zamonaviy iqtisodiyotni qayta shakllantirmoqda. SI asoslarini, uning ilovalari, afzalliklari va yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolarni tushunish hukumatlar, biznes va jismoniy shaxslar uchun juda muhimdir. Sun’iy intellektning iqtisodiyotdagi o`zgartiruvchi kuchi mahsuldorlikni oshirish, innovatsiyalar kiritish va yanada samaraliroq va dinamik iqtisodiy landshaftni yaratish imkonini beradi. Shu bilan birga, u SI ning buzilish emas, balki taraqqiyot uchun kuch bo`lib xizmat qilishini ta’minlash uchun mas’uliyatli foydalanish, axloqiy mulohazalar va moslashuvchanlikni talab qiladi. Sun’iy intellekt rivojlanishda davom etar ekan, uning salohiyatidan foydalanish raqobatbardosh bo`lish va kelajakning iqtisodiy o`sishiga hissa qo`shishning kalitidir.

ЎЗБЕКИСТОННИ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШ ЙЎЛЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Нурхонов Комилжон Товкараевич
Қарши давлат техника университети
Мустақил тадқиқотчиси
e-mail: komilnurxonov1986@gmail.com

Кириш

Сўнгги асрда инсоният экологияга эътибор қаратмасдан ва атроф-муҳит ҳолатига тўғри ғамхўрлик қилмасдан мавжуд бўлди ва ривожланди. Натижада бутун экотизимларга антропоген тавсифдаги зарар етказилди, бу бизнинг келажак авлодларимизнинг истиқболига таҳдид солмоқда. Шиддат билан янгиланиб ва ўзгариб бораётган бугунги даврда “яшил” иқтисодиётга ўтиш муҳим ҳаётий эҳтиёжга айланди. Сайёрамизда шаҳарлар йириклашиб, аҳолиси 20−35 миллионли мегаполислар кўпайиб бормоқда. Бу энергоресурслар, айниқса, ёқилғига бўлган талабни кун сайин ошириб бораётир. Инсон омили туфайли охирги юз йилда ер шарида экин экиладиган ер майдони тўртдан бир қисмга, ўрмонлар учдан икки қисмга қисқарди. Бунинг натижасида ҳайвонот оламининг кўплаб турлари йўқ бўлиб кетмоқда. Шу муносабат билан 2026 йилда амалга ошириладиган энг муҳим 6 та устувор йўналишдан бири бу “Экологик мувозанатни таъминлаш, “яшил” энергетика ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш бешинчи устувор йўналишимиздир”[122] деб

[122] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва халққа қилган

Президентимиз томонидан белгилаб берилди.

Адабиётлар шархи

Иқтисодиётнинг иқлим ўзгаришига таъсирини хорижий тадқиқотчилар: В. Нордхаус, Пол Ромер, С. Ж.Тол Ричард, Э. Барбиер, Д. Пиарс, К.К. Рихтер, ва бошқалар ўз тадқиқотларида ишлаб чиқишган.

Барқарор иқтисодий ривожланиш моделлари: "яшил" иқтисодиёт, биоиқтисодиёт, айланма иқтисодиёт, "жигарранг" иқтисодиёт ва бошқаларни рус олимлари Д.А. Агапов, С.Н. Бобйлев, О.П. Бурматова, Э.О. Вегнер-Козлова, О.Ю. Ганюхина, А.В. Гребенкин, Э.М. Зомонова, Н.Ю. Нестеренко, Н.В. Пахомова, Т.А. Селишчева томонидан ўрганилган.

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан А.В.Ваҳабов, А.Ўлмасов, С.В.Чепель, Х.П.Абулқосимов, Т.С.Расулов, Т.Т.Жўраев ва бошқаларнинг илмий изланишларида иқтисодий ўсиш назарияси ва экалогик муаммоларни ўзаро боғлиқлигининг назарий жиҳатлари бўйича атрофлича тадқиқотлар олиб борилган.

Тадқиқот методологияси.

Мақолада диалектик, тизимли, интеграл ва синергетик ёндашувлар, иқтисодий, мантиқий, илмий абстракция, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, қиёслаш, умумлаштириш, гуруҳлаш ва жадвал усулларидан фойдаланилади

Асосий тахлил ва натижалар

Табиатдан фойдаланиш – бу жамият эҳтиёжларини қондириш учун табиий ресурслардан фойдаланиш, атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва уни такрор ишлаб чиқаришни ўз ичига олади. Бу кўпинча тенгсиз экологик алмашинувга олиб келади, натижада бунда айрим мамлакатларнинг хўжалик субъектлари фойда кўради, шу билан бирга уларнинг иқтисодий фаолиятининг салбий оқибатлари зараридан дунёнинг бошқа минтақалари ва мамлакатлари талофат кўради. Табиатдан фойдаланиш, бир томондан, минтақавий хусусиятга эга, чунки у маълум бир давлат ҳудудида содир бўлади, иккинчи томондан, у глобал хусусиятга эга, чунки унинг салбий оқибатлари дунёнинг бошқа мамлакатлари ва минтақаларига таъсир қилади. Шунинг учун ҳам табиий жараёнлар биосферанинг барқарорлигини таъминлайдиган экологик салоҳиятини истеъмол қилиш даражасига эришиш учун дунё мамлакатлари ўртасидаги мувофиқлаштирилган ўзаро ҳамкорлик зарур.

Ўзбекистонда давлатимиз раҳбари ташаббуси билан Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан Оролбўйи минтақасига имтиёзли кредитлар ажартилди, мамлакатимизнинг барча ҳудудидан техника ва мутахассислар жалб этилиб, экологик мувозанатни яхшилашга киришилди. Бу муаммони хал этилишига Орол денгизининг қуриб қолган ер майдонларида кўкаламзорлаштириш ишлари олиб борилди, ҳудуд хусусиятларига мос дарахтлар экилди ва бу жараён изчил давом этмоқда. Экологияни асраш, табиий ресурсларни тежаб ишлатиш, жумладан, сувдан оқилона фойдаланиш

Мурожаатномаси. 26 декабрь. 2025 йил. https://uzts.uz/ozbekiston-respublikasi-prezidenti.

бўйича замонавий тизимларга ўтиш ишларини кучайтирдик. Мамлакатимизда “Яшил макон” дастури давом этмоқда[123] дейди президентимиз.

Иқтисодий фанда эндоген иқтисодий ўсиш назарияси ва экалогик муаммоларни ўзаро боғлиқлигини юқори ривожланиш даражасига олиб чиққан олимлардан бири Уильям Нордхаус ҳисобланади. Унинг “Интеграллашган баҳолаш моделида” (IAM) иқлим ўзгаришлари билан иқтисодий ўсиш моделини бир бири билан боғлади[124]. У.Нордхаус ишлаб чиқариш функцияси моделига икки янги ўзгарувчини киритди: табиий ресурслар ва экологик зарар. Табиий ресурслар ишлаб чиқариш функцияси моделида ишчи кучи, капитал, асосий фондлар каби ишлаб чиқариш омили сифатида олинган; экологик зарар бирдан кичик бўлган кўпайтирувчи бўлиб у ишлаб чиқариш хажмини камайтиради. Бу моделда барча омиллар технологик тараққиёт натижасида ўсиб борса экологик зарар эса бирдан кичик бўлган кўпайтирувчи ҳисобига атмосферани ифлосланиш даражасига қараб камайиб боради[125].

20-асрнинг охирида жаҳон ҳамжамиятида атроф-муҳитнинг ҳолати тўғрисидаги ташвиш кескин ўсди. Фақатгина ўтган асрнинг охирида мамлакатлар ўртасида ҳар бир давлат томонидан бозор иқтисодиёти шароитида экологик муаммоларни тартибга солишга қаратилган биринчи глобал шартнома имзоланди. Ушбу ҳужжат Киото протоколи деб аталади ва у фақат 1997 йилда қабул қилинган. Унинг мақсади атмосферага иссиқхона газлари чиқиндиларини тартибга солиш ва уларни аста-секин атроф-муҳитга ва айниқса иқлимга ҳалокатли таъсир кўрсатмайдиган даражага камайтириш эди, бу эса сайёра учун кейинчалик ҳалокатли бўлиши мумкин бўлган ҳароратнинг пасайишига йўл қўймасликдир.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Атроф-муҳит ассамблеяси атроф-муҳит масалалари бўйича қарор қабул қилувчи халқаро ташкилотдир. Унда бугунги кунда дунё олдида турган муҳим экологик муаммолар кўриб чиқилади. 2030-йилгача Барқарор ривожланиш кун тартибининг асосини ушбу муаммоларни тушуниш ва атроф-муҳитни сақлаш ва тиклаш ташкил этади.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 2015-йил 25-сентабрдаги “Бизнинг дунёмизни ўзгартириш: Барқарор ривожланиш бўйича 2030-йилгача кун тартиби” декларатсияси катта аҳамиятга эга бўлиб, унда 17 та Барқарор ривожланиш мақсадлари (БРМ) белгилаб берилган. Улар орасида экологик барқарор ривожлантиришнинг 5 та асосий мақсади мавжуд (1.2-расм):

---

[123] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз уч йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. “Халқ сўзи” гезетаси 2024 йил 1 сентябрь.

[124] Nordhaus, 2017a.Integrated assessment models of climate change. NBER Reporter, No. 3, pp. 16—20.

[125] Nordhaus W. (2017b). Projections and uncertainties about climate change in an era of minimal climate policies. *NBER Working Paper*, No. 22933




1-расм. Экологик барқарор ривожлантиришнинг 5 та асосий мақсади[126]

Экологик барқарорлик - бу барқарор таркибий тузилмани функцияларини экотизимнинг ички ва ташқи омиллар таъсиридан ташкилий тамойилларини сақлаб қолиш қобилиятидир. Ишлаб чиқилган БРМлари ҳозирги ва келажак авлодлар учун тенг экологик манфаатлар тамойилига асосланади. Барқарор ривожланиш табиий экотизимлар ва ижтимоий-иқтисодий тизимлар ўртасидаги яқин алоқадорлик муносабатларни ўз ичига олади. Шу билан бирга, инсонлар асосий бўғиндир, чунки улар глобал биосфера тизимидаги ўз ролини аниқлаш, барқарор ривожланишни таъминлаш учун уни сақлаш ва бошқариш учун жавобгардир.

Олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, ҳавонинг ифлосланиши коронавирус инфекциясидан ўлим кўпайишига ҳисса қўшган. 2020-йилдаги карантин ва изоляция даврида дунё бўйлаб кўпчилик саноат корхоналари ўз фаолиятини тўхтатди, бу эса атмосферага ифлослантирувчи моддалар чиқарилишининг умумий 5,8 фоизга қисқаришига олиб келди, чунки энергияга бўлган талаб 4 фоизга қисқарди. Бу даврда экологик вазият сезиларли даражада яхшилана бошлади, карбонат ангидрид миқдори охирги марта фақат Иккинчи жаҳон уруши даврида қайд этилган рекорд даражага кескин пасайди.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Атроф-муҳит бўйича дастурида “яшил” иқтисодиёт ижтимоий адолатни шакллантириш ва ривожлантириш, инсонлар турмуш фаровонлигини ошириш, экологик муаммоларни камайтириш ва иқлим фалокати хавфини камайтиришга мўлжалланганлигини таъкидлайди. Шунинг учун бундай иқтисодиёт ресурстежамкор кам углеродли ва ижтимоий инклюзив бўлиб ҳисобланади ва “Яшил иқтисодиётга” киритилган йўналишларни ўз ичига олади.

[126] Цели в области устойчивого развития // ООН: https://www.un.org/ .асосида муаллиф томонидан тузилди.



2-расм. “Яшил иқтисодиётга” киритилган йўналишлар[127]

Шундай қилиб, яшил иқтисодиёт ва рақамли иқтисодиёт замонавий иқтисодий трансформациянинг асосини ташкил этади. Рақамлаштириш - тўртинчи саноат инқилобининг асосий элементи бўлиб, яшил сектор эса яшил саноат инқилобига эришиш учун асосдир. Бу икки соҳа барқарор ривожланиш концепциясининг уч жиҳати ўртасида яхлит интеграциялашувчи ролни бажаради.

Европа Иттифоқи мамлакатлари ижтимоий ва экологик муаммоларни ҳал қилиш учун вақти-вақти билан директивалар ва қонунларни қабул қилади. Масалан, бизнес даражасида маҳсулот етказиб берувчилар атроф-муҳит стандартларига риоя қилишлари керак ва аҳоли чиқиндиларни саралашлари ва уларни тури ва улуши бўйича аниқ тақсимланган ҳолда тегишли идишларга ташлашлари керак [128].

Германияда чиқиндилар ҳажмининг 60 дан 80 фоизигача қайта ишлаш ёки электр энергияси ишлаб чиқариш учун чиқиндиларни ёқиш заводларига юборилади. Францияда расмийлар 2025 йилга келиб бутун Франция бўйлаб фақат қайта ишланган материаллардан фойдаланиш ваьдасини бажариш учун маҳаллий супермаркетларда бир марталик пластик қопларни тақиқлади. Францияда энг йирик компаниялар қонун бўйича корпоратив ижтимоий жавобгарликни амалга ошириш бўйича режалар ва дастурларни ишлаб чиқишлари шарт, агарда уларни бажаришдан бош тортиш ёки бажармаслик холатида давлат компаниялар ва уларнинг раҳбарларини жаримага тортиши мумкин;

АҚШнинг Калифорния штатида 2015-йилдан бери дўконларда полиетилен пакетларни сотиш тақиқланган. Швеция барқарор ишлаб чиқариш ва истеьмол қилиш бўйича миллий режалар ва атроф-муҳит мақсадлари тизимини ишлаб чиқмоқда. Уларни амалга оширишда жамиятнинг барча вакиллари, давлат ҳокимияти органларидан тортиб, шаҳар ҳокимияти, хусусий шахслардан тортиб йирик тадбиркорларгача иштирок этади. Юқори натижаларга, жумладан, фуқаролик жамиятининг фаол позицияси, уларни қўллаб-қувватлаши, розилиги ва белгиланган вазифаларнинг бажарилиши ёрдам бермоқда. Мамлакатда барқарор ривожланиш учун Бош вазир, Атроф-

[127] Муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган
[128] Официальная статистика // Федеральная служба государственной статистики: https://rosstat.gov.ru/.

муҳит ва энергетика вазири, Халқаро тараққиёт ҳамкорлик вазири масъулдир. Барқарор ривожланиш консепцияси тамойиллари ша атроф-муҳитни яхшироқ назорат қилишга ёрдам берувчи “ақлли технологияларга” жорий этилмоқда.

"Яшил" иқтисодиёт йўналиши бугунги кунда устувор ва энг истиқболли йўналишлардан бири ҳисобланади, шунинг учун деярли барча ривожланган мамлакатлар ўз режалари, мақсадлари, вазифалари, иқтисодий трансформациялар ва яшил технологияларни жорий этиш, ишлаб чиқариш, инфратузилма, транспорт тизимини янгилаш, биоёқилғи ва ёпиқ цикл форматида ишлайдиган экологик тоза корхоналар яратиш ва қайта қуриш инструментлари ва усулларига эга.

“Яшил” технологиялар зарарли чиқиндиларни камайтириш, чиқиндиларни бошқариш, оқава сувларни самарали бошқариш ва экотизимлар барқарорлигини сақлаш, энергия тежамкор чора-тадбирларни жорий этиш ҳамда қайта тикланувчи энергия манбалари ва экологик тоза технологияларни ишлаб чиқиш орқали турли экологик хавфларга қарши туришга ёрдам беради.

Олимларнинг ҳисоб-китобларига кўра, яшил иқтисодиётнинг тикланиши 2030 йилга бориб 400 миллиондан ортиқ қўшимча иш ўринларини яратиши мумкин (Жаҳон Иқтисодий Форуми, 2020). Фақатгина яшил иқтисодиётнинг транспорт сектори 15 миллионга яқин иш ўринларини яратиши мумкин, қайта тикланадиган энергия манбаларига сармоя киритиш эса 2050 йилга бориб 60 миллиондан ортиқ кишини иш билан таъминлаши мумкин. Шундай қилиб, “яшил” инфратузилманинг ривожланиши ва яшил инвестиция бозорининг кенгайиши иқлимга чидамли иқтисодиётни ҳамда аҳолини иш билан таъминлаш, иш ўринларини кенгайтириш, интеллектуал ва инсон ресурсларини жамлаш учун улкан салоҳиятни шакллантиради[129].

Шундай қилиб, юқоридагилардан хулоса қилиш мумкинки, замонавий шароитда иқтисодий тизимларнинг барқарор ривожланишини тартибга солишда режалаштиришнинг роли ортиб бормоқда. Шу билан бирга, энергетика соҳасидаги давлатларнинг асосий мақсади энергия ресурсларини ишлаб чиқаришни кўпайтириш эмас, балки улардан оқилона фойдаланиш ва мамлакат иқтисодий тизими томонидан тежамкор истеъмол қилишдир.

ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТДА ИЖТИМОИЙ СОҲАДАГИ ТАҲДИТЛАР ВА УНИНГ ДАВЛАТНИНГ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИ

Одинаев Равзатулло Асатуллоевич
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил тадқиқотчиси

Кириш

Ижтимоий хавфсизлик иқтисодий хавфсизликнинг қуйи тизимларидан биридир. Яшил иқтисодиётда ижтимоий хавфсизлик омилларига аҳоли турмуш даражаси, ижтимоий таъминот тизими, қашшоқлик, камбағаллик ва бошқа турдаги ижтимоий тахдитлар орқали мамлакатнинг иқтисодий ва

[129] Минэкономразвития России обновило план мероприятий по повышению энергоэффективности экономики// Официальный сайт Минэкономразвития России: https://www.economy.gov.ru/.

миллий хавфсизлигига таъсир этади. Ижтимоий хавфсизлик тахдитлари деганда кимларнингдир манфаатларига зарар етказиш мумкин бўлган юз бераётган ёки потенциал бўлиши мумкин бўлган воқеа, харакат ёки ходисалар тушунилади. “Биринчидан, камбағалликни қисқартириш борасида комплекс ёндашув ва ностандарт усулларни жорий этамиз. Бир ҳақиқатни аниқ тушуниб олишимиз керак – камбағаллик масаласи кредит, ижтимоий нафақа ёки уй бериш билан ўз-ўзидан ҳал бўлиб қолмайди. Бунинг учун таълим, соғлиқни сақлаш, касб-ҳунарга ўқитиш, ичимлик сув, энергия ва йўл инфратузилмаси билан боғлиқ комплекс муаммоларни ҳал этиб бориш керак”[1] деб Президентимиз томонидан таъкидлаб ўтилган.

Яшил иқтисодиётда ижтимоий хавфсизлик бу -шахс, жамият ва давлатни ижтимоий, иқтисодий, экологик, ресурс ва бошқа тавсифдаги ички ва ташқи таҳдидлар мажмуасидан ҳимояланганлик ҳолати бўлиб ҳисобланади. Ижтимоий хавфсизлик ижтимоий тахдитлар орқали мамлакатнинг иқтисодий ва миллий хавфсизлигига таъсир этади. Ижтимоий хавфсизлик тахдитлари деганда кимларнингдир манфаатларига зарар етказиш мумкин бўлган юз бераётган ёки потенциал юз бериши мумкин бўлган воқеа, харакат ёки ходисалар тушунилади.

Янги Ўзбекистон стратегиясининг “Адолатли ижтимоий сиёсат” бобида ижтимоий соҳадаги муаммолар: аҳолини ва айниқса унда ёшларни бандлигини ошириш, фуқароларни ижтимоий ҳимоя қилиш ва уларнинг саломатлигини сақлаш, соғлом турмуш тарзи, жисмоний трабия ва спорт, таълим ва тарбия, илм-фан ва инновацион тараққиёт ва аҳолининг муҳтож қатламларига кўрсатиладиган ижтимоий ёрдам сифатини оширишда мавжуд муаммоларга алоҳида эътибор қаратилган[2].

Яшил иқтисодиётда ижтимоий хавфсизлик нафақатгина бутун бир давлатга шу билан бирга алоҳида олганда ҳар бир инсонга боғлиқ. Иқтисодиётдаги нобарқарорлик ва экологик таназул ҳолатлар хар-бир оилага салбий таъсир этади. Бутун дунёда иқлим ўзгаришлари билан боғлиқ муаммоли вазиятлар мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг самарадорлигига ўзининг салбий таъсирини кўрсатади. Экологик муаммолар, табиий капиталнинг тугаб бориши, чучук сув, озиқ-овқат, энергия манбааларининг етишмовчилиги, қашшоқликнинг кенгайиши “жигар ранг” иқтисодиётнинг асосий салбий оқибатлари ҳисобланади. Демак, макро даражада ижтимоий хавфсизликни таъминлаш, хавфсизликнинг барча тизимини асосий элементи сифатида юзага чиқаради.

Ижтимоий соҳа нафақат иқтисодий, балки миллий хавфсизликни таъминлашда ҳам муҳим ўрин тутади, зеро ижтимоий соҳа орқали шахс, оила ва шу билан бир қаторда алоҳида ижтимоий гуруҳлар ва яхлит тарзда жамиятнинг манфаатлари ва эҳтиёжлари қондирилади. Айнан шу жойда шахс ва давлат, шахс ва корхоналар ўртасидаги турли туман ижтимоий муносабатларнинг мустаҳкамлиги ва ўзаро ҳамоҳанглиги жиддий синовдан ўтади. Шахс бир пайтнинг ўзида хавфсизлик соҳасининг ҳам объекти ҳам субъекти бўлгани ҳолда, хавфсизлик соҳасининг барча тизимларида мавжуд бўлади ва тизим ташкил этувчи вазифасини бажаради. Шундан келиб чиққан

ҳолда, шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш, иқтисодий хавфсизликнинг барча босқичларида муҳим ўрин тутади, аммо шуни таъкидлаш лозимки, шахснинг иқтисодий хавфсизлиги ўз навбатида жамият, хўжалик юритувчи субъектлар, давлат ва экологик вазиятга чамбарчас боғлиқдир[3].

Шахс иқтисодий хавфсизликнинг бир мунча йирик субъектлари бўлган корхоналар, хўжалик юритувчи субъектлар, жамият ва давлатнинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда катта аҳамият касб этади. Шахс бир пайтнинг ўзида хавфсизлик соҳасининг объекти ҳам субъекти бўлгани ҳолда, хавфсизлик соҳасининг барча тизимларида мавжуд бўлади ва тизим ташкил этувчи вазифасини бажаради. Шундан келиб чиққан ҳолда, шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш, иқтисодий хавфсизликнинг барча босқичларида муҳим ўрин тутади, аммо шуни таъкидлаш лозимки, шахснинг иқтисодий хавфсизлиги ўз навбатида жамият, хўжалик юритувчи субъектлар, давлат ва экологик вазиятга чамбарчас боғлиқдир. Бизнинг фикримизча, иқтисодий хавфсизлик шаклларини ишлаб чиқариш-хўжалик, хўжалик-истеъмол, молиявий, транспорт коммуникациялари ва ижтимоий соҳалар бўйича туркумлаш мақсадга мувофиқдир[4].

Ижтимоий барқарорлик камбағаллар сонининг қисқариб бориши билан ҳам боғлиқ. Бундай шароитда давлатнинг даромадларни қайта тақсимлаш вазифаси даромадлар тенгсизлигидаги фарқларни камайтириш ва жамият барча аъзолари учун анча қулай моддий ҳаёт шароитини таъминлашга қаратилади. Даромадлар тенгсизлиги камайишининг тахминан 80 фоизини асосан трансферт тўловлари тақозо қилади. Аниқроқ айтганда давлат трансферт тўловлари энг паст даромад олувчи кишилар гуруҳи даромадининг асосий қисми (70-75%)ни ташкил қилади ва тенгсизликни юмшатишнинг энг муҳим инструменти ҳисобланади.

Глобал экологик, иқтисодий хавф-ҳатарлар шароитида Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишларидан бири бу ижтимоий ҳимоя қилишнинг манзиллигини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади. Аҳоли турли ижтимоий қатламларини стратификация услублари асосида тартибга солишнинг жахон тажрибасидан келиб чиққан ҳолда яшил иқтисодиётда давлатнинг ижтимоий хавфсизликни таъминлаш бўйича қуйидаги илмий таклиф ва тавсиялар тақдим этилган:

- потенциал ижтимоий риск ва ҳавф-ҳатарлардан огоҳ қилиш, жамиятда ижтимоий барқарорликни таъминлаш учун ўрта синфни шакллантириш ва кучайтириш мақсадида аҳоли даромадларини табақаланиш тенденциялари ва динамикасини доимий мониторинг тизимини жорий этиш лозим;
- яшил иқтисодиётда аҳоли даромадларини шаклланиш услубиятини бандлик, ҳаражатлар, жамғариш, узоқ муддатли истеъмол товарлари билан таъминлаш асосида такомиллаштириш;
- минтақаларни мажмуали ривожланишини таъминлашда давлат бюджетини оптимал тақсимлаш учун аҳоли даромадларини табақаланиш даражасини хисобга олиш лозим;

- ягона ижтимоий реестрни ишлаб чиқиш, ҳатолар, такрорлаш муаммосини ҳал этиш имконини беради;
- кам даромадли оилалар учун оилавий нафақаларни бирлаштириб ягона ижтимоий нафақага айлантириш лозим.

Ягона ижтимоий реестрни жорий этиш орқали аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишни мазиллигини кучайтириш ижтимоий соҳа учун сарфланадиган ҳаражатларни оптималлаштиришни бюдлжетнинг итимоий харажатларини қайта тақсимлаш орқали кескин кучайтириш лозим.

Хулоса сифатида Яшил иқтисодиёт узоқ муддатда ижтимоий тенглик ва фаровонликни кучайтириш имконини беради, аммо ўтиш давридаги ижтимоий таҳдидларни (иш ўринлари силжиши, энергия қашшоқлиги, тақсимотдаги адолатсизлик муаммолари, ҳудудий номунатосибликларни ҳисобга олган ҳолда адолатли трансформация сиёсатларини жорий этиш давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Бу — мустаҳкам ижтимоий ҳимоя, қайта тайёрлаш, компенсация механизмлари ва ҳудудий қўллаб-қувватлаш билан таъминланса, яшил ўзгаришнинг ижтимоий хавфлари бартараф этилади ва иқтисодий хавфсизликка ижобий таъсир кучаяди. Шахс манфаатлари ва унинг ижтимоий хавфсизлигига таҳдидларга муносабатда инсоннинг руҳий ҳолатини фаоллик, бағрикенглик, чидамлилик каби қобилият ва сифатларини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси - Тошкент. // Халқ сўзи, 2020 йил 29 декабрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

3. Ханин Ф.Г. Социальная безопасность или основной приоритет национального развития России /Ф.Г.Ханин //Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер.6.2005. Вып.2. С.129-134.

4. Абулқосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма.-Т.:”Академия”, 2012 - Б.22.

ECONOMIC IMPACT OF WATER SCARCITY IN CENTRAL ASIA UNDER CLIMATE CHANGE SCENARIOS

Davirova Shakhlo Shukurullaevna
PhD, Associate Professor of the Tashkent state university of economics
e-mail: davirova_shaxlo@tsue.uz
Nasirullayeva Sevinch G`ayrat qizi
Bachelor’s degree student of the Tashkent state university of economics
e-mail: nasirullayevasevinch09@gmail.com

Abstractю Central Asia is highly vulnerable to climate change because its economies depend heavily on water-intensive agriculture and hydropower. Rising temperatures, glacier retreat, and declining river flows threaten economic stability across Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan. This

paper examines the economic effects of water scarcity through four major channels: agricultural productivity, hydropower generation, climate migration, and regional water conflicts. Using academic research and international reports, the study finds that reduced irrigation water significantly threatens agricultural output, while hydropower-dependent states may experience electricity generation losses of up to 20%. Climate-related migration and transboundary water disputes further increase economic risks. The paper concludes that investment in modern irrigation systems, renewable energy diversification, and regional cooperation are essential for long-term economic resilience.

Keywords: Central Asia, water scarcity, climate change, agriculture, hydropower, climate migration, economic impact, irrigation, transboundary rivers

Introduction

Central Asia faces one of the world’s most serious water-security challenges due to climate change and inefficient water management. The region depends heavily on the Amu Darya and Syr Darya rivers, which originate in the glaciers of the Pamir and Tian Shan mountains. These rivers support agriculture, hydropower generation, and domestic water supply across Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan (Wang et al., 2022). Climate change is rapidly accelerating glacier melt and increasing temperatures in the region. According to the IPCC (2022), temperatures in Central Asia may rise by up to 5–6°C by 2100. Although glacier melting may temporarily increase river runoff, long-term water availability is expected to decline significantly as glacier mass decreases. Researchers describe this process as “peak water,” expected around the middle of the century (World Bank, 2024). The economic structure of Central Asia increases vulnerability to water scarcity. Agriculture consumes approximately 90% of freshwater resources, while Kyrgyzstan and Tajikistan rely heavily on hydropower for electricity production. As a result, climate-related water shortages threaten food security, energy supply, employment, and economic growth throughout the region. This paper analyzes the economic consequences of water scarcity under climate change scenarios and evaluates possible adaptation strategies. Central Asia is naturally arid, with large desert areas and limited freshwater resources. Most water comes from glacial and snowmelt systems, making the region extremely sensitive to rising temperatures (Fallah et al., 2024). Studies project temperature increases of 2–6°C by the end of the century, alongside declining precipitation and increasing drought frequency. The World Bank (2024) warns that surface water availability in parts of Central Asia could decline by up to 50% by 2050 if current trends continue. At the same time, water demand is expected to increase because of population growth, urbanization, and industrial expansion. One of the most visible environmental disasters in the region is the shrinking of the Aral Sea. Excessive irrigation and river diversion have caused severe ecological degradation, soil salinization, and agricultural decline in surrounding areas (Taylor et al., 2024). These environmental pressures directly affect regional economic productivity. Another important issue is transboundary water governance. Since major rivers cross national borders, upstream and downstream countries often compete over water use. Afghanistan’s Qosh Tepa canal project may further reduce Amu Darya river flow,

creating Agriculture is the sector most vulnerable to water scarcity in Central Asia. Irrigation-based farming dominates the regional economy, particularly in Uzbekistan, Tajikistan, and Kyrgyzstan. However, irrigation systems remain inefficient, with major water losses caused by outdated infrastructure and poor management. Agriculture contributes differently to national economies: approximately 5.2% of GDP in Kazakhstan, 18.5% in Uzbekistan, 20.8% in Kyrgyzstan, and 23.3% in Tajikistan (Taganova et al., 2023). Therefore, countries with greater agricultural dependence face more severe economic risks. Water shortages have already reduced agricultural productivity. Severe droughts in recent years damaged crops and livestock production across the region. Kazakhstan experienced a 26% decline in wheat harvests during climate-related drought conditions, affecting both domestic food supply and export revenues. Research by Puy et al. (2021) shows that many parts of Central Asia experience “economic water scarcity,” meaning that water shortages are worsened by limited institutional and financial capacity rather than absolute physical scarcity alone. This suggests that improved water governance and irrigation modernization could significantly reduce future economic losses. Water scarcity also threatens the region’s energy systems. Kyrgyzstan and Tajikistan generate most of their electricity from hydropower, making them highly vulnerable to declining river flows and changing seasonal water availability. The World Bank estimates that hydropower generation capacity in these countries could decline by up to 20% under adverse climate scenarios. Reduced electricity production would negatively affect industrial activity, export revenues, and household energy security.

Climate change also increases the risk of reservoir sedimentation and infrastructure damage due to glacial melt and mudflows. In addition, competition between irrigation and hydropower use intensifies tensions between upstream and downstream countries. Kyrgyzstan and Tajikistan prefer storing water for winter electricity production, while downstream states require summer irrigation releases for agriculture. These disputes create economic and political instability throughout the region. Water scarcity contributes to rural unemployment, declining agricultural income, and internal migration. As farming becomes less profitable, many rural households are forced to move to urban areas in search of economic opportunities. According to the World Bank’s *Groundswell* report, climate change could produce millions of internal climate migrants globally by 2050, including substantial migration within Central Asia (Clement et al., 2021). Rapid urbanization places pressure on housing, healthcare, employment, and public infrastructure. Migration also creates long-term economic challenges by reducing rural labor productivity and increasing government expenditure on social services. Poor communities are especially vulnerable because they depend heavily on agriculture and possess limited adaptive capacity.

Addressing water scarcity in Central Asia requires both technological and institutional reforms. Modern irrigation systems could significantly reduce water losses and improve agricultural efficiency. Kazakhstan’s ongoing irrigation modernization programs aim to reduce water losses from 50% to 25%, demonstrating the potential economic benefits of infrastructure investment. Crop

diversification is another important strategy. Replacing water-intensive crops such as cotton with drought-resistant alternatives would reduce pressure on water resources while improving economic productivity. Energy diversification is equally important. Expanding solar and wind energy could reduce dependence on hydropower and decrease regional water-related tensions. Most importantly, stronger regional cooperation is essential. Since Central Asian countries share river systems, sustainable water management requires coordinated policies, data sharing, and updated transboundary agreements. International organizations such as the World Bank and regional development banks can support these efforts through financing and technical assistance.

Conclusion

Climate change and water scarcity pose major economic threats to Central Asia. Rising temperatures, glacier retreat, and declining river flows threaten agriculture, hydropower generation, food security, and regional stability. Countries with high dependence on agriculture and hydropower, especially Tajikistan, Kyrgyzstan, and Uzbekistan, face the greatest risks. The evidence demonstrates that water scarcity is already producing measurable economic losses through declining agricultural productivity, energy insecurity, migration pressures, and regional tensions. Without significant adaptation efforts, these challenges are expected to intensify in coming decades. However, effective policy responses can reduce vulnerability. Investments in irrigation modernization, renewable energy, and regional water cooperation offer realistic pathways toward climate resilience and sustainable economic development. Long-term regional stability will depend on how successfully Central Asian governments adapt to growing hydrological pressures under climate change.

References:

1. Clement, V., Rigaud, K. K., de Sherbinin, A., et al. (2021). *Groundswell Part 2: Acting on Internal Climate Migration*. World Bank Group.

2. Fallah, B., Sodoudi, S., Paul, A., et al. (2024). Climate change impacts on Central Asia: Trends, extremes and future projections. *International Journal of Climatology*, 44(7), 1–21.

3. IPCC. (2022). *Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability*. Cambridge University Press.

4. Puy, A., Lo Piano, S., & Saltelli, A. (2021). Global agricultural economic water scarcity. *Science Advances*, 7(18), eaaz6031.

5. Taganova, J., Shabanova-Serdechna, A., & Saida, N. (2023). Central Asia’s Water Crisis Is Already Here. *The Diplomat*.

6. Taylor, E., Mnatsakanyan, T., & Dijkstra, A. (2024). Climate change, water scarcity, and mobility in rural Central Asia. *Climate Policy*, 24(5), 638–647.

7. Wang, Q., Bobojonov, I., & Djanibekov, N. (2022). The growing water crisis in Central Asia and the driving forces behind it. *Journal of Cleaner Production*, 374, 134066.

8. World Bank. (2024). *A Blueprint for Resilience: Charting the Course for Water Security in Europe and Central Asia*. Washington, DC: World Bank Group.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК: ОТ ТРАДИЦИОННЫХ ТЕНДЕРОВ К ЭЛЕКТРОННЫМ ПЛАТФОРМАМ

Ризакулов Шерзод Шермуратович
Доцент кафедры финансы и цифровой экономики Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В данной статье исследуется процесс цифровой трансформации системы государственных закупок Республики Узбекистан как ключевого элемента модернизации государственного управления. Проведен комплексный анализ эволюции от традиционных бумажных тендеров к современным электронным платформам. Исследование выявляет преимущества электронных систем закупок, включая повышение прозрачности (на 85%), сокращение сроков проведения процедур (на 60%), экономию бюджетных средств (10-15%) и усиление конкуренции среди поставщиков (на 35-40%). Проанализирован международный опыт внедрения e-procurement систем в странах Европы, Азии и СНГ. Представлены статистические данные об объемах электронных закупок в Узбекистане за период 2020-2025 гг., демонстрирующие рост с 28 до 235 млрд сум. Выявлены основные вызовы цифровизации: технологические барьеры, институциональные препятствия и экономические ограничения. Разработаны практические рекомендации по совершенствованию системы, включающие внедрение блокчейн-технологий, использование искусственного интеллекта для анализа рисков и создание интегрированной экосистемы государственных закупок.

Ключевые слова: государственные закупки, механизм управления, конкурентные процедуры, цифровизация, прозрачность, электронная платформа, антикоррупционные меры, закупочный цикл.

Введение

направлений реформирования экономики Республики Узбекистан. В условиях глобальной цифровизации и стремления к повышению эффективности государственного управления, модернизация системы государственных закупок приобретает особое значение. Согласно Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, внедрение цифровых технологий в систему государственных закупок призвано обеспечить прозрачность расходования бюджетных средств, сократить коррупционные риски и создать равные условия для участия всех субъектов предпринимательства в государственных контрактах.

Традиционная система государственных закупок, основанная на бумажных процедурах и ручной обработке документов, характеризуется рядом существенных недостатков: высокими транзакционными издержками, длительными сроками проведения тендеров, ограниченными возможностями контроля и мониторинга, а также значительными административными барьерами для участия малого и среднего бизнеса. По данным Всемирного банка, внедрение электронных систем закупок позволяет сократить

административные расходы на 10-15% и повысить конкуренцию среди поставщиков на 20-30%.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью научного осмысления процесса цифровой трансформации государственных закупок, выявления ключевых факторов успеха и разработки практических рекомендаций по повышению эффективности электронных платформ. В условиях активного внедрения цифровых технологий в Узбекистане, включая платформу xarid.uz, требуется комплексная оценка достигнутых результатов и определение перспективных направлений развития системы.

Методологические основы исследования.

Методологическую основу настоящего исследования составляют современные научные подходы к анализу системы государственных закупок как важного элемента управления бюджетными ресурсами и инструмента реализации государственной экономической политики. В процессе работы использовались как общенаучные, так и специальные методы исследования, обеспечивающие комплексное рассмотрение действующего механизма управления государственными закупками в Республике Узбекистан.

Государственные закупки играют стратегическую роль в формировании устойчивой экономики и эффективной бюджетной политики. От качества и прозрачности механизма закупок зависит реализация национальных проектов, социально–экономическое развитие и уровень доверия к государственным институтам. Современные вызовы требуют постоянного совершенствования подходов к управлению закупочной деятельностью с учётом международных стандартов, цифровизации и антикоррупционных инициатив.

Процесс государственных закупок включает следующие этапы: планирование государственных закупок; организация закупочных процедур; заключение и исполнение договора; мониторинг государственных закупок (рис.1).



Рисунок 1. Процесс государственных закупок

Допускается реализация проектов, внесенных в Инвестиционную программу Республики Узбекистан и другие государственные программы, на условиях «под ключ» методом «fast–track» (одновременное проектирование,

закупка и строительные работы) в соответствии с указами и постановлениями Президента Республики Узбекистан.

Конкуренция в государственных закупках поддерживается за счет использования механизмов состязательности между участниками закупочных процедур, между операторами электронных систем государственных закупок и между специализированными организациями, беспристрастности и прозрачности при рассмотрении предложений участников закупочных процедур и принятии конечного решения в пользу оптимального предложения на основании объективных и обоснованных критериев.

Объективность государственных закупок предусматривает беспристрастность при рассмотрении предложений участников закупочных процедур, а также принятии конечного решения в пользу оптимального варианта.

Объективность государственных закупок основывается на:

– обеспечении равных возможностей участникам закупочных процедур;

– создании условий, обеспечивающих конкуренцию и беспристрастность в отношении субъектов государственных закупок;

– открытых, гласных и состязательных механизмах рассмотрения жалоб, споров и разногласий в процессе государственных закупок и принятия соответствующих мер.

Соразмерность в государственных закупках обеспечивается соответствием:

– способа осуществления государственных закупок риску, стоимости, характеру и сложности товаров (работ, услуг);

– требований к квалификационным данным участников закупочных процедур, критериев и методов оценки предложений к товарам (работам, услугам);

– прав, обязанностей и ответственности субъектов государственных закупок их функциям.

Государственные закупки основываются на единстве целей, принципов и подходов, целостности и взаимосвязи всех этапов процесса государственных закупок, и взаимодействии всех субъектов государственных закупок.

Система государственных закупок в Узбекистане регулируется рядом нормативно–правовых актов, включая Закон «О государственных закупках» и постановления Кабинета Министров. В целях обеспечения эффективности, прозрачности и рационального использования бюджетных средств государственные закупки классифицируются на конкурентные и неконкурентные формы. Эта классификация зависит от количества потенциальных поставщиков и процедуры выбора исполнителя.

Ниже на рисунке 2 представлена структурированная схема видов государственных закупок, применяемых в Узбекистане.




Рисунок 3 – Виды государственных закупок в Узбекистане

Как видно из схемы, действующий подход к организации закупок обеспечивает баланс между необходимостью открытых, конкурентных процедур и ситуациями, когда применяются прямые методы заключения контрактов. Конкурентные закупки служат инструментом выбора наиболее эффективного предложения на рынке, тогда как неконкурентные допускаются при наличии объективных причин и ограничений. Такая система способствует стабильности закупочного механизма, позволяя учитывать как экономические, так и административные факторы.

Анализ и обсуждение результатов.

Несмотря на позитивные преобразования, действующий механизм управления государственными закупками в Узбекистане по–прежнему характеризуется рядом системных затруднений, препятствующих его устойчивому развитию. Одной из ключевых проблем остаётся низкий уровень институциональной зрелости отдельных участников закупочного процесса, проявляющийся в недостаточной подготовке специалистов, слабом межведомственном взаимодействии и фрагментарности применяемых подходов. Кроме того, в некоторых случаях наблюдается формальный подход к планированию закупок, в результате чего значительная часть закупочной активности осуществляется без учёта долгосрочных приоритетов и без должного обоснования реальной потребности.

Заключение

Действующий механизм управления государственными закупками находится в стадии эволюции – от бюрократически закрытой модели к цифровой, ориентированной на эффективность и устойчивость. Реформирование должно носить системный характер и опираться как на международные стандарты, так и на национальные особенности. Повышение прозрачности, усиление конкуренции и использование цифровых технологий – ключевые факторы для построения современного и доверительного закупочного процесса.

Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Law of the Republic of Uzbekistan “On Public Procurement” No. ZRU–684, dated April 22, 2021.

2. Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan, July 7, 2023, No. PP–221 “On Measures to Further Improve the Public Procurement System.”

3. Official Public Procurement Portal of the Republic of Uzbekistan. Available at: https://xarid.uzex.uz (accessed: June 2, 2025).

4. World Bank. (2022). Digital Procurement Transformation: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.: World Bank.

5. OECD. (2020). Public Procurement for Innovation: Good Practices and Strategies. Paris: OECD Publishing.

6. Sharipov, Zh.Sh. (2023). Public procurement in Uzbekistan: modern challenges and ways of modernization. Economy and Innovations, 2(58), 44–52.

7. Ismoilov, A.B. (2024). Digitalization of public procurement as a tool for increasing budget transparency. Finance and Accounting, (4), 29–34.

8. UNDP. (2023). E–Procurement Readiness Assessment for Central Asian Countries. United Nations Development Programme.

9. Ganiev, B.M. (2022). Electronic procurement in Uzbekistan: issues of regulatory framework and practical implementation. Legal Thought, (1), 11–17.

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA TRANSFERT NARXLARNI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ NAZORATI

Kurbonov Baxodir Ergashevich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti, PhD

Annotatsiya: *Transmilliy korporatsiyalar faoliyati kengayib borayotgan bir davrda, transfert narxlarni belgilash mexanizmi orqali foydani ekologik soliqlari past bo‘lgan yuridiksiyalarga ko‘chirish xavfi ortib bormoqda. Ushbu tezisda yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida transfert narxlarini soliq nazoratidan o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Ekologik xarajatlar, uglerod soliqlari va yashil subsidiyalarning o‘zaro bog‘liq korxonalar o‘rtasidagi bitimlar narxiga ta’siri, shuningdek, "Qo‘l uzatish masofasi" (Arm's Length Principle) tamoyilini ekologik omillarni hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Transfert narxlari, yashil iqtisodiyot, soliq nazorati, transmilliy korporatsiyalar, uglerod solig‘i, qo‘l uzatish masofasi tamoyili, BEPS, ekologik xarajatlar.*

Abstract: *In an era of expanding activities of transnational corporations, the risk of shifting profits to jurisdictions with low environmental taxes through transfer pricing mechanisms is increasing. This thesis analyzes the specific features of tax control of transfer pricing in the context of the transition to a green economy. The impact of environmental costs, carbon taxes and green subsidies on the cost of transactions between related enterprises is based on the need to revise the Arm's Length Principle taking into account environmental factors.*

Keywords: *Transfer pricing, green economy, tax control, transnational corporations, carbon tax, arm's length principle, BEPS, environmental costs.*

Globallashuv va kapitalning erkin harakati sharoitida transfert narxlarni belgilash transmilliy korporatsiyalar (TMK) uchun nafaqat boshqaruv hisobi, balki soliqlarni optimallashtirishning asosiy quroliga aylangan. Yashil iqtisodiyotga o‘tish va turli mamlakatlarda ekologik soliqlarning (ayniqsa, uglerod soliqlarining) joriy

etilishi TP doirasidagi soliq nazoratini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishni talab etmoqda. Mamlakatlar o‘rtasidagi ekologik tartibga solishdagi tafovutlar "ekologik demping"ga va ifloslantiruvchi ishlab chiqarish quvvatlarini ekologik soliqlari past bo‘lgan hududlarga ko‘chirishga (pollution havens) sabab bo‘lmoqda. Bu esa soliq bazasini yemirish va foydani ko‘chirish (BEPS) muammosini yanada chuqurlashtiradi.

Yashil iqtisodiyot doirasida transfert narxlar ustidan soliq nazoratining asosiy qiyinchiligi ekologik aktivlar va majburiyatlarni baholash bilan bog‘liq. Masalan, bosh kompaniya o‘zining sho‘ba korxonasiga "yashil texnologiyalar" (emissiyani kamaytiruvchi uskunalar yoki patentlar) taqdim etganda, ushbu nomoddiy aktivlarning narxini adolatli shakllantirish murakkab jarayon. Bunday vaziyatda TMKlar yashil texnologiyalarning royalti to‘lovlarini sun’iy ravishda oshirish orqali sho‘ba korxona joylashgan davlatdagi soliqqa tortiladigan bazani kamaytirishga urinishlari mumkin. Amaldagi "Qo‘l uzatish masofasi" tamoyili bunday o‘ziga xos, analogi yo‘q ekologik nomoddiy aktivlarni baholashda ko‘pincha ojiz qolmoqda, chunki ochiq bozorda ularga tenglashtiriladigan mustaqil bitimlarni topish deyarli imkonsiz.

Bundan tashqari, mahsulot tannarxini shakllantirishda ekologik xarajatlar (chiqindilarni utilizatsiya qilish, uglerod kvotalarini sotib olish, suv tozalash inshootlari amortizatsiyasi) taqsimoti katta ahamiyatga ega. Soliq organlari TMKlar ichidagi shartnomalarni tekshirganda, faqatgina moliyaviy ko‘rsatkichlarni emas, balki ekologik muvofiqlik tahlilini ham o‘tkazishlari zarur. Shu o‘rinda, korxonalarda joriy qilingan zamonaviy ERP tizimlari (masalan, SAP yoki Oracle) orqali shakllanadigan ichki boshqaruv hisobi ma’lumotlari soliq auditorlari uchun muhim manba bo‘lishi mumkin. Ushbu tizimlarda mahsulotning ekologik izi va unga sarflangan yashil investitsiyalar izini kuzatish mumkin.

Soliq nazoratini takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston soliq organlari transfert narxlarni shakllantirish hujjatlariga ekologik hisobotlarni (shu jumladan, issiqxona gazlari emissiyasi bo‘yicha hisobotlarni) majburiy tartibda ilova qilish talabini kiritishlari lozim. Taqqoslanuvchanlik tahlilini amalga oshirishda esa bozorlarning ekologik qat’iylik darajasi alohida tuzatish kiritiladigan omil sifatida qabul qilinishi kerak. Umuman olganda, transfert narxlarini soliq nazoratidan o‘tkazish mexanizmi yashil iqtisodiyot talablariga moslashtirilmas ekan, davlatlar global ekologik muammolarni hal qilish uchun yetarli moliyaviy resurslarni safarbar eta olmaydi va korporatsiyalar tomonidan fiskal arbitraj qilinishi davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD (2022). *Transfer Pricing Guidelines for Multinational Enterprises and Tax Administrations*. OECD Publishing.

2. Cooper, J., & Fox, R. (2020). Carbon pricing and transfer pricing: The new intersection. *International Tax Review*.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining VI bo‘limi "Transfert narxni belgilashda soliq nazorati".

4. Eden, L. (2001). *Taxes, transfer pricing, and the multinational enterprise*. The Oxford handbook of international business.

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQNING YASHIL IQTISODIYOTGA TA’SIRI

Sirojetdinov Shohruxbek Bokijonovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning nafaqat fiskal, balki ekologik tartibga soluvchi vosita sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbekistonning qurg‘oqchil iqlimi va suv tanqisligi sharoitida suv solig‘i mexanizmlarini transformatsiya qilish orqali qishloq xo‘jaligi va sanoatda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish masalalari yoritilgan. Soliq stavkalarini differensiatsiyalash orqali yashil iqtisodiyot tamoyillarini ta’minlashning ilmiy-amaliy yechimlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Suv resurslari solig‘i, yashil iqtisodiyot, ekologik tartibga solish, suv tejovchi texnologiyalar, differensiallashgan stavkalar, piguan soliqlari, fiskal rag‘batlantirish.

Abstract: This thesis analyzes the importance of water resource tax as not only a fiscal but also an ecological regulatory tool. The issues of stimulating the introduction of water-saving technologies in agriculture and industry by transforming water tax mechanisms in the conditions of the arid climate and water shortage of Uzbekistan are discussed. Scientific and practical solutions are proposed to ensure the principles of a green economy through differentiation of tax rates.

Keywords: Water resource tax, green economy, ecological regulation, water-saving technologies, differentiated rates, piguyan taxes, fiscal incentives.

Jahon iqtisodiyotining yashil taraqqiyot yo‘liga o‘tishi an’anaviy soliq tizimlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu o‘rinda, ayniqsa, tabiiy monopoliya va cheklangan resurs hisoblangan suvdan foydalanganlik uchun soliq alohida konseptual ahamiyat kasb etadi. Global iqlim o‘zgarishi va mintaqaviy ekologik muammolar, xususan, Orol dengizi inqirozi sharoitida O‘zbekiston uchun suv resurslarini samarali boshqarish milliy xavfsizlik darajasidagi masaladir. Klassik iqtisodiy nazariyada suv solig‘i asosan davlat byudjetini to‘ldirish manbai sifatida qaralgan bo‘lsa, yashil iqtisodiyot paradigmasida u ekologik eksternaliyalarni ichkilashtirish (internalizatsiya) mexanizmi, ya’ni Artur Pigu nazariyasiga asoslangan ekologik soliqqa aylanishi lozim.

Bugungi kunda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini hisoblashda ekstensiv yondashuvlar saqlanib qolmoqda. Amaldagi Soliq kodeksi normalarida suvdan foydalanish hajmi asosiy mezon bo‘lib, suvni ishlatish texnologiyasining ekologik samaradorligi yetarlicha inobatga olinmaydi. Masalan, qishloq xo‘jaligida eskicha, ya’ni yoppasiga bostirib sug‘orish usulidan foydalanayotgan klasterlar bilan tomchilatib yoki yomg‘irlatib sug‘orish tizimini (IoT va sensorli datchiklar orqali boshqariladigan smart-sug‘orish) joriy qilgan xo‘jaliklar o‘rtasidagi soliq yuki tafovuti texnologiyalarni sotib olish xarajatlarini to‘liq qoplash uchun yetarlicha rag‘batlantiruvchi kuchga ega emas. Yashil iqtisodiyotga o‘tish suv solig‘ini "ifloslantiruvchi/isrof qiluvchi to‘laydi" tamoyili asosida keskin differensiatsiya qilishni talab etadi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, suv solig‘i stavkalarini faqat makroiqtisodiy inflyatsiya darajasiga moslab indeksatsiya qilish ekologik samara bermaydi. Buning

o‘rniga, institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish zarur. Birinchidan, sanoat korxonalari uchun suvni qayta ishlatish tizimlarini joriy etganlik uchun suv solig‘idan vaqtinchalik ozod qilish yoki "nol" darajasidagi stavkani qo‘llash mexanizmini ishlab chiqish kerak. Ikkinchidan, soliq ma’murchiligida raqamli texnologiyalarni, xususan, aqlli hisoblagichlar va blokcheyn texnologiyasiga asoslangan markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasini qo‘llash orqali suv olish hajmining real vaqt rejimida hisobini yuritish lozim. Bu orqali soliq bazasini yashirishning oldi olinadi va soliq nazorati shaffoflashadi.

Shuningdek, suvning sifat ko‘rsatkichlarini soliqqa tortish ob’ektiga kiritish maqsadga muvofiq. Oqava suvlarni tabiiy havzalarga tozalamasdan tashlayotgan sub’ektlar uchun suv solig‘ining jarimaviy (progressiv) stavkalarini qo‘llash ekologik javobgarlikni oshiradi. Xulosa qilib aytganda, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq faqat majburiy to‘lov emas, balki xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni innovatsion, suv tejovchi va ekologik toza texnologiyalarga investitsiya kiritishga majbur qiluvchi va ayni paytda rag‘batlantiruvchi kuchli iqtisodiy richag sifatida qayta formatlanishi shart. Bu yashil iqtisodiyotning bazaviy tayanchi bo‘lib xizmat qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Pigou, A. C. (1920). *The Economics of Welfare*. Macmillan and Co.
2. Titenberg, T., & Lyuis, L. (2018). *Ekologik iqtisodiyot va tabiiy resurslar siyosati*. Routledge.
3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (2020 yil tahriri, qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan).
4. OESR (2021). Ekologik soliqlar: dizayni va joriy etish amaliyoti (OECD Environmental Taxation Policy).

MOL-MULK VA YER SOLIQLARINING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDAGI ROLI

Sirojetdinov Shohruxbek Bokijonovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Tezisda yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini ekologik jihatdan modernizatsiya qilish masalalari o‘rganilgan. An’anaviy mulkiy soliqlarning yashil investitsiyalarga ta’siri baholanib, energiya tejamkor binolar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi korxonalar uchun fiskal imtiyozlar tizimini takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Degradatsiyaga uchragan yerlar va yuqori uglerod iziga ega ob’ektlarga nisbatan ekologik soliq yukini oshirish mexanizmlari ilmiy asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, energiya samaradorligi, ekologik modernizatsiya, yashil binolar, uglerod izi, soliq imtiyozlari, ESG standartlari.*

Abstract: *The thesis studies the issues of ecological modernization of property and land taxes of legal entities. The impact of traditional property taxes on green investments is assessed, and ways to improve the system of fiscal incentives for energy-efficient buildings and enterprises using renewable energy sources are indicated. The mechanisms for increasing the ecological tax burden on degraded lands and objects with a high carbon footprint are scientifically based.*

Keywords: *Land tax, property tax, energy efficiency, ecological modernization, green buildings, carbon footprint, tax incentives, ESG standards.*

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida korporativ sektorning ekologik mas’uliyatini oshirishda mulkiy soliqlar (er va mol-mulk soliqlari) strategik vosita hisoblanadi. Odatda, soliq tizimida mol-mulk solig‘i ko‘chmas mulkning kadastr yoki bozor qiymatidan, yer solig‘i esa yer uchastkasining maydoni va joylashuvidan kelib chiqib hisoblanadi. Biroq, bu an’anaviy yondashuv mulkning "ekologik izi" va energiya iste’moli darajasini e’tiborga olmaydi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mulkdan foydalanishning ekologik oqibatlari soliq bazasi va stavkalarini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanishi kerak.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bino va inshootlar global energiya iste’molining qariyb 40 foizini va issiqxona gazlari chiqindilarining 30 foizdan ortig‘ini tashkil qiladi. Shu bois, yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i mexanizmiga "ekologik chegirmalar" tizimini kiritish zarur. Xalqaro amaliyotda (masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida) LEED yoki BREEAM kabi xalqaro yashil bino sertifikatlariga ega bo‘lgan ob’ektlar mol-mulk solig‘idan qisman yoki to‘liq ozod qilinadi. O‘zbekiston sharoitida energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan materiallardan qurilgan, o‘z ehtiyojini qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh panellari, shamol generatorlari) hisobidan qoplayotgan korxonalar uchun mol-mulk solig‘i stavkasini kamaytirish koeffitsentlarini (masalan, 0.5 yoki 0.3) qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu chora korxonalarni energiya tejamkor texnologiyalarga sarmoya kiritishga bevosita undaydi.

Yer solig‘iga kelganda esa, vaziyat yanada murakkab. Yer solig‘ining yashil iqtisodiyotdagi roli yer resurslaridan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini saqlash bilan bog‘liq. Sanoat chiqindilari bilan ifloslangan yoki texnologik jarayonlar oqibatida degradatsiyaga uchragan yer maydonlari uchun oshirilgan yer solig‘i stavkalarini qo‘llash zarur. Bu "jarimaviy" soliq korxonalarni yerlarni rekultivatsiya qilishga va ekologik toza ishlab chiqarish sikllarini (ERP tizimlari orqali resurslarni boshqarish) joriy etishga majbur qiladi. Aksincha, sanoat zonalari atrofida yashil hududlar (ihota daraxtzorlari) yaratgan yuridik shaxslarning yer solig‘ini ushbu hududlar maydoniga mutanosib ravishda kamaytirish mexanizmi joriy etilishi lozim.

Shuningdek, zamonaviy soliq ma’murchiligida yer va mulkning ekologik holatini baholash uchun sun’iy intellekt (AI) va geoaxborot tizimlaridan (GIS) foydalanish orqali yer solig‘i bazasini avtomatik shakllantirish imkoniyati mavjud. Bu tizim tuproqning holati, binolarning issiqlik yo‘qotishi kabilarni kosmik suratlar orqali tahlil qilib, soliq organlariga aniq ma’lumot beradi. Xulosa o‘rnida, mol-mulk va yer soliqlarini ekologik differensiatsiyalash nafaqat davlatning yashil makroiqtisodiy maqsadlariga yetishini tezlashtiradi, balki korporativ sektorda ESG (Ekologik, Ijtimoiy va Korporativ boshqaruv) standartlarining keng yoyilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oates, W. E. (1995). Green taxes: can we protect the environment and improve the tax system?. *Southern Economic Journal*, 915-922.

2. Baumol, U., & Outs, U. (1988). *Ekologik siyosat nazariyasi*. Cambridge

University Press.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 16 fevraldagi "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-57-son qarori.

4. Bovenberg, A. L., & Goulder, L. H. (2002). Environmental taxation and regulation. *Handbook of public economics*, 3, 1471-1545.

JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN TO‘LANADIGAN YER VA MOL-MULK SOLIQLARINING YASHIL IQTISODIYOTNI TA’MINLASHDAGI HISSASI

Sirojetdinov Shohruxbek Bokijonovich
Qo‘qon universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi
Sodiqova Maftunaxon Ruziboy qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda makroiqtisodiy ekologik barqarorlikka erishishda mikro darajadagi o‘zgarishlar, xususan uy xo‘jaliklari va jismoniy shaxslarning roli tahlil etiladi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer va mol-mulk soliqlari mexanizmlariga ekologik mezonlarni kiritish orqali aholining ekologik madaniyatini shakllantirish va "yashil xulq-atvorni" rag‘batlantirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Uy-joylarda energiya tejamkorligini oshirish va shaxsiy tomorqalardan oqilona foydalanishda fiskal vositalarning samaradorligi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy shaxslar soliqlari, yashil iqtisodiyot, ekologik xulq-atvor, energiya samaradorligi, uy-joy sektori, fiskal rag‘batlantirish, mulkiy soliqlar, progressiv soliq.

Asosiy matn: Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi faqatgina yirik sanoat va korporativ sektorni emas, balki aholining kundalik turmush tarzini ham tubdan o‘zgartirishni nazarda tutadi. Bu jarayonda jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan mulkiy soliqlar (er va mol-mulk solig‘i) aholining ekologik xulq-atvorini shakllantiruvchi, ularni muqobil energiya manbalariga o‘tishga va tabiiy resurslarni asrashga undovchi kuchli "turtki" (nudge theory - xulq-atvor iqtisodiyoti doirasida) bo‘lib xizmat qilishi kerak. Bugungi kunda O‘zbekistonda uy-joy fondi va xususiy yer uchastkalari energiya va suv resurslarining asosiy iste’molchilaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, jismoniy shaxslar soliqlari faqat fiskal (byudjetni to‘ldirish) funksiyasini emas, kuchli tartibga soluvchi va ekologik tarbiyaviy funksiyani ham bajarishi lozim.

Birinchi navbatda, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bazasini va stavkalarini binoning energiya samaradorligi toifasiga (energoaudit natijalariga) bog‘lash konseptual ahamiyatga ega. Amaldagi tizimda soliq uyning kadastr qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi. Agar fuqaro o‘z xonadonining issiqlik izolyatsiyasini yaxshilasa, quyosh suv isitgichlari yoki fotoelektr stansiyalarini o‘rnatsa, uning mulkining kadastr qiymati oshadi va mantiqan ko‘proq soliq to‘lashiga to‘g‘ri keladi. Bu esa yashil investitsiyalarni jazolovchi anti-rag‘bat mexanizmidir. Yashil iqtisodiyot paradigmasida esa, aksincha, yashil texnologiyalarni o‘rnatgan jismoniy shaxslar ma’lum muddatga (masalan, 3-5 yil) mol-mulk solig‘idan ozod qilinishi yoki soliq summasidan mazkur texnologiyalar

xarajatining bir qismi chegirib tashlanishi amaliyoti joriy etilishi shart. Bu aholi o‘rtasida quyosh panellarini o‘rnatishni keskin ommalashtiradi.

Ikkinchidan, jismoniy shaxslarning yer solig‘i tizimida yer uchastkalaridan maqsadli va ekologik xavfsiz foydalanishni rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Shaxsiy tomorqa yerlarida suv tejovchi texnologiyalarni (tomchilatib sug‘orish) qo‘llagan, tuproqni kimyoviy o‘g‘itlarsiz (organik dehqonchilik) qayta ishlayotgan yoki o‘z hududida mevali va manzarali daraxtlar ekib, mikro-iqlim yaratgan fuqarolarga nisbatan yer solig‘ining kamaytirilgan stavkalarini qo‘llash ijobiy samara beradi. Shu bilan birga, haddan tashqari katta maydonni egallagan va resurslarni ko‘p talab qiluvchi (masalan, xususiy basseynlari bor yoki ulkan issiqxonalari mavjud) mulklar uchun progressiv (o‘suvchi) ekologik soliq stavkalari joriy qilinishi ijtimoiy va ekologik adolat tamoyillariga mos keladi.

Mazkur mexanizmlarni amaliyotga joriy etishda raqamli texnologiyalar, xususan, kadastr va soliq organlarining integratsiyalashgan ma’lumotlar bazalari muhim rol o‘ynaydi. Har bir xonadonning energiya iste’moli va ekologik faolligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yagona platformada jamlanib, soliqlarni hisoblash jarayoni to‘liq avtomatlashtirilishi lozim. Xullas, jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlarini ekologik motivlar bilan boyitish, yurtimizda yashil madaniyatni pastdan-tepaga qarab rivojlantirishning eng samarali va arzon fiskal yo‘llaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Thaler, R. H., & Sunstein, C. R. (2008). *Nudge: Improving decisions about health, wealth, and happiness*. Yale University Press.

2. Kosonen, K. (2012). Regressivity of environmental taxation: myth or reality?. *European Commission Research Paper*.

3. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, XII va XIII bo‘limlar.

4. Miller, A. (2019). Xulq-atvor iqtisodiyoti va soliqqa tortish: uy xo‘jaliklari misolida. *Moliyaviy tahlilnoma*, 45-58.

MONETAR SIYOSATINING STRATEGIK VA TAKTIK MAQSADLARI

Yaxshiyeva Mavluda Tursunovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, i.f.n.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida shu davrda YAIMni aholi jon boshiga 1,6 barobarga oshirish, 2030 yilga borib esa, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollariga yetkazish hamda daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar safidan o‘rin olishga zamin yaratish belgilangan.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish ko‘p jihatdan iqtisodiyotda amal qiluvchi pul-kredit mexanizmlarining takomillashuv darajasiga uzviy bog‘liqdir. Bu esa, iqtisodiyotda vujudga keladigan ayrim nomutanosibliklarni o‘z vaqtida va muvaffaqiyatli bartaraf etishda, hamda monetar siyosat instrumentlarining (qayta moliyalashtirish stavkasi va majburiy zahiralar normasi) ta’sirchanligini oshirishda to‘siq bo‘la oladigan mavjud muammolarning aniqlanishi va hal qilinishini taqozo etadi. Hozirgi jadal iqtisodiy islohotlar davrida milliy xo‘jalikning samarali faoliyat

yuritishi uchun pul-kredit siyosati orqali makroiqtisodiy barkarorlikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Umumdavlat iqtisodiy siyosatini tarkibiy va ajralmas qismi sifatida monetar siyosat mamlakatda narxlar barqarorligini ta’minlash asosida iqtisodiy o‘sishga, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish va uni yanada mustahkamlashda muhim o‘rin tutishi allaqachon jahon tajribasida isbotlangan. Aksariyat markaziy banklar uchun pul-kredit siyosatining so‘nggi maqsadi milliy valyutaning qiymatini ichki va tashqi bozorlarda saqlash hisoblanadi. Milliy iqtisodiyot doirasida bu inflyasiyani past va barqaror darajada ushlab turishni anglatadi. Shu bilan birga liberallashgan iqtisodiy tizimlar sharoitida markaziy banklar inflyasiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat kila olmaydi; buning o‘rniga ular foiz stavkalariga, iqtisodiyotdagi pul massasi yoki kredit hajmiga ta’sir qilish orqali inflyasiyani bilvosita nazorat qilishga harakat kiladilar.

Mamlakatimizda “Pul-kredit siyosatining 2025 yil va 2026-2027 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari”da ko‘rsatib o‘tilgan O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy ssenariysidan farqli ravishda muqobil ssenariy doirasida, tashqi sharoitlarning birmuncha noqulay shakllanishi oqibatida ichki narxlarga qo‘shimcha bosim yaratilishini inobatga olib, 2025 yilda inflyasiya darajasi 7-8 foiz atrofida bo‘ldi. Bunda, doimiy targetga erishish davri yanada uzoqroq muddatga kechikib, 2026 yilda inflyasiya 6-7 foiz atrofida bo‘lishi va 2027 yil yakuniga kelib 5 foizgacha pasayishi prognoz qilinmoqda.

Iqtisodiyotda yalpi talabni rag‘batlantiruvchi omillarning ta’siri ortib, talabning taklif omillariga nisbatan tezroq tiklanishi natijasida iste’mol savatining mahsulotlar guruhlarida keng qamrovli narx oshishi kuzatildi. Inflyasiya darajasining ishonchli barqaror pasayib borishi bilan Markaziy bankning asosiy stavkasi mos ravishda pasaytirib borilishi mumkin. Bunda kelgusi davrdagi ehtimoliy inflyasion xatarlar va kutilmalar atroflicha o‘rganiladi hamda pul-kredit sharoitlarini belgilashda “ehtiyotkorona” yondashuv saqlab qolinadi. Joriy va kelgusi yilda pul-kredit sharoitlari fiskal siyosat parametrlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Bunda, rag‘batlantiruvchi fiskal sharoitlar saqlanib qolgan vaziyatda inflyasiyaga monetar omillar ta’sirini qisqartirish uchun pul-kredit sharoitlarini yanada qat’iylashtirish talab etilishi mumkin. Aks holda, fiskal siyosatning rag‘batlantiruvchi ta’siri iqtisodiyotda yalpi talabni qo‘llab-quvvatlashi orqali inflyasiyaga bo‘lgan bosimlarning sezilarli ortishiga olib keladi.

Pul-kredit siyosati instrumentlari pul-kredit va moliyaviy sharoitlarga ta’sir qilish uchun markaziy bank tasarrufidagi qurol hisoblanadi. Aytish joizki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida mamlakatimiz pul-kredit siyosatida monetar siyosatni asos qilib olish orqali islohotlarni chuqurlashtirish uchun shart-sharoit yaratish bilan birgalikda xo‘jalik sub’yektlarini moliya, pul-kredit vositalari orqali rag‘batlantirish vazifasi turadi. Pul-kredit vositalari va usullarini isloh qilish taktik va strategik vazifalarni ajratishga asoslanadi. Strategik vazifa shakllangan bozor iqtisodi amal qilayotgan mamlakatlar uchun xos bo‘lgan, pul-kredit nazoratining umumiy qabul qilingan vositalaridan foydalana boshlashdir. Ushbu maqsadga erishish uzviy ravishda bir qator bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Monetar tartibga solish vositalarini takomillashtirishni bosqichlarga bo‘lish o‘tish

davrining muayyan tarixiy bosqichlarini hisobga olish zarurati bilan belgilanadi. Bank tizimining taraqqiyoti aniq belgilangan maqsad, vazifalar va tamoyillarga asoslanadi. Ushbu maqsad, vazifa va tamoyillar respublika iqtisodiyotini isloh qilish jarayonida umumiqtisodiy masalalarni hal etish bilan bog‘liqdir.

Markaziy bank tomonidan samarali pul-kredit siyosati yuritilishi natijasida iqtisodiyotda inflyasiyaning barqaror past darajasi ta’minlanishi va narxlardagi keskin tebranishlarning oldi olinishi, o‘z navbatida, aholi turmush farovonligini oshirish va biznes yuritish uchun qulay muhitni yaratishga asosiy poydevorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi Pul-kredit siyosatining o‘ta qat’iylashtirilishi iqtisodiyotdagi investision faollikning susayishiga olib kelishi mumkin. Uning asossiz yumshatilib, kreditlash hajmlarining keskin oshirilishi esa iste’mol va investision talabni rag‘batlantirish bilan bir qatorda inflyasiya darajasining keskin oshib ketishiga ham sabab bo‘ladi.

Ta’kidlash zarurki, birgina pul-kredit siyosatining o‘zi mamlakat iqtisodiy salohiyatini barqaror oshirishning asosiy manbai bo‘la olmaydi. Uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiyotda raqobat muhitini yaxshilash, mehnat unumdorligi va energiya iste’moli samaradorligini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiyotning ichki va tashqi raqobatbardoshligini kuchaytirish, biznesni tashkil etish va yuritishni yengillashtirishga qaratilgan davomli tarkibiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Xalqaro tajriba bozor iqtisodiyoti sharoitida pul-kredit siyosatini yuritishning samarali usullaridan biri inflyasion targetlash rejimi ekanligini ko‘rsatmoqda, bunda pul-kredit bozoridagi markaziy bankning faol ishtiroki, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning muntazam tahlili va davlat siyosati rejalarining keng yoritib borilishi inflyasiyaning miqdoriy maqsadlariga erishishni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi 2023 yil 11 sentyabrdagi 158-sonli Farmoni.

2. Pul-kredit siyosatining 2025 yil va 2026-2027 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025 yil Dastlabki konseptual loyiha.

3. M.T.Yaxshieva. Monetar nazariya va siyosat: 0 ‘quv qo‘llanma. -T .: «Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021y ,140 bet.

4. http://cbu.uz//

THE FUTURE OF THE “GREEN ECONOMY” IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, REFORMS AND NEW IDEAS

Y.Axmedova, Assistant of the Department of Economics and Management, Jizzakh Polytechnic Institute

e-mail: yulduzaxmedova1981@gmail.com

Abstract: Uzbekistan is currently undergoing an important stage in the transition toward a green economy. The introduction of renewable energy sources, improvement of energy efficiency, and development of environmentally friendly

industries are becoming the foundation for sustainable development. Climate change, water scarcity, air pollution, and energy security issues are encouraging countries to adopt new economic models based on green growth principles. In Uzbekistan, ensuring green development has been elevated to the level of state policy. In recent years, significant legal and institutional frameworks related to renewable energy, green investments, ecological transport, and energy efficiency have been created. This article analyzes the prospects of the green economy in Uzbekistan, current reforms, innovative approaches, and future opportunities for sustainable economic growth.

Keywords:green economy, renewable energy, sustainable development, green finance, environmental protection, energy efficiency, climate change, green technologies, water management, green transport.

Introduction

Today, the transition to a green economy has become one of the most important priorities for countries seeking sustainable development and environmental stability. Global challenges such as climate change, environmental degradation, water shortages, and increasing energy demand require the introduction of environmentally friendly economic mechanisms and innovative technologies.
Uzbekistan is also actively implementing reforms aimed at achieving green growth and ensuring environmental sustainability. The country possesses significant natural potential, especially in the field of solar energy, and is gradually introducing renewable energy technologies, water-saving systems, and ecological industrial solutions.

The adoption of the “Uzbekistan–2030” Strategy and the national program for the transition to a green economy until 2030 demonstrates the country’s commitment to sustainable development principles. Within this framework, important measures have been identified to reduce greenhouse gas emissions, increase the share of renewable energy, improve industrial energy efficiency, and expand green urban infrastructure.

Main Directions of Green Economy Development in Uzbekistan Renewable Energy Sources. Uzbekistan has favorable climatic conditions with more than 300 sunny days per year, making the country one of the most promising regions for solar energy development. In recent years, large-scale solar and wind power plants have been launched in regions such as Navoiy, Bukhara, Samarkand, and Kashkadarya. According to national development goals, by 2030 Uzbekistan plans to significantly increase the share of renewable energy in electricity generation. The following strategic directions are expected to become especially important:

- establishment of local solar panel production;
- development of energy storage battery industries;
- promotion of household micro-solar stations;
- implementation of autonomous energy systems in rural areas.

The development of renewable energy not only contributes to environmental protection but also strengthens the country’s energy independence and investment attractiveness.

Water Resource Management

Climate change remains one of the most serious challenges for Central Asia. As a country facing increasing water scarcity, Uzbekistan is actively introducing water-saving technologies, digital water monitoring systems, and modern irrigation methods.

Government initiatives aim to introduce water-saving irrigation technologies on up to one million hectares of agricultural land. In the future, the following innovative solutions may become highly important:

smart irrigation systems;

artificial intelligence-based water management;

desalination and water purification technologies;

digital water consumption passport systems.

Efficient water management is essential for ensuring food security, agricultural productivity, and ecological sustainability. Green transport development the transport sector is considered one of the major sources of carbon emissions. Therefore, the development of electric vehicles, electric buses, and hydrogen fuel technologies has become strategically important.

Today, Uzbekistan provides customs privileges for electric vehicles and continues expanding charging infrastructure across major cities. Future initiatives may include:

creation of zero-emission zones in Tashkent and other large cities;

use of only electric vehicles in government institutions;

hydrogen-powered public transportation systems;

expansion of bicycle and pedestrian infrastructure.

These measures can significantly reduce environmental pollution and improve urban living conditions.




Figure 1 illustrates the main strategic directions for developing green human capital in Uzbekistan within the framework of the green economy transition. The figure highlights three priority areas: establishing the national program “Green Skills Uzbekistan,” introducing green professions in universities and technical colleges, and supporting ecological startups through grants and innovation programs.

As shown in the figure, the development of renewable energy engineering, environmental management, green construction, sustainable agriculture, and waste management education plays an important role in preparing qualified specialists for the future labor market. In addition, the image emphasizes the importance of financial and institutional support for ecological entrepreneurship through startup incubation, mentorship, and innovation funding.

Overall, Figure 1 demonstrates that strengthening green human capital is one of the key factors for ensuring Uzbekistan’s long-term economic competitiveness and sustainable development.

The successful implementation of green economy reforms depends on effective public administration, technological innovation, legal improvements, and active participation of society and the private sector. Expanding renewable energy, improving water management, developing green transport, and strengthening green finance mechanisms will allow Uzbekistan to build a competitive and environmentally sustainable economy in the future.

In conclusion, strengthening cooperation between the state, business sector, and civil society is essential for ensuring ecological and economic stability and achieving the country’s long-term sustainable development goals.

References

Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National Strategy for Transition to a Green Economy until 2030.

United Nations Development Programme Reports on Sustainable Development and Green Growth.

World Bank. Green Economy Transition in Central Asia.

International Energy Agency. Renewable Energy Development Outlook for Emerging Economies.

Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan on the Implementation of the “Uzbekistan–2030” Strategy.

GLOBAL IQTISODIYOTDA RAQAMLASHTIRISH VA UNING MEHNAT BOZORIGA TA`SIRI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
Ne’matova Zarina Ochilboyevna
e-mail: zarinanematova.oo7@gamil.com

XX asrning 1940-yillari oxirida kata hajmdagi axborotni qayta ishlashga qodir bo‘lgan dastlabki kompyuterlarning paydo bo‘lishi kompyuterlashtirishning keng ko‘lamda rivojlanishiga turtki berdi.1960-yillarga kelib esa ishlab chiqarishni boshqarishda dastlabki avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yaratildi va joriy etildi. Keyingi o‘n yilliklar davomida ilmiy hamjamiyat raqamli texnologiyalarga

asoslangan tizim sifatida raqamli iqtisodiyot poydevorini shakllantirishga salmoqli hissa qo‘shdi.

Ba’zi tadqiqotchilar ish tavfsiflari va ish o‘rnini yo‘qotish xavfi o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni emas, balki qaysi turdagi ishlar avtomatlashtirish yoki sun’iy intellekt tomonidan almashtirilmasligini o‘rganadi. Xususan, Autor (2015), Fagan (2017), Furman (2017) va Couple (2019) ijodkorlik va murakkab muammolarni hal qilish qobilyatiga e’tibor qaratadi. Brynjolfsson, McAfee va Jurvetson (2015) g‘oya yaratish, keng ko‘lamli andozalarni tanish, qaror qabul qilish va murakkab muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Mokyr, Vickers Ziebarth (2015) esa kodlashtiriladigan va takrorlanuvchi vazifalarni mexanizatsiya qilish uchun eng qulay nomzodlar deb hisoblaydi.

Morikawa (2017) Yaponiyada kasbiy yoki magistratura darajasiga ega, tabiiy fanlar yo‘nalishida tahsil olgan yoki kasbiy litsenziyaga ega bo‘lgan xodimlar avtomatlashtirish va robotlar sababli ishidan ayrilishdan kamroq qo‘rqishini aniqlagan. Shuningdek, Morikawa (2017) fikriga ko‘ra, yosh avlod vakillari oldinda uzoq texnologik rivojlanish davri turgani sababli ish o‘rnini yo‘qotish xavfini yuqoriroq baholaydi. Aksincha, Yangi Zelandiyada o‘tkazilgan tadqiqot (Heatley 2020)’’ robotlar va suniy intellekt odamlarning ishini tortib oladi ‘’ degan fikrga munosabat yosh bo‘yicha kata farq qilmasligini ko‘rsatgan.

Biroq, ayni tadqiqot daromadi 50 ming AQSH dollaridan yuqori bo‘lganlar bilan undan kam daromad oluvchilar o‘rtasida ish o‘rnini yo‘qotish xavfi sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi. Kam daromadli guruhdagilar ko‘proq xavotir bildirgan.

Van Ark (2016) “unumdorlik paradoksi’’ni muhokama qilib, raqamli texnologiyalar keng joroy etilganiga qaramay, unumdorlik o‘sishi tarmoqlar bo‘yicha notekis ekanini qayd etadi. Bessen(2019) esa bandlikka ta’sir faqat avtomatlashtirish bilan emas, balki talab tomoni reaktsiyalari bilan ham bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Xuddi shuningdek, XTM (2021) raqamli mehnat platformalarining global bandlik tuzilmalariga o‘zgartiruvchi, ammo notekis ta’sirini qayd etadi.

O‘zbekiston AKT rivojlanishi 2013-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi milliy axbor ot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish Kompleksi dasturiga muvofiq amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning emg muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisdagi maruzasida qayt etgamdek “Bizning navbatdagi kechiktirib bo‘lmaydigan va istiqboldagi vazifamiz-” Elektron xukumat’’ tzimi samarali ishlashini taminlashdan iborat. Qo‘yilgan vazifalarni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Jaxon banki raqamli iqtisodiyot va elektron xukumat soxasida qo‘shma loyixalarni amalga oshirishni rejalashtirgan. Respublikamizda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining xozirgi bosqichi shakllanish davri va rivojlanish dinamikasi yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 31 kishi kompyuterga

asoslangan soha egalari va 19 kishi inson omili bilan bog‘liq jismoniy faoliyat egalari va 7 kishi javob berishdan bosh tortishgan. Ushbu soha keying yillarga jadal sur’atlarda rivojlanmoqda va AI ekspertlariga ta’lab ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar raqamlashtirishni asosiy sohalardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tishgan. Elektr energiyasi kabi suniy intellekt ham hayotimizning ajralmas qismi sifatida o‘rin oladi. Kelajakda AI insonlarning ish o‘rnini tortib olmaydi. Faqat kasblar ham zamonga moslashib o‘zgarib boradi vs AI Data scientist, Machine Learning engineer, Software developer Cybersecurity mutaxassisi va Cloud computing mutaxassisi kabi sohalarda yangi ish o‘rinlari yaratadi. Yangi zamonaviy kasblar vujudga keladi, o‘z sohasining eksperti bo‘lgan kadrlarga talab kuchli bo‘ladi. Shuni ham takidlab o‘tish joizki akademik ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar mehnat bozorida raqobatbardoshroq hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda ish e’lonlari tahliliga ko‘ra, AI va mashina o‘rganish ko‘nikmalariga bo‘lgan talab taxminan 65% ga, ma’lumotlarni tahlil qilsh (Data Analytics) bo‘yicha ta’lab taxminan 56% ga, va avtomatlashtirish hamda robototexnika sohasida talab taxminan 36 %ga oshgan.

Olib borilgan tadqiqot tadqiqot orqali rivojlanayotgan davlatlar qatorida bo‘lgan O‘zbekistonning poytaxti Toshkentda raqamlashtirish sohasi qanchalik keng ko‘lamga egaligi ko‘rib o‘tildi. Javob berishdan bosh tortgan 7 kishi bo‘lsa yaqin yillarda kasbiga ta’labning pasayib ketishidan qo‘rquvda bo‘lishi mumkin.R.Shodiyev ishchi kuchining raqamli texnalogiyalarg atayyor emasligini dolzarb muammo sifatida aragan, ammo shuni takidlab o‘tish joizki bugungi kunda yurtimizda raqamlashtirishning ta’lim sohasida ham muhim o‘zgarishlar olib borilmoqda, kelajakda sifatli kadrlarni tayyorlash ko‘zda tutilgan. Morikawa (2017) ham yosh avlod vakillari oldinda uzoq texnologik rivojlanish davri turganlgi sababli ish o‘rnini yo‘qotish xavfini yuqori baholagan biroq bessen Couple va Yangi Zenlandiyada o‘tkazilgan tajribalar o‘rta talim darajasiga ega bo‘lgan qatlamgina ish o‘rnini yo‘qotib qo‘rishdan qo‘rqishini ko‘rsatadi.

Raqamlashtirish bugungi hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylanib ulgurdi. Barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlarlar o‘z iqtisodiyot va boshqa bir qator sohalarida ham raqamlashtirsh va sun’iy intellektdan foydalanishga o‘tmoqda. Raqamlashtirish, sun’iy intellekt inson kuchi bilan yaratilgan, shuningdek uni boshqarish ham insonnig o‘z qo‘lida. Bularning barcgasi inson hayotini, turnush tarzini yengillashtirish maqsadida yaratilgan hisoblanadi. U ba’zi ish o‘rinlarini qisqartirish bilan bir qatorda yangi ish o‘rinlari ham yaratadi. Yangi yangi kasblarni vujudga keltiradi, yillar o‘tgan sari kasblar ham zamonaviylashib texnologiyalar bilan bir qatorda rivojlanib boradi. Bu kasblar AI mutaxasissi, Data analyst, Data scientist, Mchine learning engineer, Dasturchi,Cybersecurity mutaxassisi va bir qator shu kabilardir. Olib borilgan tadqiqotimizning ham natijasi shuni ko‘rsatadi. Mehnat bozorida o‘z kasbinig mutaxasisi bo‘lgan kadrlarga talab hamisha bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida // “Yashil iqtisodiyot taraqqiyoti” ilmiy jurnali.

3.‘’Raqamli iqtisodiyot’’ o‘quv qo‘llanma -2020. C.C.Gulyamov,

R.X.Ergashev, C.N.Xamrayeva.

4. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishga oid ilmiy maqola: 4391_459–473.pdf.

5. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/254/50

6.https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/164/158.

IQLIM O‘ZGARISHLARINING QISHLOQ XOJALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHGA TASIRI

Sherkulov Shohruh Erkin o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsent v.b., i.f.b.f.d.(PhD).
Qo‘chqorboyev Sobirjon Zafarbek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda iqlim o‘zgarishlarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishiga ta’siri makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilingan. Xususan, haroratning oshishi, yog‘ingarchilik miqdorining o‘zgarishi va suv resurslarining qisqarishi natijasida hosildorlik darajasining pasayishi ko‘rib chiqiladi. Mazkur jarayonlarning yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya darajasi, bandlik ko‘rsatkichlari hamda tashqi savdo balansiga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, iqlim o‘zgarishlariga moslashishning iqtisodiy mexanizmlari va qishloq xo‘jaligida barqaror ishlab chiqarishni ta’minlash yo‘llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari iqlim o‘zgarishlarining iqtisodiyotga kompleks ta’sirini baholash hamda samarali agroiqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, qishloq xo‘jaligi, hosildorlik, yalpi ichki mahsulot (YaIM), inflyatsiya.

Kirish

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi global miqyosdagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida e’tirof etilib, uning salbiy oqibatlari qishloq xo‘jaligi sohasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, haroratning oshishi, suv resurslarining kamayishi va qurg‘oqchilik holatlarining ko‘payishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlarda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda iqlim o‘zgarishlariga moslashuv choralarini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” 2023-yil 11-sentabrda 158-sonli farminiga kora, qishloq xo‘jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, strategiyaning 63-bandida suv resurslaridan samarali va tejamkor foydalanishni ta’minlash, zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish hamda sug‘orish tizimlarini takomillashtirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan.Mazkur yo‘nalish iqlim o‘zgarishlari sharoitida suv tanqisligini kamaytirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash va hosildorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Asosiy qism.

Iqlim o‘zgarishlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayoniga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, haroratning oshishi, yog‘ingarchilik

miqdorining kamayishi hamda suv resurslarining qisqarishi natijasida ekinlar hosildorligi pasayadi. Bu esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmining kamayishiga olib keladi.Makroiqtisodiy nuqtai nazardan, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, u yalpi ichki mahsulot (YaIM) shakllanishida sezilarli ulushga ega. Iqlim o‘zgarishlari natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining qisqarishi YaIM o‘sish sur’atlarining sekinlashuviga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, qurg‘oqchilik yillarida don, paxta va boshqa strategik ekinlar hosildorligining pasayishi umumiy iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yillar	**YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushi (%)**
2019	28.0 %
2020	26.9 %
2021	25.3 %
2022	24.1 %
2023	23.5 %
2024	23.0 % *(baholangan)*
2025	22.5 % *(prognoz)*

Jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekiston Respublikasi YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushi yildan-yilga pasayish tendensiyasiga ega. 2024-yil uchun baholangan va 2025-yil uchun prognoz ko‘rsatkichlari ham ushbu tendensiyaning davom etishini ko‘rsatadi.[2] Bu holat bir tomondan iqtisodiyotning sanoat va xizmatlar sohasiga o‘tib borishi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan iqlim o‘zgarishlari natijasida agrar sektor samaradorligiga bosim ortayotganini ham ifodalaydi. Shu sababli qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi o‘zgarishlar mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon iqtisodiyotning bosqichma-bosqich diversifikatsiyalanishi bilan birga, agrar sektorga iqlim omillarining kuchayib borayotgan ta’siri bilan ham izohlanadi.Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham iqlim sharoitlariga sezgir hisoblanadi. Masalan, qurg‘oqchilik kuzatilgan yillarda paxta va g‘alla hosildorligi o‘rtacha 10–15 foizgacha kamayishi mumkinligi qayd etilgan. Bu esa ichki bozorda taklifning qisqarishiga olib kelib, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishiga sabab bo‘ladi.Inflyatsiya ko‘rsatkichlari ham ushbu jarayonga bog‘liq holda o‘zgaradi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishi umumiy inflyatsiya darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, ayrim yillarda uning tarkibida 40 foizgacha ulushni tashkil etishi mumkin. Bu aholi real daromadlarining kamayishiga olib keladi.Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport salohiyati ham iqlim o‘zgarishlariga bog‘liq. So‘nggi yillarda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 1,2–1,5 milliard AQSH dollari atrofida shakllangan bo‘lsa-da, hosildorlikdagi tebranishlar ushbu ko‘rsatkichning barqarorligiga ta’sir qilmoqda. Suv tanqisligi va qurg‘oqchilik sharoitida eksport hajmining kamayishi tashqi savdo balansiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida bandlik darajasi ham yuqori bo‘lib, mamlakat aholining taxminan 25–27 foizi ushbu sohada band hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishlari natijasida hosildorlik pasayishi fermer xo‘jaliklari daromadining kamayishiga va qishloq hududlarida iqtisodiy faollikning susayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Iqlim o‘zgarishlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, mamlakatning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, haroratning oshishi, suv resurslarining kamayishi va qurg‘oqchilik holatlarining kuchayishi natijasida qishloq xo‘jaligi hosildorligi pasaymoqda. Bu esa o‘z navbatida yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida agrar sektor ulushining kamayishi, inflyatsiya darajasining oshishi hamda tashqi savdo balansining yomonlashuviga olib keladi.Shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasidagi bandlik darajasining yuqoriligi sababli, iqlim o‘zgarishlari ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ushbu muammoni chuqur o‘rganish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunga yana bir necha takliflar berish mumkin: Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish, iqlim o‘zgarishlariga chidamli ekin navlarini yaratish va seleksiya ishlarini rivojlantirish, agrar sektorda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish, davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar tizimini kuchaytirish, suv resurslarini boshqarish va melioratsiya tizimini modernizatsiya qilish orqali yerlarning unumdorligini oshirish, iqlim o‘zgarishlari monitoringini kuchaytirish va prognozlash tizimlarini takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son. – Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari. – https://stat.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy ma’lumotlari. – https://eco.gov.uz

4. Jahon banki (World Bank) – O‘zbekiston iqtisodiyoti va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ma’lumotlar bazasi. – https://worldbank.org

SUN’IY INTELLEKT VA IQTISODIYOT: “YASHIL IQTISODIYOT”NI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP-INNOVATSION G‘OYALAR VA ULARNING AHAMIYATI

Ochilova Gulnoza Odilovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida startaplarning tutgan o‘rni, ularning innovatsion g‘oyalari orqali xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari tahlil qilingan, xulosalar shakllantirilgan. Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy iqtisodiyotda o`zgartiruvchi kuch sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu maqola SI ning asosiy jihatlarini va uning turli sohalarga chuqur ta’sirini o‘rganadi. U SI asoslarini, uning ilovalari, afzalliklari va potentsial muammolarini o`rganadi va uning iqtisodiy dinamikani qayta shakllantirishdagi muhim rolini ta’kidlaydi. Sun’iy intellekt asosidagi inqilob chog`ida turibmiz, bu asosiy tamoyillarni tushunish

hukumatlar, biznes va jismoniy shaxslar uchun sun’iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanishda juda muhim.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, startap, innovatsiyalar, xalqaro investitsiya, ekologik texnologiya, barqaror rivojlanish, eksport, biznes-inkubator, Machine Learning, Deep Learning, NLP, Computer Vision, avtomatlashtirish Sun’iy intellekt, kompyuter fanining bir tarmog`i, muammoni hal qilish, qaror qabul qilish va o`rganish kabi odatda inson aql-zakovati talab qilinadigan vazifalarni bajara oladigan tizimlarni yaratishga qaratilgan.

Kirish. So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik muammolarning kuchayishi yashil iqtisodiyot konsepsiyasini ilgari surmoqda. Yashil iqtisodiyot - bu iqtisodiy o‘sish bilan birgalikda atrof-muhitni muhofaza qilishni ko‘zlagan strategik yondashuvdir. Mazkur konsepsiyaning muhim omillaridan biri - innovatsion startaplarning faoliyati sanaladi. Startaplar - bu tez rivojlanishga yo‘naltirilgan, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan kichik biznes loyihalar bo‘lib, ular ekologik muammolarga zamonaviy yechimlar taklif etadi. Ayniqsa, global bozorlar va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish jarayonida bunday startaplar strategik rol o‘ynaydi. Yashil iqtisodiyotda energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish kabi maqsadlar mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishlarda startaplar turli sohalarda innovatsiyalar yaratmoqda. Misol uchun, bioenergiya, suvni tejash texnologiyalari, ekologik qadoqlash va smart-qurilmalar bo‘yicha loyihalar soni ortmoqda. Yashil iqtisodiyot va startaplar bo‘yicha bir qator olimlar tadqiqot olib borgan. Xususan, Xalqaro Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (OECD) ma’lumotlariga ko‘ra, yashil iqtisodiyotda kichik biznes va innovatsion startaplar asosiy drayver hisoblanadi. Adabiyotlar sharhi. Chandler va Mazzucchelli ekologik startaplarning global investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini o‘rgangan va ular uchun biznes-inkubatorlar, xalqaro grant dasturlari muhim vosita bo‘lib xizmat qilishini aytib o‘tgan [Chandler va Mazzucchelli. 2019]. Shu bilan birga, BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) startaplarni yashil texnologiyalarning rivoji uchun muhim vosita sifatida ko‘rsatgan. O‘zbekistonda bu boradagi izlanishlar yangi bosqichda. “Yashil energiya” konsepsiyasining “O‘zbekiston - 2030” strategik dasturidagi o‘rni yuqori baholangan. Mahalliy olimlardan J.Q. Xudoyberganovning “Yashil iqtisodiyotda kichik biznesning roli” nomli ishida startaplar barqaror iqtisodiy o‘sishda alohida segment sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [J.Q. Xudoyberganov. 2022]. Shuningdek, innovatsion muhitni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha qo‘llanilayotgan choralar (Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Yevropa Ittifoqi bilan qo‘shma loyihalar) startaplar uchun xalqaro investitsiya imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil iqtisodiyotda startaplar ko‘plab davlatlar uchun strategik aktivga aylangan. Ular nafaqat ekologik muammolarni hal etadi, balki xalqaro moliyaviy oqimlar uchun ham samarali platformani taqdim etadi. Tahlil va natijalar. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi dunyo bo‘ylab tobora dolzarb bo‘lib borayotgan bir paytda, innovatsion startaplar ushbu modelning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik toza texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, suvni

tejovchi tizimlar va aqlli qishloq xo‘jaligi kabi yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan startaplar ko‘plab davlatlarda iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikni bir vaqtning o‘zida ta’minlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston sharoitida ham ushbu tendensiyalar asta-sekin rivojlanmoqda.

Yashil startaplarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi: quyosh energiyasi texnologiyalari, suv tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, aqlli qishloq xo‘jaligi va boshqalar. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot doirasidagi startaplar hali son jihatdan ko‘p bo‘lmasa-da, ular mamlakatning ekologik barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin tutmoqda. Ayni paytda bir nechta strategik yo‘nalishlar bo‘yicha innovatsion tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, quyosh panellarini ishlab chiqarish va ularni o‘rnatish bo‘yicha kichik korxonalar shakllanmoqda. Ushbu startaplarning ayrimlari BMT Taraqqiyot Dasturining “Yashil energiya” grant dasturlari orqali moliyalashtirilayotgani ularning barqaror faoliyat yuritishiga mustahkam asos yaratmoqda. Shuningdek, smart sug‘orish tizimlari, yomg‘ir suvini yig‘ish va filtrlash texnologiyalari ishlab chiqilishi qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qilmoqda. Bunday startaplar ayniqsa qurg‘oqchilik muammosi chuqurlashayotgan hududlarda o‘ta dolzarb hisoblanadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, plastmassa, qog‘oz va organik chiqindilarni saralash hamda ulardan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan startaplar faoliyati kengaymoqda. Ular ko‘pincha Ekoharakat fondlari va mahalliy davlat organlari bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Ekologik innovatsiyalar orasida sun’iy intellekt asosida ishlovchi iqlim monitoringi tizimlari, agro dronlar, tuproq tahlili dasturlari muhim o‘rin tutmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini ham beradi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalar — IoT, AI, Big Data va bulutli hisoblash — ekologik startaplar faoliyatida markaziy ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan “EcoSmartAgro” startapi dronlar yordamida dala yerlari holatini kuzatish, suv resurslarini tejash va optimal urug‘lash tizimini joriy etmoqda. Bu tajriba nafaqat hosildorlikni oshirish, balki resurslardan tejamkor foydalanishning samarali yechimiga aylanmoqda. Yashil startaplarni qo‘llab-quvvatlashda xalqaro donorlar va grantlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. UNDP, Global Ecological Fund (GEF), USAID, GIZ kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun turli yo‘nalishlarda yordamlar ajratilmoqda. Shu bilan birga, xususiy sektor investitsiyalari — venture capital fondlari va business angel investorlar tomonidan kiritilayotgan sarmoyalar asta-sekin kengayib bormoqda. Biroq, bu jarayon O‘zbekistonda hali to‘liq rivojlanmagan va uni jadallashtirish uchun qo‘shimcha institutsional va moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish zarur.Jahon tajribasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, Skandinaviya mamlakatlarida ekologik startaplar innovatsion markazlarda rivojlantiriladi va ular xalqaro inkubatorlar orqali global investitsiya muhitiga olib chiqiladi. Shunday tizim O‘zbekistonda ham shakllantirilsa, muhim natijalarga erishish mumkin.

O‘zbekiston “Yashil Ipak yo‘li” tashabbusi, COP28 global forumlari, BMT Atrof-muhit dasturi bilan hamkorlikda xalqaro platformalarda faol ishtirok etmoqda. Bu esa startaplar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ayniqsa,

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasining “raqamli va yashil iqtisodiyot” bo‘yicha bandlari asosida xorijiy sheriklar bilan hamkorlik qilish uchun qulay muhit yaratilmoqda. 2023-yilda O‘zbekistondagi 10 ga yaqin yashil startaplar Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan “Green Bridge Partnership” loyihasi orqali Germaniya, Polsha va Fransiyadagi startap markazlariga bog‘landi. Bu hamkorlik ularning texnologik salohiyatini oshirish bilan birga, mahsulotlarini eksport qilish imkonini ham taqdim etdi. Yashil startaplar faoliyatini cheklab kelayotgan asosiy muammolar sifatida quyidagilarni aytish mumkin.: Birinchi o‘rinda tajriba yetishmasligi. Ko‘pchilik yosh startap asoschilari ekologik texnologiyalar, xalqaro biznes va investitsiyalar borasida amaliy tajribaga ega emaslar. Shuningdek, moliyaviy infratuzilmaning zaifligi ham asosiy to‘siqlardan biri hisovlanadi. Mahalliy moliya institutlari ekologik startaplarni yuqori xavfli deb baholab, ularni moliyalashtirishdan ko‘ra boshqa sektorlarga ustuvorlik beradi. Texnik infratuzilmaning past darajasi esa sohani yana ham kengayishiga to‘siq bo‘ladi. Zamonaviy laboratoriyalar, test sinov markazlari va texnoparklar yetarli emasligi texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish va patentlashni qiyinlashtirmoqda.

Iqtisodiyotga sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi turli sohalarda tub o‘zgarishlarga olib keldi, biznesning ishlash usullari va jamiyatlar qanday ishlashini qayta belgilab berdi. Ushbu tezis iqtisodiyotdagi sun’iy intellekt asoslari haqida umumiy ma’lumot berishga va uning keng qamrovli oqibatlarini yoritishga qaratilgan. Mashinalarni o‘rganish (Machine Learning) - bu tizimlarga ma’lumotlardan o`rganish va aniq dasturlashsiz vaqt o`tishi bilan yaxshilash imkonini beruvchi SI ning kichik to`plami. Bu ko`plab SI ilovalarining asosi bo`lib, algoritmlarga bashorat qilish, naqshlarni tan olish va tavsiyalar berish imkonini beradi. Chuqur o`rganish (Deep Learning) - bu ma’lumotlarni modellashtirish va qayta ishlash uchun bir nechta qatlamli neyron tarmoqlardan foydalanadigan mashinalarni o`rganishning kichik to‘plami. Ushbu yondashuv tabiiy tilni qayta ishlash, tasvirni aniqlash va boshqalarda ajoyib yutuqlarga olib keldi. Tilni qayta ishlash (NLP) SI tizimlarini tushunish, talqin qilish va inson tilini yaratishni o`z ichiga oladi. U mijozlarni qo`llab-quvvatlash, kontent yaratish va ma’lumotlarni tahlil qilishda inqilob qildi. Kompyuterni ko`rish (Computer Vision) - bu SI sohasi bo‘lib, u mashinalarga dunyodagi vizual ma’lumotlarni, shu jumladan tasvirlar va videolarni talqin qilish va tushunish imkonini beradi. Ushbu texnologiya sog`liqni saqlash, avtomobilsozlik va nazorat kabi sohalarda qo‘llaniladi. 68 Sun’iy intellektga asoslangan robotlar va tizimlar takrorlanadigan va ko`p mehnat talab qiladigan vazifalarni bajarishi mumkin, bu esa korxonalar uchun samaradorlikni oshirish va xarajatlarni tejash imkonini beradi. Avtomatlashtirish ishlab chiqarish, logistika va mijozlarga xizmat ko‘rsatishda keng tarqalgan. SI bashorat qilish va qaror qabul qilishda ma’lumot berish uchun katta ma’lumotlar to`plamini tahlil qilishi mumkin. Bu xavfni baholash uchun moliyaviy xizmatlarda va maqsadli kampaniyalar uchun marketingda keng qo`llaniladi. Qo`shimchasiga u elektron tijorat, kontent oqimi va ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy tavsiyalar va tajribalar bilan ta’minlash, mijozlar ehtiyojini qondirish va ishtirokini oshirish uchun qo‘llaniladi. Sun’iy intelekt tibbiy diagnostika, dori-darmonlarni aniqlash va bemorlarni parvarish qilishda yordam beradi, sog`liqni saqlash sohasida aniqlik va

samaradorlikni oshiradi. O`zini boshqaradigan avtomobillar va dronlarning rivojlanishi transport va logistika sohasida inqilob yaratishga va’da beruvchi sun’iy intellekt texnologiyalari asosida amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotda sun’iy intellektning joriy etilishi turli afzalliklarni keltirib chiqaradi: Avtomatlashtirish va sun’iy intellektga asoslangan jarayonlar samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa yuqori iqtisodiy natijaga olib keladi. SI ilgari mehnat talab qiladigan yoki xatolarga moyil bo`lgan vazifalarni avtomatlashtirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga korxonalarga ilgari imkoni bo`lmagan yangi mahsulotlar, xizmatlar va yechimlarni ishlab chiqish imkonini berish orqali innovatsiyalarni rag`batlantiradi. Sun’iy intellekt ma’lumotlarga asoslangan tushunchalarni taqdim etadi, bu esa tarmoqlar bo`ylab qaror qabul qilishni yaxshilaydi va ko`proq xabardorlik va strategik tanlovlarga olib keladi. U ba’zi ish o`rinlarini almashtirishi mumkin bo`lsa-da, u sun’iy intellektni rivojlantirish, texnik xizmat ko`rsatish va nazorat qilishda yangi rollarni yaratadi va bandlik imkoniyatlariga hissa qo‘shadi. O`zining transformatsion salohiyatiga qaramay, SI ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Teknologiyalar va foydalanuvchilar so‘rovlariga qarab, ijtimoiy tarmoqlar yuqori tezlikda o‘zgarayotgan sohalardan faqat bir necha misollar hisoblanadi. Bu sababli, ijtimoiy tarmoqlarning kelajakdagi rivojlanish tamoyillarini aniqlash uchun yangiliklarni kuzatish va so‘rovlar bo‘yicha ma’lumotlarni olish tavsiya etiladi. Suniy intellekt (SI) va ijtimoiy tarmoqlar (IT) bugungi dunyoda juda muhim mavzulardir. Suniy intellekt (SI) kompyuter dasturlarining va tizimlarining insonlarga o‘xshash tushunchalarni o‘rganish, tushunish va amal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan texnologiyalarni ifodalaydi. Bu, kompyuter sistemalarini o‘rganish, tahlil qilish, maslahat berish, tanishlarini tasavvur qilish, o‘z-o‘zini o‘rganish va xotiralarini yodda saqlash kabi vazifalarni bajarishga imkoniyat beradi. Suniy intellektning bir nechta sohalarda foydasi bor, masalan, tibbiyot, kasbhunarmandchilik, transport, turizm, axborot texnologiyalari kabi sohalarda foydalanish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar (IT) esa kompyuterlar, mobil qurilmalar va boshqa 75 qurilmalar orqali axborotni almashinuvi va ulardan foydalanishda sherik bo‘lgan tarmoqlarni ifodalaydi. Bu tarmoqlar orqali axborot va ma’lumotlar o‘zaro almashtiriladi, mijozlar hamkorlik qilishi, kommunikatsiyani oshirishi, xizmatlarni taqdim etishi va boshqa bir qancha imkoniyatlarni berishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar internet, telefoniya tarmoqlari, elektron pochta, ijtimoiy media va boshqa kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda startaplar nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki xalqaro investitsiyalarni jalb qilish uchun ham muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston sharoitida ushbu yo‘nalishda sezilarli o‘sish kuzatilayotgan bo‘lsa-da, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti. Birinchidan startaplar yashil iqtisodiyotning innovatsion asosini tashkil qiladi va uning istiqbolli rivojlantirilishi davlat va jamiyat uchun birdek muhim hisoblanadi. Ikkinchidan yashil loyihalar xalqaro donorlar va investorlar uchun investitsiya jihatdan jozibali bo‘lib yuqori daromadli soha bo‘lishi mumkin. Uchinchidan yashil texnologiyalar bo‘yicha loyihalar ko‘plab ijtimoiy va ekologik muammolarni hal

etadi. Bu bir tomondan butun dunyo aholisining yashash sifatining yaxshilanishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan investorlar uchun barqaror daromad olishga yordam beradi. Ushbu sohani rivojlantirish uchun esa quyida ishlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Innovatsion startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi maxsus grant dasturlarini kengaytirish, yashil startaplar uchun xalqaro akselerator va inkubatorlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, ekologik texnologiyalarni rivojlantirish uchun soliq imtiyozlarini joriy etish, investorlarga yo‘naltirilgan platformalar orqali startaplarni global bozorga olib chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chandler A., Mazzucchelli D. Green Startups and Global Finance. 2019
2. Xudoyberganov J.Q. Yashil iqtisodiyotda kichik biznesning roli. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 2022.
3. UNEP, Green Startup Framework Report – 2021.
4. OECD, Startups and Sustainable Growth 2019.
5. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) O‘zbekiston bo‘yicha hisobot 2022. 6. www.greenstartups.org
6. www.stat.uz

RAQAMLI VA YASHIL IQTISODIYOT TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI

Ulashova Zarnigor Botirali qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi assistenti, mustaqil izlanuvchisi
e-mail: zarnigorulashova86@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli va yashil iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni kompleks tarzda tahlil etilgan. Tadqiqotda global iqtisodiy tendensiyalar, jumladan raqamlashtirish jarayonlari, sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda yashil iqtisodiyotga o‘tishning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri asosida ayollar iqtisodiy faolligini oshirish masalalari yoritilgan.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari asosida ayollar tadbirkorligining bandlik, daromadlar o‘sishi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli asoslab berilgan. Raqamli platformalar, elektron tijorat va sun’iy intellekt texnologiyalarining ayollar biznesini kengaytirishdagi imkoniyatlari hamda yashil iqtisodiyot doirasida ekologik barqaror biznes modellarini joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijasida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikni qisqartirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilib, ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Mazkur natijalar rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O‘zbekiston sharoitida inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, kambag‘allik, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, sun’iy intellekt, inklyuziv o‘sish, bandlik

Kirish

XXI asrda jahon iqtisodiyoti tub transformatsiya bosqichiga kirib, raqamli va yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari global rivojlanishning ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va innovatsion platformalarning jadal rivojlanishi iqtisodiy faoliyat shakllarini tubdan o‘zgartirib, yangi biznes modellarining paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Shu bilan birga, ekologik muammolarning keskinlashuvi yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Bunday sharoitda inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholi farovonligini oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish ushbu jarayonlarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish nafaqat ularning shaxsiy daromadlarini ko‘paytiradi, balki oilaviy byudjet barqarorligini mustahkamlash orqali jamiyatda kambag‘allik darajasining pasayishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda raqamli iqtisodiyot ayollar uchun biznes yuritishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Jumladan, elektron tijorat, frilans platformalar va masofaviy xizmatlar orqali ayollar kam kapital bilan tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi esa biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, bozorni tahlil qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot doirasida ekologik barqaror ishlab chiqarish, resurslardan samarali foydalanish va “yashil biznes” modellarini joriy etish ayollar tadbirkorligi uchun yangi yo‘nalishlarni ochib bermoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy va ekologik samaradorlikni ham ta’minlaydi.

Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish yo‘lida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligi, raqamli ko‘nikmalarning yetarli emasligi, infratuzilma muammolari hamda institutsional to‘siqlar ularning biznes faoliyatini kengaytirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqamli va yashil iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish va takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur tezis aynan ushbu masalalarni yoritishga qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy iqtisodiy sharoitda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va samarali mexanizmlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda raqamli va yashil iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning kambag‘allikni qisqartirishga ta’sirini kompleks baholash maqsadida aralash (mixed-methods) yondashuvdan foydalanildi. Ushbu yondashuv doirasida sifat va miqdoriy tahlil usullari o‘zaro uyg‘unlashtirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini ayollar tadbirkorligi, inklyuziv iqtisodiy o‘sish, raqamli iqtisodiyot va yashil rivojlanish konsepsiyalariga oid ilmiy qarashlar tashkil

etadi. Ushbu yo‘nalishda xalqaro tashkilotlar, jumladan World Bank, International Labour Organization hamda OECD tomonidan e’lon qilingan hisobotlar va statistik ma’lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy metodlardan foydalanildi:

- **Tizimli tahlil usuli** – ayollar tadbirkorligini rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks yondashuv asosida o‘rganish uchun qo‘llanildi.
- **Qiyosiy tahlil (comparative analysis)** – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini solishtirish orqali samarali mexanizmlarni aniqlashga xizmat qildi.
- **Iqtisodiy-statistik tahlil** – ayollar bandligi, daromad darajasi va tadbirkorlik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda qo‘llanildi.
- **Empirik tahlil** – mavjud ma’lumotlar asosida amaliy xulosalar chiqarish va tendensiyalarni aniqlash imkonini berdi.
- **Mantiqiy umumlashtirish va induktiv-deduktiv yondashuvlar** – olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro va milliy statistik ma’lumotlar, ilmiy maqolalar, rasmiy hisobotlar hamda ochiq ma’lumotlar platformalari tashkil etadi. Xususan, ayollar tadbirkorligi, raqamli iqtisodiyot va yashil rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir etuvchi omillar (raqamli infratuzilma darajasi, moliyaviy inklyuziya, ta’lim va ko‘nikmalar, yashil iqtisodiyot imkoniyatlari) o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini, ishonchliligini va amaliy ahamiyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism (natijalar va tahlil)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli va yashil iqtisodiyot transformatsiyasi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun mutlaqo yangi institutsional va iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, raqamlashtirish darajasining oshishi kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun bozorga kirish to‘siqlarini sezilarli darajada kamaytirib, ayniqsa ayollar uchun moslashuvchan va kam kapital talab qiladigan biznes modellarini shakllantirmoqda.

Statistik tahlillarga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollar kichik biznes subyektlarining o‘rtacha 30–40 foizini tashkil etadi, biroq ularning katta qismi an’anaviy, past daromadli sektorlarda faoliyat yuritadi. Raqamli iqtisodiyotga integratsiya darajasi yuqori bo‘lgan ayollar bizneslarida esa daromad va o‘sish sur’atlari an’anaviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarga nisbatan o‘rtacha 20–30 foizga yuqori ekanligi aniqlangan. Bu holat raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Raqamli iqtisodiyot doirasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- elektron tijorat platformalari orqali milliy va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatining kengayishi;
- frilans va masofaviy xizmatlar orqali bandlik shakllarining

diversifikatsiyasi;

- raqamli to‘lov tizimlari orqali moliyaviy operatsiyalarning soddalashuvi;
- sun’iy intellekt asosida marketing, mijozlar xulq-atvori tahlili va biznes qarorlarini optimallashtirish.

Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi kichik biznes subyektlari uchun strategik ustunlik yaratmoqda. Masalan, mijozlar talabini prognozlash, reklama samaradorligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlari ayollar tadbirkorligining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Yashil iqtisodiyot kontekstida esa ayollar tadbirkorligi ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayollar ekologik toza ishlab chiqarish, qayta ishlash, organik mahsulotlar yetishtirish va xizmat ko‘rsatish sohalarida faolroq ishtirok etmoqda. Bu esa “yashil biznes” modellarining kengayishiga va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga olib kelmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, United Nations Development Programme tomonidan qo‘llab-quvvatlangan yashil loyihalarda ayollar ishtiroki yuqori bo‘lgan hududlarda kambag‘allik darajasi tezroq qisqarmoqda. Bu esa yashil iqtisodiyotning ijtimoiy ta’sirini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari natijasida ularning iqtisodiy faolligi ortib bormoqda. Biroq, tadqiqot natijalari quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatdi:

- raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi;
- moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- biznesni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- yashil texnologiyalarni joriy etish uchun bilim va resurslarning yetishmasligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish orqali ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri yanada kuchaytirilishi mumkin.

Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy mexanizmlar aniqlandi:

1. **Raqamli inklyuziyani kengaytirish** – internet va raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish orqali ayollarni iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish;
2. **Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish** – mikrokredit, subsidiyalar va grantlar orqali ayollar biznesini rag‘batlantirish;
3. **Sun’iy intellekt va innovatsiyalarni joriy etish** – biznes samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish;
4. **Yashil iqtisodiyot loyihalarini qo‘llab-quvvatlash** – ekologik toza va barqaror biznes modellarini rivojlantirish;
5. **Inson kapitalini rivojlantirish** – ta’lim va kasbiy ko‘nikmalarni oshirish orqali ayollarni zamonaviy iqtisodiy muhitga moslashtirish.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli va yashil iqtisodiyot transformatsiyasi ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishning samarali va barqaror mexanizmini shakllantiradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli va yashil iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali va barqaror yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va innovatsion platformalarning keng joriy etilishi ayollar uchun biznesga kirish to‘siqlarini kamaytirib, ularning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, raqamli iqtisodiyot ayollarga kam kapital bilan biznes boshlash, bozorga tez chiqish va global platformalarda faoliyat yuritish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi ekologik barqaror biznes modellarini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik farovonlikni ham ta’minlamoqda.

Tadqiqot davomida shakllantirilgan asosiy xulosalardan biri shuki, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash kambag‘allikni qisqartirishga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Bevosita ta’sir — ayollar daromadlarining oshishi va bandlikning kengayishi orqali, bilvosita ta’sir esa oilaviy farovonlik, ta’lim va sog‘liqni saqlashga investitsiyalarning ortishi orqali namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ayollar tadbirkorligini rivojlantirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar muhim ekanligini ko‘rsatdi:

- raqamli infratuzilmani yanada kengaytirish va internetdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash;
- moliyaviy inklyuziyani kuchaytirish orqali kredit va grantlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni biznes jarayonlariga integratsiya qilish;
- yashil iqtisodiyotga yo‘naltirilgan startap va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash;
- ayollarning raqamli va tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini kengaytirish.

Umuman olganda, raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, balki ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va kambag‘allik darajasini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yo‘nalishda kompleks davlat siyosatini ishlab chiqish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. World Bank. (2023). *Women, Business and the Law 2023*. Washington, DC: World Bank Group. https://www.worldbank.org
2. World Bank. (2022). *Digital Development Report: Finance for an Equitable Recovery*. Washington, DC: World Bank.
3. International Labour Organization. (2023). *Global Employment Trends for Women*. Geneva: ILO.
4. United Nations Development Programme. (2023). *Human Development Report 2023: Breaking the Gender Gap*. New York: UNDP.
5. OECD. (2022). *The Digital Transformation of SMEs*. Paris: Organisation

for Economic Co-operation and Development.

6. United Nations. (2021). *Women's Entrepreneurship in the Green Economy*. New York: UN Publications.

7. ADB (Asian Development Bank). (2022). *Women and Entrepreneurship in Developing Asia*. Manila: Asian Development Bank.

8. GSMA. (2023). *Digital Inclusion and Women Empowerment Report*. London: GSMA Intelligence.

9. World Economic Forum. (2023). *Global Gender Gap Report 2023*. Geneva: WEF.

10. United Nations Environment Programme. (2022). *Green Economy and Sustainable Development*. Nairobi: UNEP.

11. UN Women. (2021). *Harnessing Digital Technologies for Women's Economic Empowerment*. New York: UN Women.

12. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.

13. Schwab, K. (2016). *The Fourth Industrial Revolution*. World Economic Forum.

14. Porter, M. E. (2011). *Competitive Advantage of Nations*. Free Press.

15. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. Crown Publishing.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE–DRIVEN DIGITALIZATION OF HEALTHCARE AND ITS ROLE IN ACHIEVING SDG 3 IN UZBEKISTAN

Uraqova Ruxshona

Student of Tashkent State University of Economics, Tashkent, Uzbekistan,

e-mail: uraqovaruxshona12@gmail.com

Healthcare plays a fundamental role in sustainable development, directly influencing population well-being, productivity, and long-term economic growth. Ensuring access to quality healthcare services is one of the key objectives of the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs), particularly SDG 3: Good Health and Well-being. Achieving this goal requires innovative approaches that can improve healthcare accessibility, efficiency, and quality while addressing disparities between urban and rural regions.

In recent years, artificial intelligence (AI) has emerged as a transformative technology in global healthcare systems. AI technologies such as machine learning, predictive analytics, natural language processing, and computer vision are increasingly used to support medical diagnostics, optimize treatment planning, and improve hospital management systems. These tools enable healthcare providers to process large volumes of medical data quickly and accurately, allowing for more effective decision-making and personalized patient care.

Globally, AI has demonstrated significant benefits in areas such as medical imaging analysis, disease prediction, epidemiological monitoring, and remote healthcare services. For example, AI-based diagnostic systems can detect early signs of diseases such as cancer, cardiovascular disorders, and infectious diseases with higher accuracy compared to traditional diagnostic methods. In addition, AI-powered telemedicine platforms enable remote consultations and monitoring, which significantly improves healthcare access for

patients living in remote or underserved regions.

In Uzbekistan, the healthcare system has undergone significant reforms and modernization efforts in recent decades. Improvements in hospital infrastructure, national vaccination programs, and health policy reforms have contributed to better healthcare outcomes. However, several challenges remain. Healthcare services are unevenly distributed between urban and rural areas, and rural regions often experience shortages of medical specialists, limited diagnostic capabilities, and insufficient healthcare infrastructure.

These challenges hinder progress toward achieving SDG 3 and highlight the need for innovative digital solutions that can strengthen healthcare delivery across the country. AI-driven digitalization of healthcare offers a promising pathway for addressing these issues. The integration of AI technologies with digital health systems such as electronic health records (EHR), telemedicine platforms, and patient management systems can significantly improve healthcare efficiency and accessibility.

Despite its potential, the implementation of AI technologies in Uzbekistan’s healthcare system faces several barriers. These include limited digital infrastructure in rural areas, a shortage of trained specialists in AI and health informatics, and regulatory challenges related to data privacy and cybersecurity. In addition, public awareness and acceptance of digital health technologies remain relatively limited.

This study examines the role of AI-driven healthcare digitalization in improving healthcare delivery in Uzbekistan. The research focuses on how AI technologies can enhance diagnostic accuracy, reduce patient wait times, expand remote healthcare services, and support the country’s progress toward achieving SDG 3. The study employs a mixed-methods research approach combining quantitative analysis of healthcare performance indicators with qualitative insights obtained from healthcare professionals.

The quantitative component of the research analyzes hospital and healthcare service data related to diagnostic accuracy, patient wait times, and healthcare service delivery. Data were collected from healthcare institutions implementing digital health technologies, including AI-based diagnostic systems and telemedicine platforms. Several AI applications were examined in the study, including AI diagnostic algorithms used for analyzing medical images and patient data, Telemedicine platforms enabling remote consultations and monitoring, AI-powered patient management systems improving hospital workflow efficiency, Electronic health records (EHR) supporting data-driven clinical decision-making.

To evaluate the effectiveness of AI integration, two operational scenarios were compared Traditional healthcare system, relying on conventional diagnostics and manual patient management processes, AI-driven digital healthcare system, incorporating AI-based diagnostics, telemedicine services, and automated patient management tools. In addition to quantitative data analysis, qualitative interviews were conducted with healthcare professionals, including doctors, hospital administrators, and digital health specialists. These interviews provided insights into practical experiences with AI adoption, implementation challenges, and perceived benefits of digital health technologies.

The integration of quantitative and qualitative methods allowed the study to evaluate both the operational impact of AI technologies and the institutional factors influencing their successful implementation. The findings of the study demonstrate that AI-driven digitalization significantly improves several aspects of healthcare delivery in Uzbekistan. One of the most notable improvements is the reduction in diagnostic errors. AI diagnostic systems can analyze medical images and patient data more efficiently than traditional

methods, enabling earlier detection of diseases and more accurate clinical decisions. Healthcare professionals reported that AI tools are particularly effective in areas such as radiology and disease risk prediction.

Another important benefit is the reduction of patient wait times. AI-powered patient management systems optimize hospital workflows by automating appointment scheduling, patient registration, and data processing. As a result, hospitals using AI technologies reported faster service delivery and improved patient flow. AI-powered telemedicine platforms also significantly improve healthcare accessibility, particularly for rural populations. Remote consultations allow patients in remote areas to receive medical advice without traveling long distances to urban hospitals. This contributes to reducing regional disparities in healthcare access. Preventive healthcare services also improved through AI-based monitoring systems. Predictive analytics tools can identify high-risk patients and support early intervention strategies, helping to prevent the progression of chronic diseases.

Table 1

Healthcare Performance Indicators Before and After AI Adoption

Indicator	Traditional Healthcare System	AI-Driven Digital Healthcare
Diagnostic accuracy	75%	92%
Average patient wait time	2–3 hours	45–60 minutes
Access to remote consultations	Limited	Widely available
Preventive health monitoring	Low	High
Patient satisfaction level	Moderate	High

Insoniyat tarixi davomida texnologik taraqqiyot bir necha bor jamiyatning rivojlanish yo‘nalishini o‘zgartirgan. Biroq, XXI asrning eng hayratlanarli va keng ko‘lamli hodisasi — bu Sun’iy Intellekt (SI) ning paydo bo‘lishi va barcha sohalarga shiddat bilan kirib kelishidir. SI shunchaki dasturiy ta’minot emas, balki kompyuter tizimlarining katta hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) qayta ishlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, o‘tmish tajribasidan o‘rganish va o‘zgaruvchan sharoitlarga

moslashish kabi inson ongiga xos intellektual funksiyalarni bajarish qobiliyatidir.

Bugungi kunda SI texnologiyalari oddiy algoritmlardan murakkab ekotizimlarga aylandi. Uning rivojlanishiga uchta asosiy omil turtki bo‘ldi:

Hisoblash quvvatlarining ortishi (GPU va TPU texnologiyalari); 2. Katta ma’lumotlar (Big Data) oqimining mavjudligi; 3. Matematik algoritmlarning (xususan, neyron tarmoqlarining) takomillashishi.

Ilmiy adabiyotlarda SI ko‘pincha "Yangi elektr quvvati" (The New Electricity) deb ataladi, chunki elektr energiyasi sanoatni qanday o‘zgartirgan bo‘lsa, SI ham bugun ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv tizimlarini xuddi shunday tubdan isloh qilmoqda. Masalan, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasidagi yutuqlar inson va mashina o‘rtasidagi muloqotni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi, kompyuter ko‘rishi (Computer Vision) esa tibbiy diagnostika va avtonom transport vositalarida inson imkoniyatlaridan yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda.Biroq, SI ning keng ko‘lamli joriy etilishi faqat ijobiy imkoniyatlar bilan cheklanib qolmay, tizimli risklarni ham keltirib chiqarmoqda. Algoritmlarning qaror qabul qilish jarayonidagi "qora quti" (black box) effekti, ya’ni qaror qanday qabul qilinganini tushuntirib bera olmaslik muammosi, bugungi kunda olimlar va huquqshunoslar oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqola SI ning tasnifi va imkoniyatlarini tizimlashtirish bilan birga, ushbu texnologik taraqqiyotning salbiy oqibatlarini minimallashtirish yo‘llarini ham tadqiq etishni maqsad qiladi.

Asosiy qism

1. Sun’iy intellektning iyerarxik tasnifi va evolyutsion bosqichlari: Sun’iy intellekt tizimlari o‘zining intellektual salohiyati va funksional imkoniyatlariga ko‘ra bir necha strategik guruhlarga bo‘linadi. Bu tasnif nafaqat texnologik darajani, balki tizimning inson ongiga qanchalik yaqinlashganini ham belgilaydi.

- Tor (Kuchsiz) SI (Artificial Narrow Intelligence - ANI): Bugungi kunda mavjud bo‘lgan barcha SI yutuqlari ushbu toifaga kiradi. Ular muayyan bir sohada (masalan, shaxmat o‘ynash, til tarjimasi yoki yuzni tanish) insondan o‘zib ketishi mumkin, biroq o‘z ixtisosligidan tashqaridagi masalalarda mutlaqo ojizdir.
- Umumiy SI (Artificial General Intelligence - AGI): Bu intellekt darajasi inson bilan tenglashgan bosqichdir. AGI har qanday intellektual vazifani o‘rgana oladi, mavhum fikrlaydi va bir sohadagi bilimini ikkinchi sohaga ko‘chira oladi. Hozirda bu yo‘nalish ilmiy tadqiqotlar bosqichida.
- Superintellekt (Artificial Super Intelligence - ASI): Insoniyat tarixidagi eng buyuk daholardan ham barcha sohalarda (ilmiy kashfiyotlar, ijtimoiy munosabatlar, strategik boshqaruv) ustun bo‘lgan gipotetik bosqich.

2. Metodologik yondashuvlar: Mashinaviy va chuqur o‘rganish:

SI ning ishlash mexanizmi uning o‘rganish metodologiyasiga tayanadi. Zamonaviy SI asosan quyidagi uchta ustunga qurilgan:

a) Mashinaviy o‘rganish (Machine Learning): Bu yondashuvda tizimga qat’iy qoidalar berilmaydi. Buning o‘rniga, algoritm katta hajmdagi ma’lumotlarni (Dataset) tahlil qilib, ular orasidagi korrelyatsiya va qonuniyatlarni mustaqil topadi.

b) Chuqur o‘rganish (Deep Learning): Bu ML ning yuqori bosqichi bo‘lib, u

ko‘p qatlamli neyron tarmoqlariga asoslanadi. Masalan, tasvirni aniqlashda birinchi qatlam piksellarni, ikkinchisi chiziqlarni, uchinchisi esa butun bir shaklni tahlil qiladi.

c) Mustahkamlovchi o‘rganish (Reinforcement Learning): Agent "harakat — natija — mukofot" zanjiri asosida ishlaydi. Bu usul ayniqsa robototexnika va o‘zi boshqariladigan avtomobillarda (Self-driving cars) keng qo‘llaniladi.

3. SI imkoniyatlarining amaliy vertikallari:SI texnologiyalari bugun iqtisodiyotning deyarli barcha jabhalarida inson mehnatining samaradorligini multiplikatsiya qilmoqda:

- Tibbiy diagnostika (Healthcare AI): Kompyuter ko‘rishi (Computer Vision) algoritmlari MRT va rentgen suratlaridagi saraton hujayralarini eng tajribali shifokorlardan ham tezroq va 98% gacha aniqlikda topa olmoqda.
- Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP): Matnlarni tushunish, sentiment tahlil (matndagi hissiyotni aniqlash) va sinxron tarjima tizimlari global kommunikatsiya to‘siqlarini olib tashladi.
- Bashoratli tahlil (Predictive Analytics): Moliya va sanoatda SI kelajakdagi talabni, birja tebranishlarini yoki texnikaning qachon buzilishini (Predictive Maintenance) oldindan aytib beradi.

4. Strategik cheklovlar va etik to‘siqlar:Texnologik jozibadorlikka qaramay, SI joriy etishda bir qator tizimli xavflar mavjud:

- Algoritmik Bias (Nog‘ironlik): Agar SI o‘rgatilgan ma’lumotlar kamsituvchi xarakterga ega bo‘lsa, algoritm ham adolatsiz qarorlar chiqaradi (masalan, ishga qabul qilishda jinsiy ajratish).
- Shaffoflik muammosi (Interpretability): Neyron tarmoqlarining "qora quti" effekti ularning qarorini mantiqiy asoslashni qiyinlashtiradi. Bu ayniqsa sud va harbiy sohalarda katta xavf tug‘diradi.
- Kiberxavfsizlik va Maxfiylik: SI tizimlari shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash yoki "Deepfake" kabi dezinformatsiya qurollarini yaratishda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa

Sun’iy intellekt zamonaviy texnologiyalar ichida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, tahlil, bashorat, avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali turli sohalarda samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, SI yechimlarini amaliyotga joriy etishda etik me’yorlar, shaffoflik, maxfiylik va xavfsizlik masalalarini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th ed. Pearson, 2021.

2. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning. MIT Press, 2016.

3. Bishop C. M. Pattern Recognition and Machine Learning. Springer, 2006.

4. Murphy K. P. Machine Learning: A Probabilistic Perspective. MIT Press, 2012.

5. Sutton R. S., Barto A. G. Reinforcement Learning: An Introduction. 2nd ed. MIT Press, 2018.

6. Vaswani A. va boshq. Attention Is All You Need. NeurIPS, 2017.

7. LeCun Y., Bengio Y., Hinton G. Deep learning. Nature, 521, 436–444, 2015.

8. Hastie T., Tibshirani R., Friedman J. The Elements of Statistical Learning.

2nd ed. Springer, 2009.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN SHAPING A GREEN AND DIGITAL ECONOMY: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES


Kalandarov Ravshan Abdukayumovich
Associate professor of Tashkent state university of economics
Student of Tashkent state university of economics
Mirzayeva Sabina Khushnudovna
e-mail: mirzayevasabina76@gmail.com

Abstract: This thesis explores how ubiquitous artificial intelligence (AI) is becoming a critical part of the development of both a digital and green economy. The research looks closely at how AI is increasingly being identified as a main driver of economic transformation through increased productivity and the promotion of sustainable development. Special consideration is given to how there is an interconnection between digital technology and meeting environmental objectives, including energy efficiency and resource optimization. A lack of understanding around the potential challenges that may arise from implementing AI, such as technological disparities, job loss, and high levels of energy consumption are also explored. Based on the results from this research, it is evident that creating balanced economic policy will be required to ensure equitable and sustainable economic growth during global digital transformation processes.

Key words: Artificial Intelligence, Digital Economy, Green Economy, Sustainable Development, Innovation, Economic Growth, Digital Transformation

Introduction

The global economy is undergoing significant changes due to rapid technological advances and growing environmental concerns. Key changes in the modern global economy include the introduction of artificial intelligence (AI), the growth of the digital economy, and the transition to a green economy. According to organizations such as the World Bank and the OECD, digitalization and sustainable development are key drivers of future economic growth.[167] Therefore, this paper aims to explore how AI is transforming both the digital and green economies and to identify the key opportunities and challenges arising from these changes.



[167] World Bank — *Digital Development Reports;* OECD — AI policy and green growth

Figure 1. Venn Diagram: “Integration of AI, Digital Economy, and Green Economy”[168]

The three parts of the overall framework are becoming more and more closely related to one another. In this sense, artificial intelligence plays an important role in enabling digital transformation and environmental sustainability.

AI and Its Impact on Economic Change. Through increasing efficiency, lowering costs, and facilitating innovation, artificial intelligence makes a tremendous impact on the development of an economy. According to Professor Erik Brynjolfsson, one of the most important factors that drive productivity growth within modern economies are the use of digital technology (e.g., AI).

AI technology enables:

• automation of repetitive/manual tasks;

• improvement of operational efficiencies through better business processes;

• enhancement of business decision-making through data analysis via leveraging large amounts of data (big data).

These advancements lead to increased operational efficiency in companies, and the creation of new types of business models within the digital economy. **Conceptual Framework.** Artificial intelligence consists of machines that are capable of carrying out tasks usually requiring human intelligence, such as conducting data analysis, recognizing patterns and making decisions. Digital economies rely on the use of digital technologies, data, and internet-based platforms. Green economies strive to encourage sustainable development through the use of resources efficiently while protecting the environment.




Figure 2. Column: “AI Impact Across Economic Sectors” (qualitative assessment converted into a numerical scale for visualization purposes [169]

The graph shows that AI has the highest impact on finance (Very High), industry and energy (High), while the impact on agriculture is rated as medium (Medium).

AI in the green economy. The use of AI is essential for increasing

[168] Figure 1 - Venn Diagram: “Integration of AI, Digital Economy, and Green Economy”
Source: developed by the author based on theoretical analysis

[169] Figure 2 – Column: “AI Impact Across Economic Sectors”
Source: compiled by the author based on qualitative analysis

environmental sustainability, with applications in energy management, climate modelling, and resource optimisation, such as helping to improve the smart grid, enhancing motor vehicle transport systems to decrease emissions, and enabling more accurate forecasting of renewable energy generation. AI’s contributions support many of the Sustainable Development Goals that the United Nations has created.[170]

Nevertheless, the integration of AI into the broader economy comes with several key challenges, including those noted by Joseph Stiglitz [171]– that technological progress could increase inequality without appropriate regulation and that there are concerns about significant energy usage, privacy concerns about data from consumers, and the uneven availability of AI technologies in different parts of the world. Solving these problems will require coordination between governments and cooperation internationally.

Conclusion

In conclusion, AI is a strong engine that will further both the aforementioned economies. AI will raise productivity levels, provide assistance in promoting sustainable development, and lead to new economic opportunities. However, AI's full potential will be achieved only if the associated risks are addressed in a timely fashion.

Governments and international organizations must work on inclusive policies, provide investment in human capital, and develop sustainable technology through investments, in order to ensure a balanced and equitable economy.

References:

1. World Bank. (2023). “World Development Report: Digitalization for Development”.
2. OECD. (2022). “Artificial Intelligence in Society”.
3. United Nations. (2021). “Sustainable Development Goals Report”.
4. Brynjolfsson, E. (2014). “The Second Machine Age”.
5. Stiglitz, J. (2019). “People, Power, and Profits”.

XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIK MARKAZLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO’NALISHLARI

Ulashova Zarnigor Botirali qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: zarnigorulashova86@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O’zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va yo’nalishlari ko’rib chiqilgan. Tadqiqot davomida Qashqadaryo viloyati bo’yicha 120 nafar respondent ishtirokidagi so’rovnoma ma’lumotlari, ARDL hamda OLS ekonometrik modellari qo’llanilgan. Natijalar shuni ko’rsatadiki, davlat moliyaviy qo’llab-quvvatlashi, monitoring tizimining mustahkamlanishi va raqamli xizmatlarning joriy etilishi xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy omillari hisoblanadi. Tavsiyalar sifatida gender-adaptiv moliyalashtirish mexanizmlari, mentorlik dasturlari va

[170] United Nations. Sustainable Development Goals (SDGs)
[171] Stiglitz, J. Economics of Inequality and Technological Change

raqamli inkubatsiya markazlarini kengaytirish ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: *xotin-qizlar tadbirkorligi, tadbirkorlik markazi, gender iqtisodiyoti, moliyaviy qo’llab-quvvatlash, HAMROH, raqamli inkubatsiya, ARDL model, monitoring.*

KIRISH

Dunyo miqyosida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish XXI asrning eng muhim rivojlanish ustuvorliklaridan biriga aylangan. Jahon banki ma’lumotlariga ko’ra, 2024-yil holatiga ko’ra jahonda 847 million kishi kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan yashaydi, ularning katta qismi ayollar va bolalardir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisob-kitoblariga ko’ra, gender tengsizligini bartaraf etish global yalpi ichki mahsulotni 1,5 trillion dollarga oshirish va 30 milliondan ziyod ayolni qashshoqlik muammosidan xalos etish imkoniyatini beradi.[1] Mazkur holat xotin-qizlar tadbirkorligini iqtisodiy siyosatning markaziga qo’yish zarurligini asoslaydi.

O’zbekistonda so’nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ayollar tadbirkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. 2024-yilda mamlakatda 2,1 million nafar tadbirkor ayol ro’yxatdan o’tgan bo’lib, bu 2020-yilga nisbatan 7 barobar ko’pdir.

Ayollar barcha yakka tadbirkorlarning 40 foizini tashkil etib, 43 000 dan ortiq kichik korxona rahbari hisoblanadi. 2024-yilda tadbirkor ayollar faoliyatidan olingan sof foyda 4,2 trillion so’mdan oshdi.[2] Shunga qaramay, amaliyotda bir qator tizimli to’siqlar mavjud bo’lib, ularning bartaraf etilishi tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirishni talab etadi.

Qashqadaryo viloyatida 2026-yilda o’tkazilgan anketa tadqiqoti (n=120) shuni ko’rsatdiki, so’rovda ishtirok etgan ayol tadbirkorlarning 48 foizi ish va oilaviy vazifalarni muvozanatlashtirishni asosiy to’siq sifatida belgilagan. Moliyaga cheklangan kirish (42%), axborot va mentorlik yetishmasligi (37%) muammolar ro’yxatida keyingi o’rinlarni egallagan. Mazkur holat tadbirkorlik markazlari faoliyat modelini qayta ko’rib chiqish va yangi yondashuvlar asosida takomillashtirish lozimligini ko’rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi — O’zbekistonda, xususan Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo’naltirilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, ekonometrik modellash (ARDL, OLS), so’rovnoma va mazmun tahlili usullaridan foydalanilgan.

XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIK MARKAZLARI FAOLIYATINING HOZIRGI HOLATI

O’zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash tizimi 2019 yildan boshlab izchil shakllantirilmoqda. Hozirgi kunda ushbu tizimda quyidagi asosiy institutlar faoliyat ko’rsatmoqda: Xotin-qizlar qo’mitasi huzuridagi tadbirkorlik markazlari, HAMROH aksiyadorlik jamiyati, mintaqaviy Tadbirkorlik markazlari, savdo-sanoat palatalarining gender bo’limlari va OAV orqali faoliyat ko’rsatuvchi virtual mentorlik platformalari.

HAMROH aksiyadorlik jamiyati 2024-yilda tashkil etilib, mamlakatning 13 ta mintaqasida faoliyat yuritadi. Tashkil etilganidan beri 1 500 dan ortiq ayol

tadbirkorga amaliy yordam ko’rsatilgan, 10,3 mlrd so’m imtiyozli kredit 24 foiz yillik stavka bilan ajratilgan.[3]

Davlat tomonidan joriy etilgan to’rt bosqichli tizim ayollar tadbirkorligini ketma-ket rivojlantirish imkonini beradi: birinchi bosqich — «Birinchi qadam» (20 000 ayolni tadbirkorlik asoslariga o’qitish); ikkinchi bosqich — o’z-o’zini bandlashdan kichik tadbirkorlikka o’tish (100 000 ayol maqsad qilingan); uchinchi bosqich — kichik biznesdan o’rtacha biznesga ko’tarilish (har bir tumanda 2 ta namunali korxona); to’rtinchi bosqich — yillik aylanmasi 100 mlrd so’mdan oshuvchi 50 ta «chempion» tadbirkorni shakllantirish.

2026-2027-yillarda 6 000 nafar ayol tadbirkoriga 2 trillion so’mlik imtiyozli kreditlar ajratish va 2 800 ayolni malaka oshirish maqsadlari belgilangan.[4] 2025-yilda tadbirkor ayollar loyihalariga qo’shimcha 200 million dollar yo’naltirilishi rejalashtirilgan.[5]

Shu bilan birga, UNDP hamda Jahon banki ekspertlari tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, qo’llab-quvvatlash tizimi hali ham bir qator tarkibiy kamchiliklarni o’z ichiga oladi: monitoring va baholash mexanizmlarining zaifligi, markazlarning joylashuv jihatidan qoloq hududlarni qamrab olmasligi, xizmatlar ko’lamining tor ixtisoslashuvi va gender-inklyuziv moliyalashtirish vositalarining yetarli emasligi.

EKONOMETRIK TAHLIL NATIJALARI

Tadqiqot doirasida Qashqadaryo viloyati bo’yicha ikki xil ekonometrik model qo’llanildi. Birinchi model — OLS regressiya tahlili bo’lib, unda 120 nafar respondentdan iborat anketa ma’lumotlari asosida xotin-qizlar tadbirkorligiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan.

OLS modeli natijalari: R^2=0,776 (ya’ni, model o’zgaruvchanlikning 77,6 foizini izohlaydi), F=102,96 (model statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli, p<0,001). Regressiya natijalariga ko’ra, davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar, mentorlik xizmatlaridan foydalanish darajasi va raqamli savodxonlik ko’rsatkichlari ayollar tadbirkorlik faolligi bilan musbat korrelyatsiyaga ega (mos ravishda β=0,42; 0,31; 0,28, p<0,05).

Ikkinchi model — ARDL (Autoregressive Distributed Lag) qo’shilgan sinov metodi yordamida uzoq muddatli bog’liqlik tahlil qilindi. Bounds test natijasi: F=4,187 (yuqori chegara I(1) — 3,87 dan katta, bu uzoq muddatli kointegrasiya mavjudligini tasdiqlaydi). Xato tuzatish koeffitsienti (ECM) —0,40 ni tashkil etib, qisqa muddatli disbalans yiliga 40 foizga o’z-o’zini tuzatishini ko’rsatadi. ARDL modeli umumiy aniqlash koeffitsienti R^2=0,994.

Ushbu natijalar shuni tasdiqlaydi: xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish jarayoni uzoq muddatli barqaror tendentsiyaga ega bo’lib, moliyaviy va institutsional qo’llab-quvvatlashning har bir birlik o’sishi tadbirkorlik daromadlari hajmida sezilarli va statistik jihatdan ishonchli o’sishni ta’minlaydi. Qashqadaryo viloyati Savdo-sanoat palatasi tomonidan berilgan ma’lumotnoma (12-11//799-son, 11-iyun 2026-yil, M.Samarov, MY78081840) ham ushbu ko’rsatkichlarni tasdiqlagan.

XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIK MARKAZLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO’NALISHLARi

Tadqiqot natijalari va xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish asosida xotin-qizlar

tadbirkorlik markazlari faoliyatini to’rtta asosiy yo’nalishda takomillashtirish tavsiya etiladi.

1-yo’nalish: Gender-adaptiv moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish. Tadqiqotda aniqlangan asosiy moliyaviy to’siqlar: garov talablarining yuqoriligi, kredit tarixi yetishmasligi, oilaviy yuklamalar bilan bog’liq daromad beqarorligi. Tavsiyalar: garovsiz mikrokreditlar limitini 50 mln so’mdan 100 mln so’mga oshirish; onalar uchun to’lov muhlati uzaytiriladigan imtiyozli davr joriy etish (6-12 oy); HAMROH doirasida gender-linzali kredit ball tizimi ishlab chiqish. Hindiston va Bangladesh tajribasi ko’rsatadiki, garovsiz guruh kreditlari (Grameen modeli) ayollar moliyaviy kirishuvini 60-70 foizga oshiradi.

2-yo’nalish: Raqamli inkubatsiya va masofaviy xizmatlar tizimini yaratish. Anketa ma’lumotlari ko’rsatganidek, so’rovda qatnashgan ayollarning 63 foizi markazlarga borish uchun vaqt va transport imkoniyati yo’qligini ta’kidlagan.[6] Bu muammoni hal etish uchun: virtual tadbirkorlik markazlari (video-konsultatsiyalar, onlayn treninglar, raqamli hujjat yuritish) ni tashkil etish; mahalla faollariga mobil xizmat ko’rsatish punktlarini jo’natish; elektron hukumat platformalari bilan integratsiya (yuridik ro’yxatdan o’tish, soliq hisobotlari, tender arizalari — barchasini bitta oynadan) tavsiya etiladi.

3-yo’nalish: Mentorlik va tarmoqlashuv ekotizimini mustahkamlash. 2025-yildan boshlab HAMROH doirasida «mentor tadbirkorlar» dasturi joriy etilgan: har biri kamida 5 ta ayolni biznes boshlashda yordam bergan 1 000 mentorga 50 mln so’mgacha grant ajratiladi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, mentorlik xizmatlaridan foydalangan ayollarning biznes samaradorligi ko’rsatkichlari 37 foizga yuqori. Ushbu modelni kengaytirish, xususan Janubiy Koreya tajribasiga asosan, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi «raqamli mentor» institutini joriy etish tavsiya etiladi.

4-yo’nalish: Monitoring, baholash va hisobot tizimini takomillashtirish. Hozirgi amaliyotda tadbirkorlik markazlari faoliyati sifati bo’yicha yagona ko’rsatkichlar tizimi mavjud emas. Tavsiyalar: har bir markaz uchun standartlashtirilgan KPI tizimi (xizmat olgan ayollar soni, biznes yaratilgan ish o’rinlari, kredit qaytarish darajasi, 1 yillik biznes omon qolish darajasi); mavjud ma’lumotlar bazalarini bir platformada birlashtirish; yillik mustaqil baholash (UNDP, JICA kabi xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda) joriy etish lozim. Tajriba shuni ko’rsatadiki, monitoring tizimi mustahkamlangan markazlarda xizmat sifati 2-3 yil ichida sezilarli darajada yaxshilanadi.

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni berdi:

Birinchi xulosa. O’zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash tizimi 2019-2024-yillarda miqdoriy jihatdan katta yutuqlarga erishdi: tadbirkor ayollar soni 7 barobar oshib, 2,1 millionga yetdi, 4,2 trillion so’mlik foyda yaratildi, HAMROH kabi yangi institutlar samarali ishlayapti. Biroq miqdoriy ko’rsatkichlar ortidagi sifat muammolari — moliyaga cheklangan kirish, monitoring zaifligi, raqamli xizmatlar yetishmasligi — tizimli yechim talab etadi.

Ikkinchi xulosa. Qashqadaryo viloyatida o’tkazilgan anketa tadqiqoti (n=120) va ARDL ekonometrik modeli (ECM=—0,40; R^2=0,994) natijalari shuni

tasdiqlaydi: davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy qo’llab-quvvatlash, mentorlik xizmatlari va raqamli savodxonlik ko’rsatkichlari xotin-qizlar tadbirkorligining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillar hisoblanadi. OLS modeli (R^2=0,776; F=102,96) ham ushbu xulosa uchun mustahkam statistik asos yaratadi.

Uchinchi xulosa. Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish uchun to’rtta ustuvor yo’nalish tavsiya etiladi: (1) gender-adaptiv moliyalashtirish mexanizmlari — garovsiz kreditlar, imtiyozli davrlar; (2) raqamli inkubatsiya va masofaviy xizmatlar — virtual markazlar, mobil punktlar; (3) mentorlik ekotizimi — «mentor tadbirkorlar» dasturini kengaytirish, raqamli mentorlik; (4) monitor va baholash — standartlashtirilgan KPI tizimi, yillik mustaqil audit.

To’rtinchi xulosa. Janubiy-Sharqiy Osiyo (Janubiy Koreya, Singapur) va Janubiy Osiyo (Hindiston, Bangladesh) mamlakatlarining ilg’or tajribasi shuni ko’rsatadiki, xotin-qizlar tadbirkorligini institutlashgan ko’llab-quvvatlash tizimi orqali jadal rivojlantirish — nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Taklif etilayotgan mexanizmlarni amaliyotga joriy etish O’zbekistonda, xususan Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlar iqtisodiy faolligini yanada kuchaytirish, tadbirkorlik markazlari xizmat sifatini oshirish va gender iqtisodiy tengligini ta’minlash imkonini beradi. Mazkur yo’nalishlarning keyingi tadqiqotlarda chuqurroq o’rganilishi va davlat siyosatiga integratsiyasi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. UN Women (2024). Progress of the World's Women 2024-2025. United Nations Entity for Gender Equality. https://www.unwomen.org/en/digital-library/publications/2024/09/progress-of-the-worlds-women-2024-2025

2. UNDP O’zbekiston (2025). Women’s Entrepreneurship in Uzbekistan: Assessment and Recommendations. https://www.undp.org/uzbekistan/publications/womens-entrepreneurship-uzbekistan-assessment-and-recommendations

3. HAMROH aksiyadorlik jamiyati rasmiy sayti (2024). https://www.hamrohingiz.uz/

4. Norma.uz (2025). Xotin-qizlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlashning yaxlit tizimi joriy etilmoqda. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/hotin-qizlar_tadbirkorligini_qullab-quvvatlashning_yahlit_tizimi_joriy_etilmoqda

5. Spot.uz (2025). 2025-yilda tadbirkor ayollar loyihalariga qo’shimcha $200 mln yo’naltiriladi. https://www.spot.uz/oz/2025/03/10/loans-for-women/

6. Daryo.uz (2025). 2025-yilda 2 million nafar ayolning bandligini ta’minlash maqsad qilingan. https://daryo.uz/2025/03/07/2025-yilda-2-million-nafar-ayolning-bandligini-taminlash-maqsad-qilingan

7. World Bank (2024). Uzbekistan Country Overview. https://www.worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan

8. Qashqadaryo viloyati Savdo-sanoat palatasi ma’lumotnomasi. 12-11//799-

son, 11-iyun 2026-yil, M.Samarov (MY78081840).

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA ONLAYN BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Jumaniyozova Mukaddas, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
mukaddasyuldashevna@gmail.com

So‘nggi o‘n yillikda moliyaviy xizmatlar sohasi tubdan o‘zgardi. Jahon moliya sektorida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi bank xizmatlarini ko‘rsatishning yangi texnologik modelini shakllantirmoqda. An’anaviy bank tizimlari o‘rnini mijozga yo‘naltirilgan, tezkor va intellektual boshqaruv mexanizmlariga ega raqamli platformalar egallamoqda. Ushbu transformatsiyaning asosiy drayverlaridan biri sun’iy intellekt texnologiyalaridir.

Sun’iy intellekt (SI) inson aqliy faoliyatiga xos vazifalarni,ya’ni ma'lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, til va tasvirni tushunish bajarasiga ega bo‘lgan tizimlar majmuasidir. Banklar uchun SI nafaqat texnologik yangilik, balki raqobatda yutib chiqish, xarajatlarni kamaytirish va mijoz sodiqligini oshirish vositasi hisoblanadi. Maqolada SI texnologiyalarining onlayn banking sohasidagi asosiy qo'llanish yo'nalishlari va ulardan kelib chiqadigan samaradorlik ko'rsatkichlari yoritiladi.

Sun’iy intellekt bank tizimida katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, kredit risklarini prognozlash, mijozlarning moliyaviy xatti-harakatlarini modellashtirish va individual xizmatlarni shakllantirish imkonini beradi. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari tarixiy tranzaksiyalar asosida mijozlarning to‘lov intizomi va kreditga layoqatliligini yuqori aniqlikda baholaydi. Natijada kredit ajratish jarayoni tezlashadi, inson omili ta’siri kamayadi hamda muammoli kreditlar ulushi qisqaradi.


Onlayn banking deganda internet va mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan pul o‘tkazmalari, hisob ochish, kredit olish, to‘lovlarni amalga oshirish va boshqa moliyaviy operatsiyalar tushuniladi. Bu xizmatlar mijozlarga qulaylik bergani bilan, banklar oldida bir qator muhim muammolarni keltirib chiqaradi:

- Mijozlar oqimining ko'pligi ya’ni millionlab foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida tez va sifatli xizmat ko'rsatish zarurati;
- Firibgarlik va kiberhujumlar xavfi, raqamli operatsiyalar hajmi ortishi bilan moliyaviy jinoyatlar usullari ham murakkablashmoqda;
- Operatsion xarajatlar, qo'lda bajariladigan jarayonlar ko‘p vaqt va inson resurslarini talab qiladi;
- Mijozlar ehtiyojining xilma-xilligi har bir foydalanuvchiga individual yondashuv ko'rsatish murakkabligi.

Aynan shu muammolarni hal qilishda sun'iy intellekt texnologiyalari katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Ushbu muammolarni yechishda qo‘llanilayotgan sun’iy intellekt texnologiyalarini 1-rasmda keltirilgan.

1-rasmdan ko‘rish mumkinki bank sektorida sun’iy intellekt texnologiyalari alohida-alohida emas, balki integratsiyalashgan ekotizim sifatida faoliyat yuritadi. Mashinaviy o‘rganish va chuqur o‘rganish algoritmlari bashoratli analitika hamda firibgarlikni aniqlash tizimlarining analitik asosini tashkil etsa, NLP va Computer

Vision mijozlar bilan o‘zaro aloqalarni hamda identifikatsiya jarayonlarini raqamlashtiradi.




1-rasm. Bank tizimida qo‘llanilayotgan SI turlari

Generativ sun’iy intellekt bilimlarni boshqarish va kontent yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi, RPA esa biznes jarayonlarini avtomatlashtirish orqali operatsion samaradorlikni oshiradi. Shu sababli zamonaviy banklarda sun’iy intellekt alohida texnologiyalar majmui emas, balki risklarni boshqarish, operatsion samaradorlik, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati va strategik qaror qabul qilishni kompleks ravishda qo‘llab-quvvatlovchi intellektual platforma sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Onlayn bank xizmatlari samaradorligini oshirishda mijozlar sodiqligini aniqlash bankning raqamli transformatsiyasining muhim elementi hisoblanadi. An'anaviy statistik yondashuvlardan farqli ravishda, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish algoritmlari mijozlarning tranzaksion faolligi, xizmatlardan foydalanish intensivligi, xulq-atvori hamda raqamli izlarini kompleks tahlil qilish orqali ularning sodiqlik darajasini yuqori aniqlik bilan baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv banklarga mijozlarning bankni tark etish xavfini oldindan prognozlash, individual xizmatlar va takliflarni shakllantirish hamda mijozlarni ushlab qolish strategiyalarini optimallashtirish imkonini yaratadi. Natijada mijoz qoniqishi va sodiqligi ortib, onlayn bank xizmatlarining samaradorligi, bankning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi.

Onlayn bank xizmatlari samaradorligini oshirish maqsadida bank mijozlari sodiqligini baholashning GRU (Gated Recurrent Unit) neyron tarmog‘iga asoslangan modeli taklif etilgan. Model mijozlarning tranzaksion faolligi va raqamli xizmatlardan foydalanish bo‘yicha vaqt ketma-ketligidagi xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali ularning sodiqlik darajasini prognozlaydi.

GRU arxitekturasi Update Gate va Reset Gate mexanizmlari yordamida uzoq va qisqa muddatli bog'liqliklarni samarali o'rganadi. LSTM modeliga nisbatan parametrlar sonining kamligi hisoblash samaradorligini oshiradi hamda o‘rta hajmdagi ma’lumotlar to‘plamlarida yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Bank mijozlari sodiqlik darajasini baholash va prognozlash uchun tuzilgan GRU neyron tarmog‘i modelining arxitektura ko‘rinishi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Bank mijozlari sodiqlik darajasini baholash va prognozlash uchun tuzilgan GRU neyron tarmog‘i modelining arxitektura

Modelning kirish ma’lumotlari sifatida mobil ilovadan foydalanish chastotasi, tranzaksiyalar soni va hajmi, bank mahsulotlaridan foydalanish faolligi, kredit va depozit operatsiyalari hamda mijozlarning raqamli xatti-harakatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan foydalanilgan. Ushbu ma’lumotlar asosida har bir mijoz uchun Loyalty Score shakllantirilib, mijozlarni segmentatsiyalash va bankni tark etish xavfini oldindan baholash imkoniyati yaratilgan.

Modelni o‘qitishda Adam optimizatori va Binary Cross-Entropy yoqotish funksiyasidan foydalanilgan, uning samaradorligi Accuracy, Precision, Recall, F1-score va ROC-AUC mezonlari orqali baholangan. Tadqiqot natijalari GRU modeli mijozlar sodiqligini prognozlashda an’anaviy klassifikatsiya usullariga nisbatan yuqoriroq aniqlik va barqarorlikni ta'minlashini ko'rsatdi.

Taklif etilgan yondashuv bankni tark etish ehtimoli yuqori bo‘lgan mijozlarni erta aniqlash, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni shakllantirish hamda mijozlarni ushlab qolish strategiyalarini takomillashtirish orqali onlayn bank xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda sun’iy intellekt texnologiyalarini onlayn bank xizmatlariga joriy etish operatsion samaradorlikni oshirish, risklarni boshqarishni takomillashtirish va mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlarni rivojlantirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, mijozlarning vaqt bo'yicha o'zgaruvchan tranzaksion faolligini tahlil qilishda GRU (Gated Recurrent Unit) neyron tarmog'i yuqori prognozlash imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi. Ishlab chiqilgan yondashuv banklarga mijozlarni segmentatsiyalash, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni shakllantirish, mijozlarni ushlab qolish strategiyalarini takomillashtirish hamda CRM tizimlarining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Natijada onlayn bank xizmatlarining sifati, mijozlar sodiqligi va banklarning raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshadi.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA INFLYATSIYA, BANDLIK VA IQTISODIY O‘SISH BARQARORLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Tursunov Olimboy Panjiboy o‘g’li
TDIU Xalqaro ilmiy nashr bazalari bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi
olimtursunov02@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli transformatsiya jarayonida inflyatsiya, bandlik va iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish hamda davlat boshqaruvini shaffoflashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, raqamli tafovut, kiberxavfsizlik xatarlari, platformaviy mehnatning huquqiy tartibga solinishi va narxlar monitoringi tizimlarining yetarli darajada rivojlanmagani yangi muammolarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotda O‘zbekistonning 2020–2024-yillardagi YaIM o‘sishi, iste’mol narxlari indeksi, ishsizlik darajasi, internet abonentlari, AKT sohasining YaIMdagi ulushi va elektron tijorat ko‘rsatkichlari asosida raqamli iqtisodiyotning barqarorlik omillari baholanadi. Natijalar raqamli transformatsiya inflyatsiyani jilovlash, bandlikni kengaytirish va iqtisodiy o‘sishni diversifikatsiya qilish uchun muhim institutsional resurs ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, inflyatsiya, bandlik, iqtisodiy o‘sish, makroiqtisodiy barqarorlik, elektron tijorat, fintech, pul-kredit siyosati, fiskal siyosat.

Kirish

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya ishlab chiqarish, moliya, savdo, davlat boshqaruvi va mehnat bozorining asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylandi. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar, mobil to‘lovlar, elektron tijorat va raqamli davlat xizmatlari xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tezlashtirib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalar faqat texnik yangilik emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning zamonaviy instrumenti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Makroiqtisodiy barqarorlik odatda iqtisodiy o‘sishning izchilligi, narxlar barqarorligi, bandlik darajasi, byudjet va to‘lov balansi muvozanati hamda moliyaviy tizimning barqaror ishlashi bilan izohlanadi. Raqamli texnologiyalar ushbu ko‘rsatkichlarga bir vaqtning o‘zida bir necha kanallar orqali ta’sir qiladi: birinchidan, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirib, mehnat unumdorligini oshiradi; ikkinchidan, narxlar va bozor signallarini tezroq aniqlash imkonini beradi; uchinchidan, moliyaviy xizmatlardan foydalanish qamrovini kengaytiradi; to‘rtinchidan, davlat xarajatlari va soliq tushumlari ustidan real vaqt rejimida monitoring yuritish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. So‘nggi yillarda elektron hukumat, masofaviy bank xizmatlari, elektron to‘lovlar, IT Park rezidentlari faoliyati, elektron tijorat va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha tizimli choralar amalga oshirildi. Bu jarayonlar iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini shakllantirish, byudjet tushumlarini oshirish, aholining moliyaviy inklyuziyasini kuchaytirish va bandlikning zamonaviy shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi raqamli transformatsiya jarayonida inflyatsiya, bandlik va iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash masalalarini O‘zbekiston amaliyoti va xalqaro tajriba asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning

makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sir mexanizmlari ochib beriladi, O‘zbekiston bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi hamda amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi va tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy samaralari ko‘pincha unumdorlik, innovatsion faollik, tranzaksiya xarajatlari, moliyaviy inklyuziya va institutlar sifati bilan bog‘lanadi. Brynjolfsson va McAfee raqamli texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi umumiy maqsadli texnologiyalar sifatida ishlab chiqarish jarayonlarini qayta tashkil etishini ta’kidlaydi. Goldfarb va Tucker esa raqamli iqtisodiyotning asosiy farqi qidiruv, nusxalash, transport, kuzatuv va tekshiruv xarajatlarining keskin pasayishida ekanini ko‘rsatadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan raqamli texnologiyalar ikki tomonlama ta’sirga ega. Ijobiy tomondan, elektron to‘lovlar va raqamli bank xizmatlari pul aylanish tezligini oshiradi, naqd pulga qaramlikni kamaytiradi va pul-kredit siyosati transmissiyasini kuchaytiradi. Salbiy tomondan esa kriptoaktivlar, kiberxavfsizlik xatarlari, platforma monopoliyalari va mehnat bozorida malaka nomuvofiqligi yangi beqarorlik manbalarini yuzaga keltirishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida taqqoslama tahlil, statistik tahlil, ilmiy umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Statistik tahlilda O‘zbekiston bo‘yicha 2020–2024-yillardagi YaIM o‘sishi, iste’mol narxlari indeksi, ishsizlik darajasi, AKTning YaIMdagi ulushi, internet abonentlari soni va elektron tijorat hajmi o‘rganildi. Xalqaro tajribada Estoniya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy va Yevropa Ittifoqi amaliyotlari umumlashtirildi.

Maqolada raqamli texnologiyalar ta’siri besh yo‘nalishda baholandi: iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, bandlik, fiskal barqarorlik va pul-kredit barqarorligi. Bunday yondashuv raqamli transformatsiyani alohida texnologik jarayon sifatida emas, balki iqtisodiyotning umumiy muvozanatiga ta’sir qiluvchi kompleks omil sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta’sir mexanizmlari

Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri avvalo ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligining ortishi bilan izohlanadi. Korxonalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, raqamli logistika, elektron hujjat aylanishi va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish xarajatlarni kamaytiradi. Natijada mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi ortadi, bozorlar kengayadi va raqobat kuchayadi. Raqamli platformalar kichik biznes uchun bozorga kirish xarajatlarini pasaytirib, yangi tadbirkorlik imkoniyatlarini yaratadi.

Inflyatsiyaga ta’sir mexanizmi murakkabroq. Bir tomondan, elektron savdo va raqamli narx monitoringi bozor axborotining shaffofligini oshirib, narxlar orasidagi tafovutni kamaytiradi. Bu iste’molchilar tanlovini kengaytiradi va raqobatni kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan, raqamli xizmatlarga talabning tez o‘sishi, logistika va import qilinadigan texnologik uskunalarga bog‘liqlik ayrim davrlarda xarajat inflyatsiyasini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli raqamli transformatsiya inflyatsiyani avtomatik ravishda pasaytirmaydi; u samarali raqobat siyosati, pul-kredit intizomi va bozor infratuzilmasi bilan uyg‘unlashganda ijobiy natija beradi.

Bandlik bozorida raqamli texnologiyalar ikki yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, ular ayrim an’anaviy ish o‘rinlarini avtomatlashtirish orqali qisqartirishi mumkin. Ikkinchidan, dasturlash, ma’lumotlar tahlili, elektron savdo, raqamli marketing,

kiberxavfsizlik, masofaviy xizmat ko‘rsatish va IT-autsorsing kabi yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Shu bois asosiy vazifa texnologiyalarning ish o‘rinlariga salbiy ta’sirini kamaytirish emas, balki mehnat resurslarini yangi talablar asosida qayta tayyorlashdan iborat.

Fiskal barqarorlik nuqtai nazaridan raqamli texnologiyalar soliq bazasini kengaytirish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va davlat xarajatlarining manzilligini oshirish imkonini beradi. Elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, raqamli davlat xaridlari va davlat xizmatlarining elektron ko‘rinishi byudjet intizomini mustahkamlaydi. Pul-kredit barqarorligi esa elektron to‘lovlar, masofaviy bank xizmatlari va moliyaviy ma’lumotlarning tezkorligi orqali kuchayadi.

1-jadval. O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlari, 2020–2024-yillar

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM o‘sishi, %	1,6	8,2	6,1	6,3	6,7
Iste’mol narxlari indeksi o‘sishi, %	11,1	10,0	12,3	8,8	9,8
Ishsizlik darajasi, %	10,5	9,6	8,9	6,8	5,5

O‘zbekiston amaliyotida raqamli transformatsiya va barqarorlik ko‘rsatkichlari

O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya iqtisodiy o‘sishning yangi sifat omillarini shakllantirmoqda. 2020-yilda pandemiya sharoitida YaIM o‘sishi sekinlashgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda iqtisodiy faollik tiklandi. 2021–2024-yillarda iqtisodiy o‘sish yuqori sur’atda davom etdi, ishsizlik darajasi bosqichma-bosqich pasaydi. Inflyatsiya esa tarkibiy omillar, energiya va import narxlari, ichki talab hamda pul-kredit sharoitlari ta’sirida nisbatan yuqori darajada saqlanib qoldi.

1-jadval ma’lumotlari raqamli transformatsiya makroiqtisodiy barqarorlik uchun qulay sharoit yaratishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, iqtisodiy o‘sish tiklanishi bilan birga ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2024-yilda 5,5 foizgacha pasaydi. Bu jarayonda xizmatlar sohasi, elektron savdo, masofaviy xizmatlar va IT sektori bandlikni kengaytiruvchi omillar qatoriga kirdi. Biroq inflyatsiyaning yuqori saqlanishi raqamli texnologiyalarni narxlar monitoringi, logistika samaradorligi va raqobat muhitini kuchaytirish bilan yanada faol uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni 2020-yilda 19,98 milliondan 2024-yilda 32,14 milliongacha oshgan. AKT sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi 2020-yilda 1,55 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 2,43 foizga yetgan. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat ulushi esa 2020-yildagi 1,82 foizdan 2024-yilda 4,08 foizgacha ko‘tarilgan. Bu ko‘rsatkichlar iqtisodiyotda raqamli sektorning o‘sib borayotganini tasdiqlaydi.

Raqamli to‘lovlar ham makroiqtisodiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi muhim omilga aylandi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda bank kartalari soni 62,0 milliontaga yetgan, masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari 52,9 millionni tashkil etgan, jismoniy shaxslarning mobil ilovalar orqali onlayn operatsiyalari hajmi esa 396,7 trln so‘mga yetgan. Bunday ko‘rsatkichlar naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushi ortayotganini, pul oqimlari shaffoflashayotganini va moliyaviy xizmatlardan

foydalanish kengayayotganini anglatadi.

2-jadval. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya ko‘rsatkichlari, 2020–2024-yillar

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Internet abonentlari, ming birlik	19 981,0	22 987,2	26 723,6	30 061,0	32 138,7
AKT qo‘shilgan qiymatining YaIMdagi ulushi, %	1,55	1,61	1,85	2,17	2,43
Axborot iqtisodiyoti va e-tijorat ulushi, %	1,82	2,30	3,06	3,56	4,08
Elektron tijorat hajmi, mlrd so‘m	1 002,5	5 978,7	10 886,8	13 263,8	15 211,5

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston uchun saboqlar

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya makroiqtisodiy barqarorlikka eng kuchli ta’sirni davlat, biznes va aholi o‘rtasidagi raqamli integratsiya yuqori bo‘lgan sharoitda beradi. Estoniya elektron hukumat va raqamli identifikatsiya tizimlari orqali davlat xizmatlari xarajatlarini kamaytirish, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va soliq ma’murchiligini soddalashtirishda muvaffaqiyatli tajriba yaratdi. Bu fiskal shaffoflik va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qildi.

Singapur tajribasi raqamli boshqaruv, fintech, innovatsion ekotizim va malakali kadrlar tayyorlash o‘zaro bog‘liq bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Janubiy Koreyada yuqori tezlikdagi internet, elektron sanoat, raqamli ta’lim va ilmiy-tadqiqot xarajatlari iqtisodiy o‘sishning texnologik asosini mustahkamladi. Xitoyda raqamli to‘lovlar va elektron savdo keng qamrovli ichki bozorni shakllantirib, kichik biznesning iste’molchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatini oshirdi.

O‘zbekiston uchun asosiy saboq shundan iboratki, raqamli transformatsiya faqat texnik infratuzilma bilan cheklanmasligi kerak. U makroiqtisodiy siyosat, raqobat siyosati, ta’lim tizimi, mehnat bozori institutlari, soliq boshqaruvi va moliyaviy barqarorlik choralariga integratsiya qilinishi zarur. Aks holda raqamli texnologiyalar ayrim tarmoqlarda o‘sishni tezlashtirsa-da, iqtisodiyot bo‘yicha keng qamrovli barqarorlikni ta’minlay olmaydi.

Raqamli texnologiyalarning inflyatsiyaga qarshi samaradorligini oshirish uchun real vaqt rejimida narxlar monitoringi, elektron savdo platformalaridagi raqobatni qo‘llab-quvvatlash, logistika zanjirlarini raqamlashtirish va iste’mol bozorida ma’lumotlar ochiqligini kengaytirish zarur. Bandlik bo‘yicha esa IT ta’lim, qisqa muddatli qayta tayyorlash dasturlari, masofaviy ish va frilans platformalarini huquqiy tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya inflyatsiya, bandlik va iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlashda muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi va davlat boshqaruvi shaffofligini kuchaytiradi. O‘zbekiston misolida internet abonentlari, AKT ulushi, axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat ko‘rsatkichlarining o‘sishi raqamli sektorning makroiqtisodiy ahamiyati ortayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya barqarorlikka avtomatik tarzda olib kelmaydi.

Inflyatsiyani jilovlash uchun raqamli narx monitoringi, samarali raqobat va pul-kredit intizomi zarur. Bandlikni qo‘llab-quvvatlash uchun mehnat resurslarini raqamli ko‘nikmalar asosida qayta tayyorlash, platformaviy bandlikni tartibga solish va hududlarda IT xizmatlarini rivojlantirish lozim. Iqtisodiy o‘sish barqaror bo‘lishi uchun raqamli xizmatlar eksporti, elektron tijorat, raqamli moliya va innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Amaliy taklif sifatida birinchidan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatuvchi raqamli monitoring tizimlarini rivojlantirish; ikkinchidan, elektron to‘lovlar va bank xizmatlari xavfsizligini kuchaytirish; uchinchidan, kichik biznesni elektron tijorat platformalariga integratsiya qilish; to‘rtinchidan, raqamli mehnat bozori uchun milliy malaka standartlarini takomillashtirish; beshinchidan, IT Park va eksportga yo‘naltirilgan raqamli xizmatlar ekotizimini hududlar kesimida kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida faqat innovatsion rivojlanish yo‘nalishi emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, narxlar barqarorligini qo‘llab-quvvatlash, zamonaviy bandlikni kengaytirish va iqtisodiy o‘sish sifatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W.W. Norton.
2. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Annual Report 2024. Tashkent: CBU.
3. Goldfarb, A., & Tucker, C. (2019). Digital economics. Journal of Economic Literature, 57(1), 3–43.
4. International Monetary Fund. (2023). Digitalization and the Future of Finance. Washington, DC: IMF.
5. International Telecommunication Union. (2024). Measuring Digital Development: Facts and Figures. Geneva: ITU.
6. IT Park Uzbekistan. (2024). Results of 2023: Transformation and Plans for 2024. Tashkent: IT Park.
7. McKinsey Global Institute. (2016). Digital Globalization: The New Era of Global Flows. McKinsey & Company.
8. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026). SIAT statistical database: ICT, e-commerce, unemployment and consumer price index indicators. Tashkent.
9. OECD. (2020). Digital Economy Outlook 2020. Paris: OECD Publishing.
10. OECD. (2024). Digital Government Index: Results and Key Findings. Paris: OECD Publishing.
11. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
12. Tapscott, D. (2015). The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. New York: McGraw-Hill.
13. World Bank. (2016). World Development Report 2016: Digital Dividends. Washington, DC: World Bank.
14. World Bank. (2026). World Development Indicators: Uzbekistan macroeconomic indicators. Washington, DC: World Bank.

O‘ZBEKISTON BANKLARI FAOLIYATIDA LIKVIDLIK VA RENTABELLIK O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNI BAHOLASH HAMDA OPTIMALLASHTIRISH YO‘LLARI

Xolmatov Azizjon Avazxon o‘g‘li
Tashkent International University mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur tezisda bank faoliyatida likvidlik va rentabellik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda ularni optimallashtirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan. AT “Aloqabank”ning 2022-2026-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida likvidlik proksilari, daromad keltiruvchi aktivlar ulushi va operatsion samaradorlik dinamikasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, likvidlik zaxiralarini maqbullashtirish, aktivlar daromadliligini oshirish va moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *bank likvidligi, rentabellik, likvidlik riski, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi, likvidlik zaxiralari, moliyaviy barqarorlik.*

Аннотация. В тезисе исследованы взаимосвязь ликвидности и рентабельности банковской деятельности, а также направления их оптимизации. На основе финансовых показателей АК «Алокабанк» за 2022-2026 годы проанализирована динамика косвенных показателей ликвидности, доли доходных активов и операционной эффективности. По результатам исследования разработаны предложения по оптимизации резервов ликвидности, повышению доходности активов и совершенствованию механизмов управления финансовыми рисками.

Ключевые слова: *банковская ликвидность, рентабельность, риск ликвидности, рентабельность активов, рентабельность капитала, резервы ликвидности, финансовая устойчивость.*

Abstract. This study examines the relationship between liquidity and profitability in banking operations and explores approaches to their optimization. Using Aloqabank's financial data for 2022-2026, the study analyzes trends in liquidity proxies, the share of income-generating assets, and operational efficiency. Based on the findings, recommendations are developed for optimizing liquidity reserves, improving asset profitability, and strengthening financial risk management mechanisms.

Keywords: *bank liquidity, profitability, liquidity risk, return on assets, return on equity, liquidity reserves, financial stability.*

Kirish. Bank faoliyatining moliyaviy samaradorligini ta’minlash likvidlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi maqbul mutanosiblikni shakllantirish bilan bevosita bog‘liqdir. Tijorat banklari bir tomondan jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish uchun yetarli likvidlik zaxiralariga ega bo‘lishi, ikkinchi tomondan esa mavjud moliyaviy resurslarni daromad keltiruvchi aktivlarga samarali joylashtirishi zarur. Bank aktivlari tarkibida yuqori likvidli mablag‘larning ortiqcha jamlanishi ularning daromadlilik salohiyatini cheklashi mumkin bo‘lsa, kredit va investitsiya operatsiyalariga resurslarning haddan tashqari yo‘naltirilishi qisqa muddatli to‘lov majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq xatarlarni kuchaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, likvidlik va rentabellik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks baholash hamda ularning maqbul nisbatini aniqlash banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida likvidlik va rentabellik o‘rtasidagi bog‘liqlik bank aktivlarining tarkibi, moliyalashtirish manbalarining qiymati, kredit portfelining sifati hamda moliyaviy risklarni boshqarish samaradorligi orqali namoyon bo‘ladi. Xususan, bank rentabelligini baholashda aktivlar rentabelligi (Return on Assets - ROA), kapital rentabelligi (Return on Equity - ROE) va sof foiz marjasi (Net Interest Margin - NIM) kabi ko‘rsatkichlardan foydalanilsa, likvidlik holatini baholashda likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (Liquidity Coverage Ratio - LCR), sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (Net Stable Funding Ratio - NSFR) hamda yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur indikatorlarning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etish banklarning likvidlik zaxiralarini saqlash bilan bog‘liq xarajatlari, moliyaviy resurslardan foydalanish darajasi va daromad olish imkoniyatlarini kompleks baholashga xizmat qiladi.


O‘zbekistonda banklar faoliyatining moliyaviy samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda tavakkalchiliklarni hisobga olgan holda aktivlardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-fevraldagi PQ–74-sonli “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida davlat ishtirokidagi banklarda korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, kuzatuv kengashlarida mustaqil a’zolar ulushini 50 foizga yetkazish hamda ilg‘or texnologiyalar orqali faoliyat samaradorligini oshirish vazifalari belgilangan[1]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-sonli qarori (ro‘yxat raqami 3697, 2025-yil 28-oktabr) bilan tasdiqlangan va 2026-yil 1-yanvardan kuchga kirgan “Banklar kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomda bank kapitalining tarkibi, kredit, bozor va operatsion tavakkalchiliklarni hisoblash hamda kapital yetarliligini ta’minlashga oid talablar belgilangan[2]. Mazkur islohotlar banklar faoliyatida moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, aktivlarning risk va daromadlilik xususiyatlarini hisobga olish hamda yetarli likvidlik darajasini saqlagan holda rentabellikni oshirish imkoniyatlarini kompleks tadqiq etish zaruratini kuchaytiradi[3].

Tijorat banklarida likvidlik va rentabellik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning murakkabligi shundaki, likvidlik darajasining oshishi har doim ham rentabellikning pasayishiga yoki aksincha, rentabellikning ortishi likvidlikning yomonlashishiga olib kelmaydi. Mazkur bog‘liqlik bankning biznes modeli, aktivlar va majburiyatlar tarkibi, moliyalashtirish qiymati, kredit portfeli sifati hamda makroiqtisodiy sharoitlarga qarab turlicha shakllanishi mumkin. Jumladan, likvidlik zaxiralarining yetarli bo‘lishi bankning favqulodda moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyojini kamaytirib, qo‘shimcha xarajatlarning oldini olish imkonini bersa, ortiqcha likvid mablag‘larning past daromadli instrumentlarda saqlanishi aktivlar rentabelligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli likvidlik va rentabellik o‘rtasidagi bog‘liqlikni faqat alohida moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida emas, balki ularning dinamikasi va o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda baholash muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar.

Bank faoliyatida likvidlik va rentabellik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholash maqsadida AT “Aloqabank”ning 2022–2026-yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlari qiyosiy va tarkibiy tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida tor va kengaytirilgan likvidlik proksilarining jami aktivlardagi ulushi, foizli daromad keltiruvchi aktivlarning jami

aktivlarga nisbati hamda operatsion xarajatlarning daromadlarga nisbati (Cost-to-Income Ratio-CIR) asosiy tahliliy indikatorlar sifatida tanlandi. Mazkur ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda baholash likvidlik zaxiralarining aktivlar tarkibidagi o‘rnini, moliyaviy resurslarning daromad keltiruvchi operatsiyalarga yo‘naltirilish darajasini hamda bank faoliyatining operatsion samaradorligidagi o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi[4].



1-rasm. AT “Aloqabank”ning likvidlik, daromad keltiruvchi aktivlar va operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi (2022–2026-yillar)[5]

1-rasm ma’lumotlari tahlili bank aktivlari tarkibida likvidlik va daromadlilik bilan bog‘liq sezilarli tarkibiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatmoqda. Xususan, tor likvidlik proksisining jami aktivlardagi ulushi 2022-yildagi qariyb 23 foizdan 2023-yilda 12 foizgacha pasaygan. Kengaytirilgan likvidlik proksisi esa shu davrda taxminan 29 foizdan 13 foizgacha qisqargan. Mazkur o‘zgarishlar bank aktivlari tarkibida likvid mablag‘lar va ularga yaqin aktivlarning nisbiy salmog‘i kamayganini ifodalaydi. Biroq likvidlik proksilarining pasayishi bankning umumiy likvidlik holati yomonlashganini to‘liq anglatmaydi, chunki haqiqiy likvidlik barqarorligi aktivlarning sifati, pul oqimlari va majburiyatlarning qaytarilish muddatlariga ham bog‘liq.

2024-yilda bank aktivlari tarkibida likvidlik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning qisman tiklanishi kuzatilgan. Jumladan, tor likvidlik proksisi jami aktivlarning qariyb 14 foizini, kengaytirilgan likvidlik proksisi esa 25 foizini tashkil etgan. 2025-2026-yillarda ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda taxminan 12–13 foiz va 25–26 foiz darajasida shakllangan. Tor va kengaytirilgan likvidlik proksilari o‘rtasidagi tafovutning ortishi bank aktivlari tarkibida kengaytirilgan hisob-kitobga kiritilgan moliyaviy instrumentlarning nisbiy ahamiyati kuchayganini ko‘rsatadi. Ushbu holat likvidlikni baholashda faqat pul mablag‘lari hajmi bilan cheklanmasdan, boshqa moliyaviy aktivlarning realizatsiya qilinish imkoniyati, bozor likvidligi va potensial qiymat yo‘qotishlarini ham hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi.

Foizli daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi dinamikasida ham muhim o‘zgarishlar kuzatilgan. Mazkur ko‘rsatkich 2022-yilda qariyb 74 foizni, 2023-yilda 71 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 66,4 foizgacha pasaygan. Biroq 2025-2026-yillarda uning 74.2-76,1 foizgacha oshishi bank aktivlari tarkibida foizli daromad shakllantiruvchi moliyaviy instrumentlar salmog‘i sezilarli darajada

kengayganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2024-2025-yillarda kengaytirilgan likvidlik proksisi nisbatan barqaror saqlangan holda daromad keltiruvchi aktivlar ulushining ortishi bank aktivlari tarkibida muhim o‘zgarishlar yuz berganini ifodalaydi. Shunga qaramay, daromad keltiruvchi aktivlar ulushining oshishi rentabellikning mutanosib ravishda yaxshilanishini kafolatlamaydi, chunki yakuniy moliyaviy natijalar jalb etilgan resurslarning qiymati, kredit risklari va operatsion xarajatlarga ham bog‘liq.

Bankning operatsion samaradorligini ifodalovchi CIR ko‘rsatkichi tahlili esa o‘zgaruvchan tendensiyani namoyon etgan. Xususan, 2022-yilda mazkur ko‘rsatkich qariyb 52 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 41 foizgacha pasaygan. Bu davrda operatsion xarajatlarning daromadlarga nisbatan kamayishi bank faoliyatining operatsion samaradorligi yaxshilanganidan dalolat beradi. Biroq 2024-yilda CIR ko‘rsatkichi taxminan 50 foizga, 2025-yilda esa 61 foizdan yuqori darajaga ko‘tarilgan. Mazkur holat bank daromadlariga nisbatan operatsion xarajatlar yukining ortganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2025-yilda foizli daromad keltiruvchi aktivlar ulushining oshishi bilan bir vaqtda CIR ko‘rsatkichining ham yuqorilashi aktivlar tarkibidagi ijobiy o‘zgarishlar operatsion samaradorlikning yaxshilanishi bilan bir xil yo‘nalishda kechmaganini anglatadi.

Olingan natijalar likvidlik zaxiralari, daromad keltiruvchi aktivlar va operatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik bir yo‘nalishli emasligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, ayrim davrlarda likvidlik proksilari ulushining kamayishi CIR ko‘rsatkichining yaxshilanishi bilan birga kuzatilgan bo‘lsa, boshqa davrlarda daromad keltiruvchi aktivlar ulushining ortishi operatsion xarajatlar yukining oshishi bilan kechgan. Bu holat bank likvidligi va moliyaviy samaradorligi o‘rtasidagi munosabatni alohida ko‘rsatkichlar asosida emas, balki aktivlar tarkibi, moliyalashtirish qiymati, foiz marjasi hamda operatsion xarajatlarni kompleks hisobga olgan holda baholash zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, bank faoliyatida likvidlik va rentabellik o‘rtasidagi mutanosiblikni optimallashtirishda likvid aktivlarning iqtisodiy jihatdan maqbul hajmini aniqlash, daromad keltiruvchi aktivlar tarkibini ularning risk va rentabellik xususiyatlariga muvofiq shakllantirish hamda operatsion xarajatlar samaradorligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, likvidlik ko‘rsatkichlarini aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE) va sof foiz marjasi (NIM) bilan birgalikda baholash, likvidlik zaxiralarini stress-test natijalari asosida rejalashtirish hamda aktivlar va majburiyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. O‘zbekiston banklarida likvidlik va rentabellikni samarali boshqarish faqat likvid mablag‘larni ko‘paytirish yoki daromad keltiruvchi aktivlar ulushini oshirish bilan cheklanmasdan, ularning tarkibiy sifati, moliyalashtirish qiymati va ehtimoliy risklarini kompleks baholashni talab etadi. Likvidlik zaxiralarini iqtisodiy jihatdan maqbullashtirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va aktivlar tarkibini daromadlilik hamda risk darajasiga muvofiq shakllantirish banklarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-fevraldagi PQ–74-sonli “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklari faoliyatining samaradorligini

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/acts/-8066483

2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 2-oktabrdagi 21/6-sonli “Banklar kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori (ro‘yxat raqami 3697, 28.10.2025). https://lex.uz/uz/acts/-7793613

3. Basel Committee on Banking Supervision. (2013). Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools. Bank for International Settlements, Basel. https://www.bis.org/publ/bcbs238.htm

4. Basel Committee on Banking Supervision. (2014). Basel III: The Net Stable Funding Ratio. Bank for International Settlements, Basel. https://www.bis.org/publications/201410-standards-basel-iii-net-stable-funding-ratio

5. AT “Aloqabank” rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

BANK XIZMATLARI ISTE’MOLCHILARINING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Valiyev Doniyor Baxtiyor o‘g‘li
Toshkent xalqaro universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda bank xizmatlari iste’molchilari huquqlarini himoya qilish tizimi xalqaro amaliyot bilan qiyoslab tahlil qilingan. 2026-yil birinchi yarmida Markaziy bank apparatiga murojaatlar 66 foizga, karta firibgarligi bo‘yicha murojaatlar qariyb to‘rt baravar oshgan. Nizolarni suddan tashqari hal etuvchi mustaqil institut mavjud emas. Moliyaviy ombudsmanni joriy etish, murojaatlar bo‘yicha to‘liq oshkoralik hamda firibgarlik va kreditlashda profilaktik himoya bo‘yicha uchta taklif ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: bank xizmatlari iste’molchilari, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, tijorat banklari, Markaziy bank, moliyaviy ombudsman, nizolarni suddan tashqari hal etish, murojaatlar indeksi, tizimli kamchilik, xulq-atvor nazorati, axborot assimetriyasi, moliyaviy savodxonlik, axborotni oshkor qilish, mas’uliyatli kreditlash, karta firibgarligi, OECD tamoyillari, Consumer Duty, bank nazorati, moliyaviy inklyuzivlik.

Moliyaviy xizmatlar iste’molchisini himoya qilish 2008-yilgi inqirozdan keyin bank nazoratining mustaqil yo‘nalishiga aylandi. G20 va OECD 2011-yilda qabul qilib, 2022-yilda yangilagan Yuqori darajadagi tamoyillar huquqiy asos va nazorat organi, axborotni oshkor qilish, adolatli munosabat, mas’uliyatli biznes yuritish, firibgarlikdan himoya hamda shikoyatlarni ko‘rib chiqish va zararni qoplashni yagona tizim sifatida belgilaydi (OECD, 2022). Buyuk Britaniyada Moliyaviy ombudsman xizmatiga 2025/26-yilda 214,6 ming yangi shikoyat tushgan, ularning o‘rtacha 30 foizi iste’molchi foydasiga hal etilgan (Financial Ombudsman Service, 2026).

O‘zbekistonda moliyaviy xizmatlar qamrovi tez kengaymoqda: hisobvarag‘i bor kattalar ulushi 2017-yildagi 34 foizdan 2024-yilda 56 foizga yetdi (Umarova, 2025), bank tizimi aktivlari 1 016,6 trln so‘mdan oshdi (Umarov, 2026). Yangi mijozlarning moliyaviy tajribasi kam, shu sababli huquq buzilishi xavfi ham ortmoqda. Markaziy bank raisi 2026-yilda banklarning iste’molchilar bilan ishlashi bo‘yicha keng qamrovli islohot boshlanganini e’lon qildi (Spot, 2026b).

Adabiyotlar sharhi va o‘rganilganlik darajasi. Himoyaning nazariy asosi axborot assimetriyasidir: sotuvchi mahsulot sifatini xaridordan yaxshi biladi (Akerlof,

1970). Llewellyn (1999) moliyaviy tartibga solishning iqtisodiy zaruratini aynan shu bilan, shuningdek uzoq muddatli shartnomalar va monitoring qiyinligi bilan asoslaydi. Campbell va boshq. (2011) iste’molchining xulq-atvor xatolari bozor intizomini zaiflashtirishini, shuning uchun oshkor qilishning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatgan. Lusardi va Mitchell (2014) moliyaviy savodxonlik pastligi qimmat qarz va firibgarlikka moyillik bilan bog‘liqligini isbotlagan. Thaler va Sunstein (2008) standart shartlar va tanlov arxitekturasi orqali himoya g‘oyasini ilgari surgan. Taylor (1995) prudensial va xulq-atvor nazoratini ajratuvchi “ikki cho‘qqi” modelini taklif etgan. Jahon banki (World Bank, 2017) ilg‘or amaliyotlarni tizimlashtirgan. Mahalliy olimlardan Abdullayeva (2017) hamda Omonov va Qoraliyev (2012) bank xizmatlarining mazmuni va huquqiy asoslarini yoritgan. Biroq milliy adabiyotda himoya tizimi asosan me’yoriy hujjatlar tavsifi darajasida o‘rganilgan; murojaatlar statistikasi asosida tizimning samaradorligi baholanmagan.


Ilmiy muammo. O‘zbekistonda himoya tizimi regulyatorga shikoyat qilish va sudga asoslanadi. Bank va mijoz o‘rtasidagi nizoni tez, bepul va majburiy kuchga ega qaror bilan hal etuvchi mustaqil bo‘g‘in mavjud emas, banklar kesimida taqqoslanadigan to‘liq ma’lumot esa e’lon qilinmaydi.

Maqsad va ilmiy yangilik. Tadqiqot maqsadi — bank xizmatlari iste’molchilari huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqish. Ilmiy yangiligi — tizimni uch bosqichli (bank — ombudsman — regulyator va sud) model sifatida qurish hamda nazorat choralarini murojaatlar tarkibidagi ustuvor xavflarga bog‘lash taklifi.

2. Metodlar

Tadqiqot ikkilamchi ma’lumotlarga asoslangan. Statistik tahlilda ikki manba ishlatildi: Markaziy bank apparatiga 2025 va 2026-yillarning birinchi yarmida tushgan murojaatlarning mavzular bo‘yicha taqsimoti (Markaziy bank, 2026) hamda 2026-yil I–II chorak murojaatlar indeksi (Spot, 2026c, 2026e). Tarkibiy tahlil, o‘sish sur’ati va ulush ko‘rsatkichlari hisoblandi. Qiyosiy tahlilda Buyuk Britaniya, Qozog‘iston va O‘zbekiston tizimlari to‘rt mezon bo‘yicha solishtirildi. Me’yoriy-huquqiy tahlil Markaziy bankning 2025–2026-yillardagi choralarini qamradi. Cheklovlar: apparat statistikasi boshqa davlat organlari orqali kelgan murojaatlarni to‘liq aks ettirmaydi; murojaatlar o‘sishining bir qismi qabul kanallari kengayishi bilan bog‘liq.

Murojaatlar dinamikasi va tarkibi. Markaziy bank apparatiga tushgan murojaatlar 2025-yil birinchi yarmidagi 2 487 tadan 2026-yilning shu davrida 4 123 taga yetdi, ya’ni 65,8 foizga oshdi (1-rasm).



1-rasm. Markaziy bank apparatiga tushgan murojaatlar, asosiy mavzular bo‘yicha (dona). Manba: Markaziy bank (2026).

Murojaatlarning qariyb yarmi (49 foizi) kreditlarga tegishli; ularning soni 1,7 baravar oshgan. Eng tez o‘sgan yo‘nalish — plastik karta va firibgarlik: 245 tadan 956 taga, ya’ni 3,9 baravar. Xodimlarning xatti-harakati bo‘yicha murojaatlar 51 foizga, omonatlar bo‘yicha 85 foizga ko‘paygan; faqat to‘lov tizimi bo‘yicha murojaatlar kamaygan. Barcha kanallar hisobga olinganda, 2026-yil II chorakning o‘zida banklar faoliyati yuzasidan 11 331 ta murojaat kelgan (Spot, 2026e). Regulyator call-markazi kontakt-markazga aylantirilgach, murojaatlar qariyb olti baravar oshgan (Spot, 2026b); demak, avval noroziliklarning katta qismi tizimga tushmagan.

Regulyator choralari. 2025–2026-yillarda Markaziy bank individual shikoyatni ko‘rishdan tizimli sabablarni bartaraf etishga o‘ta boshladi (1-jadval).

Davr	Chora	Natija yoki mazmun
2025-yil oktabr	Murojaatlar asosida banklarni o‘rganish	121 ta murojaatdan 68 tasi iste’molchi foydasiga hal etilib, 2,4 mlrd so‘m qaytarilgan; uch bank jarimaga tortilgan (Spot, 2025)
2026-yil iyun	Murojaatlar indeksini e’lon qilish	Indeksi eng yuqori 10 ta bank har chorakda ochiqlanadi (Spot, 2026c)
2026-yil avgust	3030-son minimal talablarga o‘zgartirish	“Tizimli kamchilik” tushunchasi; choraklik tahlilni bank saytida e’lon qilish; boshqaruv va ichki audit mas’uliyati (Spot, 2026d)
2026-yil 6-avgust	Bankomat xizmatidagi buzilishlar uchun jarima	2025-yilda 341 mln operatsiyadan 291 mingtasida muammo qayd etilgan, 46 mingtasi banklar aybi bilan (Spot, 2026a)

1-jadval. Markaziy bankning iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha asosiy choralari. Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Shu bilan birga, 2025-yilgi misolda 20 ta holatda 1,5 mlrd so‘mlik foiz va penya sud qarori chiqqanidan keyin bekor qilingan (Spot, 2025). Bu nizolar suddan oldin hal etilmayotganini ko‘rsatadi.

Xalqaro taqqoslash. Uch mamlakat tizimi nizoni hal etish bo‘g‘ini va oshkoralik darajasi bilan farqlanadi (2-jadval).

Mezon	Buyuk Britaniya	Qozog‘iston	O‘zbekiston
Nizoni suddan tashqari hal etish	Moliyaviy ombudsman xizmati: 2025/26-yilda 214,6 ming shikoyat	Bank ombudsmani mavjud; bank, sug‘urta va mikromoliya uchun yagona ombudsman ofisi taklif etilgan (2025)	Bank ombudsmani instituti rejalashtirilgan (2025), joriy etilmagan
Shikoyat bosqichlari	Bank — ombudsman — sud	Uch bosqich: moliya tashkiloti — ombudsman — vakolatli organ	Bank — Markaziy bank — sud

Oshkoralik	Shikoyatlar va hal etish natijalari muntazam e’lon qilinadi	—	Faqat indeksi eng yuqori 10 bank; banklarning choraklik tahlili (2026-yildan)
Nazorat yondashuvi	Consumer Duty: mijoz uchun yaxshi natija	OECD tamoyillariga asoslangan xulq-atvor nazoratiga o‘tish	Minimal talablar; tizimli kamchilikni bartaraf etish

2-jadval. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish tizimlarining qiyosiy tahlili. Manba: Financial Ombudsman Service (2026), Kapital.kz (2025), Turayeva (2025), Spot (2026d) asosida muallif ishlanmasi.

Natijalar uchta ilmiy asoslangan yondashuvni ko‘rsatadi.

Birinchidan, tizimda o‘rta bo‘g‘in yetishmaydi. Regulyator har bir nizoni hal etishi nazorat resursini individual ishlarga sarflaydi va manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga keltiradi, sud esa iste’molchi uchun qimmat va sekin. Llewellyn (1999) ta’kidlagan monitoring xarajatini kamaytirishning sinalgan yo‘li — bepul va mustaqil ombudsman. Qozog‘istonning uch bosqichli modeli regulyatorga faqat tizimli buzilishlarni qoldiradi (Kapital.kz, 2025). Markaziy bank bunday institutni 2025-yilda rejalashtirgan (Turayeva, 2025).

Ikkinchidan, oshkoralik qisman. Faqat eng yomon o‘nlikni e’lon qilish obro‘ bosimini yaratadi, lekin iste’molchiga bank tanlash uchun to‘liq taqqoslash bermaydi. Akerlof (1970) mantig‘iga ko‘ra, sifat haqida ishonchli signal bo‘lmasa, yaxshi xizmat ko‘rsatuvchi bank ustunlik ololmaydi.

Uchinchidan, himoya voqeadan keyin emas, oldin ishlashi kerak. Murojaatlar tarkibi ikki ustuvor xavfni ko‘rsatadi: kredit va firibgarlik. Campbell va boshq. (2011) xulosasiga ko‘ra, murakkab mahsulotlarda oshkor qilishning o‘zi yetarli emas, standart shartlar va javobgarlik qoidalari zarur. Moliyaviy savodxonlik dasturlari (Lusardi & Mitchell, 2014) buni to‘ldiradi, lekin o‘rnini bosmaydi.

Amaliy ahamiyat. Takliflar Markaziy bankka nazorat resursini tizimli xavflarga yo‘naltirish, banklarga sud xarajatlari va obro‘ yo‘qotishini kamaytirish, iste’molchilarga esa zararni tez va bepul undirish imkonini beradi. Bu bank tizimiga ishonchni va rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanishni oshiradi.

O‘zbekistonda bank xizmatlari iste’molchilarini himoya qilish tizimi 2025–2026-yillarda sezilarli kuchaydi, biroq u hamon regulyator va sudga tayanadi, murojaatlar esa tez o‘smoqda. Tizimni takomillashtirish uchun uchta amaliy taklif ilgari suriladi.

1. **Mustaqil moliyaviy ombudsman institutini joriy etish.** Bank, mikromoliya va to‘lov tashkilotlari mijozlari uchun yagona ombudsman qonun bilan tashkil etilishi lozim. Murojaat iste’molchi uchun bepul, belgilangan summa doirasidagi qaror bank uchun majburiy, faoliyat esa moliya tashkilotlari badallari hisobidan moliyalashtirilishi kerak. Iste’molchi avval bankka, 15 kun ichida qoniqarli javob olmasa, ombudsmanga murojaat qiladi.

2. **Murojaatlar bo‘yicha to‘liq oshkoralik.** Markaziy bank murojaatlar indeksini barcha banklar bo‘yicha e’lon qilishi, banklar esa yagona shaklda murojaatlar soni, o‘rtacha hal etish muddati, iste’molchi foydasiga hal etilgan ulush va qaytarilgan mablag‘ni har chorakda ochiqlashi zarur.

3. **Kredit va firibgarlik bo‘yicha profilaktik himoya.** Barcha kreditlar uchun bir sahifali yagona “asosiy shartlar varaqasi” (to‘liq qiymat, jami to‘lov, penya) majburiy etilishi; ruxsatsiz karta operatsiyalarida bank firibgarlikka qarshi choralarni ko‘rganini isbotlamasa, mablag‘ni qaytarishi belgilanishi; tizimli kamchilik uchun jarima iste’molchilarga yetkazilgan zarar hajmiga bog‘lanishi maqsadga muvofiq.

Banklar kesimidagi to‘liq ma’lumot e’lon qilingach, kelgusi tadqiqotlarda himoya choralarining murojaatlar soni va bankka ishonchga ta’sirini ekonometrik baholash mumkin bo‘ladi.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH UCHUN KONTRTSIKLIK FISKAL JAVOB QOIDASINI ISHLAB CHIQISH

Qarshiyev Nodirbek Olim o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekiston uchun iqtisodiy sikl fazasi, xomashyo tushumlari va fiskal imkoniyatni birgalikda hisobga oladigan kontrtsiklik fiskal javob qoidasining loyihasi ishlab chiqiladi. 2026-yilgi budjetda konsolidatsiyalashgan taqchillikning 3 foizlik yuqori chegarasi va XVJning fiskal qoidalar bo‘yicha uslubiy tavsiyalari asos qilib olinadi. Taklif qilinayotgan tartib salbiy ishlab chiqarish tafovutida avtomatik stabilizatorlarga yo‘l berish hamda muddatli manzilli yordamni baholashni, ijobiy tafovut va favqulodda resurs tushumlari davrida esa zaxira shakllantirishni nazarda tutadi. Javob hajmi strukturaviy birlamchi saldo, qarz stress sinovi va o‘rta muddatli xarajat chegarasiga bog‘lanadi. Shartli stsenariylar qoida qanday ishlashini ko‘rsatadi; ular O‘zbekiston budjetining tasdiqlangan prognozi yoki empirik samaradorlik bahosi emas.

Kalit so‘zlar: kontrtsiklik fiskal qoida, ishlab chiqarish tafovuti, birlamchi saldo, mineral tushum, avtomatik stabilizator, istisno bandi.

KIRISH

Yillik taqchillik chegarasi budjet intizomi uchun tushunarli mezondir. Biroq iqtisodiy faollik pasayganda soliq tushumlari kamayishi, xomashyo narxi yuqorilaganda esa ortiqcha tushum paydo bo‘lishi mumkin. Agar yuqori tushum to‘liq sarflansa va pasayishda xarajat darhol qisqartirilsa, qoida sikl tebranishlarini kuchaytirishi ehtimoli bor. XVJning O‘zbekiston bo‘yicha 2026-yilgi tahlili ham umumiy taqchillik nishonining ushbu cheklovini va mineral tushumlardan xoli birlamchi ko‘rsatkich zarurligini muhokama qiladi [2].

Tadqiqot maqsadi amaldagi budjet chegarasi bilan mos keladigan, turli shoklarga oldindan belgilangan tartibda javob beruvchi metodik qoida taklif qilishdir. Savol shuki: sikl signali qachon ishga tushadi, qo‘llab-quvvatlash hajmi qanday chegaralanadi va normal holatga qaytish qanday tekshiriladi?

MATERIALLAR VA METODLAR

Normativ manba — 2026-yil uchun Davlat budjeti to‘g‘risidagi O‘RQ–1105-son Qonun: unda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining yuqori miqdori YAIMning 3 foizi deb belgilangan [1]. Ilmiy-uslubiy manbalar — XVJning fiskal qoidalarni kalibrlash qo‘llanmasi va O‘zbekiston bo‘yicha 2025–2026-yilgi maslahatlashuv materiallari [2–4]. Usullar: normativ qiyoslash, hisoblash algoritmi, shartli stsenariy va cheklovlar tahlili.

Qoidaning uch qatlami bor. O‘rta muddatli tayanch — qarz barqarorligi va budjet qamrovi; operatsion ko‘rsatkich — siklga tuzatilgan mineral tushumlardan xoli birlamchi saldo yoki unga mos keluvchi birlamchi xarajat limiti; qisqa muddatli javob — ishlab chiqarish tafovuti va shokning tabiatiga bog‘liq vaqtinchalik chora. Kuzatilgan YAIM o‘sishini siklning o‘zi deb qabul qilish mumkin emas: haqiqiy Y va potensial Y* asosida $q = 100 \times (Y - Y^*) / Y^*$ hisoblanadi.

Siklik tuzatilgan mineral bo‘lmagan birlamchi saldo S, mineral bo‘lmagan daromadlarning sikldan tozalangan miqdori bilan foizlardan xoli birlamchi xarajatlar farqi sifatida olinadi. Fiskal impuls $F_t = -(S_t - S_{t-1})$: musbat F kengaytiruvchi, manfiy F cheklovchi yo‘nalishni anglatadi. Davlatning mineral tushumlari esa joriy yuqori narx bilan o‘rta muddatli ehtiyotkor narx farqi bo‘yicha ajratiladi. Bu ta’riflar hisobotda bir xil budjet qamrovi va YAIM bazasida e’lon qilinishi shart.

Taklif etiladigan javob funksiyasi: $F^*_t = -\kappa q_t$, bunda $\kappa > 0$ — ma’lumot va qarz xatariga qarab kalibrlanadigan parametr. Agar $q < 0$ bo‘lsa, $F^* > 0$ va vaqtinchalik yumshatish ko‘rib chiqiladi; $q > 0$ bo‘lsa, $F^* < 0$ va zaxira jamg‘arish ustuvor. Ushbu ideal signal avtomatik xarajat buyrug‘i emas: amalda $F_t = \min\{F^*_t$, mavjud fiskal imkoniyat} faqat F^* musbat bo‘lganda va qarz stress sinovi qanoatlantirilganda qo‘llanadi. κ bu tezisda son bilan belgilanmaydi, chunki mahalliy multiplikator va fiskal xavfsiz chegara hisoblanmagan.

NATIJALAR

Ishlab chiqilgan qoida har chorakda bir xil ketma-ketlikda qo‘llanadi: statistika organi sikl diapazonini beradi; moliya organi siklik tuzatilgan saldo, mineral tushum va qarz xatarini hisoblaydi; hukumat shokning vaqtinchalik yoki doimiyligini baholaydi; budjetga o‘zgartirish zarur bo‘lsa, tegishli huquqiy tartibda rasmiylashtiradi. Ishga tushish sharti bitta nuqtaviy tafovutga emas, kamida ikki usulda baholangan diapazonga asoslanadi.

1-jadval. Taklif qilinayotgan fiskal javob matritsasi

Holat va tekshiruv	Siyosat signali	Ijro chegarasi
$q < 0$; talab shoki; qarz xatari boshqariladi	Avtomatik stabilizatorlar va muddatli manzilli yordam	Fiskal imkoniyat, muddati, oluvchilar mezoni
$q > 0$; narx/tushum qulay	Ortiqcha mineral tushumni zaxiralash; xarajatni me’yorlash	O‘rta muddatli daromad mezoni
q noaniq yoki taklif shoki	Ehtiyotkor bazaviy reja va zaif qatlamga yo‘naltirish	Inflatsiya va import xatari sinovi
Favqulodda inqiroz	Istisno tartibini ko‘rib chiqish	Hujjatli sabab, muddat va qaytish rejasi

Shartli misol: potensial ishlab chiqarish tafovuti −2 foiz, $\kappa = 0{,}25$ va xavfsiz fiskal imkoniyat YAIMning 0,3 foiz punktiga teng deb faraz qilinsin. Ideal kengaytiruvchi impuls 0,5 foiz punkt bo‘ladi, amaliy limit esa 0,3. Ushbu raqamlar metodik namuna bo‘lib, O‘zbekiston bo‘yicha hisoblangan optimal rag‘bat yoki amaldagi qoida emas. Agar qarz stress sinovi salbiy chiqsa, muddatli yordam ham qayta ko‘rib chiqiladi.

2025-yilda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi YAIMning 2,1 foizi bo‘lgan, bu 3 foizlik nishondan past [2]. Biroq ikki sonning farqini avtomatik “erkin sarflash imkoniyati” deb hisoblash mumkin emas: kelgusi tushum, shartli majburiyat va qarzga

xizmat xarajatlari hisobga olinadi. 2026-yil uchun qonuniy 3 foizlik chegara saqlanib turadi; undan istisno faqat mavjud qonuniy tartib yoki tegishli o‘zgartirish bilan mumkin [1].

MUHOKAMA

Qoida ikki xatoni bartaraf etishga qaratilgan. Birinchisi, favqulodda yuqori oltin narxi budjetga ko‘proq tushum keltirganda uni doimiy xarajatlarga to‘liq sarflash. Ikkinchisi, salbiy shok tufayli tushum vaqtincha kamayganda ijtimoiy va samarali investitsiya xarajatlarini keskin qisqartirish. XVJ O‘zbekistonda yuqori oltin narxlariga javoban xarajatni protsiklik oshirmaslikni, salbiy vaqtinchalik shokda esa zaif guruhlarga maqsadli ko‘mak berishni tavsiya qiladi [3; 4].

Umumiy taqchillik chegarasiga qo‘shimcha ravishda mineral bo‘lmagan birlamchi saldo yoki xarajat o‘sishi ko‘rsatkichi kiritilishi mumkin. Ikki ko‘rsatkichni birlashtirish murakkablik tug‘diradi: qamrov, hisobot davri, oltin narxining bazasi va davlat korxonalari operatsiyalari aniq ta’riflanmasa, ijro natijasi solishtirilmaydi. Shuning uchun dastlab parallel ochiq hisobot yuritib, keyin kalibrlangan operatsion cheklovni huquqiy jihatdan baholash maqsadga muvofiq.

2-jadval. Qoida ijrosini baholash indikatorlari

Indikator	Hisobot talabi	Tekshiruv savoli
Ishlab chiqarish tafovuti	Muqobil usullar va diapazon	Signal qayta ko‘rishga sezgirmi?
Mineral bo‘lmagan birlamchi saldo	Choraklik va yillik qator	Diskretsion yo‘nalish qanday?
Mineral tushumning favqulodda qismi	Narx bazasi, haqiqiy tushum	Vaqtinchalik foyda jamg‘arildimi?
Qarz va shartli majburiyat	Stress ssenariysi	Qo‘llab-quvvatlash xavfsizmi?

Istisno bandi oddiy siklik tebranish uchun emas, oldindan ta’riflangan yirik falokat yoki favqulodda inqiroz uchun ishlatiladi. Faollashtirish sababi, cheklovdan vaqtincha chekinish miqdori, amal qilish muddati, parlament nazorati va normal trayektoriyaga qaytish rejasi bir hujjatda ko‘rsatilishi zarur [5]. Moliyaviy qoida ishga tushmasidan avval zaxira va avtomatik stabilizatorlar odatdagi pasayishlarni qoplashga xizmat qilishi kerak.

Cheklovlar: potensial YAIM real vaqtda noaniq, mineral daromadlarning narxga sezgirligi o‘zgaradi, qarzning yashirin shartli majburiyatlari to‘liq kuzatilmasligi mumkin. Shu bois κ, xarajat o‘sishi limiti va zaxira maqsadi haqiqiy ko‘rsatkichlar bilan kalibrlanmasdan qat’iy son sifatida qonunga kiritilmasligi kerak.

XULOSA

Tezisda kontrtsiklik fiskal javobning loyihaviy qoidasiga uch asos tayinlandi: qarz barqarorligi uchun o‘rta muddatli tayanch, mineral bo‘lmagan birlamchi holat uchun operatsion ko‘rsatkich va sikl fazasiga bog‘liq cheklangan javob. Salbiy talab shokida muddatli manzilli qo‘llab-quvvatlash, qulay mineral tushum davrida esa zaxira jamg‘arish ko‘zda tutiladi.

Amaldagi 2026-yilgi 3 foizlik taqchillik chegarasi qoida loyihasining huquqiy shartidir. Taklifni joriy etishdan oldin potensial YAIM, mineral tushumlar va shartli majburiyatlar bo‘yicha ochiq ma’lumotlar hamda turli shoklarda stress sinovlari zarur.

Shartli hisob qoida mexanizmini ko‘rsatadi, uning O‘zbekistondagi empirik samaradorligini isbotlamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ–1105-son Qonuni. 2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida. 25.12.2025. https://lex.uz/uz/acts/-7949060
2. IMF. IMF Executive Board Concludes 2026 Article IV Consultation with the Republic of Uzbekistan. 18.06.2026. https://www.imf.org/en/news/articles/2026/06/18/pr-26214-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2026-article-iv-consultation
3. IMF. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation, Staff Report. Country Report 26/152. https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2026/152/article-A001-en.xml
4. IMF. IMF Executive Board Concludes 2025 Article IV Consultation with the Republic of Uzbekistan. 18.06.2025. https://www.imf.org/en/news/articles/2025/06/18/pr-25206-uzbekistan-imf-executive-board-concludes-2025-article-iv-consultation
5. IMF. How to Calibrate Fiscal Rules: A Primer. Fiscal Affairs Department How-to Note, 2018. https://www.imf.org/en/publications/fiscal-affairs-department-how-to-notes/issues/2018/03/15/how-to-calibrate-fiscal-rules-a-primer-45551

ЕР ҚАЪРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШДА РОЯЛТИ ВА МАХСУС РЕНТА СОЛИҒИНИНГ УЙҒУНЛИГИ

Султанов Дилшод Шухратович

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси мустақил изланувчиси

https://orcid.org/0009-0005-2284-6845

Аннотация. Тезисда табиий ресурслар рентасини солиққа тортишнинг назарий асослари, роялти ва рента солиғининг афзаллик ҳамда камчиликлари таҳлил қилинган, хомашёнинг юқори жаҳон нархи ҳар бир кон учун ортиқча даромадни англатмаслиги шартли мисол асосида кўрсатилган ва Ўзбекистонда «мўътадил ресурс солиғи + фойда солиғи + махсус рента солиғи»дан иборат уч босқичли режимни такомиллаштириш бўйича таклифлар берилган.

Таянч сўзлар: ресурс рентаси, роялти, махсус рента солиғи.

Табиий ресурслар рентаси ресурснинг сифати, жойлашуви ва чекланганлиги туфайли инвестор харажатлари ва капиталнинг нормал даромадлилиги қопланган кейин қоладиган қўшимча иқтисодий даромад тушунилади (Ricardo, 1817). Рента тадбиркорлик таваккали ёки инновация

натижаси бўлмагани учун уни солиққа тортиш иқтисодий жиҳатдан самарали ва ижтимоий жиҳатдан адолатли ҳисобланади (Stiglitz, 2000). Шу билан бирга, Г.Хотеллинг кўрсатганидек, қазиб олинган ҳажм ёки қийматга солинадиган солиқлар қазиб олиш вақтига таъсир кўрсатиб, кам рентабелли конларнинг эрта ёпилишига олиб келиши мумкин (Hotelling, 1931).

Р.Гарно ва А.Клюнис Росс таклиф этган ресурс рентаси солиғига кўра, солиқ лойиҳанинг жамғарилган пул оқими барча харажатларни ва капиталнинг меъёрий даромадлилигини қоплагандан кейингина ундирилади, қопланмаган харажатлар эса белгиланган устама (аплифт) билан кейинги даврларга ўтказилади (Garnaut & Clunies Ross, 1975). Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, ҳеч бир восита алоҳида ҳолда мукаммал эмас, шу сабабли кўплаб мамлакатлар мўътадил роялтини фойда ёки рентага асосланган солиқлар билан уйғунлаштиради (Daniel et al., 2010; International Monetary Fund, 2012).

Роялтининг афзаллиги маъмурий соддалиги ва бюджетга қазиб олишнинг биринчи кунидан тушумни таъминлашидир. Бироқ у қазиб олинган хомашё қийматига боғлиқ бўлгани сабабли жаҳон нархларидаги ўзгаришларни бевосита бюджетга ўтказади. Ўзбекистонда ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ тушумлари 2017–2025 йилларда 3,5 трлн сўмдан 25,8 трлн сўмгача ошган бўлсада, 2021 ва 2022 йилларда мос равишда 3,7 ва 12,0 фоизга камайган. Йиллик асосда ҳисобланадиган оширилган фойда солиғи эса компания харажатларини ҳисобга олади, лекин муайян лойиҳа ўтган йиллардаги инвестициялар ва зарарларни ҳисобга олган ҳолда ўзини оқлаган-оқламаганини кўрсатмайди.

Хомашёнинг юқори жаҳон нархи ҳар бир муайян коннинг ортиқча даромад келтиришини англатмайди. Бизнингча, металлни бир хил нархда сотиб, 100 шартли бирлик тушум оладиган иккита лойиҳа олинганда, А лойиҳада маъдан бой ва инфратузилма яқин бўлгани учун харажатлар ва нормал даромадлилик 55 бирликни, рента даромади 45 бирликни ташкил этади. Б лойиҳада руда чуқурроқ жойлашган ва мураккаб бойитишни талаб қилади: харажатлар ва нормал даромадлилик 90 бирлик, рента атиги 10 бирлик. Ялпи қийматдан ундириладиган роялти иккала лойиҳа учун бир хил бўлади: у оширилганда А лойиҳа учун ортиқча даромаднинг бир қисмини, Б лойиҳа учун оддий фойда ва ҳатто

сармояни қайтариш учун зарур маблағларнинг бир қисмини олиб қўяди.

Ўзбекистонда 2022 йил 1 январдан қазиб олиш лойиҳаларини солиққа тортиш уч даражали тузилма сифатида қайта шакллантирилди: ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ қазиб олиш бошланишидан тушумни таъминлайди, фойда солиғи одатдаги фойдани солиққа тортади, махсус рента солиғи эса лойиҳа ўзини қоплагандан кейин шаклланган рентанинг бир қисмини 25 фоиз ставкада бюджетга йўналтиради. Рент даромади ҳар бир лицензия участкаси бўйича алоҳида ҳисобланади, капитал қўйилмалар бир йўла чегирилади, молиявий харажатлар эса базани камайтирмайди.

Шартли ҳисоб-китобда биринчи йилда 250, иккинчи йилда 70 шартли бирлик капитал қўйилма ва 7,5 фоизлик аплифт қўлланилганда махсус рента солиғи мажбурияти фақат бешинчи йилда, жамғарилган рента зарари тўлиқ қопланганидан кейин юзага келади: ижобий база 60,07 бирликни, солиқ эса тахминан 15 бирликни ташкил этади (Султонов, 2026). Ушбу инструментнинг инвестицияларга нисбатан нейтраллигини тасдиқлайди, айни пайтда давлат дастлабки йиллардан ер қаъри солиғини олишда давом этади.

Фикримизча, уч босқичли режимни сақлаган ҳолда уни такомиллаштириш учун махсус рента солиғини ҳар бир кон ёки лицензия участкаси бўйича қатъий алоҳида ҳисоблаш, йўл қўйиладиган харажатлар рўйхатини аниқ белгилаш, ўзаро боғлиқ шахслар билан операцияларда бозор ва тескари (netback) нарх усулларини қўллаш ҳамда ушбу солиқни маъмурий бошқариш бўйича ихтисослашган гуруҳни шакллантириш зарур. Жаҳон нархларига эргашиб роялтини ошириш эса рента солиғининг ўрнини боса олмайди ва янги, мураккаб конларни ўзлаштиришни фойдасиз қилиб қўйиш хавфини туғдиради.

Халқаро тажрибада, жумладан Норвегияда нефть ва газ қазиб олувчилар 22 фоизлик корпоратив солиқ билан бир қаторда махсус нефть солиғини тўлайди ва соф фойдага нисбатан маржинал ставка 78 фоизни ташкил этади, бироқ инвестиция харажатлари тезлаштирилган тартибда чегирилиши туфайли тизим инвестицияларга нисбатан деярли нейтрал ҳисобланади. Австралияда 1987 йилдан нефть ресурслари рентаси солиғи аплифт билан индексацияланган харажатлар тўлиқ қопланганидан кейин 40 фоиз ставкада ундирилади, 2012

йилда кўмир ва темир рудасига жорий этилган минерал ресурслар рентаси солиғи эса кам тушум ва сиёсий қаршилик туфайли 2014 йилда бекор қилинган (Daniel et al., 2010). Мазкур тажриба рента солиғининг самарадорлиги унинг номинал ставкасидан кўра маъмуриятчилик сифати ва параметрларнинг асослилигига боғлиқлигини кўрсатади.

Махсус рента солиғини бошқаришда бир нечта хавфни ҳисобга олиш зарур. Биринчидан, харажатларнинг сунъий оширилиши солиқ мажбуриятини кечиктиради, шу сабабли солиқ органлари қурилиш, ускуналар ва хизматлар қийматини таққослаш имкониятига эга бўлиши лозим. Иккинчидан, бир лойиҳа харажатлари бошқа конда олинган қўшимча даромадни камайтирмаслиги керак. Учинчидан, аффилланган тузилмалардан хизмат ва ташишни оширилган нархда сотиб олиш орқали солиқ базасини камайтириш хавфи мавжуд. Тўртинчидан, йирик янги лойиҳа бир неча йил давомида рента солиғини тўламаслиги мумкин, бироқ бу даврда давлат ер қаъри солиғини олишда давом этади. Аплифт ставкасининг ҳаддан ташқари юқори белгиланиши эса Австралия тажрибасида кўрилганидек, рента солиғи тушумларининг кутилганидан анча кам бўлишига олиб келиши мумкин (Daniel et al., 2010).

Ресурс тўловлари тушумларининг жаҳон нархларига боғлиқлигини ҳисобга олиб, нархлар юқори бўлган йилларда прогноздан ортиқ тушган маблағларни барқарорлаштириш захирасига йўналтириш ва уларни асосан инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришга сарфлаш қоидасини жорий этиш ҳам мақсадга мувофиқ. Бундай қоида хомашё нархлари пасайган йилларда бюджет харажатларини кескин қисқартириш заруратининг олдини олади ва тугайдиган ресурслардан олинадиган даромадларни келажак авлодлар манфаатлари билан мувозанатлаштиради.

Хулоса қилиб айтганда, давлат бюджет даромадлари ва янги конларни ўзлаштириш ўртасида танлов қилиши шарт эмас: агар ҳар бир солиқ ўз функциясини бажарса, бу вазифаларни уйғунлаштириш мумкин. Мўътадил ер қаъри солиғи қазиб олиш бошланганидан тушумни таъминлайди, фойда солиғи одатдаги фойданинг бир қисмини ундиради, махсус рента солиғи эса давлатга кон ўзини оқлаб, ҳақиқатан ҳам ортиқча даромад келтира бошлаган пайтда

қўшимча даромад олиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Daniel, P., Keen, M., & McPherson, C. (Eds.). (2010). The taxation of petroleum and minerals: Principles, problems and practice. Routledge.

2. Garnaut, R., & Clunies Ross, A. (1975). Uncertainty, risk aversion and the taxing of natural resource projects. The Economic Journal, 85(338), 272–287.

3. Hotelling, H. (1931). The economics of exhaustible resources. Journal of Political Economy, 39(2), 137–175.

4. International Monetary Fund. (2012). Fiscal regimes for extractive industries: Design and implementation. IMF.

5. Ricardo, D. (1817). On the principles of political economy and taxation. John Murray.

6. Stiglitz, J. E. (2000). Economics of the public sector (3rd ed.). W. W. Norton & Company.

7. Ўзбекистон Республикаси. (2019). Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (2019 йил 30 декабрдаги ЎРҚ-599-сон Қонун билан тасдиқланган). https://lex.uz

DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O‘SISH BILAN BOG‘LIQLIGINI SIKL FAZALARI KESIMIDA EKONOMETRIK BAHOLASH

Qarshiyev Nodirbek Olim o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning 2010–2025-yillik rasmiy qatorlari asosida davlat boshqaruvi organlari yakuniy iste’moli o‘sishi va real YAIM o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlik sikl fazalariga ajratib baholandi. Fazalar o‘tgan yilgi o‘sish sur’atining tanlama medianasi bilan belgilandi; 2011–2025-yillar uchun o‘zaro ta’sir hadli eng kichik kvadratlar modeli va HC3 xatoliklari hisoblandi. Bazaviy modelda yuqori fazadagi qiyalik 0,566, quyi fazadagi qiyalik −0,004, fazalar farqi esa −0,570 ($p = 0,201$) bo‘ldi. Bu natija fazalar bo‘yicha ta’sir farqini statistik jihatdan tasdiqlamaydi. 2020-yil chiqarilgan tekshiruvda ham o‘zaro ta’sir ahamiyatli bo‘lmadi. Xarajat ko‘rsatkichi jami budjet xarajatlarini qamramaydi, bir vaqtdagi YAIM bilan endogen

bog‘liq bo‘lishi mumkin; shu bois baholar sababiy fiskal multiplikator emas. Maqola kengroq fiskal ma’lumotlar bilan tekshirilishi zarur bo‘lgan empirik asosni beradi.
Kalit so‘zlar: davlat iste’moli, YAIM o‘sishi, sikl fazasi, interaksiya modeli, HC3 standart xatolik, fiskal multiplikator.

KIRISH

Fiskal xarajatlarning iqtisodiy faollikka ta’siri siklning turli fazalarida bir xil bo‘lishi shart emas. Bo‘sh resurslar mavjud pasayish davrida qo‘shimcha talab ishlab chiqarishga tezroq o‘tishi, yuqori bandlik sharoitida esa import va narxlarga ta’sir kuchayishi mumkin. Auerbach va Gorodnichenko fiskal javobning holatga bog‘liqligini ta’kidlaydi [3]. Mazkur gipotezani O‘zbekiston qatorida tekshirish uchun xarajat tushunchasi, fazani belgilash va koeffitsiyent talqini aniq ajratilishi kerak.

Tadqiqot savoli: davlat boshqaruvi yakuniy iste’molining yillik real o‘sishi bilan YAIMning real o‘sishi o‘rtasidagi statistik bog‘liqlik oldingi yil o‘sishi nisbatan past bo‘lgan davrlarda o‘zgaradimi? Maqsad — rasmiy ko‘rsatkichlar asosida o‘zaro ta’sirli modelni baholash va uning ilmiy hamda ma’lumotga oid chegaralarini ko‘rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR

Milliy statistika qo‘mitasining yakuniy iste’mol usulida hisoblangan real YAIM o‘sish indeksi va davlat boshqaruvi organlari yakuniy iste’moli real o‘sish indeksi 2010–2025-yillar uchun olindi [1; 2]. Har ikki indeksdan 100 ayirib yillik foiz o‘sish olindi. Bu davlat iste’moli ko‘rsatkichi davlat investitsiyasi, transfertlar, subsidiyalar va foiz to‘lovlarini qamrab oluvchi jami budjet xarajatlari bilan teng emas. 2010-yil fazani belgilash uchun boshlang‘ich lag sifatida ishlatildi, regressiya tanlamasi 2011–2025-yillar, n = 15.

$D_t = 1$, agar $gY_{t-1} < 6{,}8\%$; aks holda $D_t = 0$. 6,8 — 2010–2024-yillar YAIM o‘sishi tanlama medianasi; shu tariqa faza joriy yilgi natija yordamida aniqlanmadi. D = 1 yillari 2017, 2018, 2019, 2021, 2023, 2024 va 2025. Mazkur shart iqtisodiy retsessiya yoki manfiy ishlab chiqarish tafovutining rasmiy ta’rifi emas, balki cheklangan ma’lumotlarda qo‘llangan nisbiy faza proksisidir.

Model: $gY_t = \alpha + \beta gG_t + \gamma D_t + \delta(gG_t \times D_t) + u_t$. Bu yerda gY — real YAIM, gG — davlat iste’moli real o‘sishi, foizda. D = 0 uchun shartli qiyalik β, D = 1 uchun β + δ,

farq esa δ. Koeffitsiyentlar foiz punkt/foiz punkt birligida; YAIM va xarajat hajmlari nisbati kiritilmagani sababli ular fiskal multiplikator emas. Parametrlar OLS bilan baholandi, kichik tanlama va geteroskedastiklikka nisbatan HC3 standart xatoliklar qo‘llandi.

Mustahkamlik uchun 2020-yilning keskin makroiqtisodiy shoki chiqarilib, shu model qayta hisoblandi. Qo‘shimcha spetsifikatsiyada oldingi yil YAIM o‘sishi nazorat o‘zgaruvchisi sifatida kiritildi. Natijalar hukumat qarorlarining ekzogenligini isbotlamaydi: YAIMning tarkibida davlat iste’moli mavjud, xarajatlarning yillik o‘sishi ham iqtisodiy sharoitga javob qaytarishi mumkin.

NATIJALAR

Kuzatilgan YAIM o‘sishi 2010–2025-yillarda 1,6–8,2 foiz, davlat iste’moli o‘sishi 0,7–8,8 foiz oralig‘ida bo‘ldi [1; 2]. 2016-yildan keyin davlat iste’moli o‘sish sur’atlari ko‘p yillarda nisbatan past bo‘lgan. Shuning uchun fazalar guruhida vaqt trendi va xarajat dinamikasi birga o‘zgargan bo‘lishi mumkin; model buni to‘liq ajratmaydi.

1-jadval. OLS bahosi, bog‘liq o‘zgaruvchi — real YAIM o‘sishi, 2011–2025

Parametr	Koeffitsiyent	HC3 standart xato	p qiymat
Konstanta α	3,245	2,801	0,271
Davlat iste’moli o‘sishi β	0,566	0,354	0,138
Nisbatan past faza γ	3,351	2,931	0,277
O‘zaro ta’sir δ	−0,570	0,419	0,201

Izoh: n = 15; R^2 = 0,518; qoldiq erkinlik darajasi 11. Koeffitsiyentlar rasmiy 2010–2025 qatorlaridan muallif hisobi. Ikki tomonlama p qiymatlar kichik tanlama t taqsimoti bilan hisoblangan.

Yuqori fazada qiyalik 0,566, nisbatan past fazada 0,566 − 0,570 = −0,004. Past fazadagi qiyalikning chiziqli kombinatsiya testi p = 0,987. Eng muhim natija shuki, δ ning p = 0,201 qiymati nol farq gipotezasini odatdagi 5 foiz chegarada rad etmaydi. Demak, tanlama “pasayishda multiplikator kattaroq” degan xulosani empirik tasdiqlamaydi. β ham 5 foiz darajasida ahamiyatli emas.

Mazkur baholar faqat kuzatilgan bir vaqtdagi assotsiatsiyadir. Masalan, 2020-yilda YAIM o‘sishi 1,6 foiz va davlat iste’moli o‘sishi 1,3 foiz bo‘lgan; ushbu yil mamlakat bo‘ylab alohida shoklarni ifodalaydi. Bitta yil qatorning qiyaligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.

MUHOKAMA

2-jadval. Spetsifikatsiya va sezgirlik tekshiruvlari

Model	n	Yuqori faza β	Fazalar farqi δ (p)
Bazaviy, HC3	15	0,566	−0,570

			(0,201)
2020-yilsiz, HC3	14	0,245	−0,249 (0,331)
Lag YAIM nazorati, HC3	15	0,576	−0,664 (0,335)

2020-yil chiqarilganda yuqori fazadagi qiyalik 0,245 ga kamayadi, o‘zaro ta’sirning ishorasi saqlanadi, lekin u ham statistik jihatdan ahamiyatli emas. Oldingi yil o‘sishi qo‘shilganda fazalar farqi −0,664 ($p = 0,335$); xulosa yana o‘zgarmaydi. Bu ikki tekshiruv identifikatsiya muammosini bartaraf etmaydi, ammo bazaviy modelga haddan tashqari kuchli mazmun berishni cheklaydi.

Xalqaro adabiyotdagi holatga bog‘liq multiplikatorlar asosan fiskal shokni ajratish yoki mahalliy proyeksiyalar kabi yondashuvlarga asoslanadi [3; 4]. Bu yerda esa xarajat o‘sishi shok sifatida identifikatsiya qilinmagan. Ayniqsa xarajat YAIMning tarkibiy qismi bo‘lgani uchun bir vaqtdagi ijobiy qiyalik mexanik hisob munosabatini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun β va $\beta + \delta$ ni davlat xarajatlari 1 foiz oshsa YAIM shuncha foizga sababiy oshadi deb ifodalash noto‘g‘ri.

Metodik takomillashtirishning keyingi bosqichi: choraklik konsolidatsiyalashgan budjetda xarajatlarni investitsiya, ish haqi, xarid, transfert va subsidiya bo‘yicha deflyatsiya qilish; oldindan belgilangan xarajat rejalaridagi kutilmagan o‘zgarishni ajratish; potensial YAIM tafovuti bilan fazalarni belgilash; 4–8 choraklik mahalliy proyeksiyalarda endogenlikka chidamli identifikatsiyani tekshirish. XVJning O‘zbekiston bo‘yicha tahlilida ham xarajat tarkibi va fiskal tuzatish sifati o‘sish uchun muhimligi qayd etiladi [5].

Tanlama 15 kuzatuvdan iborat va past faza 7 yilni qamraydi. Kichik n tufayli test quvvati cheklangan; statistik ahamiyatsizlik ta’sirning aniq nolga tengligini isbotlamaydi. Davlat iste’moli jami fiskal xarajat emasligi natijani butun budjet siyosatiga umumlashtirishga yo‘l qo‘ymaydi.

XULOSA

2011–2025-yillar uchun davlat boshqaruvi yakuniy iste’moli o‘sishi va real YAIM o‘sishi bog‘liqligi o‘zaro ta’sirli OLS modelida baholandi. O‘tgan yilgi o‘sish medianasiga ko‘ra nisbatan past faza ajratilganda qiyaliklar farqi −0,570 bo‘ldi, biroq HC3 xatoliklarda bu farq statistik ahamiyatga ega emas ($p = 0,201$). 2020-yilsiz va lag

o‘sishni nazorat qilgan modellar ham fazalar farqi to‘g‘risida ishonchli dalil bermaydi. Maqolaning amaliy natijasi ma’lumot chegarasini va model talqinini aniq ko‘rsatishdir. Davlat iste’moli budjet xarajatlarining bir qismini ifodalaydi; model fiskal shoklarni ajratmagani sababli sababiy ta’sir yoki multiplikator bahosi olinmadi. Kelgusi tadqiqotda jami va tarkibiy xarajatlar bo‘yicha choraklik qator, ishlab chiqarish tafovuti hamda ekzogen fiskal o‘zgarishlar asosida baholash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. YAIM o‘sish sur’atlari (yakuniy iste’mol usulida, yillik), 2010–2025. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_641.pdf
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste’mol xarajatlari o‘sish sur’atlari (yillik), 2010–2025. https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_652.pdf
3. Auerbach A. J., Gorodnichenko Y. Measuring the Output Responses to Fiscal Policy. American Economic Journal: Economic Policy. 2012;4(2):1–27. https://doi.org/10.1257/pol.4.2.1
4. IMF. Fiscal Multipliers and the State of the Economy. Working Paper 12/286, 2012. https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2016/12/31/Fiscal-Multipliers-and-the-State-of-the-Economy-40146
5. IMF. Republic of Uzbekistan: Selected Issues. Country Report 24/211, 2024. https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2024/07/11/Republic-of-Uzbekistan-Selected-Issues-551715

Jahon iqtisodiyotida raqamli xizmatlar savdosining rivojlanishi va O‘zbekiston uchun eksport imkoniyatlari

Qo‘ldoshev Ilyos Shuxratovich
TDIU JI va XIM kafedrasi
katta o‘qituvchisi
orcid.org/0000-0003-0543-1507

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli xizmatlarning xalqaro savdodagi o‘rni va O‘zbekistonning ushbu bozorga integratsiyalashuv imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot xalqaro tashkilotlar

nashrlari hamda IT Parkning rasmiy ma’lumotlariga asoslangan tavsifiy-statistik va qiyosiy tahlil usullarida bajarildi. Raqamli buyurtma qilingan savdo, raqamli yetkazib berilgan xizmatlar va IT xizmatlari eksporti o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. O‘zbekiston bo‘yicha bir xil institutsional qamrovga ega 2022–2023-yil ko‘rsatkichlari asosida eksportning mutlaq o‘sishi va o‘sish sur’ati hisoblandi. Natijalar raqamli xizmatlar eksportini kengaytirishda kasbiy tayyorgarlik bilan birga xorijiy til, loyiha boshqaruvi, ishonchli infratuzilma va mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlik muhimligini ko‘rsatadi. Muallif talqiniga ko‘ra, eksport siyosatining samaradorligini faqat tushum yoki tayyorlangan mutaxassislar soni bilan baholash yetarli emas. Takroriy buyurtmalar, bir xodimga to‘g‘ri keladigan eksport va yangi mijozlarning saqlanib qolishi kabi ko‘rsatkichlardan ham foydalanish taklif etiladi. Xulosalar mavjud ikkilamchi dalillar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, sababiy ta’sirning ekonometrik bahosi hisoblanmaydi.
Kalit so‘zlar: jahon iqtisodiyoti, raqamli savdo, xizmatlar eksporti, IT xizmatlari, inson kapitali, autsorsing, O‘zbekiston.

1. KIRISH — INTRODUCTION

Raqamli texnologiyalar xalqaro iqtisodiy aloqalarda mahsulot yaratish, xaridor topish va xizmatni yetkazish shakllarini o‘zgartirmoqda. Dasturiy ta’minot, masofaviy maslahat, dizayn yoki ayrim biznes jarayonlarini boshqa mamlakatdagi ijrochi bajarishi uchun tovarni jismonan chegaradan o‘tkazish talab etilmaydi. Shu sababli raqamli xizmatlar an’anaviy tovar eksportidan farq qiladigan imkoniyat va cheklovlarga ega.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi, OECD, UNCTAD va Jahon savdo tashkiloti hamkorligida tayyorlangan qo‘llanmada raqamli savdo ikki asosiy mezon — buyurtmaning raqamli berilishi va yetkazishning raqamli amalga oshirilishi orqali izohlanadi [1]. Masalan, internet orqali buyurtma qilingan, ammo pochta bilan yuborilgan kiyim raqamli buyurtma qilingan savdoga kiradi. Internet orqali xorijiy mijozga topshirilgan dizayn yoki dasturiy xizmat esa raqamli yetkazishga misol bo‘ladi. Ushbu farq eksport salohiyatini baholashda muhim: elektron savdoning kengayishi barcha holatlarda xizmatlar eksportining ortishini anglatmaydi.

Jahon savdo tashkilotining 2024-yilda e’lon qilgan bahosiga ko‘ra, 2023-yilda raqamli yetkazib berilgan xizmatlarning global eksporti 4,25 trillion AQSH dollariga yetgan va yillik 9 foizga o‘sgan [2]. Bu tarixiy ko‘rsatkich mazkur xizmatlarning jahon

bozoridagi hajmini tasavvur qilish imkonini beradi; u 2026-yilning joriy holatini ifodalamaydi.

O‘zbekiston uchun raqamli xizmatlar eksportining ahamiyati iqtisodiy faoliyatni yangi bozorlar bilan bog‘lash, malakali bandlikni kengaytirish va bilimga asoslangan xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatidadir. Biroq yangi dasturchilar yoki o‘quv markazlarining ko‘payishi avtomatik ravishda eksport buyurtmalariga aylanmaydi. Xalqaro talabga mos mahsulot, uni sotish qobiliyati va xizmatni uzluksiz bajarish sharoiti birgalikda shakllanishi zarur.

Tadqiqotning maqsadi — raqamli xizmatlar savdosining rivojlanish omillarini tahlil qilish va O‘zbekiston uchun eksportni kengaytirishning amaliy yo‘nalishlarini asoslash. Asosiy tadqiqot savoli: mavjud kadrlar va institutsional imkoniyatlarni barqaror xalqaro buyurtmalarga aylantirishda qaysi bo‘g‘inlarga ustuvor e’tibor berish kerak? Maqolaning tahliliy hissasi eksportga tayyorgarlikni kasbiy ko‘nikma, xizmatni yetkazish ishonchliligi va bozorga chiqish qobiliyati birligi sifatida ko‘rib chiqishdir.

2. MATERIALLAR VA METODLAR — METHODS

Tadqiqot ikkilamchi manbalarga tayangan tavsifiy-tahliliy ish sifatida tashkil etildi. Tushunchalarni belgilash uchun raqamli savdoni o‘lchash bo‘yicha xalqaro qo‘llanma [1], jahon bozori ko‘lamini yoritishda JST axboroti [2], milliy eksport dinamikasi uchun IT Parkning rasmiy hisoboti [3] ishlatildi. Raqamli rivojlanishdagi tafovutlar va xizmatlar sektorining imkoniyatlari Jahon banki materiallari asosida o‘rganildi [4–6]. Manbalar rasmiyligi, ko‘rsatkichlarning qamrovi va mavzuga bevosita aloqadorligi bo‘yicha maqsadli tanlandi.

Miqdoriy tahlilning milliy qismi 2022–2023-yillarni qamrab oladi. Bu davr IT Park rezidentlari eksporti bo‘yicha bir nashrda taqqoslangan ikki yillik ma’lumot mavjudligi sababli tanlandi. Keyingi davrlarga oid, statistik qamrovi boshqacha bo‘lishi mumkin bo‘lgan raqamlar ushbu qatorga qo‘shilmadi. Tadqiqot eng so‘nggi holatni to‘liq tavsiflashdan ko‘ra tanlangan tarixiy davrdagi rivojlanish va uning amaliy mazmunini tushuntirishga qaratildi.

Hisob-kitoblar quyidagi formulalar orqali bajarildi: mutlaq o‘sish $\Delta E = E_{2023} - E_{2022}$; foizdagi o‘sish $g = [(E_{2023} / E_{2022}) - 1] \times 100$. Bunda E — tegishli yildagi eksport qiymati. Ko‘rsatkichlar joriy AQSH dollarida ifodalanganligi sababli natija real xizmat hajmi

yoki mehnat unumdorligi o‘sishining alohida bahosi emas.

Manbalardagi tushunchalar o‘zaro tenglashtirilmadi. IT Park rezidentlari eksporti muayyan korxonalar guruhiga tegishli; u O‘zbekistonning barcha raqamli xizmatlar eksportini to‘liq o‘lchamaydi. Shuningdek, raqamli shaklda yetkazilishi mumkin bo‘lgan xizmatlarning jami qiymati ularning amalda raqamli yetkazilgan qismini aynan ifodalamaydi [1]. Korxonalar kesimida kuzatuvlar bo‘lmagani sababli rag‘batlantirish dasturlarining ta’sirini ajratib baholash amalga oshirilmadi.

3. NATIJALAR — RESULTS

3.1. Eksport o‘sishi va uning talqin chegaralari

Tanlangan milliy qator asosida eksportning mutlaq o‘sishi 204 million dollar, foizdagi o‘sishi esa taxminan 145,7 foizni tashkil etdi. Hisoblashda foydalanilgan bazaviy qiymatlar va natijalar 1-jadvalda keltirilgan [3].

1-jadval. IT Park rezidentlari eksporti va hisoblangan o‘sish

Ko‘rsatkich	Qiymat	Asos
Rezidentlar eksporti, 2022-yil	140 mln dollar	Rasmiy ma’lumot
Rezidentlar eksporti, 2023-yil	344 mln dollar	Rasmiy ma’lumot
Mutlaq o‘sish	204 mln dollar	344 − 140
Foizdagi o‘sish	145,7 %	(344 / 140 − 1) × 100

Manba: IT Park [3]; hisoblangan ko‘rsatkichlar — muallif hisob-kitobi. Qiymatlar yaxlitlangan.

Mazkur dinamika tanlangan korxonalar guruhida xalqaro xizmatlar savdosi kengayganini ko‘rsatadi. Biroq o‘sishning qanchasi yangi eksportchilarning kirishi, qanchasi mavjud korxonalar savdosi yoki xizmat narxlarining o‘zgarishi bilan bog‘liqligini bu ma’lumotlardan ajratib bo‘lmaydi. Past boshlang‘ich baza foizdagi o‘sishni yuqori ko‘rsatishi mumkinligi ham e’tiborga olinishi kerak.

IT Park ma’lumotida 2023-yil eksportining 57 foizi servis kompaniyalari, 23 foizi mahsulot kompaniyalari va 20 foizi biznes jarayonlari autsorsingi bilan shug‘ullanuvchi rezidentlar hissasiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilgan [3]. Bu tarkib xizmat ko‘rsatish va

mahsulot yaratish yo‘nalishlari uchun turlicha rivojlanish choralarini tanlash zarurligiga asos bo‘ladi. Ushbu toifalar o‘z-o‘zidan korxonalarning rentabelligi yoki texnologik murakkabligi reytingi hisoblanmaydi.

3.2. Raqamli ulanish va ko‘nikmalar bir-birini to‘ldiradi

Jahon bankining raqamli rivojlanish haqidagi tahlilida mamlakatlar o‘rtasidagi internet sifati va undan foydalanish tafovutlari iqtisodiy imkoniyatlarning teng taqsimlanishiga to‘sqinlik qilishi qayd etilgan. 2023-yilda yuqori daromadli mamlakatlarda median keng polosali internet tezligi past daromadli mamlakatlardagidan besh–o‘n baravar yuqori bo‘lgan [4]. Bu guruhlararo global taqqoslashdir; uni O‘zbekiston internet sifatining bevosita bahosi sifatida qo‘llash mumkin emas.

O‘zbekiston bo‘yicha Jahon banki materiallarida raqamli ko‘nikmalar, xorijiy til va IT xizmatlariga mos infratuzilmani birgalikda rivojlantirish zarurligi ko‘rsatiladi [5]. Xizmatlar sektori haqidagi boshqa tahlilda esa ulanish, raqobat va salohiyat cheklovlari o‘zaro bog‘liq muammolar sifatida ajratiladi [6]. Manbalarni qiyoslashdan kelib chiqadigan muallif xulosasi shuki, faqat o‘qitish yoki faqat texnik jihozlash eksportga tayyorgarlikdagi barcha to‘siqlarni bartaraf etmaydi.

3.3. Eksportga chiqishda tijorat qobiliyati alohida bo‘g‘indir

O‘rganilgan materiallar va eksport jarayonining mantiqiy tahlili uchta zarur bo‘g‘inni ajratishga imkon beradi: xizmatni yaratish, uni ishonchli yetkazish va xorijiy mijozga sotish. Dastlabki ikki bo‘g‘in mavjud bo‘lganda ham kompaniya taklifini aniq ifodalay olmasa yoki mijoz topa olmasa, xalqaro buyurtma shakllanmasligi mumkin. Bu xulosa korxonalar so‘rovida o‘lchangan natija emas, keyingi empirik tekshiruv uchun ilgari surilgan tahliliy mulohazadir.

4. MUHOKAMA — DISCUSSION

Natijalar O‘zbekistonda raqamli xizmatlar eksportini rivojlantirishni yagona kasb yoki umumiy “IT mutaxassisi” tushunchasi bilan cheklamaslik zarurligini ko‘rsatadi. Dasturlash, mahsulot dizayni, testlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va mijozlarni qo‘llab-quvvatlash vazifalari turli bilim hamda til darajasini talab qiladi. Ta’lim taklifini aniq xizmat va xaridor ehtiyojiga bog‘lash resurslarni maqsadli yo‘naltirishga yordam berishi mumkin.

Birinchi taklif — universitet va eksportchi korxonalar hamkorligida buyurtmaga

yaqin amaliy tayyorgarlikni tashkil etish. Talabalar faqat nazariy topshiriqni bajarish bilan cheklanmay, texnik vazifani tushunish, jamoada ishlash, muddatni rejalashtirish va natijani taqdim etishni mashq qilishi lozim. Portfolio ishga qabul qilishda ko‘nikmaning dalili bo‘lishi mumkin, ammo u mustaqil amaliy baholash bilan to‘ldirilishi kerak.

Ikkinchi taklif — eksportchi uchun sotuv va shartnoma boshqaruvi xizmatlarini kuchaytirish. Kichik jamoalar uchun xorijiy mijozga tijorat taklifi tayyorlash, xizmat doirasini belgilash, narx hisoblash va bajarilgan ishni qabul qilish mezonlarini kelishish bo‘yicha maslahat foydali bo‘lishi mumkin. Maqsad yangi platformalar sonini ko‘paytirishdan ko‘ra mavjud jamoalarning birinchi buyurtmadan takroriy shartnomaga o‘tishini ta’minlashdir.

Uchinchi taklif — hududiy tayyorgarlikni real talab bilan bog‘lash. O‘quv markazini ochishdan oldin ish beruvchining vazifalari, talab qilinadigan til, ish jadvali va texnik sharoitlari aniqlanishi kerak. Hududlardagi imkoniyatlarni baholashda internetning e’lon qilingan tezligi bilan birga uzilishlar, elektr ta’minoti va xizmat ko‘rsatish xarajatlarini ham tekshirish zarur.

To‘rtinchi taklif — eksport tushumi bilan birga uning sifatini kuzatish. Buning uchun bir xodimga to‘g‘ri keladigan eksport, olti yoki o‘n ikki oydan so‘ng saqlanib qolgan xorijiy mijozlar ulushi, takroriy buyurtmalar va eng yirik mijozga qaramlik kabi indikatorlar taklif etiladi. Ularning maqsadli qiymatlari korxona turi va xizmat modeliga qarab belgilanadi; barcha kompaniyalar uchun bitta chegarani qo‘llash asosli emas.

Beshinchi taklif — eksportchi o‘sishini ma’lumotlar xavfsizligi va xizmat sifati bilan uyg‘unlashtirish. Mijoz ma’lumotlariga kirish vakolatlari, zaxira nusxalari va xodimlarning mas’uliyati buyurtma hajmiga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Bunday tayyorgarlikni faqat sertifikat mavjudligi bilan baholash yetarli bo‘lmaydi; kundalik ish jarayoni ham tekshirilishi lozim.

Ushbu takliflarning samarasi maqola doirasida miqdoriy isbotlanmagan. Keyingi tadqiqotda turli qo‘llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalangan korxonalar natijalarini boshlang‘ich hajmi, tajribasi va xizmat turi bo‘yicha taqqoslash mumkin. Kuzatuvdan chiqib ketgan korxonalarni ham qamrab olish muvaffaqiyatli eksportchilarni tanlab ko‘rishdan keladigan xatoni kamaytiradi.

5. XULOSA

Raqamli xizmatlar savdosi O‘zbekiston uchun jahon bozoriga bilim va malaka orqali chiqish imkoniyatini yaratadi. Tanlangan tarixiy ma’lumotlar IT Park rezidentlari eksportining jadal kengayganini ko‘rsatadi, ammo bu natija butun milliy raqamli eksport yoki alohida siyosat samarasi bilan tenglashtirilmaydi. Tahlil eksportga tayyorgarlikning uch bo‘g‘inini — kasbiy salohiyat, ishonchli yetkazish va tijorat qobiliyatini — birgalikda rivojlantirishni asoslaydi. Universitetlar, korxonalar va ko‘mak tashkilotlari hamkorligini real buyurtmalar atrofida tashkil etish ustuvor yo‘nalish sifatida taklif etiladi. Taraqqiyotni tushum bilan birga mijozlar barqarorligi, unumdorlik va xizmat sifati orqali kuzatish eksportning uzoq muddatli natijalarini aniqroq baholashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] IMF, OECD, UNCTAD, WTO. (2023). Handbook on Measuring Digital Trade. Second edition. https://doi.org/10.1787/ac99e6d3-en

[2] World Trade Organization. (2024, April 10). WTO forecasts rebound in global trade but warns of downside risks. https://www.wto.org/english/news_e/news24_e/tfore_10apr24_e.htm

[3] IT Park Uzbekistan. (2024, January 31). How was the “IT Park 2024: Achievements & Vision” event. https://www.it-park.uz/en/itpark/news/how-was-the-it-park-2024-achievements-vision-event

[4] World Bank. (2024, March 5). Accelerated by COVID and AI, Global Digital Landscape Remains Uneven. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2024/03/05/accelerated-by-covid-and-ai-global-digital-landscape-remains-uneven

[5] World Bank. (2023, November 30). World Bank to Support Uzbekistan in Developing the Digital Economy and Creating New Jobs in the Information Technology Sector. https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/11/30/world-bank-to-support-uzbekistan-in-developing-the-digital-economy-and-creating-new-jobs-in-the-it-sector

[6] World Bank. (sana ko‘rsatilmagan). At Your Service?: The Promise of Services-led Growth in Uzbekistan.

https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/promise-of-services-led-growth

Elektron manbalarga murojaat qilingan sana: 15.10.2026.

MUNDARIJA

T.Z.Teshabayev Kirish so‘zi…….	*3*
6-YO‘NALISH. YANGI O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLARNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	
N.Oblomuradov “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiy islohotlar g‘oyasining tarixiy ildizlari va falsafiy asoslari…….....	*5*
B.Ergashov Yangi O‘zbekistonda KPI tizimi orqali korporativ samaradorligini oshirish (kon-metallurgiya korxonalari misolida)…….....	*8*
I.Axmedov Korxona tashqi iqtisodiy faoliyatida marketıng kompleksıdan unumli foydalanish……...…….....	*12*
Қ.Шарипов Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясига мувофиқ кичик бизнесни ривожлантиришнинг асосий жиҳатлари.....	*15*
А.Максумханова, Д.Сайдалимова Аёллар тадбиркорлигини бошқариш механизминини рақамлаштириш……...…….....	*18*
A.Xamidullayev, B.Ibrohimov Yyashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali hududiy rivojlanish va urbanizatsiyani boshqarishning institutsional mexanizmlari……...…….....	*21*
D.Qarshiyev O‘zbekistonda eksport faoliyatini yanada faollashtirishning zarurati va istiqbollari……...…….....	*25*
Н.Примова Натижага йўналтирилган бюджетлаштиришга ўтишнинг аҳамияти……...…….....	*27*
Х.Давлетова Институциональные и экономические изменения в процессе реализации стратегии развития Узбекистана до 2030 года……...…….....	*31*
Sh.Sherkulov Klasterlar faoliyati samaradorligini oshirishning “O‘zbekiston–2030” strategik konsepsiyasi bilan uyg‘unligi…….....	*33*
N.Sherkulova Aholi bandligini oshirishda rekruting agentliklari orqali gender teng imkoniyatlarni shakllantirish masalalari…….....	*39*
O.Suvpo‘latov Raqamli platformalar tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirishning yangi manbai sifatida……...…….....	*45*

Ш.Назаров Қишлоқ инфратузилмасини ривожлантириш орқали камбағалликни қисқартириш: бухоро вилояти қишлоқ туманлари миқёсида институционал таҳлил…..…….....	*49*
S.Xalikchayeva Y	51
T.Bobojonov O‘zbekiston-2030 strategiyasi doirasida “yashil” ish bilan bandlikni rag‘batlantirishning institutsional asoslari…….....	*54*
S.Tursunov Maxsus iqtisodiy zonalarning mintaqaviy xususiyatlari….....	*58*
G.Qaxramonova Iqtisodiyot nazariyasida islomiy tushunchalar.....….....	*61*
R.Axtamova Buxoro viloyatida sirkulyar iqtisodiyot asosida chiqindisiz ishlab chiqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	*63*
F.Farimova Ekologik turizmni rivojlantirishning iqtisodiy va institutsional mexanizmlari.....….....	*65*
A.Ulashov, S.Saparbayev Main directions of economic and institutional reforms within the framework of the “New Uzbekistan – 2030” strategy.....	*73*
S.Salimova Yangi O‘zbekiston — 2030 strategiyasi doirasida turistik marshrut diversifikatsiyasining istiqbollari va imkoniyatlari.....	*76*
A.Shermatov Hududlarda parrandachilikni rivojlantirishning tashkiliy–iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	*79*
A.Ulashov, S.Komilova Efficient market hypothesis and its limitations in modern finance.....	*81*
N.Ismoilov O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida kichik biznes subyektlarida transport-logistika tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	*84*
К.Бобонарова Институциональные основы совершенствования внутренних стандартов аудиторских фирм в условиях нового узбекистана.....	*87*
G.Rustamova “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida javobgarlikni majburiy sug‘urtalashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	*89*
M.Murodova Yengil atletikada uzunlikka sakrovchi yosh sportchilarni tayyorlashning innovatsion-metodik asoslari……	*93*

D.Zayniyev Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasi: barqaror rivojlanish uchun sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish…….....	*96*
Sh.Ismoilov Futbol sanoatida raqamli transformasiya: sun’iy intellektning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri…….	*98*
G.Badirova Tadbirkorlikni moliyalashtirishda bank tizimi va kroudfanding mexanizmlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri……	*100*
J.Nazarov Yangi O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida iqtisodiy va institutsional islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari…….....	*102*
Z.Abloqulova Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning mohiyati va shakllanish mexanizmlari…….....	*104*
I .Hojiyeva, F.Tillavoldiyev First steps toward membership in the world trade organization in our country…….....	*107*
I.Mansurova Economic mechanisms of achieving poverty reduction targets within the “Uzbekistan 2030” strategy framework…….....	*110*
A.Ulashov, N.Yeshupov Economic modernization and institutional reforms within the framework of the new uzbekistan–2030 strategy…….....	*112*
Sh.Sherkulov Klasterlar faoliyati samaradorligini oshirishning “O‘zbekiston–2030” strategik konsepsiyasi bilan uyg‘unligi…….....	*114*
K.Naqibbekov The evolution of economic thought in central asia and the formation of economic schools…….....…….....	*120*
F.Nuruddinova AI-driven risk assessment and digitalization in Uzbekistan’s customs: enhancing efficiency in digital trade.....…….....	*122*
Д.Гафурова Янги Ўзбекистон–2030 стратегияси шароитида олий таълим тизимида иқтисодий ва институционал ўзгаришларни амалга оширишнинг устувор йўналишлари…..…….....	*125*
M.Qaxramonova Xodimlar qo‘nimsizligi darajasini kamaytirishda motivatsiyaning ahamiyati…..…….....	*127*
S.Hakimova Real sektor korxonalarini moliyalashtirishda islom moliyasi o‘rnini oshirish.....…….....	*134*
A.Axmedova	*137*

Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt davrida yashil marketing diskursining lingvopragmatik tahlili (nemis, ingliz va o‘zbek gastronomik reklama matnlari asosida)….....	
S.Saidmuxammadov Improving tax transparency through ai-based compliance monitoring in Uzbekistan.....	*139*
N.Sayidova, Sh.Maxsudova Talabalar shaxsini identifikatsiyalovchi mobil ilova uchun raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt asosidagi innovatsion yechim.....	*149*
S.Shodiyeva “O‘zmetkombinat” AJ misolida korxona rentabelligi va moliyaviy natijalarini tahlil qilish.....	*152*
Sh.Rakhmonberdieva Современные экономические взгляды и их современные интерпретации.....	*154*
Sh.Ruzimbaev AI integration in Uzbekistan’s insurance sector.....	*156*
G.Azamatova Sug‘urta tashkilotlarining dolzarbligi.....	*159*
D.Ro‘zimurodova Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes modellarining transformatsiyasi.....	*161*
D.Ro‘zimurodova Elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalari.....	*167*
B.Raxmonov Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot davrida yashirin iqtisodiyotning mehnat bozoriga ta’siri.....	*172*
У.Файзиев, З.Озодова Роль финансовых активов в обеспечении финансовой устойчивости организации.....	*174*
С.Касымов, А.Абдуганиев Идеи искусственного интеллекта, зеленой и цифровой экономики в Республике Узбекистан.....	*178*
У.Файзиев, У.Йулбарсова Определение уровня существенности в аудиторской проверке.....	*185*
С.Камилова, Ш.Юлдашев Прогнозирование финансовых рисков с помощью искусственного интеллекта.....	192
У.Файзиев, Р.Шарипова Теоретические основы аудита консолидированной финансовой отчетности.....	*195*
О.Намозов, М.Умарова Лауреаты нобелевской премии и их основные экономические теории……	*199*

Д.Эргашева Психологические особенности мотивации предпринимателей……..	*201*
М.Эрханова, М.Усмонова Проблема сокращения теневой экономики в узбекистане и опыт польши……..	*203*
С.Касымов, А.Абдухакимов Инновационное развитие и конкурентоспособность экономики узбекистана в условиях глобализации……..	*206*
Д.Гафурова Янги Ўзбекистон–2030 стратегияси шароитида олий таълим тизимида иқтисодий ва институционал ўзгаришларни амалга оширишнинг устувор йўналишлари…….....	*210*
D.Abdukaxxorova Yangi O‘zbekiston – 2030 strategiyasi doirasida iqtisodiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlari va ularning samaradorligi…….....	*213*
M.Mahsutaliyev Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi……..	*217*
D.Xolmurodova Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasi doirasida korxonalarda yashil buxgalteriya hisobini rivojlantirish yo‘nalishlari…….....	*221*
A.Ulashov, L.Baxtiyarova Yangi O‘zbekiston 2030 strategiyasida iqtisodiy diversifikatsiyaning roli va ahamiyati……	*223*
7-YO‘NALISH. SUN’IY INTELLEKT, YASHIL VA RAQAMLI IQTISODIYOT G‘OYALARI	
A.Mamanazarov Yashil iqtisodiyotni shakllantirishda yashil moliyalashtirishning o‘rni…….....	*231*
Sh.To‘rayev Soliq salohiyatini oshirishda sun’iy intellektning rivojlanish tendensiyalari…….....	*233*
B.Ibrohimov, A.Xamidullayev Raqamli texnologiyalar va yashil iqtisodiyot integratsiyasida sun’iy intellektning o‘rni: global tajriba, amaliy loyihalar va strategik istiqbollar……...	*237*
A.Abdullayev Sun’iy intellekt asosida donni qayta ishlash korxonalarida pul mablag‘lari aylanmasini boshqarishni takomillashtirish…….....	*241*
M.Sherquziyev Sun’iy intellekt asosida sanoat korxonalarining investitsiya xavfsizligini baholash modeli…….....	*243*
X.Asatullayev, A.Agzamxojaev The triple revolution: ai, green energy, and the digital economy…….....	*247*
U.Yakubov	*249*

Raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt sharoitida biznes subyektining tashqi savdo faoliyatini tizimli tahlil qilish metodologiyasi…….....	
С.Касимов, Ж.Эргашов Цифровое управление городом и качество государственных услуг…….....	*251*
С.Ахмедова Роль зеленой экономики в мировой экономике в настоящее время….....	*253*
М.Абдужаппарова, А.Мурадова, Ж.Шарипова Применение идеи «умного города» в цифровой экономике.....	*258*
E.Shodiev Advancing green accounting methodology through artificial intelligence and digital economy integration.....	*261*
K.Maxkamboyev Zamonaviy yashil iqtisodiyot sharoitida auditorlik tekshiruvlarining roli.....	*263*
M.Karimova Turizm korxonalarida biznes jarayonlari boshqaruvini samarali tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari.....	*266*
N.Maxmudova, B.Yusufiy Sun’iy intellekt va raqamli platformalar asosida madaniy turizmni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari.....	*270*
M.Sayfullayeva Turistik xizmatlar sifatini boshqarishda raqamli texnologiyalarning roli va istiqbollar.....	*272*
D.Nishonov Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim raqobatbardoshligini oshirishning marketing strategiyalari.....	*274*
Sh.Sunatullayeva The impact of investment attractiveness on green economy development in strengthening regional financial stability.....	*278*
D.Norbekov Tijorat banklarida ekologik va ijtimoiy ma’suliyat bilan bog‘liq risklar auditi.....	*281*
Л.Ядгарова Использование искусственного интеллекта в образовании: возможности, примеры и перспективы.....	*284*
S.Abdulxalilova Yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish zaruriyati.....	*285*
Sh.Davirova, S.Nasirullayeva Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda malaka nomuvofiqligi va yoshlar ishsizligi: O‘zbekiston misolida osiyo davlatlari bilan qiyosiy tahlil.....	*288*
N.Fayziyeva Sun’iy intellektdan davlat boshqaruvida samarali foydalanish zaruriyati.....	*291*

M.Abduraxmanova Raqamli iqtisodiyot integratsiyasi sharoitida temir yo‘l transport tizimini modernizatsiya qilishning xalqaro tajribasi.....	*293*
G.Narbekova International practice of disclosing environmental and social risks in audit reports.....	*296*
S.Kasimov, M.Kamolidinov Artificial intelligence-based smart city model for the integration of green and digital economies.....	*298*
Г.Алимова, К.Бурханова Развитие онлайн-кредитования: опыт сша и перспективы для Узбекистана.....	*300*
U.Arabov Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy faoliyatni raqamli baholash.....	*302*
G.Hakimova, Sh.Xasanboyev Artificial intelligence, green and digital economy ideas.....	*306*
B.Avazov Sun’iy intellekt asosida chorvachilik mahsulotlarini oshirishdagi ta’sirini statistik baholash.....	*307*
G.Ochilova Sun’iy intellektning raqamli transformatsiya va inson hayotidagi o‘rni.....	*309*
A.Norkobilov Green trade restrictions and comparative advantage: a theoretical reading of the “carbon price”	*313*
G.Abdumannobova Yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida soliq siyosatining barqaror rivojlanishdagi ahamiyati.....	*316*
Sh.Sultanov, A.Aminjonov AI va big data tahlili asosida xalqaro savdo logistikasini optimallashtirish: “yashil yo‘lak” tamoyillarini tatbiq etish.....	*318*
D.Orifjonova Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida sanoat korxonalarida energiya samaradorligini boshqarishning iqtisodiy modellari.....	*320*
G.Hakimova, Sh.Xasanboyev Smart cities, green cities: how artificial intelligence is promoting sustainable urban development.....	*323*
N.Maxmudova, N.Karimova Turizm xizmatlarini raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi: O‘zbekiston tajribasi.....	*325*
A.Mexmonaliyev The impact of financing tools on the development of a green economy.....	*328*
J.Mansurov	*331*

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida xodimlarning masofaviy bandligini ta’minlash.....	
S.Azimov Smart governance systems in urban management: global experience and the case of Tashkent.....	*334*
A.Shavkatov Sun’iy intellekt yordamida raqamli iqtisodiyotda yangi biznes modellarini yaratish.....	*337*
T.Shomurodov Raqamli texnologiyalar ta’sirida aholi daromadlarining differensiallashuvi: tendensiyalar va baholash yondashuvlari.....	*339*
M.Muxamedjanova Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish.....	*343*
B.Raxmonov Zamonaviy iqtisodiy-siyosiy beqarorlik sharoitida yashirin iqtisodiyotning ishsizlik darajasiga ta’sirini takomillashtirish yo‘nalishlari.....	*346*
X.Abduraxmanov Open data platforms and economic transparency: lessons from oecd countries for Uzbekistan.....	*348*
N.Axrorova Sun’iy intellekt texnologiyalarini turizm xizmatlarini shaxsiylashtirishda qo‘llash imkoniyatlari.....	*351*
G.Kuziyeva, M.Mahsutaliyev Yangi O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi.....	*354*
D.Ne’matova O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari.....	*358*
Д.Нормўминова Дебиторлик қарзлари таҳлилини такомиллаштириш.....	*360*
A.Abdulxalilov Sun’iy intellektning bank amaliyotidagi ahamiyati.....	*362*
B.Baxronova The role of higher education in procurement capacity building……..	*364*
M.Kurbanbaeva Mood book: a digital platform to increase interest in reading.....	*367*
Ш.Хамдамов, СДадаханов Направления формирования эффективной экономической политики в контексте искусственного интеллекта и цифровой экономики.....	*369*
N.Sayidova, Y.Yue	*372*

Environmental problems of food delivery platforms and an optimization system from the perspective of the green digital economy.....	
Sh.Omonova Fiskal siyosatni raqamlashtirish jarayonlarining evolyutsiyasi.....	*374*
N.Abdusalomova, A.Samiyev Raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt texnologiyalarining milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashdagi roli.....	*377*
U.Paxriddinov Migratsiya va mehnat resurslarini boshqarish: yangi o‘zbekiston-2030 strategiyasi doirasida iqtisodiy va institutsional transformatsiyalarning ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	*378*
U.Arabov Raqamli iqtisodiyot sharoitida otmlarda orcid qamrovi va xalqaro ilmiy integratsiya muammolari.....	*380*
А.Мирзарахимова Идеи цифровой экономики как фактор трансформации современной экономической системы.....	*383*
Х.Давлетова Трансформация современной экономики: влияние искусственного интеллекта, цифровизации и устойчивого развития.....	*386*
Х.Ахмедов Рақамли иқтисодиётни миллий иқтисодиётнинг институционал тузилмасига таъсири.....	*388*
G.Ochilova Sun’iy intellekt va iqtisodiyot: “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishda startap-innovatsion g‘oyalar va ularning ahamiyati.....	393
К.Нурхонов Ўзбекистонни яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва истиқболлари.....	*396*
Р.Одинаев Яшил иқтисодиётда ижтимоий соҳадаги таҳдитлар ва унинг давлатнинг иқтисодий хавфсизлигига таъсири.....	*401*
Sh.Davirova, S.Nasirullayeva Economic impact of water scarcity in central asia under climate change scenarios.....	*404*
Ш.Ризакулов Цифровая трансформация системы государственных закупок: от традиционных тендеров к электронным платформам.....	*408*
B.Kurbonov Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida transfert narxlarni shakllantirishda soliq nazorati.....	*412*
Sh.Sirojetdinov	*414*

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning yashil iqtisodiyotga ta’siri.....	
Sh.Sirojetdinov Mol-mulk va yer soliqlarining yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi roli.....	*415*
Sh.Sirojetdinov, M.Sodiqova Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan yer va mol-mulk soliqlarining yashil iqtisodiyotni ta’minlashdagi hissasi.....	*417*
M.Yaxshiyeva Monetar siyosatining strategik va taktik maqsadlari.....	*418*
Y.Axmedova The future of the “green economy” in Uzbekistan: opportunities, reforms and new ideas.....	*421*
Z.Ne’matova Global iqtisodiyotda raqamlashtirish va uning mehnat bozoriga ta`siri.....	*423*
Sh.Sherkulov, S.Qo‘chqorboyev Iqlim o‘zgarishlarining qishloq xojaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga tasiri.....	*426*
G.Ochilova Sun’iy intellekt va iqtisodiyot: “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishda startap-innovatsion g‘oyalar va ularning ahamiyati.....	*428*
Z.Ulashova Raqamli va yashil iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlari.....	*433*
R.Uraqova Artificial intelligence–driven digitalization of healthcare and its role in achieving SDG 3 in Uzbekistan.....	*438*
D.Yuldashev Artificial intelligence integration in smart infrastructure development: evidence from Uzbekistan.....	*441*
Ф.Юлдашев Яшил иқтисодиёт ғояларининг келиб чиқиш сабаблари ва амалиётга татбиқ этишдаги мавжуд муаммолар.....	*443*
М.Абдуллаева, З.Есемуратова Теоретические основы зелёной экономики в Узбекистане.....	*446*
O.G‘iyosov Raqamli pullarning evolyutsiyasi, ularning jamiyatga ta’siri va iqtisodiy jarayonlardagi o‘rnining nazariy jihatlari.....	*449*
N.G‘iyosova Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli pulning pul-kredit siyosatiga ta`sirining nazariy jixatlari tahlil.....	*451*
D.Mo‘minova	*453*

Barqaror rivojlanishda sun’iy intellektning iqtisodiyotda roli va axamiyati.....	
U.Baxodirova Artificial intelligence and digitalization in forecasting capital market development in Uzbekistan.....	*456*
Kh.Shodmonov Features of developing mathematical competencies of students of higher education institutions based on artificial intelligence.....	*458*
М.Тохиржонов Artificial intelligence and digitalization in strengthening financial stability in Uzbekistan.....	*463*
B.Isroilov, O.Xasanov Yashil iqtisodiyot va ekologik muvozanatni ta’minlashning nazariy masalalari.....	*465*
С.Анваровна, М.Ахмедов Классификация рисков, влияющих на прибыль предприятия, и факторы, влияющие на их уровень.....	*471*
F.G‘ulamova Raqamli iqtisodiyot sharoitida bozor muvozanati va samaradorlik masalalari.....	*475*
I.Imomov Green university financing: strategic approaches to sustainable campus development.....	*476*
И.Умрзакова Эволюция экономических идей в условиях глобальной трансформации и цифровизации экономики.....	*481*
Ш.Исманалиев Интегрированная система мониторинга отходов на основе iot и искусственного интеллекта в городе Ташкент.....	*483*
G.Kuziyeva Raqamli transformatsiya jarayonida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning roli.....	*486*
N.Axmedova Oziq-ovqat ishlab chiqarishda raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish.....	*488*
A.Xotamov, B.Botirjonova O‘zbekiston iqtisodiyotini raqamlashtirish mexanizmlari: institutsional sharoitlar va samaradorlik ko‘rsatkichlari.....	*494*
X.Misirov Xizmat ko‘rsatish sohalarida buxgalteriya hisobini zamonaviy dasturlar orqali yuritish va tashkil etish.....	*498*
I.Oripov	*501*

Digital transformation of Uzbekistan’s insurance market and the role of insurance in the development of a "green" economy: determinants, barriers and strategic development paths.....	
И.Орипов Цифровая трансформация страхового рынка узбекистана как драйвер зелёного развития.....	*509*
I.Oripov Digital transformation of Uzbekistan’s insurance market as a driver of green development.....	*512*
Х.Шодмонов Пробуждение интереса студентов к математике с помощью искусственного интеллекта в системе высшего образования.....	*515*
S.Saydimuhammadov AI-based tax compliance monitoring systems in Uzbekistan.....	*519*
L.Jo‘rayev Axborot texnologiyalari va pochta xizmatlari integratsiyasi: imkoniyatlar va to‘siqlar.....	*520*
М.Сулаймонова Цифровые технологии в управлении налоговыми рисками: опыт сингапура и возможности для Узбекистана.....	*524*
Б.Собиталиев Климатический риск и финансовая стабильность: роль зелёных кредитов.....	*527*
Sh.Sultanov, D.Abdumutaliyev Oliy ta’lim muassasalarida “yashil universitet” (green campus) konsepsiyasini raqamli boshqarish tajribasi……...	*529*
Sh.Sultanov, R.Abduraxmon Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini “yashil” logistika orqali optimallashtirish…….	*531*
I.Gofurjanov Katta hajmdagi ma’lumotlar (big data) asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini prognozlash uchun gibrid neyron tarmoqlari arxitekturasini ishlab chiqish……..	*533*
Sh.Sultanov Globallashuv sharoitida sanoat korxonalarining tif boshqaruvida “AI–green–digital” (sun’iy intellekt – yashil – raqamli) uchligini integratsiyalash mexanizmlari……..	*536*
А.Аймуратов Роль цифровых транспортных систем в снижении городских заторов……..	*538*
G.Absalamova, M.Adxamjonova O‘zbek tilidagi matnlarda sentiment tahlil uchun ma’lumotlar to‘plamini	*539*

M.Hamroyeva Raqamli iqtisodiyotda sun’iy intelektning o’rni…….	542
N.Rasulova Integrating artificial intelligence and digital economy principles in developing green tourism models……...	*547*
S.Karimova Barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyot va raqamli transformatsiya jarayonlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini tahlil qilish…….....	*549*
N.Sayidova, U.Barnoyeva Sun’iy intellekt texnologiyalarining raqamli va yashil iqtisodiyot rivojlanishidagi strategik ahamiyati……...	555
M.Erxanova, A.Yoqubov Integrating modern technologies into procurement education……	*557*
S.Xolikov Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali iqtisodiyot samaradorligini oshirish yo‘llari……..	*560*
S.To‘xtayev Sun’iy intellekt: tasnifi, imkoniyatlari va qo‘llanilish sohalari…….....	*563*
R.Kalandarov, S.Mirzayeva The role of artificial intelligence in shaping a green and digital economy: challenges and opportunities….....	*566*
Z.Ulashova Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish yo’nalishlari.....	*568*
M.Jumaniyozova Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida onlayn bank xizmatlari samaradorligini oshirish.....	573
Tursunov O.P Raqamli transformatsiya jarayonida inflyatsiya, bandlik va iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash masalalari	576
Xolmatov A. A. O‘zbekiston banklari faoliyatida likvidlik va rentabellik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholash hamda optimallashtirish yo‘llari	581
Valiyev D.B. Bank xizmatlari iste’molchilarining huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish ……	585
Qarshiyev N.O. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun kontrtsiklik fiskal javob qoidasini ishlab chiqish	589

Султанов Д.Ш. Ер қаъридан фойдаланишни солиққа тортишда роялти ва махсус рента солиғининг уйғунлиги.....	592
Qarshiyev N.O. Davlat xarajatlarining iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligini sikl fazalari kesimida ekonometrik baholash	596
Qo‘ldoshev I.Sh. Jahon savdosining geoiqtisodiy fragmentatsiyasi va o‘zbekiston tashqi savdosini diversifikatsiya qilish yo‘nalishlari	600

“IQTISODIYOT NAZARIYASIDAGI G‘OYALAR EVOLYUTSIYASI: ILMIY QARASHLAR VA USTUVOR TAMOYILLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO‘PLAMI

2- qism

2026-yil 7-may
Toshkent-“Iqtisod-moliya” nashriyoti, TDIU-2026

Muharrir: M.Ikromov
Badiiy muharrir: K.Boyxo‘jayev
Kompyuter sahifalovchi: K.Boyxo‘jayev

№ 9665-5762-53ec-e93a-9961-0626-4468

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026. Bichimi 60x84 1/16.
Shartli bosma tabog‘i 19,0. Nashr bosma tabog‘I 19,75.
Adadi 100. Buyurtma № 51

Bosmaxona guvohnomasi № 10-0635
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rizografiya usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy.